


Таълим тизимида узлуксиз касбий
ривожланиш жараёнининг ижтимоий ва

ПЕДАГОГИК- ПСИХОЛОГИК

асослари



ЁШЛАРГА ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ МАРКАЗИ

ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ

ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ХОДИМЛАРИНИ
ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА УЛАРНИНГ МАЛАКАСИНИ
ОШИРИШ ҲУДУДИЙ МАРКАЗИ

**«ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА УЗЛУКСИЗ КАСБИЙ
РИВОЖЛАНИШ ЖАРАЁНИНИНГ ИЖТИМОЙ ВА
ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ»**

МАВЗУСИДАГИ ХАЛҚАРО
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ

Мақолалар тўплами
6-ҚИСМ
(тўлдирилган нашр)

Тошкент-2022

Таълим тизимида узлуксиз касбий ривожланиш жараёнининг ижтимоий ва педагогик-психологик асослари / Мақолалар тўплами. – Тошкент, 2022. – 539 бет.

Мазкур тўпلام “Таълим тизимида узлуксиз касбий ривожланиш жараёнининг ижтимоий ва педагогик-психологик асослари” мавзусига бағишлаб ўтказилган Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари асосида тайёрланган. Ушбу тўпلامда психология ва педагогиканинг назарий, методологик ҳамда умумпсихологик масалалари, ижтимоий-маънавий ўзгаришлар, ёшларнинг ижтимоий-психологик муаммолари, унинг сабаб ва ечимлари, ёшларнинг хулқ-атвори ва дунёқарашида кузатилаётган ўзгаришлар, ижтимоий-психологик таъсирлар, ижтимоий-психологик муаммоларнинг ёшлар руҳиятида намоён бўлиш хусусиятларини илмий тадқиқ этиш бўйича олиб борилаётган изланишларнинг долзарб йўналишлари, бу борада йиғилган маълумотлар ва улардан амалиётда фойдаланиш имкониятлари юзасидан амалий билимлар тақдим этилади.

Мақолалар тўплами соҳа мутахассислари, маънавий-маърифий ишларни ташкил этишга масъул ходимлар, педагоглар, амалиётчи психологлар, психология таълим йўналиши талабалари, тадқиқотчилар, бошқа турдош йўналишлар вакилларига мўлжалланган. Мазкур тўпلام жамият илмий-маърифий ҳаётини янада такомиллаштиришга, соҳадаги тадқиқотларни жадаллаштиришга хизмат қилади.

ТАШКИЛОТЧИЛАР:

Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш маркази

Ўзбекистон халқаро ислом академияси

Тошкент вилояти халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази

ТАХРИР КЕНГАШИ А ЁЗОЛАРИ:

ЗЕБО КАСИМОВА - пед. фанлари номзоди, профессор, ЎзХИА кафедра мудири

МУҲАББАТ МУСАЕВА - пед. фанлари номзоди, доцент, ТВХТХҚТМОҲМ кафедра мудири

АБДИМУМИН РАСУЛОВ - психология фанлари доктори, доцент

МИРМУҲСИН АКРАМОВ - психология фанлари бўйича PhD, доцент в.б.

ДОНО КАЛАНДАРОВА - фалсафа фанлари бўйича PhD

АЗАМАТ НАЗАРОВ - катта ўқитувчи

ЭРДАВЛАТ ЖУМАНОВ - ТВХТХҚТМОҲМ катта ўқитувчиси

АЗИЗЖОН УМИДОВ - етакчи мутахассис

САРВАР ҚАХХОРОВ - таянч докторант, психолог

МАЪРУФ КУБАЕВ - стажёр тадқиқотчи, психолог

«Таълим тизимида узлуксиз касбий ривожланиш жараёнининг ижтимоий ва педагогик-психологик асослари» мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференциясини ўтказиш Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш маркази Илмий-психологик Кенгашининг 2022 йил 13 апрелдаги 01-04/03 сонли мажлис баёни билан мақулланган.

Тўпلامда келтирилган маълумотларнинг ҳолислиги ва ишончилигига мақола муаллифлари масъулдирлар.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BILIMLAR TIZIMINI O'ZLASHTIRISH BOSQICHI

Usmonova Iroda Maxamatjonovna
Farg'ona viloyati Rishton tumani 42-maktab psixologi

Boshlang'ich sinf o'quvchilari 6-10 yoshli bo'lgan (I-IV) sinf o'quvchilari kiradi. Bola maktab ta'limiga bog'chada tarbiyalanayotganda tayyorlanadi. Bolalarr bilan tanishadi. Bunda u maktabda o'quvchilarga qo'yiladigan har xil talabalar bilan tanishadi. Fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlar tizimini o'zlashtirish bosqichi ularning yosh xususiyatlariga bog'liqdir. Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari o'quv faoliyatlarini buyumlarning jozibador tashqi belgilariga tayanib tashkil qiladilar. Quyosh, momaqaldiroq, sigir, avtomobil, qush va hokazolar tog'risida fikr yurtishga “quyosh isitadi” yoritadi “momaqaldiroq guldiraydi” “sigir sut beradi”, “avtomobil yuk tashiydi”, “qush sayraydi” kabi hukmlar chiqaradilar, shuning uchun agar o'rganilayogan materiallarning muhim belgi va alomatlarini bevosita aniqlash zarurati tug'lsa darrov ko'rinadigan misolga murojat qiladilar.

O'quvchilari uchinchi sinfga o'tganidan so'ng, umumlashtirishda moddiy dunyodagi voqelikning eng muhim munosabat va bog'lanishlarini aks etuvchi ichki belgilariga tayanadilar. Jumladan suv, havo metall va boshqa narsalarning issiqdan kengayishini umumiy muhim alomatiga asoslanib umumlashtira oladilar. Bundan tashqari o'simliklar dunyosi ularning rivojlanishi, ko'payishi, changlanishi kabi belgilarga tayanib “jonli tabiat” iborasini ataydilar. Bolalarning mulohazalaridan “paxta dalada” o'sadi, uni paxtakorlar yetishtiradilar zavodda tozalanadi so'ng fabrikada to'qiladi. Kiyim-kechak tayyorlanadi (2-sinf o'quvchisi), “Bodom daraxti issiq iqlimli” o'lkalarga osadi (1-sinf o'quvchisi), “tulki yovvoyi yirtqich hayvon u o'rmonda yashaydi. Jonivorlarni tutib yeb tirikchilik qiladi. Mo'ynasi qimmatbaho shuning uchun ovchilar uni ovlaydilar. Unig mo'ynasidan palto yoqalar telpak , po'stin tikiladi. (3-sinf o'quvchisi).

Bolalarning mulohazalaridan ko'rinib turibdiki, ularda muhim belgilar miqdori yetarli darajada emas. Ular o'simliklarni tariflaganlarda faqat daraxtlarning qaysi turga mansubligi qayerlarda o'sishi inson va hayvonlar uchun qanchalik foydalangani ta'kidlaydilar. Hayvonlar to'g'risida mulohaza yuritganlarda ham birmuncha kamchiliklarga yo'l qo'yadilar. Masalan birlamchi xususiyatlar va hossalarga e'tibor bermaydilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilar ta'lim jarayonida anchagina ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishda oldingi darslarda o'zlashtirilgan turli alomatlar, belgilar chalkashtirib ham yuboradilar. Chunki ularda tushunchalar tarkibiga kiradigan narsa va hodisalar bilan ularning belgilari o'rtasida bog'lanish tarkib topmagan bo'ladi. Ko'p tushunchalarni chunonchi baland – past, uzoq - yaqin, kam-ko'p va hokazolarni avval voqealidagi narsa va hodisalar o'rtasidagi fazoviy munosabatlarni bevosita idrok qilish asosida o'zlashtiradilar. Keyinroq esa, umumlashtirish jarayoni son tushunchasida ifodalangan bilimning miqdori munosabatiga asoslana boshlaydi. Shu sababdan ularga fazoviy munosabatlar haqidagi tushunchalarni o'zlashtirish juda qiyindir. Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari uzunlik o'lchovi birliklarini o'zlashtirishda ham qiynaladilar, chunki ular uzunlik o'lchovining asosiy belgisi – uning uzunligini ajratishni bilmaydilar. Ko'p hollarda bolalar “metr”, “kilometr” tushunchalarini buyumning shakli bilan tasavvur etishga harakat qiladilar. Uchinchi sinfga o'tganlaridan keyin murakkab fazoviy munosabatlarni egallashga kuchlari yetadi. Chunki ta'lim jarayonida ularning fazo tog'risidagi tasavvurlari, tushunchalari kun sayin plan, mashstab, yer shari va qator shartli belgilar haqidagi bilimlar bilan boyib boradi. O'quvchilarning bilim, doirasi kengaygani sayin ular qat'iy hukmdordan taxminiy hukmdorlarga ko'cha boshlaydilar. Ya'ni narsa va hodisalarning turli xususiyatlarga egaligini, voqealik atigi bir harakatdan, bir sababdan emas, balki ko'p sabablardan paydo bo'lishligini aniqlash boshqichiga ko'tariladilar. Taxminiy hukmlar ikkinchi sinfdan boshlab, namoyon bo'ladi. O'quvchilar “Nega bugun falonchi darsga ko'rinmaydi, balki kasal bo'lib qolgandir”, “uxlab qolgandir”, “dars tayyorlamay uyaganidan kelmagandir”, deb gumonsirab taxminiy mulohazalar yurita boshlaydilar.

Uchinchi sinfdan boshlab turli vaziyatlarni holatlarni aniq dalillar bilan isbotlab berishga o'tadilar. Buning sababi bolalarning bilimi kundan-kunga osha borishi ma'lum

tuzim hosil qilishdir. Ular bu paytda o'z hukmining chin yoki chin emasligining aniqlab yetadilar. Bevosita muhokama qilish dalil keltirish isbotlashnin shartlariga asoslanib fikr yurtiish jarayoniga o'ta boshlaydilar. Bolalar narsa va hodisalarning paydo bo'lishi sabablarini aniqlashda muammo, masala va savollar qo'yishdan tashqari ularni hal qilishga, yechishga ham odatlanadilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchialrida induktiv va deiduktik xulosa chiqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Xulosa chiqarish avval bevosita idrok qilinayotgan narsalar asosida vujudga keladi. U bevosita kuzatish, idrok idrok qilish jarayonida narsa va hodisalarning munosabarni bog'lanishini aks ettiradigan xulosa chiqarish bo'lib bolaning tafakkuriga tayanib xulosa chiqariladi. Keyinchalik mavhum shart-sharoitlardan vujudga keladigan xulosa chiqarish turi paydo bo'ladi.

Bolalarning bilimlar tizimini o'zlashtirishga tushunchalarni qonuniyatarini noma'lum belgisiga binoan o'rganishlari tez-tez uchrab turadi va bu xol o'quv materiallarini o'zlashtirishi qiyinlashtiradi. Shuning uchung o'quvchilarga tushunchani to'g'ri umumlashtirish usullarini o'rgatish lozim. Boshlan'ich sinf o'quvchilarning umumlashtirish faoliyatini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan tadqiqotlardan o'zlari mustaqil ravishda narsalarni muhim belgilalriga asosan umumlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ularda mahalliy tushunchalar atamalar, tushunchalar miqdori keskin kamayadi. Ularning mavhumlashtirish va umumlashtirish faoliyati to'rtinchi sinfgacha asta - sekin murakkablashib miqdori vasifasi jihatdan o'zgarib boradi.

Shunday qilib, maxsus tashkil etilgan mavxumlashtirish va umumlashtirish usullarini o'rgatish bolalar tafakkurining rivojlanishi maktab yoshidagi o'quvchilarning tafakkuri, mantiqiy fikrlash ,mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash, tahlil qilishning turli usullrini qo'llashdek o'ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalardan va o'smirlar tafakkuridan keskin farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Voxidov M. "Bolalar psixologiyasi" T.: O`qituvchi. 1982 y.
2. Jo'raev S. , F.Qodirov "Kichkintoylar nutqini o'stirish" T.: 2005 y.
3. Ivanov P.I. M.Zufarova "Umumiy psixologiya" T.: 2008 y

4. Nishonova Z. Alimova G. “Bolalar psixologiyasi va uni o`qitish metodikasi” T.: 2006 y.
5. Muminova, Sobirova va boshqalar.«Bolalar bogchasida ta'lim-tarbiya dasturlari»
6. G'oziev E. Umumiy psixologiya T.: 2010 y.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDAGI BILISH JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISHI

*G'oziyeva Mahmuda Maxamadjonovna
Farg'ona viloyati Bag'dod tuman 13-maktab psixologi*

Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish va barkamol insonni shakllantirish, ertangi taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Hayotga ziyrak ko'z bilan qaraydigan, teran fikrlovchi, mustaqil dunyoqarashga ega iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biridir. Shuning uchun biz boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlovchi aqliy jihatdan kamol toptirish lozimligini o`rganishga ahamiyat qaratdik. Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarning aniqligi, rovonligi, sofligi, o'tkirligi bilan boshqa yosh davridagi insonlardan keskin farqlanadi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Buning sababini ularning oiliy nerv faoliyatida birinchi signal sistemasi ustunligi bilan izohlash mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchisi har qanday obyekt, subyekt va voqealikdagi yangilikni yaqqol idrok qilishga intiladi. Uni atrof muhitning sirli olamini sexrli jozibasi o'ziga tortadi. Lekin ta'limning dastlabki boshqichida idrokning ayrim zaif tomonlari ko'zga tashlanadi. Boshlang'ich sinfidagi o'quvchilar idrokining salbiy hususiyati obyektlarni bir- biridan farqlashda ular ko'pincha o'rganiladigan materialni noaniq, hatto, noto'g'ri idrok qiladilar buning oqibatida aynan o'xshash harflar, so'zlar, narsalar tasviri , shakli, fazoviy joylashuvning farqini to'la tasavvur qila olmaydilar. Masalan “g” bilan “k” harflarni “o'qish” bilan “uqish” so'zlarini

aylana bilan “to’g’ri chiziq” alomatlarini bir-biridan farqlamaydilar. Ba’zan esa ular kattalarning idrok ko’lami qamrab olmaydigan narsalarni payqamaydilar.

Bolalarda tartibli maqsadga muvofiq serqirra tahlil qilish faoliyati uchun ular ta’lim jarayonida ko’pincha xatoga yo’l qo’yadilar. Odatda zarur va muhim alomatlar bir yoqda qolib, tasodifiy belgilarga e’tibor beradilar.

Mazkur yoshdagi o’quvchining idroki o’zining xatti – harakati, o’yin va mehnat faoliyati bilan bevosita bog’liqdir. Qandaydir narsani idrok etish o’sha narsa bilan mashg’ul bo’lishini anglatib keladi. O’quvchi o’zining ehtiyoji, mayli, qiziqishi, intilishi va turmush faoliyatiga mos, shuningdek, o’qituvchi tavsiya etgan savollar tug’iladi. Bolalarning vaqtni idrok qilishi ham tor ma’nodagi tushunchalardan iborat bo’ladi va ular asr eramizdan avvalgi davr kabi atamalarni nimaligini tushunmaydilar.

Harakat deganda bola ko’pincha jismoniy mexanik harakatini nazarda tutadi, lekin uning biologic, ijtimoiy, kimyoviy harakatlarni bilishi to’g’risida gap ham bo’lishi mumkin emas. Bola hatto samolyot, qush, reketa va o’qning tezligini ham noto’g’ri idrok qiladi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarida diqqatni irodaviy zo’r berish bilan boshqarish va favqulotda moslash imkoniyati yaxshi bo’lmaydi. Buning asosiy sababi ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Shu bilan birga boshlang’ich sinf bolalarning ixtiyorli ongli diqqati o’qish motivlari bilan uzviy bog’liq holda namoyon bo’ladi. Odatda ularning o’qish motivlarning uzoqni ko’zlagan va maqsad bilan bog’liq motivlarga ajratiladi. Yuqori motivlari uzoqni ko’zlagan motivlarga kirsa, boshlang’ich sinf o’quvchilarining motivlari voqelikka va realikka bog’liq motivlardir.

Tajribadan ma’lumki, bolarga ixtiyorsiz diqqat durustgina rivojlangan bo’ladi. Chunki ta’lim jarayonida ixtiyorsiz diqqatining o’sishi uchun muhim shart-sharoitlar mavjuddir. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining yaqqolliqi, yorqinliqi va jozibadorliqi o’quvchida beixtiyor his-tuyg’ular uyg’ota oladi. Irodaviy zo’riqishsiz osongina fan asoslarini egallash imkonini yaratadi. O’quvchilarining turli-tumanliqi ixtiyorsiz diqqatining to’planishi markazlashuvi va barqarorligiga ijobiy ta’sir etadi. Boshlang’ich sinf bolalarni o’qitishga ko’rsatmalilikdan keng foydalaniladi. Bu tadbir birinchidan bolalar faolligini oshirsa, ikkinchidan materialni mantiqiy jihatdan o’zlashtirishga uni tahlil etish mavhumlashtirish va umumlashtirishga to’squinlik qiladi.

Ularga ko'rsatmalilikka asoslangan dinamik stereotip paydo bo'lishi ham mumkin. Sun'iy to'siqlar halol beruvchi alomatlardan qutilish uchun yaqqol va mavhum materiallardan aralash holda foydalanish yaxshi natija beradi. Bolaning ko'rsatmalilikka berilib ketishi uni asosiy maqsaddan uzoqlashtiradi. Bola tashqi belgilarga e'tibor berishga odatlanib, ichki muhim belgilardan chetlasha boradi.

Ma'lumki ixtiyorsiz diqqat ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqish bilan bevosita bog'lanib ketsa, tabiiyki ular faqat maroqli quvonchli axborot va matnlar bilan tanishishga intiladigan bo'lib qoladilar. Natijada o'ta nozik, ya'ni tashqi qo'zg'atuvchilar ta'siriga beriluvchi diqqat ularning psixikasida mustahkamlanadi. Odatlanish murakkab o'quv materiallarini egallashda qiyinchiliklar tug'diradi.

Ixtiyoriy eslab qolish va ixtiyoriy esga tushirishning mahsuldorligi ko'p jihatdan o'quvchilar aqliy faolligining darajasiga bog'liq. Aqliy faoliyat darajasi ularning eslab qolishni tashkil qilish va boshqarish usullarini egallashiga uzviy aloqadordir. Matematik xotira usullarga ta'rif yoki qoidani so'zma-so'z eslab qo'lish birlamchi va ikkilamchi qismlarga ajratish raqamlarni bir joyda to'plash, eng zarur tushunchalarga alohida e'tibor qiladi. Eslab qolish, esda saqlash, esga tushirishning samaradorligi maqsadni aniqlash va unga intilish negizida vujudga keladi. Xotiraning samaradorligi o'qish motivlariga bevosita bog'liqdir. Umuman kattalarning, xususan o'qituvchining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda materiallarni eslab qolish uchun muayyan intilishni tarkib topishi, ularga eslab qolishning usullarini fikr yuritish jarayonlari taqqoslash, tahlil qilishni o'rgatishdan iboratdir. Xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun ta'lim jarayonida o'zini - o'zi nazorat qilish, materialni takrorlashda tekshirish, esga tushirish, mashq qilishdan unumli foydalanish zarur. Agar kichik maktab yoshda o'quvchilarga eslab qolish va eslash usullari o'rgatilmasa ular materiallarni bevosita takrorlashdagi uzoq vaqt to'xtalib qoladilar. Materiallarni eslab qo'lish esda, saqlash, esga tushirish va eslash usullarini o'rgatish mantiqiy xotira o'sishining garovidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hayoli o'z o'quv faoliyatining ta'siri, talabi, imkoniyat va shart -sharoitlari orqali tarkib topadi. Bolaning hayoli tevarak-atrof taassurotlari, dunyo ajoyibotlari, ko'rsatmalilik, tasviriy san'at asarlarini yetarli darajada aks ettirish bilan vujudga keladi. Obrazlar, sur'atlar chizmalar shartli belgilar, noma'lum

narsalarning alomatlari, tabiat manzaralari, fazoviy tasavvurlar jamlanib o'quvchilarning hayoli paydo bo'ladi. Tanish obrazlar yaratish bilan uzviy bog'liq bo'lgan tiklovchi hayol bolaning ruhiy dunyodagi alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida bolalarning yorqin, aniq, tiniq yaqqol, tasavvur obrazlar, hayol yordamida muayyan voqealikka aylanadi. O'rganilayotgan fan materiallar eshitilgan obrazlar tartibga solinadi, yaxlit obrazlar tizimi yaratiladi.

Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilar hayolining xususiyatlaridan yana biri hayotiy voqealik bilan hayotning o'zaro aralashib ketishidir. Ma'lumki o'quvchi yaqqol voqealik yoki hodisasi o'zi yaratgan qo'shimcha obrazlar, tafsilotlar bilan boyitib boshqalarning diqqat – e'tboriga uzatadi. Bu uning yo'lg'onchiligi emas, balki hayolning xususiyatidir. Ayrim bolalar haqorat bilan hayolning aralash holatiga chindan ham ishonadilar, unda soddalik bilan ishonuvchanlik uzviy bog'lanib ketgan bo'ladi. Ba'zi hollarda mazkur yoshdagi o'quvchi boshqalarning diqqatini o'z axborotiga qo'shish madsadida ham unumli foydalanadi. Bunday holat birinchidan bola o'zining sinfdagi o'rtoqlari orasida yoki oilada allaqanday kamsitilganda, ikkinchidan kattalar ko'z o'ngida o'zini uddaburon qilib ko'rsatish istagi tug'ilganda, uchinchidan haqiqiy ijodiy obrazlar yaratish jarayonida namoyon bo'lishi mumkin.

Biroq o'quvchilar hayolparastlikka berilishning oldini olishga pedagoglar umuman kattalar doimo ahamiyat berishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Voxidov M. "Bolalar psixologiyasi" T.: O'qituvchi. 1982 y.
2. Jo'raev S., F.Qodirov "Kichkintoylar nutqini o'stirish" T.: 2005 y.
3. Ivanov P.I. M.Zufarova "Umumiy psixologiya" T.: 2008 y
4. Nishonova Z. Alimova G. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" T.: 2006 y.
5. Muminova, Sobirova va boshqalar.«Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturlari»
6. G'oziev E. Umumiy psixologiya T.: 2010 y.

O'SMIRLARDAGI INQIROZ XOLATLARI SABAB VA OQIBATLARI

Madiyorova Santalat Sodiqovna
Farg'ona viloyati Bag'dod tumani 42-maktabi psixologi

Inqirozli holatlar quyidagi qarama qarshiliklarni keltirib chiqishi asosida o'smirlarda deviant xulq ko'rinishlarini paydo bo'lishiga olib keladi:

- “Men” obrazidagi qarama qarshiliklar “O'smir tomonidan o'ziga ishonch Hissini yo'qotilishi”, “O'zini topa olish” hissini hali shakllanib ulgurmaganligi natijasida kelib chiqadi. Natijada hayot mazmuni va maqsadini yo'qotish hissi shakllanadi;
- Inqirozli vaziyatda ichki shaxslilik qarama - qarshiliklari o'smirda o'zini va nizoli vaziyatni bira to'la yengib o'tish undagi shaxslilik jabhasidagi o'zgarishlarga sabab bo'ladi;

O'smirda inqirozli vaziyat undagi ichki dunyoning o'zgarishlariga olib keladi, undagi “Men” tizimining buzilishi, o'z - o'zini anglash, o'z - o'ziga baho berish, chorasizlik, axloqiy muvozanatsizlik, xushomadgo'ylik xususiyatlari kuzatiladi. Bu o'zgarishlar o'smirdagi shakllangan hayot sharoiti tarzida endi yashash imkoniyati yo'qligi, shakllangan “Men”ni saqlab qolishga intilishda aks etgan o'tish vaziyatda o'z – o'zini yo'qotib qo'yish, shakllangan deviant xulq ko'rinishlari o'smirning o'ziga xos kompensatorlik mexanizmlari sifatida yuzaga keladi. Bu holat o'smir kechinmalarini xarakteriga bog'liq bo'lib, konstruktiv bo'lmagan kechinmalar ta'sirida shakllangan o'smirning “men”i bir tomondan kompensator – himoya mexanizmi sifatida inqirozli vaziyatdan chiqib ketish vazifasini o'tasa, ikkinchi tomondan, o'smirning ijtimoiy adaptatsiyasiga halaqit beradi. Bu esa o'smir oldida turgan vazifalarni hal etishga to'sqinlik qiladi, o'smirda o'zini, yuzaga kelgan vaziyatni yaxshi tomonga o'zgarishi mumkin emasligi haqida turg'un fikr paydo bo'ladi. “O'z - o'zini” yo'qotish paydo bo'lishi bilan o'smirlar ichki dunyosini qayta qurish, ichki shaxslilik, qarama - qarshiliklarini hal etish yo'llarini izlash boshlanadi, yangi “Men” shakllanishi uchun zamin izlanadi:

Korresion tadbirlar o'tkazilishi natijasida o'smir shaxsida quyidagi ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi;

- O'smir shaxsi rivojlanishigi imkon beruchi "o'zini topa olish" hissini shakllanishi "Tiklanish" jarayoniga o'tish;
- Tezkor adaptatsiya, o'smir shaxsi uchun eng maqbul, boshqalarning tajribasida sinovdan o'tgan yo'lni tanlashga yordam berish;
- O'smir shaxsi tizimini qayta qurish, undagi yuzaga kelgan vaziyatni hal qila olmaslik hissi yuzaga kelgan "men"ni yangidan qurish. Vaziyatni yangicha baholash, hal etilishining yangi imkoniyatlarini topish asosida qayta qurish;
- Qarama – qarshiliklarni hal etishning yangi konstruktiv usullarini topishda o'smir shaxsining ichki imkoniyatlarini faollashtirish;
- Yangi "Men" individual ijodiy obrazini yaratish.

Inqirozli kechinmalarni o'smir tomonidan boshdan kechirilishi natijasida, hayot mazmuni va maqsadini qayta anglash va qayta qurish, o'z o'tmishini yangicha baholash, yetakchi motivlarning bartarf etilishi, yoki o'zgarishida namoyon bo'ladi.

Turli toifadagi shikastlanish vaziyatlari o'smirlar uchun ahamiyatlilik darajasiga ko'ra turlicha ta'sir ko'rsatadi. Bunda o'smir shaxsida shakllangan turg'un, ahamiyatli xususiyatlar buzilishlariga olib keluvchi omillar shakllanganda himoya mexanizmlari ishga tushadi.

Kuchli, shikastlantiruvchi omillarni his etgan o'smir ularni takrorlanishidan xavotirlanadi, salbiy emotsional kechinmalarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Natijada o'smir o'z - o'zini idora eta olmaydi, turli xatolarga yo'l qo'yadi. Ularda xotira, diqqat koordinatsiyasining buzilishi o'qishdagi o'zlashtirish darajasiga pasayib ketishiga sabab bo'ladi. Emotsional zo'riqishlar o'smirlarda psixosomatik buzilishlar negizida kelib chiquvchi jismoniy sog'lomlik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Uzoq davom etgan stressli vaziyatlar o'smirlarda o'zini tinchlantirishning sun'iy yo'llarini izlab topish ehtiyojini kelib chiqishi natijasi sifatida erta chekish, turli toksik moddalar, alkogol va narkotik moddalarni iste'mol qilishni boshlaydilar. Shikastlantiruvchi vaziyat ta'sirida o'smirda o'tmish, hozir, kelajakni to'g'ri idrok eta olmaydilar, natijada o'smir o'zini shikastlantiruvchi vaziyatdan oldingi qanday holatda bo'lsa shunday holatda idrok etadi. Masalan, shikastlantiruvchi vaziyat 14 yoshda yuzaga

kelgan bo'lsa, o'smir o'zini uzoq vaqt mobaynida aynan o'sha yosh yuzasidan idrok qiladi.

O'smirning shikastlantiruvchi vaziyatlar natijasida shakllanuvchi emotsional kechinmalari uning vaziyatni hal etish usullari haqidagi illyuziyalarini buzilishlariga olib keladi. O'smir o'zidagi imkoniyatlarni yetarlicha baholay olmaydi. Maktabda yaxshi o'qish o'mirga himoyalanganlik hissini bermasa, bu o'smirning erishgan natijalariga atorfdagilar befarq bo'lsalar, maktabdagi o'qish jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlari o'smir uchun quvonch baxsh etmaydi. Bu holda o'smir hayoliy illyuziya olamidan, real, haqiqiy olam qiyinchiliklarini yengish uchun o'ziga ishonch shakllanlanganlik asosida oldida turgan to'siqlarni yengishga, ya'ni yosh nuqtai nazaridan kattayishiga olib keladi. Agar hayolot, illyuziya dunyosidan chiqib keta olmasa, u holda o'smir ruhiyatida yangi illyuziyalar paydo bo'ladi va o'smir o'z yana hayolot dunyosida yashashni davom ettiradi

Inqirozli vaziyatni davomlilikgi shikastlantiruvchi vaziyat ahamiyatlilik darajasi, o'smining ushbu vaziyatga nisbatan individual reaksiyasi, yosh davri xususiyatlari, o'smirni o'rab turgan ijtimoiy muhit xususiyatlariga bog'liq. Shikastlantiruvchi stressli vaziyatlar inqirozli vaziyatlarga nisbatan javob reaksiyasi sifatida yuzaga keladi.

Ushbu reaksiyalar oqibati sifatida shakllanadigan turli buzilishlar shartli tarzda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- Shikastlantiruvchi voqeani fikrlarda, tushida, xotirasida takrorlanishi;
- O'z emotsiyalarini namoyon qilmasligi, turli faoliyat jarayonlarida faolligini pasayishi, boshqalardan begonalashuvda;
- Psixosomatik buzilishlar belgilarining paydo bo'lishi va kuchayishida (uyquning buzilishi, xotira va diqqat koordinatsiyasining buzilishi)
- O'smir atrofidagilarning diqqat - e'tibori, mehridan chetda qolganini his etishi, alkogol va narkotik moddalarni iste'mol qilishiga olib kelishi mumkin. Bunda ular ruxiy og'riqni to'sib qo'yuvchi vosita sifatida foydalanadilar. Aokogol moddalarni istemoli natijasida turli bosqichdagi depressiya holatlari paydo bo'lishi mumkin. Buning ko'rinarli belgisi sifatida shuni ta'kidlash joizki, o'smir o'zini hamma narsada aybdor sanaydi, bu bilan depressiv holat chuqurlashadi, alkogol moddalarni iste'mol qilishga mukkasidan ketadi. Ya'ni alkogol istemol qilish depressiyaga, depressiya alkogolni iste'mol qilishga olib

keladi. Natijada o'smir bilan yaqin do'stlar undan yuz o'giradilar. Ya'ni, oilaviy munosabatlar buziladi, ta'lim jarayonida turli ziddiyatlar paydo bo'ladi. O'smirning atrofdagilardan begonalashuvi chuqurlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziev E. E. «Umumiy psixologiya» I—II tom. Toshkent-2002y.
2. Petrovskiy I. V. «Umumiy psixologiya» «O'qituvchi», 1992y.
3. G'oziev E.G. Mamatov M.M. va boshqalar “O'spirin psixologiyasi” Tosh D.U 1992
4. 13Goziev E.G. O'tanov B “Hamkorlik psixologiyasi” T., Tosh D.U. 1992
5. 14Goziev E.G. Oliy maktab psixologiyasi. ToshDU 1996 y.

СТРЕССДАН ҚУТУЛИШ УСУЛЛАРИ

*Азизова Манзура Маҳмудовна
Чуст туман 66-мактаб психологи*

Кундалик турмушимиз турли воқеликларга бой. Ҳар қандай ҳодиса, муҳит ўзгариши организмга ўз таъсирини кўрсатади ва шу билан бирга инсон танаси унга жавоб беради. Организмнинг ташқи таъсирларга жавоби таъсирнинг тури, ҳажмидан келиб чиқади. Инсон танасининг ташқи таъсирларга жавоб реакцияси психологлар томонидан кўпдан бери ўрганиб келинмоқда. Айниқса, психология фани ривож топган хориж мамлакатларида мазкур масала кенг ўрганилган. Айни кунда Ўзбекистонда ҳам психология ва инсон саломатлиги билан боғлиқ фанларнинг ривожига катта эътибор қаратиб келиняпти. Биринчи навбатда болалар саломатлиги, ўсиб келаётган авлоднинг ҳам маънавий, ҳам жисмонан баркамол бўлиб етишишига давлат сиёсати даражасида аҳамият берилиши соҳа ривожига катта рағбат сифатида баҳоланиши лозим.

Организм муҳит, шароит ўзгариши ва бошқа турли кўринишдаги ташқи таъсирларга қандай жавоб беради? Одам танасида ана шундай вазиятларда юзага

келадиган ҳолатларга қисқача стресс ҳолати дея баҳо бериш мумкин.

Мамлакатимизда соғлом авлод тарбиясига катта эътибор берилади. Ёш авлоднинг турли кўринишдаги рухий зўриқишлар, яъни стрессларсиз тарбияланишлари эртанги жамиятимиз равнақиға ижобий ҳисса бўлиши аниқ. Мустақиллик йилларида оналик ва болаликни муҳофаза қилиш, бола саломатлигини сақлаш юзасидан туб ислохотлар амалға оширилди. Бола ривожланишидаги муҳим босқич – мактаб даври катта аҳамиятға эға. Айнан шу даврда бола янги муҳитға, янги шароитға мослашишиға тўғри келади. Яъни, бошланғич синф ўқувчиси ўзи учун янги муҳит – мактаб, синф, синфдошлар даврасига кўникишға мажбур бўлади. Ўз навбатида, мазкур жараён ижобий ёхуд салбий стрессларсиз кечмаслиги мутахассислар томонидан эътироф этилган.

Стресс болаларни ўзини ноодатий тутишға мажбур қилади. Агар бола жуда йиғлоқи бўлиб қолса, бунға стресс сабабчи бўлиши мумкин. Стресс болаларни касалликларға берилувчан қилиб қўяди. Болалар стресси белгилари қуйидагилар: ёмон кайфият, аввалги одатларнинг қайтиши (бармоқларни сўриш, ўринни хўллаб қўйиш), уйқунинг бузилиши, тез-тез тушда кўрқиш, жиззакилик, апатия, оила ва дўстлардан бегоналашиш, ука ва сингилларға айбини ағдариш, тез-тез шамоллаш ва бошқа хасталиклар, бош оғриқлари, қориндаги оғриқ ва ҳазм тизимидаги муаммолар, дарс тайёрлашдаги паришонхотирлик, ошқозон яраси ёки ярали қулунжнинг (колит) ўткирлашуви, боғча ёки мактабға боришдан бош тортиш, бўйин ёки бош соҳасида мушакларнинг зўриқиши, оғиз қуриши, кафтларнинг намлиги, иштаҳанинг меъеридан бузилиши, йиғлоқиликнинг кучайиши, безовталиқ, диққатни жамлай олмаслик, уйқучанликнинг ортиши.

Ҳар бир бола стрессдан турлича таъсирланади. Ота-она генлари тарбиядан кўра кучлироқ таъсир кўрсатади. Бир тарафдан болалар, катталарға нисбатан стрессға берилувчанроқ, кўзғолишға мойилроқ, бошқа томондан улар қувноқроқ ва ўзгаришларни осон қабул қилади.

Болада стресс уйғотиши мумкин бўлган ҳолатлар жуда кўп. Улардан энг асосийларини кўриб чиқамиз: ота-онасининг вафоти, бола ҳаётидаги энг даҳшатли воқеалар, оилавий ажримлар – бола билан психолог ёки психиатр ҳузурига

ташрифларнинг асосий сабабларидан.

Оиладаги моддий етишмовчилик бола ҳаётига кучли таъсир этади: кўчиш, боланинг янги уй-жой, кўшнилари ва ўртоқларига кўникиши қийин кечади.

Мактабни ўзгартириш – ҳар қандай янги мактаб бола учун бегона.

Севимли жониворнинг вафоти. Кўп болалар учун бу дўсти ёки қариндошининг ўлими билан тенг.

Онанинг йўқлиги. Она касалхонага тушиб қолиши, қариндошларининг уйига меҳмонга кетиши, дам олгани бориши мумкин. Кўпинча бола бунинг вақтинчалик эканини тушунмайди, онасини абадий йўқотгандай ҳис қилади.

Ота-онанинг беморлиги, саломатликдаги ва эмоционал муаммолар (депрессия ва ичкиликбозлик сингари) ота-онанинг болага безътибор бўлиб қолишига олиб келади.

Жисмоний жазолаш. Ҳар куни юзлаб болалар жисмоний жазоланади. Бундай болалар кўпинча шубҳаланувчан ва ишончсиз бўлиб улғаяди.

Ота ёки онанинг бегоналар билан учрашуви ёхуд такрорий никоҳ. Ота-она эътиборига бутунча эгаллик қилишга кўниккан болалар энди уни бегоналар билан бўлишишига тўғри келади.

Катталарда стресс қанча юқори бўлса, бола учун уйдаги муҳит шу қадар ноқулай бўлади. Шу боис стресснинг биринчи белгилариданоқ ҳаркат бошлаш ва унинг сабабини йўқотиш керак. Бу турли стресс кўзғотувчи вазиятлар олдини олади ва бола руҳий ноқулайлик сезмайди.

Стрессдан ҳоли бўлиш учун машқлар.

Ҳаётнинг мукамал эмаслигининг ўзи мукамалликдир. Шу мукамалликнинг ўзи ривожланишини таъминлайди.

“Ҳозир портлайман”.

Иш пайти стрессли вазиятга дуч келиб қолсангиз, портлаш ҳақида гап бўлиши мумкин эмас. Аммо ҳиссиётларни ўз ичига ютиш ҳам ярамайди. Аксига олиб ҳамманинг кўзи сизда: стрессни бақариш ва жазава орқали намоён этиш олган тарбиянгизга тўғри келмайди. Одатда стресс пайтида мияга, бу ҳолатга қандай муносабат билдирай, деган ҳаёл келади ана шу фикрни илғаб, ижобий таъсир

билдириш ҳар кимнинг ўзига боғлиқдир. Ҳиссиётни жиловлай оламяпсизми? Бир вароқ қоғоз олиб, уни тасвирланг. Бутун алмингизни қоғоздан олинг. Расм қанчалик хунук чиқса, ичингиздаги алам ҳам шунчалик тез йўқолади. Ёки ичингиздаги ҳиссиётни сўзлар билан ифодаланг. Аммо бу ҳам оғзаки эмас, балки ёзма тарзда бўлсин. Энди қоғозни олиб, бор кучингиз билан ғижимланг. Юзингиздаги ҳисларингиз акс этса яна ҳам яхши. Қоғозни куйдиринг ёки ерга ташлаб, 2-3 марта оёғингиз билан босиб ташлаб юборинг. Қўлингизни қоқиб, чуқур нафас олинг. Бу ҳаракатлар гўё чакмоқ орқасидан келган шифо бахш ёмғир таъсирини бериб, кўнглини тозалайди. Энди руҳий мувозанатни тиклаш учун қўлингизда думалоқ предмет: тўп (копток)ча, каштан меваси ёки тасбеҳ олинг. Чуқур нафас олган ҳолда уларни қўлда тинимсиз айлантинг. Бу ҳаракатлар қўл томирлардаги қон айланишини тезлаштиради, бу эса мияга тоза кислород боришини тaminлайди, натижада асаблар тинчланади.

«Денгиз туби» машқи. Ҳаётимиз бизнинг унга бўлган ички муносабатимизга боғлиқ. Ҳаётни денгиз ёки уммонга қиёслаш мумкин. У баъзан тинч, баъзан ҳиссиётларимизни жунбушга келтирадиган ҳолатда ҳавфли ва тажавускор бўлиши мумкин. Шунга қарамай, денгизнинг туби доимо тинч ва сокин бўлади. Ҳар бир инсоннинг қалбида анашундай сокин жой бўлиши керак. Бу фақат сизнинг худудингиз: унда бошқаларга ўрин йўқ уйда юмшоқ курсига ўтириб, ёки ёнбошлаб, бу худудни хаёлингизда тасаввур қилинг. Кейинчалик ишга боргунча манашу ҳолатда бўлишга ҳаракат қилинг. Аввалига беш дақиқа кейинчалик 10-20 дақиқа боринки, 1 соат давомида шу ҳолатда бўлишга интилинг. Аста-секин сокинлик сизнинг кундалик ҳолатингизга айланиб, ортиқча асабийлашиш ўрнига муаммони босиқлик билан ҳал қилишга киришасиз. Негаки қалбингиз тинч ва сокин бўлади.

«Ёруғ нур» машқи. Фараз қилинг, осудалик бир ёруғ нур, мусаффо суюқлик ёки мовий ранг сифатида ичингизга киради. Бутун танангиз қўл-оёқлардаги бармоқларгача бу рангга лиммо-лим тўлгандай ҳис қилинг. Шунда тезгина тинчланиб кўнглингиз анча таскин топади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. «Домашний доктор» – «Крон-Пресс», Москва, 1994 й.

2. Комер Р. Патопсихология поведения. Нарушения и патологии психики. СПб: Прайм – Евронек; М: ОЛМА – ПРЕСС, 2005.
3. Кон И.С. Психология ранней юности. М.: Просвещение, 1989.

O'SPIRINLIK DAVRIDA STRESS HOLATI VA UNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK JIHLARI

*Haydarova Sayyora Ikromaliyevna
Chust tumani 19-maktab psixologi*

Kundalik hayotning tobora shiddatli tus olayotgani insonga bo'layotgan axborot xurujining ko'pligi, ijtimoiy muammolarning haddan ziyod zidlashuvi natijasida asablarning taranglashishi juda ko'p insonlarni stress holatiga duchor etmoqda. O'z navatiga ko'ra o'spirinlik davri xam udan mustasno emas. Bu kabi muammolar insonlarning yosh davrlar psixologiyasiga ko'ra har xil namoyon bo'ladi. Olimning talqiniga binoan, go'daklik hayvonlarga xos taraqqiyot pallasini qaytarsa, bolalik davri esa qadimgi odamlarning asosiy mashg'uloti bo'lgan ovchilik va baliqchilik davriga aynan mos keladi. 8-12 yosh oralig'ida o'sish davri o'smir oldi yoshidan iborat bolib, toki 12-13 yoshga qadar davom etadi. Bu davr olimlar tili bilan aytganda yovvoyilikning oxiri va sivilizatsiyaning boshlanishidagi kamolot cho'qqisiga hamohangdir. O'spirinlik esa jinsiy yetilishidan (12-13) boshlanib, to yetuklik davri kirib kelgunga qadar (22-25 yoshgacha) davom etib boradi.

Psixologik zo'riqishlar organizmning turli funksional tizimlaridagi o'zgarishlarda namoyon bo'lsa, uning jadalligi yoki kuchi kayfiyatning buzilishidan tortib, oshqozon yarasi yoki yurak infarktigacha olib kelishi mumkin. Hissiy zo'riqishlarning namoyon bo'lishi har bir shaxs uchun turlicha bo'ladi. Kimdadir kayfiyat yoki hayajon bo'lsa, kimdadir stres va tushkunlik ko'rinishida o'tadi. Kun tartibining buzilishi, uyquning qisqarishi, ish vaqtining tungi davrga o'tib qolishi, foydali odatlardan voz kechish, hissiy zo'riqishlarni bartaraf etishning mos keluvchi usullarini topa olmaslikda ko'rinadi.

Ijtimoiy rollarga xos vazifalardagi buzilishlar, yaqinlar va do'stlar bilan munosabatga yetarlicha vaqt yetishmasligi, nizolarning kuchayishi, muloqot davomida sezgirlikning pasayishi, ijtimoiy qoidalarga zid xulq-atvor belgilarining ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, uzoq muddat hissiy zoriqishda bo'lgan o'spirin ijtimoiy me'yor va standartlarga e'tiborsiz bo'lib qoladi. Hatto o'zining tashqi ko'rinishiga ham e'tibor bermasligi mumkin. Bunda muhim ob'ektlar ustida diqqatning to'planishi qiyinlashadi, tez chalg'ish kuzatiladi.

Ongning doimo hissiy zo'riqishni vujudga keltirgan sabablarini tahlil qilish bilan bandligi, undan chiqish yo'llarini axtarish xotira ko'lamini toraytiradi, zarur materialni qayta esga tushirishni qiyinlashtiradi. Aqliy faoliyatning susayishi stressni vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan vaziyatdan chiqish yo'llarini topishni cheklaydi.

Bu salbiy ko'rsatkichlarni bartaraf etish eng katta vazifalardan biridir. Psixologiya fanining markaziy kategoriyasi hisoblanmish shaxs ijtimoiy hayotning barcha sohalarida muayyan funksiyalarni bajarish orqali jamiyatning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. O'spirinlik davrida psixologik muammolarni bartaraf etish hamda tarbiyalash masalalari hozirgi davrning eng dolzarb muammosiga aylangan. Bugungi kunda kelajak avlodga ta'sir qilayotgan hamda uning kechinmalarini o'zgartiradigan ichki va tashqi omillarni ko'z oldimizga keltirish juda qiyin. Shunday qilib stress o'zi nima?

Stress – inglizcha (stress) so'zidan olingan bo'lib, asabiylik, keskinlik degan ma'nolarni anglatadi. Asabiylik turli jismoniy va aqliy ishlar xaddan oshib ketishi, xavfli vaziyat tug'ilgan paytlarda, zarur choralarni zudlik bilan topishga majbur bo'lganda vujudga keladigan ruhiy holatdir. Stressning psixologik ta'rifiga kora affektiv holatga yaqin turadi. Stress kishining o'ta faol yoki o'ta sust harakatida ifodalanadi. Hissiy zo'riqish holatida individning hatti-harakati kishi nerv tizimining tipiga, nerv jarayonlarining kuchliligi yoki o'zligiga jiddiy ravishda bog'liqdir. (Masalan, imtihon oldidagi holat). His-tuyg'ularning hissiyot (emotsiyalar), kayfiyatlar, kuchli hayajonlanish tarzida boshdan kechirilishi chog'ida ma'lum darajada seziladigan tashqi belgilariga ham ega bo'ladi. Yuzning ifodali harakatlari (mimika), qo'l va gavdaning ma'noli harakatlari, kabilar shular jumlasiga kiradi. Kishi o'zining qahr-g'azabini tevarak

atrofdagilarga qo'llarini musht qilishi, ko'zlarini chimirib qarash, do'q – po'pisali ohang bilan namoyish qiladi.

Stressning sodir bo'lishiga asosan ikki yo'nalishdagi omillar sabab bo'ladi:

Ish faoliyatidan qoniqmaslik stressga sabab bo'luvchi eng muhim omillardan hisoblanadi. O'spirin undan nima kutilayotganligini, bu ishni qanday qilish kerakligi va bu ish qanday baholanishini bilsagina xotirjam ishlaydi. Ish qobiliyati va omadsizlik inson salomatligiga qattiq ta'sir ko'rsatadi. Haddan tashqari ko'p ish yoki, aksincha, ishsizlik xam stressga olib keladi. Bunday sabablar tufayli sodir bo'lgan asabiylashish eng ko'p tarqalgandir. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, ish qancha qiziqarli bo'lsa, inson shuncha kam bezovtalanadi, kam betob bo'ladi. Yana bu sabablarga qo'shimcha yomon ish sharoitlari, ish jarayonida odamlarning bir-biriga asossiz talablarni qo'yishi, o'quvsiz ota-onaningning o'quvsiz muomalasi, demotivlashtirishning ustuvor ekanligi va boshqalar ham stressni vujudga keltiradi. Xullas o'spirinlik davrida stressni bartaraf etish, uning tasir doirasini kamaytirish eng muhim choradir. Eng avvalo nazorat ko'proq natija beradi. Stressni bartaraf etishda asosan inson sabr-qanoatli bo'lish, har qanday mushkul vaziyatga tayyor bo'lish, o'zini chalg'itish lozim. Mashakqatli mehnatni yaxshi dam bilan birga olib borish, hech bo'lmasa bir oz orom olish, tinchlanish kerak. Ishda xush fe'l, tavozelik bo'lish, o'zaro hurmat va xushmuomalali inson bo'lish lozim.

Stressni bartaraf etish uchun birinchi navbatda shaxs psixologik jihatdan tashqi ta'sirlarga nisbatan ongli munosabat (psixologik immunitet)ni shakllantira olishi zarur.

1. Har qanday stress holatini yengish uchun uni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash va xolisona baholash darkor.

2. Yuz bergan stress holatini bartaraf etish uchun aniq yo'l-yo'riq izlab topish kerak.

3. Biror muammo va tashvishga duchor bo'lsangiz, bu haqda kamroq o'ylashga va doimo nima bilandir band bolishga harakat qiling. Mehnat sizning qalbingizdan behalovatlik tuyg'usini siqib chiqaradi.

4. Arzimagan narsalarni deb asabingizni yeb tugatmang. Hayotda nima muhim va nomuhimligini anglab oling. Arzimas narsalarning aksariyati umringizni qisqartiradi.

Stress holatiga tushgan shaxs xuddi shu stressga qarshi quyidagi usul va vositalarni qo'llash yaxshi natija beradi:

a) stress holatiga nisbatan antistress kayfiyatini shakllantirish (ro'y bergan vaziyat, holat, emotsiyalarga nisbatan o'z ruhiyatidagi munosabatni o'zgartirish);

b) ko'proq jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish (badantarbiya, sport turi, jismoniy mehnat);

v) o'z-o'zini bo'shashtirish (rasslabneniya) tananing oyoq uchi qismidan to qo'l barmoqlarigacha bo'shashishga erishish ;

g) autotrening (O'z-o'zini ishontirish)

d) relaksatsiya (o'z-o'zini yengillashtirish) orqali stress holatiga barham berish mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilib shuni aytish mumkinki: Stress,nafaqat o'spirinlik,balki barcha yosh davrlarida xam shaxs taraqqiyotiga muxim to'siq bo'luvchi omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.G'oziyev "Umumiy psixologiya" Toshkent 2008 y.
2. Y.Jumanazarov"Yosh davrlar psixologiyasi" Namangan 2013 y.
3. T.Sodiqova "Sevib qolgan qizning onasiga maslaxat" qo'llanma. Toshkent 2018.

KICHIK MAKTAB YOSHI INQIROZI VA UNI OLDINI OLISH HAMDA BARTARAF ETISHDA PSIXOLOGIK TRENINGLARNING AHAMIYATI

*Oydinoy Tursunova Nabijonovna
Asaka tuman 48- maktab psixologi*

Maktab hayotining birinchi bosqichi uchun shu narsa xarakterliki, bola sinfdagi va uydagi xulqini nazorat qiluvchi o'qituvchining yangi talablariga bo'ysunadi, shuningdek, o'quv fanlarining mazmuniga qiziqqa boshlaydi.

Birinchi sinf o'quvchilari boshdan kechiradigan uch asosiy qiyinchilik bor:

1. Boladan erta uyg'onish, maktabga o'z vaqtida kelish, barcha darslarda bir joyda qimirlamasdan o'tirish, uy vazifalarini vaqtida bajarish kabi irodaviy vazifalar talab etiladi. Bungacha doimiy harakatda bo'lgan va hech qanday mas'uliyat yuklanmagan bola uchun bu o'ziga xos jarayon bo'lib, bu unda ba'zida stresslarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

2. Ikkinchi tur qiyinchilik o'qituvchi, sinfdoshlar va oiladagi o'zaro munosabatlar xususiyatidan kelib chiqadi. Maktabgacha ta'lim muassasasidan farqli ravishda bu munosabatlarda ham bola ba'zi qiyinchiliklarga duch keladi (masalan, uy vazifasini bajarmaganligi yoki darsda tinch o'tira olmagan uchun jazo olishi mumkin).

3. Qiyinchiliklarning uchinchi turi – o'quv yili o'rtalaridan o'quv materiali oshib boradi. Hali maktab sharoitiga to'liq moslashib ulgurmagan bola uchun o'quv yuklamasining ortib borishi ham unda moslashish jarayonining qiyin kechishiga sabab bo'lishi mumkin.

4. Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, bola duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar: moslashuvchanlikdagi qiyinchiliklar, bilish jarayonlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda irodaviy jarayondagi qiyinchiliklardir.

Maktabga qadam qo'yish bilan bola hayotida muhim psixologik o'zgarishlar sodir bo'ladi. U yangi rejimning ayrim muhim odatlarini o'zlashtiradi, o'qituvchi va o'rtoqlari bilan ishonchli munosabatlar o'rnatadi. O'quv materiali mazmuniga nisbatan paydo bo'lgan qiziqish asosida unda o'qishga bo'lgan ijobiy munosabat mustahkamlanadi. Bunda yuqorida sanab o'tilgan qiyinchiliklar bolada maktabga va bilim olishga nisbatan

salbiy munosabatning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Fan tilida kichik maktab yoshi inqirozi nomi bilan ma'lum bu kabi holatlar kelgusida yanada kattaroq va kengroq muammolarni yuzaga keltiradi. Fanlarni o'zlashtira olmaslik, muntazam dars qoldirish, dars jarayonida o'qituvchining dars o'tishiga va sinfdoshlariga xalal berish- bu muammolarning boshlanishi, xolos.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning maktab sharoitiga moslashuvi hamda o'quv materiallarini oson o'zlashtirishlarida korreksion-psixologik treninglarning ahamiyati katta. Muntazam va izchillik bilan olib borilgan korreksion-psixologik treninglar yuqorida aytib o'tilgan kichik maktab yoshidagi bola duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal etibgina qolmay, balki normal darajada moslashgan bolalarni ham aqliy va hissiy jihatdan rivojlanishlariga ko'maklashdadi. Bunda trener bola duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchililarning har uch turi yuzasidan bir nechta korreksion o'yinlarni tanlab olib , bitta yaxlit trening sifatida tashkil etadi hamda ana shu bitta mashg'ulot orqali bir nechta muammolarni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Masalan:

Kirish qismi.

Treningning borishi.

-Treningning qoidalari, maqsad va vazifalari bilan tanishtirish:

Qoidalar:

-faollik

-ko'ngilli ishtirok

-belgilangan vaqtga rioya qilish:

-boshqalar fikrini hurmat qilish:

-qo'l ko'tarish qoidasi.

1-mashq Tanishuv.

“Mening yoqtirgan narsam” mashqi.

Maqsad :Guruh a'zolari o'rtasida ijobiy psixalogik muhitni yaratish,diqqat va xotirani rivojlantirish.

Mashqni borishi:Ishtirokchilar doira bo'lib o'tiradilar.

Boshlovchi har bir ishtirokchiga koptok otadi.

Koptokni ilib olgan o'quvchi o'z ismi va yoqtirgan narsasini nomini aytib bo'lishgach, o'quvchilarining bir-birlaridan boshqalarining yoqtirgan narsalari yoki biron bir sanab o'tilgan narsani kim yoqtirilishi so'raladi.

Muhokama.

Xulosa.

2-mashq .

“Suv,havo,yer” mashqi.

Maqsad :Guruh a'zolari o'rtasida eshitish va harakat sezgilarini,diqqatini rivojlantirish.

Mashqni borishi:Ishtirokchilar doira bo'lib o'tiradilar.

Boshlovchi o'yin sharoiti bilan tanishtiradi:

agar u “yer” desa , hamma qo'lini pastga tushirishi kerak,”suv” desa, qo'llarini o'ngachapga harkatlantiradilar. Havo” deganda ,qo'llarini osmonga ko'taradilar. O'yin bir necha marotaba takrorlanadi.

Muhokama.

Xulosa.

Refleksiya .

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan mashqlarning har ikkalasi ham bir vaqtning ham guruhda ijobiy muhitning yuzaga kelishiga ham bilish jarayonlarining rivojlanishiga ham bolaning hissiy jarayonlariga ijobiy ta'sir o'tkazish xususiyatiga ega. Albatta bir – ikki marta o'tkazilib, so'ng to'xtab qolgan mashg'ulotlar natijaviylikka ega emas. Bu mashg'ulotlar muntazam ravishda va izchillikka rioya etilgan holda o'tkazilsagina, natijalar ko'zga tashlanadi. Sodda til bilan aytganda, ma'lum bir dastur asosida tuzilgan, yil davomida haftada bir yoki ikki marta tashkil etiladigan mashg'ulotlarga ko'zlangan natijani berishi mumkin. Bunda maktab amaliyotchi psixologlarining o'rni katta. Chunki bunday mashg'ulotlarni faqat ular tashkil etish imkoniyatiga ega. Buning uchun maktab amaliyotchi psixologida boshlang'ich sinflarning har biri uchun taxminan quyidagi mazmunda ish reja mavjud bo'lishi lozim:

1-sinf o'quvchilari bilan yil davomida olib boriladigan pedagogik –psixologik ishlar

№	O'tkaziladigan tadbir nomi	Tadbir o'tkaziladigan vaqt	Tanlangan metodika, tadbir va treninglar manbasi	Tadbir o'tkazilishidan maqsad	Tadbir o'tkazilgan vaqt	Kutiladigan natijalar
1	1-sinf o'quvchilarining maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligini o'rganish uchun Kern Yerasikning "Test suhbat" metodikasini o'tkazish.	sentyabr	K.Yerasikning "Test suhbat" metodikasi	Psixodiagnostika		O'quvchining maktab ta'limiga tayyorgarligi haqida ma'lumot to'planadi
2	6-6,5 yoshli o'quvchilarning rivojlanishini aniqlash: A.Vengerni "Grafik diktant" metodikasini o'tkazish.	sentyabr	A.Vengerning "Grafik diktant" metodikasi	Psixodiansotika		
3	1-sinf o'quvchisini maktabga moslashtirishga qaratilgan trening mashg'ulotini o'tkazish: "Baliq, qush, eshik..."	oktyabr	72 soatga mo'ljallangan Psixologik salomatlik dasturi.	Psixokorreksiya		
4	O'quv faoliyati kommunikativligi darajasini aniqlash: "Qo'lqopchalar" metodikasi (hamkorlikni tashkil etish jarayonida faoliyatni shakllantirish)	oktyabr	Maktab psixologi rasmiy telegram kanali	Psixokorreksiya		

Keltirilgan taxminiy ish rejada psixolog 2 haftada bir marta mashg'ulot o'tkazilishi nazarda tutilgan. Bunda mashg'ulotlarni boshlashdan oldin muammolarni diagnostika qilish uchun hamda bir nechta mashg'ulotlardan keyin natijaviylikni ko'rish uchun psixodiagnostik metodikalarni olish ham ko'zda tutilgan. Albatta, bu mashg'ulotlar 1-sinf o'quvchilari uchun haftada bir martaga oshirilsa, yanada yaxshi bo'ladi. Biroq maktabda psixolog o'z mashg'ulotlarini tashkil qilish uchun alohida soat ajratilmaganligi sababli bu imkonsiz. Chunki 1-sinf o'qituvchilari o'z dars soatlarini har hafta bera olmaydilar. Bu kabi mashg'ulotlarni 2-3-4-sinf o'quvchilari uchun ham oyda 2 marta tashkil etilsa,

o'ylaymanki, biz yuqori sinflarda duch kelishimiz mumkin bo'lgan ko'pgina muammolarning oldi olingan bo'lar edi.

GIPERAKTIV BOLALAR BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Valixanova Ra'noxon Masumovna
Chust tumani 74 maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada giperaktiv bolalar bilan ishlash, ota-onalarga tavsiyalar, chapaqaylik haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: giperaktivlik, agressiv, chapaqaylik, krizis, korreksiya, psixika, verbal, noverbal, obrazli, mantiqiy, qobiliyat.

Giperaktiv bolalar bilan mashg'ulotlarni tashkil qilishda psixolog maxsus ishlab chiqilgan korreksion-rivojlantiruvchi dasturni qo'llashi mumkin. Giperaktiv bolalarga yordam berishda ularning ota-onalari va o'qituvchilari bilan ish olib borish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ota-onalarga bolaning muammolarini tushuntirish zarur, uning qiliqlari ataylab qilinmasligini anglatish, ularning yordam va qo'llab-quvvatlashisiz bunday bola o'zidagi bor qiyinchiliklarni yengib o'ta olmasligini ko'rsata olish kerak.

Psixolog giperaktiv bolalarning ota-onalariga tarbiyaviy ta'sir etishning aniq usullariga amal qilishlarini tushuntirishi kerak. Ular shuni esda tutishlari lozimki, bolani holatining yaxshilanishi «unga bo'lgan muloyim, xotirjam va izchil munosabatga bog'liqdir». Bunday bolalarni tarbiyalashda ota-ona ikkita keskinlikka yo'l qo'ymasliklari kerak: haddan ziyod rahm - shafqat ko'rsatish va bir tomonidan esa uning oldiga u bajara olmaydigan ortiqcha aniqlik, shafqatsizlik va jazolar bilan uyg'unlashgan katta talablarni qo'ymaslik.

Maktab ta'limidagi muammolardan yana biri va past o'zlashtirishga sabab bo'luvchi omil bu chapaqaylikdir. Chapaqaylik tarbiyachilar, ota-onalar va bolaning o'zi uchun ham katta muammo hisoblanadi. Barchaga yaxshi ma'lumki, chap qo'ling

o`ng qo`ldan ustunligi tug`ma xususiyatga egadir. Chapaqaylik – bolaning zaruriy individual xususiyati bo`lib, uni ta`lim jarayonida hisobga olish shart.

O`quv ta`lim jarayonini a`nanaviy ravishda verbal va mantiqiy tafakkur taraqqiyotiga, chap miya yarim sharlari rivojlanishiga asoslanadi. Bunday holat esa chapaqay bolalarning ta`lim jarayoniga muvaffaqiyatli moslashuvini qiyinlashtiradi. Chap yoki o`ng qo`lning ustunlik qilishi bolaning istagi yoki erkaligi emas, balki miyaning o`ng va chap yarim sharlari o`rtasida vazifalarning o`ziga hos taqsimlanishidir.

Nima uchun chap qo`l ustunligi kelib chiqadi? Nimaning oqibatida chapaqaylik paydo bo`ladi?. Biz odatda miya haqida bir butun a`zo kabi fikr yuritamiz, lekin uning birligi ikkala miya yarim sharlarining faoliyatidan tashkil topadi. Ularning o`rtasida qat`iy farq bo`lib, miyaning funktsional munosabatlarida ikkala yarim sharlarning ulushi bir xil emas. Qo`l – odam harakat faolligining yarim funktsional a`zosidir. SHuning uchun ham qo`lning imo-ishora a`zosi sifatida rivojlanishi chap qo`lning nutq markazini tashkil topishida yetakchiligidan dalolat beradi. Ikkala miya yarim sharlari ham so`zlarni, obrazlarni idrok qilishga va qayta ishlashga qodir, biroq bu jarayon ularda turlicha kechadi.

Chap miya yarim shari. Verbal, mantiqiy, “fikriy”. Miyadan kelayotgan axborotlarni ketma-ket, tahliliy ravishda qayta ishlaydi.

O`ng miya yarim shari. Noverbal, obrazli, ko`ruv. Signallarni bir vaqtda va butun holda qayta ishlaydi.

Chapaqay bolalarning faoliyatida bilish jarayonlari sohasida quyidagilar namoyon bo`lishi mumkin:

1. Ko`ruv-harakat koordinatsiyasi qobiliyati pastligi: bolalar grafik tasvirlarni ko`chirib chizish bilan bog`liq topshiriqni ayniqsa ketma-ketlikda bajarishda qiynaladilar; yozuvda, o`qishda qatorni ushlab tura olmaydilar; yozuvlari yomon.

2. Fazoviy idrok va ko`ruv xotirasidagi yetishmovchiliklar, fazoviy muvofiqlikni tahlil qilishdagi qiyinchiliklar: chapaqaylarda ko`pincha grafik tasvirlashda shakllarning shaklining buzilishi ko`rinadi; yozuv oynavandligi; yozuvda harflarni tushirib qoldirish va o`rnini almashtirish; optik xatolar, shakliga ko`ra o`xshash harflarni chalkashtirish.

3. Ma'lumotlarni qayta ishlashning o'zgacha strategiyasi, anglashning tahliliy uslubi: chapaqaylarga materialni qismlarga bo'lib ishlash xos bo'lib, bunday tahlil natijasida faoliyat ob'yekti haqida butun tasavvur hosil bo'ladi.

4. Diqqatning zaifligi, diqqatni ko'chirish va to'plashdagi qiyinchiliklar.

5. Nutqiy buzilishlar: harflarni tahlil qilishdagi xatolar.

Chapaqay bolalarning emotsional ta'sirchanligi maktabga moslashishni qiyinlashtiruvchi omildir. Uni maktab hayotiga kirishi boshqalarga nisbatan sekinroq va og'riqliroq kechadi. SHuning uchun ham chapaqay bolalar doimo o'qituvchi, psixolog va ota-onalarning alohida e'tiborida bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.G'oziyev "Ontogenez psixologiyasi "Noshir" nashriyoti Toshkent 2018
2. M.G.Davletshin va boshqalar "Yosh davrlari va pedagogic psixologiya" Toshkent 2004
3. V.N.Karandashev "Metodika prepodavaniya psixologii" Moskva 2007

ШАХС ШАКЛЛАНИШИДА КАСБИЙ МАСЪУЛИЯТЛИЛИК ҲИССИНИНГ АҲАМИЯТИ

Сайилова Хотира Янгибоевна

155-сонли умумий ўрта таълим мактаби ўқитувчиси

Масъулият ҳисси анъанага кўра, ё "қонун ташувчи", ё алоҳида топшириқни бажарувчи сифатида, ёки оддий ҳаётини кундалик қоидаларни бажарувчиси сифатида чиқувчи субъектнинг ролини ўзгартириш орқали тадқиқ этилган. Шу сабабли реал масъулиятлилик ҳуққнинг ташқи кўрсаткичи бўлиб, у ёки бу юклатилган вазифанинг амалга ошириш меъёри бўлиб хизмат қилган. Масъулиятлилик эса концептуал равишда кўпинча шахс сифатида кўрилиб, шундан барча экспериментлар шакллантирувчи характер касб этган.

Мутахассис шахсининг шаклланиш муаммоси қоида бўйича у ёки бу мутахассислик фаолиятида зарур бўладиган сифатлар, қобилиятлар, билим, кўникма, малакалар тизимида ўрганилади. Бу турдаги тадқиқот касбий таълимни оптималлаштириш учун ўта муҳим бўлиб, таълим жараёнида шахсининг қайси хусусиятларини шакллантириш ва ривожлантириш учун эътибор қаратилиши кераклиги ҳақида билимлар беради.

Касб танлашни шундай ҳолда англаган деб айтиш мумкинки, агар шахсининг фаоллиги унинг кейинги ижодий ва маънавий кучларини муваффақиятли ривожланишини давом этишига умид бўлса, яъни шахс ва меҳнат ўртасида шундай ўзаро муносабатларга олиб келса шахсининг бундай ривожланишини башорат қилишни асосий шартларидан бири касбий йўналганликнинг юқори даражаси ҳисобланади.

Одамнинг касбий фаолиятга “кириши”, касбий таълим шахсининг шаклланишининг муҳим босқичи ҳисобланади. Бунда шахсий касбий ўзига хосликлар нафақат бевосита касбий фаолият соҳасида балки одамнинг ҳаётий фаолиятининг барча соҳасида намоён бўлади. Кундалик ҳаётда биз сезамизки касбий мансублик одамда, унинг тафаккурида, хулқ-атворида, оламга муносабатида ўзига хос из қолдиради (мисол сифатида машҳур ажратишни келтириш мумкин “физиклар” ва “лириклар”).

Ушбу феномен бизнинг нуқтаи-назаримизча “касбий йўналганлик” тушунчаси билан тўғрироқ аниқланади. Йўналганлик ижтимоий-психологик установакалар, идрок услублари, ҳис этиш ва фикрлаш услублари сифатида тушунилади. Йўналганлик жамоавий онгнинг кундалик кўринишини ифодалайди.

Шахсининг касбий йўналганлиги ўз ичига эҳтиёжлар, қизиқишлар, мотивлар, установакалар, лаёқат, қобилиятларни қамраб олади. Буларнинг барчаси таълим жараёнида ҳисобга олиниши талабаниннг етук мутахассис бўлиб етишиши ва ўз фаолиятини самарали амалга ошириши асоси ҳисобланади.

Касбий масъулият ва у шахсининг психологик, индивидуал, шахсий хусусиятларига боғлиқлиги масалалари бир қатор хориж психологлари томонидан турли мутахассисликдаги талабаларда ўтказилган тадқиқот ишлари, илгари

сурилган назариялар, ёндашувлар, турли фикрлар орқали очиб беришга ҳаракат қилинган.

Мутахассислаштиришни ўрганувчи концепциялардан кўпроқ машҳур бўлгани, уни бутун, узлуксиз жараён тадқиқ этувчи Сьюпер ва Т.В Кудряцевалар ҳисобланади.

Сьюпернинг кенг маълум бўлган концепцияси 50-йилларнинг ўрталарида ривожлана бошлади ва мутахассислаштириш муаммосини тадқиқ қилиниши шахсий статистик ёндашувга хос реакцияси бўлди.

Т.В.Кудряцеванинг концепциясини асосий тузулиши “касбий шаклланиш” тушунчаси орқали кўриниши мумкин. Касбий шаклланиш бирор бир касбий таълим муассасасининг таълим ва тарбия даврини қамраб оладиган қисқи муддатли фаолият эмас. У бир неча босқичларни қамраб олувчи жараён ҳисобланади. Ҳар бир босқичга ўтиш аввалгисининг кечишида амалга оширилади ва субъектда бир қатор қарама-қаршиликларни ва ҳаттоки кризисли вазиятларни келтириб чиқариши кузатилади.

Ушбу концепцияда касбий ривожланиш учта тўғридан-тўғри йўналишга бўлинган: мутахассиснинг мотивацион-эҳтиёж соҳаси, касбий фаолиятнинг операционал-техник элементларининг шаклланиши ва ниҳоят, касбий ўз-ўзини англаш.

Касбий шаклланишнинг ушбу даври психологик жиҳатдан жуда кўп тадқиқ этилган. Бунда қоида бўйича талаба шахси психик тараққиётининг алоҳида кўрсаткичлари кўрилади. Бизга маълумки касбий йўналганликда ва мутахассиснинг шаклланишида талабанинг турли индивидуал хусусиятларини ривожланиши ҳам муҳим ўрин тутди. Бу борада Б.В.Блинов ва В.П.Петровларнинг олиб борган тадқиқот ишларига эътибор қаратишимиз зарур. Ушбу тадқиқотда ўзаро “ривожланиш мезони” бўйича фарқланадиган бешта хусусиятлар ажратилган, яъни уларда таълим олиш жараёнида рўй берадиган ўзгаришлар даражаси.

В.Н. Мясичевнинг боланинг маълумотларига оралиқ тушунча (лаёқатлар ва қобилиятлар орасига) киритиш нуқтаи-назари эътиборга моликдир. Маълумотлар

– бу ҳали қобилият бўлмаган ва лаёқатларнинг мувофиқлиги билан шартланган нисбатан элементар психик ўзига хослик. “Қобилиятлар анализи уларнинг тузилишида умумийроқ ва оддийроқ хусусиятларни аниқлаш имконини беради, қайсики улар ўзининг уйғунлигида, энг асосийси ўзи ишланганлигида қобилиятларга айланади. Маълумотлар деб аталувчи бу элементар хусусиятлар ўзида келажакда қобилиятлар шаклланиши мумкин бўлган материалларни намоён этади”.

Шахснинг касбий йўналганлигида қобилият ва лаёқатнинг илмий асослари кўпгина мутахассислар томонидан тадқиқ этилган. Жумладан ушбу муаммони Асеев В.Г. (1976); Божович Л.И. (1968); Брушинский А.В. (1978) Кудрявцев Т.В, сухарев А.В.(1985) Леонтьев А.Н.(1959) Лейтес К.С (1975) ва бошқалар ёритиб берганлар.

Н.В.Тарабринанинг ўринли таъкидлашича мутахассиснинг образини, тузилишини, адекватлик ва барқарорлик даражасини ўрганиш бўлажак фаолиятга психологик тайёргарлик даражасини аниқлашнинг айна вақти ҳисобланади.

Мутахассис шахси шаклланиши муаммосига бағишланган адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, касбий шаклланиш етарли даражада ўрганилмаган деган хулоса келтириб чиқаради. Биз бу ерда катта ижтимоий гуруҳларнинг психик тузилишининг умумий йўналишларини шаклланганлигини назарда тутяпмиз. Катта гуруҳларнинг ижтимоий психологик анализи индивиднинг психикасини билишга калит сифатида қаралади, модомики “инсон психикасининг ижтимоий-аҳамиятли сифатлари таркиби айнан макросоциал даражада шаклланади”.

Йўналганликни тадқиқ этишни муҳимлигини асослаб, А.Я.Гуревич шундай деб ёзади: “Бу даражада шундай нарсаларни эшитишга эришиладики, бу ҳақида онгли сўзлаш даражасидагидек билиб бўлмайди. Одам, унинг тасаввурлари ва ҳис-туйғулари, эътиқодлари ва кўрқувлари, унинг хулқ-атвори ва ҳаётий қадриятлари ҳақидаги билимлар доираси бирданига кенгаяди, тарихий воқеликни ўзига хос хусусияти янада кўп ўлчовли ва чуқур ифода қилинади”.

Хулоса қилиб айтганда, касбий масъулият шахснинг мотивлар тизимининг сифатий ўзига хослиги, у касбий ўз-ўзини англаш тизимида қизиқишлар ва шахсни

бирлигини намоён этади. Касбий йўналганлик даражасини ошириш унинг ривожланишини асосий таркибини ташкил этади. Етук мутахассиснинг камол топишида ва фаолиятини муваффақиятли амалга ошира олиши танланган касбнинг талабларига шахснинг мойиллиги ва қобилиятларини мос тушиши муҳим ҳисобланади.

MEHNAT TARBIYASINING MAZMUNI, SHAKL VA METODLARI

*Xurramova Oyjahon Tufliyevna
Kasbi tumani 30-maktab psixologi*

ANNOTATSIYA

Maqolada o'quvchilarni mehnatga nisbatan ongli tarbiyalash yo'llari ko'rsatilgan. Shu bilan birga mehnat tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlari keltirib o'tilgan.

KALIT SO'ZLAR

Mehnat, mehnat tarbiyasi, mehnatsevarlik, mehnat ta'limi, sinfdan tashqari ishlar, to'garaklar, oila, mehnatga psixologik tayyorgarlik.

Hozirgi davrda texnika va texnologiyalar rivojlanishini yuksak bosqichga ko'tarish uchun ishlab chiqarishni keng ko'lamda kompyuterlashtirish, iste'mol mahsulotlarini jahon standartlari darajasida ishlab chiqishni yo'lga qo'yish talab etilmoqda.

Bularning barchasi yuksak intellektual va jismoniy kamolotga ega bo'lish, ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy asoslaridan to'laqonli xabardor bo'lish, mehnatga ongli, ijodiy munosabatda bo'ladigan yoshlarni tarbiyalashni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim muassasalarida mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etishga nisbatan ulkan talablarni qo'yadi.

Mehnat tarbiyasining maqsadi o'quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mehnat tarbiyasini tashkil etish jarayonida o'quvchilar dastlab ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy asoslari bilan tanishadilar.

Shu jihatdan olib qaraganda bugungi kunda mehnat ta'limining mazmuni, maqsad va vazifalari o'zgardi, texnologik ta'lim ustuvorlik kasb etdi, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish tizimi yangilandi. Mehnatni ilmiy tashkil etishning birinchi darsini ham o'quvchi ta'lim jarayonida oladi.

Mehnat tarbiyasi bilan mehnat ta'limi bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Mehnat faoliyati ma'lum bilimga ega bo'lishni talab etadi. Zero, bilim va ko'nikmalar o'quvchini mehnat faoliyatiga tayyorlaydi.

Ta'lim jarayonida olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'radilar, Umumiy mehnat jarayonida o'quvchilarning kombinatlar, jamoa hamda fermer xo'jaliklari, korxonalar, zavod va fabrikalarda texnik va texnologik bilimlari mustahkamlanadi, shuningdek, ular tashkilotchilik malakalariga ham ega bo'ladilar.

Sinfdan tashqari ishlar jarayonida mehnat tarbiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning turli shakllari o'quvchining texnik ijodkorligini rivojlantiradi, u yoki bu bilim sohasida bilimga bo'lgan qiziqishini shakllantiradi. To'garaklarda o'quvchining qiziqish va qobiliyatlari namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning to'garaklardagi faoliyati ma'lum pedagogik talablarga rioya qilganda samarali bo'ladi. CHunonchi:

- to'garak faoliyati ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim, ya'ni, o'quvchilar tayyorlagan buyumlar kishilar uchun amaliy qiymatga ega bo'lishi zarur;
- texnik ijodkorlik o'quv muassasasidagi o'quv-mehnat jarayoni bilan uzviy alohida bo'lishi kerak (maktab, kollej, oliy ta'lim va boshqalar);
- ijtimoiy-foydali, unumli mehnat jarayonida o'quvchining texnik ijodkorligini tashkil etishda faoliyatni ijtimoiy buyurtmadan ijodkorlikka aylantirish kerak bo'ladi.

To'garak faoliyati jarayonida o'quvchilar o'z kollejlari uchun o'quv-ko'rsatmali qurollar: jadvallar, rasmlar, diagrammalar, kolleksiyalar, oddiy modellar, yuqori sinflarda – stendlar, harakatdagi modellarni yaratish mumkin.

Mehnat tarbiyasi oilada tabaqalashtirilgan holda olib boriladi: bolalar o‘z-o‘ziga xizmat qiladilar, uy hayvonlarini parvarishlaydilar, ro‘zg‘or texnikalarini ta‘mirlash bilan shug‘ullanadilar. Oila byudjeti va uni yuritish bilan bog‘liq topshiriqlarni bajaradilar, Oilada bolalar va kattalar mehnatini hamkorlikda tashkil etishning imkoniyatlari cheksiz.

Mehnat tarbiyasi o‘quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashni nazarda tutadi. Zero, mavjud sharoitda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar shaxs kamolotiga nisbatan juda katta talablarni qo‘ymoqda. Xususan, mehnatga muhim ijtimoiy burch sifatida qarash, ma‘lum faoliyatni bajarishda mas‘uliyatni his etish, mehnatga va uning natijasi, shuningdek, mehnat jamoasiga hurmat, mehnat faoliyatini tashkil etishda tashabbuskorlik, faollik ko‘rsatish, o‘z aqliy va jismoniy qobiliyatini to‘liq namoyon etishga bo‘lgan ichki ehtiyoj, mehnatni ilmiy tashkil etish yo‘lida amaliy harakatni olib borish shular jumlasidandir.

Mehnatga psixologik jihatdan tayyor bo‘lish esa tarbiyaviy ishlar tizimida amalga oshirilib, ularning har biri quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

- o‘quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyati, mehnatni tashkil etish hayotiy zaruriyat ekanligining anglab etilishiga erishish;
- ularda mehnat faoliyatini amalga oshirishga nisbatan rag‘bat uyg‘otish;
- o‘quvchilarda mehnat ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va hokazolar.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, mulkka egalik, xususiy mulkni yaratish yo‘lida qonun doirasida olib borilayotgan amaliy faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy harakatlar mehnat tarbiyasiga yangicha yondashuvni talab etmoqda.

Mehnat tarbiyasining yangi texnologiyalar asosida o‘quv dasturlari, ta‘lim metodlarining variativligi tamoyili yotadi. Dasturlar kasb-hunar kollejlari ixtisoslashgan turli kasblar bo‘yicha yaratiladi. Ularda kasbiy ta‘limni o‘zlashtirishga nisbatan qo‘yilgan davlat talablari o‘z ifodasini topadi.

Ta‘lim jarayonida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar mehnat tarbiyasida pedagogik faoliyatning yakuniy natijasi emas, balki inson qobiliyatining rivojlanishi, ya‘ni, mehnatga bo‘lgan layoqatini rivojlantirishning samarali vositasidir. Bu esa mehnat tarbiyasida an‘anaviy metodlarni emas, balki bilim olishning faol metodlaridan

foydalanib, o'quvchilarda tadqiqotchilik hamda ixtirochilik malakalarini rivojlantirish metodlarini qo'llashni nazarda tutadi.

Bundan tashqari muammoli, izlanuvchan tadqiqot metodlari, konstruktorlash, loyihalash, texnik modellashtirish, mehnatni tashkil etish jarayonida uning eng yaxshi variantlarini izlab topish, ijodiy topshiriqlarni to'g'ri tanlay olish, shuningdek, tanlovlar, yoshlarning ijodiy ko'rgazmalarni tashkil etish ham eng samarali metodlardan sanaladi.

Mehnat ta'limi va tarbiyasining tashkiliy-metodik shakllari o'qituvchi tomonidan tanlanadi. Bu shunday shakl va metodlar bo'lishi kerakki, u o'quvchiga mehnati muvaffaqiyatidan quvonch baxsh etsin, o'z mehnatidan o'zi faxrlansin.

Mehnat tarbiyasining texnologiyalari o'quvchining nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, mehnat ta'limi mazmunini ham takomillashtiradi. U kompleks xarakter kasb etib, o'quvchilarda o'quv texnika va texnologiyalari haqida tasavvur hosil qilishi, amaliy masalalarni hal etish malakasini shakllantirishi, sifat natijalarini ta'minlashi lozim. Ayniqsa, o'quv topshiriqlarini hal etishga ijodiy yondashish, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy, ijtimoiy ko'rsatkichlarini yuqoriga ko'tarishga intilish hosil qilishi maqsadga muvofiqdir.

Mehnat tarbiyasida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar rejasida mehnat tarbiyasi yo'nalishidagi tadbirlarning o'rin olishini ta'minlash muhim pedagogik vazifalardan biridir. Mehnat tarbiyasi turli an'anaviy va noan'anaviy shakllarda tashkil etiladi.

O'QUVCHILAR AQLIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA SHARQ ALLOMALARI QARASHLARIDAN FOYDALANISH

Qarshiyeva Dilbar G'afurovna
Kasbi tumani 7-maktab psixologi

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarda aqliy tarbiyani shakllantirishda Sharq mutafakkirlari, jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarlarida keltirib o'tilgan fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar

Sharq mutafakkirlari, aqliy tarbiya, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, aql, aqliy tarbiya, xayol, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari, qanoat, sabr, tavoze (adab).

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin bergan. Xususan, Abu Nasr Forobiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatleri, xarakteri, dini, urf-odatleri, ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Abu Nasr Forobiyning e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri-bilan solishtirib ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi». Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o'zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: «Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqqolli bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shilib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqqolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi».

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o'zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: «Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo'ldan toymasdan turib unga

erishishi kerak bo'ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo'lsayu, isbotlar chinakamiga bo'lsa, u holda bunga hikmat – donishmanlik deyildi».

Ibn sinoning aql va aqliy tarbiyaning tabiiy va psixologik asoslarini aniqlashga xarakat qiladi. Uning fikricha, xayot, xayotiy quvvat uch shaklda: o'simlik, xayvonot va inson shaklida namoyon bo'ladi.

Ibn Sino bolaning ilm-fan yoki xunar egallashga intilishida o'qituvchining unga bilim, xunar o'rgatishi zarurligini uqtiradi.

Ilm fanga intilish insonning eng oliy ma'naviy yuksaklikka ko'taradi, jamiyat ravnaqining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi

Tarq qil bor narsani, jon barchidin a'lodurur,

Jon kamoli ilmdandir, ilmdandir so'lu sog'.

Jon agar bir shisha bo'lsa, ilm sham chirog'.

Xikmati insonin bilgil uch chiroqda misli yog'.

Ul agar ravshan yonar, sen ham salomat ham tirik.

Ul chiroq so'nsa, sening ham o'lganingmasmu shu chog'.

Uning fikricha, ta'lim-tarbiya, avvalo, aqliy tarbiyani, yoshlarga ilm-fan o'rgatishni, jismoniy tarbiyani (bunga tibbiyot ilmi xizmat qiladi), axloqiy tarbiyani, nafosat tarbiyasini hamda yoshlarni ma'lum hunarga o'rgatish masalalarini o'z ichiga oladi. Axloqiy tarbiya inson uchun nixoyatda muhim ahamiyatga ega. Bolaning axloqiy tarbiyasi yoshlikdan, bolalikdan boshlanishi kerak.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») asari ta'bir joiz bo'lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta'minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to'g'risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo'lish ezgu ishlar tantanasini ta'minlovchi garov bo'lib, uning yordamida hatto osmon sari yo'l ochiladi:

Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidur,

Bilim tufayli, go'yo ko'kka yo'l topiladi.

Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma naqadar haq edi. Zero, oradan to'qqiz-o'n asr vaqt o'tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo'ldi.

Bahovuddin Naqshbandiy tariqatida avliyolik kuch-quvvatini ezgulikka, ilm-ma'rifatni rivojlantirishga yo'naltirish yetakchi o'rin tutadi. Binobarin, ilm-ma'rifat zulm va bid'atdan forig' bo'lish yo'lidir. Alloma tomonidan ilgari surilgan «Xilvat dar anjuman», «Safar dar vatan» g'oyalari mavjud bilimlarni suhbat hamda amaliyot yordamida o'zlashtirish maqsadga muvofiqligiga ishoradir. Zero, bahs-munozaralarda, doimiy izlanishlarda hosil bo'lgan ilm puxta va mustahkam bo'ladi.

Alisher Navoiy bilimlarni izchil, uzluksiz o'zlashtirish zarurligini uqtiradi. SHuningdek, ilm o'rganish mashaqqatli yumush bo'lib, uni o'rganishda ayrim qiyinchiliklarni yengib o'tishga to'g'ri kelishi, bu yo'lda chidamli, qanoatli, bardoshli bo'lish orqaligina mukammal bilimga ega bo'lish mumkinligini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ular qiyofasida namoyon bo'luvchi ma'naviy-axloqiy sifatlarni ulug'lagan bo'lsa, ta'limiy-axloqiy muammolarni yorituvchi asarlarida esa komil insonni shakllantirish jarayonining mazmuni, ushbu jarayonning o'ziga xos jihatlari, yo'llari, shakl va usullari borasidagi mulohazalarni bayon etadi.

Alisher Navoiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari, shu jumladan, komil insonni shakllantirish kontseptsiyasining mazmunini o'rganish muayyan davrlarda dolzarblik kasb etgan. Shu bois bu yo'lda bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, navoiyshunos olimlar O.Sharafiddinov, I.Sultonov, A.Hayitmetov, N.Mallaev, T.Jalolov, V.Zohidov va S./anieva va boshqalar tomonidan samarali ravishda olib borilgan tadqiqotlar shular jumlasidan sanaladi.

Alloma tomonidan yaratilgan asarlar mazmunidan anglanadiki, ularda ilgari surilgan qarashlarning markazida inson va uning kamolotini ta'minlash g'oyasi turadi.

Alisher Navoiy ilm-fanning inson kamolotidagi o'rni, bilimlarni o'rganish asosida hosil bo'lgan aql va idrokning inson hayotidagi ahamiyati hamda aqliy tarbiya va uning mohiyatini yoritishga alohida e'tibor qaratadi. Alloma insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlari xususida so'z yuritadi hamda mazkur sifatlarning har biriga to'laqonli ta'rif berib o'tadi. qanoat, sabr, tavoze (adab), o'zgalarga nisbatan mehr-muhabbatli bo'lish, ishqda vafodorlik, saxovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko'ngillik (hilm) kabi xislatlarni ijobiy fazilatlar sirasiga kiritadi va ularning har biriga

ta'rif berganidan so'ng tanbeh va hikoyatlar vositasida shaxsiy qarashlarini dalillar bilan to'ldiradi. Asarda, shuningdek, axloqiy fazilatlarning antonimi hisoblangan salbiy illatlar va ulardan qutulish yo'llari ham bayon etilgan.

INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA OILA, JAMOATCHILIKNING O'RNI

*Amonova Mamuraxon Islomovna
Farg'ona viloyati Furqat tumani 22-maktab psixologi*

Inklyuziv ta'lim - bu jinsi, millati, dini va rivojlanish xususiyatlaridan qat'i nazar, barcha bolalarni ta'lim jarayoni va ijtimoiy moslashuvga jalb qilish jarayoni.

Hozirgi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarning inklyuziv ta'lim sohasida erishgan yutuqlari, hamda amaliy ishlari haqida maqolalar yoritilmoqda. Yosh bolalar rivojidagi jismoniy va ruhiy nuqsonlarning turlariga va zaifliklarning qay darajadaligini inobatga olib turli ko'rilayotgan amaliy choralar ularning integratsiyalanish va jismoniy tiklanishi uchun muhim omil bo'lmoqda.

Respublikamizda ham ushbu masala yuzasidan Davlat nuqtai nazaridan katta e'tibor berilib, YUNESKO tashkiloti hamkorligida bosqichma-bosqich tadbiriq etilayotgan inklyuziv ta'lim amaliy dasturi qo'llanilmoqda.

Nogiron o'quvchilarni o'qitish va rivojlantirishga yondashuvlarni o'zgartirish zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ijtimoiy moslashuvchan xulq-atvor ko'nikmalariga ega bo'lgan shaxsni ijtimoiylashtirishga qaratilgan. Ushbu muammoni hal qilish usullaridan biri inklyuziv ta'lim bo'lib, u teng huquqlar, erkinlik, jismoniy yoki boshqa qobiliyatlaridan qat'iy nazar har qanday bola uchun mos ta'lim yo'nalishini tanlash imkoniyatini beradi. O'quv jarayoni bilan bog'liq masalalarni ta'lim muassasasi mutaxassislari, psixolog, nutq terapevti va boshqalar hal qiladi. Ammo "maxsus" bola va

uning oilasining qiyinchiliklari, ko'pincha, ularning qiyinchiliklari bo'lib qoladi. Yechim topolmay, ular bunday o'quvchini ta'lim muhiti va bolalar jamoasidan siqib chiqarishga olib kelishi mumkin. Natijada, bunday qo'shilishning har bir ishtirokchisi o'zini jarohat olgan tomon deb atashi mumkin.

Ma'lumki, bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga, uning ijtimoiylashuviga xizmat qiladigan asosiy oila va oiladagi shaxslararo munosabatlardir. Shu bois bola tarbiyasi va ta'limi samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri ota-onalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi darajasi bilan belgilanadi, bu ularning o'z farzandlari rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, aqliy rivojlanish sifatining asosiy xususiyatlari va ularning yosh me'yorlariga muvofiqligi va hissiy-ijobiy ijtimoiy roli hissoylanadi

Nogiron bolaning oilada paydo bo'lishi har doim barcha oila a'zolari uchun og'ir psixologik stressdir. Ko'pincha, oilaviy munosabatlar zaiflashadi, kasal bola uchun doimiy tashvish, chalkashlik hissi, ruhiy tushkunlik oilaning buzilishiga sabab bo'ladi va faqatgina kichik foizlarda oila birlashadi.

Nogiron bolaga ega bo'lish oiladagi boshqa bolalarga salbiy ta'sir qiladi. Ularga kam e'tibor qaratiladi, madaniy hordiq chiqarish imkoniyatlari kamayadi, ular yomonroq o'qishadi va ota-onalarning nazorati tufayli kasal bo'lib qolish ehtimoli ko'proq.

Nogiron bolaning rivojlanishi ko'p jihatdan oilaviy farovonlikka, uning jismoniy va ma'naviy rivojlanishida ota-onalarning ishtirokiga va turli xil ta'lim ta'siriga bog'liq. Oddiy sharoitlarda bola harakatchanligi, ko'ngil ochishi va hokazolar tufayli juda ko'p sonli ogohlantiruvchi manbadir. Nogiron bola ham o'qituvchisi uchun tugallanmaydigan manba bo'lib, faqat ularning sifati birinchi holatga qaraganda butunlay boshqacha. Nogiron bola ko'proq mexanik ishni, bir xil parvarish va nazoratni talab qiladi va boladan javob, quvonchli qoniqish juda kam, bu bir tomonlama charchoqqa, hatto charchashga olib keladi. Biz oilada majburiyatlarni bo'lishishga harakat qilishimiz, natija esa bunday bolalar jamiyatda o'z o'rinlarini topishlari kerak.

Bu kabi bolalar noqulay sharoitlardan bezovtalanadigan atrofdagilarning, ayniqsa, qo'shnilarning salbiy munosabatini boshdan kechirmoqda (xotirjamlik, sukunatning buzilishi, ayniqsa, aqliy zaifligi bo'lgan nogiron bola yoki uning xatti-harakatlari bolaning atrof-muhitining sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatsa). Atrofdagi odamlar ko'pincha

muloqotdan qochishadi va nogiron bolalar deyarli to'laqonli ijtimoiy aloqalar, ayniqsa, sog'lom tengdoshlari bilan etarlicha aloqa doirasiga ega emaslar. Jamiyat har doim ham bunday oilalarning muammolarini to'g'ri tushunmaydi va ularning ozgina qismi boshqalarning qo'llab-quvvatlashini his qiladi. Shu munosabat bilan, ota-onalar nogiron bolalarni teatr, kino, ko'ngilochar va hokazolarga olib bormaydilar, shu bilan ularni tug'ilishidan boshlab jamiyatdan butunlay ajralib qolishlariga yo'l qo'yadilar. Shunga o'xshash muammolarga duch kelgan ota-onalar bir-biri bilan aloqa o'rnatmoqdalar.

Ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyalashga harakat qilishadi, uning asabiylashuvidan, egosentrizmdan, ijtimoiy va aqliy infantilizmdan qochib, unga tegishli mashg'ulotlar, keyingi ish uchun kasbga yo'naltirish berishadi. Bu ota-onalarning pedagogik, psixologik, tibbiy bilimlarining mavjudligiga bog'liq, chunki bolaning moyilligini, uning nuqsoniga munosabatini, boshqalarning munosabatiga bo'lgan munosabatini aniqlash va baholash, unga ijtimoiy moslashishda yordam berish, o'zini o'zi anglashni maksimal darajaga ko'tarish uchun maxsus bilim kerak.

Nogiron bolalarni ham davlat ijtimoiy ta'minoti organlarida, ham nogironlar jamiyatida ishonchli maxsus ro'yxatdan o'tkazish mavjud emas. Bunday oilalarni tibbiy-ijtimoiy ta'minlash bilan bog'liq turli tashkilotlar faoliyatida muvofiqlashtirish yetarli emas. Tibbiy va ijtimoiy rehabilitatsiya bilan bog'liq maqsadlar, vazifalar, imtiyozlar, qonunchilikni targ'ib qilish, barcha ijtimoiy ishlar bolalarga yo'naltirilgan bo'lib, oilalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib va oilaning tibbiy-ijtimoiy ishlarda ishtirok etishi ixtisoslashtirilgan davolanish bilan bir qatorda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Nogiron bolalarni tarbiyalayotgan oilalar bilan ishlashning muhim yo'nalishi - bu nogiron bolalarning ota-onalarining jamoat birlashmalarini yaratishdir. Bunday uyushmalarning mavjudligi, birinchi navbatda, ota-onalarda ular yolg'iz emasligiga ishonchni kuchaytiradi, ikkinchidan, yordam, tushunishga, bilim, tajriba, foydali ma'lumotlar bilan o'zaro boyitish; o'xshash "baxtsizlikdagi hamkasblar" bilan muloqot doirasini kengaytiradi.

Nogiron bolani tarbiyalayotgan oilaga yordam berishning eng samarali usullaridan biri bu "ota- onalarning birlashmasi" sifatida o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi.

■ o'z farzandining ota-onasi tomonidan yetarlicha tasavvurni shakllantirish: "kasallik" tushunchasidan uzoqlashish va "rivojlanishning maxsus qonunlari" tushunchasiga o'tish muhimdir;

■ bolaning shaxsiy, ijodiy va ijtimoiy resurslarini maksimal darajada oshkor qilish uchun oilada qulay mikroiklimni shakllantirish;

■ ota-onalar va bilimlarning o'zaro munosabati va bir-birini to'ldirishini amalga oshiradigan muassasalar, tajribani boyitish bo'yicha sheriklik munosabatlarini shakllantirish;

■ ota-onalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi, ijtimoiy faoliyat va konstruktiv xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish.

Ota-onalarning vazifasi bolani tinchlantirish, uning tashvishlarini engillashtirish, oilada optimizm muhitini yaratishdir. Ushbu oilaga faqat ijtimoiy tomondan o'qituvchi yordam berishi mumkin.

Oilalar inklyuziv maktablarni tanlaydilar, shunda ularning farzandlari odatda rivojlanayotgan tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarini kengaytirishi hamda boshqa ota-onalar va o'qituvchilar bilan bog'lanish imkoniyatini yaratishi mumkin. Nogiron bolani tarbiyalashda oilaning sa'y-harakatlari uchun maktab o'qituvchilari tomonidan berilgan yuqori ijobiy baho oila va maktab o'rtasidagi samarali hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Buning uchun, avvalo, hissiy aloqa, ishonch, hurmat va qabul, ota-onalarning ko'magi va ularning fikrlarini ko'rib chiqish kerak.

Oila bilan maslahat, profilaktika va tarbiyaviy ishlar hamkorlik g'oyasiga asoslanadi, uning ta'lim qobiliyatini oshiradi, ota-ona va bola o'rtasida uyg'un munosabatlarni o'rnatadi. Ushbu ishning maqsadi - ota-onalarning ta'lim jarayonida oilaning roliga bo'lgan psixologik munosabatlarini o'zgartirish; bola bilan munosabatlar uslubini o'zgartirish; oilaning pedagogik imkoniyatlaridan kengroq foydalanish. Bundan tashqari, ijtimoiy ish talabalar va ota-onalarni ularning huquqlari va majburiyatlari, qonunchilik hujjatlari bilan tanishtirishni, shuningdek Rossiyada va chet ellarda nogironlar bilan bog'liq jamoat va davlat tashkilotlari to'g'risida ma'lumot berishni o'z ichiga oladi.

Oila bilan ishlashning asosiy maqsadi - barcha oila a'zolarining (jismoniy, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, intellektual) shaxsiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, har tomonlama ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish, shuningdek, bola va uning atrofini turli xil omillarning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'siridan himoya qilish.

Biroq, inklyuziv ta'lim o'zi bilan olib keladigan barcha ijobiy holatlarga qaramay, uni tashkil qilishda bir qator muammolar mavjud. Inklyuziv amaliyotni tashkil qilishning tartibga solinmagan va moliyaviy masalalari, malakali kadrlar etishmasligi bilan bir qatorda, nogiron bolalarni tarbiyalayotgan oilalarda va ularning tengdoshlari bilan rivojlanishning standart darajasiga ega bolalarni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ota-onalarni inklyuziya jarayoniga jalb qilish texnologiyalari hali ham mavjud emas.

Shunday qilib, nogiron bolalarni tarbiyalayotgan oilalar manzilli professional yordamga muhtoj. Inklyuziv ta'lim sharoitida ota-onalarda bolaning rivojlanishidagi qiyinchiliklarni va u bilan muloqotni yengishda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish ustida ishlash zarur. Ota-onalarning huquqiy, pedagogik vakolatlarini takomillashtirish; bolalarning sog'lig'ini yaxshilash uchun maktab va ota-onalarning birgalikdagi tadbirlarini tashkil etish; nogiron bolani tarbiyalayotgan oila va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni optimallashtirishga ko'maklashish. Faqatgina maktab va oila o'rtasidagi samarali o'zaro munosabatlar nogiron bolaning psixofizik va ijtimoiy holatini tiklashga, moddiy mustaqillikka va ijtimoiy moslashishga erishishga yordam beradi

O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH USULLARI

Meliboyeva Muattarxon Saxobiddinovna
Farg`ona viloyati Farg`ona tumani 33-maktab psixologi

Mamlakatimizda xalq ta'limi tizimini zamonaviy darajada takomillashtirish yo`nalishida olib borilayotgan keng ko`lamli ishlardan ko`zda tutiladigan pirovard maqsad o`tib kelayotgan avlodni har tomonlama rivojlangan barkamol shaxslar qilib

tarbiyalash,ularning har tomonlama mos bo`lgan kasb-Ohunar egasi bo`lishlari,buning uchun kelgusida kasb-hunarlarini to`g`ri tanlashlari va puhta tegallashlarini puhta egallashlari juda ham muhim hissoblanadi.Bundan kelib chiqqan holda,o`quvchilarni kasb-hunar tanlashga yo`naltirish ishlarini ilmiy asoslarda, zamonaviyt pedagogik talablarga muvofiq darajada tashkil qilinishi va bu jarayonning o`z uzluksizligini ta`minlab borish hozirgi vaqtdagi eng dolzarb vazifalardan biridir.Agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa, inson uchun mehnat quvonch, ijodiy ilxom manbaiga aylanadi, bu esa inson uchun ham, jamiyat uchun ham foydalidir.Jamiyatning intellektual, ma'naviy imkoniyatlari rivojlangan hozirgi sharoitda mamlakatimizning barcha bo'lg'usi mutaxassislarini tayyorlab beruvchi maktab oldida muhim vazifalar turadi.

Kasbga yo'naltirish-har bir shaxsning alohida hususiyatlarini mamlakat xalq xo'jaligining iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib, mehnat bozorini to'laqonli ta'minlash zaruratini hisobga olib erkin va mustaqil kasb tanlashga tayyorlashga asoslangan tizimidir.

Kasbga yo'naltirish tizimi-individga kasbni va uning shaxsiy sifatlarini o'rganishda yordam beruvchi maqsadlar, mohiyat va qoidalar, uslublar va vositalar birligidir.Kasbga yo'naltirish barcha o'quv tarbiya ishlari bilan ko'nikib olib boriladi.Ongli kasb tanlash etarli darajadagi umumiy tayyorgarlikka ega bo'lgan taqdirdagina mumkin bo'ladi.

O'quvchini u yoki bu kasbga maqsadli yo'naltirishdan avval uning shaxsini o'rganish lozim. Buning uchun uni kuzatish (bevosita, bilvosita) o'quvchining maktabdagi, jamoat joylaridagi, oila va mehnatdagi amaliy harakatlarning tahlil qilish, so'rovnoma o'tkazish, suhbat, test, interv'yu olish mumkin.

Kasbga yo'naltirishda turli kasblar, ularga qo'yiladigan talablar, bu kasbni qayerda egallashlari mumkinligi to'g'risida o'quvchilarga ma'lumot berish katta ahamiyatga ega. Bu esa o'quvchilarni aniq kasbni tanlashga ongli munosabatda bo'lishga tayyorlaydi.O'quvchilar kasblar to'g'risidagi ma'lumotlarni-bilimlarni faqat maktabda emas, balki ommaviy axborot vositalaridan, tanishlari, qarindoshlaridan ham oladilar.

Yoshlar o'z oldilarida haqiqiy, keng hayot yo'li ochilishi uchun ko'p kuch-

g'ayrat sarflashlari kerak va eng asosiysi-o'z ko'ngillariga yoqqan, jamiyatga zarur va foydali ishni tanlashlari lozim.

Shu boisdan ham o'rta maktabni bitirayotgan yigit va qizlarning ko'pchiligi qanday kasb egasi bo'lish to'g'risida ko'p o'ylaydilar. Mamlakatimizda turli kasblarni egallash uchun barcha sharoit yaratilgan. Ayniqsa Yoshlarga maktabdayoq, mazkur rejaning xalq xo'jaligini rivojlantirish uchun eng kerakli bo'lgan aniq ixtisos bo'yicha kasbiy tayyorgarlik berish lozim.

Kasb tanlash-jiddiy va ma'suliyatli ishdur. O'z hayot yo'lini jiddiy suratda belgilab olish-oson ish emas. Buning uchun uzoq vaqt maxsus tayyorgarlik ko'rish talab etiladi.

O'quvchilarning bunday tayyorgarlik ko'rishlarini ta'minlash, o'quvchilarning o'z hayot yo'llarini jamiyat manfaatlaribilan shaxsiy manfaatlarini birga qo'yish asosida to'g'ri belgilab olishlariga, o'zlarining haqiqiy iste'dodlarini aniqlab olishlariga va adashmasdan kasb tanlashlariga yordam berish- umumiy ta'lim maktablarining muhim vazifasidir.

O'quvchilarning diqqatini kasb tanlash masalasiga jalb qilish, bu masalaning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini o'quvchilarga tushuntirish, o'quvchilarni o'z hayotiy yo'llarini tanlash to'g'risida jiddiy va ongli ravishda o'ylashga, ularning bu yo'ldagi mustaqil harakatlarini rag'batlantirish, ularda kasbni to'g'ri tanlashning shartlari hayotida dastlabki zaruriy tasavvur hosil qilish, ularni kasb tanlashda uchraydigan xatolardan ogohlantirish va bu xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun yo'l- yo'riqlar ko'rsatish lozim.

Shundan keyin, o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi va qiziqishini aniqlash va hisobga olgan holda bu yo'lda olib boriladigan ishlarni belgilab olish kerak. Kasblarni egallash yo'llari bilan atroflicha tanishtirish juda muhim.

Maktab tizimida to'garaklar muhim o'rin tutadi, fan to'garaklari, elektrotexnika, radiotexnika, avtomobil', traktor, pillachilik, o'simlikshunoslik to'garaklarida bolalar bilimlarini kengaytirish bilan, kasb tanlashga amaliy tayyorlanadi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ularning maktabdagi ko'zda tutilgan unumli mehnati va ijtimoiy foydali ishlaridan ham foydalanish zarur. Masalan, o'quvchilarning qishloq xo'jalik ishlari bilan

shug'ullanishlari, ko'rgazmali qurollar yasash, shanbaliklar, obodonlashtirish ishlarida mehnat madaniyatini egallaydilar, ma'lum kasbga yo'nalishlar hosil bo'ladi.

O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlashda xalq pedagogikasida ko'rsatilganidek, o'quvchilarning uy mehnatidan foydalanish kerak. Ular uy hayvonlarini parvarish qilish, sabzavot ekinlarini o'stirish, taom tayyorlash, texnika asboblari tuzatish kabi ishlar o'quvchilarning kasb to'g'risidagi tushunchalarini kengaytiradi.

Tejamkorlik, ijodkorlik, ma'suliyat hissi tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, hisob-kitob mohirligi o'quvchilar iqtisodiy tarbiyadan qanday saboq olayotganliklarini ko'rsatuvchi muhim belgilardir. O'quvchilarni ma'lum bir kasb-hunar tanlashlarida ota-onalarni, keng jamoatchilik va maktab jamoasi bilan hamkorlikni tashkil etish, o'quvchilarni kelajakda o'z o'rinlarini topishlarida munosib kasb egasi bo'lishlariga ko'maklashishdir yo'naltirishda oila-maktab hamkorligini yo'lga qo'ish orqali zamonaviy mehnat bozoriga mos ravishda kasb-hunar tanlashlari, kelajakda o'z o'rinlarini topishlarida asosiy o'rin egallaydi.

O`SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

*Abdurazzoqova Nodiraxon Murodovna
Farg`ona viloyati Dang`ara tumani 26-maktab psixologi*

Psixologiya fanining muhim sohalaridan biri bo'lmish yosh psixologiyasi fani bevosita inson psixologiyasining namoyon bo'lishi va rivojlanishini turli yoshlarda qanday kechish xususiyatlari, qonuniyatlari, mexanizmlarini o'rganadi. Psixologlarning fikricha yosh psixologiyasining hususiyatlari faqatgina yolg'iz biologik jihatidan yetilishi va taraqqiyot yetilishining natijasi bo'lmay balki bolaning ijtimoiy hayot sharoitlari va faoliyatlarning o'zgarishi hamda bu jihatdan yangi ijtimoiy omillarning paydo bo'lishi natijasida o'smirning taraqqiyotiga va unga beriladiga maktabdagi ta'lim va tarbiya berishni aniq tashkil qilish, o'smirning konkret hayot sharoitlari va hayot faoliyatning mahsuli deb qarab bo'lmaydi. Bioshqacha qilib aytganda ijtimoiy sharoitlar rolini konkret hayot sharoitlari va faoliyatlarning roliga almashtirib bo'lmaydi. Mana shu

yuqorida aytilganlardan shuni xulosa qilish mumjunki, o`smirnin g yoshi va uning hususiyatlari muhim ahamiyatga egadir.

Psixologik xususiyatlarni namoyon bo`lishining yosh xususiyatlari o`rganilar ekan, shuni nazarda tutish kerakki, yosh psixologiyasida turli yosh davrlari bir-biridan sezilarli farqlanadi.

Bular: chaqaloqlik, ilk bolalik, maktabgacha ta`lim yoshi, kichik maktab yoshi, o`smirlik, ilk yoshlik, yoshlik, yetuklik va keksalik davrlaridir. Bu davrlarning har biri o`ziga xos xususiyatlarga, sifatlarga ega bo`lib, ular bir-biridan odamning xronologik yosh ko`rsatkichlariga ko`ragina emas, balki shu davrda inson ruhiyatida kechadigan hodisalar, ro`y beradigan o`zgarishlar, uning ruhiyatidagi umumiy qonuniyatlarga ko`ra ham farqlanadi. Biz o`smirlik davri psixologiyasi haqida to`xtalib o`tamiz.

O`smirlik davri insonni bolalikdan-yoshlikka o`tuvchi va o`z navbatida boshqa davrlardan o`zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davrdir. Bu davr taxminan bolalarning 5-8-sinflarda o`qish paytlariga to`g`ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo`lgan davr oralig`ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1-2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin.

O`smirlik davri ayrim maxsus psixologik adabiyotlarda «o`tish davri», «og`ir davr», «inqiroz davri» kabi nomlar bilan ham ataladi. Bu davrning «og`irligi», «keskinligi», «murakkabligi» nimalar bilan asoslanadi? O`smirlik davrining og`ir, murakkab davr ekanligi ko`plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog`liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o`zgaradi. Bu davrda o`smir hayotida, uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o`zgarishlar sodir bo`ladi.

Aksariyat holatlarda ularda bir-biriga qaramaqarshi bo`lgan turli xil an`analar kuzatiladi. Bu davrga kelib bola yendi «bola» emas va shu bilan birga hali «katta» ham emas. Uning o`z-o`ziga va atrofdagilarga nisbatan bo`lgan munosabatlari butunlay boshqacha xarakter kashf yetib boradi.

Uning qiziqishlari tizimi, ijtimoiy yo`nalganligi qaytadan shakllanadi, o`z-o`zini anglashi, baholashi, qadriyatlari o`zgaradi. Uning uchun o`z «men»i va shu «men»ning ahamiyati ortadi.

1-Trening “O`smir organizmida ro`y beradigan o`zgarishlar”

Maqsadi:

O`smirlik yosh davrida ro`y beradigan jismoniy va fiziologik o`zgarishlar haqida ma'lumot berish. Shu yosh davridagi o`quvchilar bilan muomala munosabatlarda e'tibor berish zarur bo`lgan jihatlarni hisobga olishga o`rgatish.

Miya shturmi: Mavzuga oid muammolar:

O`smirlik davrida gavda nomutanosib rivojlanadi. Sababi nimada deb o`ylaysiz?

O`smirlikda qarama-qarshi jinsga qiziqishni ortishining sababi nimada?

Fikringizni asoslang.

O`smirlik davrida turli salbiy xarakterdagi guruhlariga a'zo bo`lish ehtimoli kuchli.

Sababi nimada?

Tushuntirish va maqsadga kirish bayoni.

O`smir organizmida ro`y beradigan o`zgarishlar shundan iboratki, bola rivojlanishining ayni shu davrida biologik, fiziologik yetukligi borasida tub o`zgarishlar amalga oshadi. Fiziologik rivojlanish va jinsiy balog`atga etish jarayonining yangi bosqichi boshlanadi. Organizmdagi o`zgarishlar bevosita o`smir endokrin sistemasining o`zgarishi bilan boshlanadi.

Bu davrda gipofiz bezining vazifalari faollashadi. Uning old qismidan ajralib chiqadigan garmon organizm to`qimalarining o`sishi va boshqa muhim ichki sekretsiya bezlari (qalqonsimon bez, buyrak usti va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Ularning faoliyati o`smir organizmida ko`plab o`zgarishlarni yuzaga keltiradi, jumladan bo`y o`sishining keskin tezlashishi (bir yilda o`g`il bolalarda 4-5 sm, qizlarda 3-4 sm o`sishi kuzatiladi), jinsiy balog`atga etish (jinsiy organlarning rivojlanishi va ikkilamchi jinsiy belgilarning paydo bo`lishi amalga oshadi).

Bu jarayonlar qiz bolalarda 13-15 yoshlarda nisbatan jadal kechadi. Jismoniy rivojlanish va jinsiy yetilishning akseleratsiyalashuvi kuzatilayotgan hozirgi vaqtda ayrim qizlar 9-10 yoshda, o`g`il bolalar esa 11-12 yoshlarida jinsiy balog`atga etishning

boshlanish bosqichida bo`lishi mumkin. Bo`yning o`sishi, vaznning ortishi, ko`krak qafasining keng ayishi- bularning barchasi jismoniy rivojlanishning o`smirlik yoshiga xos xususiyatlaridir.

Shular tufayli o`smirning tashqi ko`rinishi bolaning tashqi ko`rinishiga qaraganda farq qiladi: tana proporsiyasi kattalarga xos ko`rinishga ega bo`ladi. Shuningdek o`smirning yuz tuzilishi ham o`zgarib, bosh suyagining yuz qismi jadal rivojlana boradi. O`smirlik yoshida 3-oila psixologiyasi umurtqa pog`onasining o`sishi bo`yning o`sish tempidan orqada qoladi. Chunki 14 yoshgacha umurtqa pog`onalari o`rtasidagi oraliqlar tog`aylar bilan to`lgan bo`ladi, bu esa ortiqcha jismoniy zo`riqish, tana holatining noto`g`ri turishi tufayli umurtqa pog`onasining noto`g`ri rivojlanishga moyilligini bildiradi.

Umurtqa rivojlanishini buzilishining eng ko`p holati 11-15 yoshlarga to`g`ri keladi va ayni shu yoshlarda ro`y berishi mumkin bo`lgan defektlarni ham bartaraf etish ham oson kechadi. 20-21 yoshlarga yetib toz suyaklarining o`sishi yakunlanadi (shu davrda qizlarning jinsiy organlari ham yetiladi).

Muskul vazni va muskul kuchlarining ortishi jinsiy balog`atga etishning oxirlarida nisbatan jadalroq amalga oshadi. Bunda o`g`il bolalarda muskullarning rivojlanishi erkaklarga xos tipda, qiz bolalarning yumshoq to`qimalari esa ayollarnikiga xos tipda amalga oshadi. Bu esa har bir jins vakiliga o`ziga xos erkaklik va ayollik sifatlarini beradi.

Bu jarayonlarning nihoyasiga etishi esa o`smirlik davridan keyin amalga oshadi. Muskul kuchlarining ortishi o`smir jismoniy imkoniyatlarini kengaytiradi. Buni bolalar juda yaxshi anglaydilar va ulaxx.жrning har biri uchun bu juda muhim ahamiyatga ega. Biroq o`smir muskullari kattalarnikiga qaraganda tez toliquvchan bo`ladi va davomli kuchlanishlarga dosh berolmaydigan bo`ladi.

Shuning uchun sport va jismoniy mehnat bilan shug`ullanishda buni inobatga olish lozim. Turli organ va to`qimalarning o`sishi yurak faoliyatiga ham yuqori talablar qo`yadi. O`z navbatida yurak ham qon tomirlariga qaraganda tezroq o`sadi. Bu jarayon yurak-qon tomir sistemasi faoliyatidagi funktsional buzilishlarga sabab bo`lishi, yurak urishining tezlashishi, qon bosimining ortishi, bosh og`rig`i, bosh aylanishi, tez toliquvchanlik kabilar ko`rinishida namoyon bo`lishi mumkin.

Shuningdek, o`smirlik davrida ichki sekretiya bezlari faoliyati bilan bog`liq ravishda organizmda keskin o`zgarishlar ro`y beradi. Ayniqsa qalqonsimon bez va jinsiy bezlar ajratib chiqaradigan gormonlar organizmda modda almashinishining katalizatori vazifasini bajaradi.

Chunki endokrin va nerv sistemalari bir-biriga uzviy bog`liqdir. Shunga ko`ra o`smirlik davri bir tomondan quvvatning keskin ortishi va ikkinchi tomondan patogen ta`sirlarga o`ta sezgirligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun aqliy yoki jismoniy ortiqcha toliqish, uzoq muddatli asabiy zo`riqish, affektlar, kuchli salbiy hissiyotlar (qo`rqish, g`azab, xafagarchilik) endokrin buzilishlarga (menstrual tsiklning vaqtincha buzilishiga) va nerv sistemasi vazifasining buzilishiga sabab bo`lishi mumkin.

Bunday buzilishlar ta`sirlanuvchanlikning ortishi, o`zini tuta bilmaslik, parishonxotirlik, ishda mahsuldorlikning pasayishi, uyquning buzilishi kabilarda namoyon bo`ladi. O`smirlik davrida endokrin va nerv sistemalari faoliyatining bolalik davrida mavjud bo`lgan muvozanati buziladi, yangisi esa yendigina o`rnatilayotgan bo`ladi.

Bunday qayta qurilishlar albatta o`smirning ichki holati, kayfiyati, ruhiyatiga ta`sir ko`rsatadi va ko`pincha uning umumiy noturg`unligiga, ta`sirlanuvchanligiga, serjahlligiga, harakat faolligiga, vaqti-vaqti bilan hamma narsalarga befarq bo`lib qolishligi va lanjligiga asos bo`ladi. Bunday holatlarning yuzaga kelishi ko`pincha qizlarda menstrual tsikl boshlanishidan biroz oldinroq yoki tsikl davrida ko`proq kuzatiladi.

Jinsiy balog`atga etish va jismoniy rivojlanishdagi o`sinh o`smir ruhiyatida yangi psixologik tuzilishlarning yuzaga kelishida muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, bu o`smir uchun juda sezilarli bo`lgan o`zgarishlar bo`lib, ular o`smirning katta bo`lganini his qilishining yuzaga kelishining obektiv manbasi bo`lib xizmat qiladi (uning asosida o`smir o`zining kattalarga o`xshashligini his qiladi). Ikkinchidan, jinsiy balog`atga etish boshqa jins vakiliga qiziqishni rivojlantiradi, yangi kechinma, hissiyot, tuyg`ularni yuzaga keltiradi.

O`smirning ichki bandligi va yangi taassurotlar, kechinmalarga munosabati darajasi ularning o`smir hayotidagi o`rni keng ijtimoiy sharoitlar bilan, o`smir

hayotining konkret individual sharoitlari, uning tarbiyasi va muloqoti xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu o`rinda o`smir shaxsi shakllanishiga faqat kattalar uchun mo`ljallangan kitoblar va kinofilmlar salbiy ta'sir ko`rsatishi mumkin.

Bularning barchasi, shuningdek o`rtoqlari bilan sevgi va jins muammolari haqida gaplashishlari o`smirlarda odamlar munosabatlarning intim jihatlariga ko`tarinki qiziqishni yuzaga keltirishi, erotik an'analar va ilk seksuallikni rivojlantirishi mumkin. Har ikkala jins o`smirlari uchun bu davrda ilk romantik hislarning yuzaga kelishi «birinchi muhabbat»ga duch kelishi, birinchi bo'salarni olish kabilar me'yoriy hol hisoblanadi.

KONFLIKTLI VAZIYATDA AGRESSIYA VA ZO'RAVONLIK

*Mirzaliyeva Gulbahor Mirzahamdorovna
Farg`ona viloyati Quva tumani 63-IDUMI psixologi*

Agressiya kabi psixologik xolatlar pedagogik konfliktlarga ham xos bo`lgan hususiyatdir. Agressiya bu boshqa insonga ko`rsatilayotgan psixologik yoki jismoniy zo`ravonlik holati bo`lib, agressiv tomonlarning to`qnashuvining psixologik-ruhiy natijasi, o`zga tomonga nisbatan qo`qqisdan shakllangan his-tuyg`u, o`zini muhofaza qilish, yoki o`zga odamga bosim va taz`iyq o`tkazish shakli sifatida konflikt vaziyatlarning odatdagi hamrohi hisoblanadi. Ya`na bir boshqacha qilib aytadigan bo`lsak, agressiya va zo`ravonlik o`zaro bog`liq tushunchalar bo`lib, inson kayfiyatida agressiv holatlarning o`sib borishi va to`planishi oqibati sifatida zo`ravonlikka olib kelishi mumkin. Lotin tilida agressiya “hujum qilish” ma`nosini anglatadi. Agressiya inson xarakterida tug`ma va

tabiiy bir element sifatida, xuddi shuningdek, agressiyadan asli uzoq odamning favqulodda vaziyatda o'z emotsiyalarini tuta bilmasligi ularni nazorat qila olmasligi oqibatida vujudga kelishi mumkin. Tabiiy ravishda o'qituvchi agressiyasining har qanday ko'erinislari nomoyon bo'lishidan pedagogik jarayonni va uning barcha ishtirokchilarini muhofaza qilmog'i lozim.

Konfliktli vaziyatlarda ko'pchilik o'z instinktlari va hissiyotlari asosida o'zini tutishga o'rganib qolgan. Bunday holni ko'pchilik qabul qiladi va aynan mana shu yo'l to'g'ri deb biladi. Shu bois, konfliktli vaziyatda zo'ravonlik ishlatilsa, bironing hayotiga tahdid solinsa, jismoniy kuch ishlatish qo'llanilsa, ko'pchilik, ziddiyat mavjud ekanligini hisobga olgan holda, bu vaziyatlarda "kechirimli bo'lish" lozimligini, bunday holatning kelib chiqqanligini anglash mumkinligini ta'kidlashadi. Ammo, har qanday vaziyatda ham bironing hayoti, uning sog'lig'iga zo'ravonlik o'tkazib bo'lmasligini unutishadi.

Shu bois agressiya holatlarda eng avvalo tinchlanish talab etiladi. Pedagogik konfliktlar ishtirokchilari o'z g'azab, jahl va qahrini yengib o'tishga o'rganishi darkor hisoblanadi. O'qituvchilar o'zlari va o'quvchilarni g'azab, jahl va qahrdan poklashga o'rgatishlari zarurdir.

Zo'ravonlik aslida inson xarakterining qusuri, uning kamchiligi hisoblanadi. Odam o'z hissiyotlari ustidan nazorat o'tkaza olmasligi, yoki o'zini tiya bilmasligi uning zo'ravonlikka ruju qo'yishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Zo'ravonlik insonning kuchli ekanligini emas, balki aksincha uning kuchsiz va irodasiz ekanligini ko'rsatadi. Shu bois, o'qituvchi o'z o'quvchilariga zo'ravonlik o'tkazganda, bunday zo'ravonlik irodasizlik belgisi sifatida baholanishi tabiiydir.

Zo'ravonlik qo'llanilganda konfliktning yaratuvchanlik xususiyati emas, balki vayron etish xususiyati faol bo'ladi. Konfliktning vayron etish xususiyati esa insonni stress, depressiya, o'zgalardan o'zini olib qochish, hayotdan bezish, o'z kuchiga haddan tashqari ishonch, boshqa tarafdin o'z kuchiga ishonmaslik, doimiy jahldorlik, jizzakilik, tajanglik, besabrlilik, besaromjonlik kabi holatlarga olib keladi.

Zo'ravonlik ishlatgan insonlar ko'pchilik hollarda ma'naviy jihatdan to'la shakllanib bo'lmagan, ma'lum "kompleks"larga ega bo'lgan, ma'naviy majruh odamlardir. Ular aslida o'zlarini juda past baholashadi, ular o'zlarining "nosog'lom"

ekanliklarini intuitiv tarzda anglashadi, shu bois bu xususiyatlarning mavjud ekanligini ko'rsatmaslik, oshkora etmaslik, bировlar mazkur "past" baholanishni bilib qolmasligi va sezmasligi uchun, tashki ko'rinishda va muomalada, zo'ravonlik yo'lini, agressiv usulni, jahl va tahdidga asoslangan "o'zini tutish" yo'nalishini tanlashadi. Ular aynan zo'ravonlik orqali o'zlarining kuchlarini ko'rsatmoqchi bo'ladilar, ammo ruhan bunday odamlar ruhiy majruh va psixologiyasi mo'rt odamlardir.

Pedagogika va psixologiya bilan oz-moz tanish bo'lganlar darrov mana shu agressiya ortida insonning o'ziga ishonchi mavjud emasligini bilib olishadi. Demak, o'zini zo'ravon va jahldor qilib tutayotgan odamlar aslida o'zlari xarakterida mavjud bo'lgan "o'zigaishonmaslik"ni yashirishga harakat qilayotgan odamlardir. Ular bu narsalarni tan olmasligi, yoki anglamasligi ham mumkin. "Men "zo'r"man, shuning uchun hamma narsani qilaveraman", degan aqidaga ishonishi ham mumkin. Ammo zo'ravonlik harakatlari ortida turgan barcha maqsadlar, aslida, insonning ma'naviy bo'shligi, yetuk emasligi, to'laqonli ma'naviy shakllanmaganligi, uning o'z emotsional holatini va o'z harakatlarini nazorat qila olmasligi, irodasiz va bo'shligining yorqin natijasi va namoyishi hisoblanadi.

Zo'ravonlik va konfliktologiya sohalari o'zaro bog'langan masalalardan hisoblanadi. Aslini olganda konfliktologiyaning mustaqil fan sohasi sifatidagi shakllanishi va rivojlanib kelayotganligiga ko'p bo'lganicha yo'q. Shu bois inson xarakteri va amallariga hos bo'lgan zo'ravonlik ham yangi o'rganilayotgan va tan olinayotgan sohalardan hisoblanadi.

Ko'pchilik hollarda konfliktni tushunish uchun mavjud zo'ravonlik sabablarini anglash lozim bo'ladi. Chunki hayotda oilaviy zo'ravonlik ko'proq uchrab turadi. Zo'ravonlik nima oqibatlariga olib kelishi mumkinligini bilgan odam uni yengillik bilan, o'ylamay qo'llamaydi. Zo'ravonlikdan voz kechish - konfliktida ijobiy natijaga asos bo'ladi. Eng muhimi, zo'ravonlik ziddiyatning yechimi bo'la olmasligi, zo'ravonlik ziddiyat hamda muammoni hal etmasligini anglash darkor. Har qanday kuchli konflikt ham, tomonlarning juda kattiq o'zaro to'qnashuvi ham zo'ravonlikni ishlatish va qo'llash uchun asos bo'la olmaydi. Shu bois, kattiq to'qnashuv, ya'ni ziddiyat zo'ravonlikka olib keladi, deb o'ylash xato va noto'g'ridir.

Ba'zi insonlar tug'ilishidanoq o'zining xarakterida agressiyaga moyillikni namoyon eta boshlaydi. Biroq bunday insonlar ham bolaligidanoq ma'naviy, pedagogik-psixologik nuqtai nazardan yaxshi va to'g'ri tarbiya qilinsalar, ular o'zlarini agressiyani cheklash hamda birovlariga tahdid solmaslik darajasida ushlab turishga erishadilar. Ma'naviy yetuklik – zo'ravonlikka qarshi qaratilgan va uni yenga oladigan yo'l hisoblanadi.

Tabiiy agressiyaga moyillik o'zini turlicha namoyon qiladi. Masalan, qariyalarning hayotdan charchashi oqibatida yaqinlari, qarindoshlariga nisbatan bo'lgan agressiyasi, tajribasiz yosh o'qituvchi o'quvchilariga avtoritar uslubda yondashgan holda, har doim o'z topshiriqlarini majburiy bajarishga va buyrug'ona fikrlarini o'quvchilarga singdirishga harakat qilishi va er o'z xotinini vaqti-vaqti bilan urib turishni uni "tarbiyalash" usuli sifatida baholashi va o'z "falsafasi"ga ishonishi, rashk oqibatidagi agressiya 14-15 yoshli o'g'il bolalarning ko'chama-ko'cha jang uyushtirishlari, talaba-yoshlar o'rtasida bir-birini ko'ra olmaslik oqibatida - bular turli agressiya ko'rinishlaridir. Mana shu hamma holatlarda o'zini oshkora qilayotgan bosh xususiyatlardan biri o'z fikri va qarashlarini zo'ravonlik oqibatida boshqalarga tushuntirish, o'zini ko'rsatish, o'z manfaatlarini singdirishga sayi-harakat hisoblanadi. Demak, zo'ravonlik o'z manfaatlarini kuch va tazyiq orqali o'zgalarga o'tkazishga urinishdir. Ya'ni, ba'zi odamlar o'z fikrini boshqalarga singdirishning zo'ravonlik va agressiyadan boshqa usullarini bilmaydilar va qo'llay olmaydilar ham. Shuning uchun ular uchun o'z manfaatlarini muhofaza qilish - zo'ravonlik yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tabiatan agressiv odam – hayotda doimiy va abadiy konfliktogen hisoblanadi. Konfliktogen odam o'z kayfiyati, his tuyg'ularini jilovlashni umuman bilmaydi, shu bois o'z muammolarini o'zgalar hisobiga yechib, o'z agressiyasini tarqatish, boshqalarga berish orqali bu holatdan chiqishga urinadi. Bunday odam odatda "vampir" deb ataladi. "Vampir"lar boshqa odamlarning emotsiyalarini, his-tuyg'ularini yeyish, ularni boshqarish va o'ziga og'dirish hisobiga kun ko'radi. Ular boshqalarga qattiq emotsional tahdid solish va ularni azoblash hisobiga o'z agressiyalaridan ozod bo'ladilar. Shu bois, agressiv odam o'z atrofida qilargalarga juda ko'p kulfatlar olib keladi.

Agressiv kayfiyat batamom yomonmi yoki uning foydali tomonlari ham mavjudmi?! Ma'lum darajadagi ijobiy agressiya, biror-bir maqsadga yetish, o'zini muhofaza qilish, biror bir narsani amalga oshirishdagi qat'iylik – zaruriy holat hisoblanadi. Qasd qilmasdan turib biror-bir maqsadga erishib bo'lmaydi. Ya'ni, ma'lum bir darajada qat'iylik insonga zarur bo'lgan hislatlardan hisoblanadi. Umuman agressiv bo'la olmaydigan odam xaraktersiz likda, landovurlikda, bo'shliq, qat'iyatsizlik, o'zini muhofaza qila olmaslikda ayblanadi.

O'SMIRLARDAGI KAYFIYATNING KESKIN O'ZGARISHLARI – DEVIANT XULQ-ATVOR KO'RSATKICHI SIFATIDA

Atamurodova Muxabbat

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 36-maktab psixologi

O'smirning rivojlanish jarayoni turli shart-sharoitlarda kechuvchi muayyan qiyinchiliklar uning shaxslilik xususiyatlariga bevosita bog'liqdir. Psixologik muammolar yechimini topishda o'smirlar katta to'siqlarga duch keladilar. O'zi duch kelgan muammo yechimini topa olmagan o'smir ba'zan uni destruktiv yo'l bilan hal qiladi, natijada o'smirning shaxs sifatida shakllanishi yanada murakkablashadi. Bu bizga o'smirlik davri rivojlanishiga xos bo'lgan aniq murakkabliklar asosida psixologik muammolar yotadi, deyishimiz uchun asos vazifasini o'taydi.

Psixologik muammo - bu esa psixikada aks etgan mavjudiyatning muhim savollaridan biridir. SHaxsni qanoatlantirmaydigan vaziyatlarda ko'pincha o'smirning "Men"i qarama-qarshilikka uchraydi, ya'ni balog'at yoshidagi qiyinchiliklarga duch keladi. Qandaydir talab qilinayotgan sharoit va uni o'zgartirish vositalarining mavjud emasligi

bilan bog'liq nomutanosiblik hamda psixologik to'siqlar o'smir ongida "qiyinchilik" tarzida aks etadi. Mazkur holatlar ayrim o'smirlarda o'z irodasiga tayanib, uni bartaraf etishga undaydi, boshqalarida esa kurashish ishtiyoqini orttiradi. SHunga qaramay, ularga asosan salbiy his-tuyg'ular bilan bog'liq o'zgarishlar xosdir. Ammo, hayotda muammolarsiz, turfa qiyinchiliklarsiz yashab olmaydi. O'smirlarning muayyan qiyinchiliklarni konstruktiv tarzda yengib o'tishlari, ularning rivojlanishini yangi pog'onalarga ko'taradi.

Qayd etish shartki, barcha psixologik muammolar rivojlanish anomaliyasini tashkil etmaydi. Psixik og'ish quyidagi: distress, noadekvatlilik, irratsionallilik, g'alatilik, kamyoblik, ma'naviy me'yorlarning buzilishi kabi parametrlarlarni o'z ichiga oladi. Ushbu kriteriylarning bittasi yoki ulardan birining alohida uchrashi psixik buzilish diagnozini qo'yish uchun yetarli emas. O'smirlar, ularning ota-onalari va pedagoglar tomonidan anglangan qiyinchiliklarga o'z diqqatimizni qaratamiz. Rivojlanishning yangi darajasiga o'tishdaga ijtimoiy vaziyat, yangi faoliyatni o'zlashtirishdagi qarama-qarshiliklar va hokazolar ularni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar hisoblanadi.

2000 yilda Amerika psixologlar assotsiatsiyasi psixik buzilishlarga olib kelevchi ijtimoiy va jismoniy omillarni ko'rsatib o'tdilar. Psixik buzilishlarning aksariyat qismini psixik holatlar yoki qaytariluvchi noadekvat xulq-atvor shakllaridan iborat va klinikada davolanishni talab etuvchi simptomlar tashkil etadi. Bular qandaydir psixik funksiyalarning buzilishlariga sabab bo'luvchi va insonlarga azob beruvchi simptomlardir. SHaxs buzilishlari tashqi olamdagi voqelikka reaksiya va idrok qilishning disfunksiyalari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Tibbiy kasalliklar parametri bo'yicha psixik funksiyalar buzilishi va xulq-atvorning psixik buzilishlarini tushunish uchun jismoniy og'ishlar ham qayd etiladi. Kasalliklarning xalqaro klassifikatsiyasi (MKB-10)da 200 dan ortiq bunday buzilishlar qayd etilgan. Boshqa bunday farqlanuvchi psixik xususiyatlarni me'yordan psixik og'ish holati deb atash mumkin emas. Tabiiyki, bunda irodaviy, emotsional, xarakterologik, ehtiyoj, qadr-qimmat kabi shaxslilik jabhalarida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Boshqa tomondan, yuqorida qayd etilgan xususiyatlarni *kattalikka o'tish qiyinchiliklari* deb atash mumkin, faqatgina ularni o'z vaqtida payqash kerak. Muammoga oid adabiyotlar tahlilida kattalikka o'tish qiyinchiliklari sifatida:

kayfiyatning buzilishi, yolg'izlikni his qilish, depressiya, xavotirlanish va boshqa holatlarni uchratish mumkin.

Kayfiyat-kechinmaning bir shaklidir. Umumiy psixologiyada his-tuyg'u o'z-o'ziga, atrof-muhitdagi predmetlarga nisbatan munosabatni boshdan kechirish¹ tarzida aniqlanadi. Boshdan o'tkazish - bu chidamoq yoki bardosh bermoq degan ma'noni anglatadi. Inson o'zi uchun qimmatga ega bo'lgan narsaga o'z munosabatini bildiradi². Hodisa, inson intilishlari va yo'nalganligidan yiroqroq bo'lib, his-tuyg'ularni qo'zg'atmaydi.

Kayfiyatning buzilishi deganda, odatda turmushning me'yorda kechishiga salbiy ta'sir qiluvchi g'amginlik, umidsizlik va g'am-g'ussaga berilish tushuniladi. Bir qator olimlarning izlanishlari ko'rsatishicha, 19% insonlar o'zlaridagi yomon kayfiyat nimaligini tushunadilar. Olimlar kayfiyatning buzilishini irsiy shartlanganlik va miyaning holati bilan bog'lab tushuntiradilar. Monozigot egizaklarda o'tkazilgan tadqiqotlarda egizaklardan birining kayfiyatida o'zgarishlar ro'y bersa, uning egizida ham shu holat (taxminan 67 foizida) kuzatilishi mumkin. Polizigot egizaklarda bu ko'rsatkich kamroq, 20 foiz³ni tashkil etadi. Aytish mumkinki, psixik rivojlanishning muayyan orliqlaridagi o'zgarishlarida kayfiyatning buzilishi depressiya ko'rinishiga ega bo'ladi. Biroq, kayfiyat faqatgina salbiy emas balki ijobiy tomonga o'zgarishi ham kuzatiladi. Bu esa o'smir uchun kutilmagan holat bo'lishi bilan birga unda hayron qolish, ba'zan esa aynan o'ziniki qilib olish bilan kechadi.

Misol. Psixologik konsultatsiya markaziga kelgan patsiyent o'zidagi holatni anglay olmayotganligidan, darslarda faqat guyo uning soyasi o'tirganidan, fanlarni o'zlashtirishga qiynalayotganligidan shikoyat qildi.

Patsiyent: avvaliga o'zidagi mavjud holatni anglay olmayotganligini, keyingi suhbatlarimizda esa aslida o'zi omadsiz ekanligini ta'kidlab, nimaiki qilsa, natija u kutgandek bo'lmasligi, uning kayfiyatsizligini belgilashi mumkinligiga ishora qildi.

Psixolog: ongostlilik uchun noma'lum bo'lgan va anglanmaganlikning o'zaro aloqadorligiga oid dastlabki ma'lumotlarni psixologik tahlil qilish orqali muayyan

¹В. Даля. Рус тили луғати

²Герриг Р., Зимбардо Ф. Психология и жизнь. СПб.: Питер, 2004. С. 759.

³Уша жойда

xulosaga kelish mumkin, degan taxmini asos qilib oldi. Semantik intuitsiyaning markazida reallikni aytib berishdan iborat intuitiv qobiliyat yotishini hisobga olib konsultatsiya jarayonini boshladi. Patsiyentning mazkur holatini birlamchi va keyingi ma'lumotlarning o'zaro aloqadorlikda kechishini qiyinchilik bilan tan olishi bilan bog'liqligini inobatga olib, ob'ektiv haqiqatni sub'ektiv tahlil orqali ochishga harakat qilindi. Buning uchun uning hayotiga oid ayrim muammolar yechimini topish uchun uni ob'ektiv intuitsiyaga yo'naltirishdan boshlandi. To'g'ri, patsiyent natijani prognoz qila olmaydi aksincha, semantik intuitsiyada hodisaga bog'liqlik kuzatilmaydi. SHuningdek, intuitsiyaning ushbu turi ongning faolligini oshiradi, ammo uning nazoratini amalga oshirmaydi. Ko'zlangan maqsad intuitiv aytib berishlar bilan belgilanadi. Intuitiv aytib berish orqali muammoning tahlilini ochish imkoniyati tug'iladi va patsiyentda o'z holatini muayyan tarzda anglash, muammo yechimini izlash hamda topishga ishonch uyg'onadi. O'smirlik davrida kayfiyatning beqarorligi qalqonsimon bez faoliyatining ortishi, organizm rivojlanishidagi yangi o'zgarishlarning sodir bo'lishi bilan kechishiga bog'liqligini, shunga ko'ra, bu o'zgarishlarni o'smirlik davrida tushunish mushkulligini hayotiy misollar va maxsus videoroliklar yordamida anglashi uchun imkon yaratdi.

SHunday qilib, o'smirlik davriga xos kayfiyat buzilishlarida ota-onalar va pedagoglar o'z psixik holatini boshqara olishlikni o'rgatishlari kerak. Buning uchun o'smirlarga:

1. Agar kayfiyatingizda o'zgarish sezsangiz, uni kelib chiqish sababini tushunishga harakat qiling, vaziyatni o'zgartirish mumkinmi?

2. Agar jahlingiz chiqib, o'zingizni bosa olmayotganingizni his qilsangiz: a) Sizni xafa qilgan dilozorga "Siz juda zo'r fikrlaysiz, yaxshisi bu masalani keyinroq muhokama qilarmiz" - deb ayting.

3. O'ylamasdan harakat qilmaslik uchun faqat yaxshilik haqida o'ylang.

4. O'z o'zingga bo'shashish uchun imkon ber. U asab-mushak tizimini zo'riqishdan asrab qoladi. "Vaqti kelib men hammadan kuchli bo'laman, o'zimdanda kuchsizlarga ozor yetkazmayman".

5. O'zingdan jismonan kuchliroq uchun Sening ustunliging - bu sening aqlingdir. Sen o'zingga ishon, buni uddalaysan.

6. Kuchli hayojonlanish va zo'riqishdan so'ng albatta jismoniy mashqlarni bajar, toza xavoda dam ol.

7. Ko'tarinki kayfiyatdan xursand bo'lib, uni kim bilandir o'rtoqlashmoqchi bo'lsang, bu yaxshi, chunki u Sening harakatlaring samarasi. Xursandchilik besabab bo'lmaydi. Doimo shunday harakat qilsang, undan-da yuqori natijalarga erishi olasan.

8. Sen o'zingni qanday tutsang, o'zgalar Seni shunday qabul qiladi. O'zingga ishon Sen bundan ham ortig'iga loyiqsan.

Hurmatli ota-onalar va o'qituvchilar! Maktabingizda tahsil olayotgan o'smirlar yaxshi o'qishlari, bir birlariga e'tiborli bo'lishlari va o'zaro hurmatli bo'lishlari uchun Siz juda katta kuch va energiya sarf qilasiz. Ammo, o'smirlarning kattalar safiga qo'shilish jarayoni o'ta murakkab va mashaqatli yo'lni talab qiladi. Mazkur qiyinchiliklarni yengib o'tishlari uchun ularga albatta Sizning yordamingiz zarur.

ЎСМИРЛАРДА ТАРБИЯ БУЗИЛИШИ КЕЛИБ ЧИҚИШИНING ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК САБАБЛАРИ

*Киргизова Рохия Исакжановна
Сирдарё туман 10 мактаб психолги*

Тарбиянинг умумий ижтимоий вазифаси – ёш авлодда билим, кўникма, ижтимоий тажриба ва ахлоқ нормаларини шакллантиришдан иборат. Шу мақсадда ёш авлодга тарбия бериш мақсадга йўналтирилган тарбиявий таъсир, ижтимоий ҳаётда муносабатга киришиш меъёрларини ва шу асосда зарурий шарт-шароит яратишни назарда тутлади. Кузатишлардан маълум бўлишича, тарбияси бузилган болалар тарбия жараёнида педагогик таъсирларга қаршилик кўрсатади, уларнинг ҳулқида ўзини биз хоҳлагандай тутмаслик ҳолатлари кузатилади. Тарбияси бузилган болалар келиб чиқишининг асосий сабабларидан бири уларда ўқишга нисбатан салбий муносабатнинг пайдо бўлишидир. Одатда бундай муносабатнинг пайдо бўлишига бошқа сабалар ҳам таъсир кўрсатиши мумкин.

Жумладан, ўқув фаолияти усули, малакалари тўла таркиб топмаганлиги сабабли нисбий билим олиш билан қаноат ҳосил қилиш, ўзлаштириш қобилиятининг суст ривожланганлиги, муайян вазиятларда ҳукм ва ҳулоса

чиқаришда қийинчиликка дуч келиш, ўқитувчилар томонидан ўқувчига объектив баҳо бермаслик, ўқитувчининг боладаги индивидуалпсихологик ва интеллектуал имкониятига етарлича эътибор бермаслик, ўқитиш савиясининг пастлиги, дарсларни қизиқарсиз ўтилиши ва бошқалардир. Тарбияси бузилган болалар келиб чиқишининг яна бир сабаби – уларнинг синф жамоаси ва турли хил жамоатчилик ташкилотлари билан яхши алоқада бўлмаслигидир. Ўқувчи билан жамоа фикрининг мос келмаслиги унинг жамоа ичида ўз ўрнини борган сари йўқотиб боришига сабаб бўлади. Унутмаслик керакки, ўсмирнинг ҳар бир хатти-ҳаракати у билан ҳисоблашиш кераклигидан бошқа нарса эмас. Шунинг учун жамоа аъзолари бундай ўсмирнинг қарашларини вақти-вақтида ҳисобга олишларияхши натижа беради. Ўсмирнинг фикр ва қизиқишларини жамоанинг қўллаб-қувватламаслиги ёки бепарволиги уни қонунбузарликка ундайди ва хулқ оғишининг келиб чиқиши учун имконият яратади. Натижада ўсмир учун келажак режаларининг поймол бўлиш хавфи туғилади. Ўқишдан ва жамоадан юз ўтирган ўсмир ўз келажagini, орзуумидларини мактаб ва жамоа фаолиятига боғлашдан кўра, янги улфатлари билан алоқа қилишни афзал кўради ва бошқа кишилардан нажот излайди. Натижада ўсмир носоғлом хулқли болалар тўдасига тушиб қолади ва улар хулқатворига хос бўлган характерга эга бўлади. Оилавий шароитнинг салбий таъсири ҳам тарбияси оғир ўсмирларнинг келиб чиқишига сабаб бўлади. Айрим оилаларда бола учун зарурий имкониятлар мавжуд эмаслиги сабабли у нохуш ҳолат билан ёлғиз кураш олиб бориш кечинмалари билан яшайди. Ўсмир дунёсида оилавий шароитга нисбатан пайдо бўлган норозилик ҳисси кундан-кун авж олиб, ички қўзғолонга айланиб боради. Бундан ташқари ота-она ўртасидаги муносабатларнинг носоғломлиги, баъзи ота-оналарнинг спиртли ичимликларга рўжу қўйишлари ҳам ўсмирнинг рухий дунёсига салбий таъсир кўрсатади.

Маълумки бирор бир ижтимоий ва биологик ҳодисанинг содир этилиши учун қандайдир бир сабаб ва шароит бўлишлик талаб этилади. Қандайдир бир сабаб иккинчи бир ҳодисанинг юзага келишига туртки бўлади. Бу фалсафий нуқтаи назардан қаралганда сабабий боғланишлар жараёни тарзида тушунтирилади. Худди шундай хулқ оғишининг келиб чиқиши ҳам қандайдир

сабабий боғланишга боғлиқ ҳолда намоён бўлади. Болалар ва ўсмирларда хулқ оғиши ва тарбия бузилишининг келиб чиқишига таъсир этувчи сабаб ва омилларни ўрганар эканмиз, уларнинг субъектив ва объектив кўринишларини бир-биридан фарқлаш лозим бўлади. Хулқ оғиши ва тарбия бузилишининг субъектив сабабларига –ўсмир шахсининг қизиқиш ва эҳтиёжлари, дунёқараш ва маънавий олами, мақсад ва йўналишлари, қадриятлари, ҳуқуқий онги, ҳаётий режалари, турмуш тарзи ва мотивлари (ҳаётий йўналиши, мақсад ва қарашлари) киради. Субъектив шартшароитларига эса аҳолининг демографик ва ижтимоий-психологик хусусиятлари, хусусан этнопсихологик жиҳатлари, характери, темпераменти, ёши ва жинси киради. Объектив сабаблар сифатида жамиятдаги носоғлом муҳит, шарт-шароит, иқтисодий ва сиёсий беқарорлик, кичик ижтимоий гуруҳлардаги ижтимоий-психологик муҳит, кишилар билан бўладиган ўзаро шахслараро муносабатлар намоён бўлади. Хулқ оғиши ва тарбия бузилишининг объектив шарт-шароитлари эса, жамиятдаги ташкилий ва техник хатоликлар, бошқарув тизимидаги камчиликлар, қонун ва қоидаларнинг талабга жавоб бермаслиги ва бошқалардан иборатдир. Шунингдек, хулқ оғиши ва тарбия бузилишининг келиб чиқиш сабабларини аниқлаш энг аввало, у юзага келган ижтимоий муҳит хусусиятларини ўрганиб чиқишни тақозо қилади. Чунки хулқ оғишини умумий кўринишида оладиган бўлсак, у бирор бир шахсга хос бўлган субъектив ҳулқатвор натижаси эмас, балки субъектив ва объектив жараёнлар, шарт-шароитлар, муносабатлар натижаси сифатида юзага келади. Шу нуқтаи назардан олиб қаралганда ижтимоий жараёнларнинг индивидуал хатти-ҳаракатларга таъсири масаласига оидинлик киритиш зарур бўлади. Маълумки, инсон ижтимоий муносабатлар қуршовида яшайди.

Ижтимоий муносабатлар ва жараёнларнинг шахсга таъсири масаласи ижобий ёки салбий кўринишда бўлиши мумкин. Индивидга ижтимоий жараёнларнинг ижобий ёки салбий таъсир этиши биринчидан, шахснинг индивидуал-психологик хусусиятларига боғлиқ бўлса, иккинчидан ижтимоий муҳит воқеа-ҳодисалари хусусиятлари ва шарт-шароитлари мазмунига кўра намоён бўлади. Яъни ижтимоий муҳитнинг соғлом ёки носоғломлиги ва унинг

таъсирчанлик даражасига кўра, индивидга у ёки бу кўринишда таъсир этади ва жинойтчилик хулқининг келиб чиқиши учун қандайдир маънода имконият яратади. Шахс хулқ-атворидаги бузилиш ижтимоий муҳитнинг ўзига хос жиҳатлари, яъни соғлом ва носоғломлигига, индивиднинг феъл-атвори, характер хусусиятлари, ижтимоий меъёрлар ва шахс ўртасидаги зиддиятлар ҳамда уларнинг зўрайиб бориши кабиларга боғлиқ бўлади. Шахснинг дунёқараши, яъни қадриятлар ориентацияси, ижтимоийлашуви ва индивидуал ҳиссиётларининг ижобий тарзда шаклланиши ва намоён бўлиши кишини жамият ва инсоният учун фойдали бўлган хатти-ҳаракатларга ундайди. Шунини унутмаслик керакки, ташқи муҳит ёки ижтимоий воқеа-ҳодисалар ҳар доим ҳам хулқ оғиши ва тарбия бузилишининг келиб чиқиши учун асос бўлиб хизмат қилмайди. Қачонки, ижтимоий воқеа-ҳодисалар ва индивид ўртасида қарама-қаршилик ва зиддиятлар юзага келса, жамиятда ҳукм сураётган ижтимоий нормалар индивид томонидан қабул қилинмаса ҳамда ижтимоий муҳитда хулқ оғишининг келиб чиқиши учун етарли шарт-шароит мавжуд бўлса, хулқ оғиши келиб чиқиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. С.Х.Таджиева, Д.Ғ.Сабилова “Танглик вазиятида қолган болага психологик ёрдам кўрсатиш”. Т.: РБИММ, 2011 й.
2. У.Ж.Усманов «Ўзбек хотин-қизлари суцидал хулқининг (ўзини ёндириш) ёш психологик хусусиятлари». Кон.дис.авт.реф. Т.,1993.
3. Т.Ғ.Сулейманова “Ўсмирлик даврига хос суцидал хулқнинг психологик коррекцияси хусусиятлари”. Ном. дис.Тошкент - 2011.

BOLA RUHIYATINI SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Kirgizova Roxilya Isakjanovna
Sirdaryo tuman 10-maktab*

Annatsiya: Maqolada bola ruhiyatini shakllanishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari borasida fikr yuritilgan.

The article gives an idea of the social psychological features of the formation of the child psyche.

В статье рассмотрены социально-психологические особенности формирования психики ребенка.

Kalit so'z: psixologik xususiyat, giperaktiv bola, ruhiyat.

Bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazish hisoblanadi. Buning uchun avvalo onaning homiladorlik davridan boshlab bolaning ruhiy salomatligini saqlash uchun homiladorlik davrida asab tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan himoyalashimiz, ruhan tetik farzand dunyoga kelishiga zamin hozirlaydi.

Darhaqiqat, tarbiyani bola ona qornidalik davridanoq boshlashimiz kerak. Mutafakkirlarimizdan biri Abu Ali Ibn Sino ham, tarbiyaerta bolalik davridan boshlanishi va u bolani qo'rqqoq, g'amgin yoki juda erka qilib o'stirmaslikni, ota-onabola nimani istayotganini doimo sezishi va o'sha narsani bolaga yetkazib berish gaharakat qilishi, yomon narsalardan esa yiroqlashtirishlari zarurligini uqtirgan. Bu qoidalarga rioya qilish bolaning zehni o'tkir, tanasining sog'lom o'sishini ta'minlashihaqida fikrlar bildirgan.

Bizga ma'lumki, bolalar yashashni hayotdan o'rganadilar. Agar bola tanqidqilinaversa, nafratlanishga, adovatda yashasa tajovuzkorlikka o'rganadi, masxaraqilinsa, u indamas, odamovi bo'lib qoladi, hadeb tanqid qilinaversa, u o'zini gunohkor hisqilib o'sadi. Agar sabr-toqad, xotirjamlik bilan o'stirilsa, u boshqalarnitushunishni, maqtalsa, u minnatdor bo'lmoqlikni o'rganadi. Agar bola

viydonylik vahalollikda ulg'aysa,u adolatli bo'lishni, xavsizlikda yashasa hamda qo'llabquvvatlansa,unda o'z kuchiga ishonch paydo bo'ladi va boshqa insonlarga ishonishlozimligini o'rganadi.Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib,biz geperaktiv bolalar haqida bir oz fikryurutmoqchimiz.

Xo'sh bu sindromning kelib chiqish sabablari nimalardan iborat?

- homiladorlik vaqtidagi turli kasalliklar (anemiya, avitaminoz, infeksiyalar, aroqxo'rlik, chekish, nevrologik kasalliklar va hokazo);
- tug'ruq vaqtidagi asoratlar;
- go'daklik vaqtidagi asoratlar;
- ota-ona orasidagi urush- janjallar;
- noto'g'ri tarbiya bu sindromning asosiy sabablaridandir.

Bu sabablar asosida bolada iroda,his-tuyg'ular va xulq-atvorning buzulishlari kuzatiladi.Buning natijasida bolalarda bir joyda tinch o'tira olmaslik,boshlagano'yinini oxiriga yetkazmaslik,birov (ayniqsa ota-ona) ning gapiga quloq solmaslik ,o'z bilganidan qolmaslik,qaysarlik,diqqatning pasayishi,uyqusizlik, atrofdagilarni ishiga vaboshqa bolalarni o'yiniga aralashish,ularga halaqid berish,tez-tez janjalchiqarish,ukalariga azob berish yoki ularga butunlay befarqlik,o'zining narsalarinibog'cha, maktab yoki boshqa joyda unitib qoldirish,berilgan savolga shoshib javobberish,tez xafa bo'lish,yig'loqilik, boshi og'rib turishi, fikrning tez chalg'ishi,sergaplikholatlari namoyon bo'ladi.

Giperaktiv bolaning aksaryati o'z tengqurlaridan zehni o'tkirligi bilan ajralibturadi.Shunday bo'lsada ularning nutqi yaxshi bo'lmasligi,nozik harakatlar talabqiluvchi ishlarni bajarish yoki yangi mashg'ulotlarni o'zlashtirishda qiynalishlarimumkin. Ularning ba'zilari, umuman,rasm solishga no'noq bo'lsa, boshqa birlari(ayniqsa chapaqaylari)juda kuchli rassom bo'lishadi.Yuqorida sanab o'tilgan simptomlarning 70 foizi aniqlangan bolalarga giperaktivsindrom tashxisi qo'yiladi.Bunday sindrom aniqlangan bolalarni ota-onalariga quydagilarni tavsiya etamiz;

- to'g'ri munosabatda bo'lish;
- sabr-toqad doimo hamrohingiz bo'lsin ;

- qattiqqo'llikni va rahimdillikni me'yorini biling;
- ortiqcha tanqid qilmang;
- qo'yilgan talab uning yoshiga mos bo'lsin;
- bola tarbiyasi haqida uning yonida bahslashmang;
- har bir kamchilikni unga yotig'i bilan tushuntiring;
- bolani turli tugaraklar va sportning o'zi istagan turiga qatnashtiring;
- ishlarini rag'batlantirib turing;
- "Yo'q", "Mungkin emas", "Hali mendan ko'rasan", "Bas qil" kabi iboralarni ko'pishlatmang;
- iloji boricha bolaga alohida xona qilib bering va uni turli narsa(o'yinchoqlar, qiziqarli kitoblar, "lego" va hokazo)lar bilan boyiting, ular yaltiroq vaqizil rangda bo'lmasin.;
- bolani uzoq davom etuvchi multfilimlar va kattalar ko'ruvchi kinofilmlardan asrash kerak. Televizor yonida uzoq o'tirish bolaning asabi va ruhiyatiga yomon ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, yuqoridagi fikrlarga amal qilinsa, mustaqil Respublikamizning kelgusidagi rivoji, ravnaqi har tomonlama barkamol, o'zigaboshqalarga, jamiyatga, tabiatga va mehnatga to'g'ri munosabat bildiradigan, mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, ijodkor va tadbirkor shaxslarni tarbiyalashgahissa qo'shgan bo'lar edik.

O'SMIRLARDA STRESS HOLATLARI VA ULARNI PSIXOKORREKSIYASIDA AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING VAZIFALARI

*Mirzaqulova Xursandoy Shavkat qizi 5-IDUM psixologi,
Yalgashova Shohista Shernazar qizi 35-maktab psixologi*

Ma'lumki, o'smir o'quvchilarni ta'lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va hususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan k elib chiqadi. Kichik va katta

yoshdagi maktab o`quvchilariga qaraganda o`smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko`p qiyinchiliklar bo`ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda qiyin kechadi. Bu jarayon o`smirlar psixologiyasining odamlar bilan bo`lgan munosabat formalarining jiddiy ravishda o`zgarishi, hamda hayot sharoitining o`zgarishi bilan bog`liqdir. Bu davrda o`smirlarning o`z shaxsiy fikrlari paydo bo`ladi. Ularda o`z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologiyaning aniqlashi bo`yicha o`smirlarning psixik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatlari bilan tug`iladigan ehtiyojlar bilan bu ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari o`rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir. Qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotini, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik hususiyatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilishdan iboratdir. Shundan k eyin psixik taraqqiyotning yuksakroq bosqichiga o`tiladi. Sana shu nuqtai na zardan o`smirlik yoshini yanada oydinroq qarab chiqaylik. Bola boshlang`ich sinfni tugatadi.

Bolaning o`rta maktabda o`qishga o`tishi uning hayotida burilish davri hisoblanadi. O`smirlarning yangi ijtimoiy jixatdan tashkil topgan va rang-baranglantirilgan faoliyatni uning psixologik hamda shaxsning tarkib topishiga asos, sharoit va vosita xizmat qiladi. Shunday qilib, o`smirlarga ta`lim-tarbiya berishning yangi to`g`ri usullari hamda vositalarni topishi uchun o`smirlik yoshining o`ziga xos hususiyatlarini jismoniy va psixologik taraqqiyotini yaxshi bilishimiz kerak. O`smirlik yoshining mazmuniy xarakteritsikasi vaqt o`tishi bilan o`zgarib boradi, chunki inson xayotining xususan ijtimoiy sharoitlari o`zgaradi. Psixologiya taraqqiyotining biologik omillariga o`smirlar ongiga og`ir, ba`zan kuchi etmaydigan bo`lib tushadigan, ularni jiddiy psixik inqirozga va hayajonga soladigan, masalan: o`smirlar uchun xarakterli bo`lgan norozilik, qo`pollik, qaysarlik, o`z-o`zini analiz qilishga moyillik subyektiv olamga va shunga o`xshash hislatlarni keltiradigan jinsiy etilishga nixoyatda katta axamiyat beradilar. Jinsiy yetilish munosabati bilan paydo bo`ladigan yangi sezgilar fikrlar, maylliklar, kechinmalar go`yo o`smirlar ongida hukmron bo`ladi. Ularning xulqatvorini belgilaydi. Mana shu tariqa o`smirlarning psixologik qiyofalari asosan yolg`iz sof biologik omil deb qaraladi. Psixologlarning

fikricha yosh psixologik xususiyatlari faqatgina yolg'iz biologik jihatidan yetilishi va taraqqiyot etilishining natijasi bo'lmay balki bolaning ijtimoiy hayot sharoitlari va faoliyatlarining o'zgarishi hamda bu jihatdan yangi ijtimoiy omillarning paydo bo'lishi natijasida o'smirning taraqqiyotiga va unga beriladigan maktabdagi ta'lim va tarbiya berishni aniq tashkil qilish o'smirlarning konkret hayot sharoitlari va faoliyatning mahsuli deb qarab bo'lmaydi.

Boshqacha qilib aytganda ijtimoiy sharoitlar rolini konkret hayot sharoitlari va faoliyatlarining rolga almashtirib bo'lmaydi. Mana shu yuqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, o'smirning yoshi va uning hususiyatlari absolyut ahamiyatli kasb etmaydi shu munosabat bilan o'smirlik yoshi mutloqo aniq ma'lum va absolyut chegara hamda xarakteritsikaga ega emas bu erda ancha muhim bo'lgan ma'lum fikrlar bor. Bu farqlarni konkret ijtimoiy omillarning ta'siri bilan va o'smirlarga beriladigan turli ta'lim va tarbiya sharoitlarining ta'siri bilan tushuntirish mumkin. Taraqqiyotning asosiy yo'nalishi bolaning o'smirlik davridagi taraqqiyotining asosiy xarakteritsikasini ajratish mumkin. O'smirlik davri organizmning jo'shqin o'sish davridir. Bu davrda tananing intensiv ravishda rivojlanishi yuzaga keladi, muskul va qo'l apparatlari mustahkamlanadi va skeletning suyaklanish jarayoni davom etadi. O'qituvchilar hamda sinf rahbarlari datsavval shuni chuqur anglashlari lozimki, jinsiy yetilish organizmning jismoniy taraqqiyotiga ta'sir qilishdan ularning psixik rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. O'smirlarda jinsiy yetilish bilan birga shu paytgacha ularga noma'lum bo'lgan qandaydir xislar, kechinmalar qarama-qarshi jinsga spetsifik qiziqish noma'lum mazmundagi kitoblarga qiziqishlarning paydo bulishi tabiiydir.

Shuningdek, o'smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo'la boshlaydi. Chunki bu davrdagi o'quvchilar atrof-olamdagi boglanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o'smirning bilishga bo'lgan qiziqishida progress sodir bo'ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Buning ta'sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyat paydo bo'ladi. Maktabda o'qitiladigan fanlar osmir uchun o'z taxminlarini yuzaga keltirish yoki

tekshirish uchun sharoit bo'lib xizmat kiladi J.Piajening ta'kidlashicha, "Ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri - til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi". Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z-o'zidan tafakkurini yangi imkoniyatlarini yaratadi.O'smirning faoliyati o'qish mehnat va o'yin jarayonlarini o'z ichiga oladi.Mana shu jarayonga to'xtalib o'tamiz.

1.O'smir kichik maktab o'quvchilaridan farq qilgan xolda birinchi bo'lib ilmiy bilishda ishtirok etadi. Uning oldida birinchi faqat ayrim narsa va hodisani emas, barcha narsa va hodisalar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarni tushunish bo'lib olish uchun ishlatiladi.Agar kimki maktab yoshi asosan narsalar,tabiat va jamiyathodisalari to'g'risida gasvirlar to'plash yoshdan iborat bo'lsa,o'smirlik yoshida ana shu tabiat va jamiyat hodisalar to'g'risida sitsematik gushunchalar paydo bo'ladi. Beshinchi sinfdayoq ayniqsa oltinchi sinfga kelib fizika,algebra,geometriya,tarix fanlari o'tila boshlanadi.Abtsrakt tafakkur tez o'sa boshlaydi.O'quvchilar hodisalarning sabablarini tushunishga hodisalarni ma'lum qonuniyatlar doirasida ifodalashga bu qonuniyatlarda foydalanishga intiladilar.

2.O'smirlik yoshining rivojlanishiga ko'proq mehnat faoliyati ta'sir ko'rsatadi.O'smirlik yoshida mehnat ancha uyushqoqlik xarakterida bo'ladi.

3.O'smirlik shaxsning tarkib etishida o'yin ahamiyatini yo'qotmaydi.O'yin o'smirlik yoshida yuksak ahloqiy tuyog'ularning irodaviy xarakter xislatlarning o'sishiga yordam beradi.O'yin o'smirni intizomli bo'lishga o'rgatadi,o'yin o'ylashga,fahimlashga eslab qolishga biror narsani qilishdan oldin planlashtirishga va diqqatli bo'lishga da'vat etadi. Biz mana shu o'smirlik davrining o'ziga xos xususiyatlarini bilib olishimiz va uni oltin qoida sifatida o'z ish faoliyatimizda qo'llashimiz mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G'oziyev E. Psixologiya. T. "O'qituvchi" nashriyoti. 2010. (darslik)
2. Ziyonet.uz
3. Saviya.uz

ОИЛАДА ҚИЗЛАРНИ МУСТАҚИЛ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШ МУАММОЛАРИ

Мирзақулова Хурсандой Шавкат қизи
Сурдарё туман 5-ИДУМ

Оила ижтимоий жамиятнинг кичик бўғини сифатида муайян халқ, миллат ёки элатнинг миллий хусусиятлари, шунингдек, мавжуд тузум мазмунини ўзида намоён этади. Оилаларнинг мустаҳкам бўлиши, уларнинг тотувлик ва фаровонликка эришуви у мансуб бўлган ижтимоий тузумнинг иқтисодий, маънавий ривожини, жамиятда амал қилинаётган маънавий-ахлоқий меъёрлар, олиб борилаётган давлат сиёсат мазмуни билан белгиланади. Ўз навбатида жамият маънавий қиёфаси оилаларда ташкил этилаётган ижтимоий тарбиянинг натижаси, самарасига боғлиқдир. Шу боис асрлар давомида ҳар қандай географик макон ва ижтимоий замонда ҳам янги оилаларнинг шаклланиши, оилавий ҳаётнинг йўлга қўйилиши, фарзандлар тарбиясини ташкил этиш ҳамда сулола анъаналарини давом эттириш масалаларига алоҳида эътибор бериб келинган. Дарҳақиқат, оила муҳитида шахснинг ҳар жиҳатдан баркамол бўлиб вояга етиши учун зарур бўлган омиллар, чунончи, оила хўжалигини бошқариш жараёнида оила аъзолари ўртасида юзага келувчи ҳуқуқий, иқтисодий, психологик, экологик, эстетик ва ҳоказо мазмундаги оилавий муносабат, муомала алоқа аралашуви унинг ижтимоийлашуви, яъни, ижтимоий муносабатларни юритиш жараёнида эркин, мустақил ҳаракат қилиш лаёқатини, қобилиятини шакллантиришга хизмат қилувчи омиллар мавжуддир. Шу боис Ўзбекистон Республикасининг мустақиллиги шароитида, ижтимоий жамиятда янгиланиш, кескин ўзгаришлар юз бераётган, бозор иқтисодиёти муносабатлари, шунингдек, ижтимоий рақобат қарор топаётган ўтиш даврида мустаҳкам оилаларни шакллантириш ҳар қачонгидан ҳам долзарблик касб этмоқда. Туркий халқларда оилага муқаддаслик ҳамда даҳлсизлик мақоми берилган.

Оила қуриш ҳодисасига балоғат ёшига етган йигит ва қизлар томонидан ижтимоий вазифалардан бирининг амалга оширилиши сифатида ёндошилган. Хусусан, зардуштийлар динининг муқаддас китоби бўлган “Авесто” да балоғат ёшига етган ҳамда оила қуриш қувватига эга бўлган йигитларнинг оила қуришдан бош тортиши ёки бу ҳақида фикр билдириши ижтимоий бурчни бажаришдан бош тортишни англаувчи ҳаракатдир дея баҳоланганлиги ва бундай ҳаракатга нисбатан махсус жазо турларининг белгиланганлиги (пешонага тамға босиш ёки белга оғир занжир боғлаб қўйиш кабилар) баён этилади (Ж.Ғ.Йўлдошев, С.Ҳасанов. ”Авесто” да ахлоқий-таълимий қарашлар. - Т.: Ўситувчи, 1992, -бет),.

Айрим объектив сабабларни истисно этган ҳолда оиланинг бузилишига унда истиқомат қилаётган кишиларнинг маънавий-ахлоқий жиҳатдан етук ва оилавий хўжаликни юритиш қувватига эга эмаслигидан далолат берувчи ҳолат сифатида қаралган. Оиланинг ҳар бир аъзоси унинг шаъни, ор-номуси учун курашишни, шунингдек, обрў-эътиборини юқорига кўтаришни ўзи учун шараф деб билган. Оила шаъни, ор-номусини сақлаб қолиш йўлида хатто ўз жонларини қурбон қилганлар. Оилада тарбия топаётган қизларга авлодлар давомийлигини таъминловчи бўлажак она сифатида алоҳида меҳр-муҳаббат ва раҳм-шафқат кўрсатилган.

Шарқ халқларида қиз болаларнинг тарбиясига алҳида эътибор қаратилган, моддий таъминоти юқори бўлган оилалар покиза, оқила, доно, катта ҳаётий тажрибага эга аёлларни ўз қизлари учун энага этиб тайинлаган ва уларга қизларининг тарбиясини ишониб топширганлар. Оила бошлиқлари бўлган эркаклар оиланинг моддий таъминотини яратиш иши билан банд бўлганликлари боис, она доимо фарзандлари ёнида бўлиб, уларнинг тарбияси билан шуғулланган. Шу сабабдан она фарзандларнинг камолоти учун жавобгар, масъул шахс ҳисобланган. Оилада қизлар тарбиясини ташкил этишда қизларда ана шу масъулиятли вазифани бажариш, шунингдек, рўзғор ҳамда оила хўжалигини юритиш, оиланинг бошқа аъзоларига нисбатан ғамхўрлик кўрсатиш борасидаги муайян кўникма ва малакаларни шакллантириш масаласига алоҳида эътибор қаратилган.

Халқимиз оилада қизлар тарбиясини ташкил этиш борасида асрий тажрибага эга. Мазкур тажриба мазмуни шарқона одоб - ахлоқ, ҳаё - ибод, покизалик ҳисси билан йўғрилган панд - насиҳатлар, мутафаккирларнинг қарашлари, илмий - назарий ва амалий ғоялардан ташкил топган. Узок йиллар давомида оилавий муносабатларни йўлга қўйишда ана шу тажрибага таяниб иш кўрилди. Оилада қизларни мустақил оилавий ҳаётга тайёрлаш мураккаб педагогик жараён саналиб, мазкур жараённинг самарали ташкил этилиши бу борадаги муайян камчилик ва муаммоларнинг бартараф этилиши билан белгиланади. Айтилишича, айни вақтда эса оилада қизларни мустақил оилавий ҳаётга тайёрлаш борасида бир қатор муаммолар мавжуд бўлиб, улар қуйидагилардан иборатдир:

1. Ота-оналарнинг оилада қизларни мустақил оилавий ҳаётга тайёрлаш жараёнининг моҳияти хусусида тўла маълумотга эга эмасликлари.
2. Ота-оналар томонидан ёшлар, шу жумладан, қизларни оилада мустақил жилавий ҳаётга тайёрлаш борасидаги назарий ва амалий билимларни ўрганиш имконини берувчи манбаларнинг етарли даражада мавжуд эмаслиги.
3. Оила, шунингдек, ота-оналарга ижтимоий ташкилотлар, таълим муассасалари ҳамда муайян мутахассислик йўналишларида фаолият юритувчи идоралар томонидан кўрсатилаётган назарий ва амалий ёрдамнинг ижтимоий эҳтиёжларга нисбатан пропорционал эмаслиги.
4. Оммавий ахборот воситалари орқали оила моҳияти, оилавий ҳаётни ташкил этиш, фарзандлар тарбиясини муваффақиятли олиб бориш, оилавий муносабатлар мазмуни, шунингдек, оилавий низо ва ажримларни келтириб чиқараётган сабаблар ва уларни бартараф этиш чора тадбирлари хусусида намоёниш (ёки чоп) этилаётган кўрсатув, эшиттириш ёки чиқишлар савиясининг юқори эмаслиги. Оила муаммосига доир мавзуларда вазият ёки ҳолатларни чуқур таҳлил этишга асосланиб тайёрланаётган кўрсатув, эшиттириш ёки чиқишларнинг йўқлиги, мавжуд кўрсатув, эшиттириш ёки чиқишлар мазмунининг бир ёқламалик касб этаётганлиги ота-оналарнинг ёшлар, шу жумладан, қизларни мустақил

оилавий ҳаётга тайёрлаш борасида маълум маълумотларга эга бўла олмаётганлигига ҳам сабаб бўлмоқда.

5. Республикада юз бераётган ижтимоий иқтисодий ўзгаришлар аҳоли маънавий ахлосий қарашларининг янгича мазмун касб этишига олиб келди. Айни вақтда аҳоли рухиятида рўй бераётган кечинмаларнинг аксарият қисмини моддий эҳтиёжларни қондириш иштиёқи эгаллаган бўлиб, бу ҳолат ўз-ўзидан маънавий эҳтиёжларни қондириш истагидан устун мавқе эгаллашига сабаб бўлмоқда.

Адабиётлар

1. В. Каримова. “ Оила психология” 2006 йил
2. М.Г.Давлетшин тахририда «Ёш психологияси ва педагогик психология» Т., «Укитувчи» 1974.
3. В.А.Крутеўкий. Педагогик технология асослари. Т., «Укитувчи» 1976.
4. Халк таълими журнали. 1998. №3.
5. «Умумий психология, ёш психологияси ва педагогик психология курси» 1982.
6. Э.Гозиев. Психология Т., «Укитувчи» 1994.
7. «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ» Авлоний

SHAXSNI IJTIMOIIY PSIXOLOGIK HIMOYA QILISH MUAMMOLARI

*Irgashova Charos Abduqaxorovna
Sirdaryo tuman 39 maktab psixologi*

Аннотаси: Farzandlarimizning umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hozirgi murakkab va tahlili zamonda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo'lgan turli xil xurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgani barchamizni yanada xushyor va ogoh bo'lishga da'vat etishi tabiiydir.

Kalit so'zlar: Milliy o'zlik, qadriyatlar, globallashuv. Ma'lumki, farzandni tarbiyalash, unga ilm berish, kasb o'rgatish qadimdan eng mas'uliyatli vazifa sanalgan. Odob-axloq, yoshi ulug'larga hurmat, mehr-oqibat, oilaga, kindik qoni to'kilgan zaminga sadoqat fazilatlarini kamol toptirish bola tarbiyasida eng muhim jihatlardan hisoblanadi.

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida bunyod etilayotgan zamonaviy o'quv maskanlarida yoshlarning chuqur bilim olish, kasb egallashlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Ta'lim jarayoni tubdan o'zgarimoqda. Har bir o'quvchining qiziqishi, qobiliyati, bilim olish salohiyati inobatga olingan h olda, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik usullar joriy etilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – yoshlarni shaxs sifatida shakllantirish, ongini o'stirish, dunyoqarashini boyitishdir. Zero, yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish, ularda e'tiqod, Vatan tuyg'usini kamol toptirish tarbiyaning ustuvor yo'nalishlaridandir. Agar biz bu masalada xushyorlik va sezgirligimizni, qat'i va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zi bo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy tarqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.

Demak, mana shunday mas'uliyatli zamonda milliy manfaatlarimizni talab darajasida anglash va uni uzluksiz amalga oshirib borishni ta'minlash, bu borada barcha imkoniyatlarni safarbar eta olish qobiliyatini yuksaltirib borish jamiyatimizning eng dolzarb va hal qiluvchi vazifalari sirasiga kiradi. Mazkur hayotiy muhim muammolarni hal qilinishida xalqimizning ma'naviy salohiyati asosiy kuch manbai sifatida xizmat qilishini mustaqil taraqqiyotimizning shu paytga qadar erishilgan natijalari tasdiqlamoqda. Endilikda ma'naviy manbalarimizni yuksaltirish va jamiyat taraqqiyotining ustuvor vazifalariga to'liqroq safarbar qilish hamda yoshlarimiz tafakkurida, dunyoqarashida davrimizning turli salbiy tendentsiyalariga qarshi barqaror ijtimoiy immunitetni zamon bilan hamnafas bo'lgan holda shakllantirish eng ustuvor vazifamizga aylandi. Ma'lumki, yangi jamiyatni qurish jarayonida uning barcha tashkil qiluvchi tomonlarini birdek yagona maqsad sari harakat qilishiga erishish,

ijtimoiy munosabatlardagi barqarorlikni saqlab qolish uchun jamiyat a'zolarining yuksak mas'uliyati, oldindan turgan vazifalarga nisbatan yuqori saviyadagi madaniy munosabati suv bilan havodek zarur bo'ladi. Bunday samaraga erishish, albatta, yuksak ma'naviyatni shakllantirish vazifasi bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois ham bizning mamlakatimizda yangi demokratik jamiyat qurish vazifalari jamiyatimizning ma'naviy tayanchlarini rivojlantirish bilan bog'liqlikda belgilanadi. Zeroki, mamlakatimizni taraqqiy ettirish muddaosining zaminida inson omili va uning egu manfaatlarini amalga oshirish yotadi.

Ta'lim va tarbiya, ilm-fan, intellektual salohiyatni yuksaltirish, hozirgi davrdagi zamonaviy taraqqiyotning yetakchi qonuniyatiga aylandi. Ushbu umumsotsiologik qonuniyat bizning jamiyatimiz uchun ham begona emasdir. Shu bois ham Davlatimiz 1 -rahbari tomonidan "Barkamo avlod yili" davlat Dasturida mazkur masalalarga alohida chuqur e'tibor qaratilishi lozimligi ko'rsatib o'tildi. Buni chuqur anglab olgan davlat, bunday xulosani chiqargan, xalqaro hamjamiyat va taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga ko'tarilish uchun harakat qilayotgan jamiyat, birinchi navbatda, bugun unib-o'sib kelayotgan farzandlarining har tomonlama barkamol avlod bo'lib hayotga kirib borishini o'zi uchun eng ulug', kerak bo'lsa, eng muqaddas maqsad, deb biladi". Ma'lumki, bugungi kunda farzandlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda, ayniqsa, hozirgi murakkab va tahlili zamonda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo'lgan turli xil xurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgani barchamizni yanada xushyor va ogoh bo'lishga da'vat etishi tabiiydir. Demak, jamiyatimiz ma'naviy manbalarini yoshlarimizning ongida, madaniyatida sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini chuqur qaror toptirishga yanad chuqurroq, kuchliroq safarbar qilish hamda yashab turgan davrimizning turli salbiy tendentsiyalariga qarshi barqaror ijtimoiy immunitetni zamon bilan hamnafas bo'lgan holda shakllantirish, barkamol avlod tarbiyasining ajralmas uzviy bo'lganini tashkil qiladi. Bugungi kunda mamlakatimiz hayotida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ma'naviy-tarbiyaviy chora va tadbirlar o'zining ijobiy amaliy natijalarini bermoqda.

Buni hayotda o'zining munosib o'rnini egallayotgan ayni chog'da jamiyatimiz taraqqiyotining turli sohalariga zalvorli xissa qo'shayotgan har tomonlama faol, vatanparvar yoshlarimiz misolida ko'rishimiz mumkin. Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ta'limi va tarbiya, yuksak ma'naviyatni shakllantirish jarayonlari yoshlarimizning o'z iste'dodlari har tomonlama namoyon qilishlari uchun beqiyos ulkan imkoniyatlar va shart-sharoitlarni vujudga keltirmoqda. Hozirgi paytda "Madaniyatlar to'qnashuvi ijtimoiy deviantlik omili sifatida" mavzusida ilmiy izlanishlarini davom ettirmoqda. Orzusi – kelajakda yetuk mutaxassis bo'lish va o'zi yaxshi ko'radigan she'riyat sohasida eng sara she'riy namunalarni yaratish. Shu bilan bir qatorda, har bir inson orzu qiladigan mukammal baxtga erishish". Shiori – o'ziga, "Sen kuchlisan, Barno!" deya ta'kidlagan holda doim olg'a intilish va yutuqqa erishish".

Hozirgi davrda jahon miqyosida globallashtirish jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan bir paytda ayniqsa, jamiyatimiz yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini yanada takomillashtirish va samarali amaliy antijalarga erishish vazifalari nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etib borayotganligini ham zinhor xotiramizdan chiqarmasligimiz lozimdir. Zero, xalqaro globallashtirish nihoyatda murakkab va serqirra jarayon hisoblanib, barcha xalqlar vadavlatlar taqdiriga bir xilda ta'sir etayotgani yo'q. Shu bois ham mamlakatimiz milliy mustaqilligini mustahkamlanishida, globallashtirishning salbiy ta'sirlariga nisbatan mustahkam immunitetni shakllantirishida jamiyatimiz yoshlarining vatanparvarlik xissining ahamiyati beqiyos kattadir. Inson va jamiyat hayotida ular manfaatiga xizmat qilish imkoniyatiga ega har qanday narsa, voqea-hodisa inson va jamiyat ehtiyojini qondirishga, ular faoliyatini davom ettirishga qodir bo'lganligi uchun "qadriyat" deb ataladi. Umuman olganda, qadriyatlar deganda inson va jamiyat ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan, uning kamolotiga ijobiy ta'sir etadigan, inson, jamiyat hayotida ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi barcha tabiiy va ijtimoiy narsa- hodisalar, moddiy hamda ma'naviy boyliklar, ne'matlar, fazilatlarini tushunamiz.

Qadriyatlarining mohiyatini bilish, ularni o'zlashtirish yoshlarda vatanparvarlik, milliy g'urur, milliy iftixor, miliylik birlik va birdamlik tuyg'usini, insonparvarlik,

xalqparvarlik, adolatparvarlik, xalollik, poklik mehnatservarlik fazilatlarini shakllantirishda katta o'rin tutadi.

Bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi eshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichiga ko'tarishida ona yurtimizda tug'ilib kamolg a yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftihor bag'ishlaydi". Yoshlarda vatanparvarlikning shakllanishi – ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini anglab yetish bilan bog'liq. Vatanparvarlikni shakllantirishda xalq milliy taraqqiyoti, tarixi, madaniyati, san'at va adabiyoti, turmush tarzi, axloqi, e'tiqodi, ijtimoiy ruhiyati bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar, marosimlar, an'analar alohida e'tiborga molik qadriyatlar sanaladi. Shuningdek, "Yoshlarda vatanparvarlikni shakllantirishga kuchli ta'sir etadigan qadriyatlar jumlasiga – ona tili va adabiyot , milliy, diniy bayramlar, har xil milliy marosimlar, oilaparvarlik, bolajonlik, ota-ona, qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug', mahalla-ko'y, keksalarga hurmat, mehr-muruvvat, rahm-shavqat, xalollik, poklik, imon-e'tiqod, vatanimizning go'zal tabiatidan ilhomlanish, uni asrash madaniyatiga ega bo'lish kabi fazilatlar kiradi. Shu munosabat bilan alohida ta'kidlash joizki, vatanimiz yoshlarni xalqimiz milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini va an'alariga sadoqat ruhida tarbiyalashda mamlakatimizning ommaviy axborot vositalarining roli beqiyos kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston. – 2017.
2. Ivanov P.I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. T.: O'qituvchi, 2008.
3. Klimov Ye.A. Общaya psixologiya – SPb.: Piter, 2001.

O'SMIRLARNING KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY PSIXOLOGIK ASOSLARI

Irgashova Charos Abduqaxorovna
39 maktab psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'smirlar tomonidan kasb tanlash muammolari, kasb tanlash yo'llari va usullari muhokama qilingan. Shuningdek, o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirishning nazariy psixologik asoslari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Kasb-hunar, o'smir, nazariya, ehtiyoj, motiv, layoqat, qiziqish, qobiliyat.

Kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etsa-da, lekin uning ortida jismoniy individual (yakkahol) shaxs turadi. Holbuki shunday ekan, har bir kasb tanlovchi shaxsiyatiga individual munosabatni amalga oshirish zarur. Buning uchun kasb tanlovchining yosh va jins xususiyatlariga binoan kasb maorifini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda birinchi navbatda shaxsning kasbiy ehtiyoji, motivi, layoqati, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish darkor. Aks holda umumiy xususiyatli yo'llanma, ko'rsatma ijobiy natijaga olib kelmaydi, chunki individuallik o'ziga xos talablarni taqozo etadi. Hatto oddiy kasb maorifi ham turlicha yondashuvni talab qiladi, binobarin, uni qondirmasdan turib, tub maqsadga erishib bo'lmaydi.

Yoshlarning kasb egalari bo'lishlarida kasbiy motivlarning ahamiyati o'rinlidir. Kasbiy motiv va motivasiya muammosi xorij psixologlari tomonidan keng doirada tadqiq qilingan bo'lib, jumladan, kasbiy motivlar borasida YE.A.Klimov, V.A.Kruteskiy, A.N.Vasilkova, E.Disi, V.Vrum, M.V.Dmitriy va boshqalarnikiritishimiz mumkin. Shaxsning ish faoliyati bilan bog'liq motivasiyalarni 3 guruhga ajratish mumkin; birinchisi - mehnat faoliyati motivlari, ikkinchisi kasb tanlash motivlari va uchinchisi-ish joyini tanlash motivlari. Aniq faoliyat esa barchasini jamlangan holda izohlanadi, ya'ni, bunda mehnat faoliyati motivlari, kasb tanlash motivlarining shakllanishi, shuningdek, qolgan ikkita motiv orqali esa ish joyini tanlash motivlari ham yuzaga keladi.

Mehnat faoliyati motivlari xilma-xil bo'lib, ular o'ziga xos omillar bilan belgilanadi. Birinchi guruh omillariga jamoaviy xarakterning uyg'onishi bilan bog'liqlari kiritilib, bunda jamoaga foyda tegishini anglash, boshqa insonlarga yordam berish istagi, mehnat faoliyatida ijtimoiy ustanovkaning zarurligi va boshqalarga nisbatan tobelikni hohlamaslik kabi motivlar hisoblanadi. Ikkinchi guruh omillari o'zi va oilasi uchun moddiy mablag'ning orttirilishi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi uchun pul ishlab topish motivlaridir. Uchinchi guruhga o'zini o'zi faollashtirish, rivojlantirish, o'zini namoyon qilish ehtiyojlarining qondirilishi va boshqalar kiradi. Ma'lumki, insonlar tabiatdan biror-bir faoliyat bilan shug'ullanmasdan turolmaydilar. Inson nafaqat iste'molchi balki yaratuvchi bo'lib, yaratish jarayonida u ijoddan ilhom oladi. Bu guruhga mansub motiv jamiyat tomonidan ehtiyojlarning qondirilishi va boshqalarning hurmatini qozonish bilan bog'liq. Maktab o'quvchilarining mehnat tarbiyasi ham shu motiv bilan bog'liq ravishda shakllantiriladi.

Mehnat faoliyatining umumiy motivlari yuqorida aytib o'tilganidek, aniq kasblar doirasida amalga oshadi. Kasb tanlash anchagina qiyin va motivasion jarayondir. Axir shaxsning to'g'ri kasb tanlashi ko'pincha insonning hayotdan qoniqishga ham sabab bo'ladi. Insonning qaysi faoliyatini tanlashi ko'proq tashqi omillar haqidagi qarorning qabul qilinishi jarayoni haqida to'xtalishi muhimdir. Bu asosan tashqi holat baholariga, o'zining imkoniyat va qobiliyatlariga, kasb tanlashdagi qiziqish va moyilliklariga bog'liqdir.

Tashqi holatini baholash, ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillar, o'zida ishlab topiladigan pul miqdori, imtiyoz, taklif etilayotgan korxonalar, muassasaning yashash joyiga yaqin bo'lishi, transport aloqalarining qulayligi, ish joyi estetikasi va ishlab chiqarishning zararli tomonlari, jamoadagi psixologik iqlim, maqtov va tartibga chaqirish kabilarni qamrab oladi.

O'z imkoniyatlarini baholash sog'lomligi, ishga yaroqliligi, kasbi bo'yicha muhim sifatlarga shovqinli egaligi, bilim darajasi, stresslarsiz ishga moyilligi, yuqori ishda talab etilgan temp va xotirjam ritm bilan ishlay olish imkoniyati kabilarni o'z ichiga oladi. Qiziqishlarga mos ravishda tanlangan ish joyini baholash, ayni vaqtda ishlayotgan muassasasi, korxonadagi imkoniyat to'siqlari, ishni boshqarish,

kasbiy o‘shish, tashabbusning paydo bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Ongli ravishda kasb tanlash uchun o‘quvchilarning bir qator kasblarni yetarlicha bilishi, bilganda ham ularning kishini o‘ziga jalb qiladigan tomonlarini emas, balki qiyinchiliklarini ham yaxshi bilishi, o‘zining shaxsiy sifatlariga ko‘ra tanlangan kasbini muvaffaqiyatli egallay olishi va keyingi ish jarayonida o‘z malakasini takomillashtirishi talab qilinadi. Hozirgi vaqtga qadar kasbga yo‘naltirish ishlari yetarlicha yuqori saviyada olib borilmadi, ko‘pincha rasmiy tusda bo‘ldi. Natijada maktabni tamomlaganlarning kasb tanlashi tasodifiy bo‘ladi. Yoshlarning ko‘pchiligi u yoki bu kasbni nimadan iborat ekanligini aniq tasavvuf kilmas edi. Hunar-texnika bilim yurtlarining besh mingga yakin o‘quvchilari bilan savol-javob kilinganda shu narsa aniqlandiki, ularning faqat 5% kasbini maktabning tavsiyasiga binoan, 30% o‘rtoqlarining maslahatiga ko‘ra, 15% iro‘znoma, radio, televideniye orqali berilgan e‘lonlarga, ko‘shnilar, tanish-bilishlarning maslahatlariga muvofiq 15% ota-onalarning maslahati, 12% hunar-texnika bilim yurtlari xodimlarining tavsiyalari bo‘yicha tanlanganlar. Albatta, bu ma‘lumotlar xar davrda va xar xil mintakalarda obyektiv xolda turlicha, ammo shu narsa ravshanki, o‘quvchilarning aksariyat ko‘pchilik kasblarni tasodifiy ravishda tanlaydilar. «Siz nima uchun shu kasbni tanladingiz?, - degan savolga 41,1% o‘quvchi:» Bu haqda o‘ylab ko‘rganim yo‘q», - deb javob bergan. Kasbni anglamay turib, tasodifiy anglash shunda namoyon bo‘ladiki, o‘kishning dastlabki paytlarida o‘quvchi qandaydir qiziqish bilan karaydi. Keyi nchalik esa bu qiziqish sunib boradi. Hunar-texnika bilim yurtida birinchi yil o‘kiyotgan o‘quvchilardan so‘raganda ularning 14,9% i, ikkinchi yil o‘qiyotganlardan so‘ralganda esa 10,7% tanlagan kasbidan mamnunligini aytgan. Hozirgi vaqtda yoshlarni kasbga yo‘naltirish masalalari bilan davlat, jamoat va yoshlar tashkilotlari.sanoat korxonalarini shug‘ullanadilar. Biroq bu ishda maktab asosiy o‘rin egallaydi.

Hozirgi kunda bozor munosabatlarini va uzluksiz ta‘limga o‘tish munosabati bilan maktab yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga, jamiyat uchun foydali va zarur bo‘lgan muayyan mehnat faoliyatiga tayyorlashda yana ham katta rol o‘ynaydi. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ularning xar biriga aloxida-aloxida yondashishni talab etadi bunda shaxsning temperamenti, irodasi, dikkati, belgilangan maksadga erishishda kat‘iylik,

tashabbuskorlik, uyushkoklik, intizomlik, topgairilgan ishni bajarishga ma'suliyat bilan munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini e'tiborga olish zarur. Bundan tashqari, kasbga yo'naltirish davomida kasbni tanlash sabablarini; kasbning ijtimoiy ahamiyati, qiziqish va xavas, kasbga tayyorgarlik, oila an'analari, ota-onalar, pedagoglar, o'rtoqlarining maslahatini hisobga olish lozim. O'quvchilarni uzok vaqt o'rganish natijasida sinf rahbarlari ularning xar biriga tavsifnoma tuzadilar. Bunday tavsifnoma kasb tanlash va o'quvchiga u yoki bu kasbni tanlagani taklif qilish uchun asos bo'ladi. Kasbga layokatlikni tanlash maxsus komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Unga o'qituvchilar, psixologlar, ishlab chiqarishdagi muxandis yoki boshka mutaxassislar, sotsiologlar, vrachlar kiradi. Ular xar bir o'quvchiga qanday kasb tanlash kerakligini aytadilar va buning sababini asoslab beradilar. Masalan, xolerik temperamentli bola yaxshi andoza yasovchi usta slesar bo'la olmaydi, chunki unga mikronning o'ndan bir ulitigacha aniqlikka erisha borib, uzok vaqt o'lov asboblarini ishlash qiyinlik qiladi, yoki melanxolik tez javob berishni talab qiladigan mashinalarni boshkarishni muvaffaqiyatli egallab ololmaydi. Sezgi a'zolarida biron-bir nuqsoni bo'lgan bolalarga bu kasblarni tavsiya qilib bo'lmaydi. Masalan, ba'zi rang-tuslarni farq kila olmaydigan (daltonik) bolani xar qanday transport turini boshkarishga ko'yib bo'lmaydi. Ko'rishida shunday kamchiligi bo'lganlar metallurg bo'lib ishlashi mumkin emas. Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bolishi farzandlarining bugungi qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan ongli yashaydigan komil insonlar etib voya yetkazish – ta'lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim – tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi. Yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash - g'oyat muhim vazifadir. Shu boisdan yoshlarning kasb tanlash muammosi o'rta umumta'lim maktabi ishida katta o'rin tutadi. «Kim bo'lsam ekan?» degan savol har bir yigit va qiz uchun eng asosiy muammolardan biridir. Odamning shundan keyingi butun hayoti ana shu muammoni hal qilishga bog'liq.

Kasbni to'g'ri tanlash mehnatda va ijtimoiy faoliyatda eng yuksak ko'rsatkichlarga erishishga yordam beradi, mehnat jarayonida va uning natijalaridan qoniqish esa ijodkorlikni eng ko'p namoyon etish, eng yaxshi hissiy kayfiyatda bo'lish, tanho bir kishining ham, umuman jamiyatning ham barcha hayotiy rejalarini bir muncha to'la amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'oziev E.G'. O'quvchilarning umumlashtirish usullariga o'rgatish va ularning aqliy taraqqiyoti. T., 1983 y.
2. Практикум по психодиагностике, Дифференциальная психометрика. (Под ред. В.В.Столина, А.Г.Шмелева. М: Изд-во М., Ун-та, 1984 г. 154
3. Практическая психология образования: Учебник для студентов высших и средних учебных заведений. Под ред. И.В.Дубровиной. - 2- е издание. - М.: ТЦ «Сфера», 1998.

O'SMIRLAR HAYOTIDA INTERNET TARMOG'IDAN FOYDALANISH MADANIYATINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Hamdamova Mohigul Yigitali qizi
Farg'ona viloyati Beshariq tumani 31-maktab psixologi

Butun dunyo bo'ylab jadal tusda o'tayotgan axborot asrining globallashuv jarayoniga xos bo'lgan g'oyalar kurashi, axborot xuruji avj olgan bir davrda mamlakatimizda o'sib kelayotgan avlod, yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash yanada dolzarb hamda muhim masala bo'lib hisoblanadi. Mazkur masalani hal etishda yoshlarning ma'naviy, axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz yoshlariga zamon talabiga mos ta'lim-tarbiya berish jarayoniga yangi zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari tizimi va internet tarmog'i

imkoniyatlarining tadbiiq etilishi o‘zining samarani oshirish omili ekanligini allaqachon namoyon etmoqda.

Jahonda shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan AKT tizimi va internet tarmog‘idan samarali foydalanish yoshlarda ijodiy tafakkurlarini rivojlantirib, o‘zligini namoyish etishlariga imkon berayotganligi ham yangi zamonaviy texnologiyalarning afzalliklaridan bo‘lib hisoblanadi. Mazkur afzalliklardan foydalanib, yoshlarimiz o‘z intellektual salohiyatlari va qobiliyatlari, iste’dodlarini namoyon etishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berilmoqda, ularning barkamol avlod bo‘lib yetishishlari maqsadida ta’lim-tarbiya jarayoni zamon talabiga muvofiq tashkil etilib, barcha zarur texnika vositalari bilan ta’minlanmoqda.

Shu bilan bir qatorda, olimlar, mutaxassislar, shifokorlar, pedagoglar va boshqalar tomonidan mazkur yangi texnologiyalar bolalar va yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sirga egaligini ma’lumki, hamma ta’kidlamogda.

Foydalanuvchilarning ko‘pchilik qismini yoshlar tashkil etadi. Yoshlarmizni AKT va internet tarmog‘idagi salbiy mazmunga ega axborotlardan himoya qilish, ularda internet taqdim etadigan axborotdan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantirish, mamlakatimiz taraqqiyotini ko‘zlovchi, xalqimiz tarixi, urf-odatlarini qadrllovchi, milliy qadriyatlarga sodiq, ma’naviy yetuk inson bo‘lib, kamol topishi, barkamol shaxs sifatida tarbiyalanishida axborot muhitidagi salbiy ta’sirlar hamda tahdidlardan asrash, shuningdek, tarmoqdan ayrim xorijiy axborot oqimi orqali kirib kelayotgan yovuz niyatli g‘oyalarning oldini olish va ta’sir kuchini kamaytirish, axborotdan xavfsiz foydalanishlarini ta’minlash bugungi kunning dolzarb vazifalariga aylangan.

Bugungi kunda internet — inson hayotining ilk bosqichidanoq uning ajralmas qismiga aylanib qolgani bois, bolalarni uning xavfidan himoyalash masalasi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi va mazkur muammo global miqyosda hal etilishi taqozo etiladi. Internet bolalar tarbiyasida o‘ta muhim o‘rin egallaydi. Chunki, bola tarbiyaga oid xulq-atvor ko‘nikmasi, hayot tamoyillari, fikrlash va olam manzarasini ko‘proq aynan internet yordamida o‘rganish imkoniyatiga ega. Ayrim ota-onalar farzandining kompyuter qarshisida bo‘lgan vaqtida hech qanday xavotirga o‘rin yo‘q, deb o‘ylaydi. Biroq virtual olamda ham ularni muayyan xavf-xatarlar va tahdidlar kutib

turgan bo‘lishi mumkin. Axborot xavfsizligi bo‘yicha mutaxassislar tomonidan tahlikali sharoitlarda qay tarzda o‘zini muhofaza qilish, xavf-xatarlar va tahdidlardan himoyalaniş mumkinligini anglash uchun murakkab bo‘lmagan qoida va tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, internetda ishlash paytida ularni esda tutish va e‘tibor qaratish so‘raladi.

Yoshlarni internetdan himoya qilishni nazarda tutgan holda, internet xavfsizligiga oid bir nechta oddiy maslahatlarni tavsiya qilmoqchimiz. Biroq, har bir bola o‘ziga xos alohida individual shaxs ekanligi va ularga alohida yondoshuv kerakligi bois, mutaxassislar bolalar va o‘spirinlarni quyidagi toifalarga ajratishdi:

7–10 yoshda bolaning farqlash hissi juda faol bo‘lgani bois, unga to‘g‘ri axborotlarni berishni nazorat qilmoq lozim. Chunki shu yoshda axborotni anglash qobiliyati shakllana boshlaydi. Ushbu yoshdagi foydalanuvchilarning aksariyat qismi endigina o‘qishni o‘rgangani, qaysi saytga kirgani va qanday muammolarga duch kelishi mumkinligini oxirigacha tushunib yetmaydilar. Multfilm va rang-barangligi bilan jalb qiluvchi o‘yinlarga qiziqish bo‘lgani bois, bolalar ko‘p hollarda shu kabi axborotlarni izlashadi. Shu sababli 7–10 yoshdagi bolalarning internetdan foydalanishini ota-onalar yoki kattalar tomonidan doimo nazorat qilinishi zarur. Internet tarmog‘ida tarqalayotgan va yosh avlodga ziyon yetkazishi mumkin bo‘lgan axborotlarni filtrlash yoki zararli resurslarni cheklash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

10–13 yosh davri o‘ta muhim bo‘lib, bola uchun o‘tish davrining eng murakkab payti hisoblanadi. Ushbu yoshdagi bolalar ko‘p narsani tushunishga harakat qiladigan va qiziquvchan bo‘ladilar. Internet tarmog‘ida o‘yinlar va axborotlarni izlash bilan bir qatorda, ushbu yoshdagilar do‘st va tanishlar topish maqsadida ijtimoiy saytlar va chatlardan faol foydalanishadi.

13–16 yoshdagi o‘smirlar, shaxs sifatida va jamiyatning to‘laqonli a‘zosi sifatida aynan shu yoshda shakllanishi bois, faoliyat doirasining qamrovi kengligi va alohida e‘tibor talab etishi bilan ajralib turadi. Bu toifadagi o‘smirlar internetdan faol foydalanadilar. Internet ular uchun ulkan axborot manbasi, tengdoshlari va do‘stlari bilan muloqot vositasi, shu jumladan, vaqtichog‘lik qilish imkoniyati hamdir. Mazkur yoshdagi eng katta muammo — bu ota-onalar tomonidan «bolalarimiz ulg‘aydi» qabilida ularni

to‘la nazorat qilmaslikdir. Bu yoshni yana «axborot ochligi» yoshi, deb ham atash mumkin. Bu davrda bolalar ulg‘ayib, barcha narsalar haqida ko‘proq bilishni xohlaydilar.

Bugungi kunda bolalar va o‘smirlarning internet tarmog‘idan foydalanish vaqtini tartibga soluvchi norma ishlab chiqilmagan. Mutaxassislarning fikrlari bir-biridan farq qiladi. Aksariyat ruhshunoslar, shifokorlar va pedagoglarning fikricha, internet tarmog‘idan foydalanish vaqti quyidagicha taqsimlanishi lozim:

7 yoshdan 10 yoshgacha bo‘lgan bolalar — kuniga 1 soat 10 yoshdan 13 yoshgacha bo‘lgan bolalar — kuniga 1,5 soat 13 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar — kuniga 2 soat.

Internet makonida uchraydigan xavf-xatar, tahdidlar va tahlikalar haqida so‘z yuritilgani oqibatida, o‘quvchida internetning zararli va buzg‘unchi vosita ekanligi haqida noto‘g‘ri tasavvur uyg‘onishi ehtimoli ham mavjud. Aslida esa unday emas. Internetda juda ko‘p foydali, ma‘rifiy va qiziqarli axborotlar mavjud bo‘lib, ulardan to‘g‘ri va samarali foydalangan shaxsda turli sohalar bo‘yicha bilimi oshib boradi. Shu bilan bir qatorda, yosh foydalanuvchilarda internet madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Internet madaniyati har qanday manba va mazmundagi axborotni iste‘mol qilish, o‘zlashtirish va uzatishni nazarda tutadi.

Internet madaniyati — bu internet tarmog‘idagi ijtimoiy ongga salbiy ta‘sir etuvchi, jumladan, amaldagi davlat tuzumiga qarshi qaratilgan noxolis xarakterdagi, diniy ekstremistik, terroristik, hayosizlik, shafqatsizlik va boshqa mazmundagi axborotlardan foydalanishning ongli ravishda, cheklanilishi demakdir.

Internet madaniyatining zamirida muloqotga nisbatan umumqabul qilingan axloqiy talablar, shuningdek, har bir insonning betakrorligi va qadr-qimmatining bevosita tan olinishi mujassam bo‘lgan. Internet madaniyatini bilmaslik foydalanuvchi tomonidan internet va ijtimoiy «anonim» tarmoqlarda cheklanmagan miqdorda muloqot foydalanuvchilar bilan tekshirilmagan va tasdiqlanmagan axborotlar almashinuviga olib kelishi mumkin. Bunday tendentsiya foydalanuvchilarning internet olamida ommalashayotgan kiberjinoyatchilik, kiberbulling ta‘siriga tushib qolishlariga sabab bo‘lishi ham mumkin.

Xulosa qilib aytganda, global tarmoqning chegara bilmasligi foydali axborotlar bilan bir qatorda, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy tarbiyasiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan nosog'lom mazmundagi axborotlarning ham tarqalishining oldini olish hozirgi kunning dolzarb masalasidir.

MAKTAB O'QUVCHILARINING KASB TANLASHLARIDA OILANING AHAMIYATI: IJTIMOY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Sabirova Gulzira Baxadirovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'irot tumani 2-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktab o'quvchilarining kasb tanlashlarida oilaning ahamiyati haqida va uning ijtimoiy-muammo sifatidagi masala ekanligi hamda bir qator yechimlar ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: oila, kasb, ota-ona, o'quvchi, bilim, tajriba, hunar, ustoz, kasbiy layoqat, ko'nikmalar.

Juda ko'p kasblar ichida qaysi birini tanlash, unga shaxs moyilligi, layoqati va qiziqishlarining mos kelishi yoki kelmasligini bilish shaxs istiqbolida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa o'quvchi- yoshlarni kasbga yo'naltirish umumta'lim maktabi ishining tarkibiy qismidir. Ma'lumki, agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa, inson uchun mehnat quvonch, ijodiy ilhom manbaiga aylanadi, bu esa inson uchun ham, jamiyat uchun ham foydalidir. Shu o'rinda psixologlarimiz ta'kidlaganidek, insonning o'zi xohlagan erkin tanlashi nihoyatda katta ahamiyatga ega. Inson sevgan ishi bilan shug'ullansa, u bu ishdan xursand bo'lishi, qanoat hosil qilishi, ko'p tashabbus ko'rsatishi, charg'amay g'ayrat bilan ishlashi mumkin. Yoshlarni mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb- hunarini o'z qobiliyatlariga yarasha to'g'ri tanlashlariga erishish uchun maktab o'qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik qobiliyatlar yuksak bo'lishi, fan asoslarini turmush bilan bog'lab o'rganilishi, to'garak va qo'shimcha,

yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb- hunar to'g'risida ma'ruzalar o'qilishi, suhbatlar, munozaralar o'qilishi, sayohatlar, uchrashuvlar, kasb- hunar fotoko'rgazmalari tashkil qilishlari zarur. Kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish o'qituvchining pedagogikfaoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Mehnat ta'limini turmush bilan bog'lash, uyg'unlashtirish, o'quvchilarning individual- tipologik, yosh davrlari xususiyatlari, texnik qobiliyatlari, intellektual darajalari va imkoniyatlarini hisobga olish ijobiy samara beradi. Chunki har bir kasb- hunar shaxsdan irodaviy zo'r berishni , aqliy jiddiylikni va sinovlarga bardosh bera oladigan yig'it- qizlarnigina mazkur tanlangan kasbga nisbatan yaroqli deb topiladi. O'quvchini u yoki bu kasbga maqsadli yo'naltirishdan avval uning shaxsini o'rganish lozim. Buning uchun uni kuzatish o'quvchining maktabdagi, jamoat joylaridagi, oila va mehnatdagi amaliy harakatlarini tahlil qilish, so'rovnoma o'tkazish, suhbat, test, olish mumkin. Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muhtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o'quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqligini aniqlab, so'ng kasbga yo'llash kerak. Kasbga yo'naltirishda turli kasblar, ularga qo'yiladigan talablar, bu kasbni qayerda egallashlari mumkinligi to'g'risida o'quvchilarga ma'lumot berish katta ahamiyatga ega. Kasb mahorati va insoniy tafakkurning rivojlanishi, fandagi mavjud muammolarni va ularni hal etish yo'llarini ko'ra bilish qobiliyati, bularning hammasi muammoli- evristik saviyadir. Shu o'rinda o'quvchilarning kasbga yo'naltirishning nazariy va amaliy aspektlarini ko'rib chiqamiz:

-kasbga yo'naltirishning nazariy aspekti kasb faoliyatining barcha tomonlari to'g'rsidagi chuqur bilimlarning shakllanishi, shu bilimlarga tayangan holda ta'lim olishni, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish va buning aksi bo'lgan amaliyotning nazariyaga ko'chiriy yo'llarini o'rganishni nazarda tutadi.

-kasbga yo'naltirishning amaliy aspekti esa egallagan bilimlarni hayotiy faoliyatning ma'lum bir sohasida qo'llashni o'rganishdan iboratdir. Bu esa yoshlarni biror kasbni tanlashga ongli munosabatda bo'lishga tayyorlaydi. O'quvchilar kasblar to'g'rsidagi ma'lumotlarni, bilimlarni faqat maktabda emas, balki ommaviy axborot

vositalaridan, tanishlari, qarindoshlardan ham bilib oladilar. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda yoshlarni kasbga yo'naltrishda quyidagilarga e'tibor berish lozim bo'ladi.

-o'quvchilarning faolligi, havaslari, intilishlari, xohishlari, motivlari, ezgu- niyatlari xususan kasbkorga bo'lgan qiziqishlarini vaqtida aniqlash.

-o'quvchilarning individual tipologik xususiyatlari, yoshi va jinsini hisobga olgan holda ularning har birini oqilona kasbga yo'llash;

- kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muhtojligini nazarda tutish va shunga yarasha ularning aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqligini aniqlab, so'ng kasbga yo'llash kerak;

-ota onalar bilan mustahkam aloqa o'rnatish; -kasbga yo'naltirish bo'yicha maslahatlar uyushtirish lozim bo'ladi. O'quvchi yoshlarni kasbga yo'naltirish– yoshlarga kelajakda o'z kasblarini aniqlab olish uchun yordam qaratilgan ijtimoiy- iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy-biologik va ishlab chiqarish- texnik tadbirlarning asoslangan tizimi hisoblanadi. Yoshlar mehnatining mazmuni mamlakat oldida turgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy vazifalar, viloyat va tumanlardagi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, o'quvch yurtlarining ichki imkoniyatlari va talablari asosida belgilanadi. Kasbga yo'naltirish deganda, yoshlarni hohish moyilligi va shakllangan qobiliyatlariga yarasha hamda xalq xo'jaligini, umuman jamiyatning mutaxassislarga ehtiyojlarini hisobga olib ishga joylashtirish jarayonini optimallashtirishga qaratilgan psixologik pedagogik, tibbiy tadbirlar kompleks tushuniladi. Maktab o'quvchilarining umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etish, o'quvchilarda kasbiy bilimlarni va motivatsiyani, ijtimoiy hayotdagi kasbiy olamga moslashuv va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarni shakllantirish hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan biridir. Maktab o'quvchilarida kasb hunar tanlashga ko'malashishning asosiy maqsadi - umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etish, o'quvchilarda kasbiy bilimlarni va motivatsiyani, ijtimoiy hayotdagi kasbiy olamga moslashuv va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarni shakllantirish. Maktab amaliyotchi psixologi quyidagilarni rivojlantirish uchun ma'suldir:

- o‘quvchilarni kasblar haqidagi fikrlarini kengaytirish, ularni qobiliyat va imkoniyatlarini amaliyotda qo‘llashga o‘rgatish;

- o‘quvchilarning bilim motivlarini shakllantirish, intellektual va ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish hamda ularning kasblar dunyosi haqidagi fikrini kengaytirish;

- o‘quvchilarda kasbga nisbatan o‘z qobiliyatlarini o‘rganishga o‘rgatish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni ma’lumotnoma va entsiklopedik adabiyotlar bilan ishlashga o‘rgatish;

- o‘quvchilarni uzluksiz kasb-hunarga yo‘naltirish, psixologik-pedagogik diagnostik metodikalari asosida kasbiy qiziqishi, layoqati, moyilligi va qobiliyatlarini erta yoshdan aniqlash hamda yo‘naltirib borish;

- o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda ota-onalarni va keng jamoatchilikni jalb qilgan holda targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish. O‘quvchi-yoshlarning kasb-hunarga layoqatini o‘rganish uchun ularning aqliy, jismoniy qobiliyatlarini bilish, malaka va ko‘nikmalarini o‘rganish lozim. Kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish o‘qituvchining pedagogik faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Mehnat ta‘limini turmush bilan bog‘lash, uyg‘unlashtirish, o‘quvchilarning individual va tipologik, yosh xususiyatlarini, texnik qobiliyatlarini, intellektual darajalari, imkoniyatlarini hisobga olish ijobiy samara beradi. Chunki har bir kasb-hunar shaxsdan irodaviy zo‘r berishni, aqliy jiddiylikni va sinovlarga bardosh bera oladigan o‘quvchilarnigina mazkur tanlangan kasbga nisbatan yarog‘li deb topiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. E.G.Goziev. Shaxs psixologiyasi. 1999. 3. E.G.Goziev Muomala psixologiyasi. 1999.

2. G.K.Tulyaganova. Differentsial psixofiziologiya. T. 1999 6. Z.T.Nishanova. Psixik taraqqiyot dignostikasi. T. 2004.

3. saviya.uz

BUGUNGI TA'LIM-TARBIYA JARAYONI VA UNI YAXSHILASHNING PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK OMILLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Bekmirzayeva Nilufar Nozimjanovna
Andijon viloyati Xonobod shahar 5-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bugungi ta'lim-tarbiya jarayoni va uni yaxshilashning pedagogik – psixologik omillari haqidagi, shuningdek, bundagi muammolar va yechimlar bo'yicha bir qator tavsiyalar ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, shaxs, psixologik omil, natija, usul, muammo, pedagogik jarayon, yechim, natija.

Ta'lim mazmuni umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturlariga kiritilgan mavzular asosida ta'limning barcha turlarida uzviylik, uzluksizlik va davriylikni ta'minlaydi. O'qituvchi, o'quvchi va ota-onalar uchun o'quv-metodik materiallar, multimediali axborot-ta'lim resurslari ishlab chiqilib, o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etiladi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga prinsipial yangi yondashuvning joriy etilishi orqali o'quvchilarda olgan bilimlarini amaliyotda to'g'ri qo'llay olish, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, mustaqil ijodiy fikrlash kabi ko'nikmalar rivojlantiriladi. Har bir inson o'zini tushunishi, olamni qabul qilishi va o'zini anglashi bu – eng dolzarb, shaxsning muxim belgisi hisoblanadi. Odamning o'zini anglashi o'z navbatida shaxsning muxim belgisi xisoblanadi. Ta'lim-tarbiya psixologiyasi maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilgan pedagogik jarayon sharoitida inson shaxsi shakllanishining qonuniyatlarini o'rganadi. Tarbiya xar qanday jamiyatning muxim vazifasidir. Tarbiya-bu shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonidir. Ta'lim-tarbiya jarayoni muayyan ko'lamda bilim, ko'nikma va malaka berishga shuningdek shaxsning aqliy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan murakkab jarayon hisoblanadi. Ta'lim tarbiya jarayoni ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarning xamkorlikdagi faoliyati natijasida amalga oshiriladi. Ta'limning muvafaqiyati, birinchidan o'qituvchi bilan o'quvchilar jamoasi xamkorligidagi faoliyatining faol tarzda

o'tishiga, ikkinchidan, nimalardan saboq berishga, kim tomonidan tashkil qilishga, uni qanday metodlar bilan amalga oshirishga va kimlarni o'qitishga ko'p jihatdan bog'liq. Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning kuzatuvchanligini va tafakkur jarayonini tarkib toptirish kerak. Kuzatuvchanlikni o'quvchilarda shakllantirish uchun o'qituvchi ular oldiga aniq va muayyan maqsad qo'yishni: yaxlit predmetdan bo'lak va qismlarni ajratishni obyektarni o'zaro taqqoslashni, muxim va nomuxim belgilarni farqlashni o'rgatish lozim. Bilimlarni aniqlash va mustaqil o'zlashtirish jarayonida fikr yuritish jarayonlaridan unumli foydalanish darkor. Masalan matnni analiz va sintez qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish va boshqalar. Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida bilish jarayonlarining barqarorligi mazmundorligi va tartibliligi bevosita diqqatga bog'liqdir.

Ta'lim-tarbiyaning muxim vazifasi- jamiyat xayotida zarur bo'lgan kerakli sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan shaxsni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Tarbiya jarayonida doimiy va o'zgarmas maqsad qo'yilmaydi, chunki o'zgarmas maqsad xar qanday jamiyatga xam mos bo'lavermaydi. Jamiyat tuzilishi va ijtimoiy munosabatlar o'zgarishi bilan tarbiya maqsadi o'zgaradi. Insonning tabiatini o'zgartiradigan uning shaxsini tarkib toptirishga ta'sir qiladigan kuch ijtimoiy omillar yoki boshqacha qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari xamda ishlab chiqarish munosabatlarining o'sishi va o'zgarishidir.

Bundan tashqari inson shaxsining tarkib topishigan ta'sir qiluvchi yana bir kuchli omil- inson orttirgan tajribalarining tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishidir. Insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi, ijtimoiy muxit va tarbiyaning roli xal etuvchi axamiyatga egadir.

Ta'lim jarayonida qiziqishning roli juda katta axamiyatga ega. Chunki qiziqishlar o'vuvchilarning o'qishga nisbatan munosabatini, Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonining psixologik-pedagogik masalalari 70 o'quv predmetlarining mazmuniga ko'ra moyillik kuchini aks ettiradi. Qiziqishlar odatda bevosita va bavoosita, beqaror va barqaror, keng va tor, umumiy va maxsus turlarga bo'linadi. Bilimlarni o'zlashtirishning samaradorligi o'quvchilarning irodaviy zo'r berish ma'naviy extiyoji va anglashilgan o'quv motiviga bevosita bog'liq.

Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayoni muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'quv faoliyati quyidagi talablarga javob berishi lozim 1.Motivatsiya, ya'ni o'qituvchi yaxshiroq o'qitishga, o'quvchi esa yaxshiroq o'qishga xarakat qilishi kerak. 2.Ta'limning rivojlangan va egiluvchan tuzilishga egaligi 3. Turli shakllarda amalga oshiriladi.O'qituvchiga o'z ijodiy pedagogik imkoniyatlarini to'liq amalga oshiradigan, o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish uchun induvidial imkoniyatlaridan foydalanish uchun turli shakllarda amalga oshiriladi. 4.Ta'limning zamonaviy texnik vositalar yordamida bajarilishi ta'lim-tarbiya jarayonining psixologik muammosi ko'p masalalarni qamrab oladi. Ta'limning muvaffaqiyati bir qator psixologik omillarga bog'liq bo'ladi.

Avvalo o'quvchining o'qishga bo'lgan munosabatiga to'xtalamiz.Bu munosabat diqqatda, xis-tuyg'ularida, qiziqishlar va irodada, shuningdek , shaxsning tutgan yo'lida namoyon bo'ladi.Ta'lim-tarbiya jarayoni avvalo, o'quvchilar diqqatini yo'lga solishni talab etadi. Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jixatdan o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga xam bog'liq. O'qitishning emottSIONalligi ta'limning muvaffaqiyatliligini ta'minlovchi omillardan biridir Ta'lim berish jarayoni emottSIONal jarayon, Agar o'quvchilarga berilayotgan axborot ularda xech qanday xis-tuyg'u uyg'otmasa, uni o'quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar.

Gap o'quvchilarning psixologik xolatlari, ya'ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari xaqida xam bo'lishi kerak. Ulardagi quvonchli, yuqori kayfiyat o'quv faoliyatini juda samarali tashkil etadi. O'zbek oilasida tarbiya moxiyati mazmuni tarbiyaning kundalik va istiqloq rejasi bolalarga ta'sir o'tkazish vositasini tanlash va undan unumli Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonining psixologik-pedagogik masalalari 71 foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega, chunki uning asosida xalq an'analari yotadi. O'zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlaridan unumli foydalanish xar tomonlama taraqqiy etgan inson shaxsini tarkib toptirishda muxim roly o'ynaydi. Abdulla Avloniy aytganidek: “ Tarbiya biz uchun yo xayot yo mamot yo najot yo xalokat yo saodat yo falokat masalasidir”. Yosh avlod tarbiyasida milliy ruxiyat, umuminsoniy, xalqchil milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar yetakchi o'rin tutmog'i lozim. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchilar muloqoti va muomalasini oqilona tashkil etish o'quvchilarning induvidial-tipologik jinsiy, etnopsixologik, xududiy, yosh davrlari

xususiyatlariga, intellektual qobiliyatlariga, iqtidoriga e'tibor berish , xamkorlik faoliyatini , to'g'ri tashkil qilish o'quv-tarbiya ishlarini takomillashtirishga yordam beradi desak mutlaqo to'g'ri bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.E.G'oziyev. Oliy maktab psixologiyasi.T.1997-y
2. Ziyonet.uz
3. baxtiyor.uz

BITIRUVCHI O'QUVCHI-YOSHLARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Parpiyeva Dildora Foziljonovna
Namangan viloyat Uchqo'rg'on tumani 45-maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bitiruvchi o'quvchi-yoshlarining kasbiy tayyorgarligini oshirishning pedagogik-psixologik omillari haqida ko'plab foydali ilmiy ma'lumotlar keltirib o'tilgan bo'lib, biz tanlagan mavzu esa o'z dolzarbligini bugungi kunda yo'qotgan emas.

Kalit so'zlar: Kasb-hunar, o'quvchilar, o'qituvchi, kasblar klassifikatsiyasi, texnologiyalar, sharoit, ota-ona, tajriba.

Ma'lumki, har qanday rivojlangan davlat iqtisodiyotining holati ko'p jihatdan progressiv ilmiy-texnik g'oyalar oqimining intensivligi va ularni amalga oshirish tezligi bilan belgilanadi. Axborotlashtirish va ishlab chiqarish texnologiyalarining intellektualizatsiya darajasi oshib borishi munosabati bilan maxsus ma'lumotlar hajmi - ilmiy, texnik, texnologik va boshqalar tez o'sib bormoqda. Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ro'y berayotgan sharoitda mutaxassislar tayyorlash sifatiga talablar sezilarli darajada oshmoqda. Rivojlanayotgan jamiyat zamonaviy bilimdon, axloqiy va tadbirkor odamlarga, tanlangan vaziyatda mustaqil ravishda mas'uliyatli qarorlar qabul qila

oladigan, ularning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini oldindan aytib bera oladigan, harakatchanlik, jo'shqinlik, konstruktivlik, mamlakat taqdiri uchun harakat qiladigan kadrlarni tayyorlash asosiy vazifadir. Ta'limni modernizatsiya qilish kontseptsiyasi kasbiy ta'limning asosiy maqsadini belgilaydi - bu mehnat bozorida raqobatbardosh, o'z kasbini yaxshi biladigan va tegishli faoliyat sohaslariga yo'naltirilgan, jahon standartlari darajasida ixtisoslikda samarali ishlashga qodir, doimiy professionallarga tayyor malakali mutaxassisni tayyorlash. o'sish, ijtimoiy va kasbiy harakatchanlik, shaxsning tegishli ta'lim olish ehtiyojlarini qondirish. Mutaxassislarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar shuni ko'rsatadiki, uning kelajakdagi kasbiy faoliyati va hayotining muvaffaqiyati va samaradorligi ta'lim muassasasi bitiruvchisining kasbiy faoliyatga qanday kirishiga, uning faol ijodiy faoliyatga tayyor bo'lishiga, o'zini takomillashtirish va kasbiy o'sishiga bo'lgan ehtiyojiga bog'liq hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda kasbiy faoliyatning eng mukammal shakli mutaxassisning transformatsion, innovatsion, ijodiy faoliyati hisoblanadi. Bugungi kunda ishlab chiqarishga daromad keltiradigan, g'oyalarni taklif qiladigan va ishlab chiqadigan, innovatsion yechimlarni topadigan va iqtisodiy jihatdan samarali loyihalarni amalga oshiradigan mustaqil, ijodiy mutaxassislar, tashabbuskor mutaxassislar kerak. Va kasbiy ta'limni o'quvchilarga o'qitish va o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyasiga murojaat qilmasdan amalga oshirish mumkin emas. Bunday sharoitda tayyor bilimlarni taqdim etish va o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi oqilona va istiqbolli deb tan olinmaydi. Intellektual madaniyatni shakllantirish va mutaxassisning ijodiy qobiliyatini yuksaltirish bilan bog'liq yangi ta'lim texnologiyalari zarur. Amalga oshirilgan ishlar bu yo'nalishda mavjud bo'lganlar ijodiy faoliyat kontseptsiyasiga asoslangan pedagogik texnologiyalarga asoslangan bo'lishi kerak. Biznesning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mutaxassislarning malakasi, murakkab tadqiqot, ishlab chiqish va tashkiliy vazifalarni ijodiy hal qilish qobiliyatiga bog'liq. Bunday mutaxassislarni shakllantirish muammosi asosan fundamental va amaliy - oliy ta'lim tizimida ilm doirasidan tashqarida hal etiladi. Zamonaviy ta'limning eng muhim maqsadi mutaxassisga nafaqat zarur tayyorgarlikni, balki uning butun umri davomida o'qishni davom ettirish ko'nikmalarini berishdir. Ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlash o'quvchilarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish,

uning natijalarini ishlab chiqarishga jalb qilish orqali amalga oshiriladi. O'quvchilarni o'qitishning professional-ijodiy yo'nalishi ilmiy ijodning metodologiyasi va tajribasi asoslarini bilishni o'z ichiga oladi. Bu nafaqat ularning kelajakdagi ishlarining tabiati, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida bo'lajak mutaxassislar qo'yiladigan talablar: ularning intellektual qobiliyatlari va ijodiy salohiyatini amalga oshirish qobiliyatining yuqori darajasi bo'lajak mutaxassisning malakasi va raqobatbardoshligi; o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati. Bugungi kunda kasb-hunar ta'limi tizimiga ta'lim darajasiga qo'yiladigan umumiy talablarda faol joriy etilgan davlat ta'lim standartlari bitiruvchini kasbiy vaziyatda tizimli harakat qilish, o'z faoliyatini tahlil qilish va loyihalashtirish, noaniqlik sharoitida mustaqil harakat qilish, o'zini takomillashtirishga bo'lgan doimiy xohish bo'lishi kerakligini taqozo etadi. Bugungi kunda o'quvchilarga ilmiy-tadqiqot faoliyatining asoslarini o'rgatadigan kelajakdagi mutaxassislar uchun kasbiy tayyorgarlikning yangi tizimini ishlab chiqish zarurati tug'ildi. Zamonaviy fanda "kasbiy tayyorgarlik" tushunchasi kasbiy tayyorgarlik bilan bog'liq bo'lib, kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonini aks ettiradi. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik faqat kasbiy faoliyatning bo'lajak mutaxassislarini mahorat bilan cheklab qo'yilishi mumkin emas. Maqsadli faoliyat tanlangan faoliyat samaradorligini ta'minlaydigan kasbiy va shaxsan muhim fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun ham zarurdir. Tarkibiy va funktsional tarkibiy qismlarni turistik sohada bo'lajak mutaxassislar uchun kasb-hunar ta'limi tizimining zarur va etarlicha tarkibiy qismlari sifatida ajratish mumkin. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning tizimni tashkil etuvchi komponenti o'qitishning maqsadi - kasbiy faoliyatga tayyorlikni shakllantirishdir. Shu bilan birga, tayyorlik shaxsning faol faol subyektiv holatini va kasbiy vazifani bajarish uchun kuchlarni safarbar qilishni tavsiflovchi murakkab integrativ shaxs sifati sifatida qaraladi. Aksariyat mualliflar mutaxassisning kasbiy faoliyatga tayyorligi bo'yicha bilim, ko'nikma va shaxsiy xususiyatlari kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Shuni yodda tutgan holda, biz bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatga tayyor bo'lishida o'zaro bog'liq bo'lgan uchta jihatni ajratamiz: shaxsiy; kasbiy faoliyatga axloqiy, psixologik, nazariy va amaliy tayyorgarlikni tavsiflovchi kognitiv va praxeologik. Tanlangan qoidalarni umumlashtirib

o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligi tizimining tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi: kognitiv, faol va shaxsiy. Kognitiv tarkibiy qism talabaning tanlangan kasbining mohiyati va mazmuni, ushbu sohadagi mutaxassisning shaxsiga bo'lgan talablar, shuningdek, samarali kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim darajasini aks ettiradi. Shaxsiy tarkib kelajakdagi mutaxassisning kasbiy faoliyatga tayyorlanish darajasini ma'naviy va ruhiy tayyorgarligini tavsiflaydi. U qiymat yo'nalishlarini shakllantirish darajasini, tanlangan mutaxassislikka qiziqish, uning natijalaridan qoniqish, kasbiy faoliyatga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish va o'zini takomillashtirish faoliyatida ishtirok etish darajasini aks ettiradi. Ushbu tarkibiy qismlar kasbiy faoliyatga tayyor bo'lish fenomenining yaxlitligini va uning tarkibiy qismlarining dialektik o'zaro bog'liqligini aks ettiradi, bu ularni tanlangan mutaxassislik uchun bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi tizimini saqlab qolish va rivojlantirish uchun zarur va yetarli deb hisoblashga asos beradi desak mutlaqo to'g'ri bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.-T.:Universitet, 2002.-96 b.
2. Hozir.org
3. Referat.uz

O'QUVCHILARDA DEVIANT XULQNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

*Alimboyeva Ominaxon Alimjonovna
Andijon viloyati, Paxtaobod tumani 69-IDUM psixologi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'quvchilarda deviant xulqni shakllantiruvchi omillar va ularni bartaraf etishning psixologik asoslari haqida bir qator ilmiy ma'lumot va tavsiyalar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: Deviant xulq, bola, o'smir, psixologik omillar, salbiy xulq-atvor, ota-ona, o'quvchi, muhit.

Hozirgi davrda har bir ota-ona, har bir pedagog tarbiya o'quviga ega bo'lmog'i zarur. Bola faoliyatini nazoratsiz qoldirish, undagi o'zgarishlar sababini tahlil qila olmaslik, yoshiga monand tarzda munosabatda bo'lmaslik salbiy xulq-atvor shakllanishiga imkon yaratadi. Deviant xulq o'smir shaxsiga e'tiborsizlik, uning qiziqishlarini e'tiborga olmaslik va nazoratsiz qoldirish, ertangi kunga nisbatan qiziqish va umid uyg'ota olmaslik kabi qator salbiy motivlar asosida shakllanadi. Bu motivlar esa faqatgina oilada yoki ta'lim tizimida emas, har ikkala tarbiya o'chog'ining uzviyligi ta'minlangan-dagina bartaraf etilishi mumkin. O'smirlarga oilada ta'lim-tarbiya berilayotganda ota-onalarning o'zlari ular uchun namuna, ibrat bo'lishlari kerak. Shuning uchun sog'lom fikrlashni insonlar qalbiga va onggiga singdirishni, eng avvalo, oiladan boshlash kerak. Biz deviant xulq motivlarini o'rganganimizda "Deviant xulqning yuzaga kelish sababi nimada?" degan savolga: - ota-onalar o'rtasida doimiy nizolarning mavjudligi — 53%; - farzand faoliyatini nazorat qilmaslik — 21,5% ; - bola shaxsiga noto'g'ri muomala va ta'sirda bo'lish — 11,5% ; - doimo birga bo'ladigan o'rtoqlari va o'zi uchun ideal sifatida tanlagan timsollari xulqiga taqlid qilish — 1,4% kabi javoblarni e'tirof etishdi.

Oila muhitidagi nosog'lom psixologik iqlim o'smirning oiladan bezishiga, turli noqonuniy harakatlar bilan mashg'ul bo'lishga, diniy ekstremistik oqimlar ta'siriga tushib qolishiga sabab bo'ladi. O'smirlar o'rtasida bu holatning oldini olish uchun tajriba-sinov maskanlarda "Psixolog xizmati markazi", "Sirdoshim" klubi, "Ijtimoiy moslashuv markazi" kabi to'garaklar tashkil qilindi. Deviant xulq-atvorli bola nafaqat o'zigina me'yorlarga moslasha olmaydi, balki o'zi anglamagan holda ijtimoiy normalarga, me'yorlarga moslashgan ota-onalari, yaqinlari faoliyatini ijtimoiy me'yorlardan og'ishiga sabab bo'lmoqda. Aniqlovchi pedagogik tajribalarimizda, ota-onalardagi, deviant xulq-atvorli bolalarning salbiy emotsional-hissiy ta'sirlarini o'rganish natijasida ularni quyidagicha turkumlashtirish mumkun. Tadqiqotlar natijalaridan quyidagi krizisli holatlar bosqichlari aniqlandi : I. Ota-onalar bolalaridagi deviant xulq-atvorlarni tan olgilari kelmaydi, dalillarni yoshlikka, tajribasizlikka, erkalikka yo'yishadi. Muammoni

to‘g‘ridan-to‘g‘ri inkor etadilar. Ammo shubha paydo bo‘ladi. Salbiy emotsional-hissiy holat yuzaga keladi, u kundan-kunga kuchayib boradi. II. Deviant xulq-atvor dalillari inkor qilib bo‘lmaslik darajasiga yetadi. Ota-onadagi salbiy emotsional-hissiy holat yuqori depressiv darajaga yetadi. Ilojsizlik, najotsizlik holati sodir bo‘ladi. G‘ayri tabiiy, mo‘jizaviy chora-tadbirlar xayolga kela boshlaydi. III. Vaziyatdan chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida fikrlash boshlanadi. IV. Vaziyat qabul qilinadi, mutaxassislariga murojaat qilish eng to‘g‘ri yo‘l ekanligi tan olinadi va bu yo‘lda harakat boshlanadi. V. Deviant xulq-atvorli bolasiga ota-ona butun e‘tiborini, faoliyatini bog‘lab, atrofidagi kasbiy, ijtimoiy munosabatlarini uzib qo‘yishi mumkin. VI. Ijtimoiy pedagog, ota-onaga deviant xulq-atvorli bolani davolash, ijtimoiylashtirish bilan birga o‘zlarining ham kasbiy, ijtimoiy, individual hayotlari bilan yashashlari kerakligini uqtirib boradi va shunga erishadi.

Shunday qilib, deviant xulq-atvorli bola to‘la ijtimoiylashib ketadimi-yo‘qmi, bundan qat’iy nazar, pedagog ota-onaning individual, ijtimoiy, kasbiy hayotlarini to‘la, normal saqlanib qolishining chora-larini ko‘rish, ta‘minlashi zarur. Tajriba-sinov maydonchasi etib tanlangan ta‘lim muassasalarimizda yaxshi natija berdi, deviant xulqqa moyilligi bor o‘smirlar soni keskin kamaydi. Ularning har biri bilan alohida, individual profilaktik-pedagogik yondashish qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Deviant xulqning kelib chiqish sabablari hammasida har xil, turlicha. Sabablar turlicha yondashishni talab etadi. Umuman olganda, o‘smir dunyoqarashi va e‘tiqodini o‘zgartiruvchi omillar: 1) ma‘naviyat va ma‘rifat; 2) oila; 3) mafkura; 4) ijtimoiy ustanovkalar. Shu o‘rinda o‘smirlar orasida deviant xulq profilaktikasini amalga oshirish bo‘yicha mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli ishlar haqida alohida ta‘kidlash joiz. Bir necha o‘n yil ilgari qaysi joyda odam nima qilishni istasa va shuni bajara olsa, bu yerda demokra-tiya bor degan juda tor qarashlar ilgari surilgan davlatlardan farqli ravishda, bizning xalqimiz azaldan “Bir bolaga – yetti mahalla ota-ona”, “Kasallikni davolagandan ko‘ra uning oldini olgan afzal” kabi naqllarga amal qilib yashaydi. Odob-axloq qoidalariga rioya qilish, yon atrofdagi odamlarga nisbatan mehr-oqibatli bo‘lish, ozgina bo‘lsa-da nomaqbul ish qilishdan uyalish hissi oilada farzand tarbiyasi-ning asosini tashkil qilib keladi. Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, o‘smirlar

orasida deviant xulq kelib chiqishining oldini olish, ya'ni pedagogik profilaktikasini amalga oshirish nafaqat davlat organlarining, balki shu jamiyatning a'zosi hisoblangan har bir insonning vazifasidir. Eng avvalo, o'zimiz, oila a'zolarimiz va jamiyat oldi-dagi mas'uliyatni doimo his qilib yashash, atrof-dagi hodisalarga beparvolik bilan munosabatda bo'l-maslik, tinch va osuda hayotimizning qadriga yetib yashash barchamizning kundalik hayot tarzimizga aylanishi zarur. Zero, barkamol avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazish pedagogik konsepsiyasi har bir bolaning tug'ma imkoniyatlari, layoqat, qobiliyatlari va talantlarini to'g'ri pedagogik diagnostika qilish, unga bor imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun iqtisodiy-ma'naviy, psixologik, pedagogik sharoitlar yaratib berishni dolzarb, milliy xarakterdagi vazifa qilib qo'yimoqda. Jamiyatda qabul qilingan qoidalar, xulq-atvor me'yorlaridan chetga chiqqan o'smirlarni "tarbiyasi og'ir o'smir" deyiladi. "Tarbiyalash og'ir" deganda, pedagogik ta'sirga qarshilik ko'rsatish tushuniladi. Tarbiyalash og'ir, qabul qilingan me'yor va qoidalarga tarbiyalanuvchi tomonidan amal qilinmasligini fanda deviatsiya (og'ish) hodisasi orqali o'rganiladi. Va bunday bolalar ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Kimningdir xotosi, noto'g'ri tarbiya, haddan tashqari e'tiborsizlik natijasining mahsulidir. Oilada va ta'lim muassasalarida bolalar huquqlari hurmat qilinsa, ular bilan ko'proq vaqt tarbiyalash ishlari olib borilsa bunday bolalar kamayib boradi desak mutlaqo to'g'ri bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. G.Q.Tolaganova, —Tarbiyasi qiyin o'smirlar|| Toshkent;.2005. 65- bet.
2. Lombroso Cesare. Its Causes and Remedies. Boston, 1911
3. Referat.uz

O'SMIRLIK DAVRINING O'ZIGA XOS IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ULARDAGI QO'RQUV HOLATLARINING KELIB CHIQUISH SABABLARINI BARTARAF QILISH

Qurbonova Navbahor Abduraxmonovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 19-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'smirlik davrining o'ziga xos psixologik xususiyatlari va bu davrda ijtimoiy qo'rquvning yuzaga kelish sabablari, shu bilan birgalikda o'smirlik davrida yuzaga keluvchi ijtimoiy qo'rquv holatlarini oldini olish va bartaraf etishda psixolog hamda ota-onalarga amaliy tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: O'smirlik davri, inqiroz, ota-ona, maktab, o'qituvchi, qo'rquvlar, muammo, psixik buzilishlar, yechim.

Bugun yurtimizda olib borilayotgan islohotlar barkamol inson shaxsini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning yetakchiligini ta'minlashni, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, milliy his-tuyg'ularini e'tiborga olib, ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishni taqazo qilmoqda. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'ziga xos psixologik rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish va diagnostika qilish muhim ahamiyat kasb etadi, ularni rivojlantirish esa zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolaridan biridir. Mana shunday psixologlarni qiynayotgan muammolardan biri bu o'smirlik davrida inqirozlarning og'ir kechishi va shaxslararo munosabatlarda yuzaga kelayotgan konfliktlar xisoblanadi. O'smirlik davri "o'tish davri", "og'ir davr", "inqiroz davri" ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Aynan o'smirlik davrida o'z vaqtida aniqlab bartaraf etilmasa, shaxsning kamolotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ba'zi qo'rquv turlari mavjud. Ya'ni bu holat o'smirning o'z-o'ziga beradigan bahosining yanada pasayib ketishiga, nevroz holatlarining vujudga kelishiga va hatto psixik buzilishlariga sabab bo'lishi mumkin. Yuqorida aytilgan o'smirlarning psixologik xususiyatlari turli xildagi biologik yoki ijtimoiy omillar ta'siri ostida bu davrda ijtimoiy qo'rquvlarni vujudga keltiradi. Bunday holatlarning namoyon bo'lishida muammoli

oilalardagi omillar sabab bo'ladi: - Tizimsiz oila (oila a'zolari munosabatlarning nomuvofiqligi, ular o'rtisida surunkali janjal va kelishmovchiliklar); - To'liqsiz oila oilada turli o'ziga xos oilaviy munosabatlarni keltirib chiqaradi; - Rigid (axloqiy prinsiplarga qattiq rioya qiluvchi) oila, oila a'zolaridan biri tarbiyaviy qattiq qonun-qoida asosida talab qiladi. Oilada qattiqqo'llik o'rnatilgan; - Bo'lingan oila (ya'ni ota-onalardan biri oilasidan chiqib alohida yashaydi, lekin o'z burchlarini bajarib, oilasidan xabardor, shu bilan birga unga nisbatan qattiq emotsional tobe'lik hukm suradi.). - Ota-ona tomonidan yo'l qo'yiladigan tarbiyaviy xatoliklar ,ya'ni, bunda ota-onalar farzandlarining xatolari va muvaffaqiyatsizliklarini doimo takroriy eslataverishadi, natijada bola butun diqqat e'tiborini o'z xatti-harakatidagi kamchiliklariga qaratishga o'rganib qoladi. Bu vaziyat shu darajaga borib yetadiki, o'zini tutishi, aqliy rivojlanishi, tashqi qiyofasi normal insonlar ham o'zlarini xunuk, beo'xshov, nodon deb hisoblay boshlaydilar; - Bolaga yoshligidanoq atrofidagi odamlar tomonidan qo'pol va noxaq munosabatda bo'lingani hamda omadsizlikka duch kelganlarida yaqinlari tomonidan ko'p tanqid va tanbeh berilganligidir. Natijada esa odamlar orasida shaxsda o'zini tuta bilish, nutq so'zlash malakalari rivojlanmaydi, o'zining qobiliyatlarini namoyish qila olmaydigan kishi jiddiy vazifalarni bajara olmaydi, shaxslararo munosabatlarda ham o'z o'rnini topishga qiynaladi. Chunki bunday insonlar odamlar to'planadigan, do'stlik munosabatlarini o'rnatish mumkin bo'lgan joylarga bormaslikka harakat qiladi. Bunday holat insonning yashash tarzi va turmush doirasini chegaralab qo'yadi va o'zlarini juda ham yolg'iz sezishadi. Natijada depressiyani yuzaga keltiradi va ko'pincha alkohol va narkotik moddalardan najot izlaydilar. Maktab o'quvchilarida bezovtalanishlarning rivojlanishiga olib keluvchi omillar: 1. O'quv jarayoning o'zi psixologik (xastalik) jarohat yetkazuvchi omillar: Maktab yuklamalari (ayniqsa katta sinflarda) insondagi har qanday faol aqliy faoliyat bezovtalanish bilan kechadi. Agar bezovtalanish yaxshilikka yo'naltirilgan bo'lsa, bola qiyinchiliklarni o'zi yengsa boladagi bilim olish davri oson kechadi. 2. O'qituvchi tomonidan bezovtalanishning kelib chiqishi: Ko'p hollarda o'qituvchilar hukmronlik (diktatorlik) holatida ish yuritishadi, bu esa mustaqillikni va yangi g'oyani taklif etish imkoniyatini cheklaydi. O'quvchilarga nisbatan qilingan e'tiborsizlik, kamsitish, noto'g'ri baholash, o'rtoqlari oldida ustidan kulish kabi holatlar

ular da o‘ziga nisbatan ishonchsizlikni o‘g‘ir holatlarida esa suitsidga moyillik keltirib chiqaradi. O‘smirlik qo‘rquvini qanday yengish mumkin? Eng avvalo o‘smirning otasini, yaqinlari yoki o‘qituvchilari tomonidan bu vaziyat jiddiy ekanligini anglagan holda psixolog mutaxassisga murojat qilishi va birgalikda ish olib borish kerak. O‘smirga muloqotga kirishishda suhbatni qanday boshlashi va tugatish kerakligini, turli xil ijtimoiy vaziyatlarda o‘z fikrini bildirish, omma oldida namoyon qilishga o‘rgatish lozim. Balki o‘yin shaklida - psixologik trening jarayonlarida mashq qilish orqali ham o‘smirda o‘ziga bo‘lgan ishonchni orttirish mumkin.

Quyidagi ko‘rsatmalar o‘smirlarda ijtimoiy qo‘rquvlarni korreksiya qilishda yordam beradi: 1. Ko‘z bilan ko‘z aloqa qilish mashqi. O‘quvchingiz yoki farzandingiz bilan suhbatlashayotganingizda o‘smirning ko‘z bilan aloqa qilish qobiliyatini rivojlantirish, buning uchun – “Menga qara”, “Ko‘zlarimga qarab javob ber”, “Men sening ko‘zlaringni ko‘rmoqchiman” iboralarini qo‘llash va suhbat jarayonida uni rag‘batlantirib turish, bu o‘smirning boshqa odamlar bilan muloqotini osonlashtiradi. 2. Qo‘rquvni vizualizatsiya qilish mashqi – o‘smirga qo‘rqayotgan ob‘yektini, tasavvurini qog‘ozga chizish va bu qog‘ozni g‘ijimlash, kesib maydab tashlash, suvga oqqizish, yoqib yuborish kabilar qo‘rquvni yengishga imkon beradi. Ota – onalarga farzandlari bilan birgalikda qo‘rquvni yengishda ushbu tavsiyalar yordam beradi.

- Farzandingizni o‘zi uchun qiziqarli va uni muvaffaqiyatga olib boruvchi mashg‘uloti bilan band qilish;

- Ham ruhiy ham jismoniy dam olish;

- O‘zini – o‘zi yetarli darajada baholashga o‘rgatish, imkoniyatlarini ochib berish va rag‘batlantirish;

- O‘smirning shaxsiy fikrlariga qo‘shilish;

Demak, o‘smirlik davridan shakllanib boruvchi, shaxs kamolotiga salbiy ta‘sir etuvchi, ko‘p qirrali ijtimoiy qo‘rquvlar hozirgi kunda keng tarqalgan, o‘rganilishi lozim bo‘lgan muammolardan biridir. Aynan mazkur jarayonni kelib chiqishiga ta‘sir etuvchi omillarni o‘rganish, psixologlar, ota – onalar uchun voyaga yetmagan bolalarini qiynayotgan tashvish va qo‘rquvlarini anglay bilish hamda bartaraf etish usullarini topish va buni keng jamoatchilikka tadbiq etish juda muhim bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimova V.M. "Ijtimoiy psixologiya asoslari". Toshkent 1994.
2. G'oziev E.G'. "Ontogenez psixologiyasi". Toshkent 2012.
3. hozir.org

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING PSIXIK TARAQQIYOTINI O'RGANISH VA ULAR BILAN ISHLASHDA AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING O'RNI

*Samandarova Latofat Raxmonovna
Samarqand shahridagi 49-maktab psixologi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixik taraqqiyotini o'rganish va ular bilan ishlashda amaliyotchi psixologning o'rni haqida nazariy va amaliy ma'lumotlar keltirib o'tilgan bo'lib, ular qolgan o'quvchilarga ham foydali bo'ladi degan umiddamiz.

Kalit so'zlar: Kichik maktab yoshi, maktab, o'quvchi, ota-ona, o'qituvchi, bilim, muhit, dars, o'quv motivi.

Ma'lumki, kichik maktab davri 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha davom etadi. Bu davrda bola maktab o'quvchilariga quyiladigan turli talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyorlanadi. Uning psixikasi bilim olishga etadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining utkirligi, ravshanligi, sofliqi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, xayolining yorkinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yakkolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va shaxs bo'lib shakllanishidagi o'rni nixoyatda katta. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligida

inson ongining turli asosiy shakllarining mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida harakat qilishni o'rganadi. O'quv faoliyatida bola o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashk kildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola o'z atrofdagilari bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U hayotining tubdan o'zgarganini, unga yangi majburiyatlar, nafaqat, har kuni maktabga borish, balki o'quv faoliyati talablariga buysunish ham yuklatilganligini xis eta boshlaydi. Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofdagilari unga yosh boladek emas, balki o'z vazifalari, majburiyatlari bor bo'lgan, o'z faoliyat natijasiga ko'ra xurmatga sazovor bo'lishi mumkin bo'lgan alohida shaxs sifatida munosabatda bo'ladilar. Buning natijasida bolaniig uz-uzidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o'z o'rnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin. Bu davrda bolaning "Men shuni xohlayman" motividan "Men shuni bajarishim kerak" motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixik zurikish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki xatti-harakatida xam, ya'ni ma'lum darajada qo'rquvni kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo'ladi.

Bu davrga kelib bola atrofida bilganlar bilan o'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xohlayotgan narsalarni xamda, o'z oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi. Shuningdek, u o'zini-uzi boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar xatti-harakatlari va motivlari ularning o'zlariga beradigan baholariga qarab "Men yaxshi bolaman" emas, balki bu xatti-harakatlar o'zgarar ko'z o'ngida qanday namoyon bo'lishiga qarab baholanishini tushuna boshlaydilar. Maktabga kelish arafasida bolaning so'z boyligi o'z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. Agar bu yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o'z nutqida 500-600 so'zni ishlatar, olti yoshli bola 3000-7000 so'zni ishlatadi. Boshlangich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe'l, sifat, son va bog'lovchilardan iborat bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z nutqlarida qaysi so'zlarni ishlatgani afzalu, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farklay oladilar. 6-7 yoshli bola o'z jumllarini murakkab grammatik tizimda tuza oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib, nutqni

o'zlashtirishi ma'lum bir faoliyatga aylana boradi. 7-9 yoshli bolalarning o'ziga xos yana bir xususiyati bola nutqida o'z fikrini bayon etibgina qolmay, balki o'z suhbatdoshining diqqatini o'ziga jalb qilish uchun ham gapiradilar. Bu davrda yozma nutq ham shakllana boshlaydi. Yozma nutq jummalarni to'g'ri tuzish va so'zlarni to'g'ri yozishga ma'lum talablar qo'yilganligi bilan xarakterlanadi. Bola so'zlarni qanday eshitgan bo'lsa, shundayligicha yozilmasligini bilishi, ularni to'g'ri talaffuz etishga va yozishga o'rganishi zarur. Yozma nutqni egallashi asosida bolalarda turli matnlar haqidagi ma'lumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endigina shakllana boshlaganligi bois, bolada hali o'zi yozgan fikrlarni, so'z va xarflarni nazorat etish malakasi hali rivojlanmagan bo'ladi. Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish maktab yoshidagi o'quvchilarda berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma'lumot to'plash, muhim jihatlarini ajratib olish, uni ma'lum ketma-ketlikda bayon etish, reja tuzish malakasini yuzaga keltiradi. Jummalarni to'g'ri tuzish, aynan shu mazmunga mos so'zlarni topish va ularni to'g'ri yozish, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish, o'z holatlarini topa olish va to'g'rilash aqliy rivojlanishning ko'rsatkichlaridan hisoblanadi.

O'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Ta'lim jarayonida ularning bilimlar ko'lami kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, o'tkirligi bilan boshqa yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Tafakkurning rivojlanishini kichik maktab yoshidagi bola psixikasining sog'lomligida, uning bilish faolligida ko'rish mumkin. Bolaning qiziquvchanligi, asosan, atrof-olamni bilish, o'rganishga karatilgan bo'ladi. Bola o'ynab turib, olam sir-sinoatlari, sabab-hodisalarilaridan xabardor bo'lishga intiladi. Masalan, bola o'zi mustaqil ravishda qanday predmetlar suvda cho'kishi, qaysilari esa suzishini tadqiq qila oladi. Bola aqliy munosabatlarda faol bo'lsa, u shunchalik ko'p savol

beradi va bu savollar, asosan, xilma-xil bo'ladi. Bolani qor, yomg'ir qanday yog'ishi, quyosh kechasi qayerda bo'lishi, mashina qanday qilib yurishi, erdan osmongacha bo'lgan masofani bilishi juda qiziqtiradi. Bu ularning «Nima uchun?», «Qanday qilib?», «Nima orqali?» kabi savollariga javob olishga qaratilgan bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar asosan o'zlari ko'rib turgan narsa haqida chuqurroq fikr yurita oladilar. Bu yoshdagi bolalar tafakkurining asosiy turi obrazli tafakkurdir.

6-10 yoshli bola mantiqiy fikrlay oladi, lekin, bu yosh asosan ko'rganlariga tayanib, ta'lim olishga senzitiv bo'lgan davr hisoblanadi, so'zsiz bugungi jamiyatimizda bolalarning aqliy rivojlanishi yangi bilimlarni tuzilish tipiga ham bog'liq bo'lib, ular ma'lum darajada shakllangan kattalar tomonidan tuziladi. Chunki, aqliy rivojlanish ijtimoiy omillar bilan belgilanadi individ ijtimoiy munosabatlar bilan o'zgaradi. Bolaning maktabda muntazam ravishda o'qishga o'tishi uning atrof-hayotdagi narsa hodisalarga nisbatan fikrini va munosabatlarini o'zgarishiga olib keladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash tahlil qilishning turli usullarini qo'llashdek o'ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalar va o'smirlardan farq qiladi. Ta'lim jarayonida tafakkur operatsiyalariga, mustaqil fikrlashga o'rgatish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kamol toptirishning garovidir. Kichik maktab yoshidagi bola o'zining tub mohiyati va vazifasini tushunib etmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak deb tushunadi. Kattalarning ko'rsatmalariga amal qilib tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketadi. Oradan ma'lum vaqt utgach, shodiyona laxzalarning taassuroti kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o'z ahamiyatini yo'qota boradi va bola o'qishni kundalik aqliy mehnat ekanligini anglaydi. Shunda bola aqliy mehnat kunikmasiga ega bulmasa uning o'qishdan kungli soviydi, unda umidsizlik hissi vujudga keladi. O'qituvchi esa bunday holning oldini olish uchun bolaga ta'limning o'yindan farqi, qiziqarliligi haqida ma'lumotlar berishi va uni shu faoliyatga tayyorlashi kerak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziev E.G'. Ontogenez psixologiyasi – O'qituvchi 2010 y.
2. Ivanov I.I., Zufarova M.R."Umumiy psixologiya" T. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati , 2008-480b.

3. www.psychology.net.ru.

MULOQOTNING MUVAFFAQIYATLI BO'LISHIDA SHAXSNING SHAKLLANGAN SIFATLARI

*Yusupova Latofat Ravshanovna
Chinoz tumani 42-maktab psixologi*

Har bir inson jamiyatda ishtirok etar ekan, albatta , boshqalar bilan hamkorlik qilishda muomala madaniyati va san'atiga ega bo'lishi kerak. Muloqotga kirishish ijtimoylashuv jarayonida barcha sifatlardan oldinroq shakllanadigan qobiliyalardan biri sanaladi. Muloqot ham o'ziga xos ehtiyoj. Muloqot-odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Mashhur amerikalik notiq, psixolog D. Karnegi o'z kitoblarida yozishlaricha, bir rahbar doimo qovog'ini solib yurgan kishilar bilan samimiy munosabatda bo'lmagani uchun hamma undan qo'rqib, undan qochib yurishar ekan. Hatto turmush o'rtog'i bilan ham mensimasdan muomala qilar ekan. D.Karnegining ma'ruzasidan so'ng bu rahbar turmush o'rtog'i va qo'l ostidagi xodimlariga samimiy jilmayib muomala qilishni boshlagan ekan. Bunda o'zining hayoti ham pozitiv tomonga va ishda rivojlanish ,o'sish kuzatilgan ekan. Muomala sirlaridan biri –bu kishilar bilan munosabatda jilmayishdir.

Muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishida shaxsning shakllangan sifatlari, fazilatlarining ahamiyati juda katta. SHaxsda ijobiy fazilatlar yaxshi shakllangan bo'lsaya'ni xushmuomalalik, kamtarlik, insonparvarlik, to'g'riso'zlik, vijdoniylik , samimiylik kabi muloqat jarayoni ham yaxshi o'tadi. CHunki shaxslar bir-birini to'g'ri tushunishlari uchun, muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ular samimiy bo'lishlari lozim. Samimiylik insonning ajoyib fazilatlaridan biri bo'lib, vo'qea-hodisalarga oqilona munosabatda bo'lish, turlm ta'sirlarga berilmaslik.Samimiylik bizning kayfiyatimizga ham bog'liq. Muloqot insonlarning kayfiyatlarini ohangidan aniqlab olish imkoniyatini beradi. Samimiylik va pozitiv kayfiyat hukm suradigan muhitda albatta faoliyatning

samaradorligi va rivojlanishi yuqori bo'ladi. Bunda rahbarning hodimlari bilan qilayotgan munosabati va o'rnatgan muloqati muhimdir. Muloqot va munosabat samiyilik va to'g'riso'zlik ila olib borilsa ishning unimi bo'ladi. Muloqot shakllaridan biri –avtoritar deb ataladi bunda teng huquqlik, erkin hatti-harakat qilish, tashabbuskorlik o'z ahamiyatini yo'qota boshlaydi. Masalan bu oilada qo'llansa, farzandlarda ota-onaga yaqinlik, mehr hissi kamayadi, keyinchalik bu tuyg'u uzoqlashish, kechinmasiga aylanadi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar bolalarni qoniqtirmaydi. Natijada odamovi, tund, ichimdagini top, tashvishlik, xavotirlik kabi sotsial norma va qoidalarga qiyinchilik bilan moslashishdan iborat hislatlar vujudga kelishi mumkin. Muloqotning –liberal usuli esa murosasiz, ko'ngilchanlik, guruhiiy moslikni o'zida aks ettirgandek bo'lib tuyuladi. Bo'lajak pedagog hodimlarni nutq madaniyati, muomala madaniyatini egallashda juda ko'p psixologik bilimlarga tayanishi lozim. Ta'lim –tarbiyada pedagoglarning muloqot quroli bulmish nutqining ravon bo'lishi, samimiy bo'lishi ahamiyatlidir. CHunki ovozni balandlatib , qo'pollik bilan muloqotga kirishadigan o'qituvchilarga nisbatan ohangi va nutqi ravon , muomalasi chiroyli va samimiylik bilan muloqatga kirishadigan ustozlarni o'quvchilar diqqat bilan tinglashga harakat qiladi.

SHaxning irodaviy sifatlarini rivojlantirish orqali ham uni muloqotga o'rgatish oson ro'y beradi. Jamoa a'zolarining ruhiy madaniyatini shakllantirish lozim. O'quvchilarga ularning insoniy muloqot, inson shaxsi, bir-birini baholash hususiyatlari "Men va boshqalar", "Men boshqalarning ko'zi bilan" to'g'risidagi mulohazalarini rag'batlantiruvchis axborotni berish zarur. Ruhiy madaniyatga o'rgatishni o'smirlik yoshidan boshlash muhim. Muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni o'rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish har bir kishi uchun muhimdir. SHaxs muloqotini shakllantirishda uning yoshi, jinsi, kasbi, dunyoqarashini hisobga olgan holda ish olib borish lozim.

Muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatning ichki psixologik mexanizmini tashkil etib, u hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarni yakka tartibda emas, balki birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo'lganligi hisobga olinganda, odamlarning mehnat unumdorligi va samaradorligini ta'minlovchi muhim omildir.

SHaxs muloqotni shakllanishida uning tarbiyalanganlik darajasi muhim o'rin egallaydi. Muloqotning shakllanishida maqsadni to'g'ri qo'yish lozim. Faoliyat va muloqot o'zaro chambarchas bog'liqdir. ..

ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР ЎРТАСИДА СУИЦИД ҲОЛАТЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ

*Хусенова Нодира Тураевна
Қорақўл туман 20 -мактаб психологи*

Аннотация: Суицидиал хулк атвор турлари ва унинг келиб чиқиши.

Калит сўзлар: Суицид, дивант хулк атвор, депрессия, невроз, эмоционал бузилиш, стресс, вегитатив касаллик.

Суицидиал хулқ-атвор турлари ва унинг келиб чиқиш сабаблари Суицидиал хулқ-атвор – бу суицидиал фаолликнинг – ўй хаёллар, ниятлар, мулоҳазалар, таҳдидлар, уринишлар, ўзини ўлдиришга ҳаракат қилиш кабиларнинг юзага чиқишидир. Суицидиал хулқ-атвор, одатда, уч гуруҳга бўлинади: ҳақиқий суицид; намойишкорона суицид; яширин суицид. Ҳақиқий суицид одамда ўз жонига қасд қилиш учун жиддий сабаблар борлиги билан характерланади. Одатда, уни қариялар ёки ўсмирлар амалга оширади. Бу ёш тоифасидаги кишилар бошқалардан кўра кўпроқ ўз-ўзини таҳлил ва танқид қилишга мойиллар, шунинг учун улар орасида ўзини ўзи ўлдирадиганлар кўп учрайди. Ўрта ёшдагилар ё ота-оналари, ёки фарзандлари олдида жавобгарлик ҳис қиладилар, шунинг учун улар бундай ҳаракатларни камдан-кам содир этадилар. Суициднинг бу турида одамлар кўпинча руҳий тангликни ҳис қиладилар, уларда сиқилиш кайфияти кузатилади ва ҳаётнинг мазмуни қолмайди. Намойишкорона суицид камдан-кам ҳолатда ўлим билан якун топади. У ўсмирларда, беқарор руҳий ҳолатдаги шахсларда, аёлларда кузатилади. Улар учун бу ўз ҳис-туйғуларини ифодалаш ва ўз муаммосига одамлар эътиборини қаратиш йўлидир. Улар ўлишни истамайдилар, аммо шу билан

атрофдагиларни кўрқитиб қўйишга уринадилар. Одатда, улар дори-дармонлардан заҳарланишдан фойдаланадилар (аммо уларни ўлимга олиб борувчи миқдорда ичмайдилар), веналарини (кўктомирларини) кесадилар ёки ўзларини осмоқчидек ҳаракат қиладилар. Яширин суицид ҳар доим ўлим билан якун топади. Одамлар беихтиёр ёки тўла англаган ҳолда ўлимга олиб борувчи экстремал вазиятларни излайдилар. Бу спорт тури, автомобилни тез ҳайдаш ёки “қайноқ” нуқталарга саёҳат бўлиши мумкин. Уларнинг тўғридан-тўғри ўзини ўлдиришга юраклари дов бермайди ва бу муаммога бошқа ечим топишга ҳаракат қиладилар. Бундай суицидиал хулқ-атвор эътибор жалб қилади, аммо одатда улар ўз қарорларида қатъий бўладилар ва хавфхатар ҳақидаги гап-сўзларга эътибор бермайдилар. Инсон ўзи сабабчи бўлган ҳар қандай ўлимни ҳам ўз жонига қасд қилиш, деб бўлмайди Ўз жонига қасд қилиш инсоннинг атайлаб, мақсадли ва онгли равишда ўзини ўзи ҳаётдан маҳрум қилиш актидир. Бу аломатлар - сўз орқали ифодаланган; - хулқ-атвор орқали ифодаланган; - вазият орқали ифодаланган белгилар каби уч гуруҳга ажратиш мумкин? Суицидиал хавфи юқори референт гуруҳ - девиант ва криминал хулқ-атворли ўсмирлар; - алкоголь ва наркоген моддалар истеъмол қиладиган ўсмирлар; - ўзига ўта танқидий муносабатда бўладиганлар; - фожеа ва таҳқирловни бошидан кечирган шахслар; - ҳаётда юқори чўққиларга эриша олмаган, орзулари амалга ошмаган шахслар; - турли оғир касалликка чалинган инсонлар. Суицидиал ҳолатларда эмоционал бузилишлар қуйидаги кўринишларда намоён бўлади: Ҳолат Эмоционал бузилиш Ташқи кўриниш ва феъл-атвор Гипомимия Амимия Паст овозда сўзлаш Нутқнинг секинлашуви Жавобларнинг қисқалиги Жавобларнинг йўқлиги Экспрессив нутқ Патетик интонация Зорланиш Ҳадиксираш Ҳаракатнинг сустлиги Камҳаракатлик Адинамия Психологик касалликлар Депрессия Неврозлар Асоссиз кўрқув Ҳадиксираш ва безовталиқ Маниакал-депрессив психоз Шизофрения Эмоционал бузилишлар Тушқун кайфият Саросима Жаҳлдорлик Серзардалиқ Танқидий муносабат Атрофдагиларга салбий муносабат Яхши яшаётганларга нисбатан нафрат туйғуси Ўзига ва атрофдагиларга бефарқ муносабат Ҳис-туйғуларнинг йўқлиги Сабабсиз безовта бўлиш Ёмонликни кутиб яшаш Зерикиш Иштаҳанинг йўқолиши Уйқусизлик Кўп ухлаш Шахсий ҳаётини

баҳолаш Ўтмишга пессимистик баҳо бериш Ўтмишда юз берган нохуш воқеаларни тез-тез эшлаш Ҳозирги ҳаётини пессимистик руҳда баҳолаш Келажакка оид режаларнинг йўқлиги Ўз келажagini тасаввур эта олмаслик Ўлим ҳақида кўп ўйлаш Оиласи ва дўстларидан узоқлашиш Сержаҳл ва серзарда бўлиб қолиш Атроф-муҳит билан мулоқот. Одамовилик, атрофдагилар билан мулоқотдан қочиш Атрофдагилар билан мулоқотда бўлишга интилиш, улардан ёрдам олишга интилиш Шифокордан маслаҳат олишга эҳтиёж сезиш Норозилик кайфияти Бўлар-бўлмасга инжиқлик қилиш Ўз азобларини ўта бўрттиришга интилиш .Вегетатив касалликлар Йиғлоқилик Оғизнинг қуруқлашиши Тахикардия Артериал қон босимини ошиши Ҳаво етишмаслиги Бош оғриғи Уйқу ритмининг бузилиши Гавда вазнининг тушиб кетиши Иштаҳанинг йўқолиши Руҳиятнинг ёмонлашиши Суицидга жиддий киришган шахснинг мотивларини агар сал эътиборлироқ бўлинса, унинг хатти-ҳаракатидан пайқаш мумкин. У ҳеч қачон тўсатдан, импульсив бўлмайди, балки маълум муддат суицид олди ҳаракатлар маҳсули сифатида баҳоланади.Суицидентларга ёрдам бериш учун нима қилмоқ керак?

1. Суицидал превенция нафақат атрофдагиларга эътиборли бўлиш, балки мавжуд таҳдидларни олдини ола билиш ҳам демакдир. Суицидал таҳдид депрессив ҳолатлар, тушкун кайфият, шахс феъл-атворидаги кескин ўзгаришлар, ёлғизлик, намоён бўлади.

2. Суицидентни шахс сифатида қабул қилинг. Муайян шахс суицидни амалга ошира олмайди деб ўйламаслик керак. Мавжуд хавфни сездингизми, ёрдам беришга шошилинг.

3. Ўзаро ёрдам муносабатларини ўрнатинг. Ўз хайрихоҳлигингизни новербал эмпатия орқали билдиришга ўрганинг.

4. Насиҳат ўқигандан кўра руҳий мадад 10 чандон афзалроқ. Агар шахс ўзини кераксиз ҳис қилса ғамхўрлик кўрсатиш ва руҳий мадад жуда катта ёрдам беради.

5. Диққат билан тингланг. Суицидентлар ёлғизликни ҳис қиладилар.. Балки уларни эшитишларини хоҳлайдилар. Суицид содир қилмоқчи бўлган инсон қалбини азобга солаётган оғриқдан ҳалос бўлмоқчи бўлади. Бундай вазиятда эшитишга ҳаракат қилиш керак.

6. Баҳслашманг. Суицидал таҳдидга дуч келган баъзи инсонлар, ота-оналар, қариндошлар, яқинлари кўпинча шундай дейишади. Ношукур бўлма”. Бундай шарҳлар тескари эффект ҳолатини юзага келтиради ва шахсда янада кучлироқ тушкунлик кайфиятини туғдиради.

7. Саволлар беринг. Сен суицид ҳақида ўйламаяпсанми? дегандан кўра, сен суицид ҳақида ўйлаяпсанми? деган саволни берган ўринлироқ. Бунда суицидент у ҳақида кимдир қайғураётганини англайди ва енгиллик ҳис қилади.

8. Суицидентнинг иззат-нафсига тегманг. Саволларни тўғри шакллантиринг. “Бошқаларнинг муаммоси сеникидан ҳам кўпроқ” деган фикр суицидентни ҳеч ким тушунмаслигига ишонч ҳосил қилади.

9. Конструктив ечимлар таклиф қилинг. Бу яқин-ларингга қанчалик кулфат олиб келишини ўйлаб кўрдингми? дегандан кўра унга унинг ҳаёлига келмаган альтернатив йўллар таклиф қилган самаралироқ. Сизнинг ҳаётингизда қандай ўзгаришлар юз берди? Сиз қачон ўзингизни ёлғиз ҳис эта бошладингиз? Суицидга қарор қилган одамни у ўз туйғулари ҳақида бемалол гапириши мумкинлигига ва уни тушуна олиш-ларига ишонтириш лозим.

10. Умид уйғотинг. Умид туйғуси инсонни ҳали ҳаммаси йўқотилмаганлигига ишонч уйғотади ва яшашга ёрдам беради. Умидсизлик эса нажотсизлик кайфиятини туғдиради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Оилавий муҳит ва болалар // Қалқон. – 2006, - №1. - Б.1415.
2. Ядгарова Г.Т., Авлаев О.У. Тарбияси қийин, қалтис гуруҳга мансуб болалар билан ишлаш (Услубий қўлланма)Т.: 2007 й.
3. Умаров Б.М. Ўзбекистонда вояга етмаганлар жиноятчилигининг ижтимоий-психологик муаммолари. Монография. – Тошкент, “Фан” нашриёти – 2008, 314 бет.

МАКТАБГАЧА YOSHDA GI BOLALARNING AQLIY RIVOJLANISHI

Yuldasheva Sayyoraxon Ilhomjon qizi

Annotatsiya. Bolaning aqliy va ijtimoiy rivojlanishida sog‘lom turmush tarzi, oiladagi muhit, o‘z vaqtida berilgan to‘g‘ri ta‘lim-tarbiyaning ahamiyatli jihatlari nihoyat muhim. Aqliy tarbiyaning asosiy vazifasi – bu bolalarda tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi bilimlar sistemasi, ilmiy dunyoqarashlarning shakllanishi, aqliy mehnat ma‘daniyatining rivojlantirishdan iborat.

Kalit so‘zlar: bolaning aqliy rivojlanishi, qiziqarli o‘yinlar, aqliy rivojlanish, aqliy tarbiya, ijtimoiy tarbiya, idrok etish, aql, sezgi, idrok.

Bola hayotidagi rivojlanishning muhim bosqichi erta va maktabgacha bo‘lgan davrdir. Bolalar, ayniqsa maktabgacha yoshda bo‘lgan davrda tez rivojlanadilar. Chunki bola hayotining dastlabki 6-7 yilida juda ko‘p yutuqlarga erishadi! U qarashni va tinglashni, narsalarni olishni va ular bilan harakat qilishni, turishni, yurishni va boshqalarni o‘rganadi. Bu vaqt ichida u o‘nlab mahorat sirlarini egallaydi: sanchqi va qoshiqni tutish, qaychi, cho‘tka, qalam bilan ishlash, ruchka va boshqa o‘quv qurollari bilan harflar yozib, uni o‘qishni, atrof muhitni kuzatish va fikr bildirish, o‘zi uchun boshqa ko‘plab narsalarni kashf qiladi. Tabiiy hodisalar, tovushlar, ranglar, kechagi va bugungi hayoti haqidagi xotiralari orqali juda ko‘p ma‘lumotni to‘plab, ularni hikoya qilishni o‘rganadi. U o‘zini tutish qoidalari bilan tanishadi. Makon va vaqtni, raqam va harakatlarni taniydi.

Har bir bola yoshligidan aqliy jihatdan to‘g‘ri rivojlanishi uchun unga sog‘lom turmush tarzi kundalik foydali narsalarni o‘rgatadigan va ijobiy tasvirlarni ularning xotirasida qoldiradigan tarbiya shartlari kerak. O‘yin bolalar uchun juda muhim va aynan ular uchun juda qadrlil hamdir. Agar bolaning kundalik turmush tarzida yuqorida keltirganimizdek foydali va aqlni charxlaydigan qiziqarli o‘yinlar bilan shug‘ullanmasa, u tez va yaxshi rivojlana olmaydi. Agar biz bolalar o‘yinlariga nazar tashlasak, ularning o‘yinlarida ular hayotda kuzatadigan kattalarning munosabatlari, g‘amxo‘rliklari va

tajribalarini ko'rishimiz mumkin. Bola 5-7 yoshga to'lgach ularning o'yinlari yanada boyib, rang-barang bo'lib boradi. O'yinni birgalikda o'ynash jarayonida ular bir-biridan ko'p narsalarni o'rganadilar. O'yin esa hayolotni, fikrlashni, insoniy tuyg'ularni, milliylikni, insonparvarlik va vatanparvarlikni, tafakkurni rivojlantiradi.

O'yin orqali o'z tasavvurlarini namoyish etib, ular o'zlari uchun ajoyib hayotni yaratadilar. Bolalar uchun bunday faoliyat ijodkorlik va kashfiyotlar maydoni, sevimli faoliyat turi. Ular uchun bu ajralmas va zavqlantiruvchi mashg'ulotdir. Faqatgina bu o'yinlar milliylik va o'zbekona mezonlariga mos ravishda, bolani toliqtirmaydigan, jismoniy hamda ruhiy holatiga xos bo'lgan foydalilik, bunyodkorlik g'oyalaridan holi bo'lgan tarzda bo'lishi talab etiladi.

O'yin-bolani shaxs sifatida to'g'ri shakllanishi va ongini o'stirish bilan birga nutqini ravon qiluvchi eng asosiy vositadir!

Bola rivojlanishida nutq hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uni o'zlashtirish bolalar o'rtasidagi muloqotni va atrofdagi dunyoni tushunishning eng muhim omili hisoblanadi. Bunday vaqtda birinchi navbatda ota-onalarning e'tibori va ko'magi asosiy rol o'ynaydi. Negaki, har bir bola ko'p narsalari oilasida, undagi muhit va o'zaro muomalardan o'rnak oladi.

Bolaning aqliy jihatdan tarbiyalash va rivojlantirishni mavjud turmush tarzidan, uning hissiyotlaridan va uni ruhiy qiyofasini yaratadigan barcha boshqa xususiyatlardan holi tarzda tasavvur qilish mushkul. Maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy o'sishni soddalashtirilgan holda, zo'riqishlarsiz borliq haqida iloji boricha ko'proq va eng muhimi to'g'ri bilim berish, kognitiv faoliyatning umumiy usullarini rivojlantirish, nutqni rivojlantirish hamda me'yorida kundalik yangi bilimlarni berib borish bilan amalga oshirish zarur.

Aqliy tarbiya – bu bolaning har tomonlama taraqqiy topishida sog'lom turmush tarzi va foydali mehnat faoliyati, qiziqarli o'yinlar va o'z vaqtida to'g'ri bilim berish orqali kelajak hayotga tayyorlashning, chin ma'noda shaxs bo'lib yetishishining muhim tarkibiy qismi. Aqliy tarbiya ta'lim, o'yin, mehnat jarayonida, hayotiy vaziyatlarni hal etish, kattalar va tengdoshlar bilan bo'lgan muloqotda, ommaviy

axborot vositalari orqali olinadigan axborotlarni qabul qilish va o'zlashtirishda ro'y beradi.

Aqliy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning eng muhim jihatlaridan biridir! Aqliy tarbiya bu aqlni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga muntazam ravishda to'g'ri pedagogik ijobiy ta'sir o'tkazish. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning ahamiyati juda yuqori va unga hech vaqt bee'tiborlik bilan nazar tashlab bo'lmaydi. Chunki aql, his-tuyg'ular va idrok etishdan tortib, fikrlash va tasavvur etishgacha bo'lgan jarayonlar yig'indisidir.

Aqliy rivojlanish – fikrning kengligida voqealarning turli bog'lanishida, munosabatlarda teran ko'ra olish va ularni umumlashtirish qobiliyatlarida namoyon bo'ladi. Bolaning aqliy rivojlanishida sog'lom turmush tarzi, to'g'ri berilgan tarbiya va ta'lim samarali ta'sir ko'rsatadi. Bularning hammasi maktabgacha yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalar mazmunini chuqurlashtirish va asta-sekinlik bilan hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq ekanligidan dalolatdir. Yosh bolalar har doim buyumlar va hodisalar orasida yashaydi. Bola har kuni biror yangi narsa bilan tanishadi, nimanidir bikib oladi, ushlab ko'radi, hidlaydi, ko'radi, quloqlari bilan eshitadi. Keyin asta – sekin dunyoni bilib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasi ko'pincha beixtiyor tarzda bo'lishini ham unutmasligimiz zaruru. Shuningdek bu yoshdagi bolalarda hayol muhim ro'l o'ynaydi. Sababi bolaning hayoli hamda hayoliy tasavvurlari u syujetli o'yinlar o'ynay boshlaganida, kattalar tomonidan qiziqarli ertaklar aytib bergandayoq dastlabki belgilari namoyon bo'la boshlaydi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarga ta'lim, tarbiya berish el pedagogikasida ilk bor chex pedagogigi Yan Amos Kamonskuy (1592-1670) tomonidan yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. – “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch".T."Ma'naviyat" 2008
2. I.A.Karimov. – “Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.Sharq nashriyoti" 1998

3. D.A.Nurkeldiyeva, Ya.E.Chicherina "Ilk, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni psixologik-pedagogik, logopedik tekshirish" T-2014
4. D.A.Nurkeldiyeva, Z.I.Islambekova "Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi", T-2013
5. Davletshin D., Mamedov K. Ibn Sinoning psixologik qarashlari ilmiy – ommabop to'plam. T.2002.

CHET TILLARINI O'QITISH METODLAR

*Rahmatov Javohir Botir o'g'li,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika inisituti
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Gaziyeva Saida Turgunovna*

Annostatsiya: Chet tilini o'qitish metodikasi deganda o'qitishga oid ilmiy tekshirilgan nazariyalr majmui tushuniladi. Maktab va boshqa ta'lim muassasalarida u 3 ta asosiy muammoni qamrab oladi:

- 1.Chet tilini o'qitish maqsadlari;
- 2.O'qitishning mazmuni;
- 3.O'qitish usullari.

Kalit so'zlar : Metod, Tarjima metodi, To'g'ri metod, Aralash metod, Qiyosiy metod. "Metod" tushunchasiga doir ta'limshunoslik o'qitishni umumiy nazariyasi sifatida ushbu atama keng qo'llaniladigan fandır. Didaktlar "Metod" atamasini bilish, malaka, ko'nikmani egallash, o'qituvchilarda dunyoqarashini shakillantirish va bilish imkoniyatlarini yaratish yo'lidagi muallim va talabaning ish usuli ma'nosida izohlaydilar. Fan asoslarini o'rgatadigani o'quv predmetlari uchun mo'ljallangan ta'limning umumiy metodlari ishlab chiqilgan. O'quv predmetining hususiyatlari hisobga olinib, metodikada chet tilini o'qitish metodlari yaratilgan. Chet tili o'qitishda metodlarni tadbiq etish uzoq davrlardan boshlangan. Chet tilini o'qitish metodikasida "Metod"

atamasi 3 ma'noni bildiradi.

*Birinchi*dan, metodika

tarixidagi butun bir yo'nalish (tarjima metodi, to'g'ri metod, qiyosiy metod, aralash metod);

*Ikkinchi*dan, yuqoridagi

yo'nalish tarkibiga kiruvchi o'qitish sistemasi ; *Uchinchi*dan, muallim va o'quvchilarning o'zaro bog'langan faoliyati usuli.(Tanishish ,mashq qilish va qo'llash metodlari) Chet til o'qitish tarixida birinchi va ikkinchi metodlar "tarixiy"metodlar nomi bilan, uchinchisi "jarayonni ifodalash " metodlari atamasi bilan yuritiladi. Tarixan metodlar to'rt guruhga birlashtirilib, ularning nomlariga "tarjima" ,"to'g'ri (yoki tarjimasiz)" ,"qiyosiy" , "aralash" so'zlarini aniqlovchi sifatida qo'shib aytiladi, shunday qilib, chet til o'qitishning bir necha asrlik tarixdagi barcha metodlar to'rt toifaga to'plangan. Ularning har biri qisqacha tahlil qilish talab etiladi , chunki birinchi metodikada ularning ayrim hususiyatlari muayyan shakilda qo'llanilmoqda.

TARJIMA METODI.

Ushbu metodning nomi odatda "Tarjima metodlari" atamasi bilan ko'plikda ishlatiladi. Shunga ko'ra ma'noni bilib olish qiyin emas, chet til materiali ona tiliga tarjima qilinadi. Ovroqada, avval yunon yili, keyinchalik lotin tili o'rgatilganda tarma tushunish usuli qilib olingan. XVIII asrning ikkinchi yarmida va XIX asr davomida fransuz tili, XX asrda esa ingliz tili va nihoyat nemis tili tarjima orqali o'rganilindi, musulmon dunyosida esa asosan arab tili, qisman fors tili chet tillar sifatida o'rganib kelindi.

Tarjima metodlari orasida eng ko'p tarqalganlari "Grammatika tarjima metodi" va "Matn tarjima metodi" nomlari bilan mashxur bo'lgan. Birinchisining namoyondalari so'z va rang tarjimasini grammatika qoidalarini o'rgatish uchun tatbiq etganlar, ikkinchisining tarafdorlari esa matinni o'qish va uning mazmunini tushunishda tarjimadan foydalanishni maqsad qilib qo'ygan. Har ikkala tarjima metodini qo'llashdan faqat ta'limiy maqsad ko'zlangan.

TO'G'RI METOD.

Metod nomining kelib chiqishiga asosiy sabab shuki, to'g'ri metodda o'qitish chog'ida ona tilini chetlab o'tib chet til so'zi bilan predmet orasida bevosita assotsiatsiya, ya'ni fikran bog'lanish o'rnatishga urinib ko'rilgan. Chet til grammatikasini o'rgatishda ham

huddi shunday metodik yo'l tutilgan grammatik ma'no bilan shakl o'rtasida bevosita bog'lanish hosil qilmoqchi bo'lishgan.

To'g'ri metodning dunyoga kelish sababini chet tillarini amaliy o'rganish maqsadidan qidirish joizdir. O'tgan asrning oxirlariga kelib, G'arbiy Yevropa mamlakatlari va Amerika Qo'shma Shtatlarida chet til o'qitishni isloh qilish natijasida ushbu metod kashf etilgan. Keyinchalik bu metod Osiyo, Afrika va boshqa yurtlarga ham tarqalgan.

Ona tili ishtirokisiz chet tilini o'rgatishga intilishlarni to'g'ri metod, induktiv metod, tabiiy metod kabi atamalar bilan yuritila boshlangan. Ushbu metodlardan ko'zlanadigan asosiy maqsad chet tilini amaliy jihatdan o'rgatishdir. Ona tilini o'rgnish shart-sharoitlari bu metodda o'zgarishsiz qabul qilingan.

ARALASH METOD.

Ushbu metod ikki metodik yo'nalishlarning ilmiy-amaliy tomonlarini o'ziga singdirib olgan. Aralash metodlar XIX asr oxiri XX asr boshlarida tarjima va to'g'ri metodlar qorishmasi sifatida vujudga keldi. Aralash metod haqida uning nomoyondalari Daniyalik ruhshunos K.Flagstad, nemis tilshunosi E.Otto, nemis metodisti F.Aronshtean, nemis tilshunosi G.Paul kabilarning ilmiy ishlaridan ma'lumotlar olish mumkin. Aralash metodning yana bir boshqacha ko'rinishi to'g'ri metod va qiyosiy metod printsiplarining qorishmasi sifatida vujudga keldi. Ushbu zamonaviy aralash metodning nomoyondalari metodistlar Amerikalik II Xenbold, Belgiyalik F.Klossa, Germaniylik A.Bolen va rus chet til o'qitish ruhshunosi R.B.Beliyev tadqiqotlaridan ma'lum va mashhurdir.

QIYOSIY METOD.

Uning to'liq nomi "Ongli qiyosiy metod" deyiladi. Bu metodning asoschisi A.V.Sherba bo'lib bu metodni hozirgi davr chet til o'qitish jarayoniga moslashtirgan. Metod asoschisi ishini samarali davom ettirgan pedagogika fanlari akademiyasi muxbir a'zosi, professor I.B.Rahmonov bo'lgan. Ushbu metodni qiyoslash, ona tiliga suyanib ish ko'rish nutq faoliyatlarini bir yo'la o'rgatish singari hususiy printsiplari 40-50 yillarda shakillanadi va keng ko'lamda amaliy qo'llaniladi. Chet til o'qitishning amaliy, ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlari ilmiy asoslab berilgan bu metodning birinchi ko'rinishi edi.

60-yillardan hozirgachabo'lgan vaqt ichida ongli-qiyosiy metod zamonaviylashtirildi. Jumladan, qiyoslash o'quvchilarning dars paytidagi yumush tarzida emas, balki mashqlar sistemasini tuzishda metodist va muallim vakolatiga kiradigan ishdir.

Ongli-qiyosiy metodning birinchi ko'rinishida qoida asosida mashq bajariladi. Zamonaviy ko'rinishda mashq jarayonida amaliy ruhdagi qoida umumlashtiriladi. O'quvchi qiyoslash, qoidani yodlash va aytib berish, nazariy bilimlar yig'ish bilan maxsus shug'ullanadi.

Chet tilini o'qitish metodikasi boshqa fanlar, jumladan, pedagogika, psixologiya, fizologiya, tilshunoslik va boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liq. Pedagogika – bu yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash bilan shug'ullanadigan fan. Metodlar o'qitish va tarbiya muammolari bilan ham shug'ullanganligi sababli, u pedagogika bilan eng yaqin bo'liqdir. Chet tilini o'qitish uchun pedagogikani yaxshi bilish kerak. Pedagogikaning yana bir sohasi didaktika deb ataladi. Didaktika maktablarda o'qitishning umumiy usullarini o'rganadi. Metodlar , didaktika bilan solishtirganda , ma'lum bir mavzuni o'qitishning o'ziga xos usullarini o'rganadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Jamol Jalolov , Chet til o'qitish metodiksi , “O'qituvchi” Toshkent -2012
2. Mahmatqulov.H.M, Hudayqulov.A.E, Qo'shnazarova.Y.K, Madalov.N.E, ENGLISH METHODOLOGY, Toshkent -2018
3. Gaziyeva S.T. Modern technology in learning foreign languages //Academic research in educational sciences. -2020- №3.-C 1272-1275.

TANGLIK (SUITSID) VAZIYATIDAGI BOLALARGA PSIXOLOGIK YORDAM

*Jumanazarova Shoira Jongirovna
Xorazm viloyati Hazarasp tuman 26-maktab psixologi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchi yoshlarda yuzaga kelayotgan tanglik vaziyati, taglik vaziyatida qolgan bolalarga psixologik yordam ko'rsatish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: O'smirlik, tanglik vaziyati, psixika, bilish jarayonlari, referent guruhlar, o'tish davri, kompensatsiya, giperkompensatsiya, agressivlik.

Bugungi kunda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash eng ustivor vaifalardan biridir. Ruhiiy sog'lom, ma'naviyati yuksak, jismoniy va aqliy yetuk farzandlar yurt kelajagidir. Hozirgi kunda fan-texnikaning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi nafaqat jamiyat hayotiga balki o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti. Buning natijasida o'quvchi yoshlarimizda psixologik tanglik, qiyin vaziyatlar yuzaga kelmoqda. Albatta bunday tanglik holatlari o'quvchining jismoniy, psixik va aqliy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Tanglik vaziyati-shaxsning psixikasida ro'y beradigan hissiy zo'riqishlarni kuchli darajada namoyon bo'lishidir. Bunday holat shaxsning bilish jarayonlariga, aqliy faoliyatiga, shaxslararo munosabatlar tizimida tutgan o'rniga bog'liqdir. Shuningdek, bu holat shaxsdagi xulq-atvor me'yorlarida ham o'ziga xos o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

O'smirlarni tengdoshlari o'rtasida uni qoniqtiradigan o'ziga xos o'rinni egallashga intilish xulq-atvor me'yorlariga va referent guruhlar qadriyatlariga yuqori darajada qiziqish bilan qo'shilishi kuzatiladi. O'smir psixikasidagi o'tish davri unda bolalik va kattalik xususiyatlarini birgalikda bir vaqtda mavjud bo'lishi bilan izohlanadi. O'smirlik yoshida odatda kichikroq yoshdagilar uchun xarakterli bo'lgan xulq-atvor reaksiyalariga moyillik ko'pincha saqlanib qoladi. Ularga quyidagilar taalluqli:

1.Voz kechish reaksiyasi. U xulq-atvorning oddiy shakllaridan munosabatlar, uydagi majburiyatlar, o'qish va boshqalardan voz kechishida ifodalanadi. Aksariyat hollarda odatiy hayot sharoitlaridan keskin uzilishlar (oiladan uzilish, maktabni o'zgartirish) sabab bo'ladi.

2.Qarshilik, qat'iy norozilik, e'tiroz reaksiyasi. U o'z xulq-atvorini talab qilinayotganlarga qarama-qarshi qo'yishida namoyon bo'ladi: namoyishkorona mardlik, sababsiz darsga kelmaslik, qochish, o'g'rilik qilish va hatto norozilik sifatida amalga oshiriladigan bir qarashda be'mani bo'lgan xatti-harakatlar.

3.Taqlid qilish reaksiyasi. U odatda bolalik yoshiga xos bo'lib, tug'ilgan va yaqin insonlarga taqlid qilishda namoyon bo'ladi. Taqlid reaksiyasi asotsial muhitdagi shaxs sifatida kamolotga yetgan o'smirlar guruhi uchun xosdir.

4.Kompensatsiya reaksiyasi. U o`zining bir sohadagi muvaffaqiyatsizligini boshqasidagi muvaffaqiyatlari bilan to`ldirishga intilishida ifodalanadi. Masalan, o`zlashtira olmayotgan o`smir sinfdoshlari hurmatiga, qo`pol, nojo`ya xatti-harakatlari orqali erishishga harakat qilishi mumkin.

5.Giperkompensatsiya reaksiyasi. Bola yoki o`smir ko`proq muvaffaqiyatsizlikka duch keladigan sohalardagina aynan muvaffaqiyat qozonishga intilishi bilan asoslanadi.

O`smir uchun xos bo`lgan psixologik reaksiya ijtimoiy muhit bilan o`zaro ta`sir asosida yuzaga keladi. Masalan, o`smirning ozodlikka intilishi. Bu holatda o`smirning mustaqillikka, kattalar vasiyigidan xalos bo`lishga intilishini aks etadi. Buning natijasida o`smirning uy yoki maktabdan qochishi, ota-onalar, o`qituvchilarga qaratilgan salbiy munosabatlari vujudga kelishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan vaziyatlar davolash ya`ni korreksiyasini talab qiladi. Xulq-atvor buzilishlarining patologik va patologik bo`lmagan shakllarini o`z vaqtida farqlash juda muhim, chunki ular turli shakldagi pedagogik va ijtimoiy yordamga muhtoj ayrim vaziyatlarda doir-darmon bilan davolashni talab qilinadi. O`smirlik davridagi psixik rivojlanishning muhim yo`nalishi muammo va qiyinchliklarni bartaraf qilish usullarini shakllanish bilan bog`liq. Ulardan ayrimlari bolalikdanoq murakkab bo`lmagan vaziyatlarni hal qilish uchun shakllanadi va odatga aylanadi.

Bolalar agressiv xatti-harakat namunalari quyidagi uch asosiy manbaga asoslanib to`playdi:

1.Nosog`lom oila muhiti. Bu kabi oilalarda ota-ona bilan farzand o`rtasidagi munosabatning ijobiy psixologik iqlimda emasligi, farzandlar o`rtasidagi kelishmovchiliklar, oiladagi mojarolar, nizolar, oilaviy hamohanglikni mavjud emasligi bolalarda agressiv hulq-atvorni shakllanishiga olib keladi. Bolalardagi agressivlikning namoyon bo`lishi oilaviy muhitning ta`sir darajasiga bog`liq hisoblanadi.

2.Tengdoshlar guruhi. Bolalar oiladan tashqarida o`z tengqurlari bilan bo`lgan munosabatda ham agressiv xatti-harakatlarni o`zlariga singdiradilar. Ko`pgina hollarda bolalar tengdosh do`stlarining xatti-harakatlarini kuzatgan tarzda, o`zlarini agressiv boshqarishga urinadilar.

3.Ommaviy axborot vositasi. Bugungi kunda bolalarga ta'sir etayotgan eng kuchli quroldir. Bu borada internetning ta'siri kuchayib bormoqda. Bolalar internet aloqalari orqali o'zlarining xususiyatlariga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar bilan ham tanishmoqdalar. Shu o'rinda oynai jahon orqali namoyish etilayotgan turli jangari fil'mlar, ko'rsatuvlar ham bolalarda agressiv xususiyatlarni tarkib topishga ta'sir qilmoqda. Psixologik kuzatuvlarga ko'ra, oiladagi iqlim, ota-ona o'rtasidagi o'zaro munosabat, ota-ona bilan bola o'rtasidagi munosabat, oilaviy hamohanglik yoki aksincha kelisha olmaslik, opa-singillari, aka-ukalari bilan yaqinlik darajasi, farzandi tomonidan qilingan noto'g'ri, yanglish xatti-harakatlarga nisbatan ota-onaning ta'sirlanishi – oilada shakllanib kelayotgan agressiv xatti-harakatlarini belgilab beruvchi omillar bo'lib hisoblanmoqda.

Yuqoridagilarga asoslangan holda o'smirlar guruhidagi tanglik holatini bartaraf etish uchun quyidagi psixologik trening mashg'ulotlaridan foydalanishni tavsiya qilaman.

O'smir shaxsida tanglik holatini bartaraf etishga qaratilgan trening mashg'ulotlari

“Mening kayfiyatim nimaga o'xshaydi?” mashqi

Maqsad: shaxsda emotsional holatlarni anglash, ularni boshqarish va nazorat qilish ko'nikmalarini tarkib toptirishdan iborat.

Ushbu mashq shu turdagi mashg'ulotlar uchun faollashtiruvchi o'yin vazifasini o'tashi mumkin. U ishtirokchilarga o'zlarining emotsional holatlarini anglash va ularni “shu yerda va hozir” tamoyili asosida obrazli tarzda ifodalash imkonini beradi.

Ko'rsatma: o'zingizga quloq soling. Sizning hozirgi kayfiyatingiz qanday rangga o'xshaydi?

“Hissiyotlarni sanaymiz” mashqi

Maqsad: ishtirokchilarning emotsiya borasidagi so'z boyligini oshirish

Ko'rsatma: keling, kim turli hislarni anglatuvchi so'zlarni ko'proq bilishini aniqlab olamiz. Navbat bilan so'zlarni ayting va ularni vatmanga yozib boring.

Trener uchun ma'lumot. Ushbu mashqni guruhning tayyorgarlik darajasiga qarab musobaqa yoki “aqliy hujum” shaklida tashkil etish mumkin.

Ishtirokchilarning vatmanini butun mashg`ulot davomida yordamchi vosita sifatida qo`llash mumkin. Qolaversa, mashg`ulotlar davomida ushbu “lug`at” yangi so`zlar bilan boyitib borilishi mumkin. Shunga alohida e`tibor qaratinglarki, ro`yxatda u yerda asosiy emotsiyalar (g`azab, g`am, quvonch, qo`rquv, xafagarchilik) qolib ketmasligi kerak. Agar ishtirokchilardan biri yozilganlarning emotsiyalarga tegishliligiga shubha qilsa, qolganlardan buni izohlab berish so`raladi.

Mashg`ulot yakunida ishtirokchilarga quyidagi savollarni berish mumkin: “Oxirgi marta nazorat ishi yozganingizda o`zingizni qanday his qildingiz?”, “Nojo`ya ish qilib qo`yganingizda o`zingizni qanday his etasiz?”.

Muhokamada “Sizningcha, eng yoqimsiz his qaysi?”, “Qaysi biri eng yoqimlisi?”, “Quyida sanab o`tilgan hislardan qay biri sizga yaxshi tanish?” kabi savollarga javob berish taklif qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abramova G.S. Vozrastnaya psixologiya. Toshkent 2005.
2. L.Beknazarova, M.Maxmudova. Ijtimoiy-psixologik trening. Toshkent 2016.
3. E.G'.G'oziyev. Psixologiya muammolari. Toshkent 1999.

TO`GARAK MASHG`ULOTLARIDA AYOLLAR MILLIY KIYIMLARINI TIKISH ASOSLARI

Xodjamqulova Raxima

Surxandaryo viloyati Termiz shaxar 8-maktab Texnologiya fani o'qituvchisi

Zamonaviy moda yo`nalishi milliy ko`ylaklarimizda ham o`z aksini topgan desak adashmaymiz. Kundan kunga milliy ko`ylaklarimizning yangi bichimlari, yangi siluettlari va yangi shakllari yaratilmoqda. Bilamizki, milliy ko`ylak asosan koketka, qop va yeng qismlaridan iborat. An'anaviy milliy ko`ylak to`g`ri siluetli, koketka chizig`i bo`ylab burmali bo`ladi. Old bo`lagida koketka bo`laklari bir – birining ustiga chiqib turishi yoki yaxlit bichilgan bo`lishi mumkin. An'anaviy milliy ko`ylak yoqali va yoqasiz bo`ladi. Yoqali bo`lsa yoqa o`mizi bo`ylab o`tkazmali, qaytarma yoqali, tik yoqali, yoqa uchlari

bog`lanadigan (galstuksimon) bo`lishi mumkin. Yenglari o`tgazma, yarim reglan bichimli, old ba ort bo`lak bilan yaxlit bichilgan bo`lishi mumkin. Yeng bichimlari keng, tor, kapalaksimon, fonarik, burmali ba hakoza bo`lishi mumkin.

Hozirgi kunda milliy ko`ylak bichimlarida juda katta o`zgarishlar ro`y bergan. Masalan: etak qismi kengaytirilib, konussimon shaklda bichilgan ko`ylaklar. Bunday qopli ko`ylak yangi ham konussimon shaklda bichiladi. Agar konussimon bichimli ko`ylakni elastik gazlamadan tikilsa uni etagi ba yeng uchlarini tortib zig-zag usulda qaytarib tikilsa juda chiroyli to`lqinsimon shaklga ega bo`ladi.

Quyma burmali ko`ylaklarni ko`pincha yosh qizlarimiz va kelinchaklarimizga tavsiya qilinadi. Yoshi katta, to`la gavdali ayollarimiz esa burmali ko`ylaklarni kiyimlari ma`qul. Chunki burmalar kishi gavdasini bo`rttirib ko`rsatadi.

Burma turlari ham gazlama turiga qarab turlicha bo`lishi mumkin. Undan tashqari hozirgi kunda ko`ylaklar uchun turli tuman tayyor bezak elementlarini do`konlarimizda ko`plab uchratishimiz mumkin. Faqatgina ularni gazlamaga, kishi gavdasi va yoshiga, kiyim turiga qarab tanlashimiz lozim deb o`ylaymiz.

Chiroyli kiyinishni har kim ham xohlaydi. Lekin chiroyli kiyinaman degan xotin qizlarimiz me`yorni unutmasliklari, ko`ylak uchun bichim va bezak tanlashda modeler va dizaynerlar maslahatiga rioya qilishlari lozim deb o`ylaymiz. Ana shundagina tanlagan kiyimi o`ziga yarashib turishi aniq. Ayniqsa, zamonaviy kiyim elementlarini joyida qo`yib ishlatishlari kerak.

To`g`arak mashg`ulotlarida ayollar milliy ko`ylaklariga kashta choklari bilan bezak berish

Kiyimlar qadim qadimdan kashta choklari bilan bezab kelinadi, Lekin kashta chok bilan bezak berishda har doim ham kiyim tashqi ko`rinishiga zeb bermaydi. Chunki kiyimga kashta chok solishda uni texnologiyalariga, rang tasvir qoidalariga, kishi salohiyatiga e`tibor berish lozim bo`ladi. Ayrim tikuvchilar bu kashta hozir modaga kirgan deb barcha kiyimlarga ham uni tikaveradi. Kiyimni tashqi ko`rinishini ochgan bilan kiyimni kim kiyganiga qarab kashta chok bezagini tanlash zarur hisoblanadi. Kiyimga kashta chok solishda quyidagilarga e`tiborni qaratish lozim:

- kiyimga kashta chok bilan bezak berishda kashta gullarini kiyim gazlamasi gullariga moslash, gazlama gullarini bug'masdan uni yanada yorqinroq, chiroyliroq qilib ko'rsatadigan gul elementlarini tanlash;

- kashta gullarini rangini tanlashda gazlama gullarini ranglaridan birini tanlash yoki gazlama gullarini ochadigan ranglarni tanlash lozim;

- agar gazlama gulsiz sidirg'a rang bo'lsa kashta gullarini rangini gazlama rangini ochadigan, yoshi katta kishilar uchun bo'lsa sal siporoq rangni tanlash lozim;

- kashta ornamentini kiyimni qayerda kiyilishiga qarab tanlash lozim, masalan, kiyim to'ylarga mo'ljallangan bo'lsa kashta ornamentlari to'laroq bo'lishi kerak, agar kiyim odatiy kiyiladigan bo'lsa gullari siyrakroq bo'lishi lozim. Quyida kashtalar bilan bezatilgan ko'ylak namunalarini keltiramiz;

- kiyimga kashta chok bezagini tanlashda kishining yoshi, tashqi ko'rinishi, kiyimni qayerda kiyishi, kim kiyishiga e'tiborni qaratish lozim. Yoshi katta kishilarga mo'ljallansa sal rangsizroq, oddiroq kashtalarni tanlash kerak. Yoshlarga, kelinlarga kiyim tikishda kashta gullari yorqinroq, rang-barang bo'lishini ko'zda tutuush lozim.

- milliy iftixorimiz bo'lmish atlash gazlamadan tikiladigan kiyimlarga kashta chok bilan bezak berish yanada e'tiborliroq bo'lishlikni talab etadi. Chunki bilasizki atlasda kamalak ranglarini barchasi mujassam bo'lim. Noto'g'ri rang va kashta ornamentini tanlansa atlasni tashqi ko'rinishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

- atlasdan tikilgan kiyimlarga kashta chok bilan bezak berishda yaltiroqligi kam bo'lgan iplarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Ayollar milliy ko'ylaklarda bezakli to'rlarni tikish texnologiyasi.

Milliy ko'ylaklarimizga moda yo'nalishiga qarab turli to'rlar va tayyor kiyim elementlari bilan bezash hozirda urf bo'lgan. Lekin barcha kiyimlar kabi milliy ko'ylaklarga ham to'rlar va kiyim bezaklarini tikishda ularda foydalanish qoidalariga rioya qilish bilan birga ularni kiyim uchun tanlay olish ham kerak bo'ladi. Kiyimga kiyim bezaklarini chiroyli tikkan bilan uni kiyimga estetik did bilan tanlanmasa u kiyimni chiroyini ochish o'rniga uni sifatini tushirishi mumkin. Shuni nazarda tutgan holda quyida kiyim bezakalaridan foydalanishni ayrim usullarini tahlil qilamiz.

- Kiyim bezaklari (to`rlar, tasmalar, burmalar, mag`izlar) ni tanlashda avvalo kiyim tikiladigan gazlama xususiyatini e`tiborga olish lozim. Chunki gazlama tabiiy tolali bo`lsa kiyim bezagi ham shunga xos bo`lishi lozim. Kiyim gazlamasi sun`iy tolali bo`lsa kiyim bezagi ham sun`iy tolali bo`lishi kerak. Kiyim gazlamasi kirishuvchan bo`lganda kiyimga bezakni o`rnatib tikishda bu xususiyatni esda saqlagan holda tikishi lozim, aks holda kiyim yuvilgandan so`ng kiyim bezagini qayta so`kib tikishga to`g`ri keladi.

- Kiyimga to`r yoki tasmali bezaklarni tikishda kiyim bezagi tikuv mashinasi tishqi reykasini tomonida ya`ni kiyimni ostki tomonida bo`lishligini ta`minlash lozim. Chunki tishli reyka albatta kiyimga ma`lum chim tashlab tikadi. Kiyim detaliga to`r ulashda kiyim detaliga chim aslo tushmasligi kerak, aks holda kiyim detalini o`sha joyi burishib chiroyli chiqmasligi mumkin.

- Kiyimga tayyor tasmalar – kantlar bilan ishlov berishda ham tasmani kiyimga o`rnatish qoidalariga rioya qilish lozim. Tasmani kiyimga tikishdan oldin unga namlab-issiqlik bilan ishlov berish lozim. Agar tasma yoqa o`miziga tikilsa, ya`ni botiq yuzaga tikilsa tasma ikkiga bo`linib ochiq qirqim tomoni cho`zilib, yopiq qirqim tomoni kirishtirib dazmollanadi. Agar tasma qabariq yuzaga, koketka ostki qirqimiga, yeng uchiga, cho`ntaklarga va h.k. tasma ikkiga bukilib yopiq qirqim tomoni cho`zilib, ochiq qirqim tomoni kirishtirib namlab dazmollangandan so`ng o`rnatilsa kiyim chiroyli chiqadi.

Kiyimga burmalar bilan ishlov berishda nimalarga e`tibor berish lozim.

Birinchi navbatda kiyim egasini yoshiga, chunki katta yoshli kishilarga aksariyat hollarda burmali kiyimlarni havola etmaymiz. Chunki katta yoshli kishilarga burmali kiyimlar ularni bachkana qilib ko`rsatadi. Ularni yoshida burmasiz, burmali bo`lgan holda ham sezilarsiz bo`lishi lozim.

Ayollar milliy ko`ylaklariga turli applikatsiyalar bilan ishlov berish yo`llari.

Hozirda bozorlarimizda kashta choklarga moslab ishlab chiqarilgan yopishtiriladigan, tikiladigan, yelim bilan yopishtiriladigan applikatsiyalarni ko`plab uchratish mumkin. Bu applikatsiyalardan ham to`g`ri foydalanilmasa kiyim sifatiga salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin. Bilamizki, kashta tikish murakkab jarayon bo`lib, hamma tikuvchilar ham uni uddalay olmaydir. Shuning uchun, ko`pincha tayyor kashtali

applikatsiyalardan foydalanadilar. Applikatsiyalar kiyimga chiroyli ko`rinish berish bilan birga ayrim kamchiliklarni yopishi, ayrim choklarni ko`rsatmasligi, kiyimga bezak berishi maqsadida ishlatiladi. Applikatsiyalarni tanlashda nimalarga e'tibor berish lozim?

- Birinchidan, gazlama rangi va gullarini e'tiborga olish lozim;
- Ikkinchidan, gazlama xususiyatiga mos tushishi kerak;
- Uchinchidan, gazlama narxiga, tashqi bezaklariga mos bo`lishi kerak;
- To`rtinchidan, kiyim egasini tashqi ko`rinishi, yoshi va kiyimni kiyish joyiga

qarab tanlash kerak.

Ayrim hollarda oq rangli gazlamalarga yosh xotin-qizlar uchun qora, qizil, ko`k, yashil rangli applikatsiyalarni tanlash mumkin ayrim hollarda esa gazlamadagi ranglardan eng ko`p uchraydigan rangiga qarab tanlanadi.

O`zbek milliy ko`ylaklarni tikishda zamonaviy tikish texnologiyalaridan optimal foydalanish.

Yuqorida aytganimizdek, hozirda bozorlarimizda xotin-qizlar kiyimlarini tikish uchun tirli-tuman gazlamalar bilan bir qatorda kiyim tikishda ishlatiladigan, kiyim tikish samaradorligini, sifatini oshirishda qo`llaniladigan kiyim elementlarini uchratish mumkin. Lekin bu elementlardan to`gri foydalanishni barcha tikuvchilar ham uddalay olishayapdi deb ayta olmaymiz. Demak, shundan foydalansam kiyim sifatli chiqadi, kiyim egasi sifatli elementlardan foydalanib tikibdi degan ko`r-ko`rona qarashlar uchrab turadi. Shuning uchun, quyida zamonaviy kiyim elementlaridan foydalanish texnologiyalari, ulardan foydalanishni optimal yo`llari haqida to`xtalib o`tmoqchimiz.

To`g'arak mashg'ulotlarida yelimsimon noto`qima tasmalardan foydalanish.

Hozirda do`konlarda yelimsimon, o`rgimchak uyasiga o`xshash rulonli tasmalar ko`p uchraydi. Ularni qayerlarda qo`llash mumkin? Ushbu yelimsimon tasmalarni ayniqsa elastikli gazlamalardan kiyim tikishda kiyim etagini qayirib tikishda, yeng uchini qayirib tikishda mashina chok o`rnida ishlatish mumkin. Agar mashinada qayirib tikilganda kiyim o`ngida chok o`rni qo`pol ko`rinishi mumkin. Yelimli tasma bilan yopishtirib bukilganda chok borligi bilinmaydi. Yeng yoki etak uchlari tekis bukilib, kiyim cho`zilganda ham chok sitilib yoki so`kilib ketmaydi.

Undan tashqari yelimli tasmalardan milliy ko`ylak old va ort bo`lak koketkalariga avra va astar detallarini qo`lda ko`klash jarayonini yengillatish maqsadida ham qo`llash mumkin.

Yelimsimon noto`qima tasmalardan foydalanishda quyidagi qoidalarga rioya qilish zarur:

Tasma ikki detalni o`rtasiga qo`yilib sal namlanadi va dazmol mato ustidan dazmollanadi. Dazmollash jarayonida dazmol harakatda bo`lmasdan toki namlik ketgunga qadar ushlab turiladi, undan so`ng boshqa qismlar dazmollab yopishtiriladi. Agar dazmolni harakatlantirib dazmollansa tasma surilib ayrim joylaridan qochishi mumkin, yoki yelimsimon tasma uzilib o`sha joy yopishtirilmay qolishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Komilova X.X., Hamroyeva N.K. tikuv buyumlarini konstruksiyalash. Toshkent. 2003.
3. Xasanboyeva G.K., Karimova O.I. Kiyim modelini ishlash va konstruksiyasini tayyorlash., Toshkent. "O`qituvchi. 1990.
4. Toshpo`latov S.Sh., Komilova X.X., va boshq. Tikuv buyumlarini loyihalash., Toshkent. "Voriz - nashriyot". 2007.
5. Jabborova M. "Tikuvchilik texnologiyasi" T.: "O`qituvchi", 1994

БОЛА ТАРБИЯСИ ВА УНГА БЎЛГАН ПСИХОЛОГИК ЁНДАШУВ

*Суробова Шаходатжон Соибовна
Чуст тумани 2-мактаб психологи*

Психологларнинг эътироф этишларича, бола ривожланишининг ҳар бир даврида унинг онгига ўзига хос хиссий туйғуларни тарбия дастаги асосида сингдириш лозим. Масалан; "Ватан", "Ота" ёки "Она" туйғуларини она вужудидаги хали туғилмаган боласининг онгига "алла" айтнб сингдириши мақсадга мувофиқ

хисобланади. Акс қолда бола онгидаги мазкур туйғуга бўлган тарбия мезони етишмовчилиги келиб чиқиб, натижада биз кутаётган бугунги кундаги Ватанпарвар даражасида онги тарбия топган ёшлар бўлиб шаклланишда қийналар экан. Инсоннинг бош мия ярим шарларининг доимий равишда маълумот (информация)га бўлган эҳтиёжи ўта юқори бўлиб, у онгига етиб келаётган маълумотларни бу яхши ёки бу ёмон демасдан, балки, кўпроқ салбий мойилликнинг етакчилиги асосида қабул қилади. Инсон онгида яхши ишларга нисбатан ёмон ишларни қилишга бўлган мойиллиги устун туради. Шунинг учун ҳам халқимиз ўртасида "яхши ишни ҳамма ҳам қилавермайди, ёмон иш ҳамманинг қўлидан келади" - деган мақол бежизга айтилмаган бўлиб, у миямизнинг психологик хусусиятини эътироф этади. Демак, бола тарбиясида оналар "алла"си тарбиянинг меъёр мезони ва маънавий онг озукаси сифатида ўз таъсирини ўтказади, натижада, онгни озиклантиради, окибатда бола онгида ватанпарварлик, ота ва онага меҳрибонлик психологик ҳис-туйғуси ва мойиллик куртаклари шакллана боради. Ҳосил бўлган психологик мойиллик куртаклари шаклланишини бир дақиқа бўлсада тўхтатмасдан, бола туғилгунча у билан эмоционал мулоқотлар ва туғилгандан кейин эса, мактаб ёшигача ўйинлар асосида ривожлантириб бориш бола тарбиясидаги энг асосий психологик омиллардан саналади. Албатта, ота-оналарга шуни ҳам алоҳида таъкидлаш лозимки, она ўз вужудидаги боласини "хали ҳеч нарсани сезмайди ёки тушунмайди" деб ўйлаши ўта билимсизлик ҳисобланади. Америкалик психолог олимлар шундай тажриба ўтказишади: олти ойлик ҳомиласи бор онани махсус вакуум қурилманинг ичига киритишади ва қурилмани ишга туширишади. Қурилманинг ичидаги она ва боланинг ҳолати экран тасвирида кузатиб борилади. Онанинг руҳий кайфияти яхши ва хурсанд, она вужудидаги бола кулади ва барча ҳаракатлари хурсанд кишининг ҳаракатларига монанд. Суюқлик ичида сузиб юрган бола организми риложланиши учуй керакли бўлган моддаларни навбатма-навбат оғзи билан териб емоқда. Шунда кузатувчи атайлаб она оёқ панжаси ва қўл панжасини махсус қисгич билан сиқиб оғритади, натижада она руҳиятида оғрик хиссиётида пайдо бўлувчи асабийлик кайфият аломатлари пайдо бўлади, бундан таъсирланган она вужудидаги бола йиғлай бошлайди ва

ҳаракатлари ҳам ҳафа киши ҳаракатларига монанд. Демак, она вужудидаги бола нафақат ташқи таъсирни билвосита, яъни она орқали сезаяпти, балки, ўша таъсирга мутаносиб жавоб реакциясини қайтаряпти. Бу ҳолат бола тарбиясига нафақат шунчаки ёндашув, балки ўта эътиборли ва масъулият асосида ёндашувни талаб қилади. Шундан ҳам кўриниб турибдики, бола тарбияси ўта нозик ва кўп қиррали психологик хусусиятларга эга.

Бизга маълумки, ҳар бир бола айнан қайтарилмас ва ўзига хос ички психологик имконият хусусиятларига эга. Шунинг учун ҳам уларни таълим-тарбия муҳитига жалб қилишда, албатта, психологлар хизматидан самарали фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Айниқса, умумтаълим мактабларида фаолият юритаётган амалиётчи психологлар фаолиятидан унумли фойдаланиш яхши натижалар бериши мумкин. Уларга биринчи галда мактаб остонасига қадам қўяётган боланинг ақлий жиҳатдан ривожланиш хусусиятларини уларга мос ҳолдаги таълим-тарбия муҳити билан мослаштириб ташкил қилишдек ўта нозик ва масъулиятли вазифа юклатилган, бу вазифани бажариш жараёнида, амалиётчи психолог боланинг ақлий хусусиятларини ўлчаб берувчи психологик методикалардан (Равен, Айзенк ва бошқа) самарали фойдаланади. Психологик тест натижаларига кўра, бола ўз тенгдошидан ақлий жиҳатдан ривожланиши олдин кетаётганлиги ва берилаётган маълумотларни енгил ўзлаштириб аниқ хулоса чиқариши, бошқа бири бу вазифани бажаришда қийналиши ва яна бошқа бирови янги, нотаниш масалалардан ҳадиксираб, уни ўзлаштиришда қийналади. Шунинг учун ҳам, биринчидан, боланинг психологик-руҳий ҳолатининг тайёрлиги ва ақлий салоҳияти, яъни ақлий ривожланишининг қай даражада эканлиги диққатга сазовор бўлса, иккинчидан, ўқувчига берилаётган таълим-тарбия усули фақат мантиқий, яъни "кўрғазмалик образ" хусусиятга эга бўлса, ўзлаштириши қийин саналган ўқувчилар, яъни "кўрғазмалик образга асосланган болаларга қийинчилик туғдирар экан.

Бундан ташқари боланинг руҳий ривожланиши ва таълим-тарбиянинг муваффақиятини эътироф этувчи кўплаб ўзбекистонлик психолог олимлар қарашлари ҳам мавжуд. Жумладан, Э.Ғозиев таълим муассасаларидаги психологик хизмат вазифаларини қайд этиш ва унинг психологик хусусиятлари,

М.Г.Давлетшин Ўзбекистондаги психологик хизматнинг бугунги ҳолати ва вазифаларини талқин қилиш хусусиятлари, В.А.Токарева ўқувчи шахси тараққиёти учун муҳим бўлган ўз-ўзини билиш ва ахлоқий ривожланиш имкониятлари, Ғ.Б.Шоумаров халқ таълими тизимида психологик хизматнинг жорий этилиши билан боғлиқ; янгиликлар, муаммолар ва унинг ечимлари, Б.Р.Додиров Ўзбекистондаги иқтидорли болаларни танлаш ва тарбиялаш масалалари тўғрисида ва бошқа кўплаб психолог олимлар ўзларининг назарий ва амалий жиҳатдан асосланган фикрларини беришган.

Демак, бола онгига тарбияни сингдириш жараёнида етакчи психолог олимлар фикрларидан келиб чиқиб, мактабларда фаолият юритаётган амалиётчи психологлар иш фаолиятлари давомида келиб чиқаётган муаммоларни ҳисобга олган ҳолда, тарбия жараёнини ташкил қилишда шартли равишда қуйидаги энг асосий вазифаларни бажаришлари мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз: Биринчидан, амалиётчи психолог ўқув йили бошида тадбирлар режасини ишлаб чиқиш, иккинчидан, мактабга келаётган болаларнинг руҳий ва ақлий жиҳатдан ривожланишидаги ўзига хос хусусиятларини аниқлаш, учинчидан, педагогик жамоада мўтадил психологик иқлимни яратиш, тўртинчидан, ўқувчилар гуруҳларининг ёш даврлари билан боғлиқ бўлган психологик хусусиятлари ва уларга мос келувчи таълим-тарбия муҳитини ташкил қилиш, бешинчидан, ўсмир ёшидаги ўқувчиларнинг ўзларига хос психологик хусусиятлари ва уларнинг шаклланишини узлуксиз психологик нуқтаи назардан кузатиб, ўсмир тарбиясида нуқсонли борлиги аниқланганда психологик таъсирлар асосида унинг тарбиясини яхшилашга амалий ёрдам бериш, олтинчидан, ўсмир ёшидаги ўқувчиларни қизиқиш ва лаёқатларига қараб касбга йўналтириш, еттинчидан, куни узайтирилган гуруҳларни ташкил этиш жараёнида пайдо бўлувчи муаммоларнинг психологик жиҳатдан ечимини топа билиш вазифаларини бажара билсалар, ўйлаймизки, умумтаълим мактабларида фаолият юритаётган амалиётчи психологлар таълим-тарбия соҳа ишларини яхшилашда самарали фаолият юритган бўладилар ва шу билан бирга бола онгини ўз даврида унга мос ҳолдаги тарбия муносабатлари билан тўйинтира бориш вазифасини ҳам бажарган буладилар.

AXBORATLASHUV JARAYONIDA BOLALAR XOTIRASINI KUCHAYTIRISH VA DIQQATNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Abdullayeva Mufazzal Xamidovna
Andijon viloyati Bulokboshi tumani 17-maktab psixologi

XOTIRANI RIVOJLANTIRISH MASHQLARI

Xotirani mashqlantirish — bu ta'lim jarayonida o'zlashtirish qobiliyatini oshirish imkoniyati sanaladi. SHuning uchun taqdim etilayotgan mashqlarni o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Arastu o'z vaqtida “voqea-hodisalar izchilligini fikran tiklash, taassurotlarni qayta tiklash qayta esga tushirishni yengillashtiradi”, degan edi. Sizga taqdim etiladigan mashqlar ushbu tamoyilga tayanadi. Ular yordamida sizning xotirangiz imkoniyatlari ancha ortadi.

Xotirani mashqlantirishning tayyorlov bosqichi

Bu mashq bo'sh vaqtda bajarilishi lozim.

1. 5-10 soniya davomida fikrlardan xoli bo'lgan holatga keling. Siz bir ishdan boshqasiga o'tganda, oddiy vazifasidan murakkab vazifani bajarishga kirishganingizda ancha zo'riqishni bir necha bora his qilgansiz. SHu sababli esga olib qolish mashqini bajarishdan oldin diqqatni jamlash va uning boshqarish lozimligini e'tibordan chetga qoldirman. Mashqqa yo'naltiruvchi topshiriq ancha tushunarli bo'lishi uchun ko'zguga qaraganingizda sizda nima yuz berishini esga oling. Dastlab o'zingizga baho bermaysiz, ammo ozroq vaqt o'tgach o'zingiz haqingizda har xil munosabatlar bildira boshlaysiz.

2. Ruhiy zo'riqishlarsiz sharoitda diqqatni to'plashga e'tibor qarating.

3. Ushbu holatda bo'lishni yanada o'stirib boring

1-MASHQ

Ish kuningizni boshida kundaligingizni bir chetga surib qo'yib, o'zingizdan “Men bugun birinchi, ikkinchi, uchinchi navbatda va boshqa qaysi ishlarni bajarishim kerak edi?” deb so'rang. Agar buni uddalay olmasangiz kundalikda rejalashtirilgan ishlar ketma-ketligini fikran tiklashga urining. Har birini detaligacha

eslashga harakat qiling. Bu mashqni yana ko'rinishi ish kuningiz yakunida ertaga qilinadigan ishlar tartibi qayd etilgan kundaligingiz sahifasini xayolan gavdalandiring.

Doimiy ravishda kundalik rejalaringsizni obrazli tarzda gavdalantirishingiz sizda obrazli xotirani o'sib borishiga imkon beradi.

2-MASHQ

Stol ustiga narsalarni betartib joylashtiringki, ular Sizning diqqatingizni to'plash uchun faollikni ta'minlasin. So'ngra har bir predmetning holatini o'zgartirishingiz mumkin bo'lgan munosabatingizni tasavvur qiling. Uni amalga oshiring. Ma'lum vaqtdan so'ngra ularning dastlabki holatiga qaytaring.

3- MASHQ

Ushbu mashq alohida so'zlarni esga olib qolish qobiliyatini rivojlantirishga mo'ljallangan. Mashqni imkoni bo'lsa ikki kishi bajargani maqsadga muvofiq. Ishtirokchilarda biri bir biriga mazmunan bog'liq bo'lmagan o'ttizta so'zdan iborat ro'yxat tuzadi. Ishtirokchilarning boshqasi esa bir soniya vaqt oralig'ida ushbu so'zlarga ma'no jihatdan sinonim bo'lgan so'zlarni topadi. Sinonim so'zlar dastlabki ro'yxatdagi so'zlarning qarshisiga yozilib boriladi. Har bir so'zni sinonimi yozilgach, u bekitiladi. Siz ma'no jihatdan olingan sinonim so'z yordamida dastlabki ro'yxatdagi so'zlarni topib borishingiz lozim bo'ladi. Sinonim so'zni topishda vaqt miqdori bir soniyadan oshib ketishi kerak emas. Ushbu mashqni muttasil bir oy mobaynida bajarish ancha samara beradi.

4-MASHQ

Ushbu metodika sizga murakkab matnlarni qiynalmasdan esga olib qolishga yordam beradi.

1. Albom varag'i hajmidagi matnni oling. U xabarnoma mazmunidagi murakkab bo'lmagan matn bo'lishi lozim.

2. Uni bir necha bora o'qing va toza varaqqa beshta gap orqali uning mazmunini yozing.

3. Beshta gapning ichidan kalit so'zlarni tanlab oling. Tanlab olingan kalit so'zlarni navbatdagi varaqda yozing.

4. Har bir kalit so'z yordamida maksimal miqdorda matndagi ikkinchi darajali so'zlarni esga olib qolishga harakat qiling.

5. Ikkinchi darajali so'zlar yordamida yangi kalit so'zlar hosil qiling va ular orqali matnning umumiy mazmunini aks ettiruvchi yana beshta gap tuzing.

Shu tarzda so'zlar algoritmi tuzish yordamida esga olib qolishni amalga oshirsangiz, matnni avtomatik tarzda yod olish imkoniyatingiz o'sadi.

Mashg'ulot mashqlari

Diqqatingizni boshqaring. Hamma doira shaklida aylaningizlar, va Sizlar ushbu mashqni ayni damda bajarishga kirishing: to'liq harakatsizlikka erishing va shu damda qanday holatda turgan bo'lsangiz o'sha holda turing. Gavgangizni, yuz ifodangizni, barmoqlaringiz holatini xayolan ko'zdan kechiring. Sizning pyeshonangiz, qorningiz va oyoqlaringizdagi zo'riqishlarni tekshiring. Sizning yelkangiz bukilganmi? Oyoqlaringizning barmoqlari qisilayaptimi? Gavgangiz bukilganmi? Maboda sizning muskullaringiz tin oladigan bo'lsa qaysi tomonga siz yiqilasiz?

Tanangizdagi har bir muskullarni aniq his etayapsizmi? Sizda kuzatilayotgan zo'riqishlardan xalos bo'lishingiz uchun bir necha bora chuqur nafas oling va so'ngra yana davom eting.

Diqqatgi rivojlantirish o'yini

Tasavvur qiling, siz hozir stol atrofida o'ltirib ish bilan mashg'ulsiz va yengilgina zyerikishni his etayapsiz. Siz o'zingiz boshlab qo'ygan loyiha ustida bosh qotirayapsiz. Bunda bir tomondan mas'uliyat bezovta qilsa, bir tomondan ichki qo'zg'alish tinch qo'ymayapti. Sizning bir bo'lagingiz ishlashga da'vat etsa, ikkinchi tomoningiz esa xohishni yo'qotmoqda.

Keling o'zingizdagi ortiqcha xayollardan xalos bo'lishga harakat qiling. Ichki betartibsizlikdan xalos bo'lish, muskullardagi bo'shanishlar va yengillashishga xohish sezadi. YElkalarni bo'shashtiring, chuqur va bir tekisda nafas oling, ko'z va og'iz atrofidagi zuriqishlarni yozing, siz jismoniy zo'riqishdan xalos bo'lasiz. Tana muskullarining yengillashishi miyada yengillashishni keltirib chiqaradi.

2-mashq. Ruhiiy harakatlar

Diqqatni to'plash uchun ikki daqiqa.

Mashqning maqsadi: Kishining diqqatini bir joyga to'plashga o'rgatadi, fikrlash yo'nalishi topish malakasini shakllantiradi.

Zarur jihoz: stul, soat.

Ishtirokchilar yana davra bo'lib oladilar. So'ngra boshlovchining ko'rsatmasiga tayangan holda mashqni bajarishga kirishadilar.

Sekundni ko'rsatuvchi soatning oldiga qulay o'ltirib oling. Bir necha lahzada o'zingizni bo'sh tuting, diqqatingizni to'plang. Agar bunga tayyor bo'lsangiz soatning sekundli strelkasi harakatini kuzatib boshlang.

Ikki minut davomida diqqatingizni, ongingizni soatning sekundli strelkasiga jamlang, go'yoki olamda boshqa hech narsa yo'qdyek.

Siz diqqatni to'plashdan chetga chiqib, biron-bir narsa haqida o'ylab boshlasangiz, parishonxotirlikka yo'l qo'ysangiz mashqni to'xtating va diqqatni yig'ishni yana qaytadan boshlang.

Diqqatni to'liq ikki daqiqa to'plashga harakat qiling.

Demak, hamma soatlarni olsin va mashqni boshladik.

Ushbu mashqdan so'ngra diqqatni tanlovchanligini shakllantirishga yo'naltirilgan mashqni bajarishga kirishiladi.

Mashq: O'rab turgan olamga e'tibor

Treningning ikkichi mashqida ham ishtirokchilar diqqatni to'plash bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirishga harakat qiladilar.

Boshlovchi: xonadagi narsalarga diqqatingizni qarating va aylana shaklidagi oltita predmetni toping. Har bir ishtirokchi ushbu mashqni o'zi bajaradi va oltita aylana shaklidagi predmetlarni topadi va qayd etadi. So'ngra guruhning har bir a'zo yozgan predmetlar trening ishtirokchilari orasida solishtirib ko'riladi.

OILAVIY MUNOSABATLARNING BOLA SHAXSIDA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHIGA TA'SIRI

Dauletmuratova Marita Yaxiyayevna
Qaraqolpogiston Respublikasi Qorauzak tumani 11-maktab psixologi

Ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan munosabatlari ham, ayniqsa shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi: hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga xos, yangicha talablar qo'ymoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar odamlarning o'zaro muloqot munosabatlari doirasini ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda o'tmishdoshlarimizda kuzatiladigan tabiiylikni ma'lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqishlarning yuzaga kelishga asos bo'lmokda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda xam o'z ifodasini topadi. Oilaviy munosabatlar o'zining ko'p qirraliligi bilan alohida xususiyat kasb etib, jamiyat taraqqiyotini belgilashda, ma'nau barkamol, ruhan sog'lom avlodni voyaga yetkazish jarayonida ularning ijobiy yechimi katta ahamiyatga egadir. Agar har bir oilani tashkil etuvchilar o'z muammolarini bahamjihatlik bilan, o'zaro kelishuv asosida hal qilsalar, oiladagi tinchlik kafolatlanib, uning ma'naviy asoslari mustahkam bo'ladi. Alohida ta'kidlash joizki, er-xotin, qaynona-qaynота, kelin-kuyov munosabatlarida, fikrlar va qarashlardagi paydo bo'ladigan ayrim kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni uni tashkil etuvchi shaxslar o'zaro kelishib, muammoni konstruktiv tarzda yechishga qodir bo'lsalar, oiladagi ijtimoiy-psixologik hamda ma'naviy muhit yosh

avlod ongida insoniy munosabatlar to'g'risida teran va ijobiy tasavvurlar shakllanishiga imkon beradi. Shu bois ham mamlakatimizda oila va uning tarbiyaviy imkoniyatlari qadriyat sifatida yuksaklarga ko'tariladi.

Mamlakatimiz birinchi prezidenti I.A. Karimov, oilada hukmron bo'lishi lozim bo'lgan ma'naviy muhit va noyob udumlarimizning hosiyatlari haqida fikr bildirib: "Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-birlariga nisbatan ezgulik bilan mehr oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas... O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarning, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amho'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir"⁴ - deb ta'kidlaganlar.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, oilaviy munosabatlar har doim ham bir tekisda silliq, risoladagidey kechavermaydi. Uy-ro'zg'or yumushlarini ado etish, er-xotinlik burchlari, ota-onaning farzandlar oldidagi majburiyatlari, farzandlarning kattalar oldidagi huquq va burchlarini ado etish jarayonida murakkab rollararo muomala va muloqot jarayonlari kechadiki, ularning deyarli barchasida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar to'qnashadi, ayrim xolatlarda fikr va qarashlardagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar shaxslararo nizolar tarzida namoyon bo'ladi. Bu xolatlar albatta farzandlar tarbiyasiga ta'sir etmay qo'ymaydi. Bu esa tarbiya jarayonida ijtimoiy normalarni amal qilishi yoki buzilishida nomoyon bo'ladi. Ayni shu masalalar mavzuimizning dolzarbligini belgilaydi.

O'tgan asrning o'rtalaridan boshlab o'smirlardagi tajovuzkor xatti-harakatlarning faol tadqiqotlari o'tkazildi. Ayniqsa, bu muammo hozir juda muhim. O'smirlar o'rtasida tajovuzkor tendensiyalarni o'sishi so'nggi yillarda keskin tarzda yoshlar o'rtasida jinoyatchilik oshdi. Ayniqsa, o'smirlar o'rtasidagi jinoyat ishlari sezilarli darajada oshdi. Bu esa jamiyatimizning bugungi kundagi eng o'tkir ijtimoiy muammolaridan birini ifodalaydi. Jiddiy jarohatlash, bir kishiga qarshi jinoyatlarning ortib soni kundan-kunga

⁴ Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq vataraqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 1992. -72

ortib bormoqda. Shu bilan bir vaqtda shafqatsiz yosh guruhlardagi janglarning hollari tez-tez uchraydi.

Shuni e'tiborga olish lozimki, bu kabi holatlarning ortib borishi esa yoshlarning ruhiyatida oilaviy muhitning keskin buzulishi va oilaviy munosabatlarning keskinlashuvi sabab bo'lmoqda. Oila a'zolarining o'zaro muomalalarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, maktab o'quvchilarining o'qishga va mehnatga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir qiluvchi oila muhitidagi holatlar va omillar alohida o'rin tutadi:

Birinchidan: ota-onalarning jamoatchilik faoliyati ularning mafkuraviy qarashlari va ishga nisbatan munosabatlari bola tarbiyasiga ta'siri kuchli bolar ekan.

Ikkinchidan: oila ichidagi munosabatlari ota va ona munosabati, ota-onalarning buva va buvisiga munosabatlari, aka-ukalar va opa-singillarning o'zaro munosabatlari.

Uchinchidan: ota-onalarning tarbiyaviy-pedagogik faoliyati ularning tarbiyaviy muammolari, qiziqishlari maktab bilan hamkorliklari, o'quvchilarga dars tayyorlash kezida ota-onalarning yordami, ularning tarbiyaviy ahamiyati.

To'rtinchidan: oilada bolalalarning ta'limga munosabatlari va ijtimoiy normalarni bajarishlari va boshqalar.

Shu boisdan past darajadagi ijtimoiy yo'nalishga mansub oilalardan xudbin, qo'rqqoq, jamiyat uchun kam nafi tegadigan o'g'il-qizlar yetishib chiqishi mumkin. Jumladan, har bir oila a'zolarining yashayotgan mikromuhitda tutgan o'rni va erishgan obro'li, oilalarda er-xotin munosabatlari, ota-onalarning farzandlarga nisbatan muomalalari, turli yoshdagi farzandlarning o'zaro muloqoti, ularning ota-onalarga munosabatlari, oila a'zolarining begona kishilar bilan muloqotga kirishishi xususiyatlari, ular o'rtasida o'zaro yordam va birdamlilik xususiyatlari, uy-ro'zg'or yumushlari taqsimoti, xordiq chiqarish, oila a'zolarida muloqot ko'lamining kengayishi kabi shaxslararo munosabatlarning rang-barang jihatlarini oilada bola ongiga sngdirish maqsadga muvofiqdir.

Oilaviy hayot, mehnat, kattalar va kichiklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, axloqiy-ma'naviy qiyofalari, ota-onalarning siyosiy va ma'naviy saviyalari, ularning iqtisodiy ta'minlanganligi, turli ko'rinishdagi faoliyatlari, vaqtni to'g'ri rejalashtirish, yashash sharoitlari va boshqalar oilada farzand tarbiyasini samaradorligini ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Biz mavzu yuzasidan quyidagi ilmiy-nazariy, tahliliy natijalarni qo'lga kiritdik:

- Farzandlar tarbiyasini barqarorligini ta'minlashda ota-ona ibrati katta ahamiyatga ega boladi;

- Oiladagi axloqiy tarbiya bilan ta'lim muassalari tarbiyasi mushtarakligini ta'minlash farzandlarning tarbiyalanganlik darajalarini oshiradi;

- Farzandlar tarbiyasida oilaviy an'analarni, milliy urf odatlar mohiyatini ular ongiga singdirib borish tarbiyaning milliy xarakterini oshirish imkoniyatini beradi.

- oilaviy hayotda urf - odat, an'ana, milliy ong va milliy til kabi ijtimoiy tushunchalar va o'rta Osiyo mutafakkirlarining axloq, odob va oilaviy hayot xususidagi didaktik qarashlaridan foydalanish yaxshi samara beradi;

Sog'lom bola oilada shakllanadi va kamol topadi. Bu o'rinda ota-onaning psixologik-pedagogik bilimi, dunyoqarashi hamda madaniyati yetakchi omil hisoblanadi.

Har bir ota-ona o'z farzandi tarbiyasi bilan asosli ravishda shug'ullanishi, buning uchun esa ta'lim-tarbiya ishining o'ziga xos tomonlarini, qonuniyatlarini, bolaning pedagogik-psixologik va yosh xususiyatlarini, jismoniy va fiziologik rivojlanish qonuniyatlarini bilishlari, yosh avlodni tarbiyalash sohasidagi muvoffaqiyatlariga erishishning asosiy omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Adizova T.M. O'quvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari. - Toshkent, TDPU, 1997.

2. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. - Toshkent, O'qituvchi, 1995.

PAST O`ZLASHTIRUVCHI O`QUVCHILAR BILAN PSIXOLOGIK MASHG`ULOTLAR O`TISH

Ahmadjonova Xolida Umarjon qizi
Namangan viloyati Chortoq tumani 8-maktab psixologi

Shaxsning shakllanishi dunamik xususiyatga ega. Shuning uchun uning rivojlanishida goho igarilashib ketsa, goho taraqqiyotdan orqada qolib ketish holatlari kuzatiladi. Ba'zan "inqiroz"li davrlarni boshidan o'tkazayotganlar esa o'zlarining jismoniy va ruhiy salomatliklari bilan bog'liq xotirjamlikni yo'qotib qo'yadilar, ruhiy tushkunliklar natijasida o'z istiqbol rejalarini tuza olmaydilar, xuddi shu bois, o'zlarining ijtimoiy mavqelariga putur yetkazadilar. Mazkur holatlarni o'rganar ekanmiz, bunda barcha yondashuvlarga, tamoyillarga, yo'l-yo'riqlarga zamon ruhi orqali nazar tashlash talab etiladi. Bizni qiziqtirayotgan psixik buzilishning boshlanishi va namoyon bo'lish jarayoni, uni tashkil qiluvchi xususiyatlari hamda kechishining asosiy holatlarini chuqur tahlil qilish xulq-atvor rivojlanishining nazariy namunalarini tuzish va shakllantiruvchi tajriba majmuasini yaratish, psixokorreksion ruhiy tuzatish zarur hisoblanadi. Xulq- atvor psixologiyasida, jumladan jahon psixologiyasi fanining asosiy tushunchalaridan hisoblanadi. Ko'p hollarda esa bu psixologik kategoriya sifatida qaraladi.

"Inqiroz"li davrlar orasida o'smirlik davri o'zining xilma-xilligi va murakkabligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda o'smirlarni voyaga yetkazishnin o'ziga xos qonuniyatlari, xususiyatlari, imloniyatlari, xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. O'smirlik davri taqlidchanligi, muqim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissyotlilik, mardligi, tantililgi bilan farqlanadi. O'smirlik davri xususiyatlarini tadqiq qilgan D.B. Elkonin va T.V.Dragunovlarning ta'kidlashicha, o'g'il-qizlarning bu davrda o'rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi, tengdoshlari jamoasining hayotiga qiziqishi yorqin namoyon bo'ladi. O'smir o'quvchilarning to'g'ri va to'liq ta'lim va tarbiya olishi uchun oila va maktabning o'rni beqiyosdir.

2. Muammoni bartaraf etishning asosiy yo'nalishlari

Mazkur muammoni bartaraf etishda quyidagi asosiy yo'nalishlar mavjud:

- Xulqida og'uvchanligi bo'lgan o'quvchilar, ularning sinf rahbarlari, ota-onalari bilan tizimli ishlash.
- Bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining oldini olishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.
- Maktab rahbariyati va jamoasi o'rtasidagi munosabatlarni kuzatish va turli muammoli vaziyatlarni oldini olish yuzasidan olib boriladigan tadbirlar o'tkazish.
- Psixologik profilaktika yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan ishlarni maqsadli va uzluksiz olib boorish.
- Psixologik diagnostika yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan ishlar.
- Psixologik korreksiya yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan ishlar,
- Psixologik maslahat yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan ishlar.
- Psixologik pedagogik konsiliumlar va ularni o'tkazish tartibi.
- Voyaga yetmagan bolalarni o'z joniga qasd qilish holatlarining oldini olishni amaliyotga muntazam joriy etish.

Sinfdagi o'quvchilar sonining tobora ortib borishi, maktabga jiddiy his-hayajon tangliklari bilan keladigan o'quvchilar sonining ortib borayotganligi va bilim va axloq darajalari turlicha bo'lgan o'quvchilardan iborat sinflar bilan ishlashga to'g'ri kelayotgan bir vaqtda, o'qituvchilar talabalarni rag'batlantirish va boshqarishning samaradorligini oshirishga tobora ko'proq ehtiyoj sezishmoqda. Turli xil jismoniy va ruhiy nuqsonlari mavjud o'quvchilarni sinflarga qo'shish harakatining kuchayib borayotganligi va sinflarda ta'lim borasida muammolari mavjud o'quvchilar sonining ko'payib borayotganligi va sinflarda ta'lim borasida muammolar mavjudligi o'quvchilar uchun psixologik muammo yaratishga sababchi bo'ladi.

O'sib kelayotgan yosh avlod ertangi kunimiz, kelajagimizning davomchilari ekanligini hisobga oladigan bo'lsak o'quvchilardagi mavjud psixologik muammolarni, jumladan xulq-atvorida "og'ish"i borlar bilan turli psixoprofilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish bugungi kunda o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

3. Maktabda psixologik muammolari bor o'quvchilar bilan psixologik maslahat o'tkazish shartlari.

Psixologik maslahat psixologik xizmatning obyektiga qarab o'zgarib rivojlanib o'zgarib boradi, bu esa individuallik, shaxsga yo'naltirilganlik tamoyiliga asoslanadi. Shuningdek, quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Bola tarbiyasidagi qiyinchilikni bartaraf etishning optimal psixologik yo'llarini aniqlash.
- O'smirning ichki ruhiy holatini: maqsadi, hayotga munosabati, o'z-o'ziga ishonchi, irodaviy – hissiy o'zini boshqarishni tahlil etib, shularga mos ravishda maslahat berish.
- Maqsadga erishishda o'smir bilan psixologik birgalikda harakat qilishi.
- Psixologik qiyinlikni bartaraf etish orqali o'smir hayotidagi ijtimoiy, shaxsiy vazifalarni hal etish.
- Ayniqsa, o'smirlar bilan ishlashda uning individual psixologik xususiyatlarini bilish, maslahat berishda aniq maqsad qo'yish.

Qolaversa amaliyotchi psixolog psixologik maslahat berishdan tashqari o'smirlar bilan reja asosida psixokorreksion mashg'ulotlarni yakka va guruhlar asosida olib borishi kerak bo'ladi. Maktablarda amaliyotchi psixologlar tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashda sinf rahbari ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, ota-onalar qo'mitasi, mahalla fuqarolar yig'ini, voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash inspektori, Yoshlar Ittifoqi, hududiy sport va madaniyat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirishi kerak. Psixologlar va pedagoglar tomonidan dezadaptatsiyalangan xulqning oldini olishga qaratilgan bir qator tavsiyalar ham ishlab chiqilgan. Ularning keltirgan tavsiyalariga ko'ra, sinf jamoasi a'zolarida sog'lom psixologik munosabat hissini shakllantirish va bu jamoada tarbiyasi qiyin o'smirlarga nisbatan ijobiy va faol munosabat ruhini keltirish biz aytgan muammolarga barham berar ekan.

4.Xulosa

Hozirgi davrning muhim xususiyatlaridan biri bugungi zamon talablariga mos keladigan, yangicha fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek : “Fikrlash, ishlash va yashash madaniyatiga ega bo'lgan mustaqil shaxsni voyaga yetkazishimiz kerak” . O'zbekiston Respublikasining “ Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”talablari asosida bolalarga

ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni milliy istiqlol g'oyalari asosida sog'lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir.

Afsuski, bugun maktablarimizdagi bir qancha o'quvchi yoshlarimizning ruhiyatida, xulq-atvorida muammolar uchrab turibdi. Ularning kelib chiqish sabablarini esa biz yuqorida ko'rib chiqdik. Lekin ularni bartaraf etilmasligi oqibati ko'plab salbiy holatlarga olib keladi. bu ham o'ziga va o'zgalarga qolaversa, butun jamiyatga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Shuning uchun bu jarayonda maktab amaliyotchi psixologi bir qator psixologik tadbirlar amalga oshirishi va mazkur o'quvchilar bilan ko'p suhbat uyushtirishi kerak. Shuning uchun biz ta'kidlaganimizdek maktab amaliyotchi psixologi psixologik xizmat sohasidagi bir qator yo'nalishlarini ishga solgan holda ruhiyatida buzilishlari bor o'quvchilar bilan birga psixokorreksion ishlarni amalga oshirishi va mavjud muammolarni bartaraf etishi kerak bo'ladi. Shuningdek, bu vazifalarni amalga oshirishda amaliyotchi psixolog bilan birgalikda sinf rahbari ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, ota-onalar qo'mitasi, mahalla fuqarolar yig'ini, voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash inspektori, Yoshlar Ittifoqi, hududiy sport va madaniyat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirishi kerak. Shundagina psixologik xizmatni to'laligicha amalga oshirgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adizova T.M.Psixokorreksiya. – Toshkent. Tafakkur.2010.150-b
2. Mahmudova D,A. Psixokorreksiya asoslari
3. Fan va texnologiya nashriyoti. 2011. 128-b

ЁШЛАРНИНГ ДУНЁҚАРАШИ ВА ХУЛҚ-АТВОРИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ

*Қаюмова Наргиза Турдалиевна
Чортоқ туманидаги 5-ДИМИ психологи*

Ҳар қандай одам ҳам ўсмирлик чоғида, эндигина вояга етиб келаётган даврида жамиятдан муносиб ўрнини топиши керак. Акс ҳолда бу нарса нохуш оқибатларга ҳам сабаб бўлади. Ёш йигит – қизларимизнинг ишда, турмушда, оила ва жамоа орасида ўз ўрнини тополмаслик ҳолатлари уларнинг жамиятда ўз қадрини йўқотишига олиб келади. Ўз қадрига, ўз шанига эга бўлмаган инсон ҳаётда кўп – кўп тўсиқларга дучор бўлади, унинг шахс сифатидаги емирилиши ҳам тез кечади.

Дин ниқобидаги мафкуравий таҳдидларнинг намоён бўлиш шакиллари. Ёшларнинг фаол ижтимоий кучга айланиб бораётгани бугунги кунда уларнинг турли мафкуравий таъсир ва таъсирларнинг бош объектга айланишига олиб келди. Бунда уларнинг жамиятнинг ҳали етарли тажрибага эга бўлмаган, ташқи таъсирларга тез берилувчан ва айни пайтда, энг ҳаракатчан қатлами экани инобатга олинмоқда. Ёшларнинг турли оқимларга кириб қолишлари сабаблари қаторида уларнинг билимлари, шу жумладан, диний илимларни эгаллашга бўлган қизиқиш ва интилиши ҳамда ишонувчанлиги, бирданига ва ҳамма нарсага (бойлик, шон-шуҳрат, мартаба ва ҳ.к) эга бўлишга ҳаракат қилиши, илмий тилда айтганда максимализм каби маънавий – руҳий омилларни алоҳида ажратиб кўрсатиш лозим. “Сен бу ташкилотга кириш ёки мана бу вазифани бажариш билан алоҳида, ҳар кимга ҳам насиб қилавермайдиган шарафли ишга қўл урган бўласан, керак бўлса, сен миллат, дин, инсониятнинг халоскорига айланасан!” , - деган қарашларни сингдириш жараёни айнан мана шу каби хусусиятларга алоҳида эътибор берилаётганини кўрсатади. “Ёшларнинг онгида қандай кайфият устунлигини айтсанг, мен сенга кейинги авлоднинг табиати қандай бўлишини айтиб бераман”, - деб ёзган эди сиёсий арбоблардан бири. Шу нуқтаи назардан қараганда, диний экстремистик оқимлар ҳам жамиятнинг эртанги кунини белгилаб берадиган авлод

онгини эгаллаш, назорат қилишни кўзлаб иш юритмоқда дейиш мумкин. Айниқса, ғоялар кураши авж олган бугунги кунимизда ёшлар маънавиятига тажовуз солаётган таҳдидлар қаторида, динни ниқоб қилиб, диний қадриятларимизни оёқости қилишга уринаётган экстремистик ва миссионерлик ҳаракатларининг фаоляти жиддий ташвиш уйғотмоқда. Шунинг билан бирга, диндан сиёсий мақсадларда фойдаланишга уриниш баъан мудҳиш ҳолатларнинг юз беришига олиб келмоқда.

Замонавий ижтимоий тармоқлар. Бугунги кунда дунё турли соҳаларда ўзгариб, шиддат билан ривожланиб бормоқда. Илм олиш, касб-кор билан шуғилланиш, инсонларнинг ўзаро мулоқат ва фикр алмашинувида ҳам янги янги ўзгаришлар бўлаётгани ҳеч кимга сир эмас. Интернет, уяли телефон, ижтимоий тармоқ орқали мулоқат ва ахборот алмашинувида хизмат килувчи фейсбук, твиттер, вайбер, телеграм, инстаграм каби дастурлар шулар жумласидандир. Илм-фаннинг ютуғи бўлмиш бу янгиликлар инсонларнинг узоғини яқин, мушкулини осон қилаётгани, олис масофадан туриб илм олиш, дунё янгиликларидан бир зумда воқиф бўлиши ва маълумотларни осон тарқатиш имконини бераётгани шубҳасиз. Бироқ, кейинги йилларда мазкур тармоқларнинг ёшлар тарбиясига салбий таъсир кўрсатаётган жиҳатлари ҳам кўзга ташланаётгани кўпчиликини ташвишга солиши табиий. Чунки келажагимиз пойдевори бўлган ёшларнинг соатлаб бу тармоқларда мақсадсиз ўтиришлари илм олиш, касб-хунар эгаллаш ва бошқа хайрли ишларга сарфланиши керак бўлган гулдек умрининг беҳуда ва бесамар кетишига сабаб бўлмоқда. Қолаверса, бугунги кунда ижтимоий тармоқларда тарқалаётган маълумотларнинг катта қисмини ёшлар маънавиятининг тубанлашувига туртки бўлувчи, миллий ва диний қадриятларимизга зид бўлган хабарлар, урф-одатлар ташкил этади. Интернет ва ижтимоий тармоқлардан фойдаланувчи ўзига-ўзи назоратчи бўлмоғи лозим. Чунки Интернет шундай мулоқат муҳитики, унда ижтимоий назорат ҳам, ён-атрофдагиларнинг назорати ҳам йўқ. Бунинг устига ҳозирда Интернет тармоғидаги кўплаб саҳифаларга фойдаланувчини асл мақсадидан чалғитишга мўлжалланган спам шаклидаги турли беҳаё суратлар, реклама видеороликларнинг жойлаштирилиши одатий ҳолга

айланиб қолди. Бундай шароитда ўзини-ўзи назорат қила олмайдиган, иродаси сушт ёшларнинг виртуал тармоқдаги беҳуда ва бешарм саҳифаларга чалғиб кетиш эҳтимоли катта. Шунингдек, Интернет орқали нотаниш суҳбатдош билан мулоқатда бўлаётган ёшлар учун тақиқланган мавзулардан гап очиш, хиссий, эҳтиросли суҳбатга берилиб кетиш хавфи бор. Бу эса, беҳаёлик, бузуқчилик каби турли кўнгилсиз ҳолатларга сабаб бўлиши мумкин.

Оммавий маданият. Ғарб дунёсида ўтган асрнинг иккинчи ярмида шаклланди. Мазкур тушунча турли ғоя, дунёқараш, мен, имиж ва бошқа ижтимоий феноменлар тўпламига нисбатан қўлланилади. Бу масалани тадқи этган мутахассислар фикрига кўра, “Оммавий маданият” феномени вужудга келишида реклама, мода, масс – медиа муҳандислиги, дизайн, хуллас онгга таъсир этувчи воситаларнинг аҳамияти катта. “Оммавий маданият” иллатининг мамлакатга кириб келиш оқибатида унинг қуйидаги кўринишларини алоҳида ажратиб кўрсатиш мумкин:

- ахлоқий бузуқлик ва зўравонлик;
- индивидуализм;
- эгоцентризм ғояларини тарқатиш, керак бўлса, шунинг ҳисобидан бойлик орттириш;
- бошқа халқларнинг неча минг йиллик анъана ва қадриятлари, турмуш таъризининг маънавий негизларига беписандлик, уларни купоришга қаратилган ҳаракат.

Юқоридаги сингари вазиятларни ҳисобга олган ҳолда, халқимиз, айниқса, ёш авлодни маънавий таҳдидлардан сақлаш, уларда соғлом дунёқарашни шакллантириш ва шу асосда оламда содир бўлаётган воқеа- ҳодисаларга тўғри муносабатни билдира олиш куникмасини ривожлантириш бугунги кундаги асосий вазифамиздир.

Ўзбекистон Республикаси биринчи президенти Ислам Каримовнинг “Юксак маънавият – енгилмас куч” асарида муаллиф буюк тарих, маданият ва маънавият эгаси бўлган халқнинг фарзанди, бугунги дунёда кечаётган глобал жараёнларининг маъно – мазмунини теран англайдиган, унинг мафкуравий, геосиёсий манзарасини аниқ тасаввур этадиган улкан тафаккур соҳиби, атоқли

давлат ва сиёсат арбоби сифатида кўпчиликини ўйлантираётган мураккаб муаммоларни холис ва ҳаққоний таҳлил қилиб берди. Ҳозирги шиддатли ва шавқатсиз замоннинг ҳар қайси миллат, жумладан, бизнинг халқимиз олдида қўяётган талабларини очиқ баён қилади: “Биз халқимизнинг дунёда ҳеч кимдан кам бўлмаслиги, фарзандларимизнинг биздан кўра кучли, билимли, доно ва албатта бахтли бўлиб яшаши учун бор куч ва имкониятларимизни сафарбар этаётган эканмиз, бу борада маънавий тарбия масаласи, ҳеч шубҳасиз, беқиёс аҳамият касб этади. Агар биз бу масалада ҳушёрлик ва сезгирлигимизни, қатъият ва масъулятимизни йўқотсак, бу ўта муҳим ишни ўз ҳолига, ўзибўларчиликка ташлаб қўядиган бўлсак, муқаддас кадриятларимизга йўғрилган ва улардан озиқланган маънавиятимиздан, тарихий хотирамиздан айрилиб, охир-оқибатда ўзимиз интилган умумбашарий тараққиёт йўлидан четга чиқиб қолишимиз мумкин”.

Болада муомала маданиятини шакллантириш, тарбия бериш, тўғри йул кўрсатишга ота-она масъул ва бурчлидир. Бу бизнинг миллий ва диний қарашларимизда ўз аксини топган. Ислом дини таълимотида инсонлар ўзаро ҳамиша ширинсуханлик ва самимийлик асосида муомала қилишлари лозимлиги таъкидланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ислом Каримов “Юксак маънавият – энгилмас куч” Т “Маънавият” 2008 й.
2. Ислом Каримов: “Ёшлар бугунги ва эртанги ҳаётимизнинг ҳал қилувчи кучидир” Тошкент “Маънавият” 2015 й.
3. Олим Тошбоев: Маънавий юксалиш йўлида Тошкент “Маънавият” 2008 й.

ЎСМИРЛИК ДАВРИГА ХОС АДДИКТИВ ХУЛҚ-АТВОР ПРОФИЛАКТИКАСИ

Дадабаева Зулайҳо Юсуповна
Наманган вилояти Чуст тумани 76-мактаб психологи

Аддиктив хулқ муаммоси назарий таҳлилининг кўрсатишича, хулқ бузилишларининг асосини ижтимоий ва психологик дезадаптацияга олиб келувчи «оғиш»лар ташкил этади. Ҳозирда турли ёш даврларига хос хулқ оғишларининг психопрофилактикаси ва коррекцияси хусусидаги масалага ойдинлик киритишга эътибор ҳаддан зиёд ортган. Бу эса мазкур шахс структурасини ташкил этувчи барча компонентлар жумладан, марказий негиз тарзидаги шахснинг мотивацион-эҳтиёж жабҳаси, шунингдек, хулқ оғишларининг ўзаро узвий, органик, интеграл боғлиқликдаги ўзгаришларини ўрганишдек вазифани юклайди.

Аксарият ҳолларда компьютер аддикциясига учраган инсонларни ҳудди гиёҳвандларни даволагандек клиникаларда турли методлар билан даволанади. Бу муаммонинг бошқа усулдаги ечимлари бор лекин, ҳаммаси ҳам самара беравермайди. Айрим методларнинг етарлича самара бермаслиги компьютердан фойдаланувчиларнинг ўзи ёки яқинлари масалан, ота-онаси, оила аъзолари, дўстлари касалликнинг бошланиш хавфи белгиларига аҳамият бермай, касаллик авжига чиққандагина мутахассисларга мурожаат қиладилар. Бундан ташқари фойдаланувчилар ва уларнинг ота-оналари, ўқитувчилари биринчи тобелик аломатлари ва уни бартараф этиш профилактик методлари ҳақида етарлича маълумотларга эга эмаслар.

Шу сабабли айнан мутахассислар, ота-оналар учун қуйидаги стратегик ва профилактик усулларни таклиф этамиз:

- ота-она ўзи фарзанди учун намуна бўлиши керак. Қуруқ сўз эмас, амалда кўрсатиши керак. Агар ота ўғли учун бир кунда 1 соат компьютерга рухсат берган бўлса, ўзи ҳам шунга амал қилиши лозим;

- компьютер билан ўтадиган вақт ота-она томонидан назорат қилиниши ва чегараланиши керак. Тўсатдан чеклаб қўйиш мумкин эмас. Агар болада компьютерга мойиллик бўлса, у оддий кунларда 2 соат, дам олиш кунларида 3 соат (танаффуслар билан) вақт ўтказиши мумкин;

- вақтни мазмунли ўтказишнинг бошқа вариантларини таклиф қилиш. Бўш вақтда ўтказиладиган машғулотлар жадвалини тузиб қўйиш мумкин. Бу жадвалга ҳамкорликда қилинадиган ишлар яъни кино ва театрга бориш, табиат қўйнига саёҳат, шахмат-шашка ўйнаш ва ҳ.з. киритилиши мумкин;

- компьютердан болани тарбиялашнинг самарали воситаси, мукофотлаш сифатида масалан, ўз вақтида яхши бажарилган иш, уй вазифалари учун, ўқишдаги ютуқлари учун фойдаланиш мумкин;

- бола компьютерда нима қиляпти? Қайси ўйинни ўйнаяпти ёки интернетда нима билан қизиқаяпти? Қайси сайтларга кираяпти? Ҳаммасини назорат қилиш керак. Чунки баъзи ўйинлар бола руҳиятига салбий таъсир этиши мумкин. Уйқусизлик, тажанглик, агрессивлик ва кўркув ҳолатлари кузатилиши мумкин;

- ўйинларни бола билан муҳокама қилиш. Болани ривожлантирувчи, ақлини ўстирувчи, диққатини жамловчи ўйинларга қизиқтириш. Шу билан бирга компьютер ўйинларига танқидий назар билан қарашга ўргатиш, ҳаётда бундан ҳам қизиқ нарсалар борлигини тушунтириш, компьютер ўйинлари бошқа муносабатларнинг ўрнини боса олмаслигини айтиб, тарбиялаб бориш;

- агар ота-она болани бу йўлдан қайтара олмаса, кучи етмаса, психологларга мурожаат қилиши, махсус марказларга олиб бориши керак.

Аддиктив хулқ-атвор профилактикаси айниқса, ўсмирлик даврида катта аҳамиятга эга. Лекин фойдаланувчи қайси ёшда бўлмасин, аддиктивлик энди шаклланаётган даврга кўпроқ эътибор бериш керак. Биз таклиф этаётган компьютерга тобелик профилактик технология ўсмирларнинг руҳий мослашувига, шахслараро муносабатларини яхшилашга, уларнинг компьютер тобелигининг ривожланиш белгилари ва унинг салбий таъсири ҳақидаги маълумотлар билан танишувига йўналтирилган.

Таълимий технология структурасида эса бутун жамият учун интернетдан ҳаддан ташқари кўп фойдаланиш муаммолари бўйича ўқув дастурлари бор. Умумтаълим мактаблари ўқувчилари, лицей, коллеж ўқувчиларининг ота-оналари учун дастурлар мавжуд. Асосий мақсад-ота-она ва фарзанд ўртасидаги муносабатларни яхшилаш, аддиктив стереотиплардан қочиб, эмоционал қўллаб-қувватлашга урғу бериш. Яъни қаттиққўллик билан эмас, балки дўстона муносабатлар ўрнатиб, мулоимлик билан, ота-онанинг ўзи намуна кўрсатиб тушунтириш ишлари олиб бориш кераклиги ҳақида ота-оналар учун насиҳатлар. Бундан ташқари педагоглар, психологлар ва ижтимоий ходимлар учун ўқув дастурлари, компьютер клублари ходимлари учун дастурда компьютердан фойдаланувчилар учун қонун-қоидалар (бир кунлик юклама, ёшга доир нашрлар) ишлаб чиқишдан иборат.

Мактаб ўқувчилари, лицей ва коллеж ўқувчилари учун ўқув дастурларининг мазмуни (аддиктив хулқ-атвор тобора кўпайиб ва чуқурлашиб бораётгани, унинг оқибатлари ҳақида ёзилган) шахсга йўналтирилган таълимга асосланиб, унда персонал компьютерлардан фойдаланиш ўргатилади.

Бандлик технологиясининг аҳамияти беқиёс бўлиб, айниқса, ўсмирлик даврида ҳаётда ўз ўрнини топиш жуда муҳим ҳисобланади. Тўғарак ишлари - спорт секциялари, тўғараклар эса бўш вақт заҳирасини тўлдиради ва вазифалар сонини кўпайтиради. Булар нафақат вақтни, балки диққатни жамлайди. Вақтинчалик ёки қисман ишга жойлашишлар ёшларнинг қизиқишларини, истеъдодини аниқлаб беради.

Оилавий технологиялар ҳам муҳим рол ўйнайди. Оиладаги гармонал муносабатларнинг шаклланиши, ота-она ўртасидаги ишонч ва ўзаро ҳурмат, ота-она ва бола ўртасидаги илиқ муносабатлар, оила аъзоларининг умумий қизиқишлари боланинг тўлақонли ижобий тарбияланишининг ажратиб бўлмас бўлагидир. Ўсмир ота-она назоратига муҳтожлик сезади. Унинг мустақиллиги ва ўз шахсий ҳаётида муҳим қарорлар қабул қилишида ота-онанинг ўрни муҳим аҳамият касб этади.

*Диний технология*нинг мазмун-моҳияти шундан иборатки, агар ўсмир кучли эътиқод эгаси қилиб тарбияланса, унда илоҳий кучлилик, маънавий бойлик каби ҳислатлар тарбияланса, у аддиктивликка қарши тура олади. Маънавий ривожланиш ўсмирнинг ўзини ҳурмат қилишга, ҳаётининг кадрига етишига, катталарга иззатда бўлишга, кадриятларни кадрлашга ўргатади. Бу фазилатлар эса келажакдаги шахслараро муносабатларнинг ривожланишига мустаҳкам фундамент яратади.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, ҳозирги кунда ўсмирларнинг интернетга тобелигини батараф қилиш учун нафақат таълим тарбия жараёнида, балки барча ижтимоий муҳит шароитида фаолият олиб бориш мақсадга мувофиқдир. Зеро, интернетга тобе бўлиб қолишини коррекциялашдан кўра, психопрофилактика қилиш, яъни олдини олиш ижобий натижанинг асосий омилдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Г.Қ.Тўлаганова, Д.Ш. Ваҳобова Аддиктив хулқ психологияси. Тошкент, “Ворис- нашриёт”, 2015
2. Л.Н. Юрьева, Т.Ю. Больбот. Компьютерная зависимость: формирование, диагностика, лечение и профилактика. Монография. Днепропетровск "Пороги", 2006.
3. Интернет-зависимость: психологическая природа и динамика развития / Сост. и ред. [А. Е. Войскунский](#) М.: Акрополь, 2009.

O'SPIRINLIK DAVRIDA STRESS HOLATI VA UNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

*Ro'ziyeva Dilafroz Rahmat qizi
Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani 40-maktab psixologi*

Kundalik hayotning tobora shiddatli tus olayotgani insonga bo'layotgan axborot xurujining ko'pligi, ijtimoiy muammolarning haddan ziyod zidlashuvi natijasida asablarning taranglashishi juda ko'p insonlarni stress holatiga duchor etmoqda. O'z navatiga ko'ra o'spirinlik davri xam udan mustasno emas. Bu kabi muammolar insonlarning yosh davrlar psixologiyasiga ko'ra har xil namoyon bo'ladi. Olimning

talqiniga binoan, go'daklik hayvonlarga xos taraqqiyot pallasini qaytarsa, bolalik davri esa qadimgi odamlarning asosiy mashg'uloti bo'lgan ovchilik va baliqchilik davriga aynan mos keladi. 8-12 yosh oralig'ida o'sish davri o'smir oldi yoshidan iborat bolib, toki 12-13 yoshga qadar davom etadi. Bu davr olimlar tili bilan aytganda yovvoyilikning oxiri va sivilizatsiyaning boshlanishidagi kamolot cho'qqisiga hamohangdir. O'spirinlik esa jinsiy yetilishidan (12-13) boshlanib, to yetuklik davri kirib kelgunga qadar (22-25 yoshgacha) davom etib boradi.

Psixologik zo'riqishlar organizmning turli funksional tizimlaridagi o'zgarishlarda namoyon bo'lsa, uning jadalligi yoki kuchi kayfiyatning buzilishidan tortib, oshqozon yarasi yoki yurak infarktigacha olib kelishi mumkin. Hissiy zo'riqishlarning namoyon bo'lishi har bir shaxs uchun turlicha bo'ladi. Kimdadir kayfiyat yoki hayajon bo'lsa, kimdadir stres va tushkunlik ko'rinishida o'tadi. Kun tartibining buzilishi, uyquning qisqarishi, ish vaqtining tungi davrga o'tib qolishi, foydali odatlardan voz kechish, hissiy zo'riqishlarni bartaraf etishning mos keluvchi usullarini topa olmaslikda ko'rinadi. Ijtimoiy rollarga xos vazifalardagi buzilishlar, yaqinlar va do'stlar bilan munosabatga yetarlicha vaqt yetishmasligi, nizolarning kuchayishi, muloqot davomida sezgirlikning pasayishi, ijtimoiy qoidalarga zid xulq-atvor belgilarining ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, uzoq muddat hissiy zoriqishda bo'lgan o'spirin ijtimoiy me'yor va standartlarga e'tiborsiz bo'lib qoladi. Hatto o'zining tashqi ko'rinishiga ham e'tibor bermasligi mumkin. Bunda muhim ob'ektlar ustida diqqatning to'planishi qiyinlashadi, tez chalg'ish kuzatiladi.

Ongning doimo hissiy zo'riqishni vujudga keltirgan sabablarini tahlil qilish bilan bandligi, undan chiqish yo'llarini axtarish xotira ko'lamini toraytiradi, zarur materialni qayta esga tushirishni qiyinlashtiradi. Aqliy faoliyatning susayishi stressni vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan vaziyatdan chiqish yo'llarini topishni cheklaydi.

Bu salbiy ko'rsatkichlarni bartaraf etish eng katta vazifalardan biridir. Psixologiya fanining markaziy kategoriyasi hisoblanmish shaxs ijtimoiy hayotning barcha sohalarida muayyan funksiyalarni bajarish orqali jamiyatning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. O'spirinlik davrida psixologik muammolarni bartaraf etish hamda tarbiyalash masalalari hozirgi davrning eng dolzarb muammosiga aylangan. Bugungi kunda kelajak

avlodga taʼsir qilayotgan hamda uning kechinmalarini oʻzgartiradigan ichki va tashqi omillarni koʻz oldimizga keltirish juda qiyin. Shunday qilib stress oʻzi nima?

Stress – inglizcha (stress) soʻzidan olingan boʻlib, asabiylik, keskinlik degan maʼnolarni anglatadi. Asabiylik turli jismoniy va aqliy ishlar xaddan oshib ketishi, xavfli vaziyat tugʻilgan paytlarda, zarur choralarni zudlik bilan topishga majbur boʻlganda vujudga keladigan ruhiy holatdir. Stressning psixologik taʼrifiga kora affektiv holatga yaqin turadi. Stress kishining oʻta faol yoki oʻta sust harakatida ifodalanadi. Hissiy zoʻriqish holatida individning hatti-harakati kishi nerv tizimining tipiga, nerv jarayonlarining kuchliligi yoki oʻjizligiga jiddiy ravishda bogʻliqdir. (Masalan, imtihon oldidagi holat). His-tuygʻularning hissiyot (emotsiyalar), kayfiyatlar, kuchli hayajonlanish tarzida boshdan kechirilishi chogʻida maʼlum darajada seziladigan tashqi belgilariga ham ega boʻladi. Yuzning ifodali harakatlari (mimika), qoʻl va gavdaning maʼnoli harakatlari, kabilar shular jumlasiga kiradi. Kishi oʻzining qahr-gʻazabini tevarak atrofdagilarga qoʻllarini musht qilishi, koʻzlarini chimirib qarash, doʻq – poʻpisali ohang bilan namoyish qiladi.

Stressning sodir boʻlishiga asosan ikki yoʻnalishdagi omillar sabab boʻladi:

Ish faoliyatidan qoniqmaslik stressga sabab boʻluvchi eng muhim omillardan hisoblanadi. Oʻspirin undan nima kutilayotganligini, bu ishni qanday qilish kerakligi va bu ish qanday baholanishini bilsagina xotirjam ishlaydi. Ish qobiliyati va omadsizlik inson salomatligiga qattiq taʼsir koʻrsatadi. Haddan tashqari koʻp ish yoki, aksincha, ishsizlik xam stressga olib keladi. Bunday sabablar tufayli sodir boʻlgan asabiylashish eng koʻp tarqalgandir. Tekshirishlar shuni koʻrsatadiki, ish qancha qiziqarli boʻlsa, inson shuncha kam bezovtalanadi, kam betob boʻladi. Yana bu sabablarga qoʻshimcha yomon ish sharoitlari, ish jarayonida odamlarning bir-biriga asossiz talablarni qoʻyishi, oʻquvsiz ota-onaningning oʻquvsiz muomalasi, demotivlashtirishning ustuvor ekanligi va boshqalar ham stressni vujudga keltiradi. Xullas oʻspirinlik davrida stressni bartaraf etish, uning tasir doirasini kamaytirish eng muhim choradir. Eng avvalo nazorat koʻproq natija beradi. Stressni bartarafetishda asosan inson sabr-qanoatli boʻlish, har qanday mushkul vaziyatga tayyor boʻlish, oʻzini chalgʻitish lozim. Mashakqatli mehnatni yaxshi dam bilan birga olib

borish, hech bo'lmasa bir oz orom olish, tinchlanish kerak. Ishda xush fe'l, tavozelik bo'lish, o'zaro hurmat va xushmuomalali inson bo'lish lozim.

Stressni bartaraf etish uchun birinchi navbatda shaxs psixologik jihatdan tashqi ta'sirlarga nisbatan ongli munosabat (psixologik immunitet)ni shakllantira olishi zarur.

1. Har qanday stress holatini yengish uchun uni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash va xolisona baholash darkor.

2. Yuz bergan stress holatini bartaraf etish uchun aniq yo'l-yo'riq izlab topish kerak.

3. Biror muammo va tashvishga duchor bo'lsangiz, bu haqda kamroq o'ylashga va doimo nima bilandir band bolishga harakat qiling. Mehnat sizning qalbingizdan behalovatlik tuyg'usini siqib chiqaradi.

4. Arzimagan narsalarni deb asabingizni yeb tugatmang. Hayotda nima muhim va nomuhimligini anglab oling. Arzimas narsalarning aksariyati umringizni qisqartiradi.

Stress holatiga tushgan shaxs xuddi shu stressga qarshi quyidagi usul va vositalarni qo'llash yaxshi natija beradi:

a) stress holatiga nisbatan antistress kayfiyatini shakllantirish (ro'y bergan vaziyat, holat, emotsiyalarga nisbatan o'z ruhiyatidagi munosabatni o'zgartirish);

b) ko'proq jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish (badantarbiya, sport turi, jismoniy mehnat);

v) o'z-o'zini bo'shashtirish (rasslabneniya) tananing oyoq uchi qismidan to qo'l barmoqlarigacha bo'shashishga erishish ;

g) autotrening (O'z-o'zini ishontirish)

d) relaksatsiya (o'z-o'zini yengillashtirish) orqali stress holatiga barham berish mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilib shuni aytish mumkinki: Stress,nafaqat o'spirinlik,balki barcha yosh davrlarida xam shaxs taraqqiyotiga muxim to'siq bo'luvchi omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.G'oziyev "Umumiy psixologiya" Toshkent 2008 y.
2. Y.Jumanazarov"Yosh davrlar psixologiyasi" Namangan 2013 y.

3. Т. Sodiqova “Sevib qolgan qizning onasiga maslahat” qo’llanma. Toshkent 2018.

ПЕДАГОГ НУТҚИ ПСИХОЛОГИЯСИ

Ахмедова Муяссар Хадиматовна
Низомий номидаги ТДПУ Умумий психология кафедраси
доценти, психология фанлари номзоди,
Рахмонов Жахонгир Нуржав ўғли
Табиий фанлар факультети География ва иқтисодий билим асослари
йўналиши 103-гуруҳ талабаси

Ҳаётимиздаги сўзлар тилнинг ифода воситаси бўлиб, тингловчининг онгида у ёки бу фикрни ўзгартириш учун хизмат қилади. Демак, тил ҳар қанча зўр бўлмасин, у нутқ учун қурол сифатида хизмат қилади. Унинг куч-қудрати нутқ жараёнида намоён бўлади.

Кимдир оғзаки нутққа моҳир бўлса, кимдир ёзма нутққа. Нотиқлар аслида, ҳар иккаласининг ҳам устаси бўлиши керак. Оғзаки нутқнинг ҳам, ёзма нутқнинг ҳам ўз талаблари, имконият доираси бор.

Оғзаки нутқда шевачилик таъсири сезилиб туради. Биз қайси вилоятнинг, қайси гўшасидан бўлмайдик, нутқимизда маълум муддат яшаган маконимизнинг сўзлашувига хос таъсири бўлади. Бу нутқ товушларнинг талаффузида ёки шевага хос сўз ва иборларни қўллашда акс этади.

Маълумки, педагог нутқи психологияси ранг-баранг. Буни жамиятдаги педагогик жараён ва ундаги натижалар асосида ҳам кўришимиз мумкин. Педагог аудитория билан, тарбияланувчи билан муносабат ва муомилада психологик сўз ҳамда нутқдан тўғри фойдалана олиши лозим. Яъни, берилаётган таълим-тарбия, етказётган ахбороти билан бошқаларнинг фикр ва тасавурларини уйғота олиши, тўғри йўл кўрсата билиши керак. Бу жараёнда эса педагогнинг психологик нутқ қоидаларидан хабардор бўлиши лозим. Педагог етказиши лозим бўлган

маълумотларнинг қизиқарли ва аҳамиятли бўлиши учун нутқнинг психологик услубидан фойдаланиши мақсадга мувофиқ бўлади.

Педагог психологиясида билиш ақлий имконияти, фикрашнинг ривожланган бўлиши кўп нарсани белгилайди. Психологларнинг фикрича: «фикрлаш инсон фаолиятининг воқеликка нисбатан аксини кўрсатувчи шакли бўлиб, аслида воқеликка нисбатан ёки субъектга нисбатан ҳам айни пайтда вақт тушунчасини унутадиган даражада тасаввур берадиган натижани вужудга келтиради». Шу нуқтаи назардан қараганда, фикрлаш қандайдир вазифани ҳал қилишга қаратилган бўлади. Қолаверса, у ақлий ва амалий фаолиятнинг билишга олиб борувчи аниқ ҳаракат ва йўлларига асосланган фаолияти ҳисобланади.

Нутқнинг тозалиги деганда энг аввало, унинг адабий тилнинг лисоний нормасига мувофиқ келиш - келмаслиги тушунилади. Дарҳақиқат, яхши, тоза нутқ ҳозирги ўзбек адабий тили талабларига мос ҳолда тузилган бўлиши, турли тил, ғайриадабий тил элементларидан ҳоли бўлиши керак. Нутқимизнинг софлигига, асосан, қуйидагилар ҳалақит беради: 1) маҳаллий диалект ва шеваларга хос сўз, ибора, шунингдек, грамматик шакллар, сўз ва сўз бирикмаларининг талаффузи, урғуси; 2) ўринсиз қўлланган чет сўз ва сўз бирикмалари; 3) жаргонлар; 4) вулгаризмлар; 5) нутқда ортиқча такрорланадиган «паразит» сўзлар.

Санаб ўтилганлардан ўринсиз фойдаланиш кундалик нутқни ҳам, бадиий нутқни ҳам хиралаштиради. Ҳар бир сўзловчи ўз нутқининг адабий нормалар даражасида бўлиши учун ҳаракат қилиши лозим. Ўз шевасига хос бўлган тил воситаларини нутққа ўринсиз олиб кириш нутқни бузади. Лекин диалектизм ва варваризмлар бадиий асар тилида маълум бадиий - эстетик вазифани бажариши, муаллифнинг маълум ғоясини, ниятини амалга оширишга хизмат қилиши ҳам мумкин.

Аслида, содда сўзлаш, содда ёзиш мураккаб. Кекса ёзувчиларнинг биридан: “ёзиш санъатида ортирган тажриба ва хулосангиз қайси?” - деб сўрашибди. “Англаб етганим шуки, энг машаққатли, мураккаб иш – содда ёзиш экан”, - деб

жавоб берибди⁵. Бурама жумлалардан қочиш, иборали гапларни ишлатишдан ўзни тийиш, сўз жимжимадорлигидан кўра фикр беагага кўпроқ эътибор қилиш муҳимдир. Акс ҳолда, тингловчи фикри чалғийди, тушунишда мавҳумлик бўлади.

Нутқ бойлиги фикрни раво, жозибали, эътиборли қабул қилинишига замин ҳозирлайди. Бадиий ва илмий манбаларни ўқиш, нотиқлар нутқини тинглаш, эшитганда ҳам эътибор билан ўрганиш, улар жумласи, интонацияси кабиларни таҳлил қилиш ва ўзлаштириш нутқ маҳорати хусусиятларини ўзлаштиришга ундайди.

Кўп сўз заҳирасига эга бўлишлик ва ундан унумли, ўринли фойдалана олиш тележурналистнинг нутқий маҳоратини муҳим белдирди.

Сўз такрори эзмалик ва сўзга камбағалликдир. Сўзларнинг ҳаракатига кўра турлари мавжуд. Яъни: синонимик, омонимик, хусусиятларни билиш нутқ чиройини белгилайди. Педагоглар нутқий нафосатнинг ана шу жиҳатларни кўп ҳам ҳис этавермайдилар.

Волфганг Гёте бир жамоада маъруза қилади. Ҳамма уни олқишлайди. Маъруза ниҳоятда, жонли ва оммани талабини тўла қондиради. Шунда Гётенинг ёнига келиб, “биз ҳеч қачон бундай маъруза тингламаганмиз. Эшитган бўлсак ҳам, бу даражада қаноатланмаганмиз. Бунинг учун қанча вақт сарфлагансиз?” – деб сўрашади.

Гёте шундай жавоб беради: Бутун умр бўйи ва яна икки соат.

Демак, маърузани тайёрлаш учун икки соат сарфланган. Лекин ана шу сарфланган маърузада унинг умрлик тажрибаси, билими, малакаси, лўнда қилиб айтганда, ўзлиги акс этган.

Таниқли суҳбатдон ва нотиқларнинг нутқини ҳамда иш услубини ўрганиш ҳам нотиқлик маҳоратини эгаллашда муҳим манба ҳисобланади. Ҳар бир нотиқ ўзига хос услубга, билимга ва ҳислатга эга бўлгани учун унинг нутқи ўзгаларникидан фарқ қилади. Шу сабабли таниқли нотиқларнинг нутқига кўр-кўрона тақлид қилиш ва такрорлаш яхши самара бермайди. Шунга қарамасдан, улар фойдаланган услуб

⁵ Т.Кудратов. “Нутқ маданияти асослари” -Т. 1993. 7-бет.

ва имкониятлардан онгли ҳамда ижодий фойдаланиш мумкин. Ҳар бир нутқнинг ўзига хос мавзуси ва муаммолари мавжуд. Ана шу муаммо ва мавзунини эътиборга олган ҳолда нутқни тузиш лозим.

Омма олдида айтиладиган матнни тузишда далилларнинг аниқлиги ва тушунарли бўлиши алоҳида аҳамиятга эга. Нотиқ нутқини ўқиб бермаслиги лозим. Чунки, ўқилган ҳар қандай нутқнинг таъсири ва аҳамияти кам бўлади. Нутқ тартибга солингандан сўнг уни ўрганиб чиқиш ҳамда қайта-қайта машқ қилиш зарур.

Сўз ва нутқ воситасида яқка шахс ёки жамоа билан муносабатда бўлишга қаратилган касб эгалари – ўқтувчи, журналист, муҳбир, шарҳловчи, ҳуқуқшунос, адвокат, маърузачилар учун нутқий омилларни пухта билиш, амалда қўллаш олиш кенг имкониятлар яратади.

Нутқий фаолият, нутқий кўникма, нутқий малака ана шуларни тақозо этадики, нутқий маданият ва нутқий техникани тўла эгаласдан нотқилик шарафига эришиш мумкин эмас. Иқир-чиқирдан муҳим фикрга ўта билиш, лўнда ибора, таъсирчанлик ва эҳтирос, жўшқинлик, ўзидаги ҳиссиётни ўзгага ўтказиш билиш, кузатувчанлик, зийраклик, омма эътиборини бир маромда ушлаб туриш, вазиятга мос ва хос сўз топа билиш кабилар талаблар нутқини такомиллаштиради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Жуманиёзов.Р. “Нутқий маҳорат”.Т., Адолат.2005. 75 б.
2. Лектор ва сўз санъати. “Ўзбекистон”,1975.
3. Жинкин Н.И. Язык. Речь. Творчество. М. 1998.
4. Харрис Дж. Психология массовых коммуникаций. -М.: 2001.

MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGI VA PEDAGOG JAMOANING O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHI BO'YICHA TAVSIYALAR

Nozimaxon Saipova Go'furjon qizi
Andijon viloyati Asaka tumani 25-maktab psixologi

Maktab psixologi, o'qituvchisi va umuman har bir tarbiyachi uchun bolalarning o'smirlik davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtai nazaridan ham pedagogik nuqtai nazaridan ham muximdir. Bu davrni biz yana o'tish davri ham deb ataymiz. O'smirlik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o'z ichiga qamrab oladi, ya'ni 5-8 sinf o'quvchilarini. O'smir o'quvchilarni ta'lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va hususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi. Kichik va katta yoshdagi maktab o'quvchilariga qaraganda o'smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko'p qiyinchiliklar bo'ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda kiyin kechadi. Bu jarayon o'smirlar psixologiyasining odamlar bilan bo'lgan munosabat formalarining jiddiy ravishda o'zgarishi, hamda hayot sharoitining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Bu davrda o'smirlarning o'z shaxsiy fikrlari paydo bo'ladi. Ularda o'z qadriyatlarini haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologiyaning aniqlashi bo'yicha o'smirlarning psixik taraqqiyotini xarakatga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatlari bilan tug'iladigan extiyojlar bilan bu extiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir. Qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotini, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik hususiyatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilishdan iboratdir. Shundan keyin psixik taraqqiyotning yuksakroq bosqichiga o'tiladi. Sana shu nuqtai nazardan o'smirlik yoshini yanada oydinroq qarab chiqaylik. Bola boshlang'ich sinfni tugatadi. Bolaning o'rta maktabda o'qishga o'tishi uning hayotida burilish davri hisoblanadi. O'smirlarning yangi ijtimoiy jixatdan tashkil topgan va rang-baranglantirilgan faoliyatni uning psixologik hamda shaxsning tarkib

topishiga asos, sharoit va vosita xizmat qiladi. Shunday qilib, o`smirlarga ta`lim-tarbiya berishning yangi to`g`ri usullari hamda vositalarni topishi uchun o`smirlik yoshining o`ziga xos hususiyatlarini jismoniy va psixologik taraqqiyotini yaxshi bilishimiz kerak. O`smirlik yoshining mazmuniy xarakteritsikasi vaqt o`tishi bilan o`zgarib boradi, chunki inson xayotining xususan ijtimoiy sharoitlari o`zgaradi.

Psixologiya taraqqiyotining biologik omillariga o`smirlar ongiga og`ir, ba`zan kuchi etmaydigan bo`lib tushadigan, ularni jiddiy psixik inqirozga va hayajonga soladigan, masalan: o`smirlar uchun xarakterli bo`lgan norozilik, qo`pollik, qaysarlik, o`z-o`zini analiz qilishga moyillik sub`ektiv olamga va shunga o`xshash hislatlarni keltiradigan jinsiy etilishga nixoyatda katta axamiyat beradilar. Jinsiy yetilish munosabati bilan paydo bo`ladigan yangi sezgilar fikrlar, maylliklar, kechinmalar guyo usmirlar ongida xukmron bo`ladi. Ularning xulki atvorini belgilaydi. Mana shu tarika oqibat natijada o`smirlarning psixologik qiyofalari asosan yolg`iz sof biologik omil deb qaraladi. Psixologlarning fikricha yosh psixologik xususiyatlari faqatgina yolg`iz biologik jihatidan etilishi va taraqqiyot etilishining natijasi bo`lmay balki bolaning ijtimoiy hayot sharoitlari va faoliyatlarining o`zgarishi hamda bu jihatdan yangi ijtimoiy omillarning paydo bo`lishi natijasida o`smirning taraqqiyotiga va unga beriladigan maktabdagi ta`lim va tarbiya berishni aniq tashkil qilish o`smirlarning konkret hayot sharoitlari va faoliyatning mahsuli deb qarab bo`lmaydi.

Boshqacha qilib aytganda ijtimoiy sharoitlar rolini konkret hayot sharoitlari va faoliyatlarining rolga almashtirib bo`lmaydi. Mana shu yuqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, o`smirning yoshi va uning hususiyatlari absolyut ahamiyatli kasb etmaydi shu munosabat bilan o`smirlik yoshi mutloqo aniq ma`lum va absolyut chegara hamda xarakteritsikaga ega emas bu erda ancha muhim bo`lgan ma`lum fikrlar bor. Bu farqlarni konkret ijtimoiy omillarning ta`siri bilan va o`smirlarga beriladigan turli ta`lim va tarbiya sharoitlarining ta`siri bilan tushuntirish mumkin. Taraqqiyotning asosiy yo`nalishi bolaning o`smirlik davridagi taraqqiyotining asosiy xarakteritsikasini ajratish mumkin. O`smirlik davri organizmning jo`shqin o`sish davridir. Bu davrda tananing intensiv ravishda rivojlanishi yuzaga keladi, Musqo`l apparatlari mutsahkamlanadi va skeletning suyaklanish jarayoni davom etadi. O`smirlarning yoshi ham jismoniy psixik

hususiyatga egadir,organizm Pavlov ta'limotiga ko'ra,bir butun sitsemadan iborat bo`lib,bunda barcha to`qimalar va organlar fiziologik jarayonlar uzviy ravishda bir-biri bilan bog`langan bo`ladi.

O`qituvchilar va sinf rahbarlari datsavval shuni chuqur anglashlari lozimki,jinsiy yetilish organizmning jismoniy taraqqiyotiga ta'sir qilishdan ularning psixik rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.O'smirlarda jinsiy etilish bilan birga shu paytgacha ularga noma'lum bo`lgan qandaydir xislar,kechinmalar qarama-qarshi jinsga spetsifik qiziqish noma'lum mazmundagi kitoblarga qiziqishlarning paydo bo`lishi tabiiydir. O'smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo'la boshlaydi. Chunki bu davrdagi o'quvchilar atrof-olamdagi boglanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o'smirning bilishga bo`lgan qiziqishida progress sodir bo`ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Buning ta'sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyat paydo bo`ladi. Maktabda o`qitiladigan fanlar o'smir uchun o`z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo`lib xizmat qiladi J.Piajening ta'kidlashicha, "Ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri - til, mazmun, koidalar asosida shakllantiriladi". Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z-o'zidan tafakkurini yangi imkoniyatlarini yaratadi. 11-12 yoshdan boshlab o'smir endi mantiqiy fikrlab xarakat qila boshlaydi O'smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovai taxlil etishni o`rgana boshlaydi. O'smir tafakkurning nazariy darajaga kanchalik tez ko'tarila olishi, o`quv materiallarini tez va chuqur egallashi uning intellektini xam rivojlanishini belgilab beradi. O'smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik o'ta qizikuvchanlik xamda atrofdagilarga o'z layokatlarini namoyish etish, shuningdek, ularda yuqori baxo olish extiejning mavjudligi bilan belgilanadi usmirning kattalarga beradigan savollri mazmunli, muloxazali va aynan o'sha masala doirasida bo`ladi. Bu yoshdagi bolalar turli-farazlarni keltira oladilar taxminiy fikr yuritib, tadvikot utkaza oladilar xamda matlum bir masala buyicha mukobil variantlarni takkoslay oladilar. O'smir tafakkur ko'pincha umumlashtirishga moyil bo`ladi. Respublikamizning bozor iqtisodi sharoitida o'tishda kishilardagi amaliy

tafakkurning axamiyati oshmoqda. Amaliy tafakkur tizimiga quyidagi aqliy sifatlar kiradi:

Ko'rsatilgan barcha sifatlar mavjud bo'lgan taqdirdagina amaliy tafakkurini rivojlangan deb xisoblash mumkin. Bu sifatlarni 1 sinfdanoq rivojlantira borish nixoyatda muxim usmirlik davrida ishbilarmonlik sifatini o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishni yo'lga qo'yishi umumiy foydali tadbirkorlik ishlarida ishtirok etishi orqali rivojlantirish mumkin. Shu va shunga o'xshash yuksak insoniy xususiyatlar va aniq kelajak maqsadini ko'ra bilgan o'smir o'quvchilarni ko'paytirish orqaligina maktab psixologi, pedagogik jamoagi tarbiyachilarni biz haqiqiy tarbiyachi deb atay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davletshin M.G. Hozirgi zamon maktabining o'qituvchisi psixologiyasi. – T.: «O'zbekiston» 1999.- 123b
2. Goziyev E.G. Oliy maktab psixologiyasi. T, ToshDU, 2006 -212b.

BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIDA ROSTGO`YLIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ERTAKLARDAN FOYDALANISH

*Akaboyeva Gulzor Norqulovna
Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani
69-IDUM ninig 2-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: Bizga ma'lumki ,boshlang'ich sinf o'quvchilari ertak o'qishni,ertak eshitishni yaxshi ko`radi.Ertak o'qish darslarining muhim vazifalari darsni qanday tashkil etish kerak,nazmiy va nasriy usulda berilgan ertaklar o`qilishi haqida o`qituvchi qisqacha ma`lumot ham berib o`tish kerak.Xulosa qilib aytganda,ushbu maqola orqali boshlang`ich sinf o`quvchilari qanday usul va metod bilan o`quvchilarni ertakni ifodali o`qishga ,u orqali rostgo`ylikka o`rgatish haqida nazariy ,amaliy-uslubiy ma`lumotlarni berib o`tish joiz deb topdik.

Kalit soʻzlar: milliy qadriyat, ana, Vatanga muhabbat, tarbiya, rostgoʻylik pedagogik texnologiya.

Bugungi kunda kelajagimiz egalari boʻlgan yosh avlodni tarbiyalash, ularni vatanparvarlik ruhida kamol toptirish, insonparvarlik tuygʻularini rivojlantirish bevosita taʼlim berish bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Bola maktabga qadam qoʻygan ilk kunlarda oʻquvchi qarshisida yangi dunyo, rang-barang va jozibali oʻquv predmetlari turadi. Ularning oʻz yurtinig haqiqiy egasi qilib, yurtimiz taqdiri va taraqqiyoti uchun masʼuliyatni oʻz zimmasiga olishga qodir shaxslar qilib tarbiyalash biz oʻqituvchilarning oʻz oldimizga qoʻygan ustuvor vazifalarimizdir.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkar Mirziyoyev Miromonovich “Oʻzbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi” toʻgʻrisidagi farmonining “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari” bandida qayd etilganidek, jismonan, sogʻlom va ruhan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qatʼiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularni ijtimoiy faolligini oshirish” dan iboratdir.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini ertaklar orqali rostgoʻylikka oʻrgatish ham muhim ahamiyatga ega. Umumiy oʻrta taʼlimning boshlangʻich sinflarida oʻqish fani oʻquvchilarni ongʻli, toʻgʻri va ifodali oʻqishga oʻrgatish bilan bir qatorda, ularda kitobxonlik va nutq madaniyatlarini oshirish, fikrlab berilgan hikoya va ertaklardan, sheʼrdan oʻzi uchun ibratli xulosa chiqarishga oʻrgatadi. Dunyoqarashini kengaytirib, har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi “Rostgoʻy bola “ertagida podsho oʻziga merosxoʻr tanlab olish maqsadida vaziriga barcha bolalarga gul urugʻlari tarqatishni buyuradi. Oradan vaqt oʻtib, gullarni koʻrish uchun shahar aylangani chiqadi va koʻzi bir chekkada gulsiz tuvak ushlab turgan bolaga tushadi. Bola gul unib chiqmaganini aytib, yigʻlaydi. Podsho esa, aynan shu yigitni

o`ziga farzand etib tayinlaydi. Chunki, gul urug`lari qaynatilgan edi. Bundan o`quvchilar rostrgo`ylik hislatini yanada rivojlantirib boradi.

Inson faoliyatida ma`naviyat 1-darajali ahamiyat kasb etadi. Ammo uni ilmsiz shakllantirib bo`lmaydi. Ilm inson uchun muqaddas fazilatlardan biridir. Ilm tufayli inson ona yurtning taraqqiyotiga ko`mak beradi. Yuqoridagi ertak ham yomon xulq-atvordan, jaholat qorong`uligidan saqlab, yaxshi xulq sohibi qiladi, insoniy fazilatlarini kamol toptiradi.

Ertak qahramonlarini tasvirlashda kichik yoshdagi bolalarda axloqiy tushunchalardan foydalanishda, so`z boyligi chegaralangan bo`ladi. Ular axloqiy sifatlardan botirlik, to`g`rilik, mehnatsevarlik, rostgo`ylik, yaxshilik tushunchalarini ko`p ishlatadi. O`qituvchining vazifasi o`quvchilar bilan ertakni tahlil qilib, ular nutqiga personajlarning axloqiy intellektual, emotsional sifatlarni tasvirlovchi so`zlarni iritishdan iboratdir.

Qahramonlarning harakteri ularning axloqiy sifatlarini anglash asosida tushuniladi. Bunda qahramonning nima qilishi emas, nima uchun shunday qilishi kerakligini bilish muhimdir. Ushbu jarayonda ertak qahramonlarining axloqiy sifatlari haqida ko`proq ishlash lozim.

O`zbek xalq ertaklari o`qituvchilarga bolalarni axloqan, ma`naviy jihatdan tarbiyalashda juda katta yordam beradi. Ertakni o`qib yoki aytib berayotganda, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish va shu ertak qahramoni tasvirlangan rasmlardan foydalanish kerak. bu orqali bola o`qishni bilmagan taqdirda ham, rasmi orqali ertaklarni nomini ajratib oladigan malakaga ega bo`ladi.

“Rostgo`y bola” ertagi ham ijobiy harakteri bilan bolalarga namuna bo`lib xizmar qiladi. “Zumrad va Qimmat “ertagini o`qib berib, so`ng so`raydigan bo`lsak, Zumradning mehnatsevarligini, Qimmatning axloqi yomonligini, yalqovligini aytadi.

Hozirgi zamon pedagogik texnologiyalar umumiy o`rta ta`lim maktablarida keng qo`llaniladi. Ya`ni kompyuter texnologiyalaridan foydalanmoqda. Foydali

tomonidan ertak kitoblarini hoʻxlaganini topish va professional aktyorlar tomonidan ijro etilgani boʻlsa, salbiy tomoni bola kompyuter monitori oldida uzoq vaqt oʻtirishi mumkin emas. Oddiy ertaklarni har doim ham oʻqish mumkin, lekin kompyuterdagi ertaklarni albatta, kattalar yordamida oʻqish kerak.

Xalqimizda “Taʼlim –tarbiya beshikdan boshlanadi” - degan hikmatli gap bor. Faqat maʼrifatli insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotiga yetaklaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga navbatdagi Murojaatnomasida ilm-maʼrifat va texnologiyalar rivojlanishiga alohida ahamiyat qaratdi: “Sharq donishmandlari aytganidek,” Eng katta boylik-bu aql zakovat va ilm, eng katta meros –yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu ilmsizlikdir”

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda xalq ogʻzaki ijodi bilan tanishtirish, nafosat va goʻzallikka intilishi, uni his etishi va bu jarayondan zavqlanishi milliy badiiy qadriyatlarni va oʻzidan keyingi avlodga uni yetkazish uchun maʼsul ekanini his qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi.

2. www. ziyo uz kutubxonasi

3. T.Gʻaffarova, E. Shodmonov, G. Eshturdiyeva 1-sinf oʻqish kitobi

4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisidagi Farmoni. www.uza.uz

5. Jumaboyeva M. Umumiy oʻrta taʼlimda kasbga yoʻnaltirish ishlarining tuzilmasi va mazmuni. Kurs ishi. Andijon qishloq xoʻjaligi instituti, 2014. 21 b.

6. Mardanov D. Maktabda kasbga yoʻnaltirish ishlari. — Nukus. 2013. — 182 b.

ҲОЗИРГИ ВА КЕЛАЖАКДАГИ ТАЛАБАЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАЪЛИМ ТИЗИМИГА ТАЪСИРИ, ШАХСНИНГ ЎЗ-ЎЗИГА БАҲОСИ, МАҚСАД ВА МОҲИЯТ

Бобур Авлақулов

*Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети “Ижтимоий
гуманитар” Факультети 1-босқич магистранти*

Библиографик тавсифи: Логинова, А. В. ҳозирги ва келажакдаги талабалар ва уларнинг таълим тизимига таъсири / А. В. Логинова, А. И. Кузнецов. - Матн: дарҳол // ёш олим. — 2015. — № 11 (91). Ўтиш: сайтда ҳаракатланиш, қидирув — УРЛ: [хттпс://молу.ру/архиве/91/19391/](https://molu.ru/archive/91/19391/) (мурожаат санаси: 30.05.2022).

Калит сўзлар: электрон таълим, талабаларнинг мотивацияси, замонавий технологиялар, ноанъанавий ёндашув, таълимни шахсийлаштириш

*Агар бугунги талабаларни кечаги каби ўргатсак,
биз улардан келажакни ўғирлаймиз*
Жон Деуей

Вақт ўзгаради. Бугунги кунда яхши маошли ишни университет дипломисиз олиш мумкин деб ҳисоблаш оқилона эмас. Талабалар ҳам ўзгаради.

Улар ёши, этник келиб чиқиши ва мақсадлари ҳар қачонгидан кўра кўпроқ фарқ қилади ва технологик тушунадиган улар. Таълим муассасалари ўзгарувчан ва турли хил талабалар аудиториясининг эҳтиёжларини яхшироқ қондириш истагини билдиради.

Бундай ўзгаришлар шароитида олий касбий таълим муассасалари қандай муваффақиятли бўлиши мумкин? Ҳар қачонгидан ҳам кўпроқ, муваффақият режалаштириш талабалар учун билим ва тушунчани англатади: уларга бугун нима ва улар эртага нима бўлади?!

Агар олий таълим ҳақиқатан ҳам талабаларни марказга қўйиш ниятида бўлса, у кейинги авлод ўқувчиларининг фикрлари, қарашлари ва устувор йўналишлари ҳақида ҳам хизмат қиладиганлар ҳақида ўйлаши керак.

Бугунги талабалар олдинги авлодлар билан бир хил бўлиши мумкин деган тахмин нотўғри бўлиши мумкин. Бу оддий, содда қараш. Аммо ҳақиқат шундаки, технология қандай қилиб, қаерда ва қачон ишлаётганимизга, ўрганишимизга ва яшашимизга чуқур таъсир кўрсатади. Ривожланаётган хизмат маданиятида ишлаб чиқилган муносабатлар ва умидлар университетларнинг талабларига таъсир қилади. Ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ) нинг таъсири ёшларимизда аниқ кўриниб турибди. Энди классик масофавий таълимдан тубдан фарқ қилувчи юқори технологияли онлайн таълимнинг янги авлоди пайдо бўлади. Бу технологиялар, албатта, инқилобий — улар талабалар бошқа мамлакатларда амалиёт билан таълим бирлаштириш имконини беради. Бундай масофавий таълимнинг кундузги форматдаги комбинацияси талабаларга анъанавий кундузги форматга эга бўлишдан кўра кўпроқ турли хил билим ва кўникмаларга эга бўлиш имконини беради. Бундан ташқари, юқори технологиялар талабалар ва талабалар ўртасида ўқитувчилар билан янада яқинроқ мулоқот қилиш имконини беради, бу эса ўз навбатида талабаларнинг илмий иш фаолиятини кузатиш учун янги имкониятлар яратади [1].

Бугунги ўсмир 22 ёшли талабадан фарқли ўлароқ бутунлай бошқа авлодни ифодалайди. Улар турли хил созиламалар ва тахминлар билан ўсди. Эрта ёшдан бошлаб, тартиблаштириш ва ахборот катта миқдорда бошқариш учун уларни ўргандим. Ва компьютерларни маълумотларни қайта ишлаш ва таҳлил қилиш машиналари сифатида кўриб чиқиш ўрнига, улар технологияни ҳаётларининг табиий давоми сифатида кўришаётгани, иш, ўйин-кулгини шунчаки эмоционал фаолият ва таълимни масъулиятсизлик билан ўзлаштириш орқали барча эҳтиёжидagi маълумотларни ижтимоий тармоқ қондиришига ишонч билдираётган ёшларнинг бугунги кунга келиб салмоғи анча пасаймоқда.

Одамлар атроф-муҳит маҳсулотлари; АКТ бу муҳитнинг нуфузли қисмидир. Ушбу таъсир таълим услуги ва кейинги авлод талабаларининг ўзига хос

хусусиятлари билан узвий боғлиқдир. Кўпчилик ўқитувчилар ва таълим муассасалари ўқувчиларнинг янги авлодини технологиядан фойдаланиш ва уларни амалга оширишда орқада қолаётганини тан олади. Эртанги талабалар олдида бир қадам олдинда бўлган олий маълумотни тасаввур қилиш мумкинми?

Яқин тарих, 2013-йил июн ойида Микрософт кейинги авлод талабаларини муҳокама қилиш учун илғор таълим муҳитлари устида ишлайдиган олий ўқув юртлари раҳбарлари, мутахассислар ва талабалар гуруҳини бирлаштирди. Учрашувнинг мақсади кейинги авлод талабаларининг таърифи ва университетлар бундай талабаларни жалб қилиш, ўқитиш ва қўллаб-қувватлаш усулларига таъсир қилувчи ўзига хос хусусиятларни аниқлаш эди.

Уларнинг фикрига кўра, бугунги кунда университет битирувчилари ўтиш даври авлодининг бир қисмидир. Улар анъанавий таълим шароитларида қулай ҳис қилиш ва мобил телефонлар, лаҳзали хабар алмашиш ва электрон почта орқали боғланган иккита маданиятни бирлаштиради. Уларни талабаларнинг аввалги авлодларидан ажратиб турадиган нарса уларнинг сони, уларнинг хусусиятлари ва уларнинг турли эҳтиёжлари ва таълим имтиёзларидан келиб чиқиб белгиланади.

Бугунги талабалар иш, ижтимоий ҳаёт ва таълимни ажратадиган чегараларни белгилайдилар. Улар нима истаётганини ва муваффақиятга эришиш учун нима қилишлари кераклигини аниқ билишади (Фиг.1)

Шакл. 1. Ишга қабул қилиш мақсадлари ва зарур кўникмалар

Ўзлари учун зарур бўлган кўникмаларни олиш усулларига келсак, замонавий авлод уларни анъанавий таълим тизими кутганидек, уларни ишлаб чиқаришга одатланган. Бу ерда ёшларнинг афзалликларидан кўра камайиб бораётган малакалани тартибда ишлайдиган ва малакага эга бўлган тўққизта усул мавжуд:

- амалда машқ қилиш;
- ихтиёрий лойиҳалар ва кўнгиллилик;
- иш жойида ўқиш;
- конференция ва тадбирлар;
- тренинглари;
- таълим муассасалари (фақат олтинчи ўринда!);

- адабиётни мустақил ўрганиш;
- фикрловчи ва ҳамкасблар орқали билим олиш;
- онлайн курслар ва е-ларнинг (фақат тўққизинчи жойда, бу масофавий таълим тизимларининг қанчалик номукаммал эканлигини ва ҳозирги талабалар "рақамли аборигинлар" авлодининг вакиллари эмаслигини кўрсатади) [2].

Ва бу кузда университетларга ўқишга кирган талабалар ким? Улар минг йиллик авлоди бўлиб, 1993-дан 2000-йилгача туғилган. Ушбу авлод вакиллари ота-оналари туфайли сотиб олган бир қатор хусусиятларга эга. Улар гуруҳ фаолиятига жалб қилинади, ота-оналарининг қадриятларига риоя қилади ва уй вазифаларини бажариш ва уй ишларини бажариш учун кўпроқ вақт сарфлайди ва телевизор олдида бир неча ёшдан катта бўлганларга қараганда камроқ вақт сарфлайди. Улар Интернет давридан олдин ва деярли тўлиқ жоҳилликда. Шахсий тафаккур, онг, фаҳм ва мулоҳазадан биров ортида.

Улар кучли тузилган муҳитда ўз шаклланиш йилларини ўтказдилар. Улар терроризм, қаҳрамонлик, ватанпарварлик ва глобаллашув билан қамраб олинган маданиятда ўсди. Улар ўзларига ишонадилар ва мағрурдирлар. Улар ақлли бўлиш ва янги технологиялар билан ҳайратга тушиш осон деб ўйлашади. Ушбу янги авлод талабалари ўзларининг катта биродарлари, опа — сингиллари ва тенгдошларидан фарқ қилади, чунки улар Интернетда, видео ўйинларда ва уларга ғамхўрлик қилаётган ота-оналарда тарбияланганлар, буларнинг барчаси уларнинг хатти-ҳаракатлари ва муносабатларига сезиларли таъсир кўрсатди. Улар турли хил, чунки улар бир талаба профилига мос келмайди.

Улар умумлаштирилмайдиган авлодни ифодалайди. Слаир Раинес ёзганидек, бу авлод дўстона, оптимистик, истеъдодли, яхши билимли, очиқ, таъсирчан ва муваффақиятга йўналтирилган. Улар иш жойига ҳар қандай авлодга қараганда юқори тахминлар билан келишади. Агар биз ушбу авлодни муваффақиятли ўқитишни истасак, у мослашувчан таълим шакли сифатида тузилган ва ҳар қачонгидан кўра кўпроқ натижага йўналтирилган ҳар бир киши учун таърифга кўра бир хил бўлмаган таълим муҳитларига сармоя киритишга тайёр бўлиши керак. Эҳтимол, уларнинг ота-оналари, ўқитувчилари ва методистларидан ҳам кўпроқ

сармоя жалб қилиш керакдир, бу авлод вакиллари ўзларининг қаерда ва қайси ҳудудда таълим олишлари ўртасидаги алоқани кўришни истайдилар.

Ҳозирги вақтда ўқитувчи ва талаба ўртасидаги фарқ ҳар қачонгидан ҳам кўпроқ. Роллар ўзгаради. Етакчилик ўрнига, кейинги авлод талабалари ўқитувчиларни уларга раҳбарлик қилишлари ва кўрсатма беришлари кутилмоқда. Бугунги кунда талабалар ўзларини ифодалашда жуда ишончли, улар ўзларини ўргатиш, эътиборсиз қолдириш ёки зерикаш истамаслигини аниқ кўрсатадилар.

Таълим муассасалари олдида турган муаммолар айнан уша эгоцентрик ҳудудларда сезиларли кўзга ташланади. Талабалар ўзларининг ўқув материалларини онлайн тарзда тақдим этишни кутишади, уларнинг ўқитувчилари электрон таълим соҳасида малакали бўлишлари ва уларни курсларни бошқариш тизимларидан фойдаланишга ўргатишларини исташлари мумкин. Ушбу ўзгаришлардан ташқари, университетлар янги таълим усуллари ва услубларини жорий этишни сўрашади. Ҳатто синф жойлаштириш схемаси талабалар диққат марказида бўлган тарзда ўзгаради.

Таълимда янгилик сифатида ўқитувчиларга йўналтирилган талабаларга мўлжалланган таълимни ўзгартириш, ўқитувчилар бошлашлари мумкин бўлган энг муҳим вазифалардан биридир. Талабалар гапиришга рухсат беринг, уларни тингланг. Улар ўзларининг янги билимларини ўзлари эга бўлган билимлари асосида қуриш учун турли тадбирларни амалга оширишлари керак.

Билим олиш учун уларга воситаларни тақдим этинг. Эсингизда бўлсин, ишлаб чиқариш янги ва оригинал нарсаларни яратиш демакдир. Талабалар энди ўқитувчилар самарали таълим жараёнини билмасдан ёки билим солиб қўйилган қутилар сифатида жимгина ўтирмаслиги керак. Улар ҳаракат қилиш, ўрганиш, тажриба қилиш, алоқаларни олишлари, мустаҳкам эгаллашлари керак. Агар ўқитувчи талабаларга ширин ва шўр сўзлар нимани аңглатишини тушунтиришга уринса ва бу нарса нима эканлигини аңглашлари, тасаввурга эга бўлишлари учун амалда уни тақдим этмаса, талабалар уни тушуниши ва тафаккурга эга бўлиши қийин бўлади. Аммо агар у попкорн ва шакар синфига олиб келадиган бўлса ва

истемол қилса, улар фарқни сезиши учун бу сўзларнинг маъноси тушунарли бўлади ва бу тажриба талабалар хотирасида ҳаётий тажриба сифатида муҳрланиб қолади.

Бошқа томондан, замонавий талабалар жуда кўп электрон ва онлайн ресурслардан керакли маълумотларни қандай олишни билишлари керак ва энг қийин нарса, бу хилма-хилликдан керакли нарсани танлашни ўрганишлари, нима фойдали ёки зарар билишлари керак. Ўқитувчилар эса доимий танқидий фикрлаш қобилиятларини ривожлантиришга ёрдам беришлари керак, шунда улар ўқиган ёки эшитган ҳамма нарсага ишонишмайди. Тўғри ва мос, жамият ва юрт равнақи учун мос мақсад қўйилиши керак. Бугун эса электрон воситаларидан масъулиятли тарзда миллий дастурлар яратиш, таълимни миллийлаштириш, ёшларни аниқ, конкрет мақсад қўйган ҳолда келажаги ҳақида тасаввур уйғота олиш ўқитувчининг биринчи галдаги вазифаси бўлса, илм ва билимдан самарали фойдаланиш талабалар томонидан жиддий ўзлаштирилиши керак бўлган самарали мулоқотнинг бир қисмидир.

NOTINCH HAMDA IJTIMOIIY HIMOIYAGA MUHTOJ OILA FARZANLARIGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISH

*Hamdamova Xurshida To'rabekovna
Jizzax viloyati Mirzacho'l tumani 5-IDUM psixologi*

Umumiy o'rta ta'lim tizimida bugungi kun talablari asosida tashgil etish, farzandlarimiz xar tomonlama kamol topish uchun, barcha sharoitlar yaratish lozim.
Sh.Mirziyayev.

O'z mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan Respublikamiz yoshlarni yangicha ijtimoiy muhutga tayyorlash, davr ruhida tarbiyalash-dolzarb va ustuvor vazifalardan biri. Hozirgi kunda Respublikamizda amalga oshirayotgan ta'limdagi islohatlarning rivoji yoshlarning ma'naviy qiyofasiga,shaxsiy barkamolligiga ham ko'p jihatdan bog'liq.Bu

vazifalarni amalga oshirish insoniy o'zaro munosabatlarda demokratik tamoyillarning teran etish taqoza etadi.

Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga katta e'tibor berilmoqda. Yosh avlodni ham ruhan ham jismonan kamol topishlari, ularni qobilyat va iste'dodlarini ro'yabga chiqarish uchun davlatimiz tomonidan bir qancha imkoniyatlar yaratib kelinmoqda. Xususan ijtimoiy himoyaga muhtoj va notinch oila farzandlari bilan tizimliravishda ishlashni tashgil qilish uchun bir qator qaror va farmoyishlar mavjud bo'lib, bu orqaqli hududlarda chora-tadbirlar ishlabchiqilib tizimli ishlar olib borilmoqda. Bosh qomusimizning 64-moddasida ham "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetkunlariga qadar boqish va tarbiyalash majburdir. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarning vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitish ta'min-laydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faolyatlarini rag'batlantirish" alohida qayd qilingan bo'lib, bu boradagi ishlar davlat va jamiyatning asosiy dolzarb mavzularidan ekanligini anlashimiz mumkun. Aynan shu sohada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "Zo'rlik ishlatishda jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi 51 16-sonli qarori bu borada olib borilishi zarur bo'lgan ishlar vaularning ko'lami alohida belgilab berilgan. Bir so'z bilan aytgan notich oila hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj o'quvchilarga psixologik xizmat ko'rsatishda ta'lim tizimining o'rni va darajasini yanada takommilashtirish zarur va bu o'rinda asosiy vazifa maktab psixologlarining bilm, ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantirishga qaratilga bo'ladi.

Notinch oila va inqirozli oila farzandlariga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish.

Inqirozli oila yoki mushkul ahvolga tushib qolgan ota-onalar, ularning farzandlari bilan psixologik-pedagogik yordam ishlarini tashgil etish asosan quydagi yo'nalishlarida tashgil etiladi.

- diyagno'stik;
- karreksion;
- profilaktik;
- ma'rifiy.

Inqirozli oila bilan ishlash avvalo shunday holatda tushib qolgan oilalarning ta'lab takliflari asosida, yoki bu hududdagi oilalarning ahvolini o'rganish natijasiga ko'ra amlaga oshiriladi. Masalan O'zbekiston sharoitida jami oilalarning salmoqli qismi yosh oilalar toifasiga kirish, ularda muayyan muommolarning, ijtimoiy hamda psixologik muhafazaga ehtiyojni sezishi tabiiy bo'lgani uchun ham bunday xizmat shaxobchalari bir tomondan, talab va taklif asosida tashkil etiladi, ikkinchi tomondan, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan oilani muhofaza qilish, ularning muommolarini o'rganish va yordam berish o'z-o'zini boshqarish organlari, joylardagi ijtimoiy markazlarining tavsiya va ko'rsatmalar asosida ham tashkil etiladi. Qanday shaklda bo'lmasin, bunday markazlar yoki xizmat turlariga turli inqirozli sharoitni boshidan kechirgan oliaga yordam ko'rsatish ularning asosiy vazifasi hisoblanadi. Jamoatchilik tashabusi bilan tashkil etilganshunday xizmat turlaridan biri mamlakatimizning turli tuman va shaharlari markazlarida tashkil etilgan yoshlar ijtimoiy ko'mak markazlari bo'lib, undagi "Ishonch telefonlari" oila a'zolariga ma'rifiy, ma'naviy, axbarot, psixologik xizmatlarni amalga oshiradi. Shuningdek ushbu xizmat maktab psixologlari tomonidan ham amlaga oshirilish mumkin. Chunki jamiyatda ijtimoiylashuv omilda maktabni o'rni ahamiyatlidir. Oiladagi ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish kimning buyurtmasi bilan faolyat boshlagan, uning faolyat samarasini kim monitoring qilishdan qat'iy nazar, u quydagi toifa insonlarga xizmat ko'rsatadi:

- bolalar;
- ota-onalar;
- yaxlit oila;

Oilada tarbiyalanayotgan bolalar muommolari bilan shug'irlanishda asosan diagnostik va psixakarreksion yo'nalishlarida ish olib boriladi.

Diagnostik yo'nalishdagi ishlar o'z ichiga quydagi vazifalarni qamrab oladi:

Bola psixik taraqqiyotida sodir bo'layotgan muommolar, chekinishlar va ularning asl sabablarini diagnostika usullari yordamida aniqlash;

Bola normal taraqqiyoti jarayonida aniqlangan muommolari jihatlar va ularni bartaraf etish bilan bog'liq ishlar;

Bola psixik taraqqiyotida patologiyalar va ularni qisman bo'lsada bartaraf etish, kelib chiqish sabablarini ota-onaga bildirish hamda hamkorligida bolaga yordam berish choralarini belgilash;

Bola salomatligiva uning xastaliklarini psixik hayotga aloqadorligini bevosita ekanligi aniqlangan psixologik-maslahatchi ota-ona bilan birgalikda mummoning yechimini izlaydi va bu bilan oila muhitni yaxshilashga hissa qo'shadi.

Bolalar o'rtasida olib boriladigan prafilaktik ishlash asosida avvaldan belgilangan reja bo'yicha amalga oshiriladi. Albatta bunda ham psixolog mutaxasiz psixadiyagno'stik vositalardan foydalaniladi, lekin uning vazifasi eng avvalo bolada ro'y berish mumkun bo'lgan patalogik jarayonlarning oldini olishdir. Chunki oilaviy nizolar, oilaviy munosabatning izdan chiqish shu oila muhitda tarbiyalanayotgan bolaning asab tizimiga, psixalogik rivojlanishiga salbiy tasir ko'rsatadi.

Oiladagi muommo bo'lgan bolalar o'rtasida olib boriladigan karreksion-tuzatish bilan bog'liq chora-tadbirlar ham diyagno'stik amaliyot bilan birgalikda amalga oshiriladi. Bunda diyagno'stika orqali aniqlangan xulqda chekinish holatlari bolaning yoshi, oilaviy sharoiti, qiziqish va iqtidori inobatga olingan xolda malkali amaliyotchi psixolog tomonidan amalga oshiriladi. Bunda bevosita bola ongi va fikrlash tarizida tasir ko'rsatadi, shuning uchun bunday tadbirlar maktabgacha bolalar yoshidagi bolalarda o'tkaziladi.

Ota-ona bilan psixologik-pedagogik prafilaktika ishlar oilada er yoki xotin tomonidan bir birlariga nisbatan noo'rin, beshavqat munosabatlar sodir etilganda amalga oshiriladi. Shuning uchun amaliyotchi psixolog eng avvalo er xotining qay biri ko'proq ayibdor va qaysi birining insoniy sh'ani va huquqlari paymon etilgani aniqlash darkor. S.Kovalevning fikricha, nizokash er-xotinlarning daslabki muloqatda psixologga bergan ma'lumotlari har doim ham haqqoniy, obektiv bo'lavermaydi. Psixolog xizmatidan foydalanish istagan shaxsning o'zi muommoni aniq nimada ekanligini bayon etolmaydi. Masalan, eridan noligan xotin erning qay darajada nohaqligi yoki nima sababdan undan ko'ngli qolganligini aniq aytib berolmaydi. Ayniqsa, bunday xolatlarda nizoli vaziyatni keltirib chiqargan "aybdor" bola bo'lib chiqsa, ikkala tomon ham o'zicha

haq va ularning ikkisini janjallashiga turtki bo'lgan omil ularning farzandini sevish bo'lib chiqadi.

Bunday vaziyatda maktabda profilaktika ishning vazifasi bunday oilalarni o'z vaqtida toppish va ular bilan zarur ijtimoiy, psixologik ishlarni olib boorish, bazi xollarda bolalarni ota-onalardan qisman yoki to'liq izolyatsiya qilishdir. Bunday oilalarda ota-onalar aniq xulq-atvor normalarini belgilamaydilar, bolalar o'z holiga tashlab qo'yiladi va huquqbuzarlik xafi katta bo'ladi. Notich oila farzandlari tajavuzkorlik bilan ajralib turadi (muloqat paytida ular boshqa bolalar bilan yaxshi munosabatda bo'lishni bilishmaydi).

Jahon tajribasiga asosan barcha ijtimoiy inistitutlar singari, ijtimoiy yordam, qo'llab-quvatlash va himoya qilish inistituti ham davlat uchun eng muhim vazifalarni bajaradi. Mamlakat va jamiyat, vazifa barqarorlashtirish va jamiyatni saqlab qolish, mavjud ijtimoiy munosabatlarni saqlash va uyg'unlashtirish, uning har tamonlama rivojlanishi uchun shar-sharoitlarni taminlash: ya'ni aslida, bu davlat barqarorligi va xafsizligini taminlashning muhim omollardan biri.

Ishtimoiy-pedagagik va ijtimoiy-psixalogik ish o'zining boshida ahloqiy hisoblanadigan lahzalar va uning mazmun-mohyatida yuksak insonparvarlik va ijtimoiy-axloqiy; bundaylar yo'q cheklovlar, qoidalar va normalar jamiyat tomonidan tasdiqlangan ma'naviy-ahloqiy qadiryatlar va ahloqiy tamoillarni e'tiborsiz qoldiradi.

O'QUVCHILAR AQLIY FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mashrapova Xilola Ulmasboevna
Andijon viloyati Izboskan tumani 44-maktab psixologi

O'quvchilar turli o'quv vazifalarini hal qilish jarayonida namoyon bo'ladigan aqliy ish "uslublarining" nisbatan barqarorligini, ularda aql xususiyati yoki sifatining ma'lum darajada rivojlanganidan darak beradi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual farqlariga bag'ishlangan tadqiqotlarida har xil toifadagi o'quvchilar tavsiflangan: ularning ba'zilari (a'lo o'zlashtiruvchi o'quvchilarda) tafakkurning yuqorida ta'kidlangan ikki turi orasida chambarchas bog'liqlik namoyon bo'ladi, ya'ni ularda konkret holatlardan mavhum holatlarga o'tish oson kechadi. Bunda mavhumlashtirish va konkretlashtirish ular tomonidan aqliy faoliyat usuli sifatida foydalaniladi. Bolalarning boshqa toifasi tafakkur faoliyatining bir turidan boshqasiga o'tishda doimiy qiyinchilik his qiladilar. Ba'zi o'quvchilar idrokka tayanish imkonini beradigan tafakkurning ko'rgazmali usullariga "yopishib oladilar", aksincha boshqalari bo'lsa, ko'rgazmalilikdan "voz kechib", so'zlar, tushunchalarga tayana boshlaydilar.

O'quvchi ko'proq tafakkurning ko'rgazmali usullariga tayanganda aqliy faoliyat bu turining yuqori rivojlanganidan dalolat beradi, deb o'ylamaslik kerak. Xuddi shunday tafakkurning ko'rgazmali harakat turidan so'z mantiq turiga o'tishi mavhum tafakkurning ko'proq rivojlanganidan dalolat beradi, deb hisoblamaslik kerak. U yoki bu toifadagi o'quvchilarda tafakkurning ikki turi ham kuchsiz rivojlangan bo'ladi.

Mana shu o'rinda Birinchi Prezident I.Karimovning Oliy Majlisning birinchi sessiyada ta'kidlab o'tganidek «Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning zng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi».

Psixologik adabiyotlarda aqliy taraqiyotning yuqori darajada emasligi mavhum tafakkurning yetarli rivojlanmaganligi bilan bog‘lanadi. Bunday hollarda bolalarning mavhum fikrlay olmasligi ma’lum bo‘ladi. Biroq konkret tafakkurning rivojlanishida ham ba’zi kamchiliklar e’tiborga olinmaydi. Bu bilan bog‘liq ravishda xuddi ana shu konkret tafakkur rivojlanishida muhim kamchiliklar aniqlangan.

Ommaviy maktablarning quyi o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarida ham xuddi shunday faktlar aniqlangan. Arifmetik masalalar yechishda ularga masalalarning tashqi shartli belgilariga tayanish, (alohida so‘zlar, absolyut kattalik va belgilangan sonlarning ketma-ketligi va boshqalar), masalalarning konkret mazmunini yetarlicha anglamaslik xos. Xuddi shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilari masalalarni yechishda kattaliklarning nomlarida xatoliklar sodir bo‘ladi.

Shunday qilib, o‘tkazilgan tadqiqotlar o‘qishda qiynaladigan o‘quvchilar aqliy faoliyatining ba’zi xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Biroq, bu sekin o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar o‘qishda doimiy muvaffaqiyatsizliklarga uchraganini anglatmaydi. Bu mustaqil aqliy faoliyat talab qiladigan vaqtlarda aqlning ba’zi salbiy xislatlari shakllanganidan dalolat beradi. Bunday o‘quvchilar o‘zlashtirishga qiynaladigan material ustida qo‘shimcha mashqlar bajarishi tafakkurning bu xislatlarini o‘zlashtirishi uchun hissa qo‘shishi ma’lum bo‘ladi.

Shuning uchun ham o‘zlashtirish tempi, tezligida namoyon bo‘ladigan o‘quvchilarning turlicha uquvchanlik darajasini bilish o‘quvchilar uchun muhim hisoblanadi. Uquvchanlikni o‘quvchi ishi tempidan ajratish zarur. O‘quv ishlarini sekin bajarish, uquvchanlikning pastligidan dalolat bermaydi, xuddi shuningdek tez bajarish yuqori uquvchanlik ko‘rsatkichi emas.

Psixologik tadqiqotlarda bunday farqlashlarning zarurligi ta’kidlangan, lekin o‘qituvchilarning ishlarida ta’lim jarayonlarida o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini xarakterlaydigan ko‘rsatkichlar orasida faqat ish tezligi (tempi) ko‘rsatiladi, o‘zlashtirish tezligi bo‘lsa hisobga olinmaydi. O‘zlashtirish tezligi o‘zlashtirmovchilikni yo‘qotishda va o‘quvchilarni yanada rivojlanishga undashda muhim hisoblanadi.

Shunday qilib, uquvchanlik, o‘quv faoliyati usullarini hamda bilimlarni o‘zlashtira olish qobiliyatidir. Uquvchanlik, ya’ni o‘qishga qobiliyatlilik, shaxsning individual, nisbatan barqaror xislati hisoblanadi. Bu tushuncha mazmuniga ko‘ra “qobiliyat” tushunchasiga nisbatan torroq hisoblanadi. Qobiliyat tarkibiga ma’lum faoliyat turiga nisbatan yuqori uquvchanlik kiradi. Qobiliyat maxsus va umumiy turlarga bo‘linganidek, umumiy va maxsus uquvchanlikni ham ajratish mumkin. Umumiy uquvchanlik ko‘p narsada namoyon bo‘lsa, maxsus uquvchanlik faqat bir sohada, bir o‘quv fanini o‘zlashtirishda namoyon bo‘ladi.

Uquvchanlik aqliy taraqqiyot bilan chambarchas bog‘liq, lekin ular aynan bir tushuncha emas. Aqliy taraqqiyot – yosh ulg‘ayishi va insonning tajriba to‘plashi bilan aqliy faoliyatdagi sifat va miqdor o‘zgarishlarining majmuidir. Yuqori uquvchanlik yuqori aqliy taraqqiyot uchun zamin bo‘lishi mumkin, lekin yuqori aqliy taraqqiyot bilan nisbatan quyi uquvchanlik ham birikishi mumkin, bunda u ko‘p mehnat qilishi bilan to‘ldirishi mumkin.

L.S.Vigotskiy [1] tomonidan kiritilgan “taraqqiyotning yaqin zonasi” tushunchasida kattalar yordamida ular bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan o‘quvchining aqliy imkoniyatlari nazarda tutiladi. Taraqqiyotning yaqin zonasi, aktual zonasidan farq qiladi, aktual zonasi bola nimani mustaqil o‘zi qila olishida namoyon bo‘ladi.

N.S.Kocharyan tadqiqotlarida sekin fikrlaydigan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik xususiyatlari bayon etilgan. Muallif o‘tkazgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, sekin fikrlash inson individualligini xarakterlaydigan xususiyat hisoblanadi. Sekin fikrlovchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vaqt cheklanmagan paytda tafakkur mahsuldorligi yuqori bo‘ladi. Odatdagidek fikrlovchi sinaluvchiga nisbatan sekin fikrlovchi o‘quvchilar topshiriqlarni bajarishda mustaqil, javobgarlik hissi yuqori, javob berishga shoshilmaydi, tushunishga harakat qiladi. Lekin vaqt chegaralanganda sekin fikrlovchi o‘quvchida bunday afzalliklar namoyon bo‘lmaydi, ular bunday vaqtda ko‘pincha orqada qoladilar.

L.V.Orlova [2] intellektual passivlik sabablarini va tiplarini o‘rgangan. U intellektual passivlik aqliy faoliyatning quyi darajasi, aqliy ko‘nikmalarning yetarlicha

shakllanmaganligi, intellektual vazifalarni bajarishda aqliy zo‘riqishga salbiy munosabat sifatida ta’riflaydi. Muallif intellektual passivlikning 2 turini ajratib ko‘rsatadi:

1) intellektual passivlik aqliy faoliyat operatsional-texnik mexanizmlarining buzilish natijasi sifatida;

2) intellektual passivlik shaxs motivatsion-ehtiyojlar sohasi taraqqiyotida salbiy munosabatlarning ko‘rinishi sifatida.

L.V.Orlova kengligi bo‘yicha umumiy va xususiy intellektual passivlikni ajratib ko‘rsatadi. [2]

Shunday qilib, L.V.Orlovaning yuqorida taklif etgan tasnifi intellektual passivlik turlari va sabablarini aniq tushunish imkoniyatini beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish lozim, o‘quv jarayonida o‘quvchilarning aqliy faoliyati xususiyatlari asosiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Выготский Л.С. Избранные психологические исследования. - М. : Издательство АПН РСФСР .1960. -500 с.

2.Орлова Л.В. Интеллектуально-пассивные учащиеся. // Вопросы психологии. 1991. № 6. -С. 45-49.

SUIQASD ORTIDAGI PSIXOLOGIK MUAMMOLAR VA UNI OLDINI OLISH

*Raximova Nilufar Abduqayumovna
Sirdaryo tuman 33-maktab psixologi*

Hayot zavqli, kimgadir esa shavqatsiz. Uni qanday yaratish va tark etish har bir insonning irodasi, harakati, qat’iyati, mahorati, qobiliyati va o‘z meniga bog‘liq. Inson uchun har bir vaqt ortga qaytmagani kabi, inson umri ham tugagach uni ortga qaytarib bo‘lmaydi. Ayrim insonlar hayotdan voz kechish, uni tark etish maqsadida o‘z jonlariga qasd qiladilar. O‘zlariga ozor berib, qiynoqqa qo‘yadilar. Bu kabi suiqasdlar ortida esa bir qancha psixologik muammolar yotadi. Izlanishlar davomida eksperimentlar ba’zi

odamlarda har qanday omadsizlik o'lim to'g'risidagi ixtiyorsiz fikrni uyg'otishi bir necha bor ko'rsatilgan. O'limga intilish Freyd "Tanatos"i – hayotiy qiyinchiliklarni hayotning o'zidan ketish yo'li bilan hal qilishga urinishdan boshqa narsa emas. Mashhur pedagog Y.U.Azarov suhbatlashgank o'pchilik mashhur kishilar ham o'smir va o'spirinlik yoshida, 18-20 yoshgacha miyalariga o'z hayotlarini tugatish to'g'risidagi fikr kelganligini aytganlar. Tasavvurdagi va real o'z-o'zini o'ldirish – turli voqea-hodisalar, tashqi muhit, organizmdagi biologik, fiziologik o'zgarishlar, oiladagi nizolar, tengdoshlar bilan munosabatdagi o'zgarishlar, boshqalar tomonidan ta'ziq o'tkazilishi, qo'rqitish yoki qo'rquv natijasi sodir etilishi mumkin. O'z-o'zini o'ldirish to'g'risidagi fikr kelganda o'zlaridan voz kechadilar, o'tmishdan yuz o'giradilar, o'zlarini yolg'iz his etib, o'z xotiralarini esa behuda deb biladilar. Bu xotiralar insongacha yetib bormaydi, uni qutqarmaydi, oilasi yaqinlari unitilib, uni bu holatda ekanligidan hech bir kishining habari ham bo'lmaydi.

O'z joniga qasd qilishda turtki bo'luvchi ko'plab omillar mavjud, ular:

1. Iroda kuchining pastligi (irodasizlik).
2. Umidsizlik.
3. Zaiflik.
4. Psixik buzilishlar.
5. O'tish davridagi ayrim o'zgarishlar (insonio'z meni va irodasiga bog'li).
6. Begonalashish.
7. Kamsitilish.
8. Oiladagi muhit, nizolar, ko'p kaltaklanish, bir-biridan ajratish, mehrsizlik, har xil so'zlar bilan haqoratlanish (vaqtim yo'q, yo'qol, jinnimisan, o'ldiraman seni va h.k.).
9. Tengdoshlari o'rtasidagi kelishmovchiliklar.
10. Stressli vaziyatlar.

Yuqorida keltirilgan bir qator omillardan ko'rinib turibdiki, o'z joniga qasd qilish o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Suiqasdga moyil bola sekin-asta oiladan, do'stlar davrasidan uzoqlasha boshlaydi, sirlarini yashirishni o'rganadi, dangasa, o'ziga ishonmaydigan bo'lib qoladi. Eng yomon holatda unda "meni hech kimga keragim yo'q, undan yo'q bo'lganim yaxshi" kabi fikrlar miyasiga tez-tez kelib qoladigan bo'lib qoladi. Bu fikr bilan birgalikda unga bo'lgan e'tiborning kamligi, uni chetlashtirish kabilar davom etishi natijasida suitsid sodir etilishi mumkin. O'smir va o'spirinlar psixik salomatligining statistik me'yorlari ko'plab psixologik testlar bo'yicha kattalarnikiga qaraganda birmuncha farq qiladi. Bu ularning psixologik buzilishlar va o'tish davrining me'yorda o'tishi bilan bog'liq. Ular quyidagilar:

1. Kasallik o'smir yoshida boshlanadi, chunki uning latent, yashirin davri uzoq yillarga cho'ziladi va u shunchaki bolalikda rivojlanishga ulgurmaydi.

2. Buzilishni yana o'smir yoshida muhit va jamiyat shaxsga uning kuchi yetmaydigan talablarni qo'yishni boshlashi bilan ham yuzaga keladi. Masalan, yuqori sinflarda o'quv dasturlarining murakkablashuvi ba'zi o'smilarda chegaraga oid aqliy qoloqlik, topshiriqlarni uddalashga layoqatsizlik deb nomlanuvchi buzilishlarni keltirib chiqaradi.

3. Yosh og'riqli kechinmalarning o'ziga xosligini belgilaydi, kasallikni o'tishida iz qoldiradi. Masalan, turli psixik kasalliklar tashqi tomondan dismorfomaniya shaklida o'tadi.

4. O'tish davri bolalikdayoq ishora berilgan buzilishlarning rivojlanishiga turtki berdi, ta'sirchan qilib qo'yadi.

5. O'tish davri jarayonlari o'smirni muayyan nohush ta'sirlarga undaydi, ta'sirchan qilib qo'yadi.

6. Jinsiy yetilish (pubertat) davri rivojlanishning avval yashirin bo'lgan buzilishlarini yuzaga chiqarishga qo'zg'aydi.

7. Pubertat va uning o'zi patogenli o'zgarishlar seriyasi sababi, yetakchi bo'g'ini bo'lishi mumkin.

Shaxsning me'yoriy hayotiy faoliyati nafaqat muhit bilan axborot almashinuvida, u bilan qandaydir hissiy ahamiyatli munosabatlar o'rnatishdadir. Stress sharoitida vaziyat o'zgaradi, shaxs yechishga qodir bo'lmagan nizoli vaziyat unda shaxsning psixikasi va mavjud bo'lishining o'ziga xavf tug'diruvchi ulkan kuchdagi salbiy hissiyotlarni chaqiradi. Bunday holatlarda esa suiqasdni amalga oshirish istagi yanada kuchayib boraveradi. Stressdan chiqish uchun u o'z "Men"i va jarohatlovchi muhit o'rtasidagi aloqani uzishi yoki o'zini irodasi, hayotga bo'lgan intilishi tufayli uni oldini olishi mumkin. Suiqasdni oldini olish uchun quyidagilarni qo'llash kerak. Ota-onalar uchun:

-O'spirin bilan muloqot qilayotganda, u bilan o'zaro a'loqa va ishonchli munosabatni saqlab qolish.

-Uning barcha ishlaridan xabardor bo'lishga harakat qilish (mashg'uloti, qiziqishi, do'stlari, sayr qilish joylari va h.k.), lekin so'roq qilish va maydalashgan nazorat uslubidan voz keching.

-Farzandingiz qanday bo'lsa shundayligicha qabul qiling. -Boshqalar bilan farzandingizni taqqoslamang.

-Bolangizni ko'proq maqtab turing.

-Achchiqlanib, jaxlingiz chiqqanda bola tarbiyasi bilan shug'ullanmang. -Oilada har xil nizolarga yo'l qo'ymang, uni kaltaklamang.

-Farzandingizni ko'proq bag'ringizga bosishga harakat qiling, qo'llaridan tuting, yelkasidan quching, bu o'rtangizda iliq munosabat o'rnatishga yordam beradi.

-Kun tartibiga rioya qilishini so'rang.

-U bilan sirdosh, bolalarcha do'st bo'ling.

-Bolangiz xatti-harakatidagi har qanday keskin o'zgarishlarni e'tiborsiz qoldirmang.

- Balki bolaga mutaxassis yordami kerakdir (vrach, psixolog, nervpatolog, psixiatr). Jamiyatimizdagi har bir o'sib ulg'ayotgan bolalar yuqoridagi tavsiyalar asosida voyaga yetkazilsa, ularning irodasi mustahkam, qatiyatli va suitsiddan yiroqda bo'lib voyaga yetishlarida ko'makdosh bo'ladi. Bola uchun eng kerakli insonlar bu uning oilasi, ota-onasi, yaqinlaridir. Ular farzandlariga qimmatli hech kim berolmagan mehrmuhabbatlarini beradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Akopov G.B. "Suidsidal harakatlarning oldini olish uslublari", SamaraUl'yanovsk, 1998. 2. Uslubiy qo'llanma. "Xammasi sening qo'lingda", Namangan, 2015. 3. Ambrumova A.G., Borodin S.V., Mixlin A.S. "O'z joniga qasd qilish xattiharakatlar diagnostikasi". Uslubiy tavsiyalar.-M., 1980.

PSIXODIAGNOSTIK METODIKALAR VA ULARNING PSIXOMETRIK MEZONLARI

Raximova Nilufar Abduqayumovna
Sirdaryo tuman 33-maktab psixologi

Annotatsiya: maqolada psixodiagnostika tushunchasi uning mohiyati, psixodiagnostik metodikalarning ilmiyligini aniqlash va psixometrik mezonlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: diagnostika, test, metodika, psixologiya, mezon, ijtimoiy, talab, xulosa, tamoyillar.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan tub isloxlarning asosiy sababi inson omiliga qaratilgan bo'lib, bunday o'zgarishlar negizida fuqorolarimizning yaxshi yashashi, sifatli ta'lim olishi maqsad qilib qo'yilgan. Bu borada esa har bir kasb egalariga kata ma'suliyat yuklatilmoqda, xususan psixologlarga ham. Ularni maktab faoliyatidagi ishlarida psixodiagnostika alohida ahamiyatga ega. Chunki psixodiagnostik ishlarsiz psixolog o'z faoliyatini amalga oshirolmaydi. Psixodiagnostika – bu psixologning kasbiy faoliyatidagi murakkab va juda ma'suliyatli sohadir. Shuning uchun ham psixodiagnostikaga bir qator ijtimoiy-axloqiy talablar qo'yilgan bo'lib, ular quyidagilardir: Psixodiagnostika sirlarini saqlash. Psixodiagnostik metodikalarning ilmiy asoslanganligi. Sinaluvchiga ziyon etkazmaslik. Xulosalarning ob'ektivligi. Taklif qilingan tavsiyalarning samaradorligi. Yuqorida qayd qilib o'tilgan talablarning, har birini psixodiagnostikaning tamoyillari sifatida alohida ko'rib chiqamiz.

1 Psixodiagnostikaning sir saqlash tamoyili – sinaluvchining ruxsatisiz olingan natijalarni e'lon qilmaslik, bu birinchi navbatda balog'at yoshiga etgan odamlarga taalluqlidir. Agar sinaluvchilar balog'at yoshiga etmagan bo'lsa hamda psixodiagnostik natijalarni e'lon qilish uchun otaonalarning, bolalar uchun ma'naviy va huquqiy mas'ul bo'lgan shaxslarning ruxsati bo'lishi shart. Faqat ba'zi hollarda ilmiy maqsadda, ya'ni eksperimental tadqiqotning bir qismi sifatida e'lon qilish bundan mustasno, ammo sinaluvchilarning aniq ismi-shariflarini bayon etish tavsiya qilinmaydi. Psixodiagnostik metodikalarning ilmiy asoslanganlik tamoyilida metodikaga validlik, ishonchlilik talabi

qo'yiladi, ya'ni olingan natijalarga to'liq ishonch imkonini bersin. Ziyon etkazmaslik tamoyilida psixologik tashxis natijalaridan hech qachon tadqiqotda qatnashgan odamlarga nisbatan zarar etkazish maqsadida foydalanmaslik nazarda tutiladi. Xulosalarning ob'ektivlik tamoyili test o'tkazayotgan odamning sub'ektiv ustanovkalariga tobe bo'lmasligi, test olingan natijalardan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan bo'lib, validli va ishonchli metodika yordamida o'tkazilgan bo'lishi shart. Taklif qilinayotgan tavsiyalarning samaradorlik tamoyilida tavsiyalar albatta taklif qilinayotgan odamga yordam berishi shart. Test natijalari asosida taklif qilinayotgan tavsiyalar befoyda tasodifiy holatlarni keltirib chiqarmasligi kerak. Shunday qilib, ushbu mavzuda psixodiagnostika va eksperimental psixologiya fanining predmeti, vazifalari, bosqichlari, eksperimentator shaxsiga qo'yiladigan talablar, psixologik tadqiqotning asosiy metodologik tamoyillari bilan tanishdik. Har qanday psixodiagnostik metodika yo'q joydan paydo bo'lmaydi, balki (tashxislash) o'rganilayotgan ob'ektning psixologik nazariyasi asosida vujudga keladi va rivojlanadi. Masalan, intellekt testlari, intellektning hayotiy voqeliklarda namoyon bo'lishi, ahamiyati, tuzilishi va uning tabiati haqidagi ilmiy tasavvurlarga asoslanadi. Shaxs testlari, shaxsning tuzilishi, shaxs xususiyatlarining taraqqiyoti va tabiati, ilmiy ma'nosi haqidagi nazariyalarga asoslanadi.

2 Psixodiagnostik metodikalardan to'g'ri foydalana olish uchun albatta uning nazariy asoslarini bilish shart, aks holda psixodiagnost tadqiqot natijalarining analizi, sharhlash va xulosalarda xatoliklarga yo'l qo'yishi mumkin. Eksperimentator biron-bir psixologik testni mukammal o'zlashtirib olmagan bo'lsa va hech bo'lmaganda o'zida boshqa bir odamda sinab ko'rmagan bo'lsa, uni qo'llashga haqli emas. Bundan tashqari, psixodiagnostik metodikalarni qo'llashning shart-sharoitlariga qat'iy amal qilish shart. Ammo har qanday voqelikda ham psixologik tashxis bilan kim shug'ullanishidan qa'ti nazar – mutaxassismi yoki qiziquvchimi, quyidagi ma'naviy-ahloqiy me'yorlarga rioya qilishi shart: Shaxsni o'z xohishsiz psixologik tadqiqotga jalb qilish man qilinadi, faqat ba'zi bir hodisalar bundan mustasno, ya'ni sud tibbiyot amaliyotlari agar qonun bilan chegaralanmagan bo'lsa.

Psixologik testlar o'tkazishdan oldin sinaluvchi, tadqiqot jarayonida o'zi anglamagan holda, o'z fikri va hissiyotlari haqida ma'lumotlar berib turishi to'g'risida

ogohlantirib qo'yilishi kerak. Har bir odam agar qonun bilan chegaralanmagan bo'lsa, test natijalarining qachon, kim tomonidan va qanday maqsadda qo'llanilishi haqida bilishga haqlidirlar. Psixologik test natijalari tadqiqot o'tkazgan shaxs tomonidan sinaluvchiga tushunarli bo'lgan shaklda tayyorlab taqdim qilinadi. Voyaga etmagan bolalar bilan o'tkazilgan test natijalarini ularning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilishga haqlidir. Agar test shaxsning psixologik taraqqiyot darajasini aniqlash maqsadida o'tkazilsa, u holda sinaluvchi nafaqat testning maqsadini, balki kim tomonidan nima asosida test natijalarining xulosasi chiqarilishini bilishga haqlidir.

Psixodiagnostik tadqiqotlar amaliyotida psixologik diagnoz qo'yishning 3 bosqichi farqlanadi: 1.Simptomatik diagnozda mavjud har qanday EHM bajarishi mumkin bo'lgan tadqiqotda olingan natijalar qayta ishlanadi.

2.Etiologik diagnozda (kelib chiqish sabablari) biror xususiyatning mavjudligigina emas, balki uning vujudga kelish sabablari ham hisobga olinadi.

3.Tipologik diagnozda sinaluvchi shaxs tuzilishida olingan natijalarning ahamiyati va o'rni aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1.Z.Nishonova , Z. Qurbonova Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya T2014. 2.Pedagogika, 1982 3. Akindinova I.A. Osobennosti samoaktualizatsii lichnosti v professiyax razlichnogo urovnya sotsialnogo prestija: Avtoref. dis. ... kand. psixol. nauk. – SPb.: SPbGU, 2000. – 24 s. 3.Berulava G.A. Psixodiagnostika umstvennogo razvitiya uchashixsya: uchebnoe posobie. Novosibirsk. 1990. 4. Bleyxer B.M. Klinicheskaya psixologiya. - Tashkent: Meditsina, 1976, 326 s 6. Burlachuk L.F., Morozov S.M. Slovar-spravochnik po psixodiagnostike.-SPb.:Piter Kom.1999.-528 s.

BADRIDDIN AYNIYNING HAYOTI VA ILMIY MEROSI

Ismoilov Akramjon
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi 1-kurs «Islomshunoslik»
mutaxassisligi magistranti

Ismi va nasabi.

“Al-Binoya sharhul Hidoya” asarining muallifi buyuk olim, faqih, muhaddis Badriddin Ayniy rohmatallohi alayhi xazratlaridir. Ul zotning to‘liq ismi sharifi Maxmud ibn Ahmad ibn Muso ibn Ahmad ibn Husayn ibn YUsuf ibn Maxmud al-Aynatobiy al-Hanafiy. Kunyalari esa Abu Sano va Abu Muxammad. Laqabi Badriddin.⁶

Tug‘ilishi.

Badriddin Ayniyning shogirdi imom Ibn Tag‘riy Bardiy bergan ma’lumotga ko‘ra ustozi hijriy 762-yil Ramazon oyining 26-kuni (milodiy 1362-yil) Xalabdan 3 marhal (1 marhal – 44 km.532 metr) uzoqlikda joylashgan Aynatob shaxrida tug‘ilgan. Uning shogirdlaridan yana biri imom Saxoviyning ma’lumotiga binoan esa Badriddin Ayniy hijriy 762-yil Ramazon oyining 27-kuni tavallud topgani zikr qilinadi. Badriddin Ayniyga tug‘ilgan yurtiga nisbatan al-Aynatobiy deb, yoki qisqacha al-Ayniy deb nisbat berishgan.

Oilasi.

Badriddin Ayniyning oilasi ilmli, diyonatli, solih oilalardan biri bo‘lgan. Otasi va bobosi qozi, bobolaridan biri Husayn ibn YUsuf mashxur qorilardan bo‘lgan. Otasi SHihobuddin Ahmad ibn Muso hijriy 725-yil (milodiy 1326-yil) Xalab shaxrida tug‘ilib voyaga etgan. So‘ng Aynatob shahriga ko‘chib kelgan. U erda bir masjidga imom bo‘lgan. Keyinchalik qozilik martabasiga erishgan. U faqirlarni, bevalarni va etimlarni holidan xabar oluvchi, yaxshilik qiluvchi, fazilatli inson bo‘lgan. Ayniqsa ilm ahlini juda e‘zozlagan. Badriddin Ayniy otasi haqida quyidagi rivoyatni keltiradi: “Otam sahovatli inson bo‘lganlar. Hijriy 888-yil Aynatobdagi barcha etim va nochor insonlarni to‘plab ziyofat qilib berdilar. Men ana shu paytta o‘z ko‘zim bilan shahardagi g‘ariblarni it, eshak go‘shtini eyotganlarini ko‘rganman”.

⁶ Solih.yusuf.“Badriddin Ayniy va asaruhu fi ilmil hadis”. Doru ihyai turosil arabiyya.2004. 24-bet.

Badriddin Ayniy hijriy 819-yil oila qurdi. Uni bir necha farzandlari bo‘lgan. Tarix kitoblarida ularning bazilarini ismlari zikr qilingan: Abdulaziz, Abdurrohman, Ibrohiym, Ali, Ahmad, Abdurrohiym, Fotima va Zaynab.

Ilm olishlari.

Badriddin Ayniy ilmi, diyonatli oilada voyaga etti. Otasi o‘sha davr olimlari singari o‘g‘lini yoshligidan “Qur’oni Karim”ni yodlashga va ilm olishga undardi. Badriddin Ayniy etti yoshga yaqin birinchi ustozini Maxmud ibn Ahmad ibn Ibrohim Qazviniyning oldiga bordi. U o‘z zamonasining tengi yo‘q, buyuk xattoti bo‘lgan. Badriddin Ayniy qiroat ilmini dastlab Muhammad ibn Ubaydulloh(vafoti hijriy 893-yil)ning huzurida “Qur’oni Karim”ni choragini yodlagan. So‘ng “Qur’oni Karim”ni imom Hafs qiroatida xifz qilgan. Fiqh ilmini imom Abul Abbosdan ta‘lim olgan. Ash-SHams Muhammad ar-Ro‘iydan esa sarf, arab-tili va mantiq ilmlarini o‘rgangan.

Badriddin Ayniy o‘z ona yurti Aynatob shaxrida dastlabki ilmini olgan. Lekin yosh tolibi ilm bu bilimlar bilan kifoyalanib qolmadi. Ana shu davrning ilm markazlari bo‘lgan Halab, Damashq, Madina, Qohira va boshqa shaxarlarga ilm talabida safar qildi. Tabiiki Badriddin Ayniyning safarlarining eng yaxshisi Halabga bo‘lgan (hijriy 783-yil). U erda imom Yusuf ibn Musodan “al-Hidoya”ni ba’zi qismini ta‘lim olgan va asosan hanafiy mazhabiga oid fiqhiy kitoblarni o‘qigan. Imom Haydar Rumiyan meros ilmiga oid “al-Faroizus Sirojiyya” asarini sharhini ta‘lim olgan. Badriddin Ayniyning otasi hijriy 874-yil vafot etadi. SHu sababli vataniga qaytadi. Biroz Aynatobda yashagandan keyin haj safariga otlanadi. Hijriy 788-yil haj ibodatini tugallab, Baytul Maqdisni ziyorat qilishga boradi. U erda buyuk olim Alouddin Siyromiy bilan uchrashadi. Badriddin Ayniy bo‘lajak ustozini Alouddin Siyromiy bilan bo‘lgan voqe‘ani quyidagicha hikoya qiladi: “Men 788-yil Baytul Maqdisni ziyorat qilgani borib, u erni ziyorat qilish uchun kelgan etuk olim Alouddin Siyromiy haqida eshitdim. Men ul zotni ko‘rmagandim. Qalbidam unga nisbatan katta ishtiyoq paydo bo‘ldi. CHunki men uni ilm jixatdan insonlarning eng afzali va odob jixatdan insonlarning eng chiroylisi deb hisoblardim. U menga Misr diyoriga borib xizmat qilishni taklif qildi. Men esa ziyoratdan so‘ng vatanimga, oilamni oldiga qaytishni rejalashtirgandim. Men o‘n kun Quddusda istiqomat qilganimdan keyin Misrga borishga qaror qildim va Siyromiy bilan Qohiraga bordik”.

Badriddin Ayniy bo'lajak ustoz Alouddin Siyromiy bilan birga Misr poytaxti Qohiraga boradi. Qohira ana shu davrda Misrda hukmronlik qilgan Mamluklar saltanatining poytaxti hisoblangan. Badriddin Ayniy u erdagi Zohiriyya madrasasining hodimi sifatida xizmat qila boshladi. Badruddin Ayniy bu haqida shunday deydi: "Hijriy 788-yil (milodiy 1388-yil) Ramazon oyining avvalida ustozim meni chaqirdi. Menga madrasa hodimlarining boshqaruvchisi lavozimini berdi. Men esa bu lavozimga noloyiq ekanimni bildirdim. Ul zot meni o'zlariga noib sifatida ko'rishini aytgandan keyingina bu vazifani qabul qildim".

Badriddin Ayniy dastlab Alouddin Siyromiy, Ahmad ibn Xos, Sirojiddin Balqiniy, Zaynul Iroqiy va boshqa buyuk olimlardan fiqh, xadis, qiroat, tafsir va boshqa ilmlarini o'rganadi. So'ng Zohiriyya madrasasida xadis fanidan dars bera boshlaydi.

Hijriy 790-yil Alouddin Siyromiyning vafotidan so'ng madrasadagi ba'zi xodimlarni Badriddin Ayniyga qarshiligi ortadi. U xaqidagi yolg'on bo'xtonlar madrasa mudiri Jarkas Xoliyligacha etib boradi. Xoliliy esa Ayniyga madrasa va Misr diyoridan chiqib ketishini rasman e'lon qiladi. Bundan xabar topgan buyuk olim Sirojiddin Balqiniy mudirning oldiga kelib, Ayniy haqidagi barcha gaplar yolg'on va tuxmatligini isbotlab beradi. Xoliliy esa buyruqni bekor qiladi va Badriddin Ayniydan uzr so'raydi. Alloh Taolo xaqni yuzaga chiqaruvchi, botilni mahv qiluvchi zotdir. Bu xodisalardan ko'rinib turibdiki Badriddin Ayniy ham boshqa olimlar kabi ilm yo'lida katta qiyinchiliklarga, mashaqqatlarga yo'liqqan. U o'zining Romzul Haqiq sharhi Kanzi daqiq asarining muqaddimasida: "Eng aziz do'stlarim eng ashaddiy dushmanlarimga aylanishdi" deb hikoya qiladi. Mana shu kabi xodisalardan so'ng Badriddin Ayniy biroz Qoxirada yashab o'z vatani Aynatobga qaytadi.

Ana shu paytda (hijriy 792-yil) Mintosh Ashrafiy Zohir Barquq (Misrda hukmronlik qilgan Mamluk sultonlaridan biri)ga qarshi isyon ko'taradi. Sultonning askarlari Aynatob shahrini qamal qilishadi. Ba'zi odamlar Badriddin Ayniyga shahardan chiqib ketishni maslahat berishadi. Lekin u qochishdan ko'ra vatanida qolib aholini Sultonga qarshi chiqmaslikka va Mintoshga ergashmaslikka da'vat qildi. Mintoshni atrofida qilgan "agar shu odam bo'lmaganda xalq senga itoat qilardi" deyishgan. Mintosh Aynatobdan qochib ketadi. Qo'zg'olonni bostirilishida Badriddin Ayniyning katta

hizmatlari bo'ldi. So'ng Badriddin akasi Ahmad bilan avval Halabga keyin Misrga yo'l olishdi. U erda Muayyidiyya Madrasasida 819-yildan boshlab vafotigacha xadis fanidan dars berdi. Maxmudiyya Madrasasida esa fiqh fanidan dars berdi. Badriddin Ayniy umrining ohirigacha shu erda qolib ko'plab asarlar yozdi, madrasada juda ko'p talabalarga ta'lim berdi.

Badriddin Ayniyning vafoti

Malik Zohir Chaqmoq sulton bo'lgandan keyin Badriddin Ayniy qozilik vazifasidan bo'shatildi. SHundan so'ng . Badriddin Ayniy asosiy e'tiborini ilm-fanga qaratdi. Umrining ohirlarida bir madrasa qurdirdi. U erga barcha kitoblarini vaqf qildi. Madrasa tolibi ilmlar uchun ilm dargohiga aylandi. Badriddin Ayniy 93 yil ilm yo'lida xizmat qildi. Ta'lim oldi, dars berdi va ko'plab asarlar, sharhlar yozdi. YUqorida zikr qilingan davlat lavozimlarida xizmat qildi. Hijriy 855-yil Zulhijja oyining 4-kuni (milodiy 1453-yil) seshanba tunida vafot etdi. Ertalab hozirgi Al-Azhar universitetida janozasi o'qiladi va o'zining madrasasiga dafn qilinadi. Alloh rozi bo'lsin!

Badriddin Ayniyning ilmiy merosi

Badriddin Ayniyning qay darajada ilm sohibi ekanligi uni ustozlari va shogirdlaridan ham ma'lum. Biz Aynatobiyning yozgan asarlari bilan tanishib chiqqanimizda, ul zotning naqadar ilm sohibi ekaniga yana bir karra ishonchimiz ortadi. Badriddin Ayniy yashagan davrda turli fanlarga oid hisobsiz asarlar yozildi. Badriddin Ayniy ham juda ko'plab asarlar muallifi hisoblanadi. Bu haqda imom Saxoviy shunday deydi : “Ustozim shu qadar ko'p asar yozdiki, ulardan ko'proq asar yozgan olimni bilmayman”⁷. Mana shuning uchun ham uni yozgan asarlarini to'plash juda qiyin. CHunki u bilan zamondosh bo'lgan olimlar va tolibi ilmlar bunga qodir bo'lishmagan. Biz esa Badriddin Ayniyning yozgan asarlari haqida ko'proq ma'lumot berishga xarakat qilamiz.

Badriddin Ayniy xusnixati chiroyli va tez yozuvchi inson bo'lgan. Xattoki imom Quduriyning fiqhga oid Muxtasarul Quduriy asarini bir kecha kunduzda yozib tugatgani naql qilinadi. Badriddin Ayniy nasriy va nazmiy asarlarni ham maromiga etkazib yozgan. Badriddin Ayniyning hozirda mavjud asarlaridan yo'qolib ketganlari ko'proq. Quyida

⁷ B. Ayniy. “Al-Binoya sharhul Hidoya”.Dorul kurubil ilmiyya. Bayrut. Livan 2000. 68-bet

nashr qilingan va dunyo kutubhonalarida qo‘lyozma nusxasi saqlanayotgan kitoblarni keltirib o‘tamiz:

№	KITOB-LAR NOMI
1	Al-Maqosidun Nahviyya fi SHarhi SHavahid
2	Faroidul Qolaid fi Muxtasori SHarhish SHavahid
3	Romzul Haqoiq sharhu Kanzid Daqoiq
4	Al-Binoya SHarhul Hidoya
5	Umdatul Qoriy fi SHarhil Jami’il Kabiyr
6	Ar-Rovzuz Zahir fi Siyroti Malik Zohir Totor
7	As-Sayful Muhannid fi Siyaril Malik Muayyid
8	Mallahul Alvah fi sharhi Marohil Arvah
9	Kashful Qunna’ an Muhimmatil Usami val Kuna
10	Aqdul Jamman fi Tarixi Ahliz-Zaman
11	Tarixul Badr fi Avsofi Ahlil Asr
12	Tuhfatul Muluk fil Mavaiz var-Roqoiq
13	Ad-Duror fi SHarhil Bihar
14	Rosailul fiati fi sharhil Avamil
15	SHarhu Xutbati Muxtasorush SHavahid
16	SHarhu Qita’ti min Sunani Abi Davud
17	Al-Ilmu fi sharhil Kalimit Toyyib
18	Mabanil Axbar fi SHarhi Ma’nil Osor
19	Al-Masailul Badriyya minal Fatavo az-Zohiriyya
20	Al-Mustajma’ fi sharhil Majma’
21	Mag’onil Axyar fi rijali Ma’nil Osor
22	Manhatus Suluk fi sharhi Tuhfatil Muluk
23	Naxbul Afkar
24	Vasailut Ta’rif fi Masailit Tasrif
25	Takmilul Atrof

Yuqorida nomi zikr qilingan kitoblarning bazilari nashr qilingan, ba’zilarini esa kutubhonalarda asl qo‘lyozma nusxalari saqlanib qolgan.

МАКТАБГАЧА ТАРБИYA YOSHIDAGI BOLALARDA MEHNAT FAOLIYATINING AHAMIYATI

Mirzakarimova Gulzoda Abdujabborovna
Mingbuloq tuman 17- maktab psixologi

Bolaning aqliy faoliyatini rivojlanishida mehnat katta ahamiyatga ega. Maqsadga erishishga bo'lgan intilish maktabgacha tarbiya yoshidagi bolani materiallar, asboblarning xossalari va sifatlarini o'rganish zarur degan muammo oldiga qo'yadi, mehnat faoliyatiga kiritilgan materiallar va buyumlarni bilib olishga undaydi. Bilimlar sistemasito'planib boradi, alohida-alohida idrok qilish malakasi, tasavvurlari, fikrlash harakatlari va nutq rivojlanadi. Mehnat faoliyatii jarayonida avval olingan bilimlardan foydalaniladi, bu esa bilimlarni amliy faoliyatda qo'llash masalasiga, ziyraklik va faxm-farosatning rivojlanishiga olib keladi.

Natijaga erishish mehnat jarayonini rejalashtirishni: materialla, asboblarni tanlashni, bir qator ishlarni izchilligini belgilashni talab qiladi. Bu hayol rejalovchi faoliyatning rivojlanishiga yordam beradi. U esa o'z navbatida, faqat natija emas, oraliqdagi natijani ham ko'ra bilish, mehnat jarayonini maqsadga muvofiq qurish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Bolalarning mehnati jismoniy kamolot uchun ham katta ahamiyatga ega. Mashqlarning faolliigi, jismoniy zo'r berish bolaning organizimidagi barcha sistemalarning ish faoliyatini oshiradi. Mehnatdagi harakatlar, ularning muvofiqligi, uyg'unligi, ixtiyoriyligi, takomillashib boradi. Mehnatdagi maqsadlarga erishish ijobiy hissiy holatni keltirib chiqaradi, bolaning ish faoliyani oshiradi.

Shunday qilib, mehnat bolaning har tomonlama rivojlanish vositasi bo'lib, undan bolalar bog'chasining pedagogic jarayonida aynan shu maqsadda foydalaniladi.

Mehnatning rivojlantiruvchanlik roli mehnat faoliyatining rivojlanganlik darajasi bilan chambarchas bog'langan. Mehnat faoliyatining rivojlanganlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, bola shaxsini takomillashtirish maqsadida undan shunchalik samarali foydalaniladi.

Bolaning mehnat faoliyatini uch yo'nalish bo'yicha rivojlanishda, tashkil topishda deb qarash kerak. Bular:

- 1) mehnat o'yindan ajratib qo'yish va uni mustaqil faoliyat sifatida rasmiylashtirish;
- 2) mehnat faoliyati tarkibiy qismlarning tashkil topishi –bolaning mehnat turlarining tashkil topishi;
- 3) xilma-xil mehnat turlarini tashkil topishi.

Mehnat va o'yin genetik jihatdan predmetli faoliyatdan paydo bo'ladi.Ular bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Mehnatning o'yin faoliyatidan ajraluvchi birinchi farqi shundan iboratki, mehnatning doimo aniq ifodalangan natijasi bo'ladi va u bolaning yoki bolalar jamoasining ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi. Natijaga erishilmaydigan mehnat jarayoning ma'nosi ham bo'lmaydi.

Ikkinchi farq shundan iboratki, mehnat jarayonini doimo real reja bo'yicha kechadi:unda yolg'ondek vaziyatlar, bir buyumni boshqalari bilan ish ko'radi, mehnat natijasiga erisha borib, ularni amliy ravishda qayta o'zgartiradi.

Shu bilan birga o'yin bilan mehnat o'rtasida mustahkam aloqa mavjud. Kichik maktabgacha tarbiya yoshida mehnatning o'zi o'yinda paydo bo'ladi.Kattalarning ish harakatlariga taqlid qilish bolalar o'yinining mazmunini tashkil qiladi. Bolalarni natija emas, balki ish jalb etadi, lekin o'yinda ish harakatlariga taqlid qilish ularni jalb etadi, lekin o'yinda ish harakatlariga taqlid qilish ularni o'zlashtirib olishga va bu bilan mehnat faoliyatini ajralib chiqishiga yordam beradi. Lekin u dastlabki paydo beqaror bo'ladi va muayyan sharoitlarda yana o'yinga o'tib ketadi. Bu yo'nalish ham o'rta, ham katta maktabgacha tarbiya yoshida saqlanib qoladi. Masalan, uyni qordan tozalashda tarbiyachi o'yin jihatini kiritadi.

Katta maktabgacha tarbiya yoshiga kelib bolalar o'zlariga ma'lum bo'lgan ishning maqsadini qabul qiladigan yoki uni o'zlari belgilaydigan, bu maqsadini qabul qiladigan yoki uni o'zlari belgilaydigan, bu maqsadga erishish usullarini bilgan vaqtda mehnat faoliyati mustaqil ahamiyat kasb etadi va o'rnini o'yin egallab olmaydi.Mehnat jarayonida o'yin mayllari surib chiqariladi. Odatda, bolalar kerakli natijaga erishmaguncha ishni to'xtatmaydilar,o'yinga chalg' olmaydilar va mehnatning o'rnini o'yin bilan almashtirmaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Oilada bolalarni muvaffaqiyatli tarbiyalash shartlari.
- 2.Maktabgacha tarbiya pedagogikasi.

O'QUVCHILARNI KASB TANLASHLARIGA PSIXOLOGIK KO'MAKLASHISH

Axmedova Nodira Yusupovna
Yunusobod tumani 288-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning kasb tanlash muammolari va ularga psixologik yordam ko'rsatish haqida ma'lumot berilgan.

“O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son qaror bilan respublikamizda uch bosqichli professional ta‘lim joriy etilishi talablarida belgilangan talablariga kompleks yondashish kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining samaradorligini ta‘minlaydi.

Shaxsning kasbiy shakllanishi va mutahassis sifatida kamolga yetishini uning hayot yo'lidan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi. Psixologik adabiyotlarda ta'kidlab o'tilganidek, kishining kasbiy shakllanishi butun hayoti davomida kechadigan jarayon bo'lib uning yoshiga hamda shaxsning taraqqiyotiga mos holda boradi.Kasbiy faoliyat sohasidagi muvaffaqiyat va mutahasissining mahorat darajasiga erishish sur'ati uning kasb tanlash motivlari bilan o'zaro aloqadordir. Kasb tanlash har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri. Kasb nafaqat daromad manbayi, balki inson umrining asosiy qismini sarflaydigan faoliyat hamdir. Kasb tanlayotgan shaxs undan talab qilinadigan bir qator jihatlarga ham alohida e'tibor qaratishi lozim:

-umumta'lim maktablarida beriladigan ta'lim darajalaridagi bilimga ega bo'lish;

-kasb tushunchasining ta'rifini, tabiatini, xususiyatlarini, kasblar sonini va turlarini bilishi;

-kasbni inson hayotida qanchalik muhim ekanini tushunishi, u haqda ma'lum bir tasavvurlarga ega bo'lishi;

-kasb tanlashga kerak bo'lgan idrok va xohishning bo'lishi;

-o'z maqsadi va manfaatini to'g'ri anglab olishi;

-kelajagi haqida tasavvurga ega bo'lishi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi kasb-hunarga yo'naltirish yakuniy ideal natijasi- bu har bir o'quvchida mustaqil va ongli ravishda kasbiy o'zlikni anglashning shakllanganligidir. Shaxsda kasbiy o'zligini anglash shakllanishini kasbiy mahoratning vujudga kelishidagi asosiy me'zonlardan biri sifatida quyidagi bir nechta bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Kasblar olami haqidagi aniq ko'rgazmali tasavvurlarning paydo bo'lish davri. Bu Davr 2,5-3 yoshdan boshlanib 10-12 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Taraqqiyot davomida bolaning ongida kasblar olami haqidagi turli-tuman tasavvurlar shakllanib boradi. Boshlang'ich ta'limda esa yetakchi o'quv-biluv faoliyatida o'quvchining kasblar haqidagi tasavvuri yanada kengayib boradi.

2. O'zini kasbiy bilish davri. Ko'plab kasblar haqidagi tasavvurlarni o'zlashtirib olgach, o'quvchi ularni u yoki bu shaklda qo'llay olishi kerak. Kasblar haqida yetarli bilim, ko'nikma va tayyorgarlikka ega bo'lmaganliklari sababli ba'zi o'quvchilar o'zlarini biror kasbiy sohada namoyon eta olmaydilar. Biroq, ularda yangi yetakchi faoliyat tengdoshlari bilan muloqot jarayonida o'zini bilishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchli namoyon bo'ladi.

3. O'zini kasbiy aniqlash davri. Ushbu bosqichda kasbiy o'zligini anglash yakunlanadi. Bu davr maktabni tugatgandan keyin ham davom etishi mumkin. O'quvchida kasbni o'rganishning aniq yo'nalishi, barqaror qiziqishlar, kasbning talablariga mos bo'lgan shaxs xususiyatlarining shakllanishi kuzatiladi.

Yoshlar o'z kelajagini anglagandagina, qiziqish va manfaatlarini anglab olgandagina, hayotidagi ehtiyojlarini tushungandagina kasb tanlashi oson kechadi. Kasb insonni boquvchi asosiy omil va hayotini tashkil etuvchi asos hisoblanadi. Bu asosni tanlashda beriladigan quyidagi tavsiyalar va bir qator jihatlar foydadan holi bo'lmaydi.

O'quvchilar uchun tavsiyalar:

-o'zingizda qaysi kasbga moyillik va qiziqish yuqori ekanini psixologik testlar orqali birlamchi bosqichda aniqlab oling (bunda maktab psixologi sizga yaqindan yordam beradi);

-turli kasbiy yo'nalishlar istiqbolli soha va mutahassislik to'g'risida bilimlaringizni mustahkamlab boring;

-9-sinfdan boshlab asta-sekin o'zingiz tanlagan yo'nalish bilan tanishish maqsadida institut va universitetlarda o'tkaziladigan "ochiq eshiklar kuni"da ishtirok eting;

-adabiyotlar,onlayn platformalardan yangi kasb sohalari haqida ko'proq ma'lumot oling;

-istaklaringiz, qiziqish va qobiliyatlaringiz, salomatligingiz va maqsadlaringizni muvofiqlashtiring;

-imkoniyat bo'lsa kasb tanlash bo'yicha malakali mutahassis bilan maslahatlashing;

-tanlayotgan kasbingizdan sizga keladigan moddiy daromadni emas, balki undan olishingiz kerak bo'lgan ma'naviy ozuqani ham hisobga oling.

Ota-onalar uchun tavsiyalar:

-qanday kasb tanlashni farzandingizni o'ziga qo'yib bering;

-siz tomoningizdan berilayotgan maslahatlar zarur va foydali, lekin ular yakuniy qaror bo'lmasligi yordamchi ta'sir bo'lishiga e'tibor qarating;

-farzandingizni qiziqish, qobiliyat va layoqatini yoshligidan kuzatib, rivojlantirib boring;

-farzandingizni istak va maqsadlari bilan o'rtoqlashing;

-farzand otasi yoki onasining kasbini davom ettirmoqchi bo'lsa bu juda yaxshi, lekin bunga uni siz majburlamang;

-farzandingizni kasb tanlashi va kasbiy yetuklikka erishishi uchun iloji boricha yetarli sharoit yaratib bering;

-farzandingiz kasb tanlashida o'z imkoniyatlari va shaxsiy sifatlaridan kelib chiqishi to'g'risida maslahatlar bering.

Bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan kasbiy yo'nalishi yoshlarda hozirgi iqtisodni, menejment boshqarish nazariyasini, bozor muhitidagi marketing faoliyati va mo'ljalni,

patent olishga kirishni, ma'lumotlarni bilishi va ularni mohiyatini tushunish- buning uchun informatika va informatsiyalar asoslarini egallagan bo'lishlari kerak bo'ladi.

O'smirni kasb tanlashida o'zini aniq maqsadlarini anglab olishi va kasbga ega bo'lishga intilishi- bu ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Bunda 3 ta asosiy omillar birlashishi va ularga moslashishi kerak bo'ladi. Bular:

Men xohlayman, Men eplay olaman, Men qila olaman omillaridir.

"Xohlayman" -bu shaxsning intilishi, qiziqishi, xohlashi.

"Eplay olaman" - bu insoniy imkoniyatlar (fiziologik va psixologik, shuningdek shaxsning ta'lim resurslari).

"Qila olaman"-mehnat bozorining ehtiyojlari, insonni jamiyat, odamlar, oilasi va shu kabilar oldidagi majburiyatlari.

Asosiysi tarbiyachi bo'lgan ota-onalar o'z bolalariga kasb tanlashida yordamchi hisoblanadilar. Ular bilan ochiq suhbat bolalar qaysi kasbga qiziqishlarini bilib olishlari va ularga yordam berishlari zarur. Agar bola tanlagan kasb ota-onaga yoqmasa uni ra'yini qaytarmagan holda nima uchun bu kasbni tanlagani va buning asosida nimalar yotganini bilib olishlari zarur.Asosiy omilni bilib olgach, o'z maslahatlarini berishlari mumkin bo'ladi. qo'llab -quvvatlash, ishonch bildirish va o'z maslahatlarini berishdan iborat.

O'qituvchi va o'quvchi faoliyatining natijasi bu kasbga yo'natirishda yaqqol ko'zga tashlanadi. O'qituvchi faoliyatining natijasi o'quvchilardagi psixologik ko'rinishda o'z aksini topadi, ya'ni ularning bilimlarida, uddalay olishlarida, malakalarida, shaxsga xos tomonlarini ko'rinishida, dunyoqarashlarida, ma'naviy ehtiyojlarida o'z aksini topadi.

O'quvchilar faoliyatining natijasi- bu aniq bir kasbni tanlab olishlarida, uni bajarishni uddalay olishlarida, shu sohani olib borish imkoniyatlarida ko'rinadi.

Unutmang, inson kasbida jon saqlashi emas, balki shu kasbda yashashi kerak. Shundagina qilayotgan ishi haqiqiy sevimli kasbi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. E.G'.G'oziyev. K.K.Mamedov "Kasb psixologiyasi". Toshkent 2003
2. F.R.Abduraxmonov. Z.E.Abduraxmonova. "Kasb psixologiyasi". Toshkent 2018.
3. Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari, sabab va yechimlari. Maqolalar to'plami.Toshkent. 2020.

БОЛАЛАР ВА ЁСМИРЛАРДА ТАРБИЯ БУЗИЛИШИНING КЕЛИБ ЧИҚИШИДА ИЖТИМОЙ МУҲИТ ВА ОИЛАВИЙ ТАРБИЯНИНГ ЎРНИ

*Ахмедова Нодира Юсуповна
Юнусобод тумани 288-мактаб психологи*

Оиладаги носоғлом психологик муҳит ва оилавий тарбиядаги йўл қўйилаётган нуқсонлар ҳамда таълим жараёнида кузатилаётган нуқсонлар, болалар ва ёсмирлар яшаётган маҳаллалар ҳаёти, уларнинг психологик муҳити вояга етмаганларда хулқ оғишининг келиб чиқишига ўз таъсирини ўтказмасдан қолмайди. Маълумки, объектив шарт-шароитлар ва ижтимоий муҳит воқеа-ҳодисалари ёсмирнинг онги, хоҳиш иродасига бўйсунмаган ҳолда таъсир этади ва унинг онги, дунёқараши, шахс сифатида шаклланиш ва хулқ-атвори мазмунини белгилаб беради. Учинчидан эса ғайриқонуний йўл-йўриқлар ва роллар тақсимооти ёсмирда аста-секин ижтимоий муҳит талаб ва меъёрларига нисбатан деформациялашувнинг келиб чиқишига сабаб бўлади. Қолаверса, ўз ноқонуний ҳаракатларининг жавобсиз қолишини, катталар томонидан маъқулланишини ҳис этган ёсмир низоли вазиятларга барҳам беришда ноқонуний йўлни танлайди. Чунки у ота-онасидан, атрофдагилардан жазо олмаслиги биледи. Бу эса ёсмирга янги-янги ноқонуний ҳаракатларни бажаришга имконият эшигини очиб беради. Ота-оналарнинг оилада фарзандлари билан қилаётган муомала ва муносабатлари кўринишлари болалар ва ёсмирларда хулқ оғишининг келиб чиқишига баъзан сабаб бўлиши мумкин. Кузатишларга қараганда, кейинги йилларда оилаларда турли хил сабабларга кўра, хусусан юртимизда кечаётган ислоҳотлар, бозор муносабатларига ўтиш, кишиларда кундалик турмуш ташвишларига барҳам бериш, қийинчиликларни енгиб ўтиш ва келажакка нисбатан янгича қараш лаёқатининг етишмаслиги ва шу кабилар оилада фарзандлар тарбиясига эътиборнинг биров сусайишига сабаб бўлиб, ота-оналар фарзандлари билан кам мулоқотда бўлишига тўғри келмоқда.

Шу боисдан юртимизда оиладан ташқарида фарзандлар камолоти, тарбияси билан машғул бўладиган турли хил машғулотларга, (спорт, касб-хунар) тўғарақларга нисбатан бўлган эҳтиёжнинг ортиб бораётганлиги кузатилмоқда. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, бу борада мамлакатимизда олиб борилаётган тадбирлар мақтовга сазавордир. Аммо бу соҳада ҳали қилинадиган ишлар ҳам бисёрдир. Оилада етарлича тарбия кўрмаган болалар турмуш қийинчиликларидан қоқилади. Турли хил низоли вазиятларга дуч келади. Тарбиясизлик ўсмирни яхши ўртоқларидан, давралардан айиради. Оқибатда ўсмир учун бирдан-бир йўл носоғлом хулқли ўсмирлар даврасига қўшилиб кетиш бўлиб қолади. Болалар ва ўсмирларда хулқ оғишининг келиб чиқишига сабаб бўлувчи оилавий тарбияга боғлиқ бўлган омиллардан яна бири оилавий тарбияда приметив (эскирган, номаъқул) усуллардан фойдаланиш ҳисобланади. Бундай тарбия усулида тарбия ўта қаттиққўллик, авторитар, болаларнинг фикр ва қарашларини инобатга олмаслик асосида олиб борилади. Бундай усулда болаларни тарбиялашнинг нотўғри эканлигини бугун ҳаётнинг ўзи кўрсатиб турибди. Чунки бугунги ёшлар мустақил фикрлашга интилувчан, ўз қарашларига эга бўлган, ақлан етук ёшлардир. Оқибатда ўзига маъқул бўлган оиладан ташқари гуруҳ ёки кўча муҳитини қабул қилади. Бу муҳит ўзининг характериға кўра, болага салбий ёки ижобий таъсир қилиши мумкин. Афсуски, носоғлом муҳит психологиясига эга бўлган кўча муҳити болаларға кўп ҳолатларда салбий таъсир кўрсатади.

Маълумки, ўсмирлик (12-14 ёш) даврида кескин психофизиологик ўзгаришлар содир бўлади. Ушбу ўзгаришлар кўпинча ўсмир руҳиятиға ҳам таъсир ўтказди. Бу ўсмирда тажанглик, серзардалик, инжиқлик, таъсирланувчанлик ҳолатларининг келиб чиқишиға сабаб бўлади. Ўсмир руҳий дунёсида пайдо бўлган бундай ўзгаришлар балоғат даври ўтиши билан бир меъёрга келиб қолади. Шунинг учун балоғат ёши даврида ота-оналар ўсмирлар тарбиясига алоҳида эътибор беришлари, уларда кечаётган психофизиологик ўзгаришларни ҳисобга олишлари мақсадға мувофиқдир. Кўпинча оилавий тарбияда

болаларнинг ёш ва индивидуал-психологик хусусиятларининг инобатга олинмаслиги уларнинг нотўғри, ёмон йўлларга кириб кетишларига сабаб бўлади. Оилада ота-оналар кўпинча фарзандлари бирон бир ёмон иш қилиб қўйса, уни қаттиқ жазолаш, тақиқлаш ва уларни уйдан чиқармай қўйиш усуллари орқали тарбияламоқчи бўладилар. Фарзанди ўзларига ёқадиган ишга қўл урса уни ҳаддан ортиқ мақтайдилар ва мукофотлайдилар. Ўзлари қўллаётган усулларни қай бири тўғри, қай бири нотўғри эканлигини англаб етмайдилар. Ўзларича тарбия шундай берилади, деб ўйлайдилар. Натижада ўзлари билмаган ҳолда болаларининг тарбиясига салбий таъсир кўрсатадилар. Шунинг учун отаона энг аввало, оилада болаларни тарбиялаш тўғрисидаги назарий ва амалий билимларга эга бўлиши лозим бўлади. Бунинг учун эса улар тарбия тўғрисидаги педагогик ва психологик китобларни, газета ва ойномаларни кўпроқ ўқишлари зарур бўлади.

Бугунги кунда ўзбек оилаларида ота-оналарнинг ёки оиланинг катта аъзоларининг рад этиш, таъқиқлаш, руҳсат этмаслик асосидаги тарбиялаш усули ҳам болалар ва ўсмирларда хулқ оғиши ва баъзан ўз жонига қасд қилиш ҳолатларига сабаб бўлаётганлиги кузатилмоқда. Бу хилдаги тарбия усулида болаларнинг хоши-истаги, ўй-хаёллари, орзу ва интилишлари, фикр ва мулоҳазалари инобатга олинмайди. Бундан ташқари бундай тарбия усулида болаларга ўз фикр мулоҳазаларини очикча баён этиш, мустақил қарорларга келиш ва муайян вазиятларга ўз нуқтаи назарини билдириш имконияти чекланади. Бундай тарбия усулида баъзан болаларнинг хатти-ҳаракатлари мажбурий тарзда тақиқлаш усуллари билан бошқариб борилади. Уйда бу нарсага тегиш мумкин, бу нарсага тегиш мумкин эмас, бу кийимни киясан, бунисини киймайсан қабилидаги муносабат ўрнатилади. Боланинг қизиқиши, эркинлиги, ўзига ёққан кийимни кийиши, кўнгли истаган иш билан машғул бўлиши, қизиққан китобини ўқиши ва хоҳлаган спорт тури билан шуғулланиши ота-она ихтиёри билан амалга оширилади. Шунингдек, уларда нутқнинг суст ривожланиши ҳолати ҳам кузатилади. Бундай болалар бутун умр давомида

бировларга тобе бўлиб яшайдилар. Уларда раҳбарлик, бошқарувчанлик қобилиятлари суст ривожланган бўлади. Улар бировларнинг гап-сўзларига тез учадилар. Шунинг учун улар алдовлар, кўзбуямачиликлар, таъмагирликлар қурбонига айланиб қолмоқдалар. Қолаверса, улардаги фикрлаш қобилиятининг суст ривожланганлиги низоли вазиятларга тез-тез тушиб қолишликка сабаб бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. С.Х.Таджиева, Д.Ф.Сабилова “Танглик вазиятида қолган болага психологик ёрдам кўрсатиш”. Т.: РБИММ, 2011 й. 142 б
2. Ғозиев Э.Ғ. Ўқувчиларнинг умумлаштириш усулларига ургатиш ва уларнинг аклий тараккиёти. Т., "кит" 1983 й.
3. Практикум по психодиагностике, Дифференциальная психометрика. (Под ред. В.В.Столина, А.Г.Шмелева. М: Изд-во М., Ун-та, 1984 г. 154
4. Практическая психология образования: Учебник для студентов высших и средних учебных заведений. Под ред. И.В.Дубровиной. - 2- е издание. - М.: ТЦ «Сфера», 1998.

O'QUVCHILARINI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH.

*Mamathanova Gulzoda Tursunovna
Namangan viloyati Uychi tumani 33-maktab psixologi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi o'ziga hos jihatlarni ta'limda pedagogik texnologiyalarning qo'llashning afzalliklari, o'quvchilar dunyoqarashining rivojlanishida texnologiyalarning o'rnini xususida fikrlar bildirilgan. Shuningdek ta'lim pedagogik texnologiya rivojlanishiga xisssa qo'shgan olimlarga ham qisqacha

to'xtalib o'tilgan. Umuman ta'limda innovatsion yondoshuv ijobiy natijalar berishi yoritilgan.

Davlat va jamiyat hayotini modernizatsiyalash jarayonlarining harakatga keltiruvchi kuchi, O'zbekistonning bugungi va istiqboldagi izchil taraqqiyotining bosh omili bo'lgan insonning ma'naviyatini va kasbiy salohiyatini yuksaltirishda tajriba va mahoratini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Demak, bugungi kun mutaxassisi o'z ustida tinimsiz mehnat qiladigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, hozirgi kunda kasbiy o'zlikni anglash muammosi davr talabidir.

Birinchi yurtboshimiz I.A.Karimov: "...yuksak maqsadlarga erishishning hal qiluvchi omillaridan biri bu – hech shubhasiz, mamlakatimiz aholisining ongu-tafakkuri va dunyoqarashida yuz berayotgan o'zgarishlar, uning hayotga, mehnatga bo'lgan munosabati, tobora o'sib borayotgan siyosiy va huquqiy madaniyati, desam, aslo mubolag'a bo'lmaydi" – deb ta'kidlaydi.⁸

Kasb-hunar kollejo'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Kollejo'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish ayniqsa, insonning tarbiyalanganligini, balki, eng avvalo, u bashariyat tomonidan jamlangan amaliy tajribalarni o'zlashtirib olishni nazarda tutish zarur.

Kasb-hunar egallashida shaxsning yangi integrativ sifat ko'rsatkichlarini hisobga olish, uni kasbiy mahorat va kasbiy yetuklikka yo'naltirish masalalari alohida o'rin egallaydi. Unda o'qituvchining turli sifatleri majmuasi o'z aksini topadi.

Bugungi kunda kasb-hunarga yo'naltirish muammosi faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va metodistlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Biroq shuni ta'kidlash joizki, hozirgacha bu murakkab ijtimoiy hodisaning mohiyatini ifodalovchi, uning ta'limni

⁸Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir.Xalq so'zi 2012 y/ 8 dek.

takomillashtirish sharoitidagi aniq xususiyatlarini mujassamlashtirilgan kasb-hunarga yo'naltirish faoliyatga moslashish konsepsiyasi ishlab chiqilgan emas. Bugungi kunda kasb-hunarga yo'naltirishga ehtiyoj mavjud bo'lib, uning obyektiv muammolari ham ko'zga tashlanmoqda. Bu muammolarni aniqlash va hal etish yo'llarini topishning zaruriy dasturlarini amalga oshirish lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha amaliyotda qo'llanilayotgan o'quv-dasturiy hujjatlar tahlili ularning quyidagi davr talablariga javob bera olmasligini ko'rsatdi:

- o'quv rejalarida o'quvchilarning bo'lajak kasbiy faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lgan maxsus fanlarni o'rganishga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan;

- mutaxassislikning o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan o'quvchilarni o'quv ishlab-chiqarish va pedagogik amaliyotlarining zamon talabi darajasida yo'lga qo'yilmaganligi;

- ayrim o'quv fanlarining mazmunan bir-birini takrorlashi, ya'ni ular orasida izchillik,uzviylik va fanlararo aloqadorlikni o'rnatilmaganligi;

- umumta'lim fanlarining mazmunida kasbiy yo'nalganlik ta'minlanmaganligi;

- nashr etilgan darsliklar, o'quv va metodik adabiyotlar hamda didaktik tarqatma materiallarning hozirgi kun talablarini yetarlicha qondira olmasligi;

- ta'limning moddiy-texnik, ilmiy-metodik jihatdan zamonaviy talablar darajasida jihozlamaganligi.

Abu Nasr Forobiyning ta'kidlashicha, "ta'lim-degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatlarini birlashtirish tarbiya esa, shu xalq o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir. Ta'lim faqat so'z va o'rganish bilangina bo'ladi. Tarbiyachi esa amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir"-deydi.⁹

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy-pedagogik bilim hamda dunyoqarashlarini yanada yuqoriroq darajaga ko'tarish, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayoni va darsdan tashqari ishlarda

⁹Breslav G.M. Emotsionalnye osobennosti formirovaniya lichnosti v detstve: norma i otkloneniya. – M.: Pedagogika, 1990. – 140 s.

kasbga yo'naltirishning maqsad va vazifalari, mazmuni, shakl hamda metodlari haqida ma'lumotlarni keltirish, mashg'ulotlarda kasbga qiziqtirish va yo'naltirish ishlarini to'laqonli olib borish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqoridagi keltirilganlarni barchasi, farzandlarimizning o'z istagidagi kasbnitanlashiga imkon yaratilishi mumkin. Farzandlarimizning kelajagini to'g'ri yaratish, biz pedagoglar va ota-onalarning vazifasi hamda burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. Xalq so'zi 2012 y 8 dek.

2. Breslav G.M. Emotsionalniye osobennostiformirovaniyalichnosti v detstve: norma i otkloneniya. – M.: Pedagogika, 1990. – 140 s.

PSIXOLOGIK XIZMATDA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI MAVJUD BO'LGAN O'QUVCHILAR BILAN OLIB BORILADIGAN ISHLAR

Raxmanova Umida Ne'matjanovna
Namangan viloyati Yangiyo'rg'on tumani 1-maktab psixologi

Annotatsiya: Shaxs tarbiyasi. uning ijtimoiy- psixologik kamolati har qanday davlatning bosh strategik maqsadlaridan biridir. Chunki shaxsni ma'lum ezgu g'oyalar, ijtimoiy psixologik va yuksak intellektual shaxs sifatida tarbiyalamay turib har jihatdan kamol topishga qodir jamiyatni qurib bo'lmaydi.

Kalit so'zlar: psixologik maslahat, shaxs, muloqot, autism, psixologik korreksiya, ahloq, suhbat.

Ayni dam maxsus maktab va maktab-internatlarda faoliyat ko'rsatayotgan amaliyotchi psixologlarning faoliyatida o'quvchilar ruhiy holatlarini o'rganish. xulqatvoridagi —o'g'ishlar|ni oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rish. stress. nizo va ko'plab salbiy emotsional kechinmalarining oldini olish ishlarini to'g'ri tashkil qilish

psixologik xizmatning samaradorligini oshirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mana shunday muammoli holatlarni yo‘qotishda esa psixologik xizmat sohasida mavjud bir qancha yo‘nalishlar yordam beradi. 1. Kirish qismi: Shaxs shakllanishidagi —inqirozli davrlarning o‘quvchilar xulq-atvoriga ta‘siri. Shaxsning shakllanishi dunamik xususiyatga ega. Shuning uchun uning rivojlanishida goho igarilashib ketsa. goho taraqqiyotdan orqada qolib ketish holatlari kuzatiladi. Ba‘zan —inqirozli davrlarni boshidan o‘tkazayotganlar esa o‘zlarini jismoniy va ruhiy salomatliklari bilan bog‘liq xotirjamlikni yo‘qotib qo‘yadilar. Ruhiy tushkunliklar natijasida o‘z istiqbol rejalarini tuza olmaydilar. xuddi shu bois. o‘zlarining ijtimoiy mavqelariga putur yetkazadilar. Mazkur holatlarni o‘rganar ekanmiz. bunda barcha yondashuvlarga. tamoyillarga. yo‘l-yo‘riqlarga zamon ruhi orqali nazar tashlash talab etiladi. Bizni qiziqtirayotgan psixik buzilishning boshlanishi va namoyon bo‘lish jarayoni. uni tashkil qiluvchi xususiyatlari hamdakechishining asosiy holatlarini chuqur tahlil qilish xulq-atvor rivojlanishining nazariy namunalarini tuzish va shakllantiruvchi tajriba majmuasini yaratish. Psixokorreksion ruhiy tuzatish zarur hisoblanadi. Xulq- atvor psixologiyasida. jumladan jahon psixologiyasi fanining asosiy tushunchalaridan hisoblanadi. Ko‘p hollarda esa bu psixologik kategoriya sifatida qaraladi. —Inqirozli davrlar orasida o‘smirlik davri o‘zining xilma-xilligi va murakkabligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda o‘smirlarni voyaga yetkazishnin o‘ziga xos qonuniyatlari. xususiyatlari. imloniyatlari. xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. O‘smirlik davri taqlidchanligi. muqim nuqtai nazarning shakllanmaganligi. hissyotlilik. mardligi. tantililgi bilan farqlanadi. O‘smirlik davri xususiyatlarini tadqiq qilgan D.B. Elkonin va T.V.Dragunovlarning ta‘kidlashicha. o‘g‘il-qizlarning bu davrda o‘rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi. tengdoshlari jamoasining hayotiga qiziqishi yorqin namoyon bo‘ladi. O‘smir o‘quvchilarning to‘g‘ri va to‘liq ta‘lim va tarbiya olishi uchun oila va maktabning o‘rni beqiyosdir.

2. Muammoni bartaraf etishning asosiy yo‘nalishlari. Mazkur muammoni bartaraf etishda quyidagi asosiy yo‘nalishlar mavjud:

- Xulqida og‘uvchanligi bo‘lgan o‘quvchilar. ularning sinf rahbarlari. ota-onalari bilan tizimli ishlash.

- Bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining oldini olishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.
- Psixologik profilaktika yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan ishlarni maqsadli va uzluksiz olib boorish.
- Psixologik diagnostika yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan ishlar.
- Psixologik korreksiya yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan ishlar,
- Psixologik maslahat yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan ishlar.
- Psixologik pedagogik konsiliumlar va ularni o'tkazish tartibi.
- Voyaga yetmagan bolalarni o'z joniga qasd qilish holatlarining oldini olishni amaliyotga muntazam joriy etish.

Sinfdagi o'quvchilar sonining tobora ortib borishi. maktabga jiddiy his-hayajon tangliklari bilan keladigan o'quvchilar sonining ortib borayotganligi va bilim va axloq darajalari turlicha bo'lgan o'quvchilardan iborat sinflar bilan ishlashga to'g'ri kelayotgan bir vaqtda. o'qituvchilar talabalarni rag'batlantirish va boshqarishning samaradorligini oshirishga tobora ko'proq ehtiyoj sezishmoqda. Turli xil jismoniy va ruhiy nuqsonlari mavjud o'quvchilarni sinflarga qo'shish harakatining kuchayib borayotganligi va sinflarda ta'lim borasida muammolari mavjud o'quvchilar sonining ko'payib borayotganligi va sinflarda ta'lim borasida muammolar mavjudligi o'quvchilar uchun psixologik muammo yaratishga sababchi bo'ladi. O'sib kelayotgan yosh avlod ertangi kunimiz. kelajagimizning davomchilari ekanligini hisobga oladigan bo'lsak o'quvchilardagi mavjud psixologik muammolarni. jumladan xulq-atvorida —og'ishli borlar bilan turli psixoprofilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish bugungi kunda o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

3. Maktabda psixologik muammolari bor o'quvchilar bilan psixologik maslahat o'tkazish shartlari. Psixologik maslahat psixologik xizmatning obyektiga qarab o'zgarib rivojlanib o'zgarib boradi. bu esa individuallik. shaxsga yo'naltirilganlik tamoyiliga asoslanadi.

Shuningdek. quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Bola tarbiyasidagi qiyinchilikni bartaraf etishning optimal psixologik yo'llarini aniqlash.

- O‘smirning ichki ruhiy holatini: maqsadi. hayotga munosabati. o‘z-o‘ziga ishonchi. irodaviy – hissiy o‘zini boshqarishni tahlil etib. shularga mos ravishda maslahat berish.
- Maqsadga erishishda o‘smir bilan psixologik birgalikda harakat qilishi.
- Psixologik qiyinlikni bartaraf etish orqali o‘smir hayotidagi ijtimoiy. Shaxsiy vazifalarni hal etish.
- Ayniqsa. o‘smirlar bilan ishlashda uning individual psixologik xususiyatlarini bilish. maslahat berishda aniq maqsad qo‘yish.

4. Xulosa

Hozirgi davrning muhim xususiyatlaridan biri bugungi zamon talablariga mos keladigan. yangicha fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta‘kidlaganidek : — Fikrlash. ishlash va yashash madaniyatiga ega bo‘lgan mustaqil shaxsni voyaga yetkazishimiz kerak. O‘zbekiston Respublikasining — Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonuni va — Kadrlar tayyorlash milliy dasturida talablari asosida bolalarga ta‘lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni milliy istiqloq g‘oyalari asosida sog‘lom. har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Afsuski. bugun maktablarimizdagi bir qancha o‘quvchi yoshlarimizning ruhiyatida. xulq-atvorida muammolar uchrab turibdi. Ularning kelib chiqish sabablarini esa biz yuqorida ko‘rib chiqdik. Lekin ularni bartaraf etilmasligi oqibati ko‘plab salbiy holatlarga olib keladi. bu ham o‘ziga va o‘zgalarga qolaversa. Butun jamiyatga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Shuning uchun bu jarayonda maktab amaliyotchi psixologi bir qator psixologik tadbirlar amalga oshirishi va mazkur o‘quvchilar bilan ko‘p suhbat uyushtirishi kerak. Shuning uchun biz ta‘kidlaganimizdek maktab amaliyotchi psixologi psixologik xizmat sohasidagi bir qator yo‘nalishlarini ishga solgan holda ruhiyatida buzilishlari bor o‘quvchilar bilan birga psixokorreksion ishlarni amalga oshirishi va mavjud muammolarni bartaraf etishi kerak bo‘ladi. Shuningdek. bu vazifalarni amalga oshirishda amaliyotchi psixolog bilan birgalikda sinf rahbari ma‘naviy va ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari. ota-onalar qo‘mitasi. mahalla fuqarolar yig‘ini. voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash inspektori. Yoshlar Ittifoqi. hududiy sport va madaniyat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirishi kerak. Shundagina psixologik xizmatni to‘laligicha amalga oshirgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adizova T.M. Psixokorreksiya. – Toshkent. Tafakkur. 2010. 150-b
2. Mahmudova D, A. Psixokorreksiya asoslari. – Toshkent. Fan va texnologiya nashriyoti. 2011. 128-b
3. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat. Toshkent. TDPU, 2006. 128-b

OILAVIY KONFLIKTLARNING FARZANDLARGA PSIXOLOGIK TA'SIRI

Abdullayeva Husnida Turg'inaliyevna
Chust tumani 52-IDUM psixologi

Inson o'z hayotida bolalik davridanoq boshqa insonlar bilan turli ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Inson hayoti boshqalar bilan bo'ladigan turli munosabatlarning uzluksizligidan iborat bo'lgan jarayondir. Ana shu munosabatlar esa har doim ham bir tekis, silliq va tinch davom etavermaydi. Hayotning bir tekis davom etishini turli nizo va ziddiyatlar buzib turadi. Biz ularni konfliktlar deb ataymiz. Konflikt har bir inson hayotiga aloqador bo'lgan o'ziga xos jarayon bo'lib, hech bir inson o'zini komil ishonch bilan konflikt vaziyatlardan muhofaza qilinganman deb ayta olmaydi. Konfliktlar inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki har bir inson o'z hayoti davomida konfliktlar bilan to'qnash keladi. Konfliktlar tabiiy hodisa bo'lib, konflikt bilan to'g'ri munosabat o'rnatish inson tarbiyasi, uning shakllanishining zaruriy talablaridan biridir. Psixologik jihatdan konfliktlarni o'rganish faqat nazariy emas, balki juda muhim amaliy ahamiyatga ham ega. Fanning bu sohasi vaziyatlarda yuzaga keluvchi konfliktlarning oldini olishga, ularni hal qilish uchun samarali choralarni qo'llashga yordam beradi.

Oila insonlarni birlashtirib turuvchi eng kichik ijtimoiy birlik bo'lib, uning tinchligi, ravnaqi va barqarorligi jamiyat tinchligi va barqarorligi hisoblanadi. Shu bois, J.Santayana "Oila tabiatning shoh asarlaridan biridir", deydi. Oila – ma'naviyat o'chog'i.

Aynan oilada insonning ma'naviy qadriyatlari 11 shakllantiriladi¹⁰. Insonning har tomonlama unib-o'sishi uchun sharoit yaratiladi. Biroq, aynan oila tarkibida, insonlarning juda yaqin aloqalari va ma'lum munosabatlarga kirishishi natijasida turli inqirozlar, ziddiyatlar, nizolar kelib chiqadi. O'zbek oilasining tarixiy rivojlangan o'z milliy an'analari mavjud. Ular oiladagi tomonlar majburiyatlari, mas'uliyati va huquqlarini belgilab beradi. Ham ayol kishi uchun, ham erkak kishi uchun ma'lum talablar qo'yiladi. Ayol kishi ko'proq uyda, bolalar tarbiyasi va uy yumushlari bilan shug'ullanishi lozimligi, erkak kishining esa – oila a'zolarining moddiy ta'minotini amalga oshirishi lozimligi aytiladi. O'zbek oilasi o'z rivoji bosqichlarida islom dini qadriyatlarini ham o'ziga singdira olgan. Shu bilan birga oila instituti har vaqt o'z davrining ijtimoiy, iqtisodiy talablariga hamoxang tarzda o'sish va takomil jarayonida bo'ladi. Agar avvallari oila instituti o'zining kichik bir dunyosi ichida tashqi ta'sirlardan bir qadar erkin yashagan bo'lsa, hozirda har bir oila va uning a'zolariga globalizasiya sharoitida juda katta axborot oqimlari o'z ta'sirini o'tkazadi. bu ham ma'lum darajada oilaviy konfliktlarni eltirib chiqaradi,

Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Shu sababdan turmushdagi va oila a'zolari munosabatlaridagi o'zgarishlar uning moddiy-maishiy, iqtisodiy negizi o'zgarishiga bevosita bog'liqdir. Oila a'zolarining o'zaro muomalalarini tadqiq qilgan venger sosiologi M.Komlosi 10-14 yoshdagi maktab o'quvchilarining o'qishga va mehnatga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir qiluvchi oila muhiti (vaziyat, sharoit, holat) omillarini to'rt ruyhga ajratadi: 1) ota-onalarning jamoatchilik faoliyati (ularning mafkuraviy qarashlari va ishga nisbatan munosabatlari); 2) oila ichidagi munosabatlari (ota va ona munosabati, ota-onalarning buva va buviga munosabatlari, aka-ukalar va opa-

¹⁰ Иномова М.О. Оилада болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси. –Т.: ТДПУ, 1999; Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий ғурур. –Т.: Ўқитувчи, 2000; Мусурмонова О., Баубекова З. Ўқувчиларнинг маънавий маданиятларини шакллантириш. –Т.: Фан, 1993; Сафаров О., Махмудова М. Оила маънавияти. –Т.: Маънавият, 1998; С.Очил. Мустақиллик маънавияти ва тарбия асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1997; Шайхова Х., Назаров К. Умуминсоний кадриятлар ва маънавий камолот. –Т.: Ўзбекистон, 1992; Юсупов Э. Инсон камоллигининг маънавий асослари. – Т.: Университет, 1998; Нишанова С. Маънавият дарслари. –Т.: Ўқитувчи, 1994; Холматова М. Оилавий муносабатлар маданияти ва соғлом авлод тарбияси. –Т.: Ўзбекистон, 2000; Холматова М., Муравьева Н. Ёшлар оилавий ҳаёт бўсағасида. –Т.: Ўзбекистон, 2000; Тўраева О. Ҳаёт сабоқлари. –Т.: Ўзбекистон, 2005; Тўраева О. Оилавий ҳаёт этикаси ва психологияси. –Т.: Ўқитувчи, 1990; Қурбонов Т. Одобнома. –Т.: Ўқитувчи, 1990; Фитрат. Оила. –Т.: Маънавият, 1998.

singillarning o'zaro munosabatlari); 3) ota-onalarning tarbiyaviy-pedagogik faoliyati (ularning tarbiyaviy muammolari, qiziqishlari, maktab bilan hamkorliklari, o'quvchilarga dars tayyorlash kezida ota-onalarning yordami, ularning tarbiyaviy ahamiyati); 4) oilada o'quvchining faoliyati (o'quvchining kundalik tartibi, xo'jalik ishlaridagi muayyan majburiyati) va boshqalar. M.Komloshi yiqqan materiallarini tahlil qilib, oila muhiti (vaziyati, sharoiti, holatini uch toifaga: ijobiy, o'zgaruvchan va salbiy toifalarga ajratadi. Psixolog olim V.I.Selivanov oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o'rganib, baxtli bolalik-bu oiladagi quvonchli hamjihatlikning hamda ota-onalarning bolalariga g'amxo'rligining samarasidir, degan xulosaga keladi. Muallif oilalarni yo'nalishiga qarab, uch toifaga mansub ekanligini ko'rsatib beradi: ijtimoiy-ilg'or yo'nalishdagi oila, ziddiyatli yo'nalishga ega bo'lgan oila, past darajadagi ijtimoiy yo'nalishga mansub oila.

Halqimizda **“qush uyasida ko'rganini qiladi”** degan maqol bor, tabiiyki har bir bola o'z ota-onasidan o'rnak oladi. Oiladagi doimiy konfliktlar, ota-onaning kelishmovchiliklari bolaning ruhiyatiga birinchi navbatda, tarbiyasiga, dunyo qarashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bizning halqimiz azal-azaldan bunga e'tibor qaratishgan xususan, Mahmud Qoshg'ariy bu to'g'risida o'sha davridayoq fikr bildirganlar “Axloqiy tarbiyani izchil va tartibli amalga oshirishda oila muhiti g'oyat muhim rol o'ynaydi. Inson axloqiy, ma'naviy va ruhiy qiyofasining poydevori oilada qo'yiladi. Shuning uchun ham mashhur allomalar oila tarbiyasiga katta e'tibor berishgan hamda shu masalaga bag'ishlab qator qimmatli asarlar yozishgan. Dono xalqimiz «Bola — boshidan, nihol — yoshidan» degan naqlni bejiz aytmagan. Modomiki shunday ekan, yosh avlodni tarkib toptirish, tarbiyalash ishini yoshlikdan, oiladan boshlash kerak. Bi-nobarin, oiladagi tarbiya jarayonida har bir daqiqa va fursatni qo'ldan boy berish orqali ota-onalar keyinchalik ko'pgina qiyinchiliklarga duch keladilar. Axir, noto'g'ri tarbiya tufayli nafs balosi o'qiga giriftor bo'lgan o'n gulidan bir guli ham ochilmay turib umri xazon bo'lgan yoshlar kammi? Donishmand tili bilan aytganda, «Qapg'a ochlik, tashnalikning qiyinchiligini sezsa, muzni teshadi; bekinib turgan ovchini ko'rmay, uning tuzog'idagi donlar uchun parvo qilmay kiravsradi»¹¹

¹¹ M.Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk, Toshksnt, 1960, 401-bet

Ota-ona obro'sini orttirishda, eng avvalo, ibrat-namuna muhim rol o'ynaydi. Oilada tarbiya ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ota-ona tinmay o'zlarini tarbiyalab borishlari kerak. O'zlarida yetishmaydigan sifat va fazilatlarni to'ldirib, mavjud illatlarni batamom tugatishlari lozim. Chunki ota-onalarning tarbiya jarayonidagi ists'dodi — bu farzandlarga nisbatan muhabbat va sadoqatdan iboratdir. Agar ota-onalar o'zlari kelisishmasa ularni bola oldidagi hurmtlari yo'qoqladi. Har kun ota-onasining janjaliga voqif bo'ladigan farzand uydan qochishga ko'proq ko'chaga intilish ularda kuchayib ketadi. Buning oqibatida bolaning psixologiyasiga salbiy ta'sir kuchayadi so'ngra har xil deviant holatlar bolada kuzatilishi mumkin. Bu jamiyatimiz uchun juda kotta zarardir. Bu kabi holatlarni oldini olish uchun Ota-ona farzandlar o'rtasida obro'ga ega bo'lishlari kerak, buning uchun qator chora va tadbirlarni amalga oshirishlari zarur. Dastavval ular turli yoshdagi farzandlari ruhiy dunyosiga mos muomala qilishlari darkor. Kichik, o'rta va katta yoshdagi o'g'il-qizlar bilan muloqotda ularning yosh xususiyatlariga mos muomalada bo'lish shart.

Oilada totuvlikning mavjud bo'lishi barcha muvaffaqiyatlarning garovidir. Chunki oila a'zolarining bir-biriga bo'lgan munosabatlari kelajak avlodning qanday shaxs bo'lib voyaga yetishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Иномова М.О. Оилада болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси. –Т.: ТДПУ, 1999;
2. Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий ғурур. –Т.: Ўқитувчи, 2000;
3. Холматова М. Оилавий муносабатлар маданияти ва соғлом авлод тарбияси. –Т.: Ўзбекистон, 2000;
4. Холматова М., Муравьева Н. Ёшлар оилавий ҳаёт бўсағасида.-Т.: Ўзбекистон, 2000;
5. М.Қошғ'арий. Devonu lug'otit turk, Toshkent, 1960, 401-bet
6. www.Ziyonet.uz
7. www.fikr.uz
8. www.edu.Uz

OTA-ONALARNING TARBIYAGA OID TUSHUNCHALARINI PSIXOLOGIK RIVOJLANTIRISHI

O'tanboyeva Feruza Abdusamatovna
Sirdaryo viloyati Guliston tuman 1-sonli IDUM psixologi

Oila-jamiyatning ajralmas bo'lagidir. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarni inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila-bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa har bir inson o'z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog'laydi, ya'ni o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini to'laqonli baxtiyor his etadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki oilaning mavjudligi eng avvalo ota va onaning o'z vazifalarini bajarishi bilan bog'liq. Tug'ulgan farzandning yetuk inson bo'lib voyaga yetishida, ota-onaning o'rni nihoyatda katta. Agar oilada ota-ona o'z vazifasini ijobiy bajarsa, ya'ni bolada oilaga, ota-onaga, keksalarga hurmat, o'zaro yordam hislatlari shakllansa, kelajakda oila qurgach, o'zi ham farzandlarini xuddi shunday tarbiyalashga intiladi. Muxtaram prezidentimiz Sh. Mirziyoyev jamiyatda oilaning mavqiyini oshirish, yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash va yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish maqsadida bir qator amaliy ishlar olib bormoqdalar.

Zero hadisi shariflarda ham ota va onaning tarbiyachilik maqomlari to'g'risida shunday deyilgan: "Hech bir ota-ona bolasiga yaxshi odobdan ortiq hadya bera olmaydi". Hazrati Alisher Navoiyni o'qir ekanmiz, uning "Farzand hayotda har narsadan ustun va sevishga loyiq tabiat mujdosidir". Shuning uchun ham "Bolaga ko'z-quloq bo'lmaslik, uni nazoratsiz qoldirish o'z vaqtida to'g'ri tarbiya bermaslik, keyinchalik yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin" degan purma'no so'zlari millatimizda farzand tarbiyasi borasida ota-onaning ma'suliyati milliy qadriyat ekanligidan darak beradi.

Vatanimizning bugungi va ertangi taqdiri yosh avlodning kasb mahorati, intellektual darajasi, ma'naviy taraqqiyoti, jismoniy salomatligiga bog'liq bo'lib, bu darajaning amaldagi ko'rinishi oiladagi ma'naviy hamda psixologik muhitga bog'liqdir.

Ya'ni, farzandning har tomonlama kamol topishida avvalo shu oiladagi ijtimoiy psixologik muhit katta rol o'ynaydi.

Oiladagi muhit esa eng avvalo uni tashkil etuvchilar o'rtasidagi samimiy munosabatlarning xarakteriga bog'liqdir. Oilalarimizda har tomonlama sog'lom muhit hukmron ekan, farzandlarimiz barkamol voyaga yetadilar, fuqarolari barkamol jamiyat esa hech qachon zavol topmaydi. Jamiyat tayanchi sog'lom oila bo'lar ekan, farzandlari millat darajasida tafakkur qilishga qodir bo'lgan bunday yurt barqaror taraqqiyot yo'lidan og'ishmaydi, amalga oshirayotgan barcha islohotlarimiz albatta o'z samarasini beradi. Zero, oilaviy tarbiya va undagi ota va ona ma'suliyati masalasi bizning qonunlarimizda ham muhrlab qo'yilgan. Mamlakatimizning bosh qomusi konstitutsiyamizning 64 moddasida "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar" degan normaning mavjudligi ham ota va onalarga qonuniy yuklangan vazifadir. Ushbu Konstitutsiyaviy normaning bajarilmasligi ayni global o'zgarishlar davrida ota-onalik institutining muhimligini yanada yaqqol namoyon etadi: Bolalarimizni yoshlik chog'laridan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga etkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan, bu masalaga e'tibor bermaslik nafaqat ayrim ota-onalar, balki butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ham ko'pgina hayotiy misollarda ko'rishimiz mumkin.

Shunday qilib, oila - bu er-xotin, ota-ona va bolalar o'rtasida shakllangan munosabatlarning tarixiy tizimi, uning a'zolari bir-birlari bilan qarindosh-urug'chilik va nikoh bilan bog'langanlar. Malumki, oila yaxshi va ma'qul an'analar va qadriyatlarni buzilmagan holda saqlab, ularni keyingi avlodga yetkazish vazifasini bajarib kelgan. Shunga ko'ra, hozirgi kunda ham oilaning asosiy vazifalaridan biri-millatga xos bo'lgan avlodlar tarbiyasidagi uzluksizlikni ta'minlab berishdir.

Jamiyatdagi o'zgarishlar oilaga ta'sirini ko'rsatganidek, oiladagi o'zgarishlar ham jamiyatga albatta o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bola shaxs sifatida shakllanishi, orzu-umidlar qanot yozib kelajakka intilishlari oila muhitida qaror topadi. Oiladagi xayrixohlik, o'zaro munosabat atrof- muhitga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Olib borayotgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, ota-ona obro'sining ko'tarilishi yoki pasayishida farzandlarning alohida o'rni bor. Ayniqsa, pedagoglar, olimlar, rahbarlik lavozimida

faoliyat yuritayotgan insonlarning oilalarida bu jarayon o'ziga xos xarakterga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Aynan rahbarlik lavozimida ishlaydigan xodimlarning 37 foizi oilada farzand tarbiyasiga alohida vaqt ajratib, ota-onalik ma'suliyatini unutmasliklari, vaqtlari tig'iz bo'lishiga qaramasdan farzandlariga munosabati pedagogik-psixologik talablar darajasida ekanligi aniqlandi.

Ayniqsa, farzand ota-ona buyurgan uy yumushlarini o'z vaqtida bajarib borishi, o'qishga yoki ishga ketish oldidan ota-onalaridan ruxsat yoki fотиha olib chiqib ketishlari, imkon qadar ota-onaning ko'ngliga qarab odob bilan muomala qilishlari, ota-ona so'ragan paytda "labbay" deb javob berishlari oila sharoitida farzandni ota-ona oldidagi burchini to'g'ri ado etayotganligini ko'rsatadi.

Farzandning mehnatsevar, hunarli, epli va aqlli bolishini xohlagan ota-ona esa avvalo o'zi har bir qilgan amalida farosatli, didli, sabr- toqatli, har qanday maqsad muddao oldida qiyinchilardan qo'rqmaydigan halol va tirishqoq ekanligini ko'rsata oilshi zarurdir. Zero, bugunning bolasi uchun aytish tushuntirish hadeb pan-nasixat qilayerish kamlik qiladi, uni o'rgatish, unga namuna va ibrat bolish insoniy fazilatlarni amalda ko'rsatish malakasiga ega bolish lozim.

Bola tarbiyasini ta'minlovchi barcha omillarni ota va ona bilishi shart. Bola ularning psixologik jixatdan idrok etar ekan, undan barcha xatti-harakatda o'rnak oladi. Oila bu ishda madad beruvchi talim muassasalari esa xar bir tarbiyalanuvchini qaysi oila farzandi ekaniigi undagi ota-ona farzand munosabatlarining xarakterini bilgan holda uning qalbiga yol topishi kerak. Mahalla faollari esa xar bir xonadonda o'sib voyaga etayotgan yoshlar tarbiyasining eng xalq bop, qadriyatlarimizga asoslangan uslub va shakllarini joriy etib, amalda "Oila-maxalla-talim muassasasi xamkorligi konseptsiyasi" ning ijrosini ta'minlashlari darkordir.

Albatta, bularning barchasi avvalo farzandlarimiz qalbida istiqbolida mustaxkam va ahil oila qurishga nisbatan intilishini shakllantiradi, demak, o'z sayi harakatlarimiz bilan farzandlarimizni kelgusi hayotga tarbiyalab boramiz. Eng muhimi oila qo'rg'onimizni but, farzandlarimizni sog'lom, munosabatlarimizni samimiy qilish vositasida yoshlarimizni turli xil zararli illatlar domidan, giyohvandlik, axloqsizlik, dinsizlik, "Ommaviy madaniyatning tahdidlaridan asrab qolamiz.

Birinchidan, oila muhiti va undagi sog'lom munosabatlarda ayolning roli katta ekanligidan kelib chiqib qizlar tarbiyasi borasida onalar, maktab psixologi, mahalladagi diniy ma'rifat va ma'naviy axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha mahalla maslaxatchilari hamkorligini oshirishning ilg'or va ta'sirchan pedagogik psixologik usullarini takomillashtirish, qizlarni kasb-hunarli va ma'lumotli bo'lishlariga katta e'tibor berish.

Ikkinchidan, bola ongi shakllanishning ilk maskani oila ekanligidan kelib chiqib, ota-onalikning tarbiyaviy imkoniyatlarini yanada ko'chaytirishning moddiy va ma'naviy asoslarini ilmiy- amaliy jixatdan chuqur o'rganish va amaliy ta'sirini ishlab chiqish.

Uchinchidan, milliy mentalitetimiz xususiyatiga ko'ra bola shaxsining tarbiyalanganlik darajasini belgilashda mahalla omilining roli katta, "Mahalla- ham ota ham ona" degan naql xam bejiz emas. Shu bois mahallalar qoshida eng faol, ko'pni ko'rgan ma'naviy darajasi yuksak fuqarolardan foydalangan holda o'quv markazlari, to'garaklar, klublar, ijtimoiy ko'nikma maskanlari, maslaxatxonalar, "Ishonch telefonlar" kabi ijtimoiy institutlar tashkil etish va ular samaradoriligini monitoring qilish uslublarini takomillashtirishda shu maxalla hududida joylashgan maktabgacha ta'lim, umum o'rta talim va kasb hunar ta'limi muassasalarining amaliy va ta'sirchan hamkorligini yo'lga qo'yish lozim.

XULQ – ATVOR VA ODATLARNI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK TAVSIFI

Urunova Marxabo Kenjaevna
Dang'ara tumani 18 -maktab psixologi

Shaxsga taaluqli bo'lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob'ekt, ham sub'ekt bo'lishlikdir. Shaxsga taaluqli bo'lgan fazilatlardan eng muhimi shuki, u shu tashqi, ijtimoiy ta'sirlarni o'z ongi va idroki bilan qabul qilib, so'ngra shu

ta'sirlarning sub'ekti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanoq «mening hayotim», «bizning dunyo» degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o'sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, huquq, axloq olamidir. Bu muhit - kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an'analar, udumlar, turli xil tillar olami bo'lib, undagi ko'plab qoidalarga ko'pchilik mutloq qo'shiladi, ba'zilar qisman qo'shiladi. Bu shunday qoidalar va normalar olamiki, ularga bo'ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta'kidlanadi. Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib - qoidalarni qabul qiluvchi sub'ekt bo'lsa, jamiyat - ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko'rinishidir.

Shaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar ta'sir qiladi : siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy va boshqalar. Bu ta'surotlar mohiyatan aslida jamiyat a'zolari bo'lmish shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ayrim alohida yo'nalishlarini belgilab beradi.

Shunday qilib, shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta'sirida bo'ladi va ko'plab ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, o'quv maskanlari, mehnat kollektivlari, norasmiy tashkilotlar, din, san'at, madaniyat va boshqalar.) bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, shaxsdagi turli g'oyalar, fikrlar va mafkura mafkuraviy munosabatlar tizimi ta'sirida shakllanib, ular bevosita oila, bog'cha, maktab va boshqa o'quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta'sir uning e'tiqodi darajasida ko'tarilsa, va unda yana yangidan - yangi fikrlar va g'oyalarning paydo bo'lishi va o'sishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, o'z qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yo o'qituvchi, yoki vrach, yoki olim, kashfiyotchi, muhandis bo'lib, elu - yurtiga xizmat qiladi. Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlari shakllanishida katta rol o'ynaydi. Masalan, bosqichma - bosqich bozor munosabatlariga o'tayotgan O'zbekiston sharoitini oladigan bo'lsak, yangicha iqtisodiy o'zgarishlar, bozor, raqobat, legalizatsiya va shunga o'xshash yangiliklar har bir shaxsning moddiy boyliklar va ularga bo'lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iqtisodiy ongi, tafakkuri va iqtisodiy xulqi normalarini belgilaydi.

Ijtimoiy norma - shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq - atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar

talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, «Assalomu alaykum» deb kelishi - norma; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishi lozimligi - norma; xotinning er hurmatini o'rniga qo'yishi, qaynonaga gap qaytarmaslik - norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rin bo'shatishi - norma va hakoza. Bu normalarni ayrim - alohida odam ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muxrlanadi.

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo'lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi. Ijtimoiy sanksiyalar - normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob'ektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Masalan, yuqoridagi misolda, agar jamoat transportida katta mo'ysafid kishiga o'rin bo'shatishni norma deb qabul qilmagan o'smirga nisbatan ko'pchilikning ayblov ko'zi bilan qarashi, yoki og'zaki tanbex berishi, juda kam hollarda o'zini bebosh tutayotgan o'smirning qo'lidan tutib, nima qilish kerakligini o'rgatib, «ko'zini moshday qilib ochib qo'yish» ijtimoiy sanksiyaning hayotdagi bir ko'rinishidir.

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi. Rol - shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi huquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo'lsak, uni bajarish - u yoki bu oliy o'quv yurtida tahsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a'zo bo'lish, stipendiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy himoyasida bo'lish kabi qator huquqlar bilan birgalikda o'sha oliygoh ichki tartib - intizomi normalariga so'zsiz bo'ysunish, darslarga o'z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o'zlashtirish normalarini bajarish, amaliyotda bo'lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi

qator burchlarni ham o'z ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan «farzandlik» roli (ota va ona, yaqin qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya'ni, konkret shaxsning o'ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli - tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi.

Shunga ko'ra, kimdir «tartibli, ba'mani, fozil, axloqli va odobli» deyilsa, kimdir - be'mani, bebosh, o'zgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya'ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda - betartib) degan hayotiy mavqega ega bo'lib qoladi. Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko'pligi sababli ham, turli vaziyatlardagi uning mavqei - statusi ham turlicha bo'lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o'zi uchun o'ta ahamiyatli bo'lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o'sha vaziyatda boshqacharoq, noqulay va noboproq mavqeni egallab qolishi mumkin. Qolaversa, rollarning ko'pligi ba'zan rollar ziddiyatini ham keltirib chiqarishi mumkinki, oqibatda - shaxs ichki ruhiy qiyinchiliklarni ham boshdan kechirishi mumkin. Masalan, sirdan taxsil olayotgan talaba sessiya paytida ishlab turgan korxonasiga komissiya kelishi va uning faoliyatini tekshirayotganligini bilib, ruhiy azobga tushadi - bir tomondan, talabachilik va uning talablari, ikkinchi tomondan - kasbdoshlar oldida uyalib qolmaslik uchun har kuni ishxonaga ham borib kelish. Hozirgi ijtimoiy - iqtisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi raqobat muhiti shaxsdan bir vaqtning o'zida qator qobiliyatlar va malakalarni talab qilmoqdaki, ayniksa, yoshlar o'zgaruvchan sharoitlarga tezrok moslashish uchun ba'zan bir - biriga zid hislatlarni ham xulqda namoyon qilishga majbur bo'lishmoqda. Masalan, yosh oila boshlig'i, talaba, ota - onalarga moddiy jihatdan qaram bo'lmaslik uchun, bir vaqtning o'zida ham itoatkor, intizomli talaba va ishdan keyin esa - chaqqon va uddaburon, tadbirkor, tijoratchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lishi mumkin. Bu holat tabiiy, shaxsdan kuchli iroda, doimiy intiluvchanlik va o'z ustida muttasil ishlashni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.Ismoilova, D.Andullayeva-“Ijtimoiy psixologiya”.Toshkaent-2013.
2. V.Karimov, O.Xayitov-“Shaxsning ijtimoiylashuv masalasi”.Toshkent-2007.
3. Library.tersu.uz.
4. Science.i-edu.uz.

МАКТАБ АМАЛИЙОТЧИ ПСИХОЛОГИ ВА ПЕДАГОГ ЖАМОАНИНГ О`SMIR YOSHDAGI O`QUVCHILAR BILAN ISHLASHI BO`YICHA TAVSIYALAR

Sobirova Zubayda Qo`ziboyevna
Xorazm viloyati Qo`shko`pir tuman 52-maktab psixologi

Maktab psixologi, o`qituvchisi va umuman har bir tarbiyachi uchun bolalarning o`smirlik davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtai nazaridan ham pedagogik nuqtai nazaridan ham muximdir. Bu davrni biz yana o`tish davri ham deb ataymiz. O`smirlik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o`z ichiga qamrab oladi, ya`ni 5-8 sinf o`quvchilarini. O`smir o`quvchilarni ta`lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va hususiyatlarini ba`zan yetarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi. Kichik va katta yoshdagi maktab o`quvchilariga qaraganda o`smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko`p qiyinchiliklar bo`ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda kiyin kechadi. Bu jarayon o`smirlar psixologiyasining odamlar bilan bo`lgan munosabat formalarining jiddiy ravishda o`zgarishi, hamda hayot sharoitining o`zgarishi bilan bog`liqdir. Bu davrda o`smirlarning o`z shaxsiy fikrlari paydo bo`ladi. Ularda o`z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologiyaning aniqlashi bo`yicha o`smirlarning psixik taraqqiyotini xarakatga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatlari bilan tug`iladigan extiyojlar bilan bu extiyojlarni qondirish imkoniyatlari o`rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir. Qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotini, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik hususiyatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilishdan iboratdar. Shundan keyin psixik taraqqiyotning yuksakroq bosqichiga o`tiladi. Sana shu nuqtai nazardan o`smirlik yoshini yanada oydinroq qarab chiqaylik. Bola boshlang`ich sinfni tugatadi. Bolaning o`rta maktabda o`qishga o`tishi uning hayotida burilish davri hisoblanadi. O`smirlarning yangi ijtimoiy jixatdan tashkil topgan va rang-baranglantirilgan faoliyatni uning psixologik hamda shaxsning tarkib topishiga asos, sharoit va vosita xizmat qiladi. Shunday qilib, o`smirlarga ta`lim-tarbiya

berishning yangi to'g'ri usullari hamda vositalarni topishi uchun o'smirlik yoshining o'ziga xos xususiyatlarini jismoniy va psixologik taraqqiyotini yaxshi bilishimiz kerak. O'smirlik yoshining mazmuniy xarakteristikasi vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi, chunki inson xayotining xususan ijtimoiy sharoitlari o'zgaradi.

Psixologiya taraqqiyotining biologik omillariga o'smirlar ongiga og'ir, ba'zan kuchi etmaydigan bo'lib tushadigan, ularni jiddiy psixik inqirozga va hayajonga soladigan, masalan: o'smirlar uchun xarakterli bo'lgan norozilik, qo'pollik, qaysarlik, o'z-o'zini analiz qilishga moyillik sub'ektiv olamga va shunga o'xshash hislatlarni keltiradigan jinsiy etilishga nixoyatda katta axamiyat beradilar. Jinsiy yetilish munosabati bilan paydo bo'ladigan yangi sezgilar fikrlar, maylliklar, kechinmalar guyo usmirlar ongida xukmron bo'ladi. Ularning xulki atvorini belgilaydi. Mana shu tarika oqibat natijada o'smirlarning psixologik qiyofalari asosan yolg'iz sof biologik omil deb qaraladi. Psixologlarning fikricha yosh psixologik xususiyatlari faqatgina yolg'iz biologik jihatidan etilishi va taraqqiyot etilishining natijasi bo'lmay balki bolaning ijtimoiy hayot sharoitlari va faoliyatlarining o'zgarishi hamda bu jihatdan yangi ijtimoiy omillarning paydo bo'lishi natijasida o'smirning taraqqiyotiga va unga beriladigan maktabdagi ta'lim va tarbiya berishni aniq tashkil qilish o'smirlarning konkret hayot sharoitlari va faoliyatning mahsuli deb qarab bo'lmaydi.

Boshqacha qilib aytganda ijtimoiy sharoitlar rolini konkret hayot sharoitlari va faoliyatlarining roliga almashtirib bo'lmaydi. Mana shu yuqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, o'smirning yoshi va uning xususiyatlari absolyut ahamiyatli kasb etmaydi shu munosabat bilan o'smirlik yoshi mutloqo aniq ma'lum va absolyut chegara hamda xarakteristikaga ega emas bu erda ancha muhim bo'lgan ma'lum fikrlar bor. Bu farqlarni konkret ijtimoiy omillarning ta'siri bilan va o'smirlarga beriladigan turli ta'lim va tarbiya sharoitlarining ta'siri bilan tushuntirish mumkin. Taraqqiyotning asosiy yo'nalishi bolaning o'smirlik davridagi taraqqiyotining asosiy xarakteristikasini ajratish mumkin. O'smirlik davri organizmning jo'shqin o'sish davridir. Bu davrda tananing intensiv ravishda rivojlanishi yuzaga keladi, Musqol apparatlari mutsahkamlanadi va skeletning suyaklanish jarayoni davom etadi. O'smirlarning yoshi ham jismoniy psixik xususiyatga egadir, organizm Pavlov ta'limotiga ko'ra, bir butun sitsemadan iborat

bo`lib, bunda barcha to`qimalar va organlar fiziologik jarayonlar uzviy ravishda bir-biri bilan bog`langan bo`ladi.

O`qituvchilar va sinf rahbarlari datsavval shuni chuqur anglashlari lozimki, jinsiy yetilish organizmning jismoniy taraqqiyotiga ta`sir qilishdan ularning psixik rivojlanishiga ham katta ta`sir ko`rsatadi. O`smirlarda jinsiy etilish bilan birga shu paytgacha ularga noma`lum bo`lgan qandaydir xislar, kechinmalar qarama-qarshi jinsga spetsifik qiziqish noma`lum mazmundagi kitoblarga qiziqishlarning paydo bo`lishi tabiiydir. O`smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo`la boshlaydi. Chunki bu davrdagi o`quvchilar atrof-olamdagi boglanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o`smirning bilishga bo`lgan qiziqishida progress sodir bo`ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Buning ta`sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyat paydo bo`ladi. Maktabda o`qitiladigan fanlar o`smir uchun o`z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo`lib xizmat qiladi. J.Piajening ta`kidlashicha, "Ijtimoiy hayot uch narsaning ta`siri - til, mazmun, koidalar asosida shakllantiriladi". Bu borada o`zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o`z-o`zidan tafakkurini yangi imkoniyatlarini yaratadi. 11-12 yoshdan boshlab o`smir endi mantiqiy fikrlab xarakat qila boshlaydi O`smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovai taxlil etishni o`rgana boshlaydi. O`smir tafakkurning nazariy darajaga kanchalik tez ko`tarila olishi, o`quv materiallarini tez va chuqur egallashi uning intellektini xam rivojlanishini belgilab beradi. O`smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik o`ta qizikuvchanlik xamda atrofdagilarga o`z layokatlarini namoyish etish, shuningdek, ularda yuqori baxo olish extiejining mavjudligi bilan belgilanadi usmirning kattalarga beradigan savollri mazmunli, muloxazali va aynan o`sha masala doirasida bo`ladi. Bu yoshdagi bolalar turli-farazlarni keltira oladilar taxminiy fikr yuritib, tadjikot utkaza oladilar xamda matlum bir masala buyicha mukobil variantlarni takkoslay oladilar. O`smir tafakkur ko`pincha umumlashtirishga moyil bo`ladi. Respublikamizning bozor iqtisodi sharoitida o`tishda kishilardagi amaliy tafakkurning axamiyati oshmoqda. Amaliy tafakkur tizimiga quyidagi aqliy sifatlar kiradi:

- tadbirkorlik, tejamkorlik, xisob-kitoblik, yuzaga kelgan muammolarni tez yecha olishlik va boshqalar.

Ko'rsatilgan barcha sifatlar mavjud bo'lgan taqdirdagina amaliy tafakkurini rivojlangan deb xisoblash mumkin. Bu sifatlarni 1 sinfdanoq rivojlantira borish nixoyatda muxim usmirlik davrida ishbilarmonlik sifatini o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishni yo'lga qo'yishi umumiy foydali tadbirkorlik ishlarida ishtirok etishi orqali rivojlantirish mumkin. Shu va shunga o'xshash yuksak insoniy xususiyatlar va aniq kelajak maqsadini ko'ra bilgan o'smir o'quvchilarni ko'paytirish orqaligina maktab psixologi, pedagogik jamoagi tarbiyachilarni biz haqiqiy tarbiyachi deb atay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davletshin M.G. Hozirgi zamon maktabining o'qituvchisi psixologiyasi. – T.: «O'zbekiston» 1999.- 123b
2. Goziyev E.G. Oliy maktab psixologiyasi. T, ToshDU, 2006 -212b.
3. Ziyonet.uz

O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMOLLARI

*Nurqulova Hulkar Nurullayevna
Chilonzor tumani 281- maktab psixologi*

Bu dunyodagi barcha xatti-harakatlarimizning ibtidosi yashashga bo'lgan intilishga borib taqaladi. Aslida esa yashash uchun unchalik ko'p narsa zarur emasdek go'yo. Lekin inson ongli mavjudot bo'lgani bois shunchaki yashash, havo, suv, ozuqa, issiqlik, yorug'likka bo'lgan ehtiyojlarini qondirish bilangina kifoyalana olmaydi. U yaxshi yashashga intiladi, ehtiyojlarini imkon qadar to'liqroq qondirish payida bo'ladi.

Odamzod dunyoga kelibdiki, yaxshi yashash yo'llarini izlaydi. Bu esa unda olamni bilishga, o'zligini anglashga intilish, qavmdoshlari bilan o'zaro muloqotda bo'lish va

ma'lumot almashish kabi ma'naviy ehtiyojlarni ham vujudga keltiradiki, bugun endi aynan shu ehtiyojlar qay darajada qondirilayotgani farovon yashash sharti, to'kin-sochinlikning asosiy omili hisoblanmoqda. Bugungi kunda insonning o'zi xohlaganchalik umr kechirishining muhim omillaridan biri munosib kasb egasi bo'lish bilan ham belgilanadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi tarbiyasi qanchalik muhim bo'lsa, uni qobiliyat va qiziqishlari asosida kasbga yo'naltirish ham bugungi kunda muxim pedagogik-psixologik muammolardan hisoblanadi. Chunki yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, "Bugun yangicha fikrlaydigan, o'z kelajagini jamiyat demokratik qadryatlarni mustahkamlash bilan mamlakatimiz kelajagini jaxon xam jamiyatiga integratsiyalashuvi bilan bog'liq holda ko'radigan yangi avlod vakillari xayotga kirib kelmoqda". Yangi avlodni kasb-hunarga yo'naltirish kelajakda jamiyatimiz uchun salohiyatli kadrlarni yetkazib chiqishda ahamiyatli rol o'ynaydi.

Umumta'lim maktablarining o'quvchilarini kasb tanlashga yo'naltirish muhim masalalardan biri bo'lib, asosiy maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda, o'z hoxishi bilan kasbiy moyilligini aniqlash orqali kelgusi hayoti, faoliyati va yutug'ini ta'minlab beradigan kasb tanlashini to'g'ri tashkil etishdan iboratdir. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari ta'lim-tarbiya bilan uzviy kechadigan, uning barcha qirralarini qamrab oladigan uzluksiz jaroyandir.

Mehnat faoliyatini boshlash uchun kasb tanlashda bu ishga ongli ravishda yondoshmoq va uni mustaqil ravishda hal qilmoq kerak. Muayyan iqtisodiy tumannig xodimlarga bo'lgan ehtiyoji, tanlanadigan kasbga o'quvchining qiziqishi, qobiliyati, so'g'lig'i to'g'ri kelsagina kasbni ongli ravishda tanlash mumkin.

Kasb tanlashda mustaqillik deganda kushining bu sohadagi maksimal dahlsizligi, o'zining tashabbuskorligi to'la namoyon bo'lishi tushuniladi. Lekin bu bilan o'quvchi hoxlagan kasbni o'zi tanlashi lozim degani emas, bunda eng avvalo oiladagi katta yoshli kishilarning fikrlari nazarda tutiladi. Kasb tanlash to'g'risidagi masalada o'quvchining va ota-onalarning fikri bir joydan chiqsa yaxshi, albatta. Mabodo bunday hamfikrlik bo'lmasa, o'z imkoniyatlarini chamalab, katta yoshli kishilarning fikr mulohazalarini tahlil qilib ko'rish lozim.

Bundan tashqari o'quvchilarga mehnat faoliyatiga amaliy va axloqiy tayyorgarlikni bilish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish lozimligi aytib o'tildi:

1. Kasbning mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarga inson jamiyat taraqqiyotidagi o'z o'rniga ega bo'lish;
2. Inson mehnati hamda mehnat mahsuli bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni qadrlash va avaylashga o'rgatish;
3. O'quvchilarga kasbga nisbatan muhabbatni o'rgatish;
4. O'quvchilarni kasb tanlashda ongli ravishda, vijdonan yondashishga odatlantirish;
5. Kasb tanlaganda uning hayotiy zarurat ekanligi, inson faoliyatining asosi sifatida munosabatda bo'lish;
6. O'quvchilarda mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash; o'z mehnati samarasidan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish;
7. Muayyan kasb-hunar sirlarini o'zlashtirishga erishish va hakoza.

Kasb tanlashda onglilik va mustaqillik insonning o'z qiziqishi qobiliyatlari, irodaviy sifatlariga o'zi baho berishini taqozo etadi. Lekin har bir o'quvchi o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmaydi. Shuning uchun fan o'qituvchilarining, murabbiylarning fikrlariga quloq solish va amal qilish muhim ahamiyatga egadir.

Chunki har bir pedagog o'quvchining xulq - atvorini qiziqishlarini, mayillarini, xarakterini va mehnatga qay darajada tayyor ekani to'g'risida hammadan ko'ra yaxshiroq fikr bildiradi.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining samarali usullarini amaliyotga joriy etish maqsadida o'smir yoshdagi o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faol ijtimoiy hayotga tayyorlashda ularning qiziqishi, jismoniy va aqliy imkoniyatlari, mehnat bozoridagi kasblarga bo'lgan ehtiyojga qaratish muhimdir .

O'quvchilarni uzluksiz kasb-hunarga yo'naltirish usullaridan biri esa kasbiy tashxis metodikalari yordamida ularning kasbiy yo'nalganligini aniqlashdir. Barchamizga ma'lumki hozirgi kunda 9-sinf bitiruvchilari bilan „Qiziqishlar anketasi”, „Kasbiy motivatsiyani aniqlash”, „Deferensial-diagnostik so'rovnoma”, „O'quvchilarni kasbiy yo'nalganligini aniqlash metodikasi”, „Shaxs sifatleri va kasbiy qobiliyatlarni o'rganish metodikasi”, „Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatini aniqlash

metodikasi”, „Qiziqishlar xaritasi” kabi kasbiy tashxis metodikalaridan foydalaniladi. Bundan tashqari maktab psixologlari va kasbga yo’naltiruvchilar, mehnat va boshqa fan o’qituvchilari tomonidan turli usullar yordamida o’quvchilarning kasbiy qiziqishlarini aniqlash mumkin.

Kasb tanlash katta hayot yo’lidagi eng muhim qadamdir. Inson o’zini baxtli his qilishi uchun albatta atrofida sevimli insonlar bo’lishi bilan birgalikda, o’zi qiziqqan kasb egasi bo’lishi lozim. Ba’zi yoshlar ko’p yillar orzu qilgan mutaxassislik uchun oliy ta’lim tizimiga hujjat topshirish vaqti kelganda, ikkilanish yuzaga keladi. Chunki uning o’z bilimiga nisbatan ishonchi bo’lmaydi. Shuning uchun ham bilimdan kelib chiqib kasb tanlash emas, balki bilimni maqsadga qarab oshirib borish zarur. Buning uchun esa bolaga yoshligidanoq o’zi yoqtirgan kasb haqida oilada va maktabda to’g’ri tushuncha berish va bolada qiziqish va layoqatni shakllantirib borish lozim.

O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov „Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch” asarida ta’kidlaganidek; ”Har kuni, har soatda fidoyi bo’lish, o’zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish –haqiqiy qahramonlik aslida mana shu ...”. Zero, umumta’lim maktablarida psixologik xizmatning asosiy yo’nalishlaridan biri sifatida o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish o’quvchilarning qobiliyati, qiziqishi, iqtidorini aniqlash, ularni o’z jismoniy va ruhiy imkoniyatlariga mos kasblarga yo’llash ularning kelgusida el-yurt ravnaqi uchun qo’shadigan hissasiga asos bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda kasbga ongli munosabatni tarbiyalashning yana bir talabi o’quvchilarni ilm fan, madaniyat, texnika va texnologiya borasidagi yangiliklardan boxabar etish, ularga nisbatan qiziqishni hosil qilish, bu boradagi layoqat, qobiliyat va iqtidorlarini oshirib borishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy psixologiya . E. G’oziyev. Toshkent-2002
2. Turmush tarzi, ta’lim va milliy o’ziga xoslik. A.Jabborov, Sh.Bekova. Qarshi-2002
3. Maktab va hayot ilmiy metodik jurnal

KICHIK MAKTAB YOSHI INQIROZI VA UNI OLDINI OLISH HAMDA BARTARAF ETISHDA PSIXOLOGIK TRENINGLARNING AHAMIYATI

Nurqulova Hulkar Nurullayevna
Chilonzor tumani 281- maktab psixologi

Maktab hayotining birinchi bosqichi uchun shu narsa xarakterliki, bola sinfdagi va uydagi xulqini nazorat qiluvchi o'qituvchining yangi talablariga bo'ysunadi, shuningdek, o'quv fanlarining mazmuniga qiziqqa boshlaydi.

Birinchi sinf o'quvchilari boshdan kechiradigan uch asosiy qiyinchilik bor:

1. Boladan erta uyg'onish, maktabga o'z vaqtida kelish, barcha darslarda bir joyda qimirlamasdan o'tirish, uy vazifalarini vaqtida bajarish kabi irodaviy vazifalar talab etiladi. Bungacha doimiy harakatda bo'lgan va hech qanday mas'uliyat yuklanmagan bola uchun bu o'ziga xos jarayon bo'lib, bu unda ba'zida stresslarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

2. Ikkinchi tur qiyinchilik o'qituvchi, sinfdoshlar va oiladagi o'zaro munosabatlar xususiyatidan kelib chiqadi. Maktabgacha ta'lim muassasasidan farqli ravishda bu munosabatlarda ham bola ba'zi qiyinchiliklarga duch keladi (masalan, uy vazifasini bajarmaganligi yoki darsda tinch o'tira olmagan uchun jazo olishi mumkin).

3. Qiyinchiliklarning uchinchi turi – o'quv yili o'rtalaridan o'quv materialini oshib boradi. Hali maktab sharoitiga to'liq moslashib ulgurmagani uchun o'quv yuklamasining ortib borishi ham unda moslashish jarayonining qiyin kechishiga sabab bo'lishi mumkin.

4. Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, bola duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar: moslashuvchanlikdagi qiyinchiliklar, bilish jarayonlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda irodaviy jarayondagi qiyinchiliklardir.

Maktabga qadam qo'yish bilan bola hayotida muhim psixologik o'zgarishlar sodir bo'ladi. U yangi rejimning ayrim muhim odatlarini o'zlashtiradi, o'qituvchi va o'rtoqlari bilan ishonchli munosabatlar o'rnatadi. O'quv materialini mazmuniga nisbatan paydo bo'lgan qiziqish asosida unda o'qishga bo'lgan ijobiy munosabat mustahkamlanadi. Bunda yuqorida sanab o'tilgan qiyinchiliklar bolada maktabga va bilim olishga nisbatan

salbiy munosabatning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Fan tilida kichik maktab yoshi inqirozi nomi bilan ma'lum bu kabi holatlar kelgusida yanada kattaroq va kengroq muammolarni yuzaga keltiradi. Fanlarni o'zlashtira olmaslik, muntazam dars qoldirish, dars jarayonida o'qituvchining dars o'tishiga va sinfdoshlariga xalal berish- bu muammolarning boshlanishi, xolos.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning maktab sharoitiga moslashuvi hamda o'quv materiallarini oson o'zlashtirishlarida korreksion-psixologik treninglarning ahamiyati katta. Muntazam va izchillik bilan olib borilgan korreksion-psixologik treninglar yuqorida aytib o'tilgan kichik maktab yoshidagi bola duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal etibgina qolmay, balki normal darajada moslashgan bolalarni ham aqliy va hissiy jihatdan rivojlanishlariga ko'maklashdadi. Bunda trener bola duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchililarning har uch turi yuzasidan bir nechta korreksion o'yinlarni tanlab olib , bitta yaxlit trening sifatida tashkil etadi hamda ana shu bitta mashg'ulot orqali bir nechta muammolarni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Masalan:

Kirish qismi.

Treningning borishi.

-Treningning qoidalari, maqsad va vazifalari bilan tanishtirish:

Qoidalar:

-faollik

-ko'ngilli ishtirok

-belgilangan vaqtga rioya qilish:

-boshqalar fikrini hurmat qilish:

-qo'l ko'tarish qoidasi.

1-mashq Tanishuv.

“Mening yoqtirgan narsam” mashqi.

Maqsad :Guruh a'zolari o'rtasida ijobiy psixalogik muhitni yaratish,diqqat va xotirani rivojlantirish.

Mashqni borishi:Ishtirokchilar doira bo'lib o'tiradilar.

Boshlovchi har bir ishtirokchiga ko'ptok otadi.

Koptokni ilib olgan o'quvchi o'z ismi va yoqtirgan narsasini nomini aytib bo'lishgach, o'quvchilarining bir-birlaridan boshqalarining yoqtirgan narsalari yoki biron bir sanab o'tilgan narsani kim yoqtirilishi so'raladi.

Muhokama.

Xulosa.

2-mashq .

“Suv, havo, yer” mashqi.

Maqsad :Guruh a'zolari o'rtasida eshitish va harakat sezgilarini, diqqatini rivojlantirish.

Mashqni borishi: Ishtirokchilar doira bo'lib o'tiradilar.

Boshlovchi o'yin sharoiti bilan tanishtiradi:

agar u “yer” desa , hamma qo'lini pastga tushirishi kerak, “suv” desa, qo'llarini o'ngachapga harkatlantiradilar. Havo” deganda ,qo'llarini osmonga ko'taradilar. O'yin bir necha marotaba takrorlanadi.

Muhokama.

Xulosa.

Refleksiya .

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan mashqlarning har ikkalasi ham bir vaqtning ham guruhda ijobiy muhitning yuzaga kelishiga ham bilish jarayonlarining rivojlanishiga ham bolaning hissiy jarayonlariga ijobiy ta'sir o'tkazish xususiyatiga ega. Albatta bir – ikki marta o'tkazilib, so'ng to'xtab qolgan mashg'ulotlar natijaviylikka ega emas. Bu mashg'ulotlar muntazam ravishda va izchillikka rioya etilgan holda o'tkazilsagina, natijalar ko'zga tashlanadi. Sodda til bilan aytganda, ma'lum bir dastur asosida tuzilgan, yil davomida haftada bir yoki ikki marta tashkil etiladigan mashg'ulotlarga ko'zlangan natijani berishi mumkin. Bunda maktab amaliyotchi psixologlarining o'rni katta. Chunki bunday mashg'ulotlarni faqat ular tashkil etish imkoniyatiga ega. Buning uchun maktab amaliyotchi psixologida boshlang'ich sinflarning har biri uchun taxminan quyidagi mazmunda ish reja mavjud bo'lishi lozim:

1-sinf o'quvchilari bilan yil davomida olib boriladigan pedagogik –psixologik ishlar

№	O'tkaziladigan tadbir nomi	Tadbir o'tkaziladigan vaqt	Tanlangan metodika, tadbir va treninglar manbasi	Tadbir o'tkazilishidan maqsad	Tadbir o'tkazilgan vaqt	Kutiladigan natijalar
1	1-sinf o'quvchilarining maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligini o'rganish uchun Kern Yerasikning "Test suhbat" metodikasini o'tkazish.	sentyabr	K.Yerasikning "Test suhbat" metodikasi	psixodiagnostika		O'quvchining maktab ta'limiga tayyorgarligi haqida ma'lumot to'planadi
2	6-6,5 yoshli o'quvchilarning rivojlanishini aniqlash: A.Vengerning "Grafik diktant" metodikasini o'tkazish.	sentyabr	A.Vengerning "Grafik diktant" metodikasi	psixodiantika		
3	1-sinf o'quvchisini maktabga moslashtirishga qaratilgan trening mashg'ulotini o'tkazish : "Baliq, qush, eshik..."	oktyabr	72 soatga mo'ljallangan Psixologik salomatlik dasturi.	psixokorreksiya		
4	O'quv faoliyati kommunikativligi darajasini aniqlash: "Qo'lqopchalar" metodikasi (hamkorlikni tashkil etish jarayonida faoliyatni shakllantirish)	oktyabr	Maktab psixologi rasmiy telegram kanali	psixokorreksiya		

Keltirilgan taxminiy ish rejada psixolog 2 haftada bir marta mashg'ulot o'tkazilishi nazarda tutilgan. Bunda mashg'ulotlarni boshlashdan oldin muammolarni dianostika qilish uchun hamda bir nechta mashg'ulotlardan keyin natijaviylikni ko'rish uchun psixodiagnostik metodikalarni olish ham ko'zda tutilgan. Albatta, bu mashg'ulotlar 1-sinf o'quvchilari uchun haftada bir martaga oshirilsa, yanada yaxshi bo'ladi. Biroq maktabda psixolog o'z mashg'ulotlarini tashkil qilish uchun alohida soat ajratilmaganligi sababli bu imkonsiz. Chunki 1-sinf o'qituvchilari o'z dars soatlarini har hafta bera olmaydilar. Bu kabi mashg'ulotlarni 2-3-4-sinf o'quvchilari uchun ham oyda 2 marta tashkil etilsa, o'ylaymanki, biz yuqori sinflarda duch kelishimiz mumkin bo'lgan ko'pgina muammolarning oldi olingan bo'lar edi.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANING NUTQINING RIVOJLANTIRISH NORMALARI

*Muhammadjonova Dilnozaxon Obidjon qizi
Farg'ona viloyati Rishton tumani 51-maktab psixologi*

Bolaning nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqning to'g'ri shakllanib borishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutq muhiti va ta'lim – tarbiyaga bog'liq. Nutq tug'ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan bir qatorda shakllanib boradi. Nutq buzilishlarini o'rganish, tushunish uchun bola nutqining normal rivojlanish yo'lini, bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini, nutqning muvaffaqiyatli shakllanishida ahamiyatligini bilishi kerak. Bundan tashqari bola nutqining rivojlanish jarayonidagi rivojlanish davrini aniq bilish zarur. Bu esa nutqning rivojlanish jarayonidagi u yoki bu kamchiliklarni o'z vaqtida bilish va anglash uchun kerak bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqot doirasi kengayadi, bu boladan muloqot vositalarini to'liq o'zlashtirishni talab qiladi, ularning asosiysi nutqdir. Bola faoliyatining tobora murakkablashishi nutqni rivojlantirishga ham yuqori talablarni qo'yadi. Nutqning

rivojlanishi bir necha yo'nalishda boradi: uning boshqa odamlar bilan muloqotda amaliy qo'llanilishi takomillashtirilmoqda. Shu bilan birga nutq aqliy jarayonlarni qayta qurish uchun asos, fikrlash vositasi bo'ladi. Bolalarning nutqini rivojlantirish maktabga tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Nutqni rivojlantirish va tilni tushunish undan foydalanish qobiliyatni rivojlantirish sifatida qaraladi: fonemika eshitish va tovush tahlilini, so'z boyligini rivojlantirish, so'zlarning taarkibini bilish, grammatika kategoriyalarini shakllantirish, muloqot qobiliyatlari, ko'nikmalari va ko'nikmalarini rivojlantirish, izchil nutq. Tilni o'zlashtirish aqliy rivojlanishning muhim shartidir, chunki ontogeneza bolaning tarixiy tajribasining mazmuni umumlashtiriladi va nutq shaklida va birinchi navbatda, so'zlarning ma'nolarida aks etadi.

So'z boyligining o'z vaqtida rivojlantirish maktabga tayyorlashning muhim omillaridan biridir. So'z boyligi yetarli bo'lmagan bolalar o'z fikrlarini ifodalash uchun to'g'ri so'zlarni topa olmay o'rganishda katta qiyinchiliklarga duch kelishadi. O'qituvchilarning ta'kidlashicha, so'z boyligi boy o'quvchilar afirmetik masalalarni yaxshiroq yechishadi, o'qish ko'nikmalarini, grammatikani oson o'zlashtiradilar, darsda aqliy mehnatda faolroqdirlar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning so'z boyligini rivojlantirishda ikki tomon ajralib turadi: so'z boyligining miqdoriy o'sishi va uning sifat jihatidan rivojlanishi, ya'ni so'zlarning ma'nolarini o'zlashtirish. Maktabgacha yosh – so'z boyligini tez boyitish davri. Uning o'sishi hayot va tarbiya sharoitlariga bog'liq, shuning uchun adabiyotda bir xil yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning so'zlari haqidagi ma'lumotlar juda katta farq qiladi. Ot va fe'llarning soni ayniqsa tez ortadi, ishlatiladigan sifatlar soni sekinroq o'sadi. Bu birinchidan tarbiya sharoiti (kattalar bolalarni predmetlarning belgi va sifatleri bilan tanishtirishga unchalik ahamiyat bermaydilar), ikkinchidan, sifatdoshning nutqning eng mavhum qismi sifatidagi xususiyat bilan izohlanadi. Birinchi so'zlar juda o'ziga xos bo'lib, ular polisemantizm bilan ajralib turadi. Bu birinchi so'zlar, aslida hali so'z emas. Haqiqiy so'z obyektning belgisi sifatida tug'iladi va obyektga ishora qiluvchi imo – ishora bilan bevosita bog'lanadi. 4 – 5 yoshdan so'ng, nutq so'zlaydigan bolalar yangi so'zni bitta emas, balki ko'plab obyektlarga bog'laydilar. Kattalardan tayyor so'zlarni o'zlashtirib ular bilan ishlashda bola hali ular ifodalagan barcha semantik tarkibni bilmaydi. Bolalar so'zning

mavzu bilan bogliqligini o'rganishlari mumkin, ammo uning orqasida joylashgan abstraktsiyalari va umumlashmalar tizimi buni o'rgana olmaydi. So'zlarning majoziy ma'nolari bolalar tomonidan darhol o'zlashtirilmaydi. Birinchidan, asosiy ma'noning assimilyatsiyasi mavjud. Bolalar so'zlarning ma'nolari dinamikdir.

3 – 5 yoshli bolada so'zlarning mavzuga oid aniq munosabatini va ularning o'ziga xos ma'nolarini o'zlashtirish jarayoni markaziy o'rinni egallaydi. 5 – 6 yoshda esa dunyoviy tushunchalar tizimi, lekin qaysilarida emotsional – majoziy, vizual aloqalar hali ham hukmron.

Shunday qilib, o'ziga xos bog'liq shakllar so'zning ma'nosi tushunchadan oldin paydo bo'ladi va uning shakllanishi uchun zarur shartdir. So'z bilan ifodalangan tushuncha voqelikning umumlashtirilgan tasviri bo'lib bola rivojlanishi bilan o'sib boradi, kengayadi, chuqurlashadi, uning faoliyat doirasi kengayib, rang – barang bo'lishi bilan u muloqotga kirishadigan odamlar va obyektlar doirasi kengayadi. Rivojlanish jarayonida bolaning nutqi hissiy vaziyatga bog'liq bo'lishini to'xtatadi.

So'z yashash usullarini o'zlashtirish – bolalar nutqini rivojlantirish jihatlari bilan bog'liq. Maktabgacha yoshdagi bolalar, asosan, turli ma'noli morfemalarning birikmasiga asoslangan so'z yasashning morfologik usulidan foydalanadilar. So'zlarni shakllantirish uchun bola so'z yasash modellarini, so'z o'zaklarining leksik ma'nolaini va so'zning mavhum qismlarining ma'nosini o'zlashtirish kerak. Psixologik va psixolingvistik adabiyotlarda so'z shakllanishi bolalarning so'z yaratilishi bilan taqqoslanadi, bu bolalar tomonidan grammatik tuzilishni fol o'zlashtirishini ko'rsatadi. Maktabgacha yoshning oxiriga kelib, bolalarning so'z shakllanishi me'yorga yaqinlashadi va shuning uchun so'z yaratish intensivligi pasayadi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, izchil nutqda bolalarning nutqi va aqliy tarbiyasi o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik aniq ko'rinadi. Bola gapirishni o'rganish orqali fikrlashni o'rganadi, lekin u fikrlashni o'rganish orqali nutqni ham yaxshilaydi. Muvaffaqiyatli nutqning rivojlanishi tafakkur rivojlanishi bilan birga asta – sekin sodir bo'ladi va bolalar faoliyati va atrofdagi odamlar bilan muloqot qilish shakllarining murakkablashishi bilan bog'liq. Maktabgacha yoshda nutqni bevosita amaliy tajribadan ajratish mumkin. Asosiy xususiyat bu yosh nutqning rejalashtirish funksiyasining paydo

bo'lishidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini boshqaradigan rolli o'yinda nutqning yangi turlari ham paydo bo'ladi: o'yin ishtirokchilariga ko'rsatma beradigan nutq, kattalar u bilan tashqi aloqada olingan taassurotlar haqida gapiradigan nutq. Ikkala turning nutqi monolog, kontekstual shaklda bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini bilish, so'z haqida g'oyalarini shakllantirish, uning semantikasini o'zlashtirish, nutqning ifodali va obrazli vositalarini ajratish ona tilini bolalar bog'chasida o'zlashtirishga yordam beradi va shu bilan bolani tayyorlash muammosini hal qiladi.

Tengdoshlari bilan muloqot, 4 -5 yoshdan boshlab, bolalar nutqiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tengdoshlari bilan muloqotda bolalar nutq qobiliyatlaridan faolroq foydalanadilar. Bolalarning ishbilarmonlik aloqalarida yuzaga keeladigan kommunikativ vazifalarning ko'proq xilma – xilligi nutq vositalariga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Turli yoshdagi bolalar bilan muloqot foydaliroq.

Uzoq vaqt davomida nutqni rivojlantirish maqsaddini tavsiflashda bolaning nutqiga bo'lgan talab uning to'g'riligi kabi alohida ta'kidlanadi. Bolalar bog'chasida nutqni rivojlantirish va ona tilini o'qitish metodikasi. Bunday tushunish tilshunoslikda nutq madaniyatiga uning to'g'riligiga nisbatan o'sha paytdagi umume'tirof etilgan yondashuv bilan izohlanadi. Bola nutqining normal rivojlanishi, unga doimo yangi tushunchalarni o'zlashtirib olishga, tevarak – atrof haqidagi bilim va tasavvurlarni kengaytirishga imkoniyat yaratadi. Shunday qilib, nutq, uning rivojlanishi tafakkurning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. V.S.Rahmanova “Maxsus pedagogika” Toshkent. 2004.
2. Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik texnologiya. Toshkent. 2004.
3. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiya. Toshkent: 1998.
4. G'oziev E.F. “Psixologiya”. Toshkent 1994.
5. Voxidov M. “Bolalar psixologiyasi” T.: O'qituvchi. 1982 y.
6. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. 1-2 tom. T., Fan, 2002.
7. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. – T.:Noshir. 2010.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING AXLOQIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Muqimova Dilshodaxon Ismoilovna
Farg'ona viloyati Rishton tumani 15-makta psixologi

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning axloqiy sifatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar

Bugunga kunda mamalakatimizning rivojlanishi va ravnaqi uchun xizmat qiladigan, aqliy rivojlangan, iste'dodli yoshlarni tarbiyalash talab etilmoqda. Shunday ekan ta'lim jarayonini mukammallashtirmay jamiyat talab etayotgan yoshlarni shakllantirib bo'lmaydi.

Ma'lumki, har qanday insonning o'sish, rivojlanish va shakllanish davrlari ta'lim-tarbiya faoliyatisiz amalgam oshmaydi. Aqliy taraqqiyot va ta'lim-tarbiya, bir-biriga chambarchas bog'liq faoliyatdir. Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish hozirgi davr talabi bo'lib, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, o'quv dasturini mukammallashtirish, muammoli darslarni tashkil qilish ta'limni mukammallashtirishga qaratilgandir. Ta'lim jarayonida o'quvchi faollik ko'rsatmasa amalgam oshirilayotgan tadbirlar ko'zlangan natijani bermaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish ham muhimdir. Ta'lim jarayonida ular maktab o'quvchilariga qo'yiladigan har – xil talablar bilan tanishadi. Fanlarni o'zlashtirish uchun psixologik jihatdan tayyorlanadi. Ular psixikasida bilim olish uchun ko'nikma, malakalar yeterli darajada rivojlanib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. O'quv faoliyati boladan nutq, tafakkur, qobiliyat rivojlanishi uchun yangi sharoit yaratadi. Maktabga kelgash, bola o'z atrofidaqlar bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U o'zining hayotini tubdan o'zgartirishni, unga yangi mjburiyatlar, o'quv faoliyati talablariga bo'y so'nish, har kun maktabga borishni his eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangicha shakldagi munosabat uning ijtimoiy mavqei o'zgarganligini to'la his etishga o'ziga nisbatan munosabatning o'zgarishiga asos bo'ladi. Ta'lim jarayonidagi barcha imkoniyatlar orqali ularning bilimlar egallash ko'lami kengayadi, qiziqishlari

ortadi, ijodiy izlanish qobilayati rivojlanadi, tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatni ishga solish vujudga keladi. Ular har bir narsaga berilib, sinchkovlik bilan ular o'rtasidagi farqni ajratish, umumlashtirish, xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bola maktabga qadam qo'yishi bilanoq unga bo'lgan munosabat va talablar orqali o'ziga xos bo'lgan aqliy rivojlanish xususiyatlari uchun imkoniyatlar va shart – sharoitlar yaratish oila, maktab ta'lim tizimiga ulkan mas'uliyat hissini yuklaydi.

Yosh avlodni har tomonlama yetuk axloqiy odobli, kishilar bolib yetishishi hozigi kunning muhim vazifadir. Ma'lumki, o'quvchilar shaxsini shakllantirish ishlarini namunali yo'lga qo'yish uchun avvallo ularning xarakter xususiyatlarini qanchalik tarkib topganligini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Har bir o'quvchi axloqiy tushunchalarni qanday o'zlashtirgani aniqlamay, ular bilan yakka - yakka munosabatga kirishish mumkin emas.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar ishonuvchan tashqi taassurotlarga beriluvchan bo'ladilar. Buyuk alomallarimiz ta'kidlaganidek, kishining fe'l atvori hammadan ko'ra ko'proq hayotining dastlabki yillarida tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo'lgan sifatlar mustahkam o'rnashib kishining ikkinchi tabiatiga aylanadi. Insonning ikkichi tabiatida tabiiy hissiyotlarni, fazilatlarini tarkib toptirish, yuksak axloq normalarini shakllantirish uchun butun mas'uliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasiga tushadi. Bolaning mazkur davrida o'qituvchining har bir gapi har bir xatti – harakati ta'sir ko'rsatish uning uchun haqiqat mezonini vazifasini bajaradi. Chunki o'quvchilar o'qituvchilarga qattiq ishonadilar. Uning fikr – mulohazalariga quloq soladilar. Pedagogik nazokatida jiddiy tasvirlanadilar. Talablarga hamisha amal qiladilar. U bergan topshriqlarni bekamu – ko'st bajarishga intiladilar. Ana shu davrga o'qituvchi uchun o'quvchilarning ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatish ijobiy his tuyg'ulari va ezgu – niyatlarini qo'llab – quvvatlash ularni atrofdagi kishilar yordam berishga undashadi. To'g'ri mulohaza yurtishga o'rganish, noma'qul qiliqlardan tiyish va musiqa tinglashga odatlantirish ularga nimalar bilan shug'ullanish kerakligini, burch hissini tushuntirish, ular bilan o'qilgan kitoblarni, ko'rilgan tomoshalarni muhokama qilish imkoniyati tug'iladi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan mazmunli suhbatlar o'tkazishi, ularni g'aroyibotlar olamiga olib kirishi, faollik sari yetaklashi alohida ahamiyat kasb etadi.

Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning axloqiy sifatlarni rivojlantirishdagi ko'zlangan maqsadga erishish uchun ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish shart.

Ma'lumki oquvchilarning psixologik xususiyatlari har xil bo'lib, bir o'quvchiga muvaffaqiyat bilan qo'llangan tarbiyaviy ta'sir vositasi boshqa biriga qo'llanilganda kutilgan natijani bermasligi mumkin. Tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilarga yakkama-yakka yondashib amalgam oshirilsa, yaxshiroq samaraga erishilishi shubhasizdir.

Mana shunday yondashishlar o'quvchi shaxsining xususiyatlariga va uning muayyan davridagi psixologik holatiga mos tarbiyaviy vositalarni tanlash va yangi vositalarni toppish o'qishni talab qiladi. Bunda o'qituvchining o'quvchilarga g'amxo'rliqi, pedagogik odobi, o'z xatti – harakatining natijasini oldindan ko'ra olish muhim ro'l o'ynaydi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish o'qituvchi o'quvchilarning xususiyatlarini qanchalik o'rganganiga bog'liqdir. Ta'lim jarayonida har bir o'quvchining psixik dunyosiga oqilona yo'l topa olish muvaffaqiyatlarning garovidir. Ta'lim - tarbiya jarayonida bolalarni hayoti va faoliyatini shunday uyushtirish lozimki, bunda bolalarda shaxsning kichik yoshda o'quvchilarda tarkib topgan xususiyatlar tabora boyib va mustahkamlanib boradi. Maktab ta'limini dastlabki yillaridagi qiziqishlar, xususan bilishga bo'lgan qiziqishlar, tevarak atrofdagi olamni bilishga bo'lgan qiziqish ko'proq intellektual qiziquvchanlikni sezilarli ravishda rivojlantiradi.

Psixologlarni ta'kidlashicha, dastavval ayrim faktlarga, boshqa narsalardan ajratib olinadigan hodisalarga nisbatan qiziqishlar hosil bo'ladi. O'qish faoliyatida kichik yoshdagi o'quvchilarning aqliy jarayonlari bilish uchun bo'lgan qiziqishlar bilan faollashib qiziqish o'quvchilarning aqliy faoliyati asosida paydo bo'ladi va uning shaxsiy individual sifatida o'quvchilarning ana shu aqliy faoliyatini yanada rivojlantiradi. O'quvchilarning qiziqishlari mazmuni, barqarorligi jihatdan xilma –xildir. Keng mazmunli va barqaror qiziqishlar o'quvchilarning yoshligidan paydo bo'la boshlaydi. O'quvchilarda ta'lim va tarbiya olish, dam olish tartibining to'g'ri uyushtirilishi ham o'quvchilarda qiziqishlarning barqaror bo'lishiga muhim ahamiyatga ega. Ta'lim

jarayonida bir xillik, uzoq cho'zilgan faoliyat ko'p hollarda bolani toliqtiradi, uning faolligini pasaytiradi va hali to'la belgilanib bo'lmagan qiziqishlarni so'ndiradi. O'quvchilarni qiziqishlari kattalarning diqqat e'tiborida bo'lishi lozim. Bolalarni ijobiy qiziqishlari kattalar tomonidan rag'batlantirishi, quvvatlantirilishi kerak. Ularni qiziqishlarina payqash, uning uchun eng sevimli, doimo o'ziga jalb etadigan faoliyatni e'tiborga olmaydigan o'qituvchi va ota-onalar yomon pedagog va yomon tarbiyachidir.

O'quvchi uchun o'qituvchi hayotining eng yaxshi idealidir. Doimo oldinga qarab intiluvchi, mazmunli keng qiziqishlar bilan yashovchi o'qituvchi o'quvchilarga yuksak ma'naviy qiziqishlarni, aqliy rivojlanishni paydo bo'lishiga yordam beradi.

I-III sinf o'quvchilarida axloqiy tushunchalarni tarkib topishi uchun avvalo har bir tushunchaning muhim alomatini ajratishning umumlashtiruvchi ikkinchi darajali belgilarni topishi o'zgartirish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova M, G'.Qodirova "Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish" T.: "O'qituvchi" 2001 y
2. Akbarova R.T. "Bolalarni "simliklar bilan tanishtiruvchi didaktik o'yinlar"
3. G'oziev E.F. "Psixologiya". Toshkent 1994.
4. Voxidov M. "Bolalar psixologiyasi" T.: O'qituvchi. 1982 y.
5. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. 1-2 tom. T., Fan, 2002.
6. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. – T.:Noshir. 2010.

O'SMIRLIK DAVRIDA O'QUVCHILARNINGO'QISH FAOLIYATI VA BILISH JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI

Ergashova Nasiba Ikromjonovna
Farg'ona viloyati Rishton tumani 11-maktab psixologi

O'qituvchi va tarbiyachi uchun bolalarning o'smirlik davri psixologiyasini bilish pedagogik nuqtai nazaridan ham, psixologik nuqtai nazaridan ham muhimdir. Bu davrni biz yana o'tish davri deb ham ataymiz. O'smirlik davri asosan 11- 15 yoshdagi bolalarni o'z ichiga qamrab oladi, ya'ni 5 – 8 – sinf o'quvchilarini. O'smir yoshdagi o'quvchilarni ta'lim – tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi.

O'smirlik davrida nutqning rivojlanishi bir tomondan so'z boyligini oshishi hisobiga bo'lsa, ikkinchi tomondan tabiat va jamiyatdagi narsa, voqea va hodisalarning mazmun – mohiyatini anglashlari hisobiga bo'ladi. Bu davrda o'smir til yordamida atrof – borliqni aks ettirishi bilan bir qatorda inson dunyoqarashini ham belgilab berishi mumkinligini his qila boshlaydi. Aynan o'smirlik davridan boshlab inson aynan nutq bilish jarayonlarining rivojlanishini belgilab berishini tushuna boshlaydi. O'smirni ko'pincha muomalada so'zlarni ishlatish qoidalari – “Qanday qilib tog'ri yozish kerak?” , “Qanday qilib yaxshiroq aytish mumkin?” kabi savollar juda qiziqtiradi. O'smirlar maktabdagi o'qituvchilar, kattalar, ota – onalar nutqidagi kamchiliklarga, kitob, gazeta, radio va televideniya jurnalistlari xatolariga tez e'tibor beradilar. Bu holat o'smirning bir tomondan o'z nutqini nazorat qilishni o'rgatsa, ikkinchi tomondan kattalar ham nutq qoidalari buzilishi mumkinligini bilishlariga va o'zida mavjud xatoliklarni birmuncha barham toptirishlariga olib keladi.

Osmir so'zlarining kelib chiqish tarixga, ularning aniq mazmuni va mohiyatiga juda qiziqadi. U endi o'z nutqida yosh bola singari emas, balki katta odamlardan so'zlarni tanlashga harakat qiladi. Nutq madaniyatini egallash borasida o'smir uchun o'qituvchi, albatta, o'rnak bo'lishi kerak. Aynan maktab ta'limi o'smir bilishi jarayonlarini rivojlanish yo'nalishini sifat jihatidan o'zgarishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Maktabdagi o'quv jarayonlarining to'g'ri tashkil etilishi va amalga oshirilishi bilan o'smir nutqining to'g'ri rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Nutqni o'zlashtirishga harakat bu – o'smirning muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirishi ehtiyoj va intilish hisoblanadi.

O'smirlik davrida o'qish va monologik nutq jadal rivojlanadi. 5 – sinfdan boshlab to 9 – sinfgacha o'qish, to'g'ri, tez va ifodali bo'lish darajasidan, yoddan ifodali, ta'sirli aytib bera olish darajasiga ko'tariladi. Monologik nutq esa, asardagi kichik bir parchani qayta so'zlab berishdan, mustaqil ravishda nutqva chiqishlar tayyorlash, og'zaki mulohaza yuritish, fikr bildirish va ularni asoslab berishgacha o'zgaradi. Yozma nutq ham yaxshilangan holda o'smirlar endi ularga berilgan erkin mavzu bo'yicha mustaqil holda insho yoza oladilar. O'smirlarning nutqi to'la tafakkur bilan bog'liq holatida amalga oshiriladi. 5 – 6 – sinflardagi o'quvchilar og'zaki va yozma matn uchun reja tuzib unga amal qila oladilar.

O'mirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo'la boshlaydi. Chunki bu davrda o'quvchilar atrof – olamdagi bog'lanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Ilmiy – nazariy bilimlarni egallab olinishi tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Buning ta'sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyat paydo bo'ladi.

11 – 12 yoshdan boshlab o'smir endi mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi. O'smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli tahlil etishni o'rgana boshlaydi. O'smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik o'ta qiziquvchanlik hamda atrofdagilarga o'z layoqatlarini namoyish etish, shuningdek ularda yuqori baho olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilanadi. O'smirning kattalarga beradigan savollari mazmunli, mulohazali va aynan o'sha masala doirasida bo'ladi. O'smir tafakkuri ko'pincha umumlashtirishga moyil bo'ladi. O'smirlik davrida intellektning yuqori darajada rivojlangan bo'lishi qimmatli va obro'li hisoblanadi. O'smir shaxsida va uning bilishga qiziqishidagi o'zgarishlar o'zaro bog'liq bo'ladi. Ixtiyoriy psixik jarayonlarning rivojlanishi o'smirdagi shakllanib kelayotgan shaxs mustaqilligiga tayanadi, o'zining shaxsiy xususiyatlarini anglash va shakllantirish imkoniyatlari esa undagi tafakkuriy rivojlanish bilan belgilanadi.

O'smirlik davrida diqqat, xotira, tasavvur to'la mustaqillik kasb etib, endi ularni o'z ifodasiga ko'ra boshqara oladigan bo'ladi. Bu davrda qaysi yetakchi funktsiya; diqqatmi, xotirami yoki tasavvur ustunlik qilayotgani yaqqol namoyon bo'lib, har bir o'smir o'zi uchun ahamiyatliroq bo'lgan funktsiyani e'tiborga olish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'smirlik yoshi kishi shaxsining tarkib topish jarayonida alohida o'rin tutadi. Bu davr asosiy davr hisoblanadi. Chunki bu yoshda g'oyat muhim psixologik o'zgarishlar paydo bo'ladi. Har xil psixologik o'zgarishlar va shaxsning taraqqiyoti, eng avvalo, mana shu shaxsning faoliyat xarakteriga bog'liqdir. O'smirning faoliyati o'qish, mehnat va o'yin jarayonlarini o'z ichiga oladi.

O'smirlik yoshidagi o'quvchilar o'z hayotlaridagi barcha ishlarda faol ishtirok etadilar. Bularning barchasi o'quvchilarni aloqasini tobora murakkablashtirib boradi. Bu yerda eng asosiy narsa shundaki, bu narsalar o'quvchilar jamoasining ko'p qirrali ijtimoiy hayoti bilan yashay boshlaydilar va bu hayotdan o'z o'rinlarini topishga harakat qiladilar.

O'smir shu yoshdagi dastlabki davrlarida oldin o'zlashtirib bilimlari asosida yangi bilim ola boshlaydi. Ularning kattalar tomonidan o'zlarigaa, shaxslarga berilgan har xil baholarni eshita boshlaydilar. O'smirlik davriga yetganda bolalarda burch va javobgarlik tuyg'ulari yetarli darajada o'sgan bo'ladi.

O'smirni ish, o'qish hamda sport mashg'ulotlari paytida to'g'ri va chuqur nafas olishga o'rgatish zarurdir. Bu narsa shuning uchun ham muhimdirki, bo'yni tez o'sishi organizmda modda almashishining jadallanishi bilan o'smir ko'p miqdorda kislorodga muhtoj bo'ladi. Bu davrda o'smirning toza havoda bo'lishi ayniqsa muhimdir. O'smirlik davrida yurak ikki barobardan ko'proq o'sadi, gavda esa bir yarim barobar o'sadi. Arteriyalar diametrining o'sishi yurakning o'sishidan orqada qoladi. Qon tomirining yo'li yurak hajmiga nisbatan kamayadi va bu nerv qalqonsimon bezlari faoliyatining kuchli darajada tezlashuvi bilan birgalikda qon bosimining ortishiga va yuraak faoliyatining kuchayishiga olib keladi.

Qon tomirlarining sistemasidagi o'zgarishlari natijasida ba'zan bosh miyaga boradigan qon yetarli bo'lmay qolishi mumkin, bu esa bosh miya ish faoliyatining susayishiga, tez toliqishiga va bosh aylanishiga olib keladi. Ba'zan o'smir tashqi ko'rinishining o'zgarib urishini kuzatish mumkin. O'smirning qo'l va lablari ko'karib

ketadi, ba'zan esa uning yuzlari qizarib ketadi yoki bo'zaradi. O'smirning yuragini haddan tashqari toliqishlardan saqlash kerak.

Bu davr yangi bosqichga, ya'ni o'spirinlikka tayyorgarlikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik texnologiya. Toshkent. 2004.
2. . Davletshin M.G . Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiya. Toshkent: 1998.
3. G'oziev E.F. "Psixologiya". Toshkent 1994.
4. Voxidov M. "Bolalar psixologiyasi" T.: O'qituvchi. 1982 y.
5. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. 1-2 tom. T., Fan, 2002.
6. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. – T.:Noshir. 2010.

O'SMIRLIK YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARI

Ismoilova Dilrabo Zokirovna
Uchqo'rg'on tuman 32-maktab psixologi

O'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy etilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmokda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas» - ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O'smirlik – bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga etish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taallukli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan

ham xarakterlanadi Bu yoshda o‘smir rivojida keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. Bu o‘zgarishlar fiziologik hamda psixologik o‘zgarishlardir. Bo‘yga o‘sish bir tekis bormaydi: qiz-bolalar 5-7 sm o‘ssalar, o‘g‘il bolalar 5-10 sm o‘sadilar. Bo‘yiga karab o‘sish paysimon ilk suyaklarning uzunlashishi va umurtqa qismining kattalashishi hisobiga ro‘y beradi.

Og‘iz bo‘shlig‘i va halqumdagi o‘zgarishlar oqibatida tovush tembri ham o‘zgaradi. Bu o‘g‘il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko‘prok darajada sodir bo‘ladi. O‘g‘il bolalarning tovushi vazminrok bo‘lib qoladi, do‘rillaydi.

Garchi bu davrda mushaklar tez sur‘at bilan o‘ssa ham, mustahkamlashsa ham, lekin baribir oyoq va qo‘l suyaklarining o‘sish sur‘ati orqada qoladi. O‘smirlarda bu xususiyat ularning beso‘naqay xatti-harakatlarida, yurish-turishlaridagi qo‘pollikka, katta-katta odim tashlashlariga sabab bo‘ladi.

Fiziologik o‘zgarish jinsiy etilishning boshlanishi va bu bilan bog‘liq ravishda tanadagi barcha a‘zolarining mukammal rivojlanishi va o‘sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashida namoyon bo‘ladi. Organizmdagi o‘zgarishlar bevosita o‘smir endokrin sistemasining o‘zgarishlari bilan bog‘liqdir. Bu davrda ichki sekretiya bezlaridan biri gipofiz bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to‘qimalarining o‘sishi va muhim ichki sekretiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak usti bezi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada bo‘y o‘sishi tezlashadi, jinsiy balog‘atga etish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo‘lishi) amalga oshadi. Ko‘krak qafasi ham gavdaning bo‘y o‘sishiga nisbatan sekin rivojlanadi. Buning natijasida ayrim o‘smirlarning elkasi, ko‘kragi tor bo‘lib qoladi, bu esa o‘z navbatida kislorod etishmasligiga, nafas qisishiga olib keladi. Kislorod etishmasligi natijasida ruhiy faoliyatga putur etadi. Bu davrda yurak kengayishi bilan qon tomirlari ham yo‘g‘onlashadi. Qon aylanish sistemasining qayta qurilishi, vegetativ nerv sistemasidagi barqarorlik qon aylanishini buzadi va o‘smirda ba‘zi qon bosimining ortishi ro‘y beradi.

Bu davrda ayniqsa jinsiy bezlar faoliyati kuchayadi. O‘smirda ro‘y beradigan biologik-jismoniy o‘zgarish natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. O‘smirlik yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo‘lgan alohida

xususiyatlarni jinsiy etilishning boshlanishi bilan izohlab bo'lmaydi. Jinsiy etilish o'smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta'sir ko'rsatib, bu ta'sir bevosita emas, balki ko'proq bilvositadir.

O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo'li bilan ham osongina ko'rish mumkin. O'smirlik davri o'tish davri, krizis davr, qiyin davr kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki, bu yoshdagi o'smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O'z davrida L.S. Vigotskiy bunday holatni "psixik rivojlanishdagi krizis» deb nomlagan. Kichik maktab davridan so'ng bola alohida olingan shaxs sifatida o'z-o'ziga munosabatini shakllantirish jarayonida asosan ikki bosqichni boshidan kechiradi. Bu bosqichlar o'smirlik yoshini ikki xil davrga - kichik o'smirlik davri va katta o'smirlik davrlariga to'g'ri keladi. Birinchi bosqichda o'smir o'zini bolalardan ajratib, endi o'zini kattalar olamiga mansubligini ta'kidlamogchidek bo'ladi. Kattalar hayotiga kirishga qiziqish o'smirlarning asosiy xarakteristikalarini hisoblanadi.

Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o'zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yaqin bo'lishi, yordam berayotgan bir guruh tengdoshlari bilan ortiq darajada bog'liq bo'lib qolishi va shu singari holatlar xarakterlidir. Ikkinchi bosqichda o'smir endi o'zining yosh bola emasligiga shubha qilmaydi va o'zligini aniq anglay boshlaydi, o'z shaxsini ulug'lab, o'ziga xos harakatlar qila boshlaydi. O'smirlarni o'z shaxslari haqidagi fikrlar ko'prok qiziqtiradi, ular o'zlarini bilishga, maqsadli rivojlantirishga, tarbiyalashga harakat qiladilar.

O'smirlik davrida ichki erkinlikning o'sishida, o'z-o'zini anglash layoqatlarida, mustaqil xatti-harakatlarida katta sifat o'zgarishlari yuz beradi. Bunday o'zgarishlarning yuzaga kelishida irodaning ham ahamiyati katta. Iroda oliy psixik funktsiya sifatida o'smirning erkin harakat qilish quroli, Shuningdek, shaxsi rivojining magistral chizig'i bo'lib hisoblanadi. Bu davrga kelib uning harakatlari o'zi bilan o'rtoq bo'lgan bir guruh tengdoshlariga bog'liq bo'lmay qoladi. O'rtoqlari o'smirga o'zi to'g'risidagi noto'g'ri

tasavvurlardan qaytib, jiddiy o‘ylab ko‘rishga uni majbur qilmoqchi bo‘lganlarida ham u bemalol rad javobini berishi va o‘z fikrida qat’iy turib himoya qilishi mumkin. Bu davrda o‘zga kishilarning ichki dunyosiga ortiqcha qiziqish bilan qarash va o‘z xatti-harakatlarini o‘zi tahlil qilish, o‘z-o‘zini tarbiyalashning elementlarini yuzaga kelishi mana shu ikkinchi bosqichdagi o‘smirlar hayotiga xos xususiyatlardir. O‘smirlik davriga ko‘pincha so‘zga kirmaslik, o‘jarlik, tajanglik, o‘z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy xususiyatlar xosdir. O‘smirlar hayotda, ekranda va kitoblarda kattalarning mustaqilligini va erkinligini, ularning katta va qiziqarli ishlarini, dadil harakatlarini, qahramonliklarini, atrofdagilar orasidagi obro‘larini ko‘radilar hamda havas qiladilar. O‘smirda katta yoshli odam bo‘lishga yoki hech bo‘lmaganda katta yoshli odam bo‘lib ko‘rinishga qiziqish, intilish paydo bo‘ladi va bu xohishni amalga oshirish unga osondek bo‘lib ko‘rinadi. O‘smirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarining o‘zaro mos kelmasligi o‘smirlar bilan ota-onalari, o‘qituvchilari va boshqa murabbiylari o‘rtasida qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi.

O‘smir o‘zining juda ko‘p istaklari, «xohlayman»larini amalga oshirishga intiladi: katta yoshli odamlar ega bo‘lgan ham-ma narsalardan foydalanishga, erkin, mustaqil va ozod bo‘lishga intiladi. Tevarak-atrofdagi odamlarga o‘zining ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatish uchun u kuchli, ko‘rqmas va epchil bo‘lishga inti-ladi. Tarbiyachilar ham o‘z tarbiyalanuvchilari xuddi shunday bo‘lishlarini istaydilar, ammo ular ana shu fazilatlarining faqat «kerakligi» uchun shunday bo‘lishini istaydilar. Ana shunday «xohlayman» va «kerak» o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar ba’zan oilada, maktabda, keskin ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga kel-tiradi. Tarbiyalangan odamda «xohlayman» fakat «kerak»ni bajarish orqaligina amalga oshiriladi. Agar o‘smir bola tushunishga o‘rgatilmagan bo‘lsa va «kerak» bo‘lgan narsani bajarishga odatlanmagan bo‘lsa, u o‘zboshimchaligini namoyon qilish orqali tarbiyachilarning talablariga qarshilik qiladi hamda o‘zining shaxsiy asoslanilmagan xohishlari asosida ish tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ғозиев Э.Ғ. Психология методологияси: ўқув кўлланма. – Т.: Noshir, 2013.
2. Ғозиев Э. Психология (Ёш даврлари психологияси). –Т.: “Ўқитувчи”, 1994.
3. Internet ma`lumotlari

BOLA SHAXSNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Asqarova Surayyo Raxmonberdiyevna
Farg'ona viloyati Furqat tumani 26-maktab psixologi

Ma'lumki, bolaning shaxs sifatida shakllanishiga, uning ijtimoiylashuviga xizmat qiladigan asosiy omil oila va oiladagi shaxslararo munosabatlar ekanligiga juda ko'p tadqiqotlarda o'rganilganligi manbalarda keltirilgan. Biroq oiladagi ota-ona, er-xotin, opa-singil, aka-ukalarning bola shaxsi shakllanishi va ijtimoiylashuvidagi roli alohida tadqiqot doirasida kam o'rganilgan. Bola tug'ulguniga qadar va ontogenez davrida uning shakllanishi hamda rivojlanish davrida onaning ta'siri juda ham katta ahamiyatga egadir. Bola dunyoga kelish jarayonida oiladagi shaxslararo munosabatlari, ayniqsa onaning psixologik holati, uning homiladorlikka nisbatan e'tibori muhim hissoylanadi. Inson rivojlanishi – juda murakkab jarayon. U tashqi ta'sirlar hamda ichki kuchlar ta'sirida sodir bo'ladi. Tashqi omillarga insonni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit, shuningdek bolalarda muayyan xislatlarni shakllantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliyat kiradi. Ichki omillarga esa biologik, irsiy omillar kiradi.

Rivojlanish jarayonida bola faoliyatning har xil turlariga jalb qilinadi (o'yin, mehnat, o'quv, sport va b) va muloqotga kiradi (ota-ona, tengdoshlar, begona kishilar va b. bilan). Bunda u o'ziga xos bo'lgan faollikni namoyon etadi. Bu muayyan bir ijtimoiy tajribani egallashga yordam beradi.

Bola rivojlanishining har bir davri uchun faoliyat turlaridan biri asosiysi, etakchisi bo'ladi. Bir tur boshqasi bilan almashtiriladi, biroq har bir faoliyatning yangi turi oldingisining ichida yuzaga keladi.

Bola tug'ilishidan boshlab normal rivojlanishi uchun muloqot muhim ahamiyatga ega. Faqatgina muloqot jarayonida bola inson nutqini o'zlashtirib olishi mumkin. Bu o'z navbatida bola faoliyatida va atrof-muhitni bili shva o'zlashtirishda etakchi vazifani bajaradi.

Shaxs rivojlanishi harakatlantiruvchi kuchlari bo'lib bola ehtiyoji va uni qoniqtirish imkoniyati o'rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar hisoblanadi.

Insondagi biologik va ijtimoiy omillar – bu bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki parallel chiziqlar emas. Har bir shaxsda ular shunday chambarchas qo'shilib ketadiki, ularning farqlari shunday turli-tumanki, tadqiqotchilar bola rivojlanishi asosida ikki o'ta muhim bo'lgan omilni irsiyat va muhitni ajratadi. Ular (irsiyat va muhit) inson rivojlanishi manbalari va shartlari hisoblanadi.

Biologik omillar. Biologik irsiyat insonni inson qiladigan umumiylikni hamda insonlarni tashqi va ichki jihatdan turli qiladigan farqlanishni aniqlaydi. Irsiyat deganda bolalar genetik dasturiga kiritilgan muayyan xislat va xususiyatlarning ota-onadan bolaga turli xil o'xshashlik, xususiyatlarning o'tishi tushuniladi. Irsiyatga ko'ra bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va xis tuyg'u organlari, shuningdek, qomat tuzilishi, soch teri rangi o'tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. Shuningdek irsiyat bo'yicha nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xususiyatlari ham o'tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko'zda tutadi. Psixologik ma'lumotlarga ko'ra qobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo'la olmaydi. Bola qobiliyatlarining namoyon bo'lishi uning hayot, talim-tarbiya jarayonlariga bog'liq.

Biologik omillar. Biologik irsiyat insonni inson qiladigan umumiylikni hamda insonlarni tashqi va ichki jihatdan turli qiladigan farqlanishni aniqlaydi. Irsiyat deganda bolalar genetik dasturiga kiritilgan muayyan xislat va xususiyatlarning ota-onadan bolaga turli xil o'xshashlik, xususiyatlarning o'tishi tushuniladi. Irsiyatga ko'ra bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va xis tuyg'u organlari, shuningdek, qomat tuzilishi, soch teri rangi o'tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. Shuningdek irsiyat bo'yicha nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xususiyatlari ham o'tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko'zda tutadi. Psixologik ma'lumotlarga ko'ra qobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo'la olmaydi. Bola qobiliyatlarining namoyon bo'lishi uning hayot, talim-tarbiya jarayonlariga bog'liq.

Hozirgi paytda bola rivojlanishiga ekologik muhit, atmosferaning buzilishi kabi tashqi omillar ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuqsonli bo'lib tug'ilayotgan bolalar soni ko'paymoqda.

Hozirgi paytda bola rivojlanishiga ekologik muhit, atmosferaning buzilishi kabi tashqiomillar ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuqsonli bo'lib tug'ilayotgan bolalar soni ko'paymoqda. Bunday bolalarning muomalaga kirishishi va faoliyat yuritishi nihoyatda og'ir kechadi. Shuning uchun ularga o'qitishning yangi metodlari joriy qilinmoqda va bu metodlar ularning aqliy rivojlanishga erishishlariga yordam beradi. Jismoniy nuqsonli bolalar bilan maxsus pedagoglar shug'ullanishadi. Bu bolalar o'z tengqurlari bilan muomalaga kirishganlarida jiddiy muammolarga duch kelishadi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini qiyinlashtiradi. Shuning uchun bunday bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi bolaga tashqi olam bilan aloqa qilish kanallarini ochishdir.

Inson bo'lib etishish uchun faqatgina biologik irsiyatning o'zi kifoya emas. Inson faqat sotsiolizatsiya jarayonida, ya'ni muloqotda, boshqa insonlar bilan o'zaro ta'sirda shaxs bo'lib etishadi. Inson jamiyatidan tashqarida ma'naviy, ijtimoiy, psixik rivojlanishi sodir bo'la olmaydi. Bu fikrni barchaga ma'lum hollar, ya'ni inson bolasi hayvonlar orasida o'sgani yanada mustahkamlaydi.

Inson bo'lib etishish uchun faqatgina biologik irsiyatning o'zi kifoya emas. Inson faqat sotsiolizatsiya jarayonida, ya'ni muloqotda, boshqa insonlar bilan o'zaro ta'sirda shaxs bo'lib etishadi. Inson jamiyatidan tashqarida ma'naviy, ijtimoiy, psixik rivojlanishi sodir bo'la olmaydi. Bu fikrni barchaga ma'lum hollar, ya'ni inson bolasi hayvonlar orasida o'sgani yanada mustahkamlaydi.

Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir. U ayniqsa bolalik va yoshlik davrida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki, aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi.

Bola ijtimoiylashuvida sotsium muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy muhitni bola asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi. Agar bola tug'ilgandan keyin asosan oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi yangi va yangi muhitlar-maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi. Yosh ulg'aygan sari ijtimoiy muhit "hududi" kengayib boradi. Bola qanchalik ko'p muhitlarni o'zlashtirsa, u shunchalik keng doira hududini egallashga harakat qiladi. Bola doimo o'zi uchun qulay bo'lgan uni yaxshi tushunadigan, unga hurmat bilan

munosabatda bo‘ladigan muhitni izlashga urinadi. Shuning uchun u bir muhitdan boshqa muhitga ko‘chib yuradi. Muhit bolani shakllantirishda, uning ijtimoiy tajriba to‘plashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muhim ahamiyatga egadir.

ORZU VA MAQSAD

*Nortajiyeva Ra‘no Nurmatovna
Samarqand viloyati Paxtachi tumani 42-maktab psixologi*

Har qanday buyuk orzu buyuk xayolparastdan boshlanadi. Doim yodda tuting sizda yulduzlarga erishish va dunyoni o‘zgartirish uchun kuchingiz, sabringiz va ishtiyoqingiz bor.

Harriet Tubman

Orzu - bu xohishning go‘zal qiyofasi, harakatni boshlash uchun ilhomlantiruvchi kuch. To‘g‘ri orzu yo‘l va maqsadlarda mujassamlashadi. Biroq, turli xil yo‘llar bilan orzu qilishingiz mumkin. Siz o‘zingizni o‘z orzuingiz bilan ilhomlantira olasiz yoki behuda orzularga berilishingiz mumkin. Orzu bilan faoliyatni tashkil etish ajoyib, hayotdan uzoqlashish esa zararli.

Birinchi holatda orzu qilishni bilish foydali. Ikkinchi holatda - hayotdan uzoqlashtiradigan zararli odatni tark etish.

Orzularga berilib ketishni yaxshi ko‘radiganlar, ularni amalga oshirishda shoshilib qoladilar, chunki haqiqatda yuqori orzularga erishish mashaqqatli bo‘lishi mumkin. Ammo agar siz yashashni xohlasangiz va hayotdan qochmasangiz, orzularingizni haqiqatga aylantirasiz va agar siz kuchli va ijodiy odam bo‘lsangiz, ba’zida sizning mujassamlangan haqiqatingiz havoyi havas va fantaziyadan ko‘ra qiziqroq bo‘ladi.

Maqsadga ishonchli xatti-harakatlar bilan, inson maqsadlarni yetarlicha aniq ifodalaydi va o‘z harakatlarini maqsadga yaqinlashishga imkon beradigan tarzda quradi. Lekin, har qanday maqsad ishonchli xatti-harakatlarning sharti sifatida xizmat qilmaydi.

Birinchi dan, ular aniq bo'lishi kerak, ya'ni, mavjud imkoniyatlar va cheklovlarni hisobga olingan holda. Ikkinchi dan, maqsadlar aniq bo'lishi kerak, shuning uchun inson qanday mezonlarga erishish mumkinligini aniq ko'rsatishi kerak. Uchinchi dan, o'zingiz uchun maqsadlarni ijobiy nuqtai nazardan belgilash maqsadga muvofiqdir: qanday qilib oldini olishni emas, balki erishmoqchi bo'lgan narsalarning obrazini pozitiv tasavvur etgan holda.

Har birimiz, bilmagan holda ko'pincha o'zimizni boshqalar bilan taqqoslaymiz va natijada bizning aqlimiz, tashqi ko'rinish, sog'lig', jamiyatdagi mavqeimiz to'g'risida mutlaqo barqaror fikr ishlab chiqamiz, ya'ni o'zimizga, hissiyotga bog'liq bo'lgan "o'zini o'zi qadrlash" to'plamini shakllantiramiz. Bu - dunyoda farovon yashash, ishlash, odamlar bilan munosabatlar uslubi. Shunisi e'tiborga loyiqki, o'ziga bo'lgan munosabat va boshqa odamlarga bo'lgan munosabat bir-birlariga ta'sir qiladi: o'z-o'zini hurmat qilish, boshqalarga munosabatda ham hurmatni shakllantiradi. O'zini yaxshi deb hisoblaydigan, boshqa odamlarni yaxshi ko'rgan, ularga yaxshi muomala qiladigan va ularga munosabat bildiradigan kishi, bu uning fikri va uning qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini oshiradi. Xuddi shu tarzda, o'ziga nisbatan fikri past bo'lgan odamda buning teskarisi.

O'ziga ishonchli va ishonchsiz shaxsning xatti-harakati belgilari.

O'ziga ishonchli xatti-harakatni ko'rsatadigan kishi xotirjam ko'rinadi, qadr-qimmatga ega. Uning nigohi hotirjam, hatto qomati xotirjam va ishonchli ovozi bor. U bezovta qilmaydi, vahimaga tushmaydi, urushqoqlik xususiyatini ko'rsatmaydi.

Ishonchsiz shaxsning xatti-harakati ikki xil: tajovuzkor va passiv, qaram. Ishonchsiz odam tajovuzkor bo'lishi mumkin: qichqiriq, haqorat qilish, qo'llarini silkitib, nafrat bilan qarash va hokazo. Bunday xatti-harakatlar talabchanlik yoki dushmanlik bilan tavsiflanadi, inson "shaxsiyatga o'tadi" va ko'pincha o'z ehtiyojlarini qondirishga emas, balki boshqasini jazolashga e'tibor beradi. Ishonchsizlik, shuningdek, qarama-qarshi, uyatchan xatti xarakat orqali namoyon bo'ladi: bunday kishi juda jim, uyatchan yurish, boshini chayqash va tushirish, to'g'ridan-to'g'ri qarashdan qochish, unga bosim o'tkazilmasa ham namoyon bo'lishi mumkin. Bunday xatti-harakatlar bilan, bir kishi muammoni to'g'ridan-to'g'ri muhokama qilishdan voz kechadi, uning istaklari va

ehtiyojlari haqida bilvosita shaklda gapirishga moyil bo'ladi, "ayblash" passiv, lekin sherikning taklif qilishi mumkin bo'lgan narsalarni qabul qilishga tayyor emas.

O'ziga ishongan kishi tajovuzga yoki passiv qaram xatti-harakatlarga murojaat qilmasdan o'z pozitsiyasini qanday himoya qilishni biladi. U o'z ehtiyojlari, shuningdek, sheriklar tomonidan kerakli harakatlar haqida ochiq gapiradi, buni dushmanlik va o'zini himoya qilmasdan qiladi. Ishonchli shaxs, shuningdek, mustaqillikni namoyon etish, shaxsiy fikrini himoya qilish va boshqalarga itoatkorlik bilan rioya qilish qobiliyati bilan ajralib turadi.

Ishonchingizni mustahkamlash uchun bir nechta maslahatlar:

Esingizda bo'lsin, ideal odamlar yo'q va siz istisno emassiz, shuning uchun xatoga yo'l qo'yish ayb emas. Buni xotirjam his eting. Har qanday xato sizni yaxshilashga imkon beruvchi tajriba! Oz-ozingizni ishontiring. Omad va yutuqlaringizni, hatto kichiklarni ham ko'rib chiqing. Ular uchun o'zingizni maqtang! Boshqalar siz haqingizda qanday fikrda bo'lishlari yoki nima gapirishlariga e'tibor bermang.

Endi hoziroq orzu va maqsadlarni amalga oshirish uchun o'zingizga ishoning, o'zingizni qadrlang va sevishni boslang. Albatta, siz buni amalga oshirasiz!

BUGUNGI TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIGA PSIXOLOGIK MUHITNING TA'SIRI

Amanova Oyniso Nursaidovna
Shayxontohur tumani 42-A maktab psixologi

Ma'lumki, pedagogik faoliyatning tuzilishi o'qituvchining o'z iga xosligi faqatgina uning har tomonlama pedagogik faoliyatidagi fazilatlar bilan bog'liqdir. O'qituvchi faoliyati o'z aro komponentlardan iborat. Pedagogik faoliyatning 3 komponenti farqlanadi: konstruktiv, kommunikativ va tashqilotchilik. Konstruktiv komponenti. O'qituvchining ishida konstruktiv dars katta o'rin egallaydi, ya'ni sinfdan tashqari ishlar

maktab dasturlari bilan bog'liq o'quv materiallarni ta'lim oluvchilar uchun turli metodik ishlanmasi va uni ta'lim oluvchilarga ifodasini qamrab olgan. Ushbu barcha ishlar dars konspekti tarkibida o'z ifodasini topadi, ya'ni: o'z faoliyatining tartibi va tizimi ta'lim oluvchilarning faoliyat tartibi va tizimi. Ayni vaqtda pedagogik faoliyatning ushbu komponenti maktab oldida turgan asosiy vazifasi o'sib kelayotgan avlodning faol fuqarolik holatida tarbiyalash o'qituvchi shaxsiga ma'lum bir talablarni qo'yadi. O'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishga intilishi kerak, buning uchun esa u eng qiyin nazariy savollarni oson o'zlashtirilishi uchun o'quv materialni tanlash va qayta ishlashi lozim. Birinchi navbatda ta'lim oluvchilarning faoliyati faol bo'lmasa, chuqur bilim va o'zlashtirish jarayoni amalga oshirilmaydi. Muhit, ta'lim-tarbiya va tegishli mashq, miya tuzilishining organik jihatdan yetilishiga yordam beradi. Bu jarayonda ta'lim qanday mavqega ega? Ta'lim rivojlanishga nisbatan yetakchi vazifani bajaradimi yoki aksincha? Bu muammoning hal qillinishi ta'lim jarayonining mazmuni va metodikasini, o'quv darajalari va darsliklarning mazmunini belgilab beradi. Bu borada nemis psixologi V.Shtern: ta'lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi, degan fikrni olg'a surgan edi. Bu fikrga qarama-qarshi rus psixologi L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning yetakchilik roli bor, degan qoidani birinchi bo'lib ilgari surdi va uni: ta'lim rivojlanishdan oldinda boradi va uni o'z orqasidan ergashtirib olib boradi, deb aniq ifodalab, beradi. Yuqorida bayon qilingan birinchi fikrga muvofiq ta'lim faqat rivojlanish tomonidan erishilgan narsalardan foydalanadi. Shuning uchun aqliy jihatdan yetilish jarayoniga aralashmaslik, unga, xalaqit bermaslik, balki ta'lim uchun imkoniyat yetilguncha chidam bilan passiv kutib turish kerak. Shveysariyalik psixolog J.Piajening nazariyasi ham ayni shu g'oyalar bilan yug'rilgandir. J.Piajening fikricha, bolaning aqliy o'sishi o'zining ichki qonunlari asosida rivojlana borib, sifat jihatdan o'ziga xos bir qator genetik bosqichlarni bosib o'tadi. Ta'lim - bu aqliy yetilish jarayonini faqat bir qadar tezlatishga yoki sekinlashtirishga qobildir, lekin u aqliy jihatdan yetilish jarayoniga hech qanday jiddiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Demak, ta'lim rivojlanish qonunlariga bo'ysunishi kerak. Masalan, bolada mantiqiy tafakkur yetilmay turib, uni mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish foydasizdir. Ta'limning turli bosqichlari bolaning tegishli psixologik imkoniyatlari pishib yetiladigan

muayyan yoshidan qat'iy nazar bogliqligi ana shundan kelib chiqadi. Ta'kidlash joizki, ta'lim yetakchi rolni bajaradi, ta'lim va rivojlanish esa o'zaro bir-biriga bog'liqdir; ular alohida sodir bo'ladigan ikki jarayon bo'lmay, balki bir butun jarayondir. Ta'limsiz to'la aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Ta'lim rivojlanishga turtki bo'ladi, rivojlanishni o'z ortidan ergashtirib boradi. Zarur sharoit tug'ilganda ta'lim mantiqiy fikrlash malakasini tarkib toptiradi va tegishli aqliy rivojlanish uchun zamin bo'ladi. Lekin, ta'lim rivojlanishga turtki bo'lish bilan bir vaqtda o'z i rivojlanishga tayanadi, erishilgan rivojlanish darajasining xususiyatlarini, rivojlanishning ichki qoidalarini, albatta, inobatga oladi. Ta'limning imkoniyatlari juda keng bo'lsada, biroq cheksiz emas. Yirik rus psixologi L.S.Vigotskiy ta'lim va taraqqiyot muammosiga ijtimoiy-tarixiy jarayon nuqtai-nazaridan yondashib, bilimlarni o'zlashtirish insoniyatning tarixiy taraqqiyotida yaratilgan madaniyatda ishtirok etish jarayonidir, deb ta'kidlaydi. U olg'a surgan psixik funksiyalar taraqqiyotining madaniy-tarixiy nazariyasiga ko'ra, psixik faoliyat taraqqiyoti uning «tabiiy» shaklini bevosita qayta qurgan holda, turli alomatlar bilan avval tashqi, so'ng ichki ifodalanishni nazarda tutib, «madaniy» shaklini egallash tushuniladi. E.Torndayk va J.Piajening ta'lim bilan taraqqiyotni ayni bir narsa deb tushuntirishiga qaramay L.S.Vigotskiy: «Bola taraqqiyotini hech mahal maktab ta'limidan tashqaridagi soya deb hisoblash mumkin emas», - deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari, ta'lim va taraqqiyot bir-biriga tobe bo'lmagan jarayonlardir, degan yunalishdagi psixologlarni ham u qattiq tanqid qiladi. P.P.Blonskiy ta'limning bola taraqqiyotidagi o'rniga alohida ahamiyat beradi. Shuning uchun o'quvchilarning aqliy rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri maktab dasturi mazmuniga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Yosh va individual o'zgaruvchanlik insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti ta'siri ostida har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Individning dinamik xususiyatlariga shaxsning ijtimoiy sifatlari ta'sir etib, uning individual o'zgaruvchanligi omilini kuchaytiradi. Insonning shaxs sifatida tavsiflashning muhim lahzasi, uning dinamik xususiyatlari hisoblanib, jamiyatdagi statusi (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, ya'ni uning jamiyatda egallagan o'rnini) orqali ifodalanadi. Status negizida doimiy o'zaro aloqalar tizimi yotadi. Rolning ijtimoiy funksiyasi muayyan maqsadlarga va qadriyatlarga yo'nalganlik shaxsni faollashtiradi. Status,rol, qadriyatga yo'nalganlik shaxs xususiyatlarining birlamchilarini

tashkil etadi va uning tuzilishida asos bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning ta'rifi xulq motivatsiyasi xususiyati va ijtimoiy fe'l-atvor tuzilishini belgilab, uning tarkibidan ikkilamchi alomatlar sifatida joy egallaydi. Shaxsning birlamchi va ikkilamchi sifatlarining o'zaro ta'sirini birlashtiruvchi yuksak samara tarzida inson xarakteri va mayllari yuzaga keladi. Insonning shaxs xislatlarini rivojlantiruvchi asosiy shakl- uning jamiyatdagi hayot yo'li va ijtimoiy tarjimai holi hisoblanadi. Individ, shaxs va sub'ekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlarga e'tibor qilishi zarur: - inson rivojining asosi hisoblangan omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhiti omillari); -insoning o'ziga taalluqli, asosiy tavsiflar, uning ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, evolyutsiya bosqichi, barqarorlashuvi va involyutsiya; -inson yaxlit tuzilishning asosiy tarkiblari, ularning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi kabilar, Uch xil xususiyatli tadqiqot dasturining tarkibiy qismlari insonning amaliy va nazariy faoliyatining mezonlari hisoblanadi. Chunki, faoliyatda yashash muhiti tarixiy tajribani egallash interiorizatsiya va eksteriorizatsiya amalga oshadi. Odamning maqsadga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyati protsessida hayotiy deb ataladigan mexanizmlari va ongli faoliyatining funktsional sistemasi protsesslari yuzaga keladi. Ana shular tufayli odam bilimlarni, ko'nikma va malakalarni, kishining sotsial tajribalarini o'zlashtiribgina qolmay balki o'zining idroki, tafakkuri, xayoli, hissiyotlari va irodasini bir so'z bilan aytganda, voqelikka bo'lgan ongli munosabatini hamda o'z harakatlari va xulq-atvorining motivlarini tarkib toptiradi. Shaxsning barcha xususiyatlari, munosabatlari va xatti-harakatlari shaxsning hayoti faoliyatida ma'lum rolni bajaruvchi va har biri murakkab qurilmadan iborat bo'lgan hamda shartli ravishda to'rtta o'zaro mustahkam bog'langan funktsional bosqichlarga birlashtiriladi: Birinchisi - boshqaruv tizimi; Ikkinchisi - stimullashtirish tizimi; Uchinchisi - stabilizatsiyalash tizimi; To'rtinchisi - indikatsiyalash tizimi. Shaxsning ana shu sotsial ahamiyatga ega bo'lgan barcha sifatleri ijtimoiy taraqqiyotning yuksak ongli faoliyatchisi sifatidagi Birinchi tizimi hosil bilishida analizatorlar shaxsning hulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilaydi. O'rtasidagi doimiy tabiiy aloqani aks ettiruvchi filogenetik mexanizmlar katta rol o'ynaydi. Biroq, bu ilgari yuqorida ta'kidlab, o'tganimizdek ontogenez protsessida

filogenetik analizatorlar o'rtasidagi aloqa vaqtli aloqalar bilan organik jihatdan qishilib keladilar. Bunda mazkur tizimning ichida pertseptiv tizimiga o'tib ketadigan yuksak darajada integratsiyalangan ma'lum ichki sensor komplekslarni hosil qiladi. Bunday komplekslar qatoriga nutq, eshitish, ko'rish hamda sensomotor komplekslarni kiritish mumkin. Mana shu komplekslarning hammasi odamning hayot-faoliyati jarayonida o'zaro bir-biri bilan doimiy aloqaga kirishib, sensorpertseptiv uyushishning yagona funksional dinamik tizimini yaratadi. Insonning sensor-pertseptiv jihatlari doimo takomillashib boshlagan ilmlarining dastlabki yillaridayoq shakllana boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Andreyeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. Uchebnik.- M.:Aspekt Press, 2009.- 376 s.
2. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2019.1-2 kitob.
3. G'oziev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2012
4. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2011.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.-T.: Universitet, 2002.- 96 b.

O'QUVCHILARNI KASBIY MAHORATINI SHAKLLANTIRISH

*Ilhomxo`jayev Iqbolxo`ja Ilhomxo`ja o`g`li
Farg`ona viloyati Furqat tumani 14-maktab psixologi*

Davlatimiz yoshlarini ta`lim-tarbiya olib barkamol shaxs bo`lib voyaga yetishlari uchun barcha imkoniyatlar ochib berilmoqda.O`quv muassasalarida ta`lim-tarbiya jarayonini yuqori saviyada tashkil qilish va rivojlantirish,iqtidorli yoshlarni tanlash va salohiyatini oshirish,yuksak ma`naviyatli barkamol avlodni tarbiyalash shu bilan birga

ularni qiziqishlari, qobiliyatlari inobatga olgan holda kasb tanlashga tayyorlashdek mas'uliyatli vazifalar yuklatilgan.

O'z vaqtida kasbga yo'naltirish o'quvchining hayotdagi o'rnini yaxshiroq egallashida muhimdir. Psixologik diagnostika va pedagogik tashxis ishlari ham ushbu soha bilan shug'ullanadi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida endilikda bizga faqatgina har tomonlama rivojlangan bola bo'libgina qolmasdan, balki har tomonlama sog'lom, aqlan rivojlangan bolani tarbiyalashda va unga bilim berish va kamolga yetkazishda har bir insonning asosiy burchi ekanligi uqtiriladi. O'qituvchining mahorati o'quvchilarning hayotda o'z o'rnini topishlarida, kerakli mutaxassis, jamiyatning intellektual salohiyatli kadrlari bo'lib yetishishlarida, ularning kasbiy madaniyatini shakllantirishda va kasb-hunarga yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun o'qituvchilar shaxsiy va kasbiy, umummadaniy, maxsus kompetensiyaga ega bo'lishlari, shaxsiy-kasbiy sifatlarni rivojlantirishlari, o'z ustilarida doimiy ishlashlari, pedagogik qobiliyat va pedagogik texnikani, pedagogik mahorat namda insonparvarlikni takomillashtirishlari talab etiladi. Kasb-hunar tanlashda maqsadning to'g'ri qo'yilishi yartm g'alabadir. Bu g'alabani yuzaga chiqarishdagi qo'llanilgan vositalar, metodlar samaraliligi, sinovdan o'tgan bo'lishi ayni muddaodir. Kasbga old ma'lumotlarni tahlil qilish, natijalarni solishtirish, birlashtirish, o'quvchining kasbiy axborot bazasini boy'itishda qo'llanilgan filmlar, innovatsion yangiliklar vaziyatni baholay olishga yordam beradi. Shuningdek, tasavvur, qiziqish, ehtiyoj, qobiliyat, bilim, ko'nikma, odatlar bilan uzviy bog'laydi. Hozirgi kunda kasb-hunarga bag'ishlangan targ'ibot-tashviqot ishlari, kasbiy bilim va ta'limga yo'naltirilib, o'quvchilarning fikrlarini, ota-onalarning hamkorligini seminar-treninglar, ma'ruzalar va suhbatlar uyushtirish, kasb-hunarning ijtimoiy ahamiyatini yoritish, anjuman, radio va teleko'rsatuvlarda chiqishlar, qiziqish va havaslarini orttirish individual muloqotlarni uyushtirishdan, mazmunli tashkil etishdan iboratdir. Bunda psixologik xizmatni keng tatbiq qilish, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish xonalarini zamon talabi darajasida shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqillik yillaridagi kasbiy sohalar bilan bugungi kundagi zamonaviylikka asoslangan kasblar o'rtasida farqlar sezilmoqda. Qizlarni har tomonlama kamolotga

boshlovchi kasb-hunarlar shu darajada ko'payib ketdiki, endilikda o'g'il bolalar uchun ham turli to'garaklar, markazlarning ochilishiga bo'lgan talab ortmoqda. Ayniqsa, nafaqat qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash kerak, balki o'g'il bolalarni ham oila qurishga, jamiyatda o'z o'rnini topishga yo'naltirilgan kasb-hunar markazlari ochilishi ham ayni muddaodir. To'g'ri kasb-hunarga yo'naltirish insonni jamiyatga foydasi tegishiga, yomon yo'llardan qaytarishga turtki beradi. Xalqimizning «Yigit kishiga qirq hunar oz», «Hunardan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik» kabi maqollari bejiz aytilmagan. Hamma jabhalarda ham kasbini to'g'ri tanlagan va sevgan inson katta yutuqlarga erishgan, ulkan kashfiyotlar qila olgan. Sportchilarimiz va turli soha egalarining qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlarini keltirish mumkin. Ularning bari fidoyi kasb egalari bo'lib, tinimsiz mashqlar, samarali ijod tufayli yurtimizni butun jahon tanishiga ulkan hissa qo'shmoqdalar.

O'quvchining shaxsiy va professional tayyorgarligida, samarali aniq metod va ta'sir etuvchi xususiyatlarni aniqlashda, maslahat va tavsiyalar berishda, qiyinchiliklar sabablarini aniqlashda, asoslab berishda, kasb madaniyatini shakllantirishda ota-onalar, o'qituvchilar va tarbiyachilar jamoasi, maktab amaliyotchi psixologining, mahoratli pedagogning o'rnini muhim. Bunda pedagogik korreksiya va diagnostikadan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Bu psixologiyaning eng yaxshi rivojlangan va muhim yo'nalishi bo'lib, o'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasini aniqlash, o'z-o'zini baholash, «Psixologik himoya usullari»dan foydalanish, psixik holatlarni, xarakterning asosiy sifatlarini o'rganishda muhim. Kasb-hunarga old suhbatlar jarayoni o'quvchilarning qiziqish havaslarini, tasavvurlarini, xayol va tafakkurlarini o'rganishda muhim bo'lsa, testlar o'quvchini o'rganishda, uning xususiyatlarini, qobiliyatlarini, xarakterlarini, tafakkur va muloqotchanliklarini, o'zaro munosabatlarini o'rganishda muhimdir. Hozirgi kunda aqlan zukko, qobiliyatli, izlanuvchan, mustaqil, mulohazali yigit va qizlarga qulay shart-sharoitlar, imkoniyatlaryaratilgan. Zamon talablariga javob beruvchi kasb-hunar maskanlarida o'qitish ishlarida mahoratli pedagoglarning o'rnini beqiyos. Zero, insonning o'z o'rnini topishi bugungi kundagi dolzarb muammodir

Bundan tashqari, kasb tanlashda kishiga psixofiziologik imkoniyatlariga mos tushadigan kasbiy faoliyatning yo'nalishi tanlanadi. Bunda birinchi o'rinda uning huquqiy

imkoniyatlari turadi. Kasbiy saralashda esa buning aksini, birinchi o'ringda kasbning insonga nisbatan talablari turadi. Masalan, kosmonavtlar otryadiga uchuvchilarni, televideniya diktorlarini saralab oladilar va hakazo.

Kasbiy tanlov – kasb-hunarni egallash uchun shaxsga qo'yiladigan malaka talablari, mo'nalik qiladigan kasalliklar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida bo'lajak kasbiy yo'nalishni tanlash jarayonidir.

Kasbiy moslashuv-kasb-hunarni egallash jarayonida har bir bola, o'quvchining o'ziga xos tibbiy-biologik va psifiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda u bilan olib boriladigan ishlar majmuasini o'z ichiga oladi.

O'quvchilarni o'z qiziqishlari, mayli ehtiyoj, iqtidor, qobiliyat ko'nikma va malakalarni hisobga olgan holda, kasb tanlashga yo'naltirish jamiyatning rivoji uchun puhta zamin yaratadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kasb-hunarga yo'naltirishda kuzatish orqali hayotni o'rganish, xarakter, qobiliyat, kayfiyatlarni kuzatish bilan turli tuzatishlar olib boriladi. Insonning tashqi ko'rinishlari: harakatlari, so'zlashi, boshqalar bilan aloqasi, xulq-atvori o'rganiladi. Belgilangan reja yoki dasturga muvofiq kuzatish asosiy maqsadga tezroq yetkazadi.

ЎСМИРЛАРДА ОИЛА ТЎҒРИСИДАГИ ТАСАВВУРЛАР ШАКЛЛАНИШИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Рахманова Назира Ботировна
Тошкент вилояти Зангиота тумани 35-мактаб психологи

Аннотация. Бугунги кунда оила масалалари энг долзарб масалалардан бири десак адашмаган бўламиз. Бунга сабаб ходимнинг ишдаги масъулияти, ўқувчининг мактабдаги фаоллиги, инсонларнинг шахслараро муносабатларнинг барчаси оила аталмиш энг кичик ижтимоий қатламга боғлиқ. Шундай экан ўсиб келаётган ёш

авлоднинг оила ҳақидаги тушунчаси, қарашлари, муносабати ва қадриятларининг шаклланишига алоҳида эътибор қаратиш зарур.

Калит сўзлар: оила, ота-она, коллеж ўқувчилари, ўспиринлар, оила институти, оила типлари, соғлом психологик муҳит.

Мустаҳкам ва бахтли оила қуришга йигит-қизларни илк ёшлиқдан тайёрлаш, оила муҳитида ҳамда барча таълим бўғинларида бу ишларни босқичма-босқич изчил давом эттириш олиб бораётган сиёсатимизнинг нақадар истиқболга қаратилганлигини кўрсатади. Мақсадимиз пок ниятли, жисмонан бақувват, соғлом, интеллектуал салоҳияти юксак, ҳар томонлама етук миллатпарвар, оилапарвар, ватанпарвар ёшларни вояга етказиш экан, бу борада оила институтининг барча имкониятларидан тўла ва ўринли фойдаланишни билишимиз, бу йўлдаги самарали механизмларни илмий жиҳатдан тадқиқ этишимиз лозим бўлади.

Ижтимоий психология Ўзбекистонда жадал ривожланиб бораётган фан тармоғи сифатида ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш, уларда оила тўғрисида аниқ тасаввурларни шакллантириш йўллари урганар экан, энг аввало, оиланинг қайси модели ёки типи ҳозирги замон ёшларига маъқул эканлиги, бу типларнинг замонавийлик ҳамда анъанавийлик тамойилларига қанчалик мос келишига ва йигит ва қизларнинг бу борадаги ижтимоий тасаввурларига алоҳида эътибор қаратади. Зеро, никоҳга икки шахс - йигит ва қиз киради. Улардаги жинсга оид психологик хусусиятларнинг қандай эканлиги, оила муҳитида рўй берувчи психологик ҳодисаларнинг ёшлар онгига таъсири кўламини билган ҳолда, шахслараро муносабатларни мустаҳкамлаш йўллари белгилаш фан учун ҳам, амалиёт учун ҳам фойдалидир. Ушбу ҳолатларга оид тасаввурларни билиш шахс ижтимоий хулқини олдиндан башорат қилиш, оила мустаҳкамлигини таъминловчи шахсий ва гуруҳий омилларнинг таъсирини мақсадли бошқариш имкониятини беради. Зеро, ёшларда ижтимоий психологик тасаввурлар ва улар асосида шаклланадиган установкаларнинг ўзгариб бораётганлиги ҳаёт тарзи ёки ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитларнинг ўзгариб бораётганлиги билангина изоҳланмайди, балки бунда инсон омили ва унинг психологиясида рўй бераётган ўзгаришларнинг ўрни ва роли ҳам сезиларлидир.

Ёшларнинг оила ва оилавий муносабатлар тўғрисидаги тасаввурлари кўплаб ижтимоий психологик тадқиқотларнинг предмети сифатида ўрганилган. Умуман психологлар йигит ва қизларнинг бўлғуси оиласи ва унинг қандай бўлиши тўғрисидаги тасаввурларини ўрганишни умуман улардаги оила ва никоҳ тўғрисидаги тасаввурларини ўрганишдан бошлайдилар. Чунки А.Б.Шнейдернинг фикрича, ўз оиласида кўрган-кечирганлари, тажрибасини умумлаштирмай туриб, ёшларда истиқболдаги оила образи бўлиши мумкин эмас. Калининградлик психолог С.В.Овчинникова ҳам Л.Шнейдер лабораторияси аъзолари билан замонавий ўсмир ёшларнинг идеал, низоли, анъанавий ва типик оила тўғрисидаги тасаввурларини ўрганган ва унда асосий методик қурол сифатида оиланинг проектив расми методикасидан фойдаланган. Бунда ёшлардан оилага ким бошчилик қилиши, ҳар бир оила аъзоси нима билан шуғулланиши, шу оилада айнан ким бўлишни исташлари, ким бўлишни аниқ хоҳламасликлари, бу оилада ким бола тарбияси билан шуғулланиши, оиладагилардан кимга бола кўпроқ яқинлиги: отагами, онагами, бобо ёки бувигами, ўзаро бир-бирига каби саволларга жавоб бериб, қандай муаммоларни билиши ҳақида сўралган. Олинган натижаларда турлича фикрлар орасида айнан идеал оила деб аталмиш категорияда “ҳамма бирга”, яъни, ота-она ва боладан ташқари, бувилар ва боболар ҳам акс этган расмлар тавсифланди. Бундай расмлар 55%ни ташкил этган. 20% дан ортиқ расмларда идеал оила “Эр – болалар - хотин” тизимида ифодаланган ва бундай тасаввурни тадқиқотчилар россияликлар учун анъанавий, деб ҳисоблайдилар.

Олиб борилган кузатишлар мақсади нуқтаи назаридан ушбу тадқиқотлардан олинган яна бир жиҳат муҳимки, у ҳам бўлса, ёшларнинг идеал оила тўғрисидаги тасаввурларида ўзларининг тутган ўрнини аниқлашдир. Масалан, “Айни шу идеал оилада сен ким бўлишни хоҳлардинг?” деб берилган саволга кўпчилик болалар ўзларининг психологик жинсига мос келадиган ролларни ифодалаганлар, яъни, ўғил болалар – эр ролини, қизлар – рафиқа ролини. Фақатгина сўралганларнинг учдан бири бола ролини қайд этиш билан чекланган. Бу ўринда ўғил болалар берган жавоблар барибир бизнинг эътиборимизни тортди. Чунки 10 % ўғил бола оилада етакчи, оила бошлиғи бўлишни истамаганлигини билдирди, яъни, улар ўз бўйнига

масъулият олишни хоҳламайди, 35 % ўғил болалар бола позициясини бошқа ҳар қандай ролдан афзал билади. Низоли оила тўғрисидаги тасаввурлари ўрганилган болаларнинг 40 %и оила бошлиғи сифатида аёлни, 35 %и отани тасаввур қилади. Бошқалар эса “Ҳеч ким” ёки “Ким хоҳласа” деган жавоблар билан чекланганлар. Фақат анъанавий оила тўғрисидаги тасаввурларда бирорта жавобда она оила бошлиғи сифатида эътироф этилмаган, 15% ҳолатда оила бошлиғи – бобо, қолган 85% ҳолатда бу ролни ота-эркак киши ўйнайди. Она бундай оилада ҳамиша уй-рўзгор ишлари билан банд бўлган бека ролида тасаввур этилади. Шундай бўлсада, ўғил болаларнинг 30 %и бундай оила моделини хоҳламаслигини, 20 % қизлар умуман уй бекаси бўлиш фикридан йироқ эканлигини, 25 % болалар бола ролини рад этишларини баён этганлар. Ёшларнинг бундай муносабатига сабаб бўлган омиллардан бири – бу оилада бола тарбиялаш усулларининг қаттиқлиги ва улар учун маъқул эмаслигидир. Чунки уларнинг эътирофича, асосий тарбия методларига қатъий тартиб-интизом, қаттиққўллик ва жазолаш усуллари киритилган. Буни замонавий ёшлар мутлақо қабул қила олмайдилар.

ХУЛОСА

1. Илмий психологик манбаларда келтирилган оила ва оилавий муносабатларнинг бошқа турлари шу икки тоифа асосида намоён бўладиган ўзаро муносабатлардир. Оила типини танлаш ва унга йўналтирилган шахс сифатларининг шаклланиши ушбу оиладаги узоқ муддат давомида мулоқот қилиш вазиятининг оқибати ёки ҳосиласи бўлиб, у аслида шахсдаги мавжуд оилавий мулоқот эҳтиёжидан келиб чиқади. Шунга қарамай, оилада тарбиялаётган ёшларнинг оила типини танлаши оилавий муносабатлар чегарасидан ҳам биров чиқадиган, унинг кенг ижтимоий муносабатлар тизимида олган ижтимоий тажрибасининг ҳам маҳсулидир. Шу боис ҳам, ота-онанинг оила типига нисбатан ижтимоий установа ва ижтимоий тасаввурлари фарзандларникидай бўлмаслиги мумкин ва, аксинча.

2. Оила типини танлашга таъсир этувчи ва шахсдаги ижтимоий тасаввур мазмунини ташкил этувчи ижтимоий институтларга қуйидагилар киради: а) оила – дастлабки ижтимоийлашувнинг маскани сифатида ва у ердаги норасмий

мулоқотларнинг ижтимоий тажрибага асос бўлиши сифатида; б) ота ва онанинг жамиятда қабул қилинган, ижтимоий стереотипларда муҳрланган маскулинлик ва фемининлик роллари таъсирида шаклланидиган ижтимоий тасаввурлар; в) ижтимоийлашувнинг бошқа масканлари, масалан, таълим масканларида ўзаро муносабатлар таъсирида шаклланидиган эркаклик ва аёллик роллари ҳамда бошқа ижтимоий ролларнинг таъсири; г) оиладаги барча аъзолар, жумладан, боболар ва момолар, ота-оналар тажрибасида оиладиги етакчилик мақомларининг қай тарзда тақсимланганлиги; д) болалар жамоасида шахснинг тутган ижтимоий психологик мақоми (фаоллик - пассивлик).

БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИ МАКТАБГА МОСЛАШУВИНИНГ АЙРИМ ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ

Тожахмедова Камола Мухидиновна

*Чуст ХТБ болаларни ижтимоий психологик қўллаб-қувватлаш маркази
методисти*

Мактабга қабул қилинадиган бола ўз ҳаётининг энг муҳим даврига, яъни, мактаб томонидан қўйиладиган турли-туман талабларни бажаришга, таълим олишга ҳам жисмоний, ҳам психологик жиҳатдан тайёр бўлиши лозим. Негаки, жисмонан соғлом бола мактабга тавсия этилар экан, у ақлий савияси билан ҳис-туйғулари ва ижтимоий онглилик даражаси билан маълум талабларга жавоб бериши керак.

Ақлий етуклик соҳасида диққат қилиниши зарур бўлган билиш жараёнлари ва ташқи муҳитни нечоғлик тўлиқ ва тўғри акс еттира олишни аниқлаш муҳимдир. Таркибан бу ҳислатлар боланинг идроки, ихтиёрий диққати, воқеа ва ҳодисаларни таҳлил қила олиши, сабаб ва оқибат тасаввурларининг шаклланганлиги, мантикий тафаккур ҳислатлари, мантикий хотира, мақсадли фаолиятни изчил бажара олиши,

янгиликка интилиш, унга қаратилган мурожаатни қабул қила олиш, содда мақоланинг мазмунини тушуна олиш, бармоқларининг нозик ҳаракатлари ва кўз - ҳаракат мутаносиблиги каби кўпгина кўринишларни ўз ичига олади.

Мактабга етукликнинг ҳис-туйғулар соҳаси боланинг ҳулқ-атворида, руҳиятида турғунлик, ҳиссий муҳимлик ва мактабда ўқиш мотивларининг ҳиссий жозибадорлиги ва болани қамраб олган ҳаваслари билан характерланади.

Жисмоний етуклик;

- катта мия ярим шарларининг пешона қисмининг морфологик етилганлиги,
- боланинг оғирлиги бўйига мос келиши,
- умуртқа поғоналарининг ривожланганлиги,
- мускуллари ва майда маторикаси ривожланганлиги,
- сезги аъзолари ривожланганлиги,
- иштаҳа ва уйқунинг маромдалиги,
- ўпкасининг хажми мутаносиблиги,
- боланинг суяклари (кўкрак қафаси , тос, қўл суяклари),
- мия пўстининг аналитик–синтетик фаолияти такомиллашгани,
- кўзғалиш ва тормозланиш ўртасидаги мувофиқлик.

Ижтимоий етуклик деб - боланинг мактабда ўз тенгқурлари билан учрашиш, улар билан бирга бўлишга интилиш, ўқувчиларга ўхшаб мактаб тартибига кириш ёки итоат етиш, ўз зиммасига мактаб ўқувчиси бажарадиган вазифаларни олишга интилиш, ўқувчи бўлиб мактабга қатнашни, дарс қилишни, ўз қалам дафтарларига эга бўлишни орзу қилиш каби ҳислатлар тушунилади.

Мактабга психологик тайёрлик боланинг илк ўқув мотивларининг шаклланганлиги, билиш жараёнларининг (сезги, идрок, хотира, тафаккур, хаёл) етарли даражада ривожланганлиги, янги ижтимоий муҳитга мослашув ва жамоавий ҳамкорлик кўникмаларининг мавжудлиги, маънавий-руҳий салоҳият, шунингдек, ақлий имкониятларнинг таълим талабларига мутаносиблиги билан изоҳланади.

Мактабга келгунга қадар, мактабгача ёшдаги болаларнинг индивидуал - психологик хусусиятларидан келиб чиқадиган бўлсак, ушбу ёшда асосий фаолият тури ўйин ҳисобланади. Шу сабабли олти ёшли болалар билан ишлашда

психологик - педагогик ташхиснинг асосий шарт: «Болани имтиҳон қилиш эмас, у билан ўйнаш керак!»;

Топшириқларни эркин бажариши учун табиий шароит яратиш лозим. Ташхис жараёнида ота-онанинг иштирок этиши, айрим топшириқларни улар ёрдамида болага бажартириш ҳам ана шу табиий муҳитни содир этади.

Боланинг мактабга мослашуви асосан 4 ҳафтадан 7 ҳафтагача давом этади. Болаларда мослашув жараёни икки хил кўринишда намоён бўлиши мумкин.

-баъзилар жуда ҳам шўх, кўп қичқирадилар, дарс жараёнида кўп чалғийдилар, кўпинча ўқитувчиларга бўйсунмайдилар.

-бошқалари эса аксинча, тортинчоқ, ички дунёсига йўналган, кўзга ташланмасликка ҳаракат қилади, ўқитувчи унга мурожат қилганда тортинади.

Арзимаган мувафқиятсизлик ва танбех учун йиғлайдилар. Баъзи болаларда уйқу, иштаха бузилади, жуда қайсар бўлиб қоладилар. Бирданига жуда кичкина болаларга мўлжалланган ўйинларга, ўйинчоқларга китобчаларга қизиқиш ортади, касалликка кўп чалинади. Ушбу бузилишларнинг барчасини одатда функционал ортда қолиш дейилади. Буларнинг ҳаммаси бола психикасига ортиқча оғирлик келиб тушганидан келиб чиқади.

Мослашув жараёни айниқса 3 йиллик бошланғич таълим дастури асосида таълим оладиган ўқитувчиларда оғирроқ кечади, чунки улар интенсив равишда кечадиган ўқув жараёнига киришлари зарур. Боланинг мактабга мослашувида умумтаълим мактаби амалиётчи психологнинг фаолиятида икки хил йўналишда иш олиб бориш лозим.

Биринчи йўналишда амалиётчи психолог фаол бўлиши, ўқувчиларга тез ва яхши мактабга мослашувида ёрдам бериши керак, ўқитувчига эса ҳар бир болага алоҳида индивидуал психологик ёндошув методлари орқали уларга ёрдам бериши керак. Бунда психолог алоҳида эътиборни функционал ортда қолиш уйқунинг бузилиши, невротик ҳолатлар белгилари мавжуд болаларга қаратиши мақсадга мувофиқ.

Иккинчи йўналишда психолог шу вақтда синфни кузатиб ҳар бир боланинг психик таррақиёти ҳақидаги маълумотларни йиғишга сарфлаши ва фақатгина

қалтис вазиятлардагина аралашуви зарур, албатта ҳар бир кузатилган ҳолат бўйича ўқитувчи ва ота-онани хабардор қилиши зарур.

Шунингдек, бу ёшда бола билан бирга ота-она боланинг кун тартибига эътиборли бўлиши, дарсларни бирга бажариши, “Дарсингни тайёрладингми?”, деб эмас, балки кел бирга тайёрлаймиз мазмунида бола билан дўстона психологик яқинлик муносабатларини шакллантирса, у албатта шахс бўлиб ривожланишига ишонч билдириш мумкин.

Фойдаланган адабиётлар

1. Э.Ғ.Ғозиев .К.К.Мамадов “Касб психологияси”.Тошкент-2003
2. Ф.Р.Абдурахмонов.З.Э.Абдурахмонов“Касб психологияси”. Тошкент- 2018.
3. .Стрелкова Л.П Уроки сказки. – М.: Педагогика, 1989, 53 ст.
4. Соколов Д.Ю. Сказки и сказкотерапия. – М.:Класс,1997, 94 ст.

НОСОҒЛОМ ОИЛАЛАРДА ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР ЎРТАСИДА ИЖТИМОЙ МАЪНАВИЙ МУХИТНИ СОҒЛОМЛАШТИРИШ

*Кенжебаева Доларис Бердимуратовна
Нукус тумани 20-мактаб психологи*

Ҳозирги кунда носоғлом оилаларда вояга етмаган ўқувчилар ўртасида соғлом психологик муҳитни яратиш ҳозирги куннинг энг долзарб масаласига айланмоқда.

Бундай оилаларнинг келиб чиқиш сабаблари: ота-оналарнинг маълум бир ишга эга эмаслиги, ичкиликка берилган, маълум бир иш ҳақи ҳисобига ишламайдиган, гиёҳванд моддаларни истеъмол қиладиган ота-оналар фарзандлари ижтимоий ва маънавий томондан носоғлом болаларнинг пайдо бўлишига сабабчи бўлмоқда.

Шу боисдан ҳам “Ҳар қайси миллатнинг ўзига хос маънавиятини шакллантириш ва юксалтиришда, ҳеч шубҳасиз, оиланинг ўрни ва таъсири

бекиёсдир. Чунки инсоннинг энг соф ва покиза туйғулари, илк ҳаётий тушунча ва тасаввурлари биринчи галда оила бағрида шаклланади. Боланинг характерини, табиати ва дунёқарашини белгилайдиган маънавий мезон ва қарашлар-яхшилик ва эзгулик, олижаноблик ва меҳр-оқибат, ор-номус ва андиша каби муқаддас тушунчаларнинг пойдевори оила шароитида қарор топиши табиийдир.

Мактаб оиладан кейинги энг муҳим ижтимоий муҳит ҳисобланиб, педагогик жамоанинг асосий вазифаларидан бири–ўқувчилар ўртасидаги салбий ҳолатлар ва ноижтимоий хулқнинг олдини олишдан иборат.

Мактабда ота-оналарга хизмат кўрсатиш бўйича уларни қизиқтирган масалалар юзасидан маслаҳатлар бериш мақсадга мувофиқдир. Жумладан, оиладаги тарбияси қийин ўсмирларни тузатишда низоли вазиятларга оид ва бошқа кўпгина масалалар бўлиши мумкин. Бугунги кунда ота-она ва болалар ўртасидаги зиддият ва муаммоларни олдини олиш, бир-бирин тушиниш, оилада илиқлик яратиш энг долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Ёш даврининг ҳар бир босқичида ҳам ўтиш даври кечади. Айниқса, кўпчилик ўсмирларда бу даврдаги ўтиш жараёни жуда сезиларли даражада кўзга ташланади. Оддий одамларнинг қарашида ўтиш даври фақат ўсмирлик ёшидагина кузатилади, деган фикр илгари суриб келинган. Аслида эса, ҳар бир даврнинг ўтиш жараёни бўлади. Лекин бу жараён ҳар кимда ва ҳар ўтиш даври турлича кўринишда бўлади. Шунингдек, ўсмирлик даврида бу кўриниш юқори даражада бўлади. Бу ёшдаги болаларга турлича босим ўтказмасдан, уларнинг фикрлари, қарашлари инобатга олинган ҳолда ёндошишни талаб этади.

Шунинг учун ўсмирларда кузатиладиган оғир ўтиш даври муаммоларининг олдини олиш ва уни бартараф этиш мақсадида ота-оналар йиғилишларида маърузалар, тренинг машғулотлари ва коррекцион машғулотлар билан иштирок этиш зарур. Тренинглар орқали ота-оналарнинг бола тарбиясида йўл қўяётган хато ва камчиликларини кўрсатишлари лозим. Шунингдек, ижтимоий психологик ҳимояга муҳтож ўқувчиларнинг ота-оналарига психологик маслаҳат ишларини ташкиллатиришлари керак.

Ушбу нуқтаи-назардан мактаб педагогик жамоасининг ҳамкорликдаги ишларни ташкиллаштиришлари юзасидан қуйидагиларни тавсия этамиз:

1. Ўқувчиларнинг ижтимоий малакаси, ижобий қизиқишларини ривожлантириш ва бўш вақтларини ташкиллаштиришга ёрдамлашувчи тадбирларни ўтказиш.
2. Ҳуқуқбузарлик, дарс қолдириш, ўзлаштирмаслик муаммолари бўйича сўровномалар ўтказиш (ташхис қўйиш ва б.).
3. Мутахассисларни жалб қилган ҳолда ижтимоий, тиббий, психолого-педагогик ёрдамга муҳтож болалар ва оилаларни аниқлаш
4. Ота-оналар ва ўқувчилар ўртасида ҳуқуқий тартиб масалалари бўйича тушунтириш ишларини кучайтириш.
5. Мактабда оила ва маҳалла ҳамкорлигида ўсмирлар билан олиб бориладиган тарбиявий профилактика ишларини такомиллаштириш.
6. Фарзандининг ўқиши ва тарбиясида муаммолар бўлган оилаларга ёрдам бериш.
7. Боланинг давомати ва ўзлаштиришига салбий таъсир кўрсатаётган сабабларни бартараф этишга кўмаклашиш.

Болаларнинг ижтимоий-маънавий психологик муҳофаза қилиш учун қуйидаги психологик маслаҳатлар орқали ота-оналар йиғилишларида, мактаб-педагог жамоаларида мактаб амалиётчи психологлари томонидан ота-оналарга ва мактаб педагогик жамоасида ёритилиб бориши мақсадга мувофиқ бўлар эди улар:

- ✓ Болаларнинг бўш вақтларини тўғри ташкил қилиш;
- ✓ Болаларнинг дарс тайёрлаши учун шароитлар яратиш;
- ✓ Бола билан дўстона муносабатда бўлиш;
- ✓ Биргаликда сайр қилиш;
- ✓ Муаммоларни биргаликда ечиш;
- ✓ Соғлом кун тартибини тузиш;
- ✓ Ўз ҳатти-ҳаракатлари орқали болаларга ўрнак бўлиш;
- ✓ Болани қўллаш-қувватлаш;
- ✓ Спорт билан биргаликда шуғулланиш;
- ✓ Оилада бир-бирига меҳрли муносабатда бўлиш.

Кўплаб педагог олимлар томонидан ўтказилган тадқиқот натижаларига ва илмий хулосалари шуни кўрсатадики, болалар ўзлари яшаётган ҳаёти давомида ундаги муҳит ва шароит унинг шахсий характер хусусиятларини намоён бўлишига сабаб бўлар экан. Педагог Дороти Доу Нолтнинг қарашлари ёхуд болалар ўзлари яшаётган ҳаётдан нимани ўрганишлари ҳақида қуйидагиларни хулоса қилади

- * Агар бола танқид билан яшаса, у айблашни ўрганади.
- * Агар бола адоват билан яшаса, у уришишни ўрганади.
- * Агар бола қўрқувда яшаса, у қўрқокликни ўрганади.
- * Агар бола афсусда яшаса, у афсусланишни ўрганади.
- * Агар болани устидан кўп қулишса, уятчан бўлишни ўрганади.
- * Агар бола қизиқиш билан яшаса, у ҳавас қилишни ўрганади.
- * Агар бола уят билан яшаса, у ҳадик ва айбдорлик ҳиссини ўрганади.
- * Агар бола қўллаб қувватлаш билан яшаса, у ўзига ишонишни ўрганади.
- * Агар бола бағрикенгликда яшаса, у сабрли бўлишни ўрганади.
- * Агар бола мақтов билан яшаса, у кадрлашни ўрганади.
- * Агар бола тан олиш билан яшаса, севишни ўрганади.
- * Агар бола дўстлик билан яшаса, у ер юзи яшаш учун ажойиб жой эканлигини тан олади
- * Агар сиз осойишталик билан яшасангиз, сизнинг фарзандингиз ҳам осойишталикда яшайди.

Мактаб психологи, маънавий-маърифий ишлар бўйича директор ўринбосарлари, синф раҳбарлари ҳамкорликда ижтимоий психологик муаммолари мавжуд бўлган болаларнинг оилавий аҳволини ўрганиши, мактаб билан ота-она ўртасида узвий алоқани ўрнатиши, ўқув фанлари ўқитувчилари билан алоқани мустаҳкамлаши, ўқувчининг дарсга қатнашини кузатиши, дарсдан ташқари фаолиятини назорат қилиши, турли сўровномалар, савол-жавоблар ўтказишлари орқали тарбияси оғир болалар билан ишлаш дастури ва режаларини белгилаб олишлари лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абрамова Г.С. Возрастная психология. Тошкент 2005.

2. Л.Бекназарова, М.Махмудова. Ижтимоий-психологик тренинг. Тошкент 2016.
3. Э.Ғ.Ғозиев. Психология муаммолари. Тошкент 1999.
4. Р.Й.Тоштемиров, Э.Ғ.Ғозиев Психодиагностика ва амалий психология. Тошкент 2004.

БОЛАЛАР ВА ЁСМИРЛАРДА ХУЛҚ ОҒИШИНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИДА ОИЛАВИЙ ТАРБИЯ УСУЛЛАРИНИНГ ЎРНИ

*Рахмонова Барно Зарифбаевна
Хоразм вилояти Гурлан тумани 10-мактаб психологи*

Оиладаги носоғлом психологик муҳит ва оилавий тарбиядаги йўл қўйилаётган нуқсонлар ҳамда таълим жараёнида кузатилаётган нуқсонлар, болалар ва ёсмирлар яшаётган маҳаллалар ҳаёти, уларнинг психологик муҳити вояга етмаганларда хулқ оғишининг келиб чиқишига ўз таъсирини ўтказмасдан қолмайди.

Маълумки, объектив шарт-шароитлар ва ижтимоий муҳит воқеа-ҳодисалари ёсмирнинг онги, хоҳиш иродасига бўйсунмаган ҳолда таъсир этади ва унинг онги, дунёқараши, шахс сифатида шаклланиш ва хулқ-атвори мазмунини белгилаб беради.

И.П.Павловнинг таъкидлашича, инсон ва ҳайвон хулқ-атвори мазмуни нафақат нерв системасининг туғма хусусиятлари, балки организмга доимо таъсир этиб турувчи ташқи таъсирлар яъни, доимий равишда бериб бориладиган тарбия ёки таълим жараёнига ҳам ҳам боғлиқ бўлади.

Бир қатор тадқиқотчиларнинг таъкидлашларича, инсон одобли ёки одобсиз, олижаноб ёки эгоист, жиноятчи ёки соғлом хулқли бўлиб туғилмайди. Шахсдаги у ёки бу хилдаги хусусиятлар ва установакалар кишининг ижтимоий ҳаётини

фаолияти, уни қуршаб олган объектив шарт-шароитлар ва воқеа-ҳодисалар таъсирида вужудга келади. Ушбу шарт - шароитлар ва объектив муносабатлар характери индивиднинг шахс сифатида шаклланишига асос бўлиб хизмат қилади.

Демак айтиш мумкинки, шахс хусусиятларининг шаклланиши нафақат инсон организмнинг наслий хусусиятларига, балки энг аввало у алоқада бўлган ижтимоий муҳитга ҳам кўп жиҳатдан боғлиқ бўлади. Ижтимоий турмуш шарт-шароитлари инсон хулқ-атворининг шакл ва тамойилини белгилаб беради.

Кузатишларга қараганда, вояга етмаганларда хулқ оғишининг келиб чиқиши ва ижтимоий муҳит ўртасида ўзига хос таъсир доираси мавжуддир. Ушбу ўзаро таъсир механизми назаримизда уч хил кўринишда намоён бўлади.

Ўсмирларда ижтимоий муҳитга нисбатан бўлган деформациялашувнинг юзага келиши ва уларда ижтимоий позициянинг мавжуд бўлмаслиги ёки тусатдан йўқолишлиги (мактабдан ҳайдалиш, оилада носоғлом муҳитнинг мавжудлиги, ишидан, яқин кишисидан маҳрум бўлиш) ўз навбатида ноқонуний, ноахлоқий позициянинг шаклланишига олиб келади. Яъни, турли хил ғайриқонуний, ноахлоқий гуруҳларга қўшилиш, референт гуруҳларнинг ташкил этилишига сабаб бўлиши мумкин. Шу боисдан, хулқ оғишига эга бўла бошлаган ўсмир кўпинча мактабни ташлайди, ўзича ишга кирмоқчи бўлади, кўпчилиги эса умуман фойдали машғулот билан шуғулланмайдилар.

Хулқ оғишига эга бўлган болалар ва ўсмирларнинг ижтимоий муҳити ва оилаларда берилаётган тарбия усуллари соғлом хулқли болалар ва ўсмирларга қараганда ўзига хос тор доирадаги дунёқарашга эгалиги, низоли вазиятлар доирасининг кенглиги, қатъий ҳаётий позициянинг, келажакка нисбатан ижобий қараш, мақсад ва интилишларнинг йўқлиги ва шу каби бир қатор жиҳатлар билан фарқланади. Қуйида биз болалар ва ўсмирларда хулқ оғишининг келиб чиқишига таъсир этувчи оилавий тарбия усуллари ҳақида кенгроқ фикр юритишга ҳаракат қиламиз.

1. Хулқ оғишига эга бўлган болалар ва ўсмирларнинг ҳатти-ҳаракатлари ота-она ва оила аъзолари томонидан қўллаб-қувватланиш ҳолати. Бунда ўсмирнинг ноқонуний хатти-ҳаракатига оила аъзолари ва яқинлари томонидан ижобий

муносабат билдирилади. “Бундай иш қилма”, “қилаётган ҳаракатинг ноқонуний”, дейиш ўрнига ота-она ва атрофдагилар уларнинг ноқонуний хатти-ҳаракатларини маъқуллашади ёки унга эътибор беришмайди. Натижада ўз ноқонуний ҳаракатининг маъқулланишини ҳис этган ўсмир яна бошқа бир ноқонуний ҳаракатга қўл уради. Оқибатда салбий хулқ-атвор ўсмирнинг бутун фаолиятини, онгини қамраб олиши мумкин.

2. Соғлом хулқли болалар ва ўсмирларга қараганда носоғлом хулқ-атворга эга бўлган болалар ва ўсмирларга ижтимоий муҳитдаги салбий таъсирларнинг бир жойга тўпланган ҳолда (концентрациялашган) таъсир этиши ҳолати. Яъни, бунда хулқ оғишига эга бўлган ўсмирга ижтимоий муҳитдаги салбий таъсирлар тўпланган ва ҳар тарафлама таъсир қилади. Бошқача қилиб айтганда, ўсмирнинг ноқонуний, ноахлоқий психологик муҳитга тушиб қолиши унга ҳар томонлама, ҳам маънавий, ҳам руҳий, ҳам жисмоний, ҳам кўргазмали тарздаги таъсир ўтказади. Бу ўсмирда хулқ оғишининг келиб чиқиши учун қулай ижтимоий муҳит ва шарт-шароит бўлиб хизмат қилади. Натижада ўсмирда носоғлом хулқ-атвор психологияси шаклланади.

Соғлом хулқли болалар ва ўсмирларда эса тўпланган, ҳар тарафлама салбий таъсир этиш муҳитининг мавжуд бўлмаслиги уларда ғайриқонуний хулқ-атворнинг келиб чиқишининг олдини олади.

3. Хулқ оғишига эга бўлган болалар ва ўсмирларнинг соғлом хулқли болалар ва ўсмирларга қараганда тез-тез низоли вазиятларга тушиб қолиш ҳолати. Бунда тарбияси оғир ўсмир низоли вазиятлар муҳитига тез-тез тушиб қолади. Бунинг сабаби, биринчидан у ҳаёт кечираётган ва фаолият юритаётган ижтимоий муҳитнинг носоғломлигига боғлиқ бўлса, иккинчидан, болалар ва ўсмирлар хулқ-атворидаги психопатологик ўзгаришлар ва уларнинг ёш даври хусусиятлари низоли вазиятларнинг кўпроқ юзага келишига сабаб бўлади.

Соғлом хулқли болалар ва ўсмирларда эса улар яшаётган ва фаолият юритаётган ижтимоий муҳитнинг соғломлиги низоли вазиятларнинг олдини олади ва шунинг учун улар низоли вазиятларга кам дуч келадилар.

4. Хулқ оғишига эга бўлган болалар ва ўсмирлар томонидан амалга оширилаётган ноқонуний хатти-ҳаракатларга катта ёшдаги кишилар ва ота-оналарнинг эътиборсизлиги ҳолати. Бунда ўз ноқонуний ҳаракатларининг жавобсиз қолишини, катталар томонидан маъқулланишини ҳис этган ўсмир низоли вазиятларга барҳам беришда ноқонуний йўлни танлайди. Чунки у ота-онасидан, атрофдагилардан жазо олмаслиги билади. Бу эса ўсмирга ноқонуний ҳаракатларни бажаришга имконият эшигини очиб беради. Соғлом хулқли болалар ва ўсмирлар эса ўзларининг жазоланишларини билиши туфайли ноқонуний ҳаракатларни бажаришдан ўзларини тияди. Чунки уларнинг оилавий муҳитида ноқонуний ҳаракатларни қоралаш психологияси мавжуддир.

5. Ота-оналарнинг оилада фарзандлари билан қилаётган муомала ва муносабатлари кўринишлари болалар ва ўсмирларда хулқ оғишининг келиб чиқишига сабаб бўлиши мумкин. Оилада қаҳр-ғазаб асосидаги ота-она муносабати болаларни уйдан бездиради. Уйдан бешиш, оила муҳитини тан олмаслик ўсмирларда оилавий муҳитга нисбатан деформациялашувни келтириб чиқаради. Натижада ўсмир оиладан ташқари кўча муҳитини ўзига маъқул кўради. Кўча муҳити эса баъзан криминал мазмунга эга бўлиши мумкин. Натижада ноахлоқий ва ғайриқонуний хулқ-атвор муҳитига тушиб қолган ўсмирда хулқ оғишининг келиб чиқиши учун имконият яратилади.

6. Ота-оналарнинг қаҳр-ғазаб асосидаги муносабати болалар ва ўсмирларда салбий характер хислатларининг хусусан, кўрқоқлик, тобелик, асабийлик, ҳиссиётларга берилувчанлик ва мустақил тафаккурнинг сустлиги кабиларнинг шаклланишига олиб келади. Кўрқоқ, тобе болалар ва ўсмирлар бировларнинг қистови, зўрлаши натижасида турли хил ғайриқонуний гуруҳларга қўшилиб кетадилар. Улардаги асабийлик, қўзғалувчанлик ва ҳиссиётларга берилувчанлик хусусиятлари тез-тез низоли вазиятларга дуч келишга сабаб бўлади.

Шунингдек, улардаги мустақил фикрлаш лаёқатининг сустлиги низоли вазиятларнинг чигаллашувига, муаммоли вазиятлардан чиқиб кетиш йўлларини нотўғри қўллашга олиб келади. Натижада бундай вазиятларда ўсмир ўзининг ёш

даври хусусияти ва ҳаётий тажрибасизлиги туфайли ғайриқонуний ҳаракатларга қўл уриши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида 2016 йил 14 сентябрь, ЎРҚ-406-сон.
2. Горбушина О.П. Психологический тренинг. Секреты проведения. СПб.: Питер, 2007. - 176 с: ил. - (Серия «Практическая психология»).
3. Захаров В.П., Хрящева Н.Ю. Социально-психологический тренинг. Л., 1990.
4. Практикум по социально-психологическому тренингу. Под.ред. Б.Д.Парыгина. Санкт-Петербург, 1994.
5. Емильянов Ю.Н. Активное социально-психологическое обучение. Л.; ЛГУ. 1985.

O'SMIRLARNING KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY PSIXOLOGIK ASOSLARI

Soliyeva Yoqutxon Abdullajonovna
Andijon viloyati Baliqchi tumani 35- maktab psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'smirlar tomonidan kasb tanlash muammolari, kasb tanlash yo'llari va usullari muhokama qilingan. Shuningdek, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning nazariy psixologik asoslari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Kasb-hunar, o'smir, nazariya, ehtiyoj, motiv, layoqat, qiziqish, qobiliyat.

Kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etsa-da, lekin uning ortida jismoniy individual (yakkahol) shaxs turadi. Holbuki shunday ekan, har bir kasb tanlovchi shaxsiyatiga individual munosabatni amalga oshirish zarur. Buning uchun kasb

tanlovchining yosh va jins xususiyatlariga binoan kasb maorifini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda birinchi navbatda shaxsning kasbiy *ehtiyoji, motivi, layoqati, qiziqishi va qobiliyatini* hisobga olish darkor. Aks holda umumiy xususiyatli yo'llanma, ko'rsatma ijobiy natijaga olib kelmaydi, chunki individuallik o'ziga xos talablarni taqozo etadi. Hatto oddiy kasb maorifi ham turlicha yondashuvni talab qiladi, binobarin, uni qondirmasdan turib, tub maqsadga erishib bo'lmaydi.

Yoshlarning kasb egalari bo'lishlarida kasbiy motivlarning ahamiyati o'rinlidir. Kasbiy motiv va motivasiya muammosi xorij psixologlari tomonidan keng doirada tadqiq qilingan bo'lib, jumladan, kasbiy motivlar borasida YE.A.Klimov, V.A.Kruteskiy, A.N.Vasilkova, E.Disi, V.Vrum, M.V.Dmitriy va boshqalarnikiritishimiz mumkin. Shaxsning ish faoliyati bilan bog'liq motivasiyalarni 3 guruhga ajratish mumkin; birinchisi - mehnat faoliyati motivlari, ikkinchisi kasb tanlash motivlari va uchinchi-ish joyini tanlash motivlari. Aniq faoliyat esa barchasini jamlangan holda izohlanadi, ya'ni, bunda mehnat faoliyati motivlari, kasb tanlash motivlarining shakllanishi, shuningdek, qolgan ikkita motiv orqali esa ish joyini tanlash motivlari ham yuzaga keladi.

Mehnat faoliyati motivlari xilma-xil bo'lib, ular o'ziga xos omillar bilan belgilanadi. Birinchi guruh omillariga jamoaviy xarakterning uyg'onishi bilan bog'liqlari kiritilib, bunda jamoaga foyda tegishini anglash, boshqa insonlarga yordam berish istagi, mehnat faoliyatida ijtimoiy ustanovkaning zarurligi va boshqalarga nisbatan tobelikni hohlamaslik kabi motivlar hisoblanadi. Ikkinchi guruh omillari o'zi va oilasi uchun moddiy mablag'ning orttirilishi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi uchun pul ishlab topish motivlaridir. Uchinchi guruhga o'zini o'zi faollashtirish, rivojlantirish, o'zini namoyon qilish ehtiyojlarining qondirilishi va boshqalar kiradi. Ma'lumki, insonlar tabiatdan biror-bir faoliyat bilan shug'ullanmasdan turolmaydilar. Inson nafaqat iste'molchi balki yaratuvchi bo'lib, yaratish jarayonida u ijoddan ilhom oladi. Bu guruhga mansub motiv jamiyat tomonidan ehtiyojlarning qondirilishi va boshqalarning hurmatini qozonish bilan bog'liq. Maktab o'quvchilarining mehnat tarbiyasi ham shu motiv bilan bog'liq ravishda shakllantiriladi. Mehnat faoliyatining umumiy motivlari yuqorida aytib o'tilganidek, aniq kasblar doirasida amalga oshadi.

Kasb tanlash anchagina qiyin va motivasion jarayondir. Axir shaxsning to'g'ri kasb tanlashi ko'pincha insonning hayotdan qoniqishga ham sabab bo'ladi. Insonning qaysi faoliyatini tanlashi ko'proq tashqi omillar haqidagi qarorning qabul qilinishi jarayoni haqida to'xtalishi muhimdir. Bu asosan tashqi holat baholariga, o'zining imkoniyat va qobiliyatlariga, kasb tanlashdagi qiziqish va moyilliklariga bog'liqdir. Tashqi holatini baholash, ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillar, o'zida ishlab topiladigan pul miqdori, imtiyoz, taklif etilayotgan korxonalar, muassasaning yashash joyiga yaqin bo'lishi, transport aloqalarining qulayligi, ish joyi estetikasi va ishlab chiqarishning zararli tomonlari, jamoadagi psixologik iqlim, maqtov va tartibga chaqirish kabilarni qamrab oladi.

O'z imkoniyatlarini baholash sog'lomligi, ishga yaroqliligi, kasbi bo'yicha muhim sifatlarga egaligi, bilim darajasi, stresslarsiz ishga moyilligi, yuqori shovqinli ishda talab etilgan temp va xotirjam ritm bilan ishlay olish imkoniyati kabilarni o'z ichiga oladi. Qiziqishlarga mos ravishda tanlangan ish joyini baholash, ayni vaqtda ishlayotgan muassasasi, korxonadagi imkoniyat to'siqlari, ishni boshqarish, kasbiy o'sish, tashabbusning paydo bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Ongli ravishda kasb tanlash uchun o'quvchilarning bir qator kasblarni yetarlicha bilishi, bilganda ham ularning kishini o'ziga jalb qiladigan tomonlarini emas, balki qiyinchiliklarini ham yaxshi bilishi, o'zining shaxsiy sifatlariga ko'ra tanlangan kasbini muvaffaqiyatli egallay olishi va keyingi ish jarayonida o'z malakasini takomillashtirishi talab qilinadi.

Hozirgi vaqtga qadar kasbga yo'naltirish ishlari yetarlicha yuqori saviyada olib borilmadi, ko'pincha rasmiy tusda bo'ldi. Natijada maktabni tamomlaganlarning kasb tanlashi tasodifiy bo'ladi. Yoshlarning ko'pchiligi u yoki bu kasbni nimadan iborat ekanligini aniq tasavvuf kilmas edi. Hunar-texnika bilim yurtlarining besh mingga yaqin o'quvchilari bilan savol-javob kilinganda shu narsa aniqlandiki, ularning faqat 5% i kasbini maktabning tavsiyasiga binoan, 30% i o'rtoqlarining maslahatiga ko'ra, 15% i ro'znoma, radio, televideniye orqali berilgan e'lonlarga, ko'shnilar, tanish-bilishlarning maslahatlariga muvofiq 15% i ota-onalarning maslahati, 12% i hunar-texnika bilim yurtlari xodimlarining tavsiyalari bo'yicha tanlanganlar. Albatta, bu ma'lumotlar xar davrda va xar xil mintakalarda obyektiv xolda turlicha, ammo shu narsa ravshanki,

o'quvchilarning aksariyat ko'pchilik kasblarni tasodifiy ravishda tanlaydilar. «Siz nima uchun shu kasbni tanladingiz?, - degan savolga 41,1% o'quvchi:» Bu haqda o'ylab ko'rganim yo'q», - deb javob bergan.

Kasbni anglamay turib, tasodifiy anglash shunda namoyon bo'ladiki, o'kishning dastlabki paytlarida o'quvchi qandaydir qiziqish bilan karaydi. Keyinchalik esa bu qiziqish sunib boradi. Hunar-texnika bilim yurtida birinchi yil o'qiyotgan o'quvchilardan so'raganda ularning 14,9% i, ikkinchi yil o'qiyotganlardan so'ralganda esa 10,7% i tanlagan kasbidan mamnunligini aytgan. Hozirgi vaqtda yoshlarni kasbga yo'naltirish masalalari bilan davlat, jamoat va yoshlar tashkilotlari, sanoat korxonalari shug'ullanadilar. Biroq bu ishda maktab asosiy o'rin egallaydi.

Hozirgi kunda bozor munosabatlarini va uzluksiz ta'limga o'tish munosabati bilan maktab yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga, jamiyat uchun foydali va zarur bo'lgan muayyan mehnat faoliyatiga tayyorlashda yana ham katta rol o'ynaydi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ularning xar biriga aloxida-aloxida yondashishni talab etadi bunda shaxsning temperamenti, irodasi, dikkati, belgilangan maksadga erishishda kat'iylik, tashabbuskorlik, uyushkoklik, intizomlik, topgairilgan ishni bajarishga ma'suliyat bilan munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini e'tiborga olish zarur. Bundan tashqari, kasbga yo'naltirish davomida kasbni tanlash sabablarini; kasbning ijtimoiy ahamiyati, qiziqish va xavas, kasbga tayyorgarlik, oila an'analari, ota-onalar, pedagoglar, o'rtoqlarining maslahatini hisobga olish lozim. O'quvchilarni uzok vaqt o'rganish natijasida sinf rahbarlari ularning xar biriga tavsifnoma tuzadilar. Bunday tavsifnoma kasb tanlash va o'quvchiga u yoki bu kasbni tanlagani taklif qilish uchun asos bo'ladi. Kasbga layokatlikni tanlash maxsus komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Unga o'qituvchilar, psixologlar, ishlab chiqarishdagi muxandis yoki boshka mutaxassislar, sotsiologlar, vrachlar kiradi. Ular xar bir o'quvchiga qanday kasb tanlash kerakligini aytadilar va buning sababini asoslab beradilar. Masalan, xolerik temperamentli bola yaxshi andoza yasovchi usta slesar bo'la olmaydi, chunki unga mikronning o'ndan bir ulitigacha aniqlikka erisha borib, uzok vaqt o'lov asboblarini ishlash qiyinlik qiladi, yoki melanxolik tez javob berishni talab qiladigan mashinalarni boshkarishni muvaffaqiyatli egallab ololmaydi. Sezgi a'zolarida biron-bir nuqsoni bo'lgan bolalarga bu kasblarni

tavsiya qilib bo'lmaydi. Masalan, ba'zi rang-tuslarni farq kila olmaydigan (daltonik) bolani xar qanday transport turini boshkarishga ko'yib bo'lmaydi. Ko'rishida shunday kamchiligi bo'lganlar metallurg bo'lib ishlashi mumkin emas. Vestibo'lyar apparati buzilgan o'quvchilar uchuvchi, dengizchi, yuqori inshootlar montajchisi bo'la olmaydilar.

Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarining bugungi qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

Buning uchun har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan ongli yashaydigan komil insonlar etib voya yetkazish – ta'lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim – tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi.

Yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash - g'oyat muhim vazifadir. Shu boisdan yoshlarning kasb tanlash muammosi o'rta umumta'lim maktabi ishida katta o'rin tutadi.

«Kim bo'lsam ekan?» degan savol har bir yigit va qiz uchun eng asosiy muammolardan biridir. Kasbni to'g'ri tanlash mehnatda va ijtimoiy faoliyatda eng yuksak ko'rsatkichlarga erishishga yordam beradi, mehnat jarayonida va uning natijalaridan qoniqish esa ijodkorlikni eng ko'p namoyon etish, eng yaxshi hissiy kayfiyatda bo'lish, tanho bir kishining ham, umuman jamiyatning ham barcha hayotiy rejalarini bir muncha to'la amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'oziev E.G'. O'quvchilarning umumlashtirish usullariga o'rgatish va ularning aqliy taraqqiyoti. T., 1983 y.
2. Практикум по психодиагностике, Дифференциальная психометрика. (Под ред. В.В.Столина, А.Г.Шмелева. М: Изд-во М., Ун-та, 1984 г. 154
3. Практическая психология образования: Учебник для студентов высших и средних учебных заведений. Под ред. И.В.Дубровиной. - 2- е издание. - М.: ТЦ «Сфера», 1998.

O'QUVCHILAR BILAN O'TKAZILADIGAN INDIVIDUAL PSIXOLOGIK SUHBAT USULLARI

Yakubova Dilnoza Karimovna
Xorazm viloyati Shovot tuman 10-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab psixologining o'quvchilar bilan o'tkazadigan individual suhbat usullari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: individual, hissiy holat, xulq-atvor, aloqa o'rnatish, tinglash, pozitsiya, o'smir, tajovuzkorlik, liderlik.

Bugungi kunda maktab amaliyotchi psixologlari ish faoliyatida uchrab turadigan eng katta kamchiliklardan biri o'quvchilar bilan individual ishlashda nimalarga e'tibor berish lozimligi haqida to'liq bilimga ega emasliklaridir. Individual suhbatda amaliyotchi psixolog eng avvalo suhbatni qanday o'tkazishni bilishi kerak, o'quvchi suhbat jarayonida o'zini qiynab turgan muammoni bema'lol ayta olishi, psixologga ishonishi, uni yordam bera olishi, muammoni bartaraf etish yo'llarini topib berishiga ishonch hosil qilishi kerak. O'quvchi bilan individual suhbat jarayonida u bilan faqatgina tabiiy, ishonchli munosabatlarni o'rnatish zarur.

Avvalo suhbat olib borilayotgan bolaning hissiy holatini his qila bilish kerak. Masalan, bolaga jarohat yetkazishi mumkin bo'lgan savollarni bermaslik, xulq-atvorini his qila bilish, o'zining bolalikdagi tajribasiga tayangan holda, uni o'zidek qabul qila olish qobiliyati, bolaning rivojlanish xususiyatlari va qonuniyatlarini bilish, xulq-atvorning yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olish kerak.

Agar bolaning jamiyat bilan aloqalari buzilgan bo'lsa, u bilan aloqa o'rnatishning birgina usuli – u yashayotgan muhitni o'rganish. O'quvchiga sezdirilmagan holda uning ota-onasi bilan suhbatlashish, oilaviy sharoitini o'rganish, shundan keyingina o'quvchi bilan individual suhbat o'tkazish kerak.

Suhbatni o'tkazishda quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim:

Nima?, Qayerda?, Qachon? kabi savollarini berib ma'lumot olishga harakat qilish lozim. Birinchi suhbatlashganda Nima uchun? tarzidagi savollarni bermaslik kerak. Bola balki bu haqida o'ylab ham ko'rmagandir va bu tariqa savol uni o'zini noqulay his

qilishiga olib kelishi mumkin. Balki javobni bilar va u o`zida ichki qarshiliklarni his etib, bu haqida gapirishni istamas. Bola o`zi hohlamagan ma`lumotlarni berishi, hamda bunday savol uni keyingi uchrashuvga kelishdan bosh tortishiga olib kelishi mumkin. Birinchi suhbatda bola bera olishi mumkin bo`lgan ma`lumotlarnigina so`rang - uning his-tuyg`ulari va nafsoniyati bilan ehtiyotkorona munosabatda bo`lish lozim.

Individual suhbat o`z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

1. *Aloqa o`rnatish.* Aloqa o`rnatish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilinishi zarur: Faol tinglash, pozitsiya, pozani suhbatdoshga nisbatan moslashtirish, samimiylik, suhbatdoshga, uning noverbal reaksiyalariga yo`naltirilgan diqqatlilik, suhbatga yo`naltirilgan e`tibor.

2. *Tinglash* – bolaga shunchaki o`z e`tiborini qaratish emas, balki o`zini haqiqatan ham uni tinglab, to`g`ri tushunayotganligingizga ishonch hosil qilishi uchun harakat qilish lozim.

Tinglayotgan bolaning ro`parasiga o`tirish. Bolani haqiqatan ham to`liq tinglash uchun, uni albatta ko`rib turish kerak. Bundan tashqari, u ham bizni ko`rib turishi lozim. Shuning uchun hamsuhbatni tinglab turib, uning yonida emas, balki ro`parasida o`tirish maqsadga muvofiqdir.

Ochiq bo`lish. Chalishtirib turilgan oyoq va qo`llar o`z o`rnida himoyalalanuvchi pozitsiyadan dalolatdir. Yaxshisi, qulayroq o`tirib olib, qo`l va oyoqlarni chalishtirmay, o`zii erkin tutib o`tirgan ma`qul.

Tinglayotgan bola tomoniga biroz og`ib o`tirgan ma`qul. Bunday harakat, odatda, suhbatdoshda bizning unga, uning muammolariga nisbatan chin dildan munosabatda bo`layotganimizdan hamda bu masalaga nisbatan qiziqishimiz darajasidan dalolat beradi.

3. *Oila haqida suhbat.* Oila haqida suhbatlashayotganda bola o`z oilasi deb bilgan yoki bir uyda yashovchi insonlar haqidagi gapirib bergan kerakli ma`lumotlarni yozib olishdan boshlash mumkin. So`ng oila a`zolari o`rtasidagi o`zaro munosabatlarga shoshmasdan ohista o`tilsa maqsadga muvofiq bo`ladi: kim uni qo`llab-quvvatlaydi, kim esa teskarisi, ko`mak bermasdan ruhini tushirib yuboradi.

3. *Munosabatlar haqida suhbat.* O`smir bilan muloqot o`rnatishda bunday so`zlashuv juda muhimdir. Ushbu suhbatda o`smirning harakteri, o`zaro munosabatlari,

liderlik fazilatlarining mavjudligi, tajovvuzkorlik qay darajadali, spirtli ichimliklarga va chekishga bo`lgan munosabati, vaqtini o`tkazish uslubi, norasmiy guruhlardagi me`yorlar va unga bo`lgan munosabatlari haqida bilib olish mumkin.

4. *Maktab haqida suhbat.* O`smir bilan maktab haqida suhbatlashish juda muhimdir. Maktabdagi ta`limi haqida savollar berish mumkin: agar maktabni o`zgartirgan bo`lsa qachon va nima sababdan, barcha fanlar bo`yicha o`zlashtirishi qay darajada, maktabdan so`ng qayerda o`qimoqchi, qaysi fanlar yoqadi,shular haqida so`rashi mumkin.

5. *Qiziqishlari xaqida suxbat.* Suhbatning aynan ushbu bosqichida, ayniqsa o`smirlar bilan aloqa o`rnatish osonroq bo`ladi. Hayotda unga haqiqatdan ham o`z tanlovi bo`yicha sodir bo`layotgan qiziqarli narsalar haqida gapiradi. U o`zida hamohang bo`lmaganlikni topishga va u haqida ozgina gapirib berishga qodir bo`ladi.

6. *Huquqbuzarlik haqida suhbat.* Ushbu mavzu bo`yicha suhbatni oxirgi bosqichda bundan oldingi mavzulardan so`ng olib borgan yaxshi. Birinchidan, o`smir tashqaridan o`zini qanchalik hotirjam ko`rsatmasin vaziyat u uchun yetarlicha jarohatli bo`lishi mumkin. Ikkinchidan, bizni unga munosabatimiz emas, o`z qilmishiga bo`lgan shaxsiy fikri, munosabati qiziqtiradi. Uchinchidan, odatda ushbu bosqichda aloqa deyarli o`rnatilgan bo`ladi. Suhbatdoshingizni mana shularga ishontirib, unga yordam bera olishingizga ishontirsangizgina u o`zining muammolarini siz bilan o`rtoqlashadi va maslahatlaringizga amal qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Abramova G.S. Vozrastnaya psixologiya. Toshkent 2005.
2. L.Beknazarova. Ijtimoiy-psixologik trening. Toshkent 2016.
3. E.G`.G`oziyev. Psixologiya muammolari. Toshkent 1999.
4. G`oziyev E.G`.Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi).T.,O`qituvchi, 1994.
5. Davletshin M.G.,Do`stmuhamedova Sh.A.,To`ychiyeva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogic psixologiya.
6. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent. 2000.

ЎСМИРЛАРДА КУЗАТИЛАДИГАН СТРЕСС ҲОЛАТЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ- ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ

Tojiyeva Gulzoda Raximboyevna
Qo'shko'pir tumani 10-maktab psixologi

Аннотация: Ўсмирлик даври шахс шаклланишида ўзига хос давр ҳисобланади. Бу даврда ўсмирда диққат,хотира,нутқ, тафаккур сингари билиш жараёнлари жадал ривожланади. Ўсмирлик даврида хис- туйғулар бошқа ёш даврларига нисбатан ёрқинроқ номоён бўлади ва ифодаланади. Шунингдек, касб- хунар ўрганишга ва билишга сензитив бўлган бу даврда ташқи омилларга кўпроқ диққат- эътибор қаратиш ва бунинг натижасида, стресс ҳолатлари кўпроқ кузатилади.Стрессни олдини олиш учун ўсмирлар билан олиб бориладиган психокоррекцион машғулотларнинг аҳамияти каттадир.

Калит сўзлар: Стресс, сензитив давр, стрессор, “ўтиш даври”, эмоция, рухий мувозанат, ривожланиш, фаолият, таълим- тарбия, етакчи фаолият.

Хар бир ёш даврининг ўзига хос психологик- физиологик хусусиятлари бўлгани каби ўсмирлик даври ҳам ўзига хос психофизиологик хусусиятлари билан бошқа ёш даврларидан ажралиб туради. Ёш даврлари психологиясида ўсмирлик ёши 10-11 ёшдан 14-15 ёшгача деб белгиланган. Ўсмирлик даврида физиологик, психологик, жинсий ривожланиш яққол кузатилади. —Ўтиш даврида ўсмирларда физиологик етилиш, хусусан, таянч ҳаракат тизимидаги ўзгариши (бўйнинг ўсиши, вазн ортиши, иккиламчи жинсийаъзоларнинг ривожланиши) билан бирга психологик ривожланиш жадаллашиб боради. Ўсмирлик даврида етакчи фаолият-бу ўқиш, мулоқот ҳамда меҳнат фаолиятидир. Психологик ривожланиш асосида-касб танлаш мотиви, ўзинианглаш механизмлари мавжуд.Чунки ўсмир қизиқишларини ва жамиятдаги касбларнинг ижтимоий мавқеини уйғунлаштиришга интилади ва шу интилиш асосида касб танлайди. Ана шундай ривожланишлар билан бир қаторда

Ўсмирлар орасида стресс ҳолатлари ва унинг салбий оқибатлари ҳам кўпга учрайди. Ўсмирларнинг хатти-ҳаракатларидаги стрессли, низоли муносабатлар катталарнинг таъсири остида яқолроқ номоён бўлади. Стресс бу- мураккаб, қўйилмаган, мушкул вазиятларнинг юзага келиши натижасидаги рухий зўриқиш ҳолатидир. Стресснинг юзага келиш сабаблари қуйидагича: Инсон шуғулланадиган фаолиятнинг тури, мазмуни, мавжуд шароитлар, фаолиятнинг ташкилий қисми ва экстримал омиллар, шунингдек ташқи муҳит инсоннинг бор имкониятларидан ортиғини талаб қилиши. Масалан: Хизмат фаолиятида талабнинг кўпайиши кучли стрессор ҳисобланади. Бизнингча, ўсмирларда кучли стрессор сифатида қуйидагиларни кўрсатиб ўтиш мумкин:

- Ўз-ўзини англаш;
- Ўз-ўзини баҳолаш;
- Ижтимоий талабларнинг ортиши.

Информацияга бўлган эҳтиёж ва ахборот саралаш кўникмасининг

Камлиги (психофилтранинг яхши шаклланимаганлиги). Ўсмирлик даврида жамоанинг, гуруҳнинг ахамияти ошади. Шунинг учун ўсмир оила аъзоларидан кўра атрофдагиларнинг фикрига кўпроқ диққат қаратади. Ўз-ўзини баҳолашда ҳам атрофдагиларнинг фикрмулоҳазаларига кўпроқ ахамият қаратади. Шунингдек, бу даврда характер акцентуациясининг ўзгариши кузатилади. Атрофдагиларнинг муносабатлари ўсмирнинг шахсий сифатлари шаклланишига катта таъсир кўрсатади. Стресс ҳолатида ўсмирларда эмоционал таъсирчанлик, жиззакилик дастлаб ошса, кейинчалик бепарволик, лоқайдлик, сурункали кайфият йўқлиги каби ҳолатлар кузатилади. Шунинг учун ҳам ўсмирлик даврида хис-туйғуларни назорат қила олиш муҳимдир. Стресс-бевосита хис-туйғуларнинг қандай қондирилаётганини кўрсатувчи индикатор вазифасини ҳам бажаради. Ўсмирларда стресс ҳолатлари кўпроқ хиссий зўриқиш ва кўрқувлар орқали юзага келади. Ўсмирда аксарият ҳолларда ўзидан қониқмаслик ҳолати кузатилади. Ўзи ҳақидаги мавжуд фикрларнинг бугун унда содир бўлаётган ўзгаришларга тўғри келмаётганлиги ўсмирни иккинчи томондан ташвишлантириб асабийлашишига

сабаб бўлади. Бу эса болада ўзи хақида салбий фикр ва кўркувни юзага келтириши мумкин. Бу жараёнда катталарнинг вазифаси ўсмирни хар томонлама қўллабқувватлаш ва уни фикрларини хурмат қилиш, қизиқиш ва қадриятларини аниқлаб олишига кўмаклашиш ва касб-хунарга тўғри йўналтиришдан иборатдир.

Ўсмир ёшдаги болани биринчи галда интиладиган нарсани у ўзини энди кичкина бола эмас, катта бўлиб қолганлигини атрофдагиларга ишонтиришдан иборат. Шунинг учун ҳам ўсмирларнинг хатти- харакатларида ўз шахсини таъкидлашга уриниш, атрофдагиларни фикрига диққатлилик ортади. Агар бу даврда ота-она, оила аъзолари, яқинлар ва дўстлар қўллабқувватласа, ўсмир ўқув фаолиятини ўзлаштиришга, атрофдагилар билан мулоқот кўникмасини яхшилашга харакат қилади. Ўсмирлар билан психокоррекцион машғулот ўтказишда гурухий психотеренингларни, айниқса спорт ва қизиқарли машғулотлар билан, айниқса, югуриш, сузиш, теннис каби спорт турлари билан шуғилланиш шуғилланишнинг фойдаси каттадир. Мазкур спорт турлари билан мураббий назорати остида шуғилланиш ўсмирларни ўз куч ва энергияларини тўғри йўналтиришларига хизмат қилади. Шунингдек, спорт билан шуғилланиш натижасида ўсмирларда агрессив холатларни камайишини кузатишимиз мумкин. Ўсмир шахсининг йўналганлик белгиси сифатида, унинг мотивацион - эҳтиёж доирасидаги барқарор эҳтиёж ва мотивларнинг мустахкамланиши хисобланади. Унинг етарли даражада даминантликка ўсиб ўтмаслиги, баъзан ахлоқий хулқ мотивларининг шаклланмаслигига олиб келади (Г.Г. Бочкарева, 1972).

Шунинг учун ҳам биз катталар ўсмирларни қизиқиш ва эҳтиёжлари, мотивларини ўрганиб боришимиз ва тўғри йўналтиришимиз улар хулқида салбий ўзгаришларни пайдо бўлишини олдини олади. Жисмоний харакатларни бажариш, спорт машғулотлари билан банд бўлиш орқали ўсмир ўқиш ва кўшимча машғулотларини режалаштиришга ўрганади.

Ўсмирлар билан стрессни енгишга қаратилган арт- терапия (ранг терапия), масктерапия, қум терапия, дўстимга мактуб каби психологик методларни қўллаш мумкин. Мазкур методларни қўллашда гурухий психокоррекцион машғулотларни турли хил кўринишларидан ўсмирларнинг стресс вазиятларини турларидан келиб чиқиб фойдаланиш мақсадга мувофикдир.

Фойдаланилаган адабиётлар рўйхати:

1. Б. Н. Сирлиев, Н. Исмаилова, И. М. Хакимова — Стресс ва агрессия (ўқув услубий қўлланма) - Т.: 2014 й.
2. Г. Қ. Тўлаганова —Тарбияси қийин ўсмирлар - Т.: 2005й.
3. В. И. Каримова —Ижтимоий психология асослари- Т.:1994 й.
4. С. А. Ахунжанова ва бошқалар —Шахс инкироз ҳолатлари ижтимоийпсихологик сабабларини ўрганиш ва уларни бартараф этиш - Т.: 1997 й.
5. Шарафутдинова Х. Г —Ўсмир психологияси:диагностика, психокоррекция - Термиз.: 2017 й.

XULQ OG'ISHGANLIK PSIXOLOGIYASI

Turdaliyeva Hamida Odiljonovna
Farg'ona viloyati Beshariq tumani 26-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xulqi og'ishganlik, norma va patologiya tushunchasi, xulqi og'ishishning turlari va metodlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: fiziologik, psixologik, o'smirlik, voyaga yetmaganlar, jinoyatchilik, do'stona munosabat, psixologik iqlim, shaxsiyatparastlik.

Psixologiya faning markaziy kategoriyasi hisoblanmish shaxs ijtimoiy hayotning barcha sohalarida muayyan funktsiyalarni bajarish orqali jamiyatning taraqqiyotiga o'z

hissasini qo'shib kelmoqda. Barkamol avlod kamoloti g'oyasini turmushga tatbiq etish uchun istiqloqlarning dastlabki kunlaridanoq milliy ma'naviyat, milliy ta'lim va tarbiya muammolarini hal qilishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Insonning biologik, fiziologik, psixologik o'sishining eng murakkab bosqichlaridan biri o'smirlik yosh davridir. Ushbu yosh davri eng murakkab o'zgirishlar, qayta qurishlar, umid intilishlar davri va shu bilan birga og'ir inqirozlar, salbiy holatlar, kechinmalar davri hamdir. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha har bir o'ninchi jinoyat voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinar ekan. Bu ma'lumotning ma'nosi faqat qonunbuzarlar tomonidan yetkazilgan zarar bilan aniqlanmaydi albatta. Zero voyaga yetmagan jinoyatchining shaxsi jinoyatchilik muammosini kristallashgan markazi bo'lib hisoblansa, uni o'rganish va korrektsiyasi esa bu nuqson bilan kurashishning eng markaziy savollaridan biri hisoblanadi.

O'qituvchilar jamoasi har qancha urinishidan qat'iy nazar, ta'lim jarayonida tarbiyasi qiyin o'smirlar ham uchrab turadi. Hozirgi davrda bunday o'quvchilar bilan yakkama-yakka ishlash usuli yaratilgan, fe'l-atvordagi nuqsonlarning xatti-xarakati nosog'lomligining oldini olish va tuzatish yo'llari ilmiy asosda ishlab chiqilgan. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, tarbiyasi qiyin, injiq, xulqi salbiy bolalarning kelib chiqishining ijtimoiy sabablaridan tashqari, pedagogik va psixologik sabablari xam mavjud.

Tarbiyasi qiyin o'smirlardagi xususiyatlarni o'rganishning yana bir yo'li alohida-alohida suhbat o'tkazish orqali ularning ruhiy kechinmalari bilan tanishishdir. Suhbat kezida yaxshi va yomon xulq-atvor, xatti-harakatlar yuzasidan keng ma'lumotlar to'planadi. Mazkur jarayonda amalga oshiriladigan har xil xatti-harakatlarni baxolash, ularni sharxlab berish lozim. Xatti-harakatni baholashda o'smirga qo'yilgan ayb yo tan olinadi yoki mutlaqo u inkor etiladi. Biroq o'tkazilgan suhbatlar o'smirning psixik dunyosiga shunday nozik ta'sir qilishi kerakki, natijada unda vijdon azobi, o'ng'aysizlik tuyg'usi vujudga kelsin. O'smir shaxsiyatiga tegadigan muomala qilish man etiladi.

O'smirlarning tipologik xususiyatlariga binoan bir nechta shartli guruhga ajratish mumkin.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarning birinchi guruhi orsizlar yoki subutsizlar deyiladi. Ular o'z xatolarini bilib turib qonun va qoidalarni buzadilyar, noma'qul ishlarni qiladilar. Ko'pincha ular o'zlarining gunohkor ekanliklarini tan olmaydilar, maktabdagi ayrim kamchiliklarni tanqid qiladilar. Lekin yutuqlarni e'tirof qilishni xohlamaydilar. Shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga ma'qullashni va o'z talablarini o'zgalar so'zsiz bajarishini juda yoqtiradilar. Bunday bolalar betga chopar, o'jar tabiatli, rahm-shafqatsiz, «zo'ravon» bo'ladilar. Mustaqil fikrga ega bo'lmagan tengdoshlarini o'z- atroflariga to'playdilar va birgalikda tartib buzishga undaydilar.

Ikkinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar yaxshi va yomonni tushunadilar, biroq mustaqil e'tiqodga, barqaror yuksak his-tuyg'uga ega emasliklari sababli «orqa qanoat»da turib qoidani buzadilar. Ularning xatti-harakatlari tasodifiy voqelikka, ta'sir kuchiga va vaziyat xususiyatiga bog'liqdir.

Uchinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar shaxsiyatparastlik tufayli qonunbuzarlik, tartibbuzarlik yo'lga kirib qoladilar. Ular shaxsiy talablari va ehtiyojlarini qondirish uchun har qanday nojo'ya xatti-harakatdan qaytmaydilar, hamisha odamlarga yaxshilik qilishni orzulaydilar, biroq o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ijtimoiy manfaatdan yuqori qo'yadilar.

Tarbiyasi qiyin o'smir o'quvchilarni qayta tarbiyalash uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni keltirib chiqaruvchi sabablar majmuasi.

I. Shaxsning biologik nuqsonlari:

II. Shaxsning psixik kamolotidagi kamchiliklar:

III. Shaxsning tarbiyasidagi nuqsonlar:

IV. Shaxsning bilim olish faoliyatidagi kamchiliklari:

V. Maktab ta'limi va tarbiyasidagi kamchiliklar:

VI. Maktabdan tashqari muhitdagi nuqsoilar:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.G'oziyev "Umumiy psixologiya" 1-kitob Toshkent 2002
2. "Qarovsiz qolgan bolalarga psixologik yordam" uslubiy qo'llanma F. 2018
3. Rean A.A "Prakticheskaya psixodiagnostika lichnosti" Piter 2000

O`QUVCHILARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Saidova Sadoqat Nemonjonovna
Farg'ona viloyati Quvasoy shahar 24-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik asoslari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: nikoh, oilaviy hayot, reallik, afsona, tasavvur, tarbiya, oila, ideal, adekvat, nikoh

Oila mustahkamligiga hal qiluvchi ta'sir etuvchi nikoh oldi omillaridan biri yoshlarning o'z oilaviy hayoti haqidagi tasavvurlaridir. Ularning qanchalik reallikka yaqin bo'lishi, shu oila mustahkamligining bosh garovi hisoblanadi. Afsuski, hamma vaqt ham yoshlarimizning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari reallikka mos kelavermaydi, balki u aksariyat hollarda reallikdan tubdan farq qiladi.

Hind afsonalaridan birida yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari va ularning reallikka nisbatini qiyoslashga mos keladigan ajoyib bir rivoyat mavjud. Rivoyatda aytilishicha, tug'ilganidan ko'zi ojiz bo'lgan to'rt nafar ko'rga «Qarshinglarda fil turibdi, sizlar uni umuman ko'rmagansizlar, lekin uni borib ushlab, paypaslab o'rganib chiqinglarda, so'ng fil qanday maxluq ekanligini aytib beringlar»,- deyilgan. Ko'rlar borib filni «o'rganib» qaytishganlaridan so'ng ulardan fil qanday hayvon ekanligi so'ralganda, ulardan biri: «Fil - badani dag'al, daraxtga o'xshagan hayvon» - debdi, ikkinchisi uni inkor etib: «Yo'q, fil yerdek yumaloq, odamning qulochi yetmaydigan yumaloq bir hayvon»- debdi. Uchinchisi esa, ularni ikkovlarini ham inkor qilib: «Fil ichi teshik uzun, yo'g'on ichakka o'xshaydigan hayvon»- debdi. To'rtinchisi esa: «Fil yoyiq yapaloq katta bargga o'xshagan hayvon»- deb javob bergan ekanlar va ularning har biri o'z fikrini ma'qullayman, o'tkazaman deb bir-birlari bilan janjallashib qolgan ekanlar. Chunki ularning biri filning oyog'iga, ikkinchisi - qorniga, uchinchisi - xartumiga va to'rtinchisi - qulog'iga to'g'ri kelib qolib o'zlarining imkoniyatlari doirasida filni tasavvur qilgan ekanlar. Xuddi shu to'rtta ko'zi ojizdek yoshlarimiz ham

oilaviy hayotni butun borlig`icha, to`la, yaxlit tasavvur qila olmaydilar, buning imkoni ham yo`q. Oqibatda oilaviy hayot haqida turli tasavvurlarga ega bo`lgan yoshlarimiz oila qurgudek bo`lsalar, o`z tasavvurlarini reallikka aylantirish, ya`ni juftiga ham shunday ekanligini uqtirishga harakat qiladilar. Va ular ham yuqoridagi ko`zi ojizlardek har biri «o`zicha haq» bo`la turib, bir-birlari bilan janjallashib, kelisha olmay qolishlari mumkin.

Esini tanigandan boshlab ertaklar ruhida, badiiy filmlar, romanlar, afsona, rivoyatlar ruhida tarbiyalangan yoshlarimizda hamma vaqt ham oilaviy hayot haqida to`g`ri tasavvurlar shakllanaverishi mumkin emas. Ommaviy axborot vositalari orqali, teleko`rsatuvlar, radioeshittirishlar orqali yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida berilayotgan materiallarda, oilaviy hayotni bir yoqlama, faqat ijobiy tomondan talqin qilish hollari ham ko`p kuzatiladi. Bu kabi holatlar ham yoshlarda oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning noto`g`ri shakllanishiga sabab bo`lishi mumkin.

Ko`pchilik yoshlarimiz, ayniqsa muvaffaqiyatli oilalarda tarbiya topgan yoshlar, oila qurish arafasida bo`lar ekanlar aksariyat hollarda o`zlarining bo`lajak oilaviy hayotlari uchun o`z ota-onasi oilasini ideal qilib oladilar. Chunki ular shu oilada tarbiyalanar ekanlar, «eslarini taniganlaridan buyon» ota-onasining nizolashib tortishganlarini, bir-birlarini hurmatsiz qilganlarini eslay olmaydilar. Bunday oilalarda ota-onalar ham o`zlarining o`zaro munosabatlaridagi noxush jihatlarini farzandlariga sezdirmaslikka harakat qiladilar. Yoki ularning o`zaro munosabatlarida ro`y berishi mumkin bo`lgan nizoli damlar, bir-birlariga moslashish jarayonlari nikohning boshida, hali farzandlari dunyoga kelmaslaridan oldin bo`lib o`tib ketgan. Bolalar esa ular turmushining faqat yaxshi, tinch-totuv, ahil-inoqlik, bir-birlariga nisbatan mehr-oqibatli, ibratli jihatlaridangina xabardor bo`ladilar. Shunday oila qurishni tasavvur qilgan yoshlarimiz, oila qurganlaridan so`ng o`zlari kutgandek turmush kechira olmasalar, nikohning dastlabki eng nozik, murakkab, kiyin, yangi ijtimoiy vaziyatlar, sharoitlar, rollarga moslashish, bir-birlariga moslashish jarayonlarida yuzaga kelgan qiyinchiliklar, to`siqlar, muammolar oldida esankirab qolib, oila qurishda «adashganliklari»dan shubhalanib qolishlari mumkin.

Shuning uchun ham yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oilaviy hayot, er-xotin munosabatlarini faqat bir yoqlama va faqat yaxshi tomondangina ko`rsataverish ham

maqsadga muvofiq emas. Uni imkon qadar butun borligicha: baland - pasti- yu, shirin-achchig`i, rohat-farog`ati-yu, azob - uqubati, qorong`u kechalari-yu, yorug` kunduzlari bilan ko`rsatgan ma`qul. Shundagina yoshlarimizda oilaviy hayot haqida nisbatan adekvatroq tasavvur shakllanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz “O`zbekiston” nashriyoti 2016
2. V.Karimova “Oila psixologiyasi” Toshkent 2008

MAKTAB PSIXOLOGI TOMONIDAN PEDAGOGLAR , OTA-ONALAR, O`QUVCHILARNI PSIXOLOGIK KONSULTATSIYA QILISH.

Fozilova Shaxnoza Sodiqjon qizi
Farg`ona viloyati Beshariq tumani 32-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab psixologi tomonidan pedagoglar, ota-onalar, o`quvchilarni psixologik konsultatsiya qilish haqida ma`lumot berilgan.

Kalit so`zlar: Psixologik xizmat, dezadaptatsiya, ma`naviy axloqiy me`yorlar, tibbiy va korreko`ion chora-tadbirlar, psixopatologik sindromlar, autizm ko`rinishlari

O`smirlik davriga xos xulq-atvor buzilishlari va ularni ijtimoiy moslasha olmaslik (dezadaptatsiya) muammosi kuchayib borish xususiyatiga ega ekanligi bois ham juda dolzarbdir. Bunday o`smirlarning umum qabul qilingan ijtimoiy va ma`naviy-axloqiy me`yorlarni tan olmasligi, ta`lim-tarbiya bilan shug`ullanuvchi oila, maktab, mahalla va boshqa ijtimoiy institutlar oldiga muhim vazifalarni yuklaydi.

O`smir xulq-atvorida ro`y beruvchi «og`ishlar» psixopatologik sindromlarning, yaqqol ko`zga tashlanuvchi belgilari quyidagilardan iborat:

Astenik sindrom belgilari — bu affektiv (ruhiy hayajon) beqarorlik, ruhiy ezilganlik, e'tiroz reaktsiyasi, qichqirishi, yig'loqilik, agressiya (tajovuz), o'qishga salbiy munosabat, darslardan qochish, aksilijtimoiy norasmiy guruhlarga qo'shilish infantilizm, ya'ni bolalik xislatlarini saqlanib qolishdan iborat nuqson, emoo'ional irodaviy jabhalar rivojlanishidan orqada qolishlik, berahmlilik, o'ta ishonuvchanlik, o'zini o'zi yuqori baholash, yolg'onchilik, maqtanchoqlik va boshqalar.

Affektiv ko'zyuluvchashik belgilarn — serzardalik, yengil achchiq-lanuvchanlik, tajovuzkorlik, ruhiy hayajon holatida narokomaniya, taksikomaniya, alkogolizm illatlarini tark eta olmaslik, boshqarib bo'lmaydigan holat, buzg'unchilik, maktabdan «bezganlik», aksilijgimoiy norasmiy guruh a'zosi.

Asabiylashish belgilari — tajanglik, intizomsizlik, o'qituvchilarga qo'pollik, urishqoklik, chekishga ruju qo'yishlik, toksik moddalardan goho foydalanib turiishik, maktabdan qochishlik.

Disforik o'zgaruvchanlik belgilari — to'satdan kayfiyatning buzilishi, larzaga kelishi, affektiv, ya'ni hissiy zo'riqishdan forig'lik, ruhan yengillashish, tajovuzkorlik, buzg'unchilik.

Ko'pincha o'smirlar oiladagi noto'g'ri tarbiya, xususan nosog'lom munosabatlarning zarbasiga duchor bo'ladilar. Buning natijasida ushbu munosabatlarga nisbatan shaxsiy mulohaza, o'ziga xos «reaksiya» zamirida ularning ruhiyati va ma'naviyatida turli xil kechinma, intilish, xohish, istak, hadiksirash hislari o'z ifodasini topadi.

Bunday holatlarni bartaraf etishda borada quyidagi psixologik ta'sir usullaridan foydalanish mumkin:

- oilaga ijtimoiy-psixologik xizmat uyushtirish;
- farzandlarga ijtimoiy-psixologik xizmatni joriy etish;
- ota-ona va farzandlar uchun tibbiy-psixologik-pedagogik maslahatlar berish;
 - xulq o'g'ishlar bo'yicha aniq psixodiagnostik korreksion dastur tashkil qilish;
- profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- oila va farzandlar huquqini himoya qilishning ta'sirchan usullarini qo'llash.

Buning uchun quyidagilarga amal qilish kerak:

- zudlik bilan dezadaptatsiyaning psixologik diagnostikasini amalga oshirish;

- xulq-atvor buzilishiga sabab bo'luvchi har qanday nomaqbul dezadaptatsiya muxitini aniklash va o'zaro ta'sir kuchiga ega bo'lgan omillarni izlash;
- yosh avlodni kamolotga yetkazish ishlariga mas'ul barcha shaxslarga xulq-atvor dezadaptatsiyasi bilan bog'liq pedagogik va psixologik bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish uchun imkon yaratish;
- muomala va munosabat jarayonida vujudga keluvchi har qanday nizolarning oldini olish;
- o'smirlarning hali to'liq shakllanib ulgurmagan nerv tizimi va psixik jarayonlarining osonlikcha jarohatlanishini va individual xususiyatini hisobga olish;
- muayyan tipdagi oila a'zolari uchun buzilgan xulqning barqaror xususiyatga aylanib qolmasligi uchun tibbiy yondashuvni to'g'ri amalga oshirish va hokazo.

Shunday qilib, ijtimoiy ma'naviy muhitimizni sog'lomlashtirish, oila, mahalla, maktab hamkorliginng uyg'unligiga erishish bugungi kunning ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy-tarbiyaviy zarurati sifatida jamiyatimiz taraqqiyotiga qo'shajak hissamizga ko'p jihatdan bog'liq bo'lib, yoshlarni barkamol shaxs qilib shakllantirish umuminsoniy burchimiz ekanligini anglashimizga yanada aniqlik kiritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.Xaydarov, N.Xalilova "Umumiy psixologiya" Toshkent 2010
2. "Qarovsiz qolgan bolalarga psixologik yordam" uslubiy qo'llanma F. 2018

SUIQASD ORTIDAGI PSIXOLOGIK MUAMMOLAR VA UNI OLDINI OLISHDA OILANING O'RNI

*Xudoyberganova Ozoda Quranboyevna
Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumani 21-maktab psixologi*

Oila inson tarbiyasi va shakllanishida alohida ijtimoiy psixologik ahamiyatga ega bo'lgan jamiyat bo'g'inidir. Suitsidal harakatda oiladagi muhitning o'rni katta, masalan, onasi ishlaydi otasi esa vaqtincha ishsiz va ko'p spirtli ichimlik ichadi. Buning oqibatida

oiladagi nizolar farzand tarbiyasiga va uning ruhiyatiga kuchli ta'sir etadi. Hayot zavqli, kimgadir esa shavqatsiz. Uni qanday yaratish va tark etish har bir insonning irodasi, harakati, qat'iyati, mahorati, qobiliyati va o'z meniga bog'liq. Inson uchun har bir vaqt ortga qaytmagani kabi, inson umri ham tugagach uni ortga qaytarib bo'lmaydi. Ayrim insonlar hayotdan voz kechish, uni tark etish maqsadida o'z jonlariga qasd qiladilar. O'zlariga ozor berib, qiynoqqa qo'yadilar. Bu kabi suiqasdlar ortida esa bir qancha psixologik muammolar yotadi.

Farzandlar o'z joniga qasd qilishlarining oldini olishda ota-onalar ularning psixologik hususiyatlaridan xabardor bo'lishlari lozim. O'spirinlik va o'smirlik davri oddiy yosh davrlari emas, aynan shu yoshda farzandlarga psixologik, biologik va ma'naviy o'zgarishlar, qarama-qarshiliklarga to'la bo'lganligi bois ulardagi hatti-harakatlar ota-onalarda ko'plab tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Oildagi kichik tortishuv, nizolar ham bu davrda bolani o'z joniga qasd qilishga undashi ham mumkin.

Tasavvurdagi va real o'z-o'zini o'ldirish – turli voqea-hodisalar, tashqi muhit, organizmdagi biologik, fiziologik o'zgarishlar, oiladagi e'tiborsizlik, tengdoshlar bilan munosabatdagi o'zgarishlar, boshqalar tomonidan ta'ziq o'tkazilishi, qo'rqitish yoki qo'rquv natijasi sodir etilishi mumkin. O'z-o'zini o'ldirish to'g'risidagi fikr kelganda o'zlaridan voz kechadilar, o'tmishdan yuz o'giradilar, o'zlarini yolg'iz his etib, o'z xotiralarini esa behuda deb biladilar. Bu xotiralar insongacha yetib bormaydi, uni qutqarmaydi, oilasi yaqinlari unutilib, uni bu holatda ekanligidan hech bir kishining habari ham bo'lmaydi. O'z joniga qasd qilishda turtki bo'luvchi ko'plab omillar mavjud, ular:

1. Iroda kuchining pastligi (irodasizlik).
2. Umidsizlik, zaiflik.
3. Psixik buzilishlar.
4. O'tish davridagi ayrim o'zgarishlar (insonni o'z meni va irodasiga bog'liq).
5. Begonalashish, kamsitilish.
6. Oiladagi muhit, nizolar, ko'p kaltaklanish, bir-biridan ajratish, mehrsizlik, har xil so'zlar bilan haqoratlanish (vaqtim yo'q, yo'qol, jinnimisan, o'ldiraman seni va h.k.).
7. Tengdoshlari o'rtasidagi kelishmovchiliklar.

8. Stressli vaziyatlar.

Yuqorida keltirilgan bir qator omillardan ko'rinib turibdiki, o'z joniga qasd qilish o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Suiqasdga moyil bola sekin-asta oiladan, do'stlar davrasidan uzoqlasha boshlaydi, sirlarini yashirishni o'rganadi, dangasa, o'ziga ishonmaydigan bo'lib qoladi. Eng yomon holatda unda "meni hech kimga keragim yo'q, undan yo'q bo'lganim yaxshi" kabi fikrlar miyasiga tez-tez kelib qoladigan bo'lib qoladi. Bu fikr bilan birgalikda unga bo'lgan e'tiborning kamligi, uni chetlashtirish kabilar davom etishi natijasida suitsid sodir etilishi mumkin. O'smir va o'spirinlar psixik salomatligining statistik me'yorlari ko'plab psixologik testlar bo'yicha kattalarnikiga qaraganda birmuncha farq qiladi. Bu ularning psixologik buzilishlar va o'tish davrining me'yorda o'tishi bilan bog'liq. Ular quyidagilar:

1. Kasallik o'smir yoshida boshlanadi, chunki uning latent, yashirin davri uzoq yillarga cho'ziladi va u shunchaki bolalikda rivojlanishga ulgurmaydi.

2. Buzilishni yana o'smir yoshida muhit va jamiyat shaxsga uning kuchi yetmaydigan talablarni qo'yishni boshlashi bilan ham yuzaga keladi. Masalan, yuqori sinflarda o'quv dasturlarining murakkablashuvi ba'zi o'smilarda chegaraga oid aqliy qoloqlik, topshiriqlarni uddalashga layoqatsizlik deb nomlanuvchi buzilishlarni keltirib chiqaradi.

3. Yosh og'riqli kechinmalarning o'ziga xosligini belgilaydi, kasallikni o'tishida iz qoldiradi. Masalan, turli psixik kasalliklar tashqi tomondan dismorfomaniya shaklida o'tadi.

4. O'tish davri bolalikdayoq ishora berilgan buzilishlarning rivojlanishiga turtki berdi, ta'sirchan qilib qo'yadi.

5. O'tish davri jarayonlari o'smirni muayyan nohush ta'sirlarga undaydi, ta'sirchan qilib qo'yadi.

6. Jinsiy yetilish (pubertat) davri rivojlanishning avval yashirin bo'lgan buzilishlarini yuzaga chiqarishga qo'zg'aydi.

7. Pubertat va uning o'zi patogenli o'zgarishlar seriyasi sababi, yetakchi bo'g'ini bo'lishi mumkin.

Shaxsning me'yoriy hayotiy faoliyati nafaqat muhit bilan axborot almashinuvida, u bilan qandaydir hissiy ahamiyatli munosabatlar o'rnatishdadir. Stress sharoitida vaziyat o'zgaradi, shaxs yechishga qodir bo'lmagan nizoli vaziyat unda shaxsning psixikasi va mavjud bo'lishining o'ziga xavf tug'diruvchi ulkan kuchdagi salbiy hissiyotlarni chaqiradi. Bunday holatlarda esa suiqasdni amalga oshirish istagi yanada kuchayib boraveradi. Stressdan chiqish uchun u o'z "Men"i va jarohatlovchi muhit o'rtasidagi aloqani uzishi yoki o'zini irodasi, hayotga bo'lgan intilishi tufayli uni oldini olishi mumkin. Suiqasdni oldini olish

uchun quyidagilarni qo'llash kerak. Ota-onalar uchun tavsiyalar:

- O'spirin bilan muloqot qilayotganda, u bilan o'zaro a'loqa va ishonchli munosabatni saqlab qolish.

- Uning barcha ishlaridan xabardor bo'lishga harakat qilish (mashg'uloti, qiziqishi, do'stlari, sayr qilish joylari va h.k.), lekin so'roq qilish va maydalashgan nazorat uslubidan voz keching.

- Farzandingiz qanday bo'lsa shundayligicha qabul qiling.

- Boshqalar bilan farzandingizni taqqoslamang.

- Bolangizni ko'proq maqtab turing.

- Achchiqlanib, jaxlingiz chiqqanda bola tarbiyasi bilan shug'ullanmang.

- Oilada har xil nizolarga yo'l qo'ymang, uni kaltaklamang.

- Farzandingizni ko'proq bag'ringizga bosishga harakat qiling, qo'llaridan tuting, yelkasidan quching, bu o'rtangizda iliq munosabat o'rnatishga yordam beradi.

- Kun tartibiga rioya qilishini so'rang.

- U bilan sirdosh, bolalarcha do'st bo'ling.

- Bolangiz xatti-harakatidagi har qanday keskin o'zgarishlarni e'tiborsiz qoldirmang. Balki bolaga mutaxassis yordami kerakdir (vrach, psixolog, nervpatolog, psixiatr).

Jamiyatimizdagi har bir o'sib ulg'ayotgan bolalar yuqoridagi tavsiyalar asosida voyaga yetkazilsa, ularning irodasi mustahkam, qatiyatli va suitsiddan yiroqda bo'lib voyaga yetishlarida ko'makdosh bo'ladi. Bola uchun eng kerakli insonlar bu uning oilasi,

ota-onasi, yaqinlaridir. Ular farzandlariga qimmatli hech kim berolmagan mehr-muhabbatlarini beradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Akopov G.B. "Suidsidal harakatlarning oldini olish uslublari", Samara-Ul'yanovsk, 1998.

2. Ambrumova A.G., Borodin S.V., Mixlin A.S. "O'z joniga qasd qilish xatti-harakatlar diagnostikasi". Uslubiy tavsiyalar.-M., 1980. 3.

Nasriddinov ch. Suitsid: muammo va yechimlar. O'quv uslubiy qo'llanma T: "Sharq" 2005.

TARBIYASI OG'IR BOLALAR BILAN ISHLASHDA PSIXOLOG FAOLIYATINING AHAMIYATI

Xo'jayeva Xolida Sofoboyevna
Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumani 47-maktab psixologi

Annotatsiya: Hozirgi kunga kelib, mahalliy va xorijiy psixologlar va tarbiyasi og'ir bolalar sonining ko'payishini qayd etishdi. Bolalar ijtimoiylashuv, tarbiya va ta'lim jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishadi, o'zlarini shaxs sifatida rivojlantirishga intilmaydilar. Maqola maktab davridagi bolalarni tabiyasi og'ir bolalarni tarbiyalash sabablarini o'rganish va o'qituvchilar bilan psixologlar birgalikda ota-onalarga o'quvchilarning ta'lim jarayonini tashkil etishda o'z vaqtida tuzatish yordamini ko'rsatish masalalariga bag'ishlangan.

KIRISH

Tarbiyasi og'ir bolalar va ular bilan ishlash har doim psixologlarning diqqat markazida bo'lgan. Nima qilish kerak, ta'limga mos kelmaydigan, tajovuzkorlik, hissiy beqarorlik, o'z xatti-harakatlarini nazorat qila olmaslik, o'rganishni istamaslik, o'rganishga qiziqish yo'qligi, maktab motivatsiyasi past bo'lgan bolalar bilan qanday

ishlash kerak? Psixologning qiyinchiliklarni, ularning sabablarini aniqlash va ushbu guruh bolalariga psixologik yordam ko'rsatishdagi roli zamonaviy dunyoda juda dolzarb va muhimdir. Maktab psixologlari oldida turgan vazifalar maktabda o'quv jarayonini optimallashtirishga yordam beradigan qulay psixologik muhitni yaratishdir.

Maktab psixologi ko'pincha boshqa bolalardan sezilarli darajada farq qiladigan (minus belgisi bilan) bolalar bilan shug'ullanishi kerak. Psixologga u yoki bu tarbiyasi og'ir bolaga "qandaydir tarzda ta'sir qilish" haqidagi so'rov o'qituvchilar va ota-onalarning tez-tez so'rovlaridan biridir. Shu bilan birga, turli xil maktab o'quvchilari tarbiyasi og'ir toifasiga kiradi: o'qimagan, intizomsiz, turli xil asab va ruhiy kasalliklarga chalingan bolalar, voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyada ro'yxatga olingan o'spirinlar, disfunktsiyali va yolg'iz bolalar deb ataladigan bolalar.

ASOSIY QISM

Psixologiyada tarbiya atamasidan tur va inson faolligi darajasini uning faoliyati, mushohadasi, tafakkuri, muloqoti kabi ko'rinishlari bilan bir qatorda belgilash uchun keng foydalaniladi. Inson axloqi tog'risidagi ilmiy tasavvurlar XX asrning boshlarida uni psixologik fanning predmeti [2] deb e'lon qilgan vaqtdan boshlab, ayniqsa, shiddatli rivojlanish tusini oldi.

Tarbiyaning zamonaviy tushunchasi tashqi rag'batga reaksiyalar to'plami doirasidan ancha chetga chiqadi. Shunday qilib, psixologik lug'atda tarbiya "tirik mavjudotga xos bolgan, ularning ichki va tashqi faolligi vositasidagi atrof-muhit bilan ozaro ta'sirdir" [3]. Odamning tashqi faolligi ostida har qanday tashqi ko'rinish: harakat, faoliyat, muomala, mulohaza, vegetativ reaksiyalar tushuniladi. [1]

Bolaning tarbiyasi tug'ilishdan boshlanadi. Uning birinchi o'qituvchilari ota-onalar, keyin bolalar bog'chasi tarbiyachilari va shundan keyingina - maktab o'qituvchilari. Afsuski, ular ham alohida, ham jamoaviy ravishda ko'p xatolarga yo'l qo'yishadi. Uning rivojlanishida bola bir joyda turmaydi, u oldinga siljiydi. Ota-onasidan bola oddiy taqlid orqali buni qanday qilishni organadi, nima mumkin va nima mumkin emas. Bolaligida o'z farzandiga yomon o'rnak bo'lgan ota-onalar voyaga yetganda ularning tarbiyasida yuzaga keladigan muammolardan xoli emaslar [4].

Tarbiyasi og'ir bolalar - bu rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan, xususan, axloqiy va deviant xulq-atvori, qat'iy salbiy xatti-harakatlari bo'lgan bolalar. Tarbiyasi og'ir - bu bola, maktab o'quvchisi bo'lib, u alohida davolashni, o'qituvchi va tengdoshlar guruhining diqqatini talab qiladi, bu individual yondashuvni talab qiladi.

Tarbiyasi og'ir bolalarning mumkin bo'lgan tasniflari:

1. Pedagogik jihatdan qarovsiz qolgan bolalar.
2. Tibbiy yordamga muhtoj bolalar.
3. O'zlashtirmaydigan bolalar.[6]

Ko'pgina taniqli o'qituvchilar va psixologlarning xulosalari, shuningdek, zamonaviy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, noto'g'ri xatti-harakatlar va huquqbuzarliklarning kelib chiqishi maktab yoshdagi bolalarda kuzatiladigan xatti-harakatlar, o'yinlar, organish yoki boshqa faoliyatdagi normadan chetga chiqishdir. Deviant xulq-atvorning rivojlanishining boshlanishi odatda bolaning o'zini shaxs sifatida anglashi, ijtimoiy me'yorlar va qoidalarni qabul qilish yoki rad etish boshlanishiga to'g'ri keladi. Bunday xulq-atvor ko'nikmalari, tegishli faoliyat talablariga bo'ysunish qobiliyati singdirilmagan bola, oxir-oqibat, har xil xatti-harakatlarning buzilishiga moyil bo'lgan intizomsiz shaxsga aylanadi. Bolaning ulg'ayishi va shaxs bolib shakllanishining asosiy davrida uning hamroh bo'lgan o'qituvchilar ham o'zlarining kasbiy faoliyatida ko'plab xatolarga yo'l qo'yadilar, bu esa bolaning pedagogik e'tiborsizligiga, deviant xulq-atvoriga, turli xil ijtimoiy og'ishlarga olib keladi [5].

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, Bir guruh tarbiyasi og'ir bolalarni ajratib ko'rsatib, biz ular bilan ishlashni tashkil etishga harakat qilishimiz, jumladan: ota-onalar uchun seminarlar o'tkazish, ularning sabablari tahlil qilinadi, tarbiyasi og'ir bolalarni tuzatish yo'llari, ota-onalardagi tanglikni bartaraf etishga qaratilgan maslahat ishlari, ota-onalar bilan individual ishlash. Shuningdek, psixolog va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot jarayonining samaradorligini oshirishga hissa qo'shgan o'yin mashqlaridan foydalanish, nizosiz muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, o'rganishga qiziqishning namoyon bo'lishiga, maktab motivatsiyasini kuchaytirishga yordam berishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'laganova G.K. «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya kursi bo'yicha tarbiyasi «qiyin» o'smirlar psixologiyasiga metodik kursyamatar»-
2. Fayziyev Ya. M. «Umumiy va tibbiy psixologiya». Toshkent Abu Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti 2000.
3. G'oziyev E. G. «Tarbiyasi «Kiyin» o'smirlar psixologiyasi». Lektorga yordam. Toshkent-1984.
4. Ратгер М. Помощь трудным детям. - М., 2004.
5. Рожков М. И. Воспитание трудного ребенка. Дети с девиантным поведением. Учебно-методическое пособие. М., ВЛАДОС, 2003.
6. <https://poisk--ru-ru.turbopages.org/turbo/poisk-ru.ru/s/s42664t3.html>

ЁШЛАРДА ОИЛА ТЎҒРИСИДАГИ ТУШУНЧАЛАР ШАКЛЛАНИШИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Расулова Лола Хасановна
Юнусобод туман 258 - мактаб психологи

Оила масалалари бугунги куннинг энг долзарб масалалардан бири десак адашмаган бўламиз. Бунга сабаб ходимнинг ишдаги масъулияти, ўқувчининг мактабдаги фаоллиги, инсонларнинг шахслараро муносабатларнинг барчаси оила аталмиш энг кичик ижтимоий қатламга боғлиқ. Шундай экан ўсиб келаётган ёш авлоднинг оила ҳақидаги тушунчаси, қарашлари, муносабати ва қадриятларининг шаклланишига алоҳида эътибор қаратиш зарур.

Калит сўзлар: оила, ота-она, коллеж ўқувчилари, ўспиринлар, оила институти, оила типлари, соғлом психолик муҳит.

Мустаҳкам ва бахтли оила қуришга йигит-қизларни илк ёшлиқдан тайёрлаш, оила муҳитида ҳамда барча таълим бўғинларида бу ишларни босқичма-босқич изчил давом эттириш олиб бораётган сиёсатимизнинг нақадар истиқболга

қаратилганлигини кўрсатади. Мақсадимиз пок ниятли, жисмонан бақувват, соғлом, интеллектуал салоҳияти юксак, ҳар томонлама етук миллатпарвар, оилапарвар, ватанпарвар ёшларни вояга етказиш экан, бу борада оила институтининг барча имкониятларидан тўла ва ўринли фойдаланишни билишимиз, бу йўлдаги самарали механизмларни илмий жиҳатдан тадқиқ этишимиз лозим бўлади.

Ижтимоий психология Ўзбекистонда жадал ривожланиб бораётган фан тармоғи сифатида ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш, уларда оила тўғрисида аниқ тасаввурларни шакллантириш йўллари юрганар экан, энг аввало, оиланинг қайси модели ёки типи ҳозирги замон ёшларига маъқул эканлиги, бу типларнинг замонавийлик ҳамда анъанавийлик тамойилларига қанчалик мос келишига ва йигит ва қизларнинг бу борадаги ижтимоий тасаввурларига алоҳида эътибор қаратади. Зеро, никоҳга икки шахс - йигит ва қиз киради. Улардаги жинсга оид психологик хусусиятларнинг қандай эканлиги, оила муҳитида рўй берувчи психологик ҳодисаларнинг ёшлар онгига таъсири кўламини билган ҳолда, шахслараро муносабатларни мустаҳкамлаш йўллари белгилаш фан учун ҳам, амалиёт учун ҳам фойдалидир. Ушбу ҳолатларга оид тасаввурларни билиш шахс ижтимоий хулқини олдиндан башорат қилиш, оила мустаҳкамлигини таъминловчи шахсий ва гуруҳий омилларнинг таъсирини мақсадли бошқариш имкониятини беради. Зеро, ёшларда ижтимоий психологик тасаввурлар ва улар асосида шаклланадиган установкаларнинг ўзгариб бораётганлиги ҳаёт тарзи ёки ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитларнинг ўзгариб бораётганлиги билангина изоҳланмайди, балки бунда инсон омили ва унинг психологиясида рўй бераётган ўзгаришларнинг ўрни ва роли ҳам сезиларлидир.

Ёшларнинг оила ва оилавий муносабатлар тўғрисидаги тасаввурлари кўплаб ижтимоий психологик тадқиқотларнинг предмети сифатида ўрганилган. Умуман психологлар йигит ва қизларнинг бўлғуси оиласи ва унинг қандай бўлиши тўғрисидаги тасаввурларини ўрганишни умуман улардаги оила ва никоҳ тўғрисидаги тасаввурларини ўрганишдан бошлайдилар. Чунки А.Б.Шнейдернинг фикрича, ўз оиласида кўрган-кечирганлари, тажрибасини умумлаштирмай туриб, ёшларда истиқболдаги оила образи бўлиши мумкин эмас. Калининградлик

психолог С.В.Овчинникова ҳам Л.Шнейдер лабораторияси аъзолари билан замонавий ўсмир ёшларнинг идеал, низоли, анъанавий ва типик оила тўғрисидаги тасаввурларини ўрганган ва унда асосий методик қурол сифатида оиланинг проектив расми методикасидан фойдаланган. Бунда ёшлардан оилага ким бошчилик қилиши, ҳар бир оила аъзоси нима билан шуғулланиши, шу оилада айнан ким бўлишни исташлари, ким бўлишни аниқ хоҳламасликлари, бу оилада ким бола тарбияси билан шуғулланиши, оиладагилардан кимга бола кўпроқ яқинлиги: отагами, онагами, бобо ёки бувигами, ўзаро бир-биригами каби саволларга жавоб бериб, қандай муаммоларни билиши ҳақида сўралган. Олинган натижаларда турлича фикрлар орасида айнан идеал оила деб аталмиш категорияда “ҳамма бирга”, яъни, ота-она ва боладан ташқари, бувилар ва боболар ҳам акс этган расмлар тавсифланди. Бундай расмлар 55%ни ташкил этган. 20% дан ортиқ расмларда идеал оила “Эр – болалар - хотин” тизимида ифодаланган ва бундай тасаввурни тадқиқотчилар россияликлар учун анъанавий, деб ҳисоблайдилар.

Олиб борилган кузатишлар мақсади нуқтаи назаридан ушбу тадқиқотлардан олинган яна бир жиҳат муҳимки, у ҳам бўлса, ёшларнинг идеал оила тўғрисидаги тасаввурларида ўзларининг тутган ўрнини аниқлашдир. Масалан, “Айни шу идеал оилада сен ким бўлишни хоҳлардинг?” деб берилган саволга кўпчилик болалар ўзларининг психологик жинсига мос келадиган ролларни ифодалаганлар, яъни, ўғил болалар – эр ролини, қизлар – рафиқа ролини. Фақатгина сўралганларнинг учдан бири бола ролини қайд этиш билан чекланган. Бу ўринда ўғил болалар берган жавоблар барибир бизнинг эътиборимизни тортди. Чунки 10 % ўғил бола оилада етакчи, оила бошлиғи бўлишни истамаганлигини билдирди, яъни, улар ўз бўйнига масъулият олишни хоҳламайди, 35 % ўғил болалар бола позициясини бошқа ҳар қандай ролдан афзал билади. Низоли оила тўғрисидаги тасаввурлари ўрганилган болаларнинг 40 %и оила бошлиғи сифатида аёлни, 35 %и отани тасаввур қилади. Бошқалар эса “Ҳеч ким” ёки “Ким хоҳласа” деган жавоблар билан чекланганлар. Фақат анъанавий оила тўғрисидаги тасаввурларда бирорта жавобда она оила бошлиғи сифатида эътироф этилмаган, 15% ҳолатда оила бошлиғи – бобо, қолган 85% ҳолатда бу ролни ота-эркак киши ўйнайди. Она бундай оилада ҳамиша уй-

рўзгор ишлари билан банд бўлган бека ролида тасаввур этилади. Шундай бўлсада, ўғил болаларнинг 30 %и бундай оила моделини хоҳламаслигини, 20 % қизлар умуман уй бекаси бўлиш фикридан йироқ эканлигини, 25 % болалар бола ролини рад этишларини баён этганлар. Ёшларнинг бундай муносабатига сабаб бўлган омиллардан бири – бу оилада бола тарбиялаш усулларининг қаттиқлиги ва улар учун маъқул эмаслигидир. Чунки уларнинг эътирофича, асосий тарбия методларига қатъий тартиб-интизом, қаттиққўллик ва жазолаш усуллари киритилган. Буни замонавий ёшлар мутлақо қабул қила олмайдилар.

ХУЛОСА

1. Илмий психологик манбаларда келтирилган оила ва оилавий муносабатларнинг бошқа турлари шу икки тоифа асосида намоён бўладиган ўзаро муносабатлардир. Оила типини танлаш ва унга йўналтирилган шахс сифатларининг шаклланиши ушбу оиладаги узоқ муддат давомида мулоқот қилиш вазиятининг оқибати ёки ҳосиласи бўлиб, у аслида шахсдаги мавжуд оилавий мулоқот эҳтиёжидан келиб чиқади. Шунга қарамай, оилада тарбиялаётган ёшларнинг оила типини танлаши оилавий муносабатлар чегарасидан ҳам бироз чиқадиган, унинг кенг ижтимоий муносабатлар тизимида олган ижтимоий тажрибасининг ҳам маҳсулидир. Шу боис ҳам, ота-онанинг оила типига нисбатан ижтимоий установа ва ижтимоий тасаввурлари фарзандларникидай бўлмаслиги мумкин ва, аксинча.

2. Оила типини танлашга таъсир этувчи ва шахсдаги ижтимоий тасаввур мазмунини ташкил этувчи ижтимоий институтларга қуйидагилар киради: а) оила – дастлабки ижтимоийлашувнинг маскани сифатида ва у ердаги норасмий мулоқотларнинг ижтимоий тажрибага асос бўлиши сифатида; б) ота ва онанинг жамиятда қабул қилинган, ижтимоий стереотипларда муҳрланган маскулинлик ва фемининлик роллари таъсирида шаклланадиган ижтимоий тасаввурлар; в) ижтимоийлашувнинг бошқа масканлари, масалан, таълим масканларида ўзаро муносабатлар таъсирида шаклланадиган эркаклик ва аёллик роллари ҳамда бошқа ижтимоий ролларнинг таъсири; г) оиладаги барча аъзолар, жумладан, боболар ва момолар, ота-оналар тажрибасида оиладиги етакчилик мақомларининг қай тарзда

тақсимланганлиги; д) болалар жамоасида шахсинг тутган ижтимоий психологик мақоми (фаоллик - пассивлик).

BOSHQARUV FAOLIYATIDAGI NIZOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO`LLARI

Halilova Nozima Sobirjon qizi
Namangan viloyati Kosonsoy tumani 18-maktab psixologi

Malumki har qanday faoliyat turi Menejment asosida quriladi, chunki shu faoliyatni amalga oshirishda ko`zlangan maqsadga erishish, bajariladigan vazifalarni taqsimlash, ijrosini nazorat qilish, shuningdek, samaradorlikka erishish uchun shu faoliyatda ishtirok etuvchilar manfaatlarini himoya qilish, rag`batlantirish chora tadbirlari Menejment jarayonida tashkil etiladi va muvofiqlashtiriladi. Nizo ko`pincha tajovuz, taxdid, munozara, dushmanlik, urush va x.k.lar bilan tenglashtirilib, doimo nomaqbul hodisa sifatida qabul qilinadi, unga imkoni boricha yo`l qo`ymaslik, yoki tezlik bilan vujudga kelgan paytda hamla etish zarur deb hisoblaydilar. Nizoga nisbatan bunday munosabat “ilmiy Menejment” va “mamuriy maktabga” mansub mualliflar asarlarida aks ettirilgan. Bu mavzuda biz ana shu nizolarni o`rganib, ularni hal etish yo`llarini o`rganamiz.

Nizo tushunchasining nazariy tahlili hozirgi zamon ilm-fani bashariyat tarixining qaysi bir davriga murojaat qilmasin, ularning barchasida nizolarning mavjud ekanligiga duch keladi. Aniqroq qilib aytganda, nizo jamiyat rivojining doimiy hamrohi bo`lganligiga amin bo`lamiz. Nizolarning jamiyat hayotidagi o`rni qadimdan e`tiborga molik bo`lib kelgan. Ha, insoniyat nizolar bilan "bilag'on odam"lar yashagan davrdan buyon hamnafasdir. Shuning uchun bo`lsa kerak ilmiy doiralarga nizo haqidagi ilk qarashlar afsonalar orqali kirib kelgan.

Aynan afsona va matallarda, o`tgan asrlarda ijod qilgan faylasuflar, tarixchilar va yozuvchilarning fikr-mulohazalari-yu ilmiy qarashlarilagi ko`plab, ba`zan esa o`ta

mulohazali fikrlar jamiyatdagi nizolarning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari xususida bo'lgan.

“Nizo” tushunchasi ta'rifi asosida yetarlicha Y.Shepanskiy taklif qilgan tasnif bor, ya'ni u nizoni “aniq predmet yoki vaziyat sababli vujudga keluvchi maqsad va imkoniyatning qarama-qarshi yo'naltirishni chaqiruvchi to'qnashuvi¹” deb izohlaydi.

Qadimda oqsoqollar urug'-qabila boshliqlari kengashi nizoni hal qiluvchi kuch sifatida xizmat qilgan. Biroq insoniyat tarixining keyingi bosqichlarida ilk davlatlarning vujudga kelishi, odamlar o'rtasida tabaqalanishni takomillashishi va uning orqasidan har xil siyosiy tizimlarning yuzaga kelishi har doim ham jamiyatda barqarorlikni ta'min etavermagani tabiiy hol. Bunday o'zgarishlar odamlar o'rtasida muayyan darajada ijtimoiy haqsizlikni kuchaytirgan. Oqibatda nizolarga zamin hozirlanib, tomonlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar kengayib boravergan. Natijada jamiyatla nizolar orqasidan uning ta'siridagi muammolar ko'payib borgan. Shuning uchun o'tgan ko'plab yillar davomida kishilik jamiyati tinch-totuv kelajakka umid bilan qaragan, doimo urush va qarama-qarshiliksiz jamiyatni ko'rishga intilib yashagan.

Ijtimoiy nizolarning tabiati to'g'risidagi ilk qarashlar va tushunchalar orasida qadimgi yunon faylasuflari alohida o'rin egatlayli. Mashhur antik faylasuf Geraklit urushlar va ijtimoiy nizolar to'grisidagi fikr va muloxazalarini tabiiy borliq haqidagi umumiy qarashlar tizimiga bog'lashga harakat qilgan. Uningcha xamma narsa o'zaro bog'liq va bir-biriga aylanib guradi. Shu jumladan, insoniy munosabat normalari ham.

Abu Nasr Forobiy (873-950 y.) birinchi bo'lib jamiyamning kelib chiqishi va davlatni qanday boshqarish kerakligi haqidagi ilmiy-nazariy bilimlar tizimini o'rganib chiqdi. Bular asosan quyidagilardir:

- Ijtimoiy hast haqidagi fan va uning vazifasi;
- Inson jamoasining vujudga kelishi tarkibi va turlari;
- Shahar-davlat jamoasining fazilati, davlanning faoliyati vazifasi va uni boshqarish shakllari;
- Insonning jamiyatdagi o'rni va vazifasi, aqliy, axloqqi kamoloti masalalari;
- Davlat jamoasining maqsad va vazifalari, insonni baxt-saodatga erishtirishning usullari va yo'l-yo'riqlari.

Forobiyning fikricha, jamiyatdagi nizolarning birdan bir sababi - odamlar tafakkurida ijtimoiy hayot, shahar-davlat, axloq va fikr ilmlarinish to'la shakllanmaganligidadir. O'z navbagila yuzaga kelmoqchi bo'ladigan nizolarning oldini olishda hamda odamlarning ushbu ilmlar bo'yicha olgan yuwori bilimlari ijobiy natijalar berishi haqida gapirib, nazariy bilimlarning egallanishi amaliyotda muhim ahamiyatga ega ekanligini uqtiradi. Forobiyning jamiyat haqidagi mulohazalarida "zo'ravonlik va majburlash ta'limoti" ko'rinadi. Chunki har qanday davlat va jamiyatda "zo'ravonlik va majburlash ta'limoti"ning amaliyotda aks etishi, o'sha davlat va jamiyatdagi nizolar shakllanishining asosidir. Forobiy "zo'ravonlik va majburlash ta'limoti"ga qarama-qarshi o'larok "tabiiy ehtiyoj nazariyasi"ni¹ ilgari suradi. Zero odamlarning birgalikda totuv yashashi, jamoalarga uyushishi, bir-biriga yordamlashib kun kechirishi kabilar tabiat va jamiyatdagi "tabiiy ehtiyoj" mavjudligining tabiiy belgilaridir.

Sharqdagi ilk Uygonish davri vakillari qarashlaridan farqli ravishda G'arb dunyosi o'rta asrlar - Yevropa Uygonish davri namoyandalari ijtimoiy nizolarga murakkab va qarama-qarshi baho berdilar. Negaki bu davrda jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlar va qurolli to'qnashuvlarni mashhur gumanistlar T. Mor, E. Rogtsrdam, F. Rabls, F. Bekonlar keskin qoralab chiqqan edilar. Erazm Rogtsrdam urush - "urushni bilmaganlar uchun shirin" deydi. U boshlanajak nizoning misoli zanjir reaksiyasi yanglig', o'z domiga aholining yangi qatlamlari va davlatlarni tortib ketishi borasida so'z yuritib, qarama-qarshi turgan tomonlar garchi umumiy jihatdan g'oyaviy birga bo'lsalar ham, o'zaro sulhga kelishishlari mushkulligiga e'tibor qaratdi. Ingdiz faylasufi Frensis Bekonning nizolar tabiati to'grisidagi fikrlari ham e'tiborga loyiqdir. Nizo tarixida u birinchi bo'lib davlatning ichki ijtimoiy nizolari sabablarini aniq nazariy tahlil qilib chiqib, ijtimoiy tartibsizliklarning moddiy, hissiy va ruhiy shart-sharoitlarini sinchiklab o'rgangan hamda ularni bartaraf etish yo'llarini belgilab bergan. F. Bekon qarashlarida davlat va jamiyatdagi ijtimoiy tartibsizliklarning yuzaga kelishiga sabab sifatida asosan moddiy sabablar tushunchasi ustuvorligi xarakterlidir. Masalan, uningcha bunday ustuvor jihatlardan biri davlatdagi xalq moddiy ahvolidan namoyon bo'ladi. "Davlatda qancha nochor bo'lsa, - deydi u - shuncha tayyor qo'zgonchidir. Mabodo nochorlar

qatoriga oddiy xalqning mobillashuvi sabab bo'lsa, xavf ortib boradi va aniqroq namoyon bo'ladi.

Guruhlar o'rtasidagi nizolarning quyidagi turlari mavjud:

- Iqtisodiy nizolar;
- Siyosiy nizolar;
- Milliy nizolar.

Shu bilan birga tiklashlarning davlatdagi ijtimoiy qatlamlar va vakillik organi fikrini inobatga olmasdan qat'iy ravishda sub'ektiv mulohazasiga ko'ra ish tutishi nomaqbulligini uqtiradi. Agarda shunday holat yuz bersa, "xalq bunday boshboshdoqlikni qiyin hazm qiladi va o'zlaricha mustaqil ravishda qandaydir yangi boshqaruv tizimini joriy etishga va uni o'rnatishga harakat qiladilar. Qachonki "o'rtaliq" ziyolilardan xalqqa yo'nalish berib qo'yilsa xalqning ko'tarilishi tabiiy". Shuningdek F. Bekon boshqaruv tizimilagi hissiy xatolar bilan birga, ijtimoiy tartibsizliklarni keltirib chiqaruvchi bir qagor ruhiy omillarni ham aniq va ravshan ko'rsatib bergan. Jumladan. "davlat rahbarining tilidan chiqqan keskin va achchiq so'z", "jamiyat hayotidagi ko'rolmaslik illati", "hukumat sha'nini bulg'aydigan tez-tez ko'tariladigan va oson tarqaladigan mish-mishlar, yolg'on-bo'hton tashviqotlar" shular jumlasilandir. Ijtimoiy mojarolarning oldini oladigan yo'llardan biri sifatida F.Bekon hissiy manevr san'atini ko'rsatadi.

ЗАМОНАВИЙ РАҲБАР ИМИДЖИ

*Бозорова Феруза Абдумажитовна
Наманган вилояти Косонсой тумани 42-мактаб психологи*

Бутун халқимизнинг тақдирига дахлдор муҳим масалалардан бири - иқтисодиётни, халқ хужалиги ва халқ таълимини, соғлиқни сақлаш, маданият ва спортни бошқариш, кичик ва ўрта бизнесни ривожлантириш муаммосидир. Бу айни чоғда раҳбарликнинг самарали йўлларини топиш, бошқарув тизимини тўғри йўлга

кўйиш мамлакатимиз тараққиётининг устувор йўналишлари этиб белгиланган. Чунки жаҳоннинг энг ривожланган мамлакатларида ҳам тараққиётга айнан шу йўл билан эришилган. Бинобарин, жамиятимизда раҳбарлик фаолияти тугри режалаштирилса, давлатимиз ва халқимиз олдида турган кўплаб муаммолар ўз ечимини топиб, юртимиз обод, турмушимиз фаровон бўлишига шак-шубҳа йўқ. Лекин очигини айтганда, жамиятимизда раҳбарлик фаолияти ва унинг самараси талаб даражасида эмаслиги аён бўлиб қолаётир. Бунинг ҳар хил объектив ва субъектив омиллари бор албатта. Субъектив омиллардан бири шуки, жамият аъзоларидан бир қисмининг онги, дунёқараши ҳали бошқарув фаолиятига тайёр эмасга ўхшаяпти. Раҳбарликнинг моҳиятини, мақсад ва вазифаларини тушунмаслик оқибатида айрим етакчилар ўз фаолиятига лоқайд муносабатда бўлмоқдалар. Баъзи кишилар эса боқимандалик кайфиятидан тўла қутулган эмас. Шу билан бирга, айрим раҳбарлар ўз ҳақ - ҳуқуқларини, бурч ва мажбуриятларини етарли даражада билмайдилар. Айниқса, бугунги кунда ҳар бир раҳбар жуда кўп соҳаларни, ҳар бир соҳанинг ўзига хос мураккаблиklarини яхши билиши, олдида қуйган мақсадини ҳис этиши, раҳбарлик маданияти ва этикасини чуқур англаши лозим.

Раҳбарлик тушунчасига қуйидагича таърифларни келтириш мумкин:

1. Раҳбар ижтимоий шахс сифатида ишлаб чиқарувчи кучлар ва ишлаб чиқариш ресурсларини бирлаштириб, унинг асосий ҳаракатлантирувчи кучини бошқарувчи сифатида омилкорлик билан иш юритувчи шахсдир.
2. Раҳбар ҳар қандай ишни амалга ошириш учун, аввало, мустакил қарор қабул қилади. Бу қарор раҳбарнинг тадбиркорлик, ишбилармонлик фаолияти мақсадини белгилайди.
3. Раҳбар ўз соҳасига янги ғоя, янги ташаббус, янги технологияларни жорий этувчи тадбиркор шахс ҳисобланади.
4. Раҳбар меҳнати, айти вақтда тадбиркорликка асосланган машаққатли фаолият ҳисобланади. Унга сарфланган куч, маблағ баъзан вақтинча фойда эмас, зарар келтириши, муассаса фойда ўрнига зарар ҳам кўриши мумкин. У бундай

ҳолатларни олдиндан кўра олиши ва бунга тайёр туриши, зарур бўлганда, фаолиятини қайта бошлаши, ўзида бунга куч-гайрат топа билиши лозим.

Ўзаро муносабатларда раҳбарларнинг бир-бирини тўғри тушуна олишига имкон бермайдиган, ҳар хил келишмовчиликларга олиб келадиган омиллар ҳам бор. Бундай тўсиқларнинг энг кўп учрайдиган уч хилини кўрсатиб ўтиш мумкин. Булар:

- 1) дастлаб кўришганда бир-бирини ташқи қиёфаси бўйича ўзидан устун кўриш ёки уни ёқтирмаслик;
- 2) шерик билан дастлабки мулоқотда унинг муҳим фикрларига қушилмаслик ва ҳоказо;
- 3) дунёвий тасаввурлари, мақсад ва мулоҳазалари, ижтимоий барқарорлиги мос келиши ёки аксинча ва ҳоказо.

Хуллас, жамоага раҳбар бўлиш жуда қийин. Жамоа кўпчиликини ташкил этади. Шундай экан, уларнинг фикри, дунёқароши, маънавияти, характери, руҳияти ҳам турличадир. Раҳбар уларнинг турли-туман, яхши-ёмон ишларини, албатга, кузатиб туриши керак бўлади, токи ҳеч бир иш уларнинг назаридан четда қолмасин. Агар раҳбар фақат бошқарув ишларию, ўз шахсияти билан банд бўлиб қолса, қўл остидаги оммани кузатишга бефарқ бўлса, унда бу раҳбардан воз кечиш лозим. Ўз муассасаси аъзоларининг хатти-ҳаракатларидан воқиф бўлмаслик жамоанинг бир неча тарафга бўлинишига олиб келади. Бундай раҳбар давлатга ҳам, жамоасига ҳам зарар келтиради.

Муаммонинг кўйилиши. Шахс тушунчаси психология фанида марказий уринни эгаллайди ва асосий психологик талкинлар шахс мавзуси атрофида амалга ошади.

Шахснинг турли таърифлари мавжуд, лекин бу тушунчани тулароқ акс эттирадиган куйидагиси уринли: «Шахс бу — узининг билими, ҳиссиёти ва муносабатлари орқали ташқи оламни узгартира олувчи субъект, инсондир». Эътибор берилса, ушбу таърифда шахсга хос уч жихат санаб утилади:

1. Билиш;
2. Ҳиссиёт;

3. Муносабат.

Шу уч гуруҳга кирувчи хислатлар ягона мақсадга, яъни ташки олами инсоннинг уз эҳтиёжига биноан узгартиришга қаратилган.

Ишлаб чиқариш шароитида инсон хулқини тушуниш ва уни бошқариш учун шахс табиати ҳақида маълум бир маълумотга эга бўлиш керак. Ташкилотда шахс узгалар билан муносабатга киришар экан, демак у турли ижтимоий гуруҳлар фаолиятида қатнашади. Шу муносабат билан шахс аъзо бўлган гуруҳ ва жамоаларга хос психологик қонунларни ҳам таҳлил этиш зарурати туғилади. Ушбу булимда эса айнан раҳбар шахси, унинг муваффақиятли бошқарув фаолияти учун хос ва зурур хислатлар ҳақида тухталиб утаммиз.

Бошқарув жараёнини психологик таҳлил этиш масаласи, авваламбор, раҳбарнинг фаолиятини такомиллаштиришни уз олдига мақсад қилиб қуяди. Мазкур мақсадни амалга ошириш учун раҳбарга қуиладиган талаблар, уларни бажаришга мойиллик ва бошқарув фаолиятини тулакони амалга оширишга туекдшлик қилувчи шахс хусусиятларини ўрганиш зарурати туғилади.

Раҳбар шахс ҳислатлари. Раҳбар шахси тушунчасини таҳлил этар эканммиз, унга хос хусусиятларни уч гуруҳга бўлиб ўрганиш таклиф қилинади:

Биографик тавсиф;

Кобилият;

Шахс хислатлари.

Раҳбар шахсининг биографик жиҳатларига унинг ёши, жинси, ижтимоий-иқтисодий мавқеи ва маълумоти қиради.

Раҳбар ёши. Бошқарув фаолиятини муваффақиятли амалга оширишнинг раҳбар ёшига боғлиқлиги ривожланган мамлакатлар тадқиқотларига асосланади. Аниқланишича, Япония қайта ишлаб чиқариш йирик компаниялари раҳбарларининг ўртача ёши 63,5 бўлса, шу тоифа америкалик раҳбарларнинг ёши 59 да экан. Япония йирик компания раҳбарларини ўрганишда учрайдиган ва таажжубланарли жиҳатлардан бири, уларнинг ёши улуғлигидир. Баъзи бир ташкилотларда (масалан, «Сони корпорейшн») компания президентининг ёши 65 деб чекланган бўлса-да, лекин кўпгина автомобиль соҳасидаги фирма

раҳбарларининг ёши 75 ва ундан юқорилиги ажабланарли ҳол эмас. Умуман олганда, Японияда ходимнинг корхонага бир умр ёлланиш тажрибаси қўлланади. Маълум бўлишича, юқори бўғин раҳбарларининг кўпчилиги ўз ташкилотда 30 йилдан ортиқ ишлайди. Бу соҳада ўтказилган тадқиқотлар шундан далолат берадики, катта ёшли раҳбарлар, агар уларнинг соғлиги кўнгилдагидай бўлса, ушбу ташкилот учун катта тажриба манбаидир. Раҳбарнинг улуғ ёши ҳақида гапирар эканмиз, нафақат унинг биологик жиҳати, балки, ижтимоий томони, ҳаётий тажрибасини ҳам назарда тутишимиз даркор. Зеро, «Қари билганни пари билмас», деб халқимиз бежиз айтишмаган.

Ёш раҳбар бошқарадиган ташкилотдаги ходимларнинг ўртача ёш кўрсаткичи кўпинча паст бўлади. Ёшлик (30-35 ёш атрофида) бу янгилик ва кашфиётларга мойиллик, ижодийлик, кўрқмаслик ва ўзгарувчан муҳитга мослашувчанлик билан ифодаланади. Афсуски, бундай ташкилотда катта ёшдаги (40-45 дан юқори) ходимларга, ҳатто, шубҳа билан қарашади. Лекин, аниқланишича, инсон 35-55 ёшларида ўз касбининг моҳир устасига айланади, ўз соҳасидаги билимни яхши эгаллайди ва ихтироларни жорий этишга ўзида иштиёқ сезади. Шу билан бирга, унда вазиятни совуққонлик билан таҳлил этиш, вазминлик кайфияти шаклланади. Албатта, ҳамма ёш раҳбар илғор технология тарафдори ва шунга мойил деб айтиш кийин, лекин ёшларга замонавийлик хос. Бу эса ўз навбатида, ёш раҳбарнинг замонавий ва илғор ишлаб чиқариш услубларига муурожаат этиш эҳтимолини кучайтиради. Халқимизда, ёши катта бўлса ҳам кўнгли ёш деган ибора бор. Демак, замонавий раҳбар ёшидан қатъи назар илғор технологиялар тарафдори, ташкилот миқёсида замонавий ишлаб чиқаришни жорий этишга қобилиятли бўлиши лозим. Бу эса ўташ даври талабидир.

RAHBARLIK USLUBLARI

Irisova Gulzoda Abdurahobovna
Namangan viloyati Kosonsoy tumani 19-maktab psixologi

Rahbarlik boshqaruv faoliyati sifatida. Har qanday boshqaruv ushbu jarayonning mukammal tarzda idora etish ehtiyojini sezadi. Shu maqsadda, tuzilma mas'ul boshqaruvchiga ega bo'lishi lozim. Tashkilotni tuzilma sifatida qabul qilarkanmiz, uning rahbari boshqaruvning aynan ikki asosiy funksiyasini ta'minlovchi shaxs sifatida tushuniladi. Tashkilot miqyosida tahlil qilinganda yuqorida qayd etilgan asosiy funksiyalar quyidagicha ifoda etiladi: Maqsadga yo'naltiruvchi funksiya - tashkilotni ma'lum maqsadga olib boruvchi vazifalarni mujassamlashtiradi. Tashkiliy funksiya - Tashkilot turli bo'limlaridagi mavjud imkoniyatlardan optimal darajada foydalanishdir. Rahbar ado etishi zarur bo'lgan asosiy funksiya va vazifalar tasviriy ravishda quyidagicha ifodalangan. Nazoratchi - Avtoritar(avtokratik boshqaruv uslubi):O'zi qaror qabul qiladi. U sinchkov, shafqatsiz, o'zini boshqaradi, hech kimga ishonmaydi, ko'pincha xushmuomala emas, tanqidni yoqtirmaydi, o'zini konformistlar, tor ijrochilar bilan o'rab oladi. Uning atrofida o'rtamiyonalik va yolg'onchilar. O'z vakolatlari doirasidagi ishlarni yomon boshqarish.

Nazoratchi - demokrat(demokratik boshqaruv uslubi).Mehnatni tabiiy jarayon deb hisoblaydi, Ochiqlik va ishonch muhitini yaratadi. Ish usullari: so'rov, maslahat, tavsiyalar. Nazorat holatida ijobiy tomonga urg'u beriladi. Talabkor, adolatli, xayrixoh, qattiqqo'l.

Nazoratchi - Liberal(liberal boshqaruv uslubi).Liberal uslub ruxsat beruvchi degan ma'noni anglatadi. Jamoani boshqarmaydi. Passiv, mavjud tartibni o'zgartirishdan qo'rqadi, "yuqoridan" ko'rsatmalardan qo'rqadi, javobgarlikni bo'ysunuvchilarga o'tkazishga intiladi, boshqaruv ishlariga va o'g'rilikka moyil. Ish usullari: - tilanchilik, ishontirish, nazoratsizlik, tanish-bilish, rasmiyatchilik.

Etakchilik uslublari

Boshqaruv nazariyasida etakchilikning bir necha uslublari mavjud. Etakchilik uslubi - rahbarning bo'ysunuvchilarga nisbatan xatti-harakatlari usullari to'plami.

Har bir menejer o'zining shaxsiy xususiyatlariga ko'ra o'ziga xos boshqaruv uslubiga ega. Biroq, shunga qaramay, ma'lum darajada yaqinlashish bilan bir nechta tipik etakchilik uslublarini aniqlash mumkin. Hayotda, qoida tariqasida, bu uslublar o'zlarining sof shaklida namoyon bo'lmaydi, bundan tashqari, menejer turli vaziyatlarda ularning bir yoki boshqa variantlaridan foydalanishi mumkin.

1. Avtoritar uslub bilan menejer bo'ysunuvchilar bilan munosabatlarning rasmiy xarakteriga sodiqdir. U o'z xodimlariga minimal ma'lumot beradi, chunki u hech kimga ishonmaydi. Birinchi qulay imkoniyatda u kuchli ishchilar va bo'ysunmaydigan iqtidorli odamlardan xalos bo'lishga harakat qiladi. Shu bilan birga, uning fikriga ko'ra, eng yaxshi xodim - bu boshliqning fikrlarini qanday tushunishni biladigan odam. Bunday muhitda g'iybat, fitna va qoralash avj oladi.

Shaxsiy xodimlar menejerga juda ko'p qarzdor. Biroq, bunday boshqaruv tizimi xodimlarning mustaqilligini rivojlantirishga yordam bermaydi, chunki bo'ysunuvchilar barcha muammolarni menejment bilan hal qilishga harakat qilishadi. Xodimlarning hech biri rahbarining muayyan voqealarga qanday munosabatda bo'lishini bilmaydi - u oldindan aytib bo'lmaydi, u bir ekstremaldan ikkinchisiga shoshiladi. Odamlar unga yomon xabar berishdan qo'rqishadi va natijada u hamma narsa o'zi xohlagandek bo'lib chiqdi, degan sodda fikrda yashaydi. Xodimlar rahbarning qarorida yoki xatti-harakatlarida jiddiy xatolarni ko'rsalar ham, bahslashmaydi va savol bermaydi.

Natijada, bunday rahbarning faoliyati qo'l ostidagilarning tashabbusini falaj qilib, ularning ishiga xalaqit beradi. U o'z atrofida salbiy muhitni yaratadi, bu boshqa narsalar qatorida o'zini ham tahdid qiladi. Qoniqarsiz bo'ysunuvchilar istalgan vaqtda o'z rahbarini ataylab noto'g'ri ma'lumot berishlari va oxir-oqibat ularni tushkunlikka tushirishlari mumkin. Bundan tashqari, qo'rqib ketgan ishchilar nafaqat ishonchsiz, balki kuch va qobiliyatni to'liq bag'ishlash bilan ham ishlamaydi, bu tabiiy ravishda ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi.

2. Demokratik rahbarlik uslubi (yunon tilidan demos - xalq va kratos - kuch). Bu uslub birinchi navbatda rahbarning emas, balki jamoaning tashabbusiga asoslanadi. Demokratik etakchilik uslubi, birinchi navbatda, jamoaviy faoliyat bilan tavsiflanadi, bu barcha xodimlarning amalga oshirish uchun rejalashtirilgan maqsadlarni muhokama

qilishda, vazifalarni aniqlashda va ularni hal qilish uchun ijrochilarni tanlashda faol va teng ishtirokini ta'minlaydi. Rahbar o'z qo'l ostidagilarga imkon qadar ob'ektiv bo'lishga harakat qiladi, jamoaning fikriga uning ishtirokini ta'kidlaydi.

Demokratik etakchilik uslubi o'zaro ta'sirni o'z ichiga oladi. Bunday holda, menejer va unga bo'ysunuvchi o'rtasida ishonch va o'zaro tushunish hissi paydo bo'ladi. Ammo turli masalalar bo'yicha xodimlarining fikrini tinglash istagi uning o'zi nimanidir tushunmasligi bilan izohlanmaydi. Menejer muammolarni muhokama qilishda har doim yangi qo'shimcha g'oyalar paydo bo'lishi mumkinligiga ishonch hosil qiladi, bu yechimni amalga oshirish jarayonini yaxshilaydi. Bunday rahbar, agar bo'ysunuvchining mantig'i ishonchli bo'lsa, o'zi uchun murosaga kelish yoki hatto qarordan voz kechishni uyat deb hisoblamaydi. Avtoritar rahbar buyruq va bosim bilan harakat qilsa, demokratik menejer ishontirishga, muammoni hal qilishning maqsadga muvofiqligini isbotlashga va xodimlar olishi mumkin bo'lgan imtiyozlarni ko'rsatishga harakat qiladi.

Ishni va jamoadagi vaziyatni yaxshi bilgan holda, u nazoratni amalga oshirishda ishning yakuniy natijasiga alohida e'tibor beradi. Buning yordamida mustaqillikni rivojlantiradigan bo'ysunuvchilarning o'zini namoyon qilishi uchun sharoit yaratiladi.

3. Liberal rahbarlik uslubi (lot. Hberalisdan - bepul). Ushbu uslub haddan tashqari bag'rikenglik, muloyimlik, talabchanlik, rozilik tendentsiyasini anglatadi.

Ushbu etakchilik uslubi xodimlarning individual va jamoaviy qarorlarini to'liq erkin qabul qilish bilan tavsiflanadi, shu bilan birga, o'z mohiyatiga ko'ra etakchilik funksiyalaridan voz kechadigan menejerning minimal ishtiroki. Odatda, bu rolni etarlicha malakali bo'lmagan, o'z rasmiy pozitsiyasining kuchiga ishonchi komil bo'lmagan odamlar o'ynaydi. Liberal menejer odatda faqat yuqori rahbarlarning ko'rsatmasi bilan keskin choralar ko'radi va yomon ishlash uchun javobgarlikdan qochishga intiladi.

Ob'ektiv ravishda, rahbar qaysi uslubni tanlagan bo'lishidan qat'i nazar, uning tanlovi uning harakatlarining yo'li va usulini tavsiflovchi ongli maqsad bilan belgilanadi. Bundan tashqari, uslubning boshqa ob'ektiv komponentlari ham mavjud. Bularga quyidagilar kiradi: boshqaruvning muntazamligi; muayyan faoliyat doirasining o'ziga xos xususiyatlari; menejerlar uchun yagona talablar; ijrochilarning ijtimoiy va psixologik

xususiyatlari (yoshi, jinsi, malakasi, kasbi, qiziqishlari va ehtiyojlari va boshqalar); boshqaruv ierarxiyasi darajasi; yuqori menejerlar tomonidan qo'llaniladigan boshqaruv usullari va usullari. Uslubning ushbu ob'ektiv shartlari menejer faoliyatidagi uyg'unlikni, ishlab chiqarish funktsiyasi va jamoadagi munosabatlarni tartibga solish funktsiyasini, unda shakllangan an'analar va aloqa usullarining tabiatini, shuning uchun ish uslubini ko'rsatadi.

YOSHLARNING MA'NAVIY TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Atahonova Muxayyo
Andijon viloyati Marhamat tumuni 8-maktab psixologi

Annatsiya : Yosharni ma'naviy tasurotlarini shakllanishida atrof muxit, oila, maxalla va maktabning ta'siri va yoshlarning orzu intilishlari, didi, dunyokarashi xissiy kechinmalarini tushunish, ularga yakindan yordam berish kerakligi makolamda yoritilgan.

Kalit so'zlari: O'qituvchi faoliyati, tarbiyachi, ota-onalar ma'sulyati, shaxs rivojlanish ko'nikmalari.

Kishilik jamiyatining taraqqiyotida yoshlarning ma'naviy-intellektual salohiyati muhim rol o'ynaydi.

Yoshlarning kamoloti uchun xalaqit berayotgan ijtimoiy-psixologik muammolarni ilmiy asosda o'rganish va ularni hal etish, yoshlarning orzu-intilishlari, didi, dunyoqarashi, hissiy kechinmalarini tushunish, ularga yaqindan yordam berish, mamlakatimizning istiqboli uchun katta ahamiyatga ega.

Turli psixologik tadqiqotlarga ko'ra, maqsad va unga erishish yo'llarini anglash o'rtasida muhim bog'lanish mavjudligi aniqlandi.

Inson o'zligini ro'yobga chiqarishi o'ziga bog'liq ekanligini qancha tez tushunib yetsa, u hayotga shunchalik chuqurroq qaraydi va oldiga muhimroq maqsadlar qo'yadi. Jamiyatimizda yoshlarni tarbiyalashda ular ruhiyatiga ezgu his-tuyg'ularni singdirish muhimdir. Bu tuyg'u biologik hodisa emas, balki ijtimoiy hodisadir. Chunki, bu tuyg'u insonning ma'naviy shakllanishi jarayonida voyaga yetadi.

Sivilizatsiyali taraqqiyot o'zining tub mohiyati bilan shaxslarni iqtisodiy va siyosiy jihatdan to'la zabt etishni emas, balki ma'naviy-ruhiy jihatdan zabt etishni, ularni ongli intizomga bo'ysundirishni, g'oya orqali boshqarish va faollikka undashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Psixologik yetuklikka ega shaxs turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarni hushyor baholay oladi. Bu hushyorlik amaliylik, voqelikni to'g'ri baholay olish, shaxsda o'zining yutuq va kamchiliklarini bilim, malaka va qobiliyatlarini yetarlicha obyektiv baholay olishda ham namoyon bo'ladi.

Bunday shaxs o'z hissiyoti, kechinmalarini yetarlicha yaxshi nazorat qila bilishi, ya'ni ichki intizomni yuqori rivojlanganligi bilan xarakterlanib turadi. Psixologik yetuklik boshqa odamlarning xohish, istaklari, kechinmalarini tushunish bilan ma'lum darajada bo'liq. Bu o'z navbatida muloqotning, hamkorlikning yaxshi yo'lga qo'yilishiga, oilada, turli guruhlarda ijobiy munosabatlarning o'rnatilishiga imkon beradi.

Yoshlarda psixologik yetuklikni shakllantirishda ko'rgazmali va og'zaki psixologik targ'ibot usullaridan foydalanishimiz mumkin. Ko'rgazmali psixologik targ'ibot usulidan foydalanish uchun bizga vatanparvarlik, totuvlik, mehribonlik kabi sifatlar aks etgan, yoshlar ruhiyatida chuqur iz qoldiradigan tarqatma materiallar plakatlar kerak bo'ladi.

Og'zaki psixologik targ'ibotning ma'ruza qilish, turli chiqishlar, hisobot berish, suhbat, uchrashuvlar o'tkazish, munozara shakllari mavjud. Jan Piaje «bolaning ijtimoiylashuvi» jarayonini o'rganar ekan, uning o'z tengqurlari bilan turli mavzularda qiladigan munozara yoki bahslari, undagi egoistik, shaxsiyatparastlik mohiyatini

susaytirib va shu tariqa o‘z-o‘zini anglash bilan bir qatorda o‘zgalarning mavqelarini anglash va o‘zida shaxsga xos sifatlarni o‘stirishni aniqladi.

Har qanday odamda buyuklikka intilishi bo‘ladi. Bunday intilish yoshlarni o‘z ustida ishlashga, o‘z faoliyatini va xulq-atvorini tahlil qilishga olib keladi. Bunda insonning tafakkur jarayonida o‘ziga o‘zi «Bugun men qanday bilim va tajribalarni o‘zlashtirdim?», oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish yo‘lida «Bugun men nima qildim va nimalarga erishdim?», o‘z ruhiy holatidagi o‘zgarishlarni aniqlash maqsadida «Bugun mening kayfiyatim qanday bo‘ldi, ruhim nimalarga moyil bo‘ldi?», boshqalarga yordam, xizmat ko‘rsatish maqsadida «Bugun men boshqalarga nima yordam berdim?», tetiklik va jismoniy bardamlik holatini saqlash maqsadida «Bugun mening ahvolim qanday bo‘ldi, men sog‘ligim uchun nima qildim?» kabi savollarni berish va o‘zini o‘zi taftish qilish har bir insonning umr boyligi bo‘lgan vaqtni tejashga o‘rgatdi. Inson kamoloti u vaqt tuyg‘usini egallagandan keyingina boshlanadi. Inson vaqtni his eta boshlagan paytdanoq o‘z-o‘zini nazorat qila boshlaydi. Kelajakka intilib yashayotgan shaxs o‘z vaqtidan samarali foydalanadi, o‘zida ma’naviy barkamollikni namoyon etadi.

Buyuk Suqrot o‘z falsafiy bahslarining birida o‘zlikni anglash haqida «avval o‘zingni bil» deb daovat qiladi. Demak, bilish jarayonida muhim bosqich yoki bilimning muhim oboyekti insonning o‘zidir. O‘zlikni anglash orqali insonning ma’naviyati shakllanadi.

Bolaning o‘z-o‘zini idrok qilishini uni ijobiy ishlarga yo‘naltirish orqali o‘stirish kerak. Bunda o‘quvchilar ijobiy tajriba orttirsin, ya’ni o‘ziga, oilasiga, guruhiga, jamoasiga manfaatli ish qilib, olqish olsin. Bolalarni jamoat ishlariga keng jalb etish amaliyotini kengaytirish, bu ishdan manfaatdorligini oshirish lozim. Bolaning o‘zini shaxs sifatida anglashi, o‘z ijobiy va salbiy sifatlarini tahlil qilishi, boshqa shaxslar ichida o‘z shaxsini alohida ajratish kabi muhim ijtimoiy - psixologik sifatlarni shakllantiradi. Bu esa shaxsda o‘z-o‘zini nazorat qilish tizimini yuzaga keltiradi.

Psixologik bilimdonlik shaxsni o‘z-o‘zini qo‘lga olishga, o‘z-o‘ziga buyruq berishga, o‘z-o‘zini qayta tarbiyalash va o‘z imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatadi.

Shaxs shakllanishining muhim shartlaridan biri-baholash qobiliyatining rivojlanishidir. Bu qobiliyat shaxsiy xarakter xususiyati hisoblanib, shaxsning ma’naviyati va har tomonlama rivojlangan bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi.

Har bir insonning ruhiy quvvati atrofdagilar ruhiy quvvati bilan bevosita bog‘liq ekan, yoshlarni ma’naviyatli inson bo‘lib kamol topishlarida o‘zi hamda o‘zgalarga to‘g‘ri va odilona baho berishga o‘rgatishimiz zarur.

Buning uchun o‘quvchilar bilan verbal va noverbal ijtimoiy psixologik treninglar, breynshtorminglar, davra suhbatlari o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Maqsadli treninglar yoshlarni ma’naviy jihatdan boyitishi, ularning nutqi va fikrlashini kengaytirish bilan bir qatorda, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Ayniqsa, yoshlar tashkilotlari, ma’naviyat va ma’rifat jamoat tashkilotlari, ta’lim muassasalari, maxalla, oila instituti o‘rtasida mustahkam aloqa bog‘lanishi kerak.

Yoshlarning qiziqishlari, hayotiy muammolari o‘rganilib, ular o‘rtasida ko‘proq suhbat, badiiy kecha, uchrashuv va muloqotlarni uyushtirish, turli xil to‘garak, sport seksiyasi, ilmiy tadqiqot uyushmalarini ko‘paytirish, tanlov, anjuman, munozara, bahs va boshqa ommaviy tadbirlarni tashkillash lozim.

Yoshlarning ma’naviyatini tarbiyalashda axloqiy qadriyatlardan foydalanish va bunda axloqiy ta’sir ko‘rsatish texnologiyasini joriy etish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.
2. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. T., 2010.
3. Fish Radiy. Jaloliddin Rumi. T., 1997.
4. Frankl Viktor. Chelovek v poiskax smysla Sbornik: Per. S angl. i nem (Obsh. red. L.Ya.Leontyeva. – M. Progress, 1990. – 368s. Il. – (B-ka zarubejnoj psixologii).

5. Xayrullayev M. Forobiy ruhiy proesslar va ta'lim-tarbiya to'g'risida.T., 2004.

INTERNATIONAL EVALUATION IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING SPECIFICATIONS OF PROGRAMS AND STANDARDS

*Saidova Mashhura G'ulom qizi,
Kuchkarova Dilfuza Dilmurod qizi
students of Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region,
Scientific advisor: Gaziyeva Saida Turgunovna
teacher of Tashkent Region Chirchik State Pedagogical Institute*

ANNOTATION

This article is an international assessment of online teaching of foreign languages in our country programs and standards, including IELTS, CEFR, PISA, specifics of international programs and standards such as ICILS, PIRSL, TIMSS and how effective they are in the application process, as well as the quality of education improving the quality and results achieved in international education through the youth of Uzbekistan tried to shed light on.

Keywords: International assessment programs and standards, PISA, PIRSL, IELTS, quality and efficiency, GMAT.

INTRODUCTION

The future of our planet, the well-being of our children, what kind of person they are due to maturity. Our main task is to develop the potential of young people to create the necessary conditions for its manifestation. Foreign of the President of the Republic of Uzbekistan in the Republic of Uzbekistan taking language learning activities to a qualitatively new level Resolution No. PQ-5117 of May 19, 2021 "On Measures to Exit" as well as organizational work to promote the study of foreign languages adopt a decision of the Cabinet of Ministers for the effective implementation of measures done.

METHODOLOGY

Within the framework of the implementation of the national program through this decision complex system of language teaching, ie harmoniously developed, educated, modern it is safe to say that a system has been created for the formation of a thinking young generation and the further integration of the republic into the world community. This is the most important thing the decision is great not only for the current younger generation but for all language learners is of great importance in teaching foreign language learners online international evaluation programs and standards also play a very important role. What is this that is, in overcoming the shortcomings and problems in teaching foreign languages online and key and leading to increase efficiency along with its strengths plays a role. International assessment programs and standards are world - renowned assessments systems, they have high melting and efficiency in teaching foreign languages has a special place for identification.

Implemented by the President in the renewing new Uzbekistan to the huge economic growth rates as a result of the ongoing reforms qualified personnel and leading specialists in all fields increasing demand further. This in itself is the interest of our students in the lessons to improve the quality of education and the attention of teachers to comprehensive education requires strengthening. The above requirements are very important for the education system development of education and science, as in most foreign countries advanced to improve the quality of education through assessment and monitoring means that experiences need to be brought into the field.

ANALYSIS AND RESULTS

Participation in international research on education quality assessment National reforming the education system, the content of education, training of teachers and their improvement of professional development programs and by specialists helps to create a new generation of textbooks. This is through international programs the results of the research show the quality of education in the country and its international standards allows you to draw conclusions about the place of the account. International research has a positive impact on the quality of national research in education shows.

National based on high economic efficiency at the level of international standards allows you to create an evaluation system. High by international standards creating a national evaluation system based on economic efficiency. International, involving leading experts from various organizations in Uzbekistan monitoring by our local experts through participation in research the culture of research will be developed, and the assessment of the quality of education will be brought into line with international standards. National education quality control at the level of quality of control materials used in international research allows you to develop. So what evaluation programs are available? They are:

PISA is an international program for assessing student achievement, PISA (English - Program for International Student Assessment) - in different countries 15 literacy of older students (reading, mathematics, natural sciences) and a program that assesses the ability to apply knowledge in practice. This program is every 3 years times. Originally developed in 1997 and first in 2000 an increase in the price of PISA by 50 points is an annual Gross Domestic Product (GDP) by 1%. The quality of students' knowledge in PISA monitoring is defined in 5 areas. The quality of students' knowledge in PISA monitoring is defined in 5 directions.

PIRLS is an international study that measures the level of reading and comprehension of a text.

TIMSS is an international school that studies the quality of mathematics and exact sciences in school monitoring. ICILS is like an international study on computer and information literacy. There are a number of international programs that improve the quality of education in developed countries It is widely used as a criterion for further development the GMAT (The Graduate Management Admission Test) is in English standardized computerized test, MBA to these business schools when applying to programs or other undergraduate programs in management preparation of candidates for further training in business and management allows you to objectively assess the level. IELTS, TOEFL IBT, GMAT, GRE, SAT International programs such as are also very important in teaching foreign languages online helps to overcome the achievements and shortcomings. Currently from GMAT used by more than 2,500 business schools around the world. Pass the GMAT potential centers are spread all over the world and all year

round for applicants is open during. GMAT features include: speech, writing and a general education test that tests mathematical skills. The challenge is the test is submitted in English and therefore requires a high level of knowledge of English does. To test the skills required in GMAT management designed.

However, this does not require special knowledge and narrow specialization areas the peculiarity of the GMAT test is that its results can be used to determine human potential in the process of studying in a business school success can be predicted.

CONCLUSION

Improving the quality of education in the state at this crucial time of acceleration and increase its effectiveness to further strengthen its future and as a text is equal to the drying of the foundation. Program more international reviews the uniqueness and high results obtained after testing is the whole world of this system how important it is for countries to apply it in their education systems indicates that.

REFERENCES

1. O,,zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so,,zlagan nutqidan. 2017.22-sentabr
2. "O,,zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o,,rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to,,g,,risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori.
3. WWW.CHISTENKOESCHOOL.RU
4. The GMAT Exam Advantage". The Official GMAT Web Site.
5. "GMAC Statistics". gmac.com. Archived from the original on May 4, 2012.
6. "GMAT™ Accepting Universities & Schools". Graduate Management Admission Council. Retrieved July 19, 2019.
7. "The GMAT Advantage". Archived from the original on July 15, 2013. Retrieved June 6, 2012

KICHIK MAKTAB YOSHIDA QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH

Muxammadjonov Aliyorbek Abduraxmon o'g'li
O'zbekiston Milliy Universiteti, Psixologiya yo'nalishi magistratura talabasi

Har qanday davlatning rivojlanishi ko'p jihatdan uning intellektual imkoniyati bilan belgilanadi. Chunki, intellektual imkoniyatlari yuqori darajada rivojlangan har qanday mamlakat barcha sohalarda doimo ilg'or bo'ladi.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, Vatanimiz kelajagi islohotlarning taqdiri va ularning natijalari, xalqimizning bilim darajasi davr talabiga va taraqqiyotiga qanchalik mosligiga, qanday mutaxassislar yetkazib berib, o'rnimizni egallashlariga bog'liqdir. Shuning uchun mamlakatimiz rahbariyati ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga, katta e'tibor qaratayapti. Shunga ko'ra, yuqori malakali kadrlar tayyorlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda.

Bugungi kunda yosh avlodni tarkib toptirish maqsad va vazifalari bolalarni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantirish, ularning ruhiyat, shaxsiy qobiliyatlari, intilishi va ehtiyojlarini qondirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, mustaqillik g'oyalariga sodiq holda voyaga yetib borishini ta'minlashdir.

Qobiliyatlarni tarbiyalash ko'p jihatdan jamiyatning ijtimoiy xarakteriga, uning ma'naviy tizimiga bog'liqdir. Respublikamiz o'quv yurtlari "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning sifat bosqichida qo'yilgan vazifalarni bajara borib, o'quvchi yoshlarni qobiliyat va iste'dodlarini tarbiyalab, bu soha rivoji uchun ta'limning zamonaviy yangi pedagogik texnologiya usullarini qo'llashmoqda, tarbiyaviy tizimni takomillashtirmoqda.

Bolalardagi ijodkorlik ularda iste'dod kurtaklarini rivojlantirishda jumladan, ijodiy qobiliyatini tarbiyalashda muhim o'rin tutadi hamda o'quvchilarning bilishiga bo'lgan qiziqishini amaliy faoliyati bilan birgalikda qo'shib olib borishni taqazo etadi. Zero o'quvchini amaliy faoliyatiga faol jalb etish uning bilishga bo'lgan qiziqishi va ijodiy qobiliyatini o'stirishga yordam beradi. Ijtimoiy hayot taraqqiyoti xalq ta'limi sohasidagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Hozirgi kunda o'qituvchilarning ilmiy, metodik tayyorligini ko'tarish, o'quvchilarning aktivligini oshirish kabi jiddiy masalalarni hal qilish talab etilmoqda. Ayniqsa, ta'lim sharoitini o'zgartirish jiddiy vazifa bo'lib

qoldi. Ta'limning mazmuni, tashkiliy formasini takomillashtirish, o'qitishda texnika vositalaridan, kompyuterlardan foydalanishga e'tibor berilmoqda. Bunday o'zgarishlar boshlang'ich ta'limda ham o'z aksini topishi kerak.

Boshlang'ich maktabda bolalarning ilm olish ko'nikmasi shakllanib, bilim uchun qiziqishga asos yaratildi. Bu mustahkam o'qish ko'nikmasi va malakasining ortishi kasblar haqidagi tushunchaning kengayishi, badiiy tasvirlardan ta'sirlanish, nutqiy ifodaning jozibali tomonlarga ko'ra bilish va his etish bilan bog'liqdir.

O'qish darslarida shu maqsadni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Isloh qilingan boshlang'ich maktabda o'qish darslari birinchi sinfda savodga o'rgatilgan paytda boshlanadi. 1-2-3-sinflardagi ta'lim jarayonida egallangan o'qish ko'nikmalari 1-sinfda yanada mukamallashtiriladi va yuqori sinflarda adabiyot kursini o'rganishda kasb tanlashda zamin hozirlab beradi.

Umumiy ta'lim maktablarida o'qitiladigan har bir predmet kichik yoshdan boshlab o'quvchilarni kasbga muhabbat ruhida tarbiyalash imkoniga ega bo'lishi kerak. Jumladan, o'qish darslarini ham kichik yoshdagi bolalarni kasbga qiziqish, unga muhabbat ruhida tarbiyalab borishi kerak.

Kasb tanlashga havas uyg'otish, unga mehr va muhabbat bilan yondashish jamiyatimizni rivojlantirish maqsadlari uchun ham nihoyatda zarur. Jamiyat har bir kishining o'z kasbiga mehr bilan kirishishini, qobiliyati va iste'dodini to'laroq namoyon qila oladigan joyda yuqori samara bilan ishlashi mumkin bo'lgan joyda mehnat qilishi bilan manfaatdordir. Kasb tanlashga yo'llashdan keng foydalanib har bir yosh insonning o'z yo'lini to'g'ri belgilash, o'z qobiliyati, mayl va ijtimoiy ehtiyojini hisobga olgan holda va ixtisos tanlashga yordam berish demakdir. Kichik maktab yoshi davrida ijodiy qobiliyatlarning namoyon bo'lishi va rivojlanishi manbalarda nazariy asoslab berilgan bo'lsada, bu borada olib borilgan yangi tadqiqotlar asosida yangi ma'lumotlar berilishi fan sohasini rivojlanishini ta'minlaydi.

Kichik maktab yoshi davrida ijodiy qobiliyatlarning xususiyatlari va uni shakllantirishning psixologik omillari manbalarda nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan bo'lib, bugungi kunda fan-texnikaning yangi bosqichida yangi yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sh.M.Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi boshqichga ko’taramiz” Toshkent : O’zbekiston, 2017.
- 2.Sh.Usmonov “Boshlang’ich sinf o’quvchilarida o’qish darslarida qobiliyatlarni o’stirish” Farg’ona,2017.-219-b.
- 3.Sh.Usmonov “ Aqliy taraqqiyotni rivojlanishi” “Актуальные проблемы психологии Узбекистана” nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.Toshkent-2018.-369-b.

LINGUISTIC HIGHLIGHTS OF THE WORDS RELATED TO FASHION IN ENGLISH AND UZBEK DIALECTS

Xushvaqtova Aziza Abdulla qizi
23-o'rta maktab o'qituvchisi Ingliz tili

Abstract:The article presents comes about of considering semantics of the word ‘fashion, custom, vogue’ in English and Uzbek dialects. It is appeared that in English society tongues this word has received semantic elaboration, diverse from the framework of its meanings within the scholarly dialect. It is composed by collectors of English lexicon in such implications as “custom/habit, model / test, outfit / attire, regard, law, appropriateness, measure” and others. Some of these implications don't exist in the English scholarly dialect. Semantic components of the word fashion are analyzed. It is demonstrated that they are distinctive in the literary word and its argument analogs. Those examining the fashion marvel and lexical agents indicate the following constituent signs: the social viewpoint, collective and mass character, demonstrate character, the social and regulative function. Those examining the mold marvel in its various manifestations and lexical agents indicate the following signs. During three ages of working within the English language, the word consistently fitted to the word system of the English dialect. In addition, a word, borrowed from the outside dialect, was received by English people

dialects, where it gotten semantic improvement distinctive from the system of implications of the scholarly dialect. At that point seems ‘new’, ‘temporary, transient’, ‘alien’ got leveled within the word fashion. In a folk culture, moda is displayed as a custom, a truth of day by day reality, customary due to a long time of presence and emphasis.

Keywords:ethno-linguistics; semantics; Russian dialects; fashion; custom

Humanities and social sciences have come to mutual consent in translating conception of fashion [design] as a social marvel. The meaning “individual propensity of a person” may be considered as an exemption, [He has fallen into habit of having no supper]), but a propensity is additionally caused by social environment. Those examining the design wonder in its various manifestations and lexical agents indicate the following constituent signs:

– social angle: “Fashion may be caught on as the most superficial and the foremost profound of social mechanisms” – collective and mass character which too result in conventional character of mold and its recognizing potential:

– collective and mass character which too result in conventional character of mold and its recognizing potential:

– meaning ‘fashionable fashion of dress, appear test of fashionable / fashion garments’ is protected in relentless / fixed combinations:

(Plural) [designs / fashion] ‘samples of garments, corresponding to most recent fashion’: [Pictures of Paris fashionable garments were shown on windows]; [She has mixed up all design / vogue magazines]

– meaning ‘design, brief inclinations in cutting out and wearing dress, hair fashion plan, extras and interior design’ actualized in overpowering lion's share of the word usage.

The meaning ‘attire, happy dress, piece of clothing, dress’ — in Uzbek people tongues head dresses, sarafans (sundresses) and dresses are called zamonaviy[fashion]. In such case, a word receives compatibility that's unconventional to designations of articles of dress – modaga xos kiyinmoq, zamonaviy libosli [put on, cover head with, to wear design], and others. So, here design could be a social recognition.

The meaning ‘custom as a portion of a rite/ceremony, ritual, tradition of organizing life of socium’, actualized in dialectic discourse, is somewhat near to the meaning ‘temporary tendency in organizing life’. Yet in this case moda [fashion] may be a social phenomenon which is eminent for long standing, stability, tradition. A component of a ceremony is frequently implied. Meaning ‘respect, specialist / prestige’, which the author finds conceivable to single out after the investigation of lingo speech records, is by one means or another brought into relationship with seem ‘popularity’; however, in this case both sign of broader audience as a subject of acknowledgment, and the thought of following popular standard are losing their significance. Integration into socium, taking possess put in it, and “social importance” come in the lead.

“Well, it’s only now that we, old people, are not in fashion”- “Xullas, deysizki, biz Yoshi kata keksalar endi zamondan orqadamiz”. Comments to relationship of thoughts «fashion» and «custom» are very distinctive: “The Uzbek have understanding of design as a custom, acknowledged as a model”; “There are more contrasts than resemblance between mold and custom.

And the foremost noteworthy of them is attitude towards innovations. On the off chance that there's a consistent alter of social models, and time in design is discrete, at that point in custom, time is continuous and an thing of culture, considered as a rule, is constantly replicated in an unchangeable form”. And truly, a few portion of tongue settings appears that a dialect speaker gives title moda [design] to foundations to come into being. In other words, [design] is called a phenomenon, having qualities of oddity and alienness, compare to shared projection of resistances “old / new” and “belief / fashion” in saying: eski ko'rinishda, ammunition yangi moda. [Concurring to ancient conviction, but modern fashion].

A list of implications mentioned-above does not reflect chronology of its semantic advancement: it is incomprehensible to determine it, since alliance of faculties happened in various territories and different ways. Amid three ages of functioning in the English dialect, which could be a comparatively brief period in the history of the improvement of the dialect, the word moda [mold] went consistently fitted to the word framework of the Uzbek dialect which is affirmed by a assortment of its meanings. In addition, a word,

borrowed from the foreign language, was embraced by English society tongues, where it received semantic improvement diverse from framework of meanings of the scholarly dialect.

Thought of a test, standard, according to which something is measured and reproduced, brought into circulation (things of dress are delivered, tastes and inclinations of bunches of individuals are molded, human behavior is shaped, custom or way of life of community is organized). Distinction between real to a town-dweller idea of design as something changeable, fluctuating, present day (that is a deviation from typical), and important for society, country culture of clarifying mold as something relentless, a few customs, tradition or a standard legitimate was as of now underlined in linguistic literature.

Used literature

1. O. Vostrikov, "Traditional culture of the Urals: ethno-ideographic dictionary of Russian dialects of Sverdlovsk region", vol. 3. Yekaterinburg: Sverdlovsk regional Folklore centre, Urals' literature agency, 2000.
2. "Novgorod regional dictionary". Saint Petersburg: Science, 2010.
3. "Pskov regional dictionary with historical references," vol. 18. Leningrad: Leningrad University Publishers, 2006.
4. I. Vepreva, "On linguistic reflection on vocabulary renovation of nowadays," Russian language today: active linguistic processes in the end of XX century, Moskva, 2003, pp. 402-421. (in Russian).
5. P. Larousse, "Universal Dictionary of the XIX century: French, history, geography, mythology, bibliography, etc.,": 15 volumes, vol.

ILK YOSHDAGI BOLALARDA JISMONIY TARBIYANING AHAMIYATI

Mirzakarimova Gulzoda Abdujabborovna
Mingbuloq tumani 17-maktab psixoligi

Har bir yosh davridagi bolalarni jismoniy tarbiyalash yuzasidan aniq vazifalarni, ish mazmunini belgilash ularning anatomic –fiziologik va psixologik xususiyatlarini xisobga olgan holda quriladi.

Ilk yoshda ayrim to'qimalarining tuzilishi va vazifalarda jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. Skeletning tog'ey to'qimasida suyak to'qimasida paydo bo'la boshlaydi. Umurtqaning egilishi ko'zga tashlanadi. Muskul va paylar zaif bo'ladi va juda sekin o'sadi, lekin ularning qisqarish xususiyatlari yaxshilanadi. Bola yuragining og'irligi ancha yosh o'sgan sari oshib boradi, uning urish hajmi yanada tezroq o'sadi. Bu esa modda almanishuvi jarayonlarining yuksak darajasini ta'minlaydi, faol harakatlar uchun imkoniyat yaratadi. Eng yuksak sur'at asb sistemasining rivojlanishida bo'ladi – asab tolalarining mielinizasiyayasi, miyaning tez o'sishi, analizator sistemalarining rivojlanishi, miyaning turli o'limlari o'rtasida aloqalar o'rnatilishi ro'y beradi.

Shu tariqa bolaning ruhiyatini, motorikasini, to'laqonli jismoniy rivojlanishni taraqqiy ettirish uchun zamin hosil bo'ladi. Bunda kattalarning to'g'ri tarbiyaviy ta'siri hal qiluvchi omil hisoblandi. Bola bir yoshga to'lguncha o'tadigan davrda quyidagi vazifalar birinchi darajali ahamiyatga ega bo'ladi:

1. Bolada butun muskullar rivojlanishiga, organizmi mustahkamlashga, hayotiy faoliyati umumiy darajasini oshishiga yordam beradigan jonlantirish umumlashmasini qo'llab quvvatlash .

2. Ozoda kiyinishning eng soda ko'nikmalarini tarbiyalash.3

3. Emaklab yurish, oyoqda turish, yurish va makonda harakatlanish bilan bog'liq bo'lgan boshqa soda harakatlar hosil bo'lishini ta'minlovchi muskul guruhlarini rivojlantirish va mustahkamlash.

4. Buyumlar bilan harakatlanganda qo'llarning ixtiyoriy harakatlarni rivojlantirish .

Xayotining ikkinchi va uchinchi yilida yurishda o'zlashtirish natijasida bolaning mustaqilligi, harakat faolligi ortadi va turmushdagi bir qancha harakatlarni egallash ro'y

beradi. Shuning uchun bolaning salomatligini muhofaza qilish, o'z vaqida jismoniy rivojlanish, chiniqtirish to'g'risida g'amxo'rlik qilish bilan birga quyidagi markazida bo'lishi kerak.

Ilk yoshidagi rejim-bolaning to'g'ri rivojlanishi va tarbiyalanishining asosidir. Hayotning dastlabki uch yili mobaynida rejim bir necha marta o'zgaradi. Uxlash va bedor yurish qonunlariga bog'liq ravishda tabaqalashtirilgan yosh rejimlari ishlab chiqilgan.

Bolalarning tug'ilgandankeyingi dastlabki oylarida ko'krak suti bilan boqish eng maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu paytda bolalar ovqatiga baliq, yog'I sabzavot va meva sharbatlari kiritiladi. 2 yoshga qadam qo'ygan bolalarni ovqatlantirish kichik guruhlarbo'yicha tashkil etiladi. Bolalar past bo'yli to'rt burchak stol atrofida o'tqiziladi. Bunda bolalar stulchalarda tirsakni qo'yish joylari bo'lishi kerak va tarbiyachi har bir bolaga yordam beradi.

3 yoshga qadam qo'yganda bolalar ovqatni faqat mustaqil emas, shu bilan birga tartibli eya oladilar. Ovqat eyish paytida vazuyat osoyishta bo'lish kerak. Bolaning hayotining dastlabki yilida 1,5-2 oylikdan boshlab uqalash va gimnastika har kuni yakka tartibda o'tkaziladi. 3 yoshli bolalar uchun ancha xilma-xil mashqlar tavsiya etiladi. Bolalar nutqning rivojlanishi, atrofdagi dunyo haqidagi tasavvurlarning kengayishi obrazli, taqlid qiluvchi harakatlardan foydalanish imkonini beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalik davrida bola organizimida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. 7-yoshga borganda u o'rtacha 120 sm gacha o'sadi, organlar va sistemalarda ancha morfologik va funksional siljishlar paydo bo'ladi. Umurtqa ancha zaif bo'lsa ham barcha egiluvchan qismlar, oyoqning tagi asosan shakllanib bo'ladi.

9 oydan 12 oygacha aksariyat mashqlar faol bajariladi, ayniqsa tanani bukish va to'g'rilash bilan bog'liq bo'lgan mashqlar faol bajariladi, ayniqsa tanani bukish va to'g'rilash bilan bog'liq bo'lgan mashqlar shular jumlasidandir. O'tirish, biron narsa ustidan hatlab o'tish, yurish bo'yicha faol mashqlar kiritiladi.

ФАРЗАНД ТАРБИЯСИ

Абдураимова Наргиза Мухторовна

Тошкент шаҳар Учтепа тумани 78-мактаб психологи

Қобилиятсиз бола бўлмайди! Шунчаки унинг қобилиятини йўналтиришга ёрдам беришимиз керак! Болани китоб ўқий олмаганлиги уни ҳеч ким эмас дегани эмас! Ҳарфларни кўшиб ўқий олмаслик фанда дислексия деб аталади. Бу бош мия паталогияси. Шундоқ ҳам ўқишга қийналаётган болангизни урушиб, камситиб сиз ҳам қийнаманг! Ундан кўра ёрдам беринг! Болада бунақа пайтда айбдорлик ҳисси, ишончсизлик, умидсизлик, тажовузкорлик, ўзидан қониқмаслик ҳислари пайдо бўлади!

Болага эътиборсилиқ натижаси.

Фарзандингиз узоқ вақт ўқий олмаса дарҳол мутахассисга олиб боринг!

Фарзандларимизни асраб – авайлаш, қўллаб- қувватлаш бизнинг фарзимиз!

Психологлари айтишича, ўсмир ёшдаги фарзандининг эътиборини ўзига қаратишни истаган ота-оналар имкон қадар камроқ гапиришлари керак экан.

Болага савол бергач, камида 3 сония сабр қилинг. Шунда тайинли жавоб оласиз. Нима тўғрию нима нотўғрилигини тушунтиришдан эринманг.

Агар ўргатишни истамасангиз, бола тажриба орттиргунча, сабр қилишга мажбурсиз! Танлов ўз қўлингизда! У билан катта одамлардек муомилада бўлинг. Ўзининг қанчалар керакли шахс эканлигини ҳис этишига имкон яратинг. Акс ҳолда ўсмир буни ҳис этишнинг бошқа, агрессив усулларида фойдалана бошлайди.

Фарзандингизга муҳим топшириқ беришдан аввал диққатини ўзингизга қаратиб олинг. Бунинг учун ўсмирнинг кўзларига қараб гапиринг. Шунда у айтганларингизни сўзсиз бажаради.

Ҳеч қачон инсонларга ном берманг. Инсонлар сиз берган номни оқлашга ҳаракат қиладилар.

Фарзандларингизга “қупол”, ёки “дангаса” деб ном берсангиз фарзандингиз доим дангаса, қупол номини оқлашга ҳаракат қилади.

Сиз ўзингиз айтгандек қупол, дангаса фарзанд яратасиз.

ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA TARBIYA VA INSONPARVARLIK MASALALARI

Qurbanova Mohira Saporbayevna

Xorazm viloyati Qoʻshkōpir tumani 52 - maktab ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi

Qomusiy bilimlar sohibi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy fan va san'atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlarini rivojlantirish bilan birga, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishga ham e'tibor berdi. U o'z «Xamsa»sida, «Maxbub ul-qulub» kabi yirik ta'limiy-axloqiy asarida, shuningdek, «Munojot», «Vaqfiya», «Majolis un-nafois», «Muhokamat ul - lug'atayn» kabi asarlarida Adurahmon Jomiyning “Arba'in” nomli asari tarjimasida «Chihil hadis («Qirq hadis)da tarbiyaga oid o'z qarashlarini ifoda etadi. Alisher Navoiy o'zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ta'limiy-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, usullarini bayon etdi.

V. Zohidov ta'kidlaganidek, «Navoiy ijodining, amaliy faoliyatining eng asosiy, markaziy masalasi, yo'nalish nuqtasi har narsadan oldin inson, uning taqdiri, baxti, saodati, uning yashashi, zarur jamiyat masalalaridir».

Alisher Navoiyning qarashlariga ko'ra inson tabiatan tabiat bilan bog'liq, shunga ko'ra xudoning mevasi sanaladi, chunki tabiatning o'zini ham Olloh yaratgan. Shuning uchun ham u hayotda hamma narsadan yuqori turadi, borliqning, butun mavjudotning bebaho boyligi sanaladi. Inson o'ziga xos xislatga, xulqqa, xatti-harakatga ega bo'lganligi uchun ham boshqa mavjudotlardan farq qiladi.«Bular xush ovoz bilan kuy kuylashdan, yoqimli soz chalishdan tortib, to do'stga vafodorlikkacha, ilm-u hunar o'rganib tog'ni tolqon qilishdan, tabiatni o'z manfaatlarini xizmatiga qo'yishdan, qahramonlikdan tortib,

to halol, o'z kuchi bilan mehnat qilib, shod-xurram yashashligacha, insofli, vijdonli bo'lishdan tortib, to qanoatli sabrli, matonatli bo'lishigacha, ozodlikni, hurlikni sevishdan tortib, to inson uchun zararli bo'lgan yomonlikni nafratga uchratishgacha, shafokatli, shafqatli, adolatli bo'lishdan tortib, to razillarga ayovsiz kurash e'lon qilishgacha, shirin so'zlikdan tortib, to ochiq ko'ngillikgacha, sofdillikgacha...», - namoyon bo'lmadi, deydi V. Zohidov yuqoridagi fikrini davom ettirib.

Shuning uchun ham Alisher Navoiy butun umri davomida yiqqan tajribasi asosida «Mahbub ul-qulub» («Ko'ngillarning sevgani») asarini yozadi va ana shu asarida o'zining «Hayrat ul-abror», «Nazm ul- javohir» va boshqa ta'limiy-axloqiy asarlaridagi axloqiy qarashlarini rivojlantiradi.

Uning mazkur asarni yozishdan maqsadi ham muqaddimada bayon etilgan: "har ko'cha-ko'yda yuguribman va olim ahlidan har xil kishilarga o'zimni yetkazibman. Yaxshi va yomonning fe'l-atvorini bilibman, yomon-yaxshi xislatlarni tajriba qilibman". Alisher Navoiy muqaddimada kishilarni ikki guruhga «munosib kishilar» va «nomunosib kishilar»ga bo'lib, hayotda inson ana shu nomunosib kishilardan o'zlarini tiyishi va yaxshi-yomonni ajrata olishda «Mahbub ul-qulub»dan foydalanishi zarurligini ta'kidlaydi. Demak, Navoiy hayot tajribalari asosida yoshlarni haqiqiy, komil inson bo'lishga undaydi va hayot saboqlaridan xulosa chiqarishda ushbu asaridan foydalanish mumkin, deydi.

Yaxshilik va yomonlikning aslini ham, zahrini ham tortib ko'rdim. Xasislar va karamlilar yetkazgan yara va bergan malhamni ko'nglim tag-tugi bilan sezgandirman. Zamon ahlidan ba'zi hamsuhbatlar va davr kishilaridan ayrim do'stlar bu hollardan xabarsiz va ko'ngillari bu yaxshilik va yomonlikdan asarsizdir... Bu xildagi hamsuhbat va do'stlarni xabardor qilmoq va bu hollardan ogoxlantirmoq lozim ko'rindiki, har toifaning xislatlaridan ma'lumotlari va tabaqaning ahvolidan bilimlari bo'lsin, keyin munosib kishilar xizmatiga yugursinlar va nomunosib odamlar suhbatidan tortinishni zarur bilsinlar va barcha odamlar bilan maxfiy sirlardan so'z ochmasinlar. Shayton sifatlar hiyla va aldovlariga o'yinchoq bo'lib qolmasinlar. Kimki har xil kishilar bilan suhbatlashish va yaqinlashishni havas qilsa, bu kaminaning tajribasi yoshlar uchun yetarlidir». Asar uch qismdan iborat bo'lib, Navoiyning o'zi ta'kidlaganidek, birinchi

qismi har xil toifa odamlar fe'l-atvori va ahvoli, kayfiyati; ikkinchi qism yaxshi fe'llar va yomon xislatlar xosiyati; uchinchi qism esa xilma-xil foydalar va hissalar ko'rinishi, ya'ni yaxshi fe'llar va xislatlarga oid tanbehlardan iboratdir. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'z davrining ilg'or, ma'rifat allomasi sifatida inson kamolotida ilm-fanning o'rni, aql va idrokning ahamiyati, aqliy tarbiyaning mohiyatini yoritib beradi.

Navoiy tasavvuridagi komil insonga xos bo'lgan eng yuksak fazilatlarga ijodkorlik, qobiliyat, ilm-fanga muhabbat ham kiradi. Chunki baxtli hayotga intilgan Navoiyning ijodkor, oqil, qobiliyatli, dono inson o'zining kuch-quvvatiga, aql-u zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong'ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsatadigan omil sifatida ta'riflaydi. Bu fikrni «Nazm ul-javohir» asarida:

Kim olim esa nuktada barhaq de oni.

Gar bazm tuzar bihishti mutlaq de oni.

Har kimsaki yo'k ilm anga ahmoq de oni.

Majlisdaki ilm bo'lsa uchmoq de oni.

«Hayrat ul-abror» dostonining o'n birinchi maqolatida ilmni shunday sharhlaydi: «Ilm sehrining baland axtarligidakim, jahl tunin yoritmoq uchun «ayn»i, quyoshdan «lom»i oydin va «mim» kunduzdin nishona aytur. Va jahl shomi tiyra manzarlig'idakim, g'aflat chohini zalolat kechasida zohir qilib, bu kechada saxovatdin fasona aytur. Va olimning bovujsai falokat quyoshdek sarv balandligi va johilning bovujsai ganj-u mol tufroq aro najandlig'i». Bunda arab tilida aynning ma'nosi quyosh, lomning ma'nosi esa oy bo'lib, yana lom shaklli oyga o'xshaydi va abjad hisobida «o'ttiz»ni bildiradi. Mim esa kunduz ma'nosini bildiradi.

Alisher Navoiy ilmni quyosh va oy hamda kunduzga o'xshatib, u insonni baxt-saodatiga eltadi demoqchi bo'ladi, ya'ni bu maqolat «ilm osmonining yulduzlardek baland martabaliligi haqidakim, bilimsizlik tunni yoritish uchun «ayn» quyosh, «lom» oy, «mim» kunduz belgilarini ko'rsatadi; bilimsizlik shomining qorong'i ko'rinishi haqidakim, g'aflat chaqini pastlik kechasida zohir qilib, bu kechada baxtsizlikdan hikoya aytadi; olimning butun baxtsiz vujudining quyoshdek yuksakligi joxilning esa butun borlig'i boylik, mol bo'lsa ham tuproqdek xorligi» haqida fikr bayon etadi.

Demak, Alisher Navoiy ilmni inson kamoloti uchun eng zarur fazilatlardan biri deb biladi. U ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta'riflaydi. Alisher Navoiy orzu qilgan komil inson ham faqat ilmi bo'lishi bilan qanoatlanib qolmaydi. Uni haqiqiy inson sifatida ta'riflashga yana sabr-qanoat, saxiylik, himmat, to'g'rilik, rostgo'ylik, tavoze', adab, ishq-vafo va hokozolar ham asos bo'ladi. Navoiy insonning axloqiy xislatlari-yaxshi fe'l-atvorlar xususida to'xtalib o'tar ekan, avvalo har bir insoniy fazilatning ta'rifini beradi.

U yaxshi fe'llarga qanoat, sabr, tavoze' va adab, ishq va vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko'ngillik (hilm) kabi xislatlarni kiritib, har birining ta'rifidan so'ng tanbeh va hikoyatlar vositasida o'z fikrini tomdiradi. Navoiy asarda mazkur xislatlarga ta'rif berish bilan birga, ularga qarama-qarshi bo'lgan yomon illatlardan qutulish yo'llarini bayon etadi.

Axloqlilikning eng muhim mezoni sanalgan odob haqida fikr yuritar ekan. «Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod bahramand bomadi. Adab kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi...» - deb ta'kidlaydi.

Demak, yaxshi xulq asosi - odob Navoiy tahsilida barcha insoniy xislatlarning boshlanishi sanaladi. Komil insonga xos xislatlar ana shunga bog'liq ravishda ta'rif beriladi. Zero, haqiqiy insonga xos xislatlar - qanoat, sabr, tavozu, ishq, vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, hilm (yumshoq ko'ngillik) xuddi shu odobli kishida tarkib topadi.

Masalan, «qanoat-buloqdir-suvi olgan bilan qurimaydi, xazinadir-naqdini sochgan bilan kamaymaydi, ekinzordir-urug'i izzat va shavkat mevasini beradi; daraxtdir-shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasi yetkazadi» - deb ifodalaydi.

Navoiy qanoatni tomdiruvchi insoniy fazilatlardan sabr, saxiylik, karam, muruvvat, himmat, bir-biriga hamkor va g'amxo'r bo'lishini, bularni inson shaxsini ulug'lashga yetaklaydigan, uni sof va pokiza inson darajasiga ko'taradigan xislatlar sifatida ko'rsatib o'tadi. «Sabr achchiqdir - ammo foyda beruvchi, qattiqdir - ammo zararni daf' etuvchi... Sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir.

Achchiq soʻzli nasihatchiday tabiat undan olinadi, lekin zaminda maqsad hosil boʻladi. Badxoʻr dori beruvchi tabibday kasal undan qiynaladi, ammo soʻnggida sogʻliq yuz beradi.»

Saxiylik esa insoniylikning haqiqiy mezoni sifatida taʼrif beriladi. Saxovatni Navoiy odamlarning mushkulini oson qilishda unga beriladigan minnatsiz yordam sifatida tushunadi va shunga daʼvat etadi. qimmatlilik, muruvvat, karam saxovatning tarkibiy qismlari sifatida yoritiladi. «Yaxshilik, karam-bir jabrlanganning qattiqchilik yukini koʻtarmoq va uni oʻsha qiyinchiliklardan qutqarmoqdir. Karam birovning mashaqqat tikani ogʻirligini koʻtarmoq va tikan uchidan guldek ochilmoq va oʻsha qilingan ishni qaytib tilga keltirmaslik, ogʻizga olmaslik, kishiga minnat qilmaslik va uning yuziga solmaslik», - deb, uning asl mohiyatini yoritib beradi. Muruvvatni esa ana shu «karamning urugʻ-avlodi, egizak qarindoshi, kimki bu xislatlarga ega bomsa izzat va hurmatga sazovor boʻladi», - deydi alloma. U karam va muruvvatni ota-onaga oʻxshatsa, vafo va xayoni egizak farzandlarga oʻxshatadi. Lekin alloma har bir qanday ehsonni saxiylik deb tushunmagan. Saxovat deb isrofgarchilik qilishni, minnatni qoralagan. Ularni (saxovat, himmatni) tor maʼnoda olmagan, aksincha, chuqur ijtimoiy maʼnoda, keng koʻlamda olgan, ularda, bir tomondan, aqliy, yirik didaktik qoidalardan, jamiyatni tuzatadigan vosita va odamlar ulugʻlangan tekinxoʻrlar qoralangan.

Demak, Alisher Navoiy oʻzining asarlari bilan bir qatorda, Ilmiy-axloqiy asarlarida oʻzi orzu etgan insonga xos axloqiy fazilatlar deb qanoat, saxovat, himmat, muruvvat, vafo, toʻgʻrilik, ilm, rostgoʻylik, tavozuʻ, adab va boshqalarni tushungan, ana shu xislatlar tarkib topgan insonda yomonlik, razillik boʻlmasligi, unday inson yashagan jamiyat ham ravnaq topishi, barcha xalq baxt-saodatga erishishi mumkin deb hisoblagan.

Adabiyotlar:

1. Hoshimov K, S.Ochil. Oʻzbek pedagogikasi antalogiyasi. T.: Oʻqituvchi, 2010.
2. Xasanboyev J, Toʻraqulov X., Xaydarov M, Xasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lugʻat. – T.: Fan va texnologiya, 2009.– 672 b.
3. Kaldbekova A.S Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashgʻulotlari. T.: 2013

- 4.A.Sohibov. Milliy pedagogika taraqqiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti”. 2004 yil.
- 5.Niyozov G‘. Axmedova M . Pedagoika fanidan seminar mashg‘ulotlari.T.: Noshir.2010.
- 6.Ismoilova Z. Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar.T.: 2001.
- 7.Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi 1993.
- 8.Pedagogika / O‘quv qoml. J.Hasanboev va boshq. – Toshkent: “Fan”, 2006.
- 9.O‘zbek pedagogikasi antologiyasi/Tuzuvchilar:K.Hoshimov,). – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2010.

O‘QUVCHILARNI KASB TANLASHLARIGA PSIXOLOGIK KO‘MAKLASHISH

Mirzaqulova Dilnoza Abdisattorovna
Qashqadaryo viloyati Nishon tumani 6-maktab psixolog

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarning kasb tanlash muammolari va ularga psixologik yordam ko‘rsatish haqida ma‘lumot berilgan.

“O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son qaror bilan respublikamizda uch bosqichli professional ta‘lim joriy etilishi talablarida belgilangan talablariga kompleks yondashish kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining samaradorligini ta‘minlaydi.

Shaxsning kasbiy shakllanishi va mutahassis sifatida kamolga yetishini uning hayot yo‘lidan ayri tasavvur qilib bo‘lmaydi. Psixologik adabiyotlarda ta‘kidlab o‘tilganidek, kishining kasbiy shakllanishi butun hayoti davomida kechadigan jarayon

bo'lib uning yoshiga hamda shaxsning taraqqiyotiga mos holda boradi. Kasbiy faoliyat sohasidagi muvaffaqiyat va mutahasissining mahorat darajasiga erishish sur'ati uning kasb tanlash motivlari bilan o'zaro aloqadordir. Kasb tanlash har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri. Kasb nafaqat daromad manbayi, balki inson umrining asosiy qismini sarflaydigan faoliyat hamdir. Kasb tanlayotgan shaxs undan talab qilinadigan bir qator jihatlarga ham alohida e'tibor qaratishi lozim:

- umumta'lim maktablarida beriladigan ta'lim darajalaridagi bilimga ega bo'lish;
- kasb tushunchasining ta'rifini, tabiatini, xususiyatlarini, kasblar sonini va turlarini bilishi;
- kasbni inson hayotida qanchalik muhim ekanini tushunishi, u haqda ma'lum bir tasavvurlarga ega bo'lishi;
- kasb tanlashga kerak bo'lgan idrok va xohishning bo'lishi;
- o'z maqsadi va manfaatini to'g'ri anglab olishi;
- kelajagi haqida tasavvurga ega bo'lishi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi kasb-hunarga yo'naltirish yakuniy ideal natijasi- bu har bir o'quvchida mustaqil va ongli ravishda kasbiy o'zlikni anglashning shakllanganligidir. Shaxsda kasbiy o'zligini anglash shakllanishini kasbiy mahoratning vujudga kelishidagi asosiy me'zonlardan biri sifatida quyidagi bir nechta bosqichlarga ajratish mumkin:

4. Kasblar olami haqidagi aniq ko'rgazmali tasavvurlarning paydo bo'lish davri. Bu Davr 2,5-3 yoshdan boshlanib 10-12 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Taraqqiyot davomida bolaning ongida kasblar olami haqidagi turli-tuman tasavvurlar shakllanib boradi. Boshlang'ich ta'limda esa yetakchi o'quv-biluv faoliyatida o'quvchining kasblar haqidagi tasavvuri yanada kengayib boradi.

5. O'zini kasbiy bilish davri. Ko'plab kasblar haqidagi tasavvurlarni o'zlashtirib olgach, o'quvchi ularni u yoki bu shaklda qo'llay olishi kerak. Kasblar haqida yetarli bilim, ko'nikma va tayyorgarlikka ega bo'lmaganliklari sababli ba'zi o'quvchilar o'zlarini biror kasbiy sohada namoyon eta olmaydilar. Biroq, ularda yangi yetakchi faoliyat tengdoshlari bilan muloqot jarayonida o'zini bilishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchli namoyon bo'ladi.

6. O'zini kasbiy aniqlash davri. Ushbu bosqichda kasbiy o'zligini anglash yakunlanadi. Bu davr maktabni tugatgandan keyin ham davom etishi mumkin. O'quvchida kasbni o'rganishning aniq yo'nalishi, barqaror qiziqishlar, kasbning talablariga mos bo'lgan shaxs xususiyatlarining shakllanishi kuzatiladi.

Yoshlar o'z kelajagini anglagandagina, qiziqish va manfaatlarini anglab olgandagina, hayotidagi ehtiyojlarini tushungandagina kasb tanlashi oson kechadi. Kasb insonni boquvchi asosiy omil va hayotini tashkil etuvchi asos hisoblanadi. Bu asosni tanlashda beriladigan quyidagi tavsiyalar va bir qator jihatlar foydadan holi bo'lmaydi.

O'quvchilar uchun tavsiyalar:

-o'zingizda qaysi kasbga moyillik va qiziqish yuqori ekanini psixologik testlar orqali birlamchi bosqichda aniqlab oling (bunda maktab psixologi sizga yaqindan yordam beradi);

-turli kasbiy yo'nalishlar istiqbolli soha va mutahassislik to'g'risida bilimlaringizni mustahkamlab boring;

-9-sinfdan boshlab asta-sekin o'zingiz tanlagan yo'nalish bilan tanishish maqsadida institut va universitetlarda o'tkaziladigan "ochiq eshiklar kuni"da ishtirok eting;

-adabiyotlar, onlayn platformalardan yangi kasb sohalari haqida ko'proq ma'lumot oling;

-istaklaringiz, qiziqish va qobiliyatlaringiz, salomatligingiz va maqsadlaringizni muvofiqlashtiring;

-imkoniyat bo'lsa kasb tanlash bo'yicha malakali mutahassis bilan maslahatlashing;

-tanlayotgan kasbingizdan sizga keladigan moddiy daromadni emas, balki undan olishingiz kerak bo'lgan ma'naviy ozuqani ham hisobga oling.

Ota-onalar uchun tavsiyalar:

-qanday kasb tanlashni farzandingizni o'ziga qo'yib bering;

-siz tomoningizdan berilayotgan maslahatlar zarur va foydali, lekin ular yakuniy qaror bo'lmasligi yordamchi ta'sir bo'lishiga e'tibor qarating;

-farzandingizni qiziqish, qobiliyat va layoqatini yoshligidan kuzatib, rivojlantirib boring;

-farzandingizni istak va maqsadlari bilan o'rtoqlashing;

-farzand otasi yoki onasining kasbini davom ettirmoqchi bo'lsa bu juda yaxshi, lekin bunga uni siz majburlamang;

-farzandingizni kasb tanlashi va kasbiy yetuklikka erishishi uchun iloji boricha yetarli sharoit yaratib bering;

-farzandingiz kasb tanlashida o'z imkoniyatlari va shaxsiy sifatlaridan kelib chiqishi to'g'risida maslahatlar bering.

Bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan kasbiy yo'nalishi yoshlarda hozirgi iqtisodni, menejment boshqarish nazariyasini, bozor muhitidagi marketing faoliyati va mo'ljalni, patent olishga kirishni, ma'lumotlarni bilishi va ularni mohiyatini tushunish- buning uchun informatika va informatsiyalar asoslarini egallagan bo'lishlari kerak bo'ladi.

O'smirni kasb tanlashida o'zini aniq maqsadlarini anglab olishi va kasbga ega bo'lishga intilishi- bu ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Bunda 3 ta asosiy omillar birlashishi va ularga moslashishi kerak bo'ladi. Bular:

Men xohlayman, Men eplay olaman, Men qila olaman omillaridir.

"Xohlayman" -bu shaxsning intilishi, qiziqishi, xohlashi.

"Eplay olaman" - bu insoniy imkoniyatlar (fiziologik va psixologik, shuningdek shaxsning ta'lim resurslari).

"Qila olaman"-mehnat bozorining ehtiyojlari, insonni jamiyat, odamlar, oilasi va shu kabilar oldidagi majburiyatlari.

Asosiysi tarbiyachi bo'lgan ota-onalar o'z bolalariga kasb tanlashida yordamchi hisoblanadilar. Ular bilan ochiq suhbat bolalar qaysi kasbga qiziqishlarini bilib olishlari va ularga yordam berishlari zarur. Agar bola tanlagan kasb ota-onaga yoqmasa uni ra'yini qaytarmagan holda nima uchun bu kasbni tanlagani va buning asosida nimalar yotganini bilib olishlari zarur.Asosiy omilni bilib olgach, o'z maslahatlarini berishlari mumkin bo'ladi. qo'llab -quvvatlash, ishonch bildirish va o'z maslahatlarini berishdan iborat.

O'qituvchi va o'quvchi faoliyatining natijasi bu kasbga yo'natirishda yaqqol ko'zga tashlanadi. O'qituvchi faoliyatining natijasi o'quvchilardagi psixologik ko'rinishda o'z aksini topadi, ya'ni ularning bilimlarida, uddalay olishlarida, malakalarida, shaxsga xos tomonlarini ko'rinishida, dunyoqarashlarida, ma'naviy ehtiyojlarida o'z aksini topadi.

O'quvchilar faoliyatining natijasi- bu aniq bir kasbni tanlab olishlarida, uni bajarishni uddalay olishlarida, shu sohani olib borish imkoniyatlarida ko'rinadi.

Unutmang, inson kasbida jon saqlashi emas, balki shu kasbda yashashi kerak. Shundagina qilayotgan ishi haqiqiy sevimli kasbi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. E.G'.G'oziyev. K.K.Mamedov "Kasb psixologiyasi". Toshkent 2003
2. F.R.Abduraxmonov. Z.E.Abduraxmonova. "Kasb psixologiyasi". Toshkent 2018.
3. Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari, sabab va yechimlari. Maqolalar to'plami.Toshkent. 2020.

МАКТАБ ПСИХОЛОГЛАРИ ТОМОНИДАН ПЕДАГОГИК ЖАМОАГА КЎРСАТИЛАДИГАН ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИНГ АЙРИМ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ АСОСЛАРИ

*Исмаилова Шаҳзода Шермухамедовна
Норин тумани 35-мактаб психологи*

Аннотация: мазкур мақолада мактаб психологлари томонидан педагогик жамоага кўрсатиладиган психологик хизматнинг айрим назарий ва амалий асослари кўриб чиқилади ҳамда мактаб психологлари томонидан педагогик жамоага кўрсатиладиган психологик хизматнинг самарасини ошириш бўйича амалий тавсиялар берилди.

Калит сўзлар: таълим, психологик хизмат, мактаб психологи, педагогик жамоа, педагоглар билан ишлаш алгоритми, амалий психология.

Ўзбекистонда психолог лавозими таълим тизимида киритилганидан буён 30 йилдан ошди. Лекин, ҳамма ўқитувчи ёки раҳбарлар ҳам психолог ким ва у нима иш қилиши кераклиги ҳақида етарли тасаввурга эга эмас.

Бир неча таълим муассасаларида ўтказилган сўровномаларда ўқитувчилар ва тарбиячилар мактабда психолог бўлишини керакли, деб ҳисоблайдилар. Лекин унинг ишидан қониқмаганлар ҳам кўп.

Кўпчилик педагоглар ўртасида психологнинг таълимдаги роли ҳақида нотўғри фикрлар юради. Уларнинг ўйлашича, психолог бир ўзи худди сеҳрли таёқчани бир силикииши билан иккичи болани ўзлаштирувчига, қитмир ва тўполончи болани итоатли ва гапга кирадиган болага айлантириб қўяди, ўқув мотивациясини кўтара олади, деб ўйлашади ва ҳоказо. Психолог эса, ҳаммадан кўра кўпроқ ўқитувчилар билан ишлаш мураккаблигини билади. Педагоглар ўзларига нисбатан танқидга чидай олишмайди, ўзига баҳо беришлари юқори ва бир вақтнинг ўзида паст, ўзгаришларга мослашмаслик, ёпиқлик, заифлик уларга хос. Шунинг учун психолог ўқитувчиларни забт этиб олиши керак, аввалига ўзига эмоционал яқинлаштириб олиши керак, кейингина педагогларга нималарда ва қандай фойдали бўлиши мумкинлигини етказиши керак.

Айниқса, психолог педагогнинг ўзаро муносабатлари учун диагностик ишлар жуда муҳим – деярли барча психологлар ўз ишини шу фаолият орқали ташкил қиладилар. Психолог томонидан диагностика натижалари тақдим этилганда, ўқитувчилар қисқа давр ичида бола тўғрисида шунча маълумот олиш мумкинлигига ҳайрон қоладилар, у ёки бу хулқ сабабларини кўра бошлайдилар. Ўзларини ўйлантирган саволларга жавоблар топганларидан ҳурсанд бўладилар, масалан, бола нега ёмонроқ ўқий бошлагани, яхши эслаб қолмаслиги, бир жойда ўтира олмаслиги каби. Бундай маълумотлардан ўқитувчи деярли қониқади. Авваллари ўқувчининг камчиликларини ўз ҳисобига ёзилаётган бўлса, психолог ёрдамида буларнинг аниқ сабабларини тушуниб боради.

Лекин эртами-кеч бу қониқиш йўққа чиқиб боради ва педагог қуйидаги саволни юзага келтиради: “Бу билан нима қилиш керак энди?” Ана шу жойидан қийинчиликлар бошланади. Ўқитувчи энди психолог унга юзага келган масала юзасидан, масалан, тарбияси оғир болалар билан ишини осонлаштирадиган нималарнидир айтади ва ҳатто, ундан ҳам яхшироғи, ўзи барча муаммоларни ҳал қилади, деб ўйлайди. Лекин психолог ўқитувчи билан ҳамжиҳатликсиз

муваффақиятга эриша олмайди. Биринчидан, психолог бола билан ҳафтасига 1-2 марта шуғулланиши мумкин, ўқитувчи эса у билан ҳар куни ва жамоада мулоқот қилади. Иккинчидан, ўқитувчи – психологга қараганда аҳамиятлироқ шахс, ва у томонидан, айниқса синфдошлар олдида айтилган сўз кўпроқ вазнга эга учинчидан, ўқитувчи ва ўқувчи мулоқоти таълим жараёнида амалга оширилади – бу ҳам катта аҳамиятга эга. Ўқитувчи томонидан билдирилган ножоиз танбеҳи билан психолог томонидан қилинган барча ишларни йўққа чиқариб юбориши мумкин.

Мактабда янги педагогик технологияларни эгаллаш учун хатто барча шароитлар яратилган бўлсада, бошқа турдаги қийинчиликлар ҳам мавжуд – ўқитувчиларнинг шахсий муаммолари. Масалан, ўқитувчи – авторитар шахс, баланд овозда гапиради, рағбатлардан кўра танбеҳларни афзал билади, ўқувчи эса – кўнгли нозик қиз, ўқитувчисининг юқори овозини жазолашдек қабул қилади, ўзини йўқотиб қўяди, топшириқларни бажаришдан бош тортади. Ақлий ривожланиши нормада бўлсада, ушбу фан бўйича ўзлаштиришда орқада қолади. Бу ерда нима иш қилиш керак? Ўқитувчи (айниқса салобатли педагогик стажга эга бўлса) ўз хулқини ўзгартиришга рози бўладими? Кўнмаслиги кўнишидан аниқроқ – ҳар бир ўқувчи учун ўзини ўзгартирмаслигини, ундан кўра яхшиси бу қизча ўзини ўзгартирсин, деган позицияда туриб олади.

Янги иш бошлаган мактаб психологи кўпинча қуйидаги ҳатоликларга йўл қўяди: мутахассис ёки педагогик коллективга ўз дастурини, билимларини мажбурлаб сингдиради (бунга зарурат йўқ, албатта) ёки сўровлар бўйича ишлай бошлайди (кимга керак бўлса, ҳаммага). Ҳар иккала вазиятда ҳам психологнинг касбий ўзини англаши (эътироф этиши) тўхтаб қолади, ишларининг самарлилиги йўқолади.

Хулоса сифатида айтишимиз мумкинки, психологнинг педагогик жамоа билан олиб борадиган иши унинг ўқувчи-ўқитувчи-ота-она тизимида боғловчи ришта саналади. Психолог таълим-тарбия жараёнини ташкил қилишда ҳамкорлик қилиши мумкин, тарбияси оғир ўқувчилар билан ишлашда тавсиялар бериши мумкин. Кўпчилик педагогларда эмоционал ёниш, нерв-психик барқарорликнинг пастлиги, сурункали чарчаш синдроми кабилар кузатилиши ҳеч кимга сир эмас.

Шу туфайли педагогларни психологик қўллаб-қувватлашга алоҳида эътибор қаратиш лозим релаксацион, юқори эмоционал зўриқишни олдини олишга қаратилган техникалар.

Яна бир аҳамиятга молик жиҳат шундан иборатки, турли изланишлардан маълум бўлишича, кўпчилик ўқитувчиларда уларнинг касби фаолиятлари учун муҳим бўлган эмпатия, бошқа инсон шахсига ҳурмат, самимийлик каби характеристикалар ривожланиши паст даражада. Бу маълумотлар ўқитувчиларда ўқувчилар билан унумли ва ижобий мулоқотни ривожлантиришга қаратилган ишларни талаб қилади. Бундай тайёргарликлар натижасида дарс жараёнларини унинг ҳар бир иштирокчиси учун чуқур маъно билан тўлдирилган инсоний мулоқот сифатида қабул қиладиган бўлиши керак.

Ҳозирги замон психологлари ва педаголарининг педагогик меҳнат психологияси, касбий ривожланиш психологияси соҳасида олиб борилган тадқиқотлари интерактив методлар ёрдамида жадал таълим самарали бўлишини исботлаганлиги сир эмас. Ижтимоий ўзаро муносабатлар (интерактив методлар демак) замонавий мактаб ўқитувчиси шахсий мотивациясининг қадриятларга йўналган мазмунда шаклланишига шунингдек, инновацион фаолиятга йўналтиришда психологик оқартув фаолияти сифатида фойдаланиш аҳамиятга эга. Маълум бўлишича, интерактив методлар айнан шахс фаолияти ёки шахс йўналганлигини ривожлантириш концепциясида ўринли бўлиб, реал таълим амалиётида қўллашга имкон беради. Психотерапия ва консультациялар, биринчидан, инсонга ўзини компетентлироқ ҳис қилишга ёрдам берса, иккинчидан, ўзгалар билан муносабатларини яхшилашга, пировард натижада нафақат ўқитувчининг ўзига, балки у таълим бераётган болаларнинг ривожланишига ҳам ижобий таъсир кўрсатиши аниқ.

Адабиётгар рўйхати:

1. Алферов А.Д. Опыт и проблемы повышения психологической компетентности учителя // Вопросы психологии. 1987.

2. Алферов А.Д., Луговой Е.А. Учитель в системе психологической службы в школе // Вопросы психологии. 1985.

3. Амонашвили Ш.А. Единство цели: Пособие для учителя. М.: Просвещение, 1987.

МАКТАБДА ГИПЕРАКТИВ БОЛАЛАР БИЛАН ОЛИБ БОРИЛАДИГАН ИШЛАР ВА УЛАРНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШ: МУАММО ВА YECHIMLAR

Shokirova E'zozaxon Ibrohimovna
Chust tumani 59-maktab psixologi

Annotatsiya. Hozirgi kunda giperaktivlik bu ko'pgina bolalarda o'zini namoyon qiladigan, ularning jamiyatdagi to'liq moslashuviga xalaqit beradigan hodisalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Turli statistik ma'lumotlarga ko'ra, bolalarning 2,5 dan 18 foizigacha bu kasallikdan aziyat chekmoqda. Bunday bolalar, vaziyatdan qat'i nazar, har doim yugurib yurishadi, bezovtalanishadi, bemalol harakat qiladilar va ba'zi hollarda uzoq vaqt narsalarga e'tibor berolmaydilar. Shunday qilib aslida bolalarning giperaktivligi nima, uni qanday yengish kerak va nima qilish kerak yoki nima qilish kerak emas kabi savollarga javob topish, ularning yechimlari haqida fikr yuritishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Kalit so'zlar: Giperaktivlik, xotira, chaqqonlik, pozitsiya, bezovta bola, sindrom, kompleks.

Giperaktivlik nima va u bolalarda qanday bo'ladi?

Ko'plab psixolog olimlar giperaktivlik tushunchasini odamning qo'zg'aluvchanligi va faoliyati normadan sezilarli darajada oshib ketadigan holat sifatida izohlashmoqda. Agar bunday xatti-harakatlar boshqalar uchun muammo tug'dirsa, haddan tashqari faollik ruhiy kasallik deb tasniflaydilar. O'tgan asrning oltmishinchi yillarida shifokorlar haddan tashqari motorli harakatni miyaning minimal buzilishlaridan kelib chiqadigan patologik holat sifatida aniqlab, saksoninchi yillarida giperaktivlik mustaqil kasallik sifatida atala

boshlandi. Agar hodisa buzilgan diqqat bilan birga bo'lsa, kasallik DEHB deb ataladi - "diqqat yetishmovchiligining giperaktivligi buzilishi" deya izohlanadi.

Shu bilan birga, o'g'il bolalar giperaktivlikdan qizlarga qaraganda 4-5 marta tez-tez uchrashar ekan. Bu yigitlarning kattaroq bo'lib tug'ilishi va keyinchalik miyalari kamolga yetishi bilan bog'liq bo'lib, bu tug'ilish yoki ichi bo'sh jarohatlar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Simptomlar odatda ikki yoshdan uch yoshgacha namoyon bo'la boshlaydi. Ammo, ota-onalar shifokorlarga murojaat qilishganda esa bolaning yoshi 10-12 ga yetgan bo'ladi. Buning sababi shundaki, agar hayotning birinchi yillarida bu muammoga e'tibor qaratilmasa bolaning ruhiy konsentratsiyasi chalkashib ketadi va maktab davrida o'ta mustaqil shaxs sifatida o'zini namoyon qila boshlaydi.

1. Bolalarda giperaktivlik namoyon bo'lishining asosiy sabablari

Ayni dam bolalarda giperaktivlik sindromini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ko'plab nazariyalar mavjud bo'lib ular orasidan eng ma'qul ko'rilganlarini keltirib o'tamiz:

- Eng avval- irsiyat. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, bolalari faolligi oshgan ota-onalarning 57 foizi bolalikda xuddi shunday alomatlardan shikoyat qilishadi. To'g'ri, ba'zida bunday oilalarda boshqa muammolar ham kuzatiladi, masalan, assotsial psixopatiya, affektiv kasalliklar yoki jiddiy allergik kasalliklar (astma, ekzema), spirtli ichimliklarni iste'mol qilish va chekish.

- Intrauterin gipoksiya. Xomilaning kislorod ochligi miyaning organik shikastlanishiga olib kelgan holatlar evaziga

- Homiladorlik paytida shikastlanishlar. Bu nafaqat jismoniy shikastlanish balki psixologik ham bo'lishi mumkin.

- Bolaning erta yoki qiyin tug'ilishi

- Tug'ilishdagi shikastlanish.

- Jiddiy infeksiyalar yoki hayotning birinchi yillarida shikastlanishlar, surunkali kasalliklar.

- Noto'g'ri yoki yomon ovqatlanish, qo'rg'oshin bilan zaharlanish, ovqatlanish etishmovchiligi.

2. Maktabda giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan tadbirlar

Maktabda haddan tashqari faol bolalar bilan ishlash ham oson emas, ammo bunday bolalar ham o'ziga xos jozibali xususiyatlarga ega. Maktabdagi giperaktiv bolalar yangi spontan reaksiya bilan ajralib turadi, ular osongina ilhomlanib, o'qituvchilarga va boshqa tengdoshlariga doimo tayyorlik bilan yordam berishadi. Psixologlar fikrich giperaktiv bolalar mutlaqo tuzalib ketishmas ekan. Shuningdek, ular tengdoshlariga nisbatan ko'proq bardoshliva boshqa bolalarga qaraganda kasalliklarga moyil ham bo'lishadi. Bunda maktab amaliyotchi psixologi tibbiyot hodimasi bilan maslahat uyushtirgan holda davolashlari kerak bo'ladi. Giperaktiv bolalar ko'pincha juda boy tasavvurga ega bo'lganligi uchun, o'qituvchilarga bunday bolalar bilan ularning harakatlarining sabablarini tushunishga va o'zaro munosabat modelini aniqlashga harakat qilish uchun tegishli xatti-harakatlar strategiyasini tanlashni tavsiya etish zarur. Bolani yuqori faollik bilan tarbiyalash juda ko'p narsani talab qilmaydi, boshqacha qilib aytganda, ota-onalarga o'zlarining xatti-harakatlarida o'rta pozitsiyaga rioya qilishlarini uqtirish lozim va ular juda yumshoq bo'lmasligi kerak, lekin bolalar bajarolmaydigan haddan tashqari talablar ularni jazolar bilan birlashtirib, ularni oldini olish kerakligini psixolog ota-ona bilan hamkorlik davrida aytib o'tishi maqsadga muvofiq. Yuqorida aytilganlarga qo'shimcha ravishda, giperaktiv bolalar bilan tuzatish ishlari ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, o'z potentsialiga ishonch hosil qilishdan iborat.

Xulosa

Giperaktiv bola - bu xulq-atvor va nevrologik kasalliklar bilan ajralib turadigan bola. Va biz psixologlar buni davolashimiz kerak. Agar bunday bolalar davolanmasa, ularning alomatlari ularning tarbiyasi va hayotining deyarli barcha sohalariga salbiy ta'sir qiladi va bu aqliy, ijtimoiy va maktabdagi ko'plabmuammolariga olib keladi. Ilgari, jamoat va tibbiy doiralarda DEHB o'z-o'zidan pasayib, balog'at davrida balog'at yoshiga kelib tuzalishiga ishongan. Biroq, keyingi izlanishlarda bu noto'g'ri ekanligi isbotlandi. Yoshi bilan giperaktivlik pasayadi, ammo ehtiyotsizlik va impulslarni boshqarish muammolari doimiy bo'lishi mumkin va biz bunga qat'iy choralar izlashimiz kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'oziyev. E. E. "Ontogenez psixologiyasi" Toshkent. "Tafakkur" 2014. 158-b

2. [www. Ziyonet. Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
3. fayllar.org

КАСБ ТАНЛАШ МОТИВЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ

*Илхомова Дилфуза Рахматовна
Тошкент вилояти Тошкент тумани 14 - мактаб психологи*

Ўзбекистон Республикасининг Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини рўёбга чиқариш ҳар томонлама камол топган, жамиятда турмушга мослашган, таълим ва касб-хунар дастурларини онгли равишда танлаш ҳамда кейинчалик пухта ўзлаштиришга қодир, давлат ва оила олдида ўз жавобгарлигини ҳис этадиган фуқароларни тарбиялашни назарда тутди[1. 6].

Инсоннинг касбий шаклланиши ва мутахассис сифатида камолга етишини унинг ҳаёт йўлидан айри ҳолда тасаввур этиб бўлмайди. Психологик адабиётларда таъкидлаб ўтилганидек, кишининг касбий шаклланиши бутун ҳаёти давомида кечадиган жараён бўлиб унинг ёшига ҳамда шахсининг тараққиётига мос ҳолда боради. Касбий фаолият соҳасидаги муваффақият ва мутахассиснинг маҳорат даражасига эришиш суръати унинг касб танлаш мотивлари билан ўзаро алоқадордир.

Касб танлаш ўспиринлар учун муҳим муаммолардан биридир. Танлов доираси қанчалик кенг бўлса, у шунчалик психологик жиҳатдан мураккаблашиб боради. Шахснинг субъектив мойилликлари ва у ёки бу фаолиятга қобилиятлилиги бир бутунликни ташкил этади. Қизиқиш ва мойиллик фаолият жараёнида шаклланади ва ўзгариб боради. Бироқ ўспиринларда яққол ифодаланган, барқарор ва фаол мойиллик ҳар доим ҳам кузатилмайди. Касб танлаш арафасида турган ўспиринларнинг мазкур соҳага қанчалик мос, мойилэканлиги фақатгина фаолият кузатув, назарий, тажриба жараёнидагина аниқланади.

Касб танлаш мотивларнинг шаклланишига таъсир этувчи ижтимоий-психологик омиллар жуда кўп бўлиб, улар бир-бири билан ўзаро муносаббатликка эга. Ўспириннинг касб танлашига таъсир этиш кучига кўра асосий ўринни дўстлари ва ўртоқлари билан бир-бирини тушуниш муносабатлари ташкил этади. Иккинчи ўринни тез таъсир этувчи оммавий ахборот воситалари- китоблар, газета, журнал, кинофильм, телекўрсатувлар, айниқса, интернет эгаллайди. Учинчи ўринда педагогик жамоа, синф раҳбари, фан ўқитувчилари, таълим муассасаси директори ва ўринбосарлари, маҳалладошлари туради. Тўртинчи ўринга оиладаги бевосита маънавий-маърифий муҳитни қўйиш мумкин. Бешинчи ўринни ўқув фанларини ўзлаштириш жараёни эгаллайди. Яъни, ўспирин қанчалик юқори даражада ўзлаштиради ўқув фанлари унинг касб танлашига ижобий таъсир кўрсатиб ўз самарасини беради. Кейинги навбатда дарсдан ташқари тарбиявий ишлар, ижтимоий-фойдали ва ишлаб чиқариш меҳнатини кўрсатиш мумкин.

Ўспиринларда бирор ўқув фанига иштиёқ натижасида уларда ҳар хил касбларга қизиқиш пайдо бўлгач, танланган касбни ўзлаштириш билан боғлиқ фанга қизиқиш тобора ортиб бораверади. Натижада фан тўғарак машғулотларига ва факультатив курсларга қатнашишиштиёқи вужудга келади.

Ўспирин бу имкониятдан унумли фойдаланиши мақсадга мувофиқ, деб таъкидламоқчимиз. Касб танлаш ўспиринда касблар олами ва уларнинг инсонга ҳамда унинг хусусиятларига қўйиладиган талаблар ҳақида тасаввурлар бўлишини тақозо этади. Баъзан уларнинг ҳар иккиси ҳам ўспиринларда етишмаслиги мумкин.

Ўспиринларда касблар ҳақида яққол тасаввур бўлмаслиги сабабли, улар кўпроқ хатога йўл қўядилар. Танланган ёки танланиши зарур бўлган касб қандай шахсий фазилатларни талаб қилишини тушуниб етмайдилар. Ўз қобилиятларини оқилона баҳолай олмасликлари туфайли у ёки бу касбни эгаллаш учун қанчалик тез ва аниқ ҳаракат қила олишларини, бу ишга мослаша олишлари мумкинлигини билмайдилар. Бироқ ҳозир мазкур кўнгилсиз ҳолатларнинг олдини олиш ва бартараф этиш имкониятлари мавжуд. Булар: касбларни ўрганиш усулларини ишлаб чиқиш, уларни тавсифлаш ва аниқ қилиб ифодалаш; ўқитувчининг касблар бўйича батафсил тарғибот ишлари олиб бориши, касблар юзасидан маслаҳатлар

бериш, ўспирин ва унинг ота-онаси билан бирга касбга йўналтириш тadbирларини кўриб чиқиши; ўспиринларни касбнинг асосий турлари билан таништириш; психодиагностик ва касб танлаш усуллариининг амалиётга татбиқ қилишга мослаштирилган турларини ишлаб чиқиш; жойларда замон талабига мос касб танлаш хоналарини ташкил этиш; касб танлаш тарғиботи юзасидан ўспиринларни оммавий ахборот воситаларига жалб қилиш ва психологик жиҳатдан тайёрлашдан иборат таълим концепциясининг асосий йўналишларидан биридир.

Ўспиринларнинг қизиқиши, майли, интилиши, қобилияти, истеъдодлари асосида танлаган касбларига тўғри йўналтириш улар учун катта ҳаётий масаладир. Касб танлаш жараёнида ўспиринларга ўқитувчилар, ота-оналар, жамоатчилик, ўз касбининг усталари, мураббийлар алоҳида эътибор беришлари, тўғри йўл-йўриқ кўрсатишлари керак. Зеро, бу амалий фаолият фуқаролик жамияти ривожланишига хизмат қилади.

Психология фанида касбий шаклланиш жараёнини даврлаштиришнинг бир неча вариантлари ишлаб чиқилган. Бу борада рус олими Т.В.Кудрявцев шахсининг касбга муносабати ва фаолиятни бажариш даражаси мезонига кўра касбий шаклланишнинг қуйидаги босқичларини ажратиб кўрсатган:

- 1) касбий мойилликнинг пайдо бўлиши ва шаклланиши;
- 2) касбий таълим ва касбий фаолиятга тайёргарлик кўриш;
- 3) касбий фаолиятга киришиш, жамоада ўз ўрнини топишга фаол интилиш;
- 4) касбий меҳнатда шахсининг ўзини тўлиқ намоён этиши [2. 16].

Мазкур таснифда келтирилган ҳар бир босқичда касб танлашга ундаган мотивларнинг кучи ва сифати муҳим аҳамиятга эгалиги кўрсатиб ўтилган. Рус олими Е.А.Климов эса инсонни меҳнат субъекти сифатида талқин этиб касбий йўналган даврлаштиришни қуйидагича асослаб берган:

- 1) ўйиндан олдинги босқич (4 ёшгача бўлган давр) – кишининг кейинги ривожланиши ва меҳнатга киришуви учун асос бўлган идрок қилиш вазифаларини ўзлаштириш;

- 2) ўйин босқичи (5-8 ёш) – инсон фаолиятининг “асосий мазмуни”ни ўзлаштириш;

- 3) ўқув фаолиятини ўзлаштириш босқичи (8-12 ёш) – фаолиятни режалаштириш, ўзини-ўзи назорат ва таҳлил қилиш;
- 4) оптация босқичи (12-17 ёш) – касб-ҳунар таълими муассасаларида касб танлаш даври;
- 5) адепт босқичи (17-20 ёш) – танланган ихтисослик бўйича касбий тайёргарлик;
- 6) адаптант босқичи (20-23 ёш) – касбнинг ичига кириш ва унга кўникиш;
- 7) интернал босқич (23-26 ёш) – касбий тажриба тўплаш;
- 8) касбий маҳорат босқичи – меҳнат фаолиятини малакали бажариш;
- 9) обрў-эътибор босқичи – мутахассис томонидан юқори малакани ўзлаштириш;
- 10) устозлик босқичи – мутахассис томонидан касбий тажрибани шогирдларга бериш, ўз мактабини яратиш [3. 38].

Касбий шаклланиш жараёнининг дастлабки ва айна дамда ўта муҳим босқичи бўлажак касбни танлаш, яъни аниқ бир касбий қарорга келишигача бўлган даврни ўз ичига олади. Ёшларнинг касб танлашга тайёргарлик даражаси фақатгина ёш хусусиятига боғлиқ эмас, у маълум ёшга келиб ўз-ўзидан шаклланиб қолмайди.

Ўқувчи-ёшларни касб-ҳунарга йўналтириш – уларни шахсий мойиллик, лаёқат, қизиқишлари асосида ҳамда жамият талабларига мос ҳолда онгли касб танлашга тайёрлаш бўйича мақсадга йўналтирилган илмий-амалий фаолиятдир.

Шахснинг касбий шаклланишида ижтимоий вазиятлар, маънавий муҳит ва етакчи фаолият муҳим омил ҳисобланади. Касбий таълим оила ва таълим муассасаларида амалга ошириладиган касб танлангунга қадар давом этган таълим-тарбия негизида, яъни касб танлашга психологик тайёрлаш ҳамда меҳнат фаолиятига руҳан тайёргарликка кўмаклашадиган амалий восита, омил сифатида давом эттирилгач, у албатта ижобий натижа беради, деб таъкидламоқчимиз.

Адабиётлар:

1. Кудрявцев Т.В. Психология профессионального обучения и воспитания.- М., 1997.

2.Климов Е. А. Психология профессионального обучения и воспитания. - М., Просвещение, 1990.

BOLA SHAXSIDA SALBIY O‘ZGARISHLARNI KELITIRIB CHIQRUVCHI TASHQI TA’SIRLARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Tadjiyeva Xilola Erkinovna
Chust tumani 53-maktab psixologi

Annotasiya: Bola xulq atvorida salbiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaruvchi tashqi ta’sirlarning psixologik-pedagogik asoslari.

Kalit so‘zlar: Bolalar psixologiyasi, Pedagogik psixologiya, Tarbiya, Tarbiyaning metodologik masalalari, Ibrat, Tarbiya samaradorligi printsiplar, Bola shaxsigacha salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi illatlar.

Bolalarning murg‘ak qalbiga hech bir narsa ibratdek kuchli ta’sir etmaydi va barcha ibratlar ichida ota-ona ibratidan kuchliroq va mustahkamroq o‘rin oladigan ibrat yo‘q.

N.I.Novikov

Rivoyat qiladilarki, bir ona donishmand oldiga kelibdi va bolasining tarbiyasiga qachon kirishish kerakligi haqida surabdi. Donishmand bolaning necha yoshga kirganini so‘rabdi. Besh yoshga to‘lganini bilib onaga xitob qilibdi:

— Tezda uyga qayt!

Bola tarbiyasida eng kerak bo‘lgan besh yilni sen boy berib qo‘yibsang! Shunday, bola dastlabki yillarda tez va ko‘p qabul qiladi va tarbiyaning asosiy qismini qabul qiladi. Tarbiya keyin ham davom etaveradi. “Lekin siz mevani keyin ko‘ra boshlaysiz, — deydi bir donishmand — bu o‘zingiz bir vaqtlar, bolangiz besh yoshigacha bergan tarbiyangiz gulining mevasidir” bu davrda bolaning olamni bilishi odamni bilishi orqali kechadi. Yaxshilik va yomonlik degan katta tushunchalar ota va onasining bir-biriga munosabati, ovozi, qarashi, harakati orqali borlig‘iga singib boraveradi. Donishmandlar kishi keyin

umr bo'yi o'zi yashaydigan yaxshilik va yomonliklarning qariyb 90% ni aynan bolalikning ilk davrida olishini, besh yoshli bala bilan keksalik o'rtasi bir qadam ekanligini tan olishadi.¹

Hozirgi davrda mamlakatimizda, shu jumladan xalq maorifi tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar o'qituvchilar, barcha pedagoglar oldiga o'quvchining bilimlarni yuksak darajada o'zlashtirishi; o'quvchilar mustaqil tafakkurini, ular aktivligini rivojlantirish; ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash; ularning tafakkur, muloqot, o'qish, mehnat qilishga bo'lgan qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi murakkab va mas'uliyatli vazifalarni qo'yimoqda. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun faqat pedagogika fanining nazariy asoslarini, har bir o'qituvchi predmetni o'qitish metodikasini, maktab o'quvchilarining fiziologiyasi asoslari, maktab o'quvchilari gigiyenasi asoslarinigina bilish emas, balki ma'lum darajada psixologik bilimlarga ham ega bo'lish lozim. Har bir pedagog ma'lum darajada psixolog ham bo'lishi talab etiladi, chunki ular har biri faqat o'ziga xos bo'lgan, turli yoshdagi, turli individual xususiyatlarga ega bolgan o'quvchilar bilan ish olib boradi. Har bir bola faqat o'ziga xos bilish faoliyati, iroda, xarakter, xulq-atvor xususiyatlariga ega. Maktabdagi ta'lim-tarbiya berish jarayonida ham shu xususiyatlarni bilish va shunga asoslanib ularga individual munosabatda bo'lish lozim. Mana shularni hisobga olgandagina, har bir pedagog o'zining asosiy vazifasi, ya'ni yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish ishini muvaffaqiyatli amalga oshiradi. Shuning uchun ham psixologiya fanining alohida sohalari bo'lmish yosh (Bolalar) va pedagogik psixologiya asoslarini chuqur bilish har bir pedagog uchun muhim hisoblanadi.

Bolalar psixologiyasi - bu bolalarning psixologik rivojlanishining umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini, bu jarayon turli yoshlarda qanday sodir bo'lishini, uni qanday kuchlar va qonunlar boshqarishini o'rganadigan psixologiyaning bir bo'limi. Shu sababli, bolalar psixologiyasini ko'pincha yoshlar psixologiyasi deb atashadi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi astronomiya, fizika, matematika va informatika fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati online sahifasi.

Bolalar psixologiyasi bolalardagi aqliy jarayonlar (kognitiv, og'zaki, hissiy, irodaviy va boshqalar) ning ko'rinishi va rivojlanishini, aqliy xususiyatlarini

rivojlanishini, har xil faoliyatning (o'yin, o'rganish, mehnat) rivojlanishini va bolaning shakllanishini o'rganadi. Bolalar psixologiyasi umumiy psixologiyada ishlab chiqilgan tadqiqot usullaridan foydalanadi, ammo uni qo'llash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bolaning yoshini o'rganish uchun **ko'ndalang kesma va longityud deb nomlangan** tadqiqotlar qo'llaniladi.

Birinchi holda, turli yosh guruhlariga mansub bolalarda bir vaqtning o'zida faqat bitta aqliy jarayon o'rganiladi. Ikkinchi holda, ma'lum (tanlangan) bolaning aqliy xususiyatlari ko'p yillar davomida o'rganiladi. Bu, o'z navbatida, ularga aqliy rivojlanishning umumiy yo'nalishini kuzatish imkonini beradi. Bolalar psixologiyasi mustaqil fan sifatida 19-asr o'rtalarida shakllana boshladi. U pedagogik psixologiya, pedagogika va yuqori asab faoliyati fiziologiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Uning bilimi va xulosalari yangi avlodlarni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti uchun ham, umumiy psixologiya uchun ham muhimdir.

Bola ijtimoiylashuvida sotsium muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy muhitni bola asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi. Agar bola tug'ilgandan keyin asosan oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi yangi va yangi muhitlar-maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi. Yosh ulg'aygan sari ijtimoiy muhit "hududi" kengayib boradi. Bola qanchalik ko'p muhitlarni o'zlashtirsa, u shunchalik keng doira hududini egallashga harakat qiladi. Bola doimo o'zi uchun qulay bo'lgan uni yaxshi tushunadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan muhitni izlashga urinadi. Shuning uchun u bir muhitdan boshqa muhitga ko'chib yuradi. Muhit bolani shakllantirishda, uning ijtimoiy tajriba to'plashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega.

Keling, endi bola xulq atvorida salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi tashqi ta'sirlar haqida gaplashsak.

Hammamizga ma'lumki, Oilada ota-onalar o'rtasidagi o'zaro samimiyat, hamjihatlik, mehru oqibat, o'zaro hurmat, shirinsuxanlik, bir-biriga g'amxo'rlik qilish kabi munosabatlar farzand tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi.

Bugungi kunda hayotda ko'plab muammolarga duch kelamiz. Bulardan eng avvalosi bu- inson xarakteridir. *Inson xarakteri qaerdan va qanday shakllanadi?* Albatta

bu oiladan boshlanadi. Oila – bu juda nozik muassasa. Bu farzand dunyoga kelganidan, ota-onaning bir-biriga boʻlgan munosabatidan boshlanadi. Ota-onaning bosayotgan har bir qadami bolaning ongiga oʻrnashib qoladi.

Baʼzi otalar farzandlari sigareta chekishiga oʻrganib qolganidan shikoyat qilishadi. Hurmatli Otalar, oʻzingiz uyda sigareta chekasizmi? Oʻzingiz uyda sigareta chekib turib, qanday qilib farzandingizga sigareta chekma deb ayta olasiz? Baʼzida ota-onalar farzandlari ularni hurmat qilmayotganidan shikoyat qilishadi. Hurmatli ota-onalar, sizlar bir-birlaringizni chin dildan hurmat qilasizlarmi? Axir, har bir bola ota-onasidan, aka-opasidan oʻrnak oladi. Bir soʻz bilan aytganda oiladagi muhit unga taʼsir qiladi.

Oilada tanqid, yolgʻon, gʻazab, masxara, janjal, notinchlikni koʻrib oʻsgan farzand yolgʻon gapirishni, janjallashishni, gʻazablanishni va boshqlarga ozor berishni oʻrganadilar. Ota bobolarimiz ham “Qush uyasida koʻrganini qiladi” deb bejiz aytishmagan.

Shu bois, bizning oiladagi rolimiz juda ham muhimdir. Qiz bola ham ayollik jozibasi nima ekanligini, dunyoga kelganidan boshlab onadan oʻrganadi. Ona uydagi ayollik rolini chiroyli kiyinib, nazokat bilan amalga oshirishi, turmush oʻrtogʻi va farzandlariga qilayotgan muomalasi bilan oʻz qiziga oʻrnak boʻladi. Ana oʻshanda qiz voyaga etib, oila qurganda oʻz vazifasini chiroyli bajaradi.

Oilada dalda, maqtov, ishonch, halollik, mehr va xavfsizlikni koʻrib oʻsgan farzand sabr qilishni, oʻzini va boshqalarni xurmat qilishni, oʻziga boʻlgan ishonchni va boshqalarni yaxshi koʻrib ularni xurmat qilishni oʻrganadi.

Oilaviy muammolarda koʻp hollarda “qars ikki qoʻldan chiqadi”. Oila mustahkam qoʻrgʻonga aylanishi uchun oilada ikki taraf ham bir yoqadan bosh chiqarishi yaxshiroqdir. Er-xotinning doʻstona munosabati, ahilligi va mehr-oqibati farzandlarimizga ham oʻtadi.

ОТА-ОНАЛАРНИНГ ЎЗ БОЛАЛАРИГА ЭЪТИБОРИНИ КУЧАЙТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК АҲАМИЯТИ

*Тўхтаназарова Ноила Мирзаназарова
Чуст тумани 67-мактаб психологи*

Жамиятда оиланинг роли ўзининг кучи бўйича бошқа ҳеч бир ижтимоий институтлар билан тенглаштириб бўлмайди. Айнан оилада инсоннинг шахси шаклланади ва ривожланади. Оилада инсоннинг маънавийлигига асос солинади, ҳулҳийҳ оидалари юзага келтирилади, шахснинг ички дунёси ва индивидуал сифтлари очиб берилади.

Бугунги кундаги энг долзарб масала сифатида жамиятда ёшларнинг хулқ-атворидаги салбий ўзгаришлар намоён бўлмоқда. Ўсмирлардаги бу ўзгаришлар агрессив хатти-ҳаракатларда ўз ифодасини топмоқда.

Хўш, бундай агрессив хулқ атвори юзага келтирувчи асосий омил нима? Буни қандай йўл билан олдини олиш мумкин?

Аввало, оиладаги тарбия жараёни, ўсмир шахсида хулқ-атвори юзага келишининг бирламчи омили ҳисобланади. Оиладаги муҳит ота-она ўз маъсулиятларини ҳис қилиши билан барқарор бўлади. Болаларнинг одобли бўлиб улғайиши учун ота-она билан бир қаторда маҳалла-куй ҳам катта ибрат мактабидир. “Қуш уясида кўрганини қилади”, деб бежиз айтмаган халқимиз.

Фарзанд тарбиялаётган ота-она ҳар бир ҳаракати, юриш туриши, муомаласи, бошқалар билан ўзаро муносабатида олижаноб фазилатларни намоён эта билиши керак. Чунки бола табиатан ниҳоятда тақлидчан ва кузатувчан бўлади. Шунинг учун унинг атрофдагилари ўз одатлари билан баъзан ўзлари сезмаган ҳолда уларга таъсир қиладилар. Оиладаги кўпол муносабатлар, кўп ёлфон гапириш, ёқимсиз хатти-ҳаракат бола тарбиясига салбий таъсир қиладиган носоғлом муҳитни келтириб чиқаради. Фарзанд тарбиясида ота-онанинг муомаласи муҳим ўрин тутди. Бола ота-она томонидан кўпол, дағал сўзлар эшитиб, калтак еб катта бўлса, бу унинг табиатига салбий таъсир қилади. Бу эса ўз навбатида оиладаги носоғлом муҳитда тарбияланаётган боладан “маънавий касал” инсонлар шаклланади. Улар эса жамият маънавиятига ҳам салбий таъсир кўрсатади.

Болаларга етарли даражада эътибор берилмаслиги, уларда меҳр етмаслик ҳолатини юзага келтирмоқда. Психолог олимларни таъқидлашча, шахсда меҳрга бўлган эҳтиёжни қондирилмаслиги, ундаги жиддий камчиликлар пайдо бўлишига олиб келиши мумкин экан. Ҳар бир инсонга ўз эҳтиёжларини қондириш, шахсий ва умумий мақсадларга эришиш учун бошқа одамлар билан бирлашишга интилиш хосдир.

Бола шахсидаги меҳрга бўлган эҳтижни қондирилишда меъёрга амал қилиш муҳим. Зеро, эътиборнинг ҳаддан ортиқ даражаси ҳам салбий ҳолатлар сабабчиси бўлиши мумкин. Оиладаги ҳаддан зиёд ўсмир эркинликларини чеклаш ёки аксинча ота она томонидан сурункали бефарқлик ҳам шунингдек агрессив хулқ кўринишларини шаклланишга олиб келади. Агрессив хулқ оилада ўсмирнинг эркинликлари ҳаддан зиёд чегараланганда ёки унга ҳаддан зиёд эркинликлар берилганда ҳам шаклланиши мумкин.

Агар ўсмир оилада барча эҳтиёжларини тезлик билан қондирилдишига ўрганиб қолган бўлса, тенгдошлари жамоасида унинг эҳтиёжларига тўқинлик қилганга нисбатан агрессив муносабат билдиради

Оилада эмоционла инкор этилганлик ҳолатларида ҳам ўсмирлар ўзларининг агрессив хулқа кўринишлари билан ўзларига оила аъзоларининг эътиборини қаратишга ҳаракат қиладилар Ота -оан ўсмир хулқидаги ўзгаришлар сабабини излаш ўзаро муносабатларни ўзгартиришга ҳаракат қиладилар

Агар ўсмир оила аъзолари мунтазам тарзда ўзаро низолар , бақириқлар орқали таъсир ўтказиш асосида муаммоларини хал этишга ўрганган бўлсалар, бошқа ижтимоий вазиятда айнан ўзни шундай тўтишга интилади.

-шахсий муаммолар (физиологик ва психологик характердаги муаммоларни келиб чичишига сабаб бўлувчи пубертат даври хусусиятларининг намоён бўлиши) Ўзининг ташқи кўринишидан норози бўлиш (Терзит комплекси)катталар томонидан ноадекват идрок қилиниши Ўсмир ўзини каттадек хис этади, унга болалар каби муносабат бўлишлари ёқмайди. Ўсмирдаги таффакурнинг танқидийлиги катталар хатти ҳаракатига нисбатан шубҳа билан қараш,улардаги ахлоқий меъёрларга нисбатан эътироз хисларини шаклланишга олиб келади.

Тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, шахснинг агрессив хатти - ҳаракатига таъсир этувчи хусусиятларидан бири - бу фрустрацияни кўтара олмаслик қобилиятидир. Маълумки, фрустрация эҳтиёжларни қондиришда ёки мақсадга эришиш йўлида пайдо бўлган тўсиқлар туфайли келиб чиққан ҳолатдир. Худди шу пайтда ўсмир шахсида ҳам ота - она ва яқинлари уни тушунмаслиги ва аксинча унга нисбатан қаттиққўллиги натижасида агрессив хатти - ҳаракатлар, ўсмир хулқида оғишлар намоён бўлишини кўзатишимиз мумкин.

Демак, ўсмирнинг агрессив хулқи шаклланишида асосан ота - она таъсири кўзатилади ва оила тарбиясидаги қуйидаги омиллар катта рол ўйнайди:

- ўсмир ҳаракатидан қониқмаган ота - она реакцияси;
- ўсмирлар ва ота - оналар ўртасида муносабатнинг характери;
- ака - ука, опа - сингиллар ўртасидаги муносабатлар характери;
- ота ёки она ёки икковлари билан бўлган ёмон муносабат.

Шунингдек, ўсмир ота - оналарнинг қўллаб - қувватламаслиги ва уларнинг қизиқишларига бепарволигини сезса, қуйидаги вазиятлар юзага келиши мумкин:

- жинойтчилик фаолиятига кириб кетиш;
- бошқа ўсмирларга қарши чиқиш;
- ўз ота - онасига нисбатан ўзларини агрессив ҳолда тўтиши мумкин.

Ўсмир хулқидаги оғишлар асосини аввало оила муҳити ташкил қилиши ва оиладаги ўзаро бир - бирини психологик томондан тушунмаслиги натижасидир. Ўсмирлик кескин ўзгаришлар даврилигини ҳисобга олган ҳолда, уларга алоҳида эътиборни қаратиш мақсадга мувофиқдир. Акс ҳолда эса, юқоридаги салбий хусусиятлар ўсмир характерини, унинг хатти - ҳаракатини тубдан ўзгартириб юборади.

Хулоса қилиб айтганда, тарбияда энг муҳим восита бу меҳр ва ширинсўзлик билан тарбиялашдир. Бу икки восита бир бўлиб, болани шакллантиради. Шу жумладан, таълимни ҳам ғазаб ва жазолаш билан амалга оширмаган маъқул. Зеро, зўрлаб берилган таълим бола хотирасидан тезда ўчиб кетади. Оқибатда унинг шу соҳага нисбатан қизиқиши сўниши мумкин. Бундан кўринадики, таълимнинг аввали ҳам яхши тарбиядан бошланади.

Яна шу нарсани таъкидлаб ўтиш жоизки, ота-она, яқинлари томонидан меъхр-эътиборни етарли даражада, ўз вақтида берилиш бола шахсдаги барча ижобий ҳислатларни шакллантиради. Ҳар хил тобелик ҳолатларини (интернетга, видео ўйинларга, қарама-қарши жинс вакилларига тобелик) олдини олади.

O'SPIRINLIK DAVRIDA O'ZINI-O'ZI BOSHQARISHGA IRODAVIY SIFATLAR TA'SIRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Tojiboyeva Odinaxon Xasanovna
Andijon viloyati Paxtaobod tumani 11-maktab psixologi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola o'spirinlik davrida o'zini-o'zi boshqarishga irodaviy sifatlar ta'sirining psixologik xususiyatlarini aniqlashga va o'rganishga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: o'spirin, iroda, o'zini o'zi boshqarish, psixologik xususiyatlarni o'rganishda metodikalar.

Ma'lumki, yosh avlodning sog'lom o'sishi, sifatli ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga etishini ta'minlash, shuningdek, o'smir va o'spirinlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan «besh muhim tashabbus»ni joriy etish bo'yicha samarali ishlarni amalga oshirishmoqda. Davlatimizda yoshlarga e'tibor berilayotgan e'tibor yoshlar psixologiyasini tubdan o'zgarishiga yordam bermoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, insoniyatning ruhiy olami uning butun ongli hayoti davomida, yillar silsilasida, umr yo'llari sinovlarida toblanib, mustahkamlanib, boyib boruvchi asl hislat va fazilatlar majmui sanaladi. U har bir insonning xulq-atvori, xarakteri, irodaviy sifatlarida, odamlar bilan bo'lgan munosabati, ish faoliyatida va turmushda o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi. Iroda va irodaviy faoliyat muammolari, turli xil psixologik nazariyalar va yo'nalishlar vakillari tomonidan

o'rganilib kelingan bo'lib, o'z yechimini topib kelgan. Ammo ilk o'spirinlik davrida o'zini o'zi boshqarishga irodaviy sifatlar ta'sirining psixologik xususiyatlari alohida tadqiq qilinmagan. Hozirgi kunda ilk o'spirinlik davriga «kamolot bo'sag'asi» deb ta'rif berishmoqda. Bu davr o'z navbatida fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni o'z ichiga qamrab oladi. Psixologiya fani o'spirinlik muammosini kompleks o'rganishni da'vat qiladi. Bu juda qiyin masala, chunki psixofiziologik taraqqiyot sur'ati bilan uning bosqichlari ijtimoiy etilish muddati bilan hamma vaqt ham birday mos kelavermaydi. Akseleratsiya natijasida bugungi bolalarimizning taraqqiyoti avvalgi avlodlarga nisbatan o'rtacha ikki-uch yil avvalroq rivojlanmoqda. Fiziologlar bu jarayonni 2-darajali jinsiy belgilarning paydo bo'lishiga qarab, 3-ta bosqichga ajratishmoqdalar: I bosqich - prepubertat; II bosqich - pubertat; III bosqich - postpubertat. Yosh psixologiyasi o'spirinlikning yoshini I-II bosqichlar bilan boglab keladi. Akseleratsiya munosabati bilan o'spirinlik yoshining chegarasi endi 15-16 dan 18 yoshgacha bo'lmoqda. Demak, o'spirinlik ham oldin boshlanadi. Ilk o'spirinlik davrida aqliy rivojlanish o'quvchilarining bilish jarayonlari turli nuqtai nazarlarni tahlil qilishga va bu masala bo'yicha har tomonlama o'ylagan o'z fikrlarini bildirishga yordam beradi. Bu yoshdagi o'spirinlar atrofdagi turli voqeahodisalardagi haqiqatni bilishga juda intiladilar. Ularni tayyor echimlar, ma'lumotlar emas, balki shu echim va ma'lumotlar orqali o'zlari mulohaza yuritib, qidirish jarayonining o'zi ko'proq qiziqtiradi. Bu borada turli masalalar bo'yicha bahs va munozaralar yuritishga va o'z fikrlarini isbotlashga juda intiladilar va qiziqadilar. O'spirinlik davrida bilish jarayonlarining rivoji faol ravishda davom etadi. Lekin, bu rivojlanish o'spirinning o'ziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. Bu davrga kelib, o'spirinlar to'la ravishda mantiqiy tafakkurga ega bo'ladilar, nazariy fikr yuritib, o'zlarini-o'zlari tahlil eta boshlaydilar. Ular endi bemalol ahloqiy, siyosiy va boshqa mavzularda bahslasha olib, o'z munosabatlarini va fikrlarini bildira oladilar. O'spirinlik davrida bolalar juda ko'p ilmiy tushunchalarni o'zlashtirib, ulardan turli masala va muammolarni echishda foydalana oladilar. Ularda o'z-o'zini anglash sezilarli darajada o'sib boradi. O'spirinning o'z-o'zini anglashi o'quv, mehnat va muloqot motivatsiyalarini o'zgarishida o'z aksini topadi. Bu davrda, yangi faoliyatlar yuzaga kelib, psixik rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi. O'spirinlik yoshi o'qish, mehnat,

muloqot singari etakchi faoliyatlar orqali umumiy va maxsus layoqatlarining rivojlanayotganligi bilan xarakterlanadi. O'spirinlik davrida bilish jarayonlarining rivojlanishi faol kechadi. Lekin, bu rivojlanish o'spirinning o'ziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. O'spirinlik davriga kelib, juda ko'p bolalarda o'z faoliyatlarini oldindan rejalashtirish va yangi g'oyalar tuzish layoqati juda yaxshi rivojlangan bo'ladi. Shuningdek, o'z-o'zini boshqarish ham o'spirinlik yoshidagi bolalarda yaqqol namoyon bo'ladi. O'spirinning o'quv mashg'ulotiga bo'lgan munosabati, o'z xususiyati 409 va mazmuni jihatidan boshqa yoshdagi o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi munosabatidan tubdan farq qiladi. O'quv rejasi va dasturning murakkablashuvi, yangi fan va mavzularning kiritilishi, o'zlashtirilishi nazariy tafakkur yordamida amalga oshirishni taqozo etadi. Ana shundan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning o'qishga munosabati ham o'zgaradi, ularda ayrim fanlarga qiziqishi ortib, yoqtirib o'qiy boshlaydilar. Kishining o'z oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun oldidagi ichki va tashqi to'siqlarni harakat yordamida engish vaqtida vujudga keladigan psixik jarayonni iroda deb boshlaymiz mumkin. Irodaviy sifatlarga iroda kuchi, ya'ni maqsadga erishishga to'sqinlik qiladigan qiyinchiliklarni yengish qobiliyati kiradi. Maqsad yo'lidagi to'siq qanchalik qiyin bo'lsa, irodaning namoyon bo'lishi shunchalik baland va kuchli bo'ladi. Faqat irodaviy sa'y-harakatlar yordamida to'siqlarni engib o'tish iroda kuchining ob'ektiv namoyon bo'lishidan dalolat beradi. Iroda o'zaro bog'liq ikkita vazifani - undovchi va tormozlash vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi va ularda o'zini namoyon qiladi. Falsafa va psixologiyada idealizm kishi irodasi alohida, dastlabki faollikka bo'ysungan bo'ladi. Amerika psixologi U. Jeyms harakatda hech narsaga bog'liq bo'lmagan irodaviy hukmga yetakchi rol beradi. Insonda xulq-atvorning irodaviy sifatlarini rivojlantirish bir necha yo'nalishda amalga oshiriladi: ixtiyorsiz psixik jarayonlarni ixtiyoriy jarayonlarga aylantirish; shaxsning o'z xatti-harakati ustidan nazoratni egallashi; shaxsning irodaviy sifatlarini rivojlantirish. O'smirlik davri-o'tish davri deb ataladi. Unda o'smirlar tomonidan imitatsiya qilish holatlari kuzatiladi. Shu bilan birga o'smirlik davrida o'z faoliyatini hamda o'z-o'zini nazorat etish, boshqarish kuchayib boradi. Bu davrda o'smirlarda nazariy tafakkur katta ahamiyatga ega. Ushbu davrga xos xususiyat shundaki shaxsning shakllanishi ijtimoiy omillarga bog'liq bo'ladi.

O'smirlarning psixik rivojlanishida yangi hislatlar ya'ni shaxsiy va tadbirkorlik xususiyatlari, umumiy va maxsus layoqatlar ham shakllanib boradi. O'z tashqi ko'rinishi va qarama-qarshi jinsga nisbatan munosabatlar yuzaga keladi. Ularda kattalar shaxsi va faoliyatini baholashning o'ziga xos mezonlar yuzaga keladi. Ilk o'spirinlarda esa akseleratsiya keskin namoyon bo'ladi va ular kasb tanlash haqida ham fikrlay boshlaydilar. Jismoniy, aqliy jihatdan dunyoqarashlari va insoniy xususiyatlar shakllangan bo'ladi. Mulohazali va ma'suliyatli bo'ladilar. Ta'lim va tarbiya jarayonida ushbu psixologik xususiyatlarni e'tiborga olgan tarzda faoliyat olib borilsa, o'smirlardagi 410 deviant hulqlarning oldini olishga, yaxshi hulq-atvorlarning shakllanishiga ta'sir qilgan bo'lar edi. Odatda inson o'ziga to'g'ri baho bera olishda unga eng yaqin kishilarining ta'siri va yordami muhim rol o'ynaydi. Kishiga o'zining xatolari kamchiliklarini to'g'ri baholay olishida ota-onasi, aka-ukasi, opa-singlisi, do'st-birodarlari, ustoz, murabbiyi kabi yaqin odamlari, shuningdek, uning haqiqiy mehribonlari yoki do'stlari kuchli ta'sir ko'rsata olishi mumkin. Buning uchun insonning yaqinlari avvalo mustaqil fikrga, kuchli bilimga ega bo'lishi, voqelikni to'g'ri talqin eta olish xususiyatiga ega bo'lmoqligi kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kisova V.V., Semenov A.V. Aqli zaif maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiylashtirishning psixologik-pedagogik sharti sifatida hamkorlik // Fundamental tadqiqotlar. - 2014. - 12-4-son. - S. 882-886.

2. Koneva I.A., Karpushkina N.V. Inklyuziv ta'limda nogiron bolalar va o'smirlarning shaxsiy rivojlanishiga yo'naltirish // Xalqaro amaliy va fundamental tadqiqotlar jurnali. - 2015. - 12-8-son. - S. 1526-1528 yillar.

3. Maklakov, A. G. Umumiy psixologiya: universitet talabalari va psixologik fanlar kurslari talabalari uchun darslik. - Sankt-Peterburg: Peter, 2017. - 582 p

4. referat.uz

5. hozir.org

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHINING SHAXS SIFATIDA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARINING PSIXOLOGIYA FANIDA O'RGANILISHI

Sattarova Xurshidaxon Abduraximovna
Andijon viloyati Paxtaobod tumani 41-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchining shaxs sifatida rivojlanish xususiyatlarining psixologiya fanida o'rganilishi to'g'risida ilmiy manbalarga asoslangan holda faydali ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: O'quvchi, shaxs, kichik maktab yoshi, ota-ona, o'quv faoliyati, maktab, bilim, sharoit

Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va shaxs bo'lib shakllanishidagi o'rni nixoyatda katta. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligida inson ongining turli asosiy shakllarining mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida harakat qilishni o'rganadi. O'quv faoliyatida bola o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashk kildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola o'z atrofdagilari bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U hayotining tubdan o'zgarganini, unga yangi majburiyatlar, nafaqat, har kuni maktabga borish, balki o'quv faoliyati talablariga buysunish ham yuklatilganligini xis eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati, yutuklari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotgailigi, unga qilinayotgan yangi muomala, munosabat uning ijtimoiy mavkei o'zgarganligini tula xis . Etishiga, o'ziga nisbatan munosabatining o'zgarishiga asos bo'ladi, Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o'z vaqtlarini to'g'ri taksimlash borasida yaxshi o'qish, o'ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug'ullanishga urgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslaxatlashadigan yangi bir urinni egallaydi. O'quvchining maktabdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to'liq

ijobiy asos bo'ladi. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yukori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashkari boshqa faoliyatlar o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqyega erishish uchun ham bola yaxshi o'qish uchun harakat qilishi mumkin. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zlari erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muhim. Kichik maktab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emotsional zo'riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog'cha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek o'smirlik davrida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va bergan baholariga qarab, o'zlariga o'zlari baho beradilar. "O'quvchining o'ziga-o'zi beradigan bahosi, asosan, to'g'ridan-to'g'ri o'qituvchining beradigan bahosiga va turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga bog'liq. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'ziga beradigan baholari turlicha - yuqori, adekvat – mos yoki past bo'lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiklik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yosh davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan bir katorda, mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mehnatsevarlik, asosan, o'qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. mehnatsevarlik bolada o'zi qilayotgan mehnati unga zavk bergan takdirdagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bog'liq. Agar bola haddan ziyod

ishonuvchan, itoatkor, ochiq, xususiyatli bo'lsa, unda astasekinlik bilan buysunuvchanlik, tobelik xususiyagi mustahkamlana boradi. Birok bolani vaqtli mustaqillikka undash, unda ba'zi salbiy xislatlarning shakllanishiga ham olib kelishi mumkin, chunki hayotiy tajribalarini, asosan, kimlargadir taqlid qilgan holda o'zlashtiradi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nixoyatda muhimdir. Shuningdek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biron bir mas'ul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his kilsin. Ana shu his bolada mustaqil bo'lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi. 7-11 yoshli bolalar o'zlarining individual xususiyatlarini anglay boshlaydilar. Bolaning o'z-o'zini anglashi ham jadal rivojlana boradi va mustahkamlana boshlaydi. Bu davrda bolalar o'zlarining ismlariga yanada ko'proq ahamiyat bera boshlaydilar va ularning ismlari tengdoshlari va atrofdagilari tomonidan ijobiy qabul qilinishiga harakat qiladilar. Bolani o'zining tashqi ko'rinishi va gavda tuzilishiga beradigan bahosi ham o'z-o'zini anglashida ahamiyati juda katta. Kichik maktab davrining oxiriga borib bolalar, ayniqsa, qizlar o'zlarining yuz tuzilishlariga alohida e'tibor bera boshlaydilar.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchining o'quv faoliyati jarayonida o'zidagi xulq-atvorni va faoliyatni o'zi tomonidan muvofiqlashtirish qobiliyati rivojlanadi, ongli ravishda bir fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi, o'z faoliyatini o'zi uyushtirishga hamda bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishining qaror topishiga yordam beradi. O'quvchi xulq-atvorining motivlashtirishi ham o'zgaradi. Bunda do'stlari va jamoaning fikrlari asosiy motivlar bo'lib qoladi. Axloqiy his-tuyg'ular va shaxsning irodaviy xususiyatlari shakllanadi. Bolalarning individualliklari ularning bilish jarayonida ham ko'rinadi, Bu davrda bolalarning bilimlari kengayadi va chuqurlashadi, ko'nikma va malakalari takomillashadi. 3-4 sinflarga borib, aksariyat bolalarda umumiy va maxsus layoqatlar ko'zga tashlanadi. Bu yoshdagi bolalarda idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq to'liq shakllanib bo'lgani uchun ham ularga ta'lim berishda kattalarga qo'llaniladigan uslublardan foydalanish mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalar psixik rivojlanishiga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi va ayniqsa o'qituvchi bilan bo'ladigan munosabati

orqali erishish mumkin. 3-4 sinflarga borib bola uchun uning urtoklari bilan munosabatining ham ahamiyati ortadi. Bu munosabatlardan kattalar ta'lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'oziev E.G'. Ontogenez psixologiyasi – O'qituvchi 2010 y.
2. Ivanov I.I., Zufarova M.R."Umumiy psixologiya" T. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati , 2008-480b
3. Pedagog.uz

BOLALARNING MAKTABGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI ANIQLASHDA AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING ROLI

*Jo'rayeva Oysara Normurodovna
Kitob tumani 44-maktab psixologi*

ANNOTATSIYA

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Ushbu maqolada ham bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligini aniqlashda amaliyotchi psixologning roli to'g'risida bir qator mulohazalar o'rinn olgan.

Kalit so'zlar: Bola, tayyorgarlik, bilim, o'yin, maktab, rivojlanish, ruhiy tayyorgarlik, ota-ona.

Bola avvalo maktabga jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. 6-7 Yoshli bolalar nerv sistemasini mustahkamlash, ularni surunkali kasalliklardan xalos etish, ko'rish va eshitish qobiliyatiga alohida e'tibor berish, Shuningdek, umurtqa pog'onasining to'g'ri rivojlanishiga ahamiyat berish, nihoyatda muhim. Kattalar shu Yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar, bu Yoshdagi bolalar organizmi

hali o‘sishi davom etayotganligini doimo hisobga olishlari lozim. Masalan, bolani majburan yozishga o‘rgatish hali barmoq muskullari to‘liq rivojlanmaganligi sababli ularga ma’lum darajada zarar keltirishi, bolaning chiroyli yoza olmasligi esa, o‘z-o‘zidan bolani o‘ziga nisbatan ishonchini yoki o‘qishga nisbatan qiziqishini kamayishiga olib kelishi mumkin.

Motivatsion tayyorgarlik - katta bog‘cha yoshdagi bolalar asosan, maktabda o‘qish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin bu xohish va ehtiyoj motivi turlicha bo‘lishi mumkin. "Menga chiroyli forma, daftar, qalam va ruchkalar sotib olib berishadi", "Maktabda o‘rtoqlarim ko‘p bo‘ladi va men ular bilan mazza qilib o‘ynayman", "Maktabda uxlatishmaydi". Bunday motivlarni bolalarga odatda ota-onalar singdiradilar. Maktabning tashqi ramzlari, shubhasiz bolalarni juda qiziqtiradi, lekin bu maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun asosiy sabab bo‘la olmaydi. Ota-onalar, pedagog, tarbiyachilar tomonidan bolalarga bilish, o‘rganish motivlarini singdirilishi maktabda muvaffaqiyatli o‘qish omili bo‘lib xizmat qila oladi. "Men otamga o‘xshagan bo‘lishim uchun o‘qishim kerak", "YOzishni juda yaxshi ko‘raman", "O‘qishni o‘rganaman", "Maktabda qiyin misollarni echishni o‘rganaman"- bunday motivlar to‘g‘ri motivatsion tayyorgarlikka misol bo‘la oladi. Aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta’limga asos bo‘lishi mumkin, lekin so‘z boyligi, ma’lum xatti-harakatlarni bajara olish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko‘rsatkichi bo‘la olmaydi. Maktab dasturi bolalardan taqqoslay olish, tahlil eta olish, umumlashtira olish, ma’lum bir xulosa chiqara olish, Shuningdek etarli darajada rivojlangan boshqa bilish jarayonlarini ham talab etadi. Masalan, 6-7 yoshli bola tabiat haqida ayrim hodisalarnigina emas, balki organizmning tabiat bilan bog‘liqligini va o‘zaro ta’sirini ham tushunishi va o‘zlashtirishi mumkin. 6-7 Yoshli bolalar aqliy rivojlanishning natijasi bo‘lib, yuqori darajada rivojlangan ko‘rgazmali obrazli tafakkur bilan bola atrof olamdagi predmetlarning asosiy xususiyatlarini va predmetlar orasidagi bog‘liqlikni ajrata olishidir. SHuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, ko‘rgazmali-harakatli va ko‘rgazmali-obrazli tafakkur nafaqat 6-7 yoshli bolalar, balki kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ham

aqliy rivojlanishida asosiy vazifani bajaradi. Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy, ijtimoiy-psixologik tayyorgarligiga ham bog'liq.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'rtog'ining salbiy xususiyatlarini ko'pchilik va begonalar o'rtasida bemalol ayta olish xususiyatiga ega bo'ladilar. Bu esa axloqi va odobi jihatidan tanqidga uchrayotgan bolani o'rtoqlari jamosiga qo'shilishdan bosh tortishiga yoki umuman maktabga kelishni istamasligiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sabab bolani o'rtoqlari va ustozlari tomonidan tanqidga uchramaydigan darajada axloq-odob qoidalariga o'rgatish ahamiyati jihatidan kam bo'lmagan axloqiy tayyorgarlik hisoblanadi. Bolani maktabga irodaviy tayyorgarligi uni yangi kun tartibiga amal qilishida, dars jarayonida qunt bilan bilimlarni o'zlashtirishida, uy vazifalarini bajarishida o'z yordamini ko'rsatadi. Maktabga o'qish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeini - turli majburiyatlari va huquqlari bo'lgan va unga turli talablar qo'yiladigan - o'quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo'lmog'i lozim.

Mazkur xohish va harakat bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun tabiiy ravishda asos bo'la oladi. Bolaning endi o'zini katta bo'lganini, bog'cha bolasi emas, balki ma'lum bir majburiyatlari bor o'quvchi bo'lishini anglashi, jiddiy faoliyat bilan shug'ullanayotganligini bilishi nihoyatda muhim. Bolaning maktabga borishini istamasligi ham salbiy holat hisoblanadi. Maktabga shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik bolalarda tengdoshlari, o'qituvchilari bilan munosabatga kirisha olish xususiyatini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Har bir bola bolalar jamoasiga qo'shila olishi, ular bilan hamkorlikda harakat qila olishi, ba'zi vaziyatlarda ularga yon bosib, boshqa vaziyatlarda yon bosmaslikka erisha olishi zarur. Ushbu xususiyatlar bolaning maktabdagi yangi sharoitlarga tez moslasha olishini ta'minlab beradi. 6-7 yoshli bolalar o'qishidagi asosiy qiyinchilik shundaki, ko'pincha bu yoshdagi bolalar o'qituvchini uzoq vaqt davomida tinglay olmaydilar, o'quv harakatlariga uzoq vaqt o'z diqqatlarini qarata olmaydilar. Bunga sabab, faqat, shu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanmaganligida emas, balki bolaning kattalar bilan muloqotga kirisha olish xususiyatiga ham bog'liq. Chunki, shu xususiyati rivojlangan bolalar erkin muloqotga kirisha oladilar, qiziqtirgan narsalar haqida so'ray oladilar. Natijada

ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlari ortadi va o'qituvchi gapirayotgan narsalarni diqqat bilan uzoq vaqt eshita oladilar. Demak, bolaning maktabga tez moslashishi va muvaffaqiyatli o'qishida shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligining ham ahamiyati juda katta.

Bu davrda bolalarda avvalo bilish sohalari, so'ngra esa emotsional motivatsion yo'nalish bo'yicha ichki shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo'nalishdagi rivojlanish obrazlilikdan ramzlikkacha bo'lgan bosqichlarni o'taydi. Obrazlilik deyilganda bolalarning turli obrazlarni yaratishi, ularni o'zgartirishi va erkin harakatga keltirishi, ramzlilik deyilganda esa belgilar tizimi ya'ni matematik, lingvistik, mantiqiy va boshqalar bilan ishlash malakasi tushuniladi. Maktabgacha yosh davrda ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Ijodkorlik layoqati, asosan, bolalarning qonstruktorlik o'yinlarida, texnik va badiiy ijodlarida namoyon bo'ladi. Bu davrda maxsus layoqatlar kurtaklarining birlamchi rivojlanishi ko'zga tashlana boshlaydi. Maktabgacha davrda tasavvur, tafakkur va nutq umumlashadi. Bu esa bu yoshdagi bolalarda tafakkur qilish omili sifatida ichki nutq yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi. Bilish jarayonlarining sintezi bolaning o'z ona tilini to'liq egallashi asosida yotadi. Bu davrda nutqning shakllanish jarayoni yakunlana boshlaydi. Nutq asosidagi tarbiya jarayonida bolada sodda axloq me'yorlari va qoidalar egallaniladi. Bu me'yor va qoidalar bola axloqini boshqara oladi desak mutlaqo to'g'ri bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Efimkina R.P. Psixologiya razvitiya. Metodicheskie ukazaniya. – Novosibirsk, Novosibirskiy gos. un-t, 2014. – 54 s.
2. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya: Ped. in-t.talabalari uchun o'quv qo'llanma/ M.G.Davletshin umumiy tahriri ostida. – T.: O'qituvchi, 1999. – 194 s.
3. Saviya.uz

OILADAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA BOLANING RUHAN VA JISMONAN BARKAMOL SHAXS BO'LIB SHAKLLANISHIGA TA'SIRI

Nortajiyeva Ra'no Nurmatovna
Samarqand viloyati Paxtachi tumani 42-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oiladagi shaxslararo munosabatlarda bolaning ruhan va jismonan barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga ta'siri haqida bir qancha ilmiy-ommabop fikr-mulohazalar ilgari surilgan bo'lib, u o'quvchilar uchun foydali bo'ladi degan umiddamiz.

Kalit so'zlar: Oila, ota-ona, shaxslararo munosabatlar, muhit, farzand, shaxs, na'muna, muloqot.

Insoniy munosabatlar shunday o'zaro ta'sir jarayonlariki, unda shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Bunday jarayon dastlab odamlar orasida ro'y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvishu-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo'lishgani sari, ular o'rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari ular o'rtasida umumiylik, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'ladiki, ular bir-birlarini bir qarashda tushunidigan fikr ayon bo'ladigan bo'lib qoladi, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning muloqotning tig'izligi teskari reaksiyalarni- bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig'iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tig'izlik oilaning barcha a'zolari o'rtasida bo'lishi mumkin ya'ni ona-bola, qynona-kelin va hokazo.

Shaxslararo munosabatlarni o'rganish psixologiya fanida eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki inson shaxsining eng nufuzli va etakchi faoliyatlaridan biri bo'lgan muloqot va u orqali o'zaro munosabatlar odamlar orasida umumiylik, o'xshashlik, uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'lishiga olib keladi.

Ayniqsa, oila muhitida shaxslararo munosabatlarning, chunonchi, ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarning o'ziga xos tomonlari shaxsning hayoti, faoliyatining samarasi va mazmuniga bevosita ta'sir etadi. Sharq madaniyati va ma'naviyati shu qadar

noyob, betakror va jozibali bo‘lib, buning asosiy sabablaridan biri o‘zbek oilasining betakror muhiti, undagi an’analar, rasm-rusmlar va qadriyatlarning barhayotligidadir. Zero har qanday oila inson taqdiri va kamolotini, kelajagini belgilab beruvchi omil ekanligi bilan xarakterli hisoblanadi. Ayniqsa, undagi an’analar, milliy qadriyatlar ma’naviy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan yuqori bilimli, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxsni, ya’ni sog‘lom avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazishda ularning o‘rni va ahamiyati kattadir. Demak, oila-hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasl qanday inson bo‘lib etishishiga ta’sir ko‘rsatadigan katta tarbiya o‘chog‘idir. Oila farovonligi-milliy farovonlikning asosidir. Oilada eng avvalo: halollik, rostgo‘ylik, mehr-oqibat, or-nomus, sharmu-hayo, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlar shakllanadi. Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas vatan sanalgan. Agar oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, mahallada tinchlik va osoyishtalik hukm suradi. Oila va bola tarbiyasi muammosi hamma vaqt dolzarb masala bo‘lib kelgan.

Oilalarning muhiti qanchalik axloq-odobning madaniyat qoidalari va milliy qadriyatlari asosida tashkil topgan bo‘lsa, bola shaxsining to‘g‘ri shakllanishi uchun shart-sharoit yaratilsa, shaxs shunchalik barkamol, komil inson bo‘lib yetishadi. O‘zbek oilasidagi an’anaviy ta’lim-tarbiya namunalarini farzandlarimizga amaliy tarzda o‘rgatib, oilaviy munosabatlar madaniyatini yuksaltirishga da’vat etib shu orqali ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni oqilona tashkil etishga yordamlashish hammamizning vazifamizdir. Yosh avlodga ma’naviy, axloqiy tarbiya berishning yo‘llari va vositalari xilma-xil bo‘lib, bular ichida yoshlarni xalqimizning milliy an’analarini ruhida tarbiyalash alohida o‘rin tutadi.

Haqiqatdan ham, yaratilgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklarning ijodchisi bo‘lishi bilan birga asrlar davomida yaratilgan bu ma’naviy boyliklar yana xalq manfaatiga xizmat qiladi. Milliy an’analar xalqimizning ana shunday ma’naviy boyliklaridan biridir.

Ma’lumki, an’analar muhim ijtimoiy hodisa bo‘lib, kishilarning odatlari, yurish-o‘tirish qoidalari, axloq normalari bo‘lib, asrlar davomida yashab kelsada, avloddan-avlodga o‘tar ekan, mazmuni yanada boyiydi va insoniyat donishmandligining ifodasi

sifatida xalq pedagogikasiga aylanadi. Bu donishmandlik odamlarning turmushi, his-tuyg'ulariga singib, ularning shunchaki qarashlari va ideallarigina emas, shu bilan birga, ijtimoiy ong formasi ham bo'lib qoladi. Ularda odamlarning dilidagi, ko'nglidagi, psixologiyasidagi eng ezgu orzu istaklari o'z ifodasini topadi. O'zbek xalqi, mamlakatimizdagi boshqa qardosh xalqlar kabi Yoshlarga axloq tarbiyasini berishda o'zining azaliy an'analarga ega bo'lgan. Bizning hozirgi kundagi vazifamiz esa, o'tmishda avlodlar tomonidan yaratilgan eng yaxshi an'analarni o'rganish va hayotimiz talablariga mos holda rivojlantirishdir. Qadimiy, tarixiy manbalar, xalq og'zaki ijodi materiallari, sharq klassiklarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlarini sinchiklab o'rganish shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalqi qadim zamonlardan boshlab farzandni tarbiyalash sohasida o'ziga xos an'analarga ega bo'lgan. Ota-onalarning bolalarni sevishi, o'z navbatida farzandlarning ota-onani astoydil hurmat qilishi oila tarbiyasining ko'rki bo'lib hisoblangan. Sharq mamlakatlarida ayniqsa, ota-onalarning shaxsiy namunasi farzand tarbiyasining eng muhim usullaridan biri hisoblangan. Shunga ko'ra, o'g'il bolalar yurish-turishi, o'zaro muomalasi, erga ishlashi va kasb egallashda otasiga o'xshashlikka harakat qilgan. Ota kasbini egallash yaxshi tarbiyaning natijasi hisoblangan. Qizlar esa uyni saranjom-sarishta tutish, turli taomlar tayyorlash, to'qish va tikish, mehmon kutish kabi ishlarda onasiga o'xshashga harakat qilganlar. An'anaga ko'ra, farzandlar yurish-turishi va o'zaro munosabat qoidalari, Yoshlarning ota-ona va kattalar oldidagi burchi, mehnati, kasb-kori va ularning inson hayotidagi roli haqidagi dastlabki tushuncha va tasavvurlarni oilada olganlar.

Agar o'g'il bolalarga oila tashvishi bilan yashash, uning shon-shuhrati uchun kurashishi, yoshlikdan biror kasbning boshini tutish, har qanday mehnatga tayyor turish kabi sifatlar sindirilsa, qizlarga esa kattalarni hurmat qilish, ota-onalarning so'ziga quloq solish har doim nazokatli va shirin so'z bo'lish, ota-yoki boshqa katta kishilar uyga kirib kelishganida o'rnidan turib qarshi olish kabi odob va ma'naviy hayot qoidalari oilada o'rgatilar edi. Hayot tajribasini ko'rsatishicha, jamiyatning ravnaqi, gullab-yashnashi, farovon hayotning asosiy mezonini axloq-odob bo'lib hisoblangan. Shuning uchun ota-bobolarimiz oilaga, oilada bola tarbiyasiga, ularning ma'naviy kamoliga,

axloqiga katta e'tibor berib kelganlar. Demak, jamiyat mustahkam, ma'naviy va axloqiy jihatdan sog'lom oila bo'lishidan manfaatdordir.

Shunday ekan, kattalarning farzand tarbiyasi yuzasidan mas'uliyatini, salohiyatini kuchaytirish, ularning pedagogik layoqatini oshirish, oilaviy va ijtimoiy tarbiya birligini ta'minlash davr talabidir. Oiladagi nosog'lom muhit juda ko'p illatlar qatori, odamning o'z salomatligi holatiga bo'lgan munosabatini salbiy tomonga o'zgartirib yuborishi mumkin. Bunday o'zgarishlarning ham turlicha sabablari bor. Masalan, agar oila a'zolari ma'lum sog'lom turmush tarziga o'rgangan bo'lsalar ham, biror sabab bilan shu oilada nizo, janjal kelib chiqsa, bu holat barcha oila a'zolari tafakkurining salbiy tomonga o'zgarishiga olib kela-di. Bu o'z navbatida umuman faollikning pasayishini keltirib chiqaradi. Demak, o'zaro muomaladagi sog'lom ruhiyat, samimiyat mavjud ijobiy odatlarning barqarorligini kafolatlaydi desak rost aytgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi: O`quv qo`llanmasi. – T., 2006.
2. Xalmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – Toshkent: O`zbekiston, 2000.
3. G`oziyev E.X. Muomala psixologiyasi (O`quv Qo`llanma). – T.: O`zMU, 2001.

MAKTAB O'QITUVCHISINING O'Z ILMIY, O'QUV-USLUBIY SALOHIYATINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

*Karaqulova Nilufar Abdimajitovna,
Norbekova Yulduz Valiboy qizi
Samarqand shahar 81-maktab psixologlari*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktab o'qituvchisining o'z ilmiy, o'quv-uslubiy salohiyatini oshirishning psixologik muammolari haqida ilmiy-psixologik ma'lumotlar va mulohazalar ilgari ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: O'qituvchi, bilimlar, psixologik muammo, qobiliyat, ishchanlik, pedagogik mahorat, uslub, psixologik muhit.

Hozirgi jamiyatimizda o'qituvchining mustaqil ravishda bilimlarni egallab, o'z malakasini oshirib borishi – bir tomondan o'qituvchilik faoliyatining borgan sari naqadar muvaffaqiyatli borayotganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan muhim vazifa ekanligidan dalolat beradi – chunki, bu kechiktirib bo'lmaz jarayon shaxsni intellektual qashshoqlikdan qutqarib qoladi.

Psixologik nuqtai-nazardan o'qituvchi doimiy ravishda o'z bilimlarini oshirish bilan shug'ullanishi zarurdir. Chunki o'qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagog har doim odamlar orasida bo'larkan, u birinchidan, odamlarni ko'pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o'z qarashlari bo'yicha to'g'ri tushuntirib berishi lozim. Albatta, o'qituvchidagi bu tariqa qarashlar ko'p yillar davomidagi mehnat va hayot faoliyati jarayonida shakllanadi; ikkinchidan, o'qituvchining o'zi axborotlar olish uchun o'quvchilarga nisbatan cheklangan vaqt imkoniyatiga ega; uchinchidan, u o'ta tor doiradagi tengqurlari bilangina muloqotda bo'lish imkoniyatiga ega bo'lib, ko'pincha o'z kasbiga xos qiziqishlar bilangina cheklanib qoladi.

Ta'limning barcha ko'rsatkichlari, Z.I.Kalmikovaning ta'kidlashicha, anglash tezligiga, yangi vazifalar hal qilinishiga erishish mumkin bo'lgan aniq ma'lumotlar hajmiga, uni bevosita hal qilishdagi bosqichlar soniga natijaga erishishga yordam beruvchi ma'lumotlar miqdori, Shuningdek, masalani hal qilish uchun sarflangan vaqt miqdori, o'z-o'zining bilimini oshirish qobiliyati, ishchanlik va chiniqqanlik darajasiga bog'liq. Bu o'rinda A.K. Markova taklif etgan bilim egallash ko'rsatkichlari ham muhim ahamiyatga molikdir:

Bu ko'rsatkichlar asosida o'zlashtirishni aniqlash uslubi ishlab chiqilgan bo'lib, Z.I.Kalmykova fikricha, uning asosini quyidagi ko'rsatkichlar tashkil etadi:

- Diagnostik kompleks amalga oshirilib, u “analitik” emas balki “sintetik” yo'lga suyanishi lozim;

- Diagnostika uslublari tabiiy o'qitish tajribalarida qo'llanilayotgan o'quv materiallariga tayanishi, ijobiy xususiyatlari laboratoriya tajribalari qat'iy bog'lanishi

lozim, ayniqsa, sinov natijalarini qayd qilishda, miqdor va sifat tahlillarini jarayon vaqtida belgilab borishda, echilish usullari va ko'rsatilayotgan yordamni yozib borishda qat'iy aniqlik talab qilinadi;

- Muammoli o'quv jarayonida iloji boricha qolgan barcha shartlar tenglashtirilgan holatda ta'lim diagnostika qilinadi;

- Diagnostik tajriba vaqti uni qayd qilish talab qilinganda chegaralanmasligi lozim;

- Individual va jamoaviy diagnostik jarayonlarni birgalikda ko'rib chiqish ta'lim jarayonini to'liq va aniq ko'rsatib bera oladi.

O'qituvchining mustaqil bilim egallashi deganda, uning o'z bilimlarini doimiy ravishda kasbiy va umummadaniy axborotlar bilan to'ldirib, o'zining individual ijtimoiy tajribasini keng miqyosda doimo yangilab borishi tushuniladi.

Odatda aksariyat o'qituvchilar mustaqil bilim egallash zarurligini tushungan holda, undan muvaffaqiyatli foydalanadilar. Buning motivlari odatda pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi oldida yuzaga keladigan muammolarni anglab olish natijasida shakllanadi. Ko'p hollarda bunday motivlar o'qituvchilarni qanday o'qitib va qanday tarbiyalash kerak, degan xohish-istaklar tariqasida, fanning oxirgi yutuqlari, o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish ehtiyoji tug'ilishi munosabati bilan shakllana boradi.

Shu bilan birga yaqqol ko'zga tashlanib turgan ayrim hollardan ko'z yuma olmaymiz. Masalan, o'qituvchilar ommasining ma'lum kismi mustakil izlanishda bo'lib, o'z bilim saviyasini oshirish bilan faol shug'ullanmaydi, malakasini oshirishga intilmaydi, ba'zilar muayyan bilimlar sohasida taraqqiyotdan butunlay ortda qolmokdalar. Bunday o'qituvchilar o'sib kelayotgan Yosh avlodning ta'lim va tarbiya taraqqiyotiga jiddiy zarar keltiradilar.

Bu mammoni hal etishda asosiy vazifa malaka oshirish tizimi zimmasiga tushadi. Respublikamizda xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish institutlarining tarmoqlari joriy etilgan. Xalq ta'limidagi bu tizimning asosiy vazifasi doimiy ravishda o'qituvchi kadrlarning malakasini oshirish, o'qituvchi kadrlarni o'zlarining kasbiga xos bilim saviyasini, ko'nikma, malakalarini, ma'naviyat va ma'rifatini, shu bilan bir qatorda

iqtisodiy, ekologik va huquqiy ma'lumotini oshirishga da'vat etuvchi IJTIMOIIY PSIXOLOGIK SOHALARni rivojlantirib borishdan iboratdir.

O'qituvchining mustaqil bilim egallashi va malakasini oshirish pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishda zaruriy shartlardandir.

Shu bilan birga o'qituvchi doimiy ravishda o'z malakasini oshirib, o'z ishining muvaffaqiyatini yuqori darajada ta'minlashga yordam beradigan shaxsiy hislatlarini tarbiyalab borishi zarur. Shayx Najmiddin Kubro «Ey mo'min, haqiqiy komillik yuzaga kelgunga qadar bir g'ayrat va hikmat bilan sayri suluk qilish lozim. Bu yo'l parishonlik, yalqovlik va tanballikni ko'tarmaydi, zohir, birlik va butunlikni talab qiladi. Soyirlarga yaxshilab qara, parishon va sustlashganlar yo'lda ilgarilay olmaydilar. Bu yo'l muhabbat ahlidan g'ayratli, elib yuguruvchi va uzluksiz harakatda bo'lganlarning ravishidir» deb ko'rsatgan.

Shayx Najmiddin Kubroning tasavvuf nazariyasini boyitishga qaratilgan ushbu purma'no fikrlari ayni paytda o'zining ijtimoiy-pedagogik qiymati bilan ham ajralib turadi. G'ayratli, hikmatli inson ijtimoiy faol, jamiyat rivojiga o'z ulushini qo'sha oladigan shaxs sifatida tan olingan bo'lsa, yalqov, tanbal, parishon insonlar xalq nazaridan chetda qolib ketganligi bilan bugungi kunda ham o'zining tegishli bahosini olmoqda.

Bu borada hazrati Bahouddin Naqshband "Chaqmoq tosh qo'limizga berilgan, faqat harakat qilish kerak, toki natija hosil bo'lsin" deb ta'kidlaganlar. Bu fikr bilan u ijtimoiy tarbiyaning o'rniga ishora qiladi, to'g'ri tarbiyaning mohiyatini, uning samarasini aniq o'xshatishlar bilan asoslab beradi.

Hozirgi zamon ilm-fan taraqqiyotini buyuk allomalar yaratgan bir necha qimmatli asarlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu nodir asarlar bir necha asrlar ilgari yaratilgan bo'lsa-da, o'z qimmatini yo'qotgan emas desak mutlaqo to'g'ri aytgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fridman L.M., Kulagina I.YU. Psixologicheskiy spravochnik uchitelya. – M.: Prosvetzenie, 1991. – 288 s
2. G`oziyev E. Umumiy psixologiya. Psixologiya [mutaxassisligi uchun darslik](#), 1-kitob Toshkent «Universitet» nashriyoti , 2002.

TALABALARDA IJTIMOYIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHLTLARI

Ergasheva Surayyo Faxriddin qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti, Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi
1-kurs magistratura talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning psixologik jihatlari va ular hayotida motivatsiyaning o'rni hamda ularni amaliyotga tatbiq etishning ahamiyati ilmiy asoslarga tayangan ravishda mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Talabalar, ijtimoiy faollik, muhit, motiv, oliy ta'lim muassasasi, o'quv jarayoni, ruhiy jarayonlar, tayyorgarlik, faoliyat.

Dunyoda oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy faolligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish, ularning ijtimoiy tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlashga doir yangi pedagogik-psixologik vositalarni ishlab chiqish, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ faoliyatni samarali tashkil etish malakalarini rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ijtimoiy faollikni rivojlantirishning asosiy omillari sifatida talabalarda axloqiy-estetik dunyoqarash va siyosiy ijtimoiylashuvni qaror toptirish alohida e'tirof qaratilmoqda. Shuningdek, ijtimoiy faollikning psixologik mexanizmlari sifatida talabalar axloqiy, kasbiy va kommunikativ tayyorgarligining psixologik asoslari, taraqqiyot g'oyalariga ongli munosabati, texnokratik fikrlashini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy faol talaba va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jamiyatimizda milliy istiqloq g'oyasi asosida olib borilayotganligi bilan demokratik va milliy xususiyat kasb etadi. Bu borada hukmronlikka, bo'ysunishga va itoatkorlikka asoslangan pedagogika o'rnini ta'limni insonparvarlashtirish, ijodkorlik, ilmiylik, hamkorlik, ijtimoiy faollik va do'stona munosabatlar ustuvorligi tamoyillariga amal qilinmoqda. Buyruqbozlikdan xoli bo'lgan boshqarish usuli yo'lga qo'yilmoqda. Jamoada inson omiliga e'tibor kuchaytirilmoqda, mehr-muruvvat, ijtimoiy himoya, sofdillik, haqqoniylik va adolat kabi insoniy fazilatlarga asoslangan ma'naviy-ruhiy muhit yaratilmoqda. Ijtimoiy faollik murakkab jarayon bo'lib, insonda birdaniga vujudga

kelmaydi. Olib borilgan tadqiqotlar talaba shaxsida ijtimoiy faollik shakllanishi uning ushbu kasbni tanlagan davriga to'g'ri kelishini ko'rsatdi. O'qituvchi o'z kasbining mas'uliyati va qiyin tomonlarini, ayniqsa, xalq manfaati va Vatan ravnaqi yo'lidagi o'rnini qanchalik erta anglab yetsa, unda ijtimoiy faollik kurtaklari shunchalik tezshakllanadi. Bu holatni boshqa kasblar misolida ham aytish mumkin bo'ladi. Shu asosda aytish mumkinki, kasbiy faoliyatida intiluvchanlik pozitsiyasida tura oladigan talabaga ijtimoiy faol talaba deyiladi. Pozitsiya deganda shaxs (ayni paytda mutaxasss)ning faol o'rni, maydoni, muayyan holati va vaziyatiga ega bo'la olishi tushuniladi. Aksariyat holda bola oilasida ota-onasiga, o'zidan kattalarga, o'qituvchisiga, albatta, taqlid qila boshlaydi. Ijtimoiy faollikka undovchi "motiv" talabaning shaxsiy istagi, qiziqish va kelajak orzu-niyatlarini, kasbiga qiziqishi yo'lidagi maqsadini belgilovchi omil vazifasini o'tashi mumkin bo'ladi. Talabanning o'quv-biluv jarayonidagi faolligiuning kasbiga bo'lgan qiziqishi yo'lidagi maqsadini yanada oydinlashtirishini ko'rsatdi. Hozirgi taraqqiyotning jadal suratlar bilan ilgarilab ketishida inson omilining o'rnini beqiyos hisoblanadi. Chunki, har qanday shaxsning mehnatga, shu jamiyat ma'naviy-siyosiy jarayonlariga, iqtisodiyotiga bo'lgan, kechayotgan ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, har bir shaxs u yoki bu oilaning, biron-bir jamoa, guruh, tashkilot, idoraning, umuman olganda ushbu jamiyatning a'zosi hisoblanib o'z dunyoqarashi, faoliyati bilan ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan olib qaralganda inson munosabatlari, qarashlari va faoliyatlarining qanchalik ijtimoiylashuvi, ya'ni uning oila, ushbu jamiyat manfaatlarini uzviy qo'shib olib borishligi o'ta muhim, dolzarb masaladir. Demak, insonni ijtimoiylashuvi, ijtimoiy muhitga monand tarbiyalanishi bugungi kunda, oila, jamiyat, davlat oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi. Ushbu vazifani to'laqonli hal etishda oila, ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlarining faoliyatini yagona tizim asosida yo'lga qo'yish zarur. Tarbiya amaliyotidan ma'lumki, har qanday ishlab chiqilgan ta'lim-tarbiya tizimi, agar muhit bilan, to'g'rirog'i mazkur ijtimoiy tuzum sharoiti bilan to'g'ri kelmasa, u holda bu tizim ko'zlangan maqsadni to'laqonli amalga oshira olmaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda talabalarni ijtimoiy faol qilib tarbiyalash yuzasidan ishlab chiqilgan ta'lim-tarbiya tizimi birinchi navbatda mazkur ijtimoiy

muhitni hisobga olgan holda shaxs tarbiyasiga muhitli yondoshuvni amalga oshirishni talab etadi. Keyingi yillarda ijtimoiylashtirish, ijtimoiy moslashish muammolari bilan bog'liq holda muhit fenomeniga ya'ni ayniqsa, bu o'rinda oila muhitiga bo'lgan qiziqishlar bir qator pedagog tadqiqotchilarning: B.N.Almazov, V.G.Bagapov, A.V.Mudrik, V.A.Slastenin va boshqalar e'tiborini o'ziga tortmoqda. Hozirda tadqiqotchilar tomonidan keng muhokama etilayotgan tarbiyaviy tizim va uni amalga oshirishdagi tarbiyaviy maydon, ijodiy laboratoriyalar ijtimoiy institutlar, birlashmalar ushbu muammolar yechimida muhitni ta'sirini boshqarishga va uning munosabatlari texnologiyasiga ko'proq e'tibor berish zarurligini aytmoqdalar.

Shu sababli muhitni ayniqsa, oila muhitining imkoniyatlarini to'laroq aniqlash, xalqimizning bu boradagi boy tarbiya merosini o'rganish va ulardan unumli foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga, eng muhimi pedagogtashkilotchilar, jamoat tashkilotlari o'shanday muhitni, tarbiyaviy maydonni yaratish, uning mexanizmini ochib berish va bu o'rinda ta'lim muassasalari yetakchiligini ta'minlashning optimal variantlarini ishlab chiqish mazkur masalani hal etishni yanada oydinlashtiradi. Bunday tarzda hal etish esa talaba faoliyatini maqsadli yo'lga qo'yish, uning ijtimoiylashuvini tezlashtirish, unga ta'sir etishni samarali bo'lish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi. Nazariy jihatdan olib qaralganda, ushbu masala talaba shaxsini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini muhit vositasi ila boshqarishning texnologiyasini o'z ichiga oladi. Amaliy jihatdan esa, subyekt pedagogni muhit bilan birgalikda boshqarish, harakat tizimi, ya'ni tarbiya natijalarini tashxis qilish, loyihalash va natijali bo'lish vositasiga aylantirishga qaratilgan faoliyat tizimidir. Tabiiyki, shunga muvofiq tarzda, har bir toifa vakillari ishining muvaffaqiyat va faoliyatning samarasi turlicha bo'ladi. Bunga har bir shakldagi davogarlik darajasi yuqoriroq bo'lganlar bilgan-bilmaganini isbot qilishga urinsalar, ana shunday darajasi pastlar bor bilganini ham yaxshi aytib berolmay, yana o'qituvchi bilan tortishmaydilar ham. Shuning uchun ham har birimiz ijtimoiy motivlaridan tashqari shaxsiy xislatlarimizni ham bilishimiz va ongli tarzda xalqimizni boshqara olishimiz kerak. Motivlarning anglanganlik darajasi, ijtimoiy ustanovka va uni o'zgartirish muammosi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, motivlar, ya'ni xatti-harakatlarimizning sabablari biz tomonimizdan anglanishi yoki anglanmasligi mumkin. Yuqorida keltirilgan

barcha misollarda va holatlarda motiv aniq, ya'ni shaxs nima uchun u yoki bu turli faoliyatni amalga oshirayotganligini nima sababdan muvaffaqiyatga erishayotganligi yoki mag'lubiyatiga uchratganini biladi. Lekin har doim ham ijtimoiy tajriba xulq motivlari avval ta'kidlaganimizdek ijtimoiy ustanovka (inglizcha "attitud") hodisasi orqali tushuniladi. Demak, ijtimoiy ustanovka, shaxsning ijtimoiy obyektlar, hodisalar, guruhlar va shakllarni idrok qilish, baholash va qabul qilishga nisbatan shunday tayyorgarlik holatini u bu baho yoki munosabatning aslida qachon shakllanganligini aniq anglamaydi desak xato aytmagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. – T., 2000.
2. Ma'rasulov D. "Yoshlar istiqboli yo'lida g'amxo'rlik qilish, kelajak avlod tarbiyasi uchun qayg'urish, o'z ertasini o'ylash mamlakat siyosatining ustuvor yo'nalishdir". T. Inson va Qonun 2008 y., 10 iYul
3. J.G'.Yo'ldoshev "O'zbekiston ta'lim taraqqiyoti yo'lida" Toshkent. 1994.
4. Xalq ta'limi: "Ijtimoiy faollikka o'rgatish yo'llari" №6, 2008.
5. Ziyonet.uz

FARZANDLAR O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR FARZANDLARARO QIZG'ANISH MUAMMOSINI QANDAY HAL ETISH MUMKIN?

*Jo'rayeva Kamolaxon Mamirjonovna
Farg'ona viloyati Dang'ara tumani 24- maktab psixologi*

"Oila men uchun muqaddas Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman», dedi u.

SH.Mirziyoyev

Annotatsiya: Ushbu maqolada farzandlar o'rtasidagi munosabatlar mustahkamlash va qizg'anish muammosini hal qilish tarbiya jarayoniga alohida e'tibor berish, yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda qaysi mezonlarga e'tibor berish kerakligi xususida so'z yoritilgan.

Kalit so'zlar; Oila maktabdan boshlanadi, oiladagi muhit va ta'lim muassasalari. Yosh avlod metodik qo'llanmalar.

Dunyoda har bir inson xech bir g'arazsiz o'zidan-da yaxshi bo'lishini istaydigan yagona borliq bu uning farzandidir. Darhaqiqat; har bir ota-ona farzandining aqlli zehni bo'lishini yaxshi ta'lim olishini istaydi. Farzandining yaxshi ta'lim olishi va bekamu ko'st ulg'ayishi uchun ota-ona qo'lidan kelgancha harakat qiladi. Afrikaning Gana degan davlatida Asxanti qabilasi bor. Bu qabilada shunday bir odat bor ekan chorshanba kuni tug'ilgan bolalarga (Kuvaku) Quwaku deb ism qo'yishar ekan. Bu so'z "Tajovuzkor" degan ma'noni anglatar ekan shu so'z bilan bolalarga murojaat qilishar ekan. O'tkazilgan tadqiqot natijasiga ko'ra Ganadagi jinoyatchilarning 50% mana shu ism berilgan bolalar tomonidan sodir etilar ekan. Shu sababli farzandlarizga qo'yadigan ismlarimiz ular shaxsiyatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaga yaxshi tarbiya berish, unga chiroyli ism qo'yish ota-onaning farzandi oldidagi muqaddas burchidir. Farzandlar o'rtasidagi munosabatlar demak bu qanday buladi Bolalar 3-4 yoshdan boshlab bolalar bog'chasida tarbiyalanishlari kerak. Oila tashqarisidagi ilk ijtimoiy muhitga ega maskan bo'lgani uchun xam ijtimoiy hayotga tayyorlanadilar. Insonlararo munosabatni o'rganadilar. Farzandlar o'rtasidagi qizg'anish hissi insoniyat tarixi qadar qadimiy sanaladi. Insoniyat tarixida ilk jinoyat aka-uka o'rtasidagi hasad sabab yuzaga kelgani bu masalaga jiddiy qarash lozimligini ko'rsatadi. Insonda yomon tuyg'u bo'lmaydi, faqat u yaxshilikka yo'naltirilmagan bo'lishi mumkin. Oilada farzand to'ng'ich, o'rtancha va kenja bo'lishiga qarab uning shaxsiyati turlicha bo'lishi mumkin

To'ng'ich farzand

To'ng'ich farzand oilaning birinchi farzandi bo'lgani sabab katta e'tibor ko'radi. chunki u insonning ota-onalik hissini to'yishiga va bundan masrur bo'lishiga sababchi bo'ladi shuning uchun butun vaxtini to'ng'ich farzandga ajratishadi. Keyin tug'ilgan farzand albatta himoya qilinish lozim bu albatta to'ng'ich farzandga yoqmaydi avvalgidek e'tibor

qilinmayotganini ko'rgan bola esa o'zini tark etilgan deb his qilishi mumkin. Farzandlar hech qachon bir-biri bilan taqqoslanmasligi lozim Farzandlardan birortasiga ko'proq e'tibor qaratish xam ular orasida qizg'anish xissini o't oldiradi.

O'rtancha farzand

Ota-ona o'rtancha farzandga nisbatan iliqroq munosabatda bo'ladi. To'ng'ich farzandga qilingan xatolar o'rtancha farzandga takrorlanmaydi

Kenja farzand

Kenja farzand oilaning diqqat markazida turadi va eng ko'p erkalanadi. U oilaning eng kichik a'zovidir Bu holat kenja farzandning xudbinlikning kuchli bo'lishiga sabab bo'ladi U o'zini dunyoning markazida deb o'ylaydi . Farzandlararo qizg'anish hissini qanday hal qilish mumkin?

Oilaga uka kelayotganini eshitgan daqiqadan boshlab katta farzandning ichida qizg'anish hissi paydo bo'ladi unga avvalgidek vaxt ajratolmaslik uni erkalab suyib olmaslik unga qattiq ta'sir qiladi Demak katta farzandning yangi tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan tuyg'ularini ko'rib chiqaylik Yangi tug'ilgan chaqaloq uyga kirib kelgandan keyingi jarayonni o'rganish juda muhim. Masalan: "Ukang tug'ilganidan xursandmisan" " chaqaloqni yaxshi ko'rasanmi" singari u xushlamaydigan hislarni kamroq ishlatganingiz ma'qul. Ko'proq katta farzandingizga haliyam uni juda yaxshi ko'rishingizni tez- tez eslatib turing Seni haliyam men juda juda yaxshi ko'raman " ukang bilan ko'proq mashg'ul bo'lsamda seni undanda ko'proq yaxshi ko'raman deng Harakatlaringiz so'zlaringiz bilan farzandlaringiz holatini tushunayotganingizni ko'rsating,shunda bola qizg'anish tuyg'usining aslida yomon ekanligini bilib xotirjam bo'ladi va uzini aybdor his etmaydi ko'proq unga bolajonim ukangga sen ma'suliyat bilan qaraysan " Men senda ukangga nisabatn ma'suliyat hissini ko'rib juda sevindim" degan so'zlarni ishlating bu so'zlar farzandlar o'rtasidagi mehr- muhabbat sevgi tuyg'ularini shakllanishiga sabab bo'ladi

Farzandlar o'rtasidagi janjal va tortishuvlardan uzoqroq bo'ling. O'z muammolarini o'zi hal qilishga o'rgansin, chunki ota-onaning bunday tortishuvlarga aralashishi ularning o'zaro munosabatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi Muammolarni hal etishda siz ko'proq ijobiy so'zlardan foydalaning Masalan " ikkalangiz xam bu muammoni hal etishingizga

ishonaman” muammoga yechim topa olasiz degan so’zlardan foydalaning. Farzandlaringizni bir-biriga qiyoslamang “ Nega ukangga o’xshab xonagni yig’ishtirib qo’ymaysan?” “ Vazifangni o’zing eslay olmaysanmi akangga biror marta xam eslatmagan edim” va hokazo

Farzandingizga shu shaklda muomala qilsangiz ularni ranjitib qo’yasiz, Siz yo’qotishga uringan qizg’anish va raqobat hissi bunday qiyoslash oqibatida yanada zo’rayib ketadi Bola o’zligini topishga urinayotgan bir paytda uni birortasi bilan qiyoslab kamsitsangiz uni qalbini yaralagan bo’lasiz. Har bir farzandgizga alohida shaxs sifatida qarang. So’zim oxirida jinsiy tarbiya haqida gapirib o’tmoqchiman Jinsiy tarbiya ota-onalar uchun eng ma’suliyatli holatlardan biridir Jinsiy tarbiya faqat ko’payish ilmi sifatida qaramaslik va ba’zi jihatlarga ahamiyat qaratish lozim savollarga yetarlicha javob ololmagan bola javobni boshqalardan qidiradi Bolaning ongsiz ravishda o’z o’rtoqlaridan olgan manbalari to’g’ri – noto’g’ri ma’umotlar olisi uning jismoniy va ruhiy deformasiyaga uchrashiga sabab bo’ladi jinsiy tarbiyadan maqsad bolaning o’z jinsiga ko’ra hatti – harakatlarini normal va sog’lom shaklda egallashga erishishdir, Farzandingizni o’zingiz bilan birga olib yotmang, ota-oansi bilan birga yotadigan bola ularga bog’lanib qoladi shu bois shaxsiyati rivojlanishi mushkullashadi. Bolaligida ota-onasi bilan sog’lom munosabat o’rnata olmagan yoshlar osonlik bilan atrofdagilarning ta’siriga tushib qoladi. Farzandingizning savoliga javob berar ekansiz, qanday holatda ekaningiz muhim sanaladi. Agar siz o’zingizni xotirjam tutib yumshoq ovozda javob bersangiz farzandingiz xam o’zini xotirjam tutadi So’zimni oxirida birinchi prizidentimiz

Islom. Karimov so’zlari bilan yakunlamoqchi man “ Odobli, bilimdon va aqlli ,mehnatsevar , imon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Sog’lom odobli, aqlli farzandlari bor inson chinakam boydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.”Amaliy Psixologiya” Psixologiya fanlar nomzodi Narzulla Boymurodov
- 2.Karimov .I.A Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori T:1997
- 3.Maktab oiladan boshlanadi yangi asr avlodi Ma’mura Qutliyeva

KASBIY STRESSNI YUZAGA KELISHIDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VAZIYATLAR

Raximova Yoqutxon Maxmudovna
Shahrisabz shahar 12-maktab psixologi

Ishlashga qobiliyatlilik yoki layoqatlilik (*work efficiency*) – inson faoliyatining unumdorligini hamda odamning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sharoitida quvvatini to'g'ri sarf bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi.

Izchil tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlanganki, zo'riqib ishlash tufayli paydo bo'lgan toliqish, u xoh ruhiy, xoh jismoniy bo'lishidan qat'iy nazar u xatti-harakatlarning tezligi va aniqligi, kuch va chidamlilik, mehnatning sifatiiy hamda miqdoriy natijalari, xatoliklarga ta'sir qiladi. Shu sababli, ishlash qobiliyati, kasbiy yaroqlilikni aniqlash yo'lida olib boriladigan ilmiy izlanishlar inson salomatligi va farovonligi hamda ish bajarilishining samaradorligiga ta'sir etuvchi stress, jismoniy zo'riqish, zerikish va boshqa salbiy asoratlarni kamaytirishga qaratilgandir.

Ishning samarali bajarilishi uchun sharoit yaratish mehnat psixologiyasi, muhandislik psixologiyasi, inson omillarining muhandisligi, kasb psixologiyasi yoki ergonomikada asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Mehnatning unumdorlilik masalasi tadqiqotlari, mehnat unumdorligini oshirish va toliqish, baxtsiz hodisalar miqdorini kamaytirish maqsadida, mehnat faoliyatini loyihalashtirish borasidagi yutuqlarga o'z hissasini qo'shadi.

Ushbu sohaning asoschisi hisoblangan, yuqorida aytilgan izlanishlarni boshlagan **F.Teylor** ta'kidlashicha, ishlash qobiliyatining unumdorligi va samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqarishga taalluqli barcha vazifalarni izchillik bilan o'rganish zarur. Shuningdek Teylor, xodimlar bajarayotgan ishlariga muvofiq kelishlari va ushbu ishlarni ilmiy asoslangan yo'riqnomalarga qat'iy muvofiq ravishda bajarishga o'rgatilgan bo'lishlari lozim.

Frenk va Lilian Gilbretlar tomonidan, toliqish bo'yicha olib borilgan boshqa ilk ishlar natijasi sifatida, ish jarayonida zo'riqishni kamaytirishga imkon beruvchi, turli

ishlar uchun maxsus kurslar yaratildi. Undan tashqari, F.Gilbret mehnat samaradorligini oshirish, toliqish muammosini hal qilishda, ishchilarning xatti-harakatlariga alohida e'tibor qaratish zarurligini, o'z izlanishlari orqali ilmiy asoslab bergan. Chunki, yuqorida keltirilgan "Xatti-harakatlarning psixologik tahlili" mavzuida berilganidek, ishchilarning "tabiiy" harakatlari ichida zarur, aql-idrokka asoslangan harakatlar bilan birga xatti-harakatlar ham uchraydi va aynan mana shu tartibsiz, ortiqcha va mantiqsiz harakatlar toliqish sabablaridan biridir. Izlanish natijalaridan xulosa sifatida **F.Gilbret**, xatti-harakatlarni muvofiqlashtirish va tejamkorlik g'oyasini olg'a surgan edi. Har qanday ishning unumdorligiga, yuqorida ko'rsatilgan omillardan tashqari:

- ishning davomiyligi;
- mazkur ish bilan mashg'ul bo'lgan ishchi, xodimlarning psixofiziologik xususiyatlari;
- ishchi va xodimlar holatlarining bevosita ta'siri borligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Olimlar tomonidan smena davomida unumdorlik egri chizig'iga ta'sir etuvchi omillarni ajratish harakat qilingan. Bunday ishlar ichida birinchilardan bo'lib, E.Krepelin tomonidan aqliy faoliyat unumdorligining egri chizig'ini tahlilini ko'rsatish mumkin. 2002 yilda rus psixologi **E.Krepelin** tomonidan mehnat unumdorligi egri chizig'i bog'liq bo'lgan 5 ta omilni ko'rsatilgan:

- Mahorat.
- Toliqish.
- Ishga ko'nikish.
- Rag'batlantirish (stimullash).
- Irodaviy zo'riqish.

Bunda mahorat ish unumdorligini oshirsa, toliqish esa pasaytiradi. Rag'batlantirish mehnat faoliyatiga undaydi, irodaviy zo'riqish esa uni tez-lashtiradi. Dam olish ijodiy quvvat quyilib kelishiga va mahsuldorlikni oshiradi.

1990 yilda esa, **E.A.Derevyanko** uchuvchilar faoliyatini parvoz sharoitida va laboratoriya sharoitlarida tadqiq etib, unumdorlik egri chizig'iga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatgan.

Bular quyidagilardir:

- Tananing mazkur ishga nisbatan maksimal imkoniyatlari.
- Faoliyatning samaradorligi.
- Emotsional-irodaviy zo‘riqish.
- Toliqish.

Bu yerda **ishga nisbatan imkoniyatlar** deganda, ishchining psixofiziologik imkoniyatlari, ya’ni mazkur faoliyat turi bo‘yicha ko‘nikmalari nazarda tutiladi.

Mehnat jarayonida ishchining **emotsional-irodaviy zo‘riqish** holati ishning qanday borishini, ya’ni mehnat dinamikasini belgilaydi.

Kasbiy stress holati

Kasbiy stress (*occupational stress*) — odamlarning va ular tomonidan bajarilayotgan ish orasidagi o‘zaro ta’sirining natijasi bo‘lib, bunda insonlarga normal faoliyat ko‘rsatishiga halaqit beruvchi ma’lum bir o‘zgarishlar nazarda tutiladi.

Kasbiy stressning juda ko‘p individual asoratlari topilgan. Bunday jismoniy o‘zgarishlardan bir qanchasi quyidagilardir: yurak-qon tomir tizimining kasalliklari, oshqozon-ichak kasalliklari, nafas a’zolari kasalliklari, rak, artrit, bosh og‘riqlari, tana shikastlanishi, teri kasalliklari, jismoniy zo‘riqish yoki toliqish va o‘lim.

Kasbiy stressga nisbatan ruhiy ta’sirlanishga: xavotirlanish, depressiya, qoniqmaslik, zerikish, somatik darmonsizlik, ruhiy charchoq, tushkunlik va nochorlik bo‘yicha, o‘z o‘ziga past baho berish, boshqalar bilan aloqaga kirishishdan qochish, psixozlar, qahr-g‘azab, shaxsiy tuyg‘ularini ichida saqlash va diqqatini jamlashga qurbi yetmaslik kabi shikoyatlar ham ichiga kiradi.

Kasbiy stressning xulq, fel-atvorda quyidagi asoratlari kuzatiladi: shifokorlarga murojaat qilish, dori-darmonlarni qabul qilish va ba’zida keragidan ortiq dori iste’mol qilish, qattiq emotsional ta’sirlanish, yoki buning aksi, befarqlilik, imo - ishora va yurish-turishning asabiyligi, xavfli xatti-harakat, tajovuzkorlik, qo‘pollik, o‘g‘rilik qilishga moyillik, odamlar bilan yomon munosabat, suitsidal urinishlar yoki suitsid.

Ammo shuni ham ta’kidlash muhimki, konkret o‘zgarish, ta’sirlanishga taalluqli ma’lumotlar umuman olganda yetarli emasdir. Shuning uchun, quyidagicha xulosa qilish

to'g'ri bo'lardi: kasbiy stress odamning farovon hayotiga ziyon yetkazishi mumkin, ammo aynan mana shu salbiy ta'sir o'zini qanday namoyon qilishi, noma'lum bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, har xil tipdagi odamlar, ta'sir kuchi jihatidan bir xil bo'lsa ham, ularning kasbiy faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan stressorlar, ya'ni stress holatini qo'zg'atuvchilarga nisbatan har xil ta'sirlanadilar.

Kasbiy stresslarning **manbalarini 3 ta asosiy kategoriya, mezonga ajratish mumkin:**

a) tashkiliy tavsiflar va jarayonlar;

b) mehnat shart-sharoitlari va shaxslararo munosabatlar;

v) ish tomonidan qo'yiladigan talablar va rollar bo'yicha tavsiflar.

Tashkiliy tavsiflar ichida stresslarga taalluqlilariga:

- yuqori darajadagi markazlashuv,
- qog'ozbozlik va ixtisoslashuv, shuningdek,
- tashkil etishning katta hajmliligi,
- xizmat pog'onalari bo'yicha ko'tarilishning murakkabligi hollari kiradi.

Shuningdek, stressning manbalari deb, quyidagi hollar ham hisoblanadi:

- mehnatga haq to'lashning tengsizligi,
- xodimlarni tez-tez joyini o'zgartirilishi,
- fikr almashishning juda kamayib ketishi,
- ishlab chiqarish vazifalarining aniqmasligi yoki qarama-qarshiligi,
- smenali ish,
- bajarilgan ishga nisbatan noto'g'ri qaror qabul qilish va h.k. vaziyatlar.

Ishlab chiqarish stressorlari deb esa, mehnatning quyidagi shart-sharoitlari hisoblanadi:

- tiqilinchlik,
- yolg'iz qolishning imkonsizligi,
- yuqori darajadagi shovqin,
- haroratning pastligi yoki aksincha balandligi,
- yoritilganlikning yetarlicha emasligi,

- ko‘zni qamashtirgudek yoki lipillab turuvchi chiroq,
- havoni ifloslantiruvchi zaharli kimyoviy mahsulotlar yoki boshqa narsalar.

Shuningdek,

- o‘zaro hurmat,
- xayrixohlik va ishonch yo‘qligi,
- raqobat va ziddiyatlar kabi shaxslararo munosabatlar ham stressni yuzaga

kelishiga olib keluvchi sabablar deb hisoblanadi.

Ish tomonidan qo‘yiladigan talablarga taalluqli ehtimoliy stressorlarga:

- ishning bir xilligi,
- ishni qisqa muddatda bajarilishi kerakligi,
- malakaga past talablar,
- odamlar uchun javobgarlik,
- xodimlarning to‘liq bo‘lmagan yoki aksincha ortiq darajada ish bilan

ta‘minlanganligi.

Hozirgi kunga kelib ish faoliyatida xodimlar bajaradigan rollarini o‘rganish natijasida, rolli ziddiyatlar, noaniq yuklamalar va kasb faoliyatiga mos kelmagan talablarning barchasi asosiy stressorlar sifatida tan olinmoqda.

ERTA TURMUSH QURUSHNI SALBIY OQIBATLARI

Saparova Sayyora
Andijon viloyati Xo‘jobot tumani 15-maktab psixologi

Nikoh oldi omillari: oilaviy hayotga yetukligi, ularning oila qurish sabablari, ularning oila qurishgunga qadar bir-birini tanishlik muddati shart-sharoitlari, ularning bo‘lg‘usi hayot haqida tasavvurlarini kiritish mumkin.

Masalan: nikohda yetuklik deganda oila quruvchi yoshlarning jismoniy, jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma‘naviy-axloqiy, psixologik kabi yetuklik jihatlarini aniqlash

mumkin. Psixologlar tavsiyasiga binoan nihoyatda erta (16-17 yoshda) va kech (28-30 keyin) oila qurish maqsadga muvofiq emas. Nihoyatda erta yoshda oila qurish va ikkisini ham yoshi 17-18 bo'lishi, yigitning oila boshlig'i sifatida shakllaniishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Qiz bola 17, ba'zan 16 yoshda ham onalik, uy bekalik vazifalarini bajarishga tayyor bo'lishi mumkin, ammo 17 yoshdagi yigit hali to'laqonli oila boshlig'i vazifasini bajarishga tayyor bo'lmaydi. Ba'zida bu kelinni kuyovga yetarli darajada hurmat qilmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

Kech oila qurishni maqsadga muvofiq emasligi yosh ulg'aygan sari (ayniqsa qizlarda) oila qurish imkoniyatlari pasayadi, ammo turmush o'rtog'i tanlashdagi mezonlar soni keskin ortadi. Har bir "nomzoddan" turli kamchiliklar topilaveradi. Bu masalada shoshilish ham, kech qolish ham xatoliklarga olib kelishi mumkin. Insonning psixologik yetukligi bu o'z oldiga erishishi muqarrar bo'lgan, bunga imkoniyatlari yetarli bo'lgan maqsadlarni qo'yishi, turli yashash sharoitlariga moslashishidir.

Erta turmush qurishning salbiy oqibatlari. Yosh qizlarning ham erta (16-17 yoshda) turmushga chiqishi va ularning oilaviy hayotga tayyor emasligi turli salbiy holatlarga olib kelmoqda.

Birinchiidan, milliy udumga ko'ra, ko'pincha kelinlarning oiladagi mavqei past darajaga ega bo'ladi va ular ko'proq har xil oilaviy ishlarni bajaradilar.

Tabiiyki 16-17 yoshli qizning jismi hali bunday og'ir ishlarni bajarishga tayyor bo'lmaydi. Uning psixologik va ruhiy xolatida toliqish oqibatida salbiy oqibatlar kuzatila boshlaydi. Borgan sari yig'ilib ,yig'ilib yosh kelinchakda jirakilik, tushkunlik, atrof muhitga bo'lgan munosabatida sovuqonlik munosabati shakllanib boradi. Bunday salbiy xolatlar yosh organizmni turmushga tayyor bo'lmay turib oila qurganligidan kelib chiqmoqda.

Ikkinchiidan, qizlar bu yoshda ma'naviy jihatdan ham oila munosabatlariga tayyor bo'lmaydi.

Uchinchiidan, yosh turmushga chiqqan kelinlarning shu yoshda homilador bo'lishi tos suyaklari kichkina bo'lganligi uchun xavflidir.

Respublikamizda qizlarning erta turmushga chiqishi aholining tez o'sishiga ta'sir qilibgina qolmay, halq xo'jaligining jadal rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki 18-25 yosh qizlarning bilim olishi, kasb egasi bo'lishi va mehnat qilish uchun qulay yosh hisoblanadi.

To'rtinchidan, o'z qadri, huquqlari va o'zini-o'zi himoya qilish tushunchalarini anglab etgan, jinsiy va reproduktiv madaniyati to'la shakllanmagan yosh qizlarning biron kasb-hunar egallamasdan, bilim olmasdan, mutaxassislikka ega bo'lmasdan oila qurishi ularning qaynota, qay-nona va erlariga iqtisodiy jihatdan qaram holda yashashlariga sabab bo'lmoqda.

Ayrim oilalarda aynan iqtisodiy qaramlik tufayli kelinlar yosh bolasi bilan kamsitilmoqda, tazyiqqa uchramoqda. Shuning uchun qizlarning biron hunar yoki mutaxassislikka ega bo'lgandan keyingina turmushga chiqishlari maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda 18-29 yoshdagi xotin-qizlarning ko'pchiligi bola tug'ish, ularni parvarishlash, tug'ishgacha va undan keyingi ta'tilda yoki bemor farzandlarni parvarish qilish bilan bandlar.

Aholining nikohdan o'tish yoshi kuzatilganda, ularda 24-25 yoshdan boshlab, iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lib, o'zini ta'minlay olgandagina nikohdan o'tib, farzandli bo'lganligi ma'lum bo'ldiyu bu holat aholini tez sur'atda o'sishini oldini olib, aholi o'sishini sifatini yaxshilaydi va iqtisodiy taraqqiyotga, yoshlarning intellektual o'sishga ta'sir ko'rsatadi.

Beshinchidan bundan tashqari o'smirlik davrida organizmda turli morfologik, fiziologik, ruhiy o'zgarishlar boshlanadi va balog'atga yaqinlashgan sari ular mujassamlashib boradi. Yosh onalarning sog'ligi ko'proq mana shu yoshda o'zgarishlarning mo'tadil ketishiga bog'liq. Aks holda bu holat keyinchalik kasalliklarninig og'ir kechishiga sabab bo'ladi.

O'smir qizlarni ham jismoniy, ham jinsiy balog'atga yetishida anchagina salbiy nuqsonlar bor, bu esa ularda o'tayotgan ko'pgina kasalliklar fiziologik jihatdan nimjon bo'lgan organizmda yuzaga kelayotganligini bildiradi.

Yuqondagilarni hisobga olib, bizning sharoitda yosh qizlarning to'liq balog'atga yetishi 19-20 yoshlarga to'g'ri keladi deyish mumkin.

Qizlarning oilaviy hayotga jismonan, ma'nan va ruhan, reproduktiv va jinsiy hayot madaniyatiga tayyor bo'lmagan holda erda turmushga chiqishlari quyidagi oqibatlariga olib kelmoqda:

1. Yosh oilalar orasida ajralishlarning ko'payishi ajralishlar dastlabki besh yil davomida ro'y beradi;
2. Tug'ish vaqtidagi murakkabliklar; tug'ish va homiladorlik o'rtasidagi oraliq muddatining qisqarishi;
3. Biririchi bor tugayotgan va 19 yoshgacha bo'lgan yosh ayollar o'rtasida o'limning ko'payishi.

Nikoh sabablari. Juda ko'p bir necha o'nlab, lekin umumlashtirgan holda uch klassifikatsiyaga bo'linadi:

1. Sevgi tufayli oila qurish, ya'ni yoshlar bir muddat sevib-sevilib yurganlaridan so'ng, to'y bilan turmush qilib, yetishadilar.

2. Moddiy manfaatdorlik tufayli oila qurish. Yoshlar turmush qurar ekan ma'lum bir maqsadni ko'zlashlari mumkin, masalan, boylikni, mansabni, moddiy yoki ijtimoiy manfaatdorlikni ko'zlagan holda "Agar shu yigitga turmushga chiqsam, boy-badavlat yashayman" yoki "shu qizga uylansam, uning ota-onasi yordamida ma'lum bir mansab, mavqega erishaman" yoki "Yolg'izlikdan qutilish" kabilar.

3. Stereotipik bo'yicha oila qurish — ya'ni bunday oila qurgan yoshlardan so'ralsa, "Hamma tengdoshlarim o'ylanayotgandi, men ham uyladim" yoki "hamma dugonalarim turmushga chiqishayotgandi, men ham turmushga chiqdim" kabilar. Xo'sh bu oilalarning qay biri mustah-kamroq bo'ladi?

Ko'pchilik sevgi deb javob berishi tabiiy, chunki sevgining oila mustahkamligidagi o'rni beqiyosdir. Albatta sevishib turmush qurgan juftlarning aksariyati baxtli hayot kechirishadi. Lekin statistik ma'lumotlarga qaraganda ajralishning aksariyat qismi ham xuddi shunday sevishib oila qurgan juftlarga to'g'ri kelar ekan. Agar o'zaro ahdupaymon qilganlar oila qurganlaridan keyin "Murod — maqsadimga erishdim" deb sevgisini himoya qilishni, uning uchun kurashmasa sevgi nobud bo'ladi, sevgi nomi bilan qilingan orzu-niyatlar sarobga aylanadi.

Ikkinchi ya'ni moddiy sababchi? — uning ta'siri bu sabablarni qay darajada amalga oshishiga bog'liq. Ya'ni ko'zda tutilgan narsalarning barchasi ro'yobga chiqaversa, u nikoh mustahkamligini ta'minlashi mumkin. Afsuski oilaviy hayotda hamma narsa ham yigit qizlar kutganidek bo'lavermaydi, natijada ularning turmushi g'urbat-azobga, nizo-janjalga aylanadi, statistik ma'lumotlarga ko'ra eng mustahkam oilalar stereotip bo'yicha oila qurganlarga to'g'ri kelar ekan. Ularda ajralish juda kam, chunki ular "hamma qatori" oila qurishgan qarashsaki hamma ham binoyidek yashayapti. Bular ham yashayverishadi. Birgalikdagi hayot tufayli er-xotin o'rtasidagi bir-birlariga moslashish tushunish bir-biriga mehr yuzaga kelib sevgi darajasiga yetishi mumkin.

Tanishish muddati nihoyatda qisqa (uch oygacha) va juda uzoq (8-10 yildan ortiq) bo'lishi maqsadga muvofiq emas. Shu o'rinda qizlik sha'ni haqida aytib o'tish kerakki u inson ruhiyatidan millat ruhiyatidan kelib chiqadi. Hayo — qiz bolaning o'zga xonadonga, turmush o'rtog'ining muqaddas ostonasiga olib boradigan kelinlik sepi. Shuning uchun kelin ko'rmoq niyatida kelgan mehmonlar, albatta o'zaro suhbatta hayoli iboli farishtali kelin ekan deb qo'yadi.

TANGLIK VAZIYATIGA TUSHGAN O'SMIRLARNI MUSIQA TERAPIYA USULIDA TUZATISH

Jo'rayeva Sanamxon
Andijon Viloyati Marhamat tumani 72-IDUM psixologi

Barkamol avlod kamoloti g'oyasini turmushga tadbiq etish uchun istiqloqlarning dastlabki kunlaridanoq milliy ma'naviyat, milliy ta'lim va tarbiya muammolarini hal etishga jiddiy e'tibor qaratilinish kelinmoqda. Ma'lumki, ta'lim – tarbiya ongning mahsuli va uning darajasi bo'lishi bilan birga, rivojini ham belgilaydigan omildir. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz fuqorolariga qarata “Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak,

uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak” degan fikrlari zamirida yoshlarni keng intellektual salohiyatga ega qilishda ta’limning barcha sohalarida tub burilishlarni taqozo etadi. Zamonaviy jamiyat o’zining tez va chuqur o’zgaruvchan tavsifiga ega bolib, bunday o’zgarishlar jamoatchilik tuzilmalari, jumladan, mustaqil davlatlar, shaxs va jamiyat o’rtasidagi munosabatlar, ta’lim – tarbiya jarayonlarda yaqqol ko’zga tashlanmoqda. Shunday ekan kishilarni muloqot jarayonida teran fikrlash, hozirjavoblik, ta’sirchanlik, samimiylik, empatiya, kirishuvchanlik, muzokaralar tashkil qiluvchanlik, raqobatbardoshlik kabilarni shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar qalbida musiqaga bolgan muhabbat hissini oshirishda musiqiy ta’limiy o’yinlarning roli beqiyosdir. Bu orqli tarbiyachi bolalardagi xulq atvorni shakllanishiga bevosita o’z tasirini o’tkazadi. Musiqa orqli bolalardagi turli xil stresslarni bartaraf qilish mumkun. Bu bolarda turli xil musiqa asboblarini ko’rsatib, chalib berish orqali, cholg’u asboblarining ovozi va tuzilishi va turlari bilan tanishtirib boradi. “Ovozidan top”, “Nimada chalyapman”, “Qo’ng’iroq qanday jaranglayapti” kabi o’yinlar orqali tarbiyachi bolalarga ovoz va cholg’u asboblarining tovush xususiyatlarini farqlashga o’rgatadi. “Tapur-tupur qayrag’och”, “Tomga tosh otdim”, “O’ynab ber”, “Sanamalar”, “Mushtum va kaftchalar”, “Yomg’ir” kabi milliy o’yinlar orqali bolalarni musiqa ritmiga mos harakat, o’yinli ashulani ijro etish, qarsaklar va mimik harakatlarni to’g’ri bajarishga o’rgatib boriladi. O’yinning eng muhim ahamiyati shundaki, unda tabiiylik sifati bo’lib, bu narsa, ayniqsa, bolalar o’yinida yaqqol seziladi, zero, ular unda o’zidagi ko’plab tabiiy ehtiyojlarni qondirishga harakat qiladi. Shuning uchun bo’lsa kerak ma’lum taraqqiyot bosqichida bolalar tinimsiz o’ynaydilar, undan charchamaydilar va bunda hech qachon ular o’z sherigiga ma’naviy ziyon etkazmaydi. Bu narsalar o’yinning shunday qirrasi bilan bog’liqqi, unda xayol, xissiyot jarayonlari yaqqol tafakkurdan ustun keladi. Ijtimoiy psixologik ahamiyatga ega bo’lgan kattalar o’yini esa asosan ikkita vazifani bajaradi: - ma’lum ijtimoiy bilimlarni egallash; - zarur ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish. Lekin bunday o’yinlarning tabiiy bolalar o’yinidan farqli jihatlari ham bor: Bolalar o’yinlarida ijtimoiy rol o’zlashtirilsa, kattalarnikida bu rol yanada mustahkamlanadi, takomillashadi; masalan, bolalarning “mehmon-mehmon” o’yinlarida mehmon va mezbun harakatlariga

xos bo'lgan asosiy qirralar o'zlashtirilib, taqlid asosida ko'nikmalar hosil qilinsa, kattalar shunga o'xshash "o'yinlarda" muomalaning eng mukammal va chiroyli jixatlarini mustahkamlab, davr madaniyatiga xos xulq-atvor shakllariga o'rganadilar; b) bolalar o'yinlaridagi rollar hayotiy vaziyatlarni umumlashtirgan holda, umumiy tasavvurlar vositasida qaytarilsa, kattalarda bu narsa aniq vaziyatlar va yaqqol rollar vositasida amalga oshiriladi; v) bolalar o'yinlari ma'lum ma'noda stixiyali jarayon bo'lsa, kattalar o'yinida xayotiy qoidalar, normalar, me'yorlar ataylab tashkil qilinadi va unga maxsus nazoratchilar - murabbiylar rahbarlik qiladilar; g) bolalar tabiiy ravishda o'zlari kirishayotgan rolni xissiy boshdan kechirib, o'yinga kirishsalar, kattalar ko'proq u yoki bu rolga o'zini identifikatsiya qilib, sun'iy ravishda kiradi; d) kattalar o'yinining sifati va samaradorligi o'ynovchining hayotiy kuzatishlari va shaxsiy tajribasiga bevosita bog'liq bo'ladi, bu o'rinda onglilik tashabbuskorlik va eruditsiya, yaqqol omillarni umumlashtirish kabi sifatlar muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy psixologik bilimdonlikni oshirishga xizmat qiluvchi o'yinlar asosan ikki turga bo'linadi: operatsional o'yinlar va rolli o'yinlar. Operatsional o'yinlar o'z mohiyati jihatidan, ya'ni ushbu faoliyat motivi, unda aqliy operatsiyalarning ishtiroki va hissiy ko'rinishi jihatdan muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga o'xshaydi. Lekin ayni tizimga tushirilmagan, spontan munozaradan farqli, unda o'yinning umumiy ssenariysi bo'lib, oqibatda qabul qilinadigan qarorlar ijtimoiy normalarga mone kelishi, "to'g'ri" yoki "noto'g'ri"ligi algoritmik belgilab qo'yiladi. Shuning uchun ham bunday o'yinlarda hayot sinovlaridan o'tkazilgan, ijtimoiy tajribaga asoslangan vaziyatlar ishlatiladi. Masalan, hozirda keng tarqalgan ishbilarmonlik o'yinlar yoki boshqaruv o'yinlari shular jumlasiga kiradi.

Maktab psixologi va maktab targ'ibotchilari xamkorligi asosida ish olib borilsa o'quvchilardagi turli xil psixologik og'ish xolatlarni oldi olinadi.

Targ'ibotchining asosiy ish faoliyati darslarni bo'sh o'zlashtirayotgan o'quvchilar bilan ishlash, iqdidorli o'quvchilar bilan ishlash va tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlashdan iboratdir.

Shu bois targ'ibotchi maktab psixologi bilan doimiy birga maslaxatlashib ish tashkil qilinsa o'quvchilarni ruhan jismonan va manaviy yetuk qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ishtimoiy ko'makka tushgan o'quvchilarda vatanga bo'lgan muhabbat, maktabga, oilaga, atrof muhitga bo'lgan muxabbat so'nib boradi shu sabab bolalarda turli salbiy xulq atvor rivojlanib boradi. Bunday xulq atvorli o'quvchilarni musiqa va turli xil tadbirlar orqali ularni qalbida muxabbat uyg'otish orqali salbiy xulq atvorni tuzatish mumkun.

BOLA TARBIYASIDA OTA –ONANING RO'LI

Abduraximova Yulduzxon
Andijon viloyati Marhamat tumani 22-IDUM psixologi

Annatatsiya: Farzandini barkamol avlod, komil inson kilib tarbiyalash hamma jamiyatlarda va hamma zamonlarda ham dolzarb masala bo'lib kelgan. Dunyoda bironta ota-ona yo'qki, zuruyodining jamiyatda o'z o'rniga, mustaxkam mavkeyiga ega bo'lishini istamagan va shu farzand orqali boshini baland ko'tarib, g'ururlanib yurushini orzu qilmagan bo'lsa. Bu millat va elat tanlamas ma'naviy xislatlardan biridir.

Farzandni jazolashda ota-onalarning yo'l qo'yilgan xatolari.

Farzandimiz bilan biror kelishmovchilik yuzaga kelganda ko'pincha qarorlarimizni uzoq o'ylab o'tirmasdan qabul qilamiz. Bunday harakatlarimiz bilan esa vaziyatni yanada chuqurlashtirib yuboramiz. Bola bilan tortishuvlarning samarali yechimini topish uchun kuydagi xatolarga yo'l qo'ymaslik lozim.

1. Bolaning qilmishiga emas, uning o'ziga baho berish "Juda yomon bolasan!", "Bola emas balosan!", Aslida bolaning o'zi yaxshi, faqat uning ba'zi ishlari yomon bo'lishi mumkin. Shuning uchun aynan biror ish yoki harakat haqida gapirish va baho berish kerak. Bola o'ziga nisbatan mehr-muhabbat borasida ikkilana boshlamasligi lozim.

2. Kattalarning ustunliklari dan foydalanish ba'zan ota-onalar taqiqlagan buyumlarni bolalardan olib qo'yib, uni javonning eng baland joyiga qo'yadi. Shunda bola o'zining mukammal emasligini his eta boshlaydi. Bundan xafa bo'lib jahli chiqadi. Biz

esa mojaroli vaziyatdan chiqishga yordam berish o'rniga uni yolg'iz qoldirib, o'z qilmishi haqida o'ylab ko'rishga undaymiz.

Asabiylashmang

Siz qanchalik muloyim va sokin bo'lsangiz, bolangiz ham shunchalik osuda bo'ladi. Bola sizdan andoza olishini unutmang.

Aldamang.

“Ovqat yesangiz ,buvingnikiga olib boraman!”, dedingizmi, olib boring yoki unday va'da bermang. Bolaga berilgan va'dani ustida turish muhim. Shunda u sizga ishonadi va talablaringizni oson bajara oladi. Agar farzandingiz sizga yolg'o'n gapirishini xoxlamasangiz bergan vadangizni ustidan chiqing.

Urmang.

Bolani urishdan yomoni yo'q. Urmay turib ham jazolash mumkin, urmay turib ham ota-ona o'z gapini o'tkazishi mumkin. Urish darajasiga bordingizmi, demak ayb sisda.

O'n xil so'z farzandlar ruhiyatini barbod qiladi.

1. Eshak, it, hayvon..... deb so'kish.
2. Badbah, kazzob, yaramas, semizdeb ho'rlash.
3. Boshqalarga solishtirish farzandini o'zida kamchilikni his qildirib o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qqa chiqaradi.
4. Sen hech narsani tushunmaysan, jim bo'l , sendan hech qanday foyda yo'q, deb farzandini borbod qilish.
5. Boshingni yoraman, qoningni ichaman deb taxdid qilish.
6. Qanotlantirmasdan man qilaverish. Doim “yo'q, yo'q, yo'q”. deb istaklarini rad qilish, sabablarini tushuntirmaslik.
7. Ollox joningni olsin koshki o'lib qolsang lanatli kabi so'zlar bilan qarg'ash.
8. Farzandni sirlari va ayblarini boshqalar oldida ochib tashlash.
9. Muayyan bir ishni bajarsang seni yaxshi ko'raman, buni qilib qo'yganing uchun seni yaxshi ko'raman deb yaxshi ko'rishni shart qilib qo'yish.
10. Erkak kishi yig'lamaydi, jim bo'l hali sen gapirishga kichiksan bu bola meni jinni qildi, meni unga kuchim yetmayapti, Alloh do'zohga tashlab jazosini bersin, kabi hato so'zlarni ishlatish.

Ota-ona bo'lish oson, lekin yaxshi ota ona bo'lish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Aziz ota-onalar farzandingiz tarbiyasida keltirilgan xatolarga yol qoymasangizgina farzandingiz kelajakda siz orzu qilgan xar tomonlama mustaqil komil inson bo'la oladi. Quyidagi kichik maslahatlar yaxshi ota-ona bo'lish sari yetaklaydi:

Lampochkani ixtiro qilgan Toms Edison bolalik paytida uyga qaytib, "Oyi mana bu xatni maktabdan berib yuborishdi", deb onasiga bir konvert uzatdi ona xatga tezgina ko'z yugurturdi, so'ng ko'zi jiqqa yoshga to'lib, maktubni jajji o'g'liga o'qib bera boshladi:

"Xonim ! O'g'lingiz juda iqtidorli . Biroq, bizning maktabimiz uning qobiliyati uchun kichiklik qiladi. U mustaqil ta'lim olaqolsin !".

Oradan yillar o'tdi . Edison insoniyat tarixidagi eng ulkan ixtirolarni qildi . Onasi vafot etgach Edison uning shkafini titqilab o'tirib o'sha hatni topib oldi. Ne ko'z bilan ko'rmasinki , maktubda butunlay boshqa gaplar yozilgan ekan: "Xonim! O'g'lingizning aqli past, ertadan bizning maktabimizga bormasin!".

Edison uzoq yig'ladi. Anchagacha o'zini to'xtata olmadi. Nihoyat , xotiralar daftariga quyidagi satrlarni bitti: "Edison g'irt qalta faxim bola edi. Lekin onasining go'zal xizmati sababli noyob talant sohibiga aylandi". Shunday ekan farzandni tarbiyasida ota – onaning roli juda katta va masulyatli vazifadir.

YOZUVLAR ORQALI INSONNI XARAKTERINI BILISH

Xojikulova Manzuraxon
Andijon viloyati Marhamat tumani 22-IDUM psixologi

Anatatsiya : Maqolada insonni yozuvi orqali uning qanday xarakterga ega ekanligini bilish va uning fel atvorini aniqlash va muloqat ko'nikmalarini rivojlantirishni o'rgatish bayon etilgan.

Aziz ota-onalar farzandingiz maktabda qanday o'qiyotgani, unda qanday his-tuyg'ular, ko'nikmalar borligini yozuvlari orqali ham anglash mumkin. Ba'zan bolalarni

yozuvi orqali u qanday dunyoqarashi, qobiliyati, tanglik holatlarini, sabrli yoki sabrsizligini bilib olish mumkun.

1. Agar yozganda soʻzlar orasida boʻsh kataklar koʻp boʻlsa, yozuv sohibi yoki sohibasi oʻzini yolgʻiz his qilyapti. Bunday bolalarga motivatsiya juda muhim hisoblanadi. Oiladagi yaqin insonlar koʻmagiga muhtojligidan dalolatdir.

2. Agar yozganda katta harflar bilan yozayotgan boʻlsa bu bola tartibsizlik, irodasizlikdan dalolatdir.

Juda kichik harf (“chumoli”) - oʻziga ishonchi past inson, ehtiyotkor, realist, texnika bilan tez til topishadigan insonlar hisoblanadi.

3. Agar uzun xarflar bilan yozsa bu estetika, mardlik, kobiliyat va adabiyotga mexr kuyishidan iborat. Xariflar semiz biroz dumalok kurinishda bulsa, bu ochik kungilliligidan darak beradi.

4. Agar yozuvlar rakamlarga oʻxshash harflar boʻlsa, bunday insonlar oʻqimishli, sabrli va biroz sovuqqon boʻladilar.

5. Harfdagi belgilarni tashlab yozish, yolgʻiz qolib, oʻziga xizmat koʻrsatolmaydi, oʻziga nisbatan beeʻtibor inson hisoblanadi.

6. Ilgaklarni gajak bilan yozish - qarorni oson va tez qabul qiladilar. Nazoratni yaxshi koʻradilar, qonunlarga bajonidil amal qiladilar. Shuningdek, optimist boʻladilar. Ilgakni uzun tushurish - zavq-shavq.

Tepaga chiqqan uzun chiziqlar – hissiyot. Ilmoq uchlari oʻtkir - haqqoniylik va ochiqlik

Xattotlar xatiga oʻxshash - fantaziya kuchliligi, qobiliyatli va biroz qoʻrqqoq va beqaror insonlardir.

7. Bezaklarsiz, oddiy, soʻzlar orasida boʻsh kataklar hammasida bir xil tashlangan boʻlsa, harflarning shakli ham deyarli bir xil boʻlsa - aql ustuvorligidan dalolatdir.

8. Harflar bir-biri bilan bogʻlangan, qoʻlcha hosil qilgan boʻlsa, oʻz fikrini hurmat qilishdir. Yengil, ortiqcha kuch va harakatsiz - xarakteri ham yengil, hayotdan rozi, birovga quloq tutuvchi va ergashuvchi, mehribon insonlardir.

9. Kerakmas paytda, masalan, soʻz oʻrtasidagi harflarni ham kattada yozish, koʻp joy tashlash - quvnoq, hazillarni yoqtiradigan, sevgi va orzuga moyil, shuningdek, matematik qobiliyatga ega.

10. Oʻng tomonga ogʻishtirib yozish - faol va orzularga boy. Oʻng tomonga juda ham koʻp egilgan, natijada oxirgi harflar deyarli koʻrinmay qolgan, bir qarashda titrab yozilganga oʻxshasa - taʼsirchanlik titrab yozish - talabchan, goʻzallikka mehri baland, dangal, ayni vaqtda qoʻrqoqdir.

11. Toʻgʻri qilib yozadiganlar - xarakterida qoʻrquv yoʻq. Har qanday holatda ham qoʻrqmay ish bajaradilar.

12. Yozuv aniq, oʻqishga oson, harflar bir-biriga bogʻlangan boʻlsa - bu mehnatkash, ishlarni chin dildan qilish, baʼzida pessimist. Bunday odamlar gohida ochiq gapirib, qoʻpollik qilib qoʻyadilar. Yaʼni oʻzgaruvchan xarakterga ega hisoblanadi.

13. Chap tomonga ogʻishtirib yozish - erkin emaslik, doimiy xakteri yoʻq, aniq qadamni qoʻya olmaydi. Xayotda bunday insonlar koʻp iztirob chekuvchilardir.

14. Kichik varaqqa koʻp narsa sigʻdirish (tejamkor usul) - buning iqtisodga dahli yoʻq. Aynan shunday yozadiganlarga oʻzboshimchalik yot boʻladi.

15. Tez va chiroyga kam eʼtibor berib yozish - bu odamning ishi yozishni koʻp taqozo qiladi va u koʻp vaqtlarda biror joydan koʻchirib emas, oʻzi oʻylab, ichidan toʻqib yozadi.

16. Insonni boʻyiga qarab ham xarakterni bilish mumkin ekan. Deyarli hech vaqt boʻgʻin koʻchirib oʻtkazmaslik, yozuvida chalkashlik yoʻq, chiziqlar tortilmagan qogʻozga ham tekis yoza oladi. Bu baland boʻyli insonlarga xos hislatlardir. Soʻzni toʻliq yozishga joy yetsa ham boʻgʻin koʻchirish, harf va soʻzlari choʻziq, ilmoqlari uzun boʻlsa, past boʻylilarga xosdir. Harflarni qisqartirish, qator oxiridagi soʻz yo harflarni pastga tushib ketishi, oʻrta boʻylilarga xos xarakterli insonlardir.

17. Oq-sariqdan kelgan, malla sochli (blondin)larning yozuvi aniq, did bilan yozilgan boʻladi. Harf va soʻzlari mayda, choʻzilmagan. Qator chizilmagan varaqqa ham tekis yozadi. Blondinlarning koʻpchiligining husnixati chiroyli. Qora sochli (bryunet)lar ulardan farqli ravishda qator chizilmagan joyda tepaga chiqib ketadi. Uning husniyatida chiroyli yozishga urinishlar sezilib turadi. U bosh harflarni bilintirib yozadi, baʼzan keraksiz joyda ham bosh harfni ishlatadi.

18. Davlat ishida ishlovchi kishilar harflar formasiga e'tiborsiz yozishadi. Aksincha, yozadiganlar esa ko'pincha ishchi, hunarmand, xizmatchilarga tegishli bo'ladi. Faoliyatida bevosita pul bilan ishlovchi, masalan, sotuvchi, dorixona xizmatchisi, tadbirkorlar ko'p o'chirishadi, bo'yashadi. Umuman olganda, ularning husnixati kamdankam chiroyli bo'ladi. Qator chizilmagan qog'ozga yozganda pastga tushib ketish shoirlarga xos. Grafologiyada kuzatilgan yana bir holat: tikuvchining husnixati chiroyli bo'ladi.

Konvert ustidagi yozuvlar orqali ham inson xarakterini bilish mumkin.

Konvertning xat yuboruvchi va oluvchi haqida ma'lumotlar qismiga birinchi qayergaligi, undan so'ng kimgaligi yozilsa, u aqlli, ammo hayotiy tajriba va amaliy saboqlari kam, qaror qabul qilishi qiyin bo'ladi. Birinchi shahar, keyin ko'cha va xonadon yozilsa, bu xat yuboruvchining individual xususiyatlari va erkinligi kam, birovga quloq soluvchi ekanligini ko'rsatadi.

Faqat ajratilgan chiziq'larga yozgan, hamma so'zlar bir xil qolipda bo'lsa, u odam e'tiborli, yumshoq tabiat va ehtiyotkor bo'ladi. Uy raqami uchun alohida qator ajratsa, punktual va dangalligidan darak beradi. Shuningdek, ba'zi ma'lumotlarni e'tibor tortishga undab alohida yozsa, e'tiqodli, xushmuomala inson bo'ladi. Ayrim so'zlarni (masalan, shahar) tagiga chizib qo'ysa, xat yuboruvchi jo'shqin, serxavotir, qiziqqon ekan deb o'ylayvering. Joy nomlarini qisqartirish jiddiylik, tartib va aqliy qobiliyatning yuqoriligini anglatadi.

Konvertda xat boshi(abzas) tashkil qilish o'sha odamda ma'lum harakterning shakllanmagani, o'zini aqlli ko'rsatishga urinish deb taxmin qilinadi.

Ma'lumotlarni sig'dirish uchun joyni ayab yozsa, kamtar va mehnatkash inson bo'ladi.

Hozirgi kunda o'smir yoshlar bilan til topishish biroz mushkul bo'lmoqda. Inson xarakter xususiyatlarini bilgan holda muomala qilsa ko'p muammolarni oldini olish mumkun. Shundagina o'z asabingizni asragan bo'lasiz.

ТАЛАБАЛАРДА КРЕАТИВ ҚОБИЛИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ

Бахтиёр Абдусайитов
ЎзМУ “Ижтимоий фанлар факултети”
Психология кафедраси магистранти

Бугунги глобаллашув кучайган даврда ҳар қайси жамият ижодкор шахсларга эҳтиёж сезади. Бу табиий ҳол албатта. Чунки дунёда ҳар дақиқада содир бўлаётган ўзгаришлар шуни тақозо қилмоқда. Шу муносабат билан турли соҳа олимларининг эътибори педагогик жараён шароитида талаба шахсининг креатив салоҳиятини очиш ва ривожлантириш муаммосига қаратилган. Демак, замонавий таълим муассасаларида педагогик жараённи ташкил этишнинг янги парадигматик асосларини ишлаб чиқиш зарурати туғилади ва бу эса педагогиканиннг янги инновацион йўналиши яъни креатив педагогикага мурожаат қилишга имконият яратади

Креативлик нима? Америкалик психолог Абраҳам Маслоунинг фикрича, бу ҳар бир кишига хос бўлган, лекин мавжуд тарбия, таълим ва ижтимоий амалиёт тизими таъсирида кўпчилик томонидан йўқолган ижодий йўналишдир. Ижодий қобилият "Худонинг инъоми" ва шунинг учун креативликни ўргатиш мумкин эмас деган анча кенг тарқалган фикрдан фарқли ўлароқ, М.М. Зиновкина бошқача ёндашувга ишора қилади. Технология ва ихтиролар тарихини ўрганиш, атоқли олим ва ихтирочиларнинг ижодий ҳаёти таҳлили шуни кўрсатадики, уларнинг барчаси юқори (ўз даври учун) фундаментал билимлар билан бир қаторда махсус билимлар омбори ёки алгоритмик фикрлаш, шунингдек, маълум билимлар, шу жумладан эвристик усуллар ва техникаларга эга бўлишган

Инглиз психологи Э.П.Торренс креативликни қуйидаги жиҳатларини илгари сурган:

- муаммо ёки илмий фаразларни илгари суриш;
- тахминларни текшириш ва ўзгартириш;
- қарор натижаларини шакллантириш асосида муаммони аниқлаш;

- муаммони ҳал қилишда билим ва амалий ҳаракатларнинг ўзаро қарамақаршилигига нисбатан сезгирликни ифодалаш.

Лотинчада **"креативлик"** тушунчаси қуйидагича. **"Creatio"** - "яратиш", "ижодкор" - "яратувчи", деган маъноларни анлатади, лекин моҳиятан бу тушунча инсоннинг ижодий қобилиятининг намоён бўлишидир. Ижодкор шахслар - бу рассомлар, ҳайкалтарошлар, ёзувчилар, шоирлар, фотосуратчилар - турли хил ижод турларида ўз қобилиятларини амалга оширадиган одамлар. Ижодкорлик, қоида тариқасида, ишбилармонларга хос хусусиятдир: дизайнерлар, реклама берувчилар, маркетинглар, бренд-менежерлар ва бошқалар. Касбий ва ижодий фаолиятни фаол ўзлаштириш, уни самарали амалга ошириш нафақат кўникма ва кўникмаларни ривожлантириш ва интеграциялашувини, касбий ишни бажаришнинг индивидуал услублари ва усулларини ишлаб чиқишни, балки касбий ижод методологиясини ўзлаштиришни, ижодий фикрлашни ривожлантиришни ва ўз ичига олади.

Ижодий шахснинг шаклланишини амалга оширилган ижодий фаолиятга ва олинган ижодий натижаларга мос келадиган шахснинг шаклланиши ва ривожланиши деб таърифлаш мумкин. Бу жараённинг суръати ва траекторияси биологик ва ижтимоий омиллар, шахснинг ўз фаолияти ва ижодий фазилатлари, шунингдек, шароитлар, ҳаётини воқеалар ва касбий жиҳатдан аниқланган омиллар билан белгиланади. Ижодкор шахсни шакллантириш ва ижодий таълим ўртасида яқин боғлиқлик мавжуддир.

Ижод маданият сингари, инсон ҳаётига, демак, таълим тизимида ҳам кириб бориши керак. Бинобарин, ижодий педагогиканинг ижтимоий фанлари тизимида яъни педагогиканинг янги тармоғи сифатида ривожланиши учун қатор шарт-шароитлар мавжуд.

Замонавий таълим тизимида ўқитувчи фаолиятининг устувор йўналиши. мулоқотнинг диалогик усуллари, ечимни биргаликда излашга ва турли ижодий фаолиятга берилади. Буларнинг барчаси ўқитишнинг интерфаол усулларини қўллаш орқали амалга оширилади. Интерфаол таълим жараёнида ўқувчилар танқидий фикрлашни, вазият ва тегишли маълумотларни таҳлил қилиш асосида мураккаб масалаларни ечишни, муқобил фикрларни топишни, пухта ўйланган

қарорлар қабул қилишни, муҳокамаларда қатнашишни ўрганадилар. Бунинг учун дарслар жуфтлик ва гуруҳ усуллари асосида ташкил этилади, илмий-тадқиқот лойиҳалари, ролли ўйинлар қўлланилади.

Креативликнинг ривожлантиришнинг бош мақсади бу ўқувчиларнинг ақлий фаолияти ва мантикий фикрлашни ривожлантиришдан иборат. Бунинг учун биз талаба эришган ривожланиш даражасига эмас, балки бир оз олдинроқ қадам ташлаб, унинг фикрлаш қобилиятидан бироз юқорироқ бўлган талабларни қўйишимиз керак. Шунингдек креативликни ривожлантириш қуйидаги вазифаларни ҳал қилишга ҳам ёрдам беради:

1. Талабаларни турли йўналишларда фикрлашга ўргатиш;
2. Ностандарт вазиятларда муаммонинг ечимларини топишни ўргатиш;
3. Ақлий фаолиятнинг ўзига хослигини ривожлантириш.
4. Талабаларни мавжуд муаммоли вазиятни турли томонлардан таҳлил қилишга ўргатиш;
5. Тез ўзгарувчан дунёда янада самарали ҳаёт ва мослашиш учун зарур бўлган фикрлаш хусусиятларини ривожлантириш.

Шу билан биргаликда педагогик креативликни ривожлантириш шартли ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасидаги ўзаро муносабатларда инсонпарварлик психология тамойилларини амалга оширишдир.

Ушбу тамойиллар қуйидагиларни назарда тутаяди:

1. Ҳар бир талабанинг ғоясини юқори баҳолаш, бу барча ғоялар ва жавобларни ижобий мустақамлаш, хатодан таниш нарсага янгича қараш имконияти сифатида фойдаланишни назарда тутаяди.
2. Ўзаро ишонч, психологик хавфсизлик муҳитини яратиш.
3. Танлаш ва қарор қабул қилишда мустақилликни таъминлаш.

Креатив салоҳиятга эга ўқитувчи қуйидаги сифатларга эга бўлади:

- Креатив фикрлаши кенгайди ;
- Тадқиқот кўникмаларини яхши эгаллайди;
- Педагогика ёки махсус фан ютуқларидан ҳамда илғор тажрибалардан фойдаланиш имкониятларини мустақил таҳлил қилади;

- Профессор-ўқитувчилар томонидан олиб борилаётган ижодий лойиҳалар ва илмий тадқиқотларни амалга оширишда фаол иштирок этади.

Креатив фикрлайдиган ўқитувчига қўйиладиган замонавий талаблар шундан иборатки, у ахборотчи эмас, балки ўқувчиларнинг индивидуал имкониятларини ҳисобга олган ҳолда мувофиқлаштирувчи (координатор), бошқарувчи (менежер), мулоқот ташкилотчиси, маслаҳатчиси бўлиши керак. Ўқитувчи билимларни ўзлаштиришнинг энг самарали усуллари излашни қўллаб-қувватлайди ва бошқаради, қизиқарли кашфиётларни рағбатлантиради, муваффақиясиз уринишларни таҳлил қилади, ўқувчиларни мағлубият ва ғалабаларни амалга оширишга ундайди.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб шуни айтишимиз керакки, креативликни ривожлантиришнинг педагогик шарт-шароитлари синфда мақсадли равишда яратилган ижодий тарбиявий муҳитга боғлиқ бўлиши мумкин; ўқитувчининг ижодий хулқ-атвори намунасининг мавжудлиги ва талабаларнинг ижодий қобилиятларини ифодаловчи сифатида ўқитувчининг шахсияти; талабалар ва ўқитувчиларнинг биргаликда яратилиши; ижодий фаолиятдаги субъектив ўрни; ижодий муҳитни сақлаш ва муваффақият ҳолатларини яратиш. Талабалар ижодининг энг самарали ривожланиши ижодий таълимнинг узлуксиз тизими шароитида мақсадли, ҳар томонлама педагогик таъсир кўрсатиш орқали таъминланади. Бу ва бошқа масалаларни ишлаб чиқиш билан фундаментал амалий педагогика соҳаси сифатида креатив педагогика шуғулланиши лозим. Шунингдек ностандрт фикрловчи, қийин вазиятларда хотиржам, муаммонинг ечимини топишда бир томонлама эмас, турли томонлама ёндашадиган салоҳиятли мутахассисларни етиштиришдан иборат.

Фойдаланинган адабиётлар

1. В.А.Крутеўкий. Педагогик технология асослари. Т., «Ўқитувчи» 1976.
2. Вйготский Л. С. Селестед псйчологисал студиеc. М., 1956.

2. В.А.Крутецкий. Педагогик технология асослари. Т., «Укитувчи» 1976. 4. Зиновкина 3. Практическая психология образования: Учебник для студентов высших
3. Средних учебных заведений. Под ред. И.В.Дубровиной. - 2-е издание. - М.: ТЦ «Сфера», 1998. М., 200
4. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари – Тошкент, 2015

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O`QUVCHILAR XOTIRASI XUSUSIYATLARI

Bobaxanova Maxporaxon Djakbarxonovna

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani 8-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Hozirgi davr talabi ma'naviy jihatdan yetuk, har tomonlama bilimdon, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish bo'lib, bu muammo shaxsning bilish jarayonida ham amalga oshirilishi mumkin. Shaxsning ma'naviy yetukligi, bilimdon, zehnliligi ta'lim jarayonida namoyon bo'ladi. Ta'limning sifatli tashkil qilinishi o'quvchilarning bilish jarayonlaridan biri hisoblangan xotira jarayoniga bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, o'quvchilarning esda saqlash, esda olib qolish, qayta esga tushirish jarayonlarini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xotira mavzusi yosh davrlari psixologiyasi, umumiy psixologiya, pedagogik psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, eksperimental psixologiya yuridik psixologiya kabi psixologiyaning turli tarmoqlarida o'rganilgan hamda ko'pgina tadqiqotlar o'tkazilgan. Yosh davrlari psixologiyasida xotira masalasi inson shakllanib, turli yosh davrlariga qadam qo'yishi bilan xotira jarayoni ham shakllanib rivojlanib borishi xususida ma'lumotlar olishimiz mumkin. Umumiy psixologiya darsliklari orqali xotira haqida tushuncha, xotira turlari xotira jarayoni haqidagi nazariyalar haqida ko'pgina ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Pedagogik psixologiya fanida xotira jarayonining

pedagogik jarayondagi ahamiyati, o`qituvchi hamda o`quvchi, talabalar xotira jarayoni va buning ta`lim jarayoniga ta`siri hususiyatlari o`rganilgan.

Tibbiyot psixologiyasi fanida xotiraning nerv fiziologik asoslari, xotira buzilishlari va korreksiya qilish usullari haqida ma`lumotlar mavjud. Eksperimental psixologiyada xotira bo`yicha o`tkazilishi mumkin bo`lgan turli yosh davrlari bilan bog`liq holda metodikalar majmuyi mavjud.

Man bir necha yildirki, psixologiya fanida insondagi xotira masalasiga to`xtalغانimizda turfa qarashlar hamda psixolog olimlarimiz tomonidan bildirilgan fikr mulohazalarga guvoh bo`lamiz. Ularning har qaysisi o`z nuqta`i nazarlaridan kelib chiqqan holda inson xotirasini mustahkamlash, undagi faollikni orttirish hajmini kengaytirish va shu kabi boshqa masalalar haqida taklif hamda tavsiyalarni keltirib o`tmoqdalar. Demak, bundan ko`rinadiki, ushbu mavzuda qancha gapirilsa eskirmaydi. Chunki insoniyat tirik ekan, albatta uning eslab qolish qobiliyati bir-biridan qiziq savollarni keltirib chiqaraveradi.

Shu o`rinda bugungi kun kishilaridagi xotiraning qay darajada mustahkam ekanligi va buning sabablari nimalarga bog`liq ekanligi haqida to`xtalib o`tsak. Biz aksariyat hollarda tevarak atrofdagi sezgilarimiz yordami bilan idrok qilgan narsalarni o`zimizga kerak bo`lgan vaziyatlarda esga ololmay, ba`zan xafa yoki ba`zan jig`ibiyron bo`lamiz va o`zimiz istamagan holda afsus esimdan chiqib qolibdi degan jummalarni aytamiz. Biroq unutmashligimiz lozimki, kundalik hayotimizdagi tajribalar shuni ko`rsatadiki, eslab qolgan narsalarning hammasi ham esimizga to`laligicha tushavermaydi. Ularning bir qismi unutiladi va aynan mana shu unutib qoldirish ham xotiraga oid xodisadir.

Inson xotirasining qonuniyatlarini o`rganish psixologiya fanining markaziy masalalaridan biri bo`lib hisoblanadi. Ma`lumki insonning har qanday kechinma, xatti-harakatlari uzoq muddat ongda saqlanib, ma`lum bir sharoitda qayta namoyon bo`luvchi izlar qoldiradi. Xotira bu biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirga va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Har kuni yangi narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning g`oyaviy yo`nalishi kata o`rin egallaydi. Ko`pgina adabiyotlarda xotira

tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi: "Individning o'z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyincchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi"

Psixologiya fanida xotira muammosiga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ular mohiyati jihatidan bir kategoriyani har xil mezonlar bilan o'lchashda o'z ifodasini topadi. Hozirgi zamon xotirani tadqiq qilish bilan bog'liq tadqiqotlarda markaziy o'rin xotira jarayonining asoslariga ajratilgan. Xotira jarayonining asoslari uch yo'nalishda o'rganilgan. Bular: psixologik, neyro-fiziologik, bioximik. Xotiraning psixologik nazariyalari inson faolligi bilan bog'liq bo'lgan xotira jarayonlarini shakllantirishni tadqiq etadi.

Rus psixologiyasida xotira jarayoni bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda eydetik obrazlarning namoyon bo'lishi shaklida o'rganilgan. Jumladan A.R.Luriya tomonidan eydedik xotiraning individual tipologik xususiyatlari chuqur ta'riflab berilgan. Eydetik obrazlar harakatlanish xususiyatiga ega bo'lib, subyektlarning oldiga qo'yilgan vazifa va uning tasavvurlari ta'siri ostida o'zgartirish mumkin.

Assotsiativ psixologiya maktabining vakili, taniqli psixolog G.Ebbingauz jahon psixologiyasida birinchi bo'lib oliy ruhiy jarayon bo'lgan xotirani tajriba metodi negizida tekshirga va keng ko'lamda turmushga tatbiq etgan. Xotira jarayonini tajriba orqali tekshirishning asosiy yo'nalishini ishlab chiqdi. German Ebbingauz o'z "sof" xotira qonunlarini o'rganish imkonini beruvchi, boshqacha so'z bilan aytganda tafakkurga bog'liq bo'lmagan holda izlarning esda qolish jarayonini tadqiq etishning yangi uslubini taklif qilgan, ya'ni ma'nosiz bo'g'inlarni yod olishdan iborat bo'lgan bu uslub materialni esda olib qolishning egri chiziqiga oid qonunni kashf qilishga, uning asosiy qoidalarini bayon etishga va ana shularning asosida izlarni xotirada saqlanish muddatini hamda asta-sekin so'nish holatini tekshirishga imkoniyat yaratdi.

Bolalarda xotiraning yuksak(yuqori) shakllarini birinchi marta tadrijiy ravishda tadqiq qilish taniqli psixolog L.S.Vigotskiyga nasib etgan. U maxsus tekshirishlarning predmeti qilib, xotiraning yuksak shakllarining rivojlanishi muammosini tanlagan va o'z shogirdlari A.N.Leontev va A.V.Zankov bilan birgalikda xotiraning yuksak shakllarini ruhiy faoliyatning murakkabshakli ekanligini, kelib chiqish jihatidan ijtimoiyligini

ko`rsatadi. Shuning bilan birga u murakkab, mohiyatiga ko`ra esda olib qolishning asosiy bosqichlari rivojlanishini isbotlab bergan.

A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, P.A.Ribnikovlar bolalar xotira faoliyatini o`rganganlar. Shuningdek ular o`qish faoliyatiga asoslangan holda maktab o`quvchilarida tekshirish ishlarini olib borganlar. Ular tomonidan faoliyat nazariyasi ilgari surilib, turl tasavvurlar orasidagi bog`liqlik esda olib qolingani materialning qandayligiga emas, balki odamning u bilan nima qilishiga bog`liqdir. A.N.Leontev tadqiqot ishlarida kata yoshdagilarning ma`nosiz bo`g`inlardan tuzilgan materialni yaxshi, puxta esda saqlab qolishi ta`kidlagan. Kata yoshdagilar ma`nosiz bo`g`inlarni qandaydir mazmun bilan tez va oson bog`lay oladilar. Shuning uchun ularda bolalarga nisbatan kuchliroq ma`no kasb etadi. Shuningdek ma`no anglatmaydigan materialni o`zlashtirish jarayoni tez ko`chadi, mahsuldorroq bo`ladi. Ma`nosiz materialni egallash uchun iroda kuchi, irodaviy sifatlar muhim ahamiyatga egadir.

Nemis psixologiyasida ham xotira bo`yicha turli tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo`lib, jumladan psixolog Vilyam Shtern bolalarda ham kattalarda ham ma`nosiga qarab tushunib o`zlashtirishga nisbatan mexanik egallash miqdori kam miqdor ekanligini ilmiy ishlari davomida aniqlab shu xulosaga kelgan.

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar oldida bilish jarayonlaridan biri bo`lmish xotiraning kuchli bo`lishi va ko`lamining kengligi muhim va dolzarb masalalardan biridir. Hozirgi kunda olimlar bolalarda uzoq muddatli xotira qaysi yoshdan boshlab ishlay boshlashini aniq aytib berishga qiynaladilar. Xotirada ikkinchi darajali nasa yoki voqealar eslab qolinmaydi. Esda saqlanayotgan narsa va voqealar miyada sintez qilinadi va maxsus kodga aylanadi. Hozirgi kunda o`qitish muassasalarida berilgan materialni yaxshi esda saqlash ustida ko`plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Chunki yaxshi esda olib qolingani materialni tushunish oson bo`ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Nishanova Z. Qarshiyeva D. Atabayeva N. Qurbonova Z. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya// Toshkent, 2014;
2. Ibduvlayev Z. Tibbiyot psixologiyasi // Toshkent Iqtisod-Moliya, 2008;

3. Nishanova Z. Alimbayeva Sh. Sulaymonov M. Psixologik xizmat// Toshkent, 2014;
4. Xaydarov F.I. Xalilova N.I Umumiy psixologiya// Toshkent, 2010.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TEXNIKALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA BOLA PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI

Xakimova Dilorom Sodiqjonovna

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani 8-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ta'limga beriloyatgan katta e'tibor tufayli ta'lim-tarbiya sohalaridaham islohatlar va yangilanish jaroyonlari bo'lmoqda. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakillanip kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarini ta'lim jaroyanida mohirona tadbiq etaolishi, ta'limning yangidan yangi yo'l va usullarini izlash ilg'or pedagogik tajribalardanani jobiy foydalana olishi juda muhimdir. Chunki hozirgi texnika asrida bola ongi va tafakkuri kattalarga niabatan tezroq, jadalroq rivojlanmoqda. Maktab yoshiga yetmasdanoq telefon, kompyuter, planshet kabi elektron gadjetlarni o'zlashtirip olmoqdalar. Bu holatni e'tiborga olgan har bir pedagog zamon bilan hamnafas bo'lib, zamonaviy texnologiyalarni chuqur bilishlari lozim.

Bola birinchi sinfga qadam qoygan ilk chog'ida birinchi ustoziga mexri bo'lakcha bo'ladi, bola uchun dunyoda eng blimdon, aqlli va qadrdon inson bu birinchi uztozi bo'ladi. Birinchi muallimini allomalarni ulug'lagandek ulug'laydi har bir so'zini tinglab, harbir gapini bajarishga oshiqadi. Oila a'zolaridan ham ulug' ko'radilar lekin bu holat vaqt o'tgan sari o'zgarib boradi. Bola mukammal deb bilgan insonining oddiy telefon yoki komputerdan foydalana olmasligi bolada hayrat va uztozga nisbatan ishonchsizlik hisi paydo bo'lishiga olib keladi. Bola tarbiyasida va texnologiyalarni qo'llashda qolipga tushib olihs va o'zgarishlardan qochish o'qituvchining obro'si tushishiga sabab bo'ladi. O'zbek xalqi yosh avlodga ta'lim tarbiya berishda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul

va vositalar, shakillari o'ziga xo urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Hozirgi kunda shu meroslardan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega. Bir metod va usulni harkuni qo'llash bolada zerikish, bezish kabi holatlar paydo bo'lishiga olib keladi. Maktabga kelayotgan bola har kuni yangidan yangi o'yin, texnologiya va mtodlarni ko'rsa darsni o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi. Yosh avlod erkin fikirlaydigan, o'z mulohazalarini ochiq bayon qilaoladigan, mustaqil qaror qabulqilaoladigan va ularning shu hislatlarini rivojlantiradigan zamonaviy texnologiyalardan foydalanishimiz kerak. Har kuni bitta parta va bitta partadosh emas tanlash imkoniyati va hohishiga qarab joylashishi bolaning ruhiyatigaham ijobiy ta'sir qiladi.

Dehqon dalaga urug' qadashdan oldin yerga ishlov berip tayyorlab olganidekpedagoklarham bolaga bilim berishdan oldin uning ruhiy holati haqida bilimga ega bo'lishi lozim. Buyuk bobomiz Ibn Sino aytgnidek "bola darsdan darsga o'tganda huddi turli bog'ni kezhandek, turli gullar hidlagandek bo'lsin". Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish bolaga huddi shunday holatning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. O'quvchi birxillikda o'zining turli hislarlarini ochib beraolmaydi. Darsda bir og'izham gapirmaydigan o'quvchi tanafus chog'ida bul-buldek sayrab, burro burro gaplar tuzip she'r va latiflar aytadi.

Har bir alohida dars darslar zanjirining bir bo'g'inini tashkil qiladi. Dars ma'lum tuzilishga ega bo'lgan murakkab tizimdir. Dars strukturasi deganda darsning asosiy komponentlarining maqsadli ketma – ketligi, o'zaro bog'liqligi tushuniladi. Dars strukturasi zamonaviy talqini barcha qismlarning egiluvchanligi, mashg'ulot maqsadidan kelib chiqib turli bog'lanishi va ketma – ketligini nazarda tutadi. Interfaol darsning strukturasi 5 asosiy elementdan tarkib topadi: Motivatsiya (vaqtning5%) Maqsad – o'quvchilarning diqqatini muammoga qaratish. Mavzu muhokamasiga qiziqish uyg'otish. Bu savol, iqtibos (sitata), kichik hikoya, topshiriq ko'rinishida bo'lishi mumkin. Kutilayotgan natijalarni e'lon qilish (vaqtning 5%) Maqsad- o'quvchilarning o'z faoliyatlari mohiyatini tushunib yetishlarini ta'minlash, ya'ni dars yakunida ular nimaga erishadilar va o'qituvchiulardan nimani kutyapti. Zarur axborot bilan ta'minlash (vaqtning 10%) Maqsad- ta'lim oluvchilarga amaliy mashq va topshiriqlarni bajarish

uchun yetarli axborot taqdim etish. Bu kichik ma'ruza, tarqatma material, uy ishini tekshirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Interfaol mashqlar (vaqtning 60 %) Maqsad- materialni amaliy o`zlashtirish, mashg`ulot (dars) maqsadlariga erishish. Bunda o`qituvchi topshiriqni tushuntiradi. O`quvchilar yakka– juftlikda kichik guruhlarda ishlaydilar, natijalarni taqdimot qiladilar. O`qituvchi kuzatishlariga asoslanib, ishni umumlashtiradi. Yakun yasash (o`rganilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash) (vaqtning20%) Maqsad-refleksiya, qayta bog`lanish, mashg`ulot davomida amalga oshirilgan, faoliyatni anglash, maqsadga erishilganlik, olingan BKM larni hayotda qo`llash imkoniyatlarini tahlil qilish. Dars strukturasi to`g`risida fikr yuritganda “dasr rejasi”, “texnologik xarita”, “dasr turlari” kabi tushunchalarni aniqlashtirish zaruriyati tug`iladi. Dars rejasi: Sana, Sinf, Fan, Mavzu, Maqsad, Darsturi, Metodlar, Dars jihozi, Darsning borishi.

Yuqorida dars rejasining tarkibiy qismlari ifodalangan bo`lib, dars rejasi har bir dars ishlanmasi, texnologik xaritaning ajralmas qismidir.

Texnologik xarita-bir soatlik dars ishlanmasining o`qituvchi foydalanishi uchun qulay sxemasi bo`lib, darsni tashkil etishda tushuncha va bilimlarning muayyan izchilligi va axborotli modellarni o`rganish usullari, yo`llari, ko`rsatmalari hamda ko`rgazmali – texnologik topshiriqlar yig`indisidan iborat.

Maqsad nima? Ko`pincha o`qituvchilar maqsad bu – “biz intilayotgan narsa”, “oldimizga qo`ygan reja, ish”, “orzu” deb ta`rif beradilar.

Hayotiy misol

Keling ,bu masalani kelin olish misolida ko`rib chiqaylik. Inson farzandi dunyoga kelganda “katta bo`lsa, yaxshi to`ylar qilsam” deb orzu qiladi. O`g`il farzand voyaga yetganda, nasib qilsa, to`y – tomosha qilaman, elga osh beraman” deb yana o`ylaydi, orzusi yaqinlashgandek bo`ladi (qizlarning ishi biroz murakkab, sababi to`yning qachon bo`lishi ota – ona yoki qizga bog`liq emas).Lekin bularning barchasi hali orzu.

Orzuni qanday qilib maqsadga aylantirish mumkin?

Birinchidan, farzandingiz oila qurishga, oilani boshqarishga jismoniy va ma`naviy jihatdan tayyorligini hisobga olasiz.

Ikkinchidan, to`y qilishga moddiy ta`minot yetarlimi?

Uchinchidan, yoshlar to`ydan keyin qayerda yashaydilar?

To`rtinchidan, siz qanday oiladan, qaysi kasbdagi, ma`lumoti, yoshi qanday qizni kelin qilmoqchisiz?

Beshinchidan, to`yni qaysi oyda o`tkazmoqchisiz?(Albatta o`g`lingiz kelinni topibq o`ygan bo`lsa, ishingiz osonlashadi). Barcha savollarning javobi topilganidan keyin, orzu maqsadga aylanadi. Keyingi harakatlaringiz (qo`shimcha mablag` topish, uyni ta`mirlash, sovchilikka boorish va h.k.) maqsadni amalga oshirish, ya`ni natijaga erishishga qaratiladi. To`y kuni natijaga ega bo`lasiz.

Demak, maqsadni belgilashda biz 5 ta mezonni hisobga olishimiz zarur. Mazkur mezonlar inglizcha so`zlarning qisqartmasidan olingan bo`lib, SMART mezonlari deyiladi.

Dars maqsadi o`quvchilarning talab va ehtiyojlari, imkoniyatlari, avval egallagan bilim, ko`nikma va malakalari, o`qituvchining salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqadi. O`qituvchining o`z darsi oldiga qo`ygan maqsadi, DTS talablari asosida belgilanishi lozim.

Ta`limiy maqsad o`quvchilar egallashi lozim bo`lgan bilim hajmini belgilaydi. U quyidagicha bo`lishi mumkin: “O`quvchilar gap turlari haqida tushunchaga ega bo`ladilar”, ”Undalma haqidagi bilimlarini kengaytiradilar”, rivojlantiruvchi maqsadda o`quvchilar ega bo`ladigan ko`nikma va malakalar ko`rsatiladi. Ko`pincha o`qituvchilar aynan rivojlantiruvchi maqsadni belgilashda qiynaladilar. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda “o`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatish”, “so`z boyligini oshirish”, “og`zaki va yozma nutqni o`stirish” kabi rivojlantiruvchi maqsadlarning bir soatlik dasr davomida amalga oshishi mushkulligi barchaga ayonligini ta`kidlash lozim, tarbiyaviy maqsadda bunda asosan, o`quvchilarda shakllantirilishi muhim bo`lgan fazilatlar, ularning psixologik holatiga e`tibor qaratish muhim.

Xulosa. Ilg`or pedagogik texnologiyalar ta`lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o`quvchilarning mustaqil fikirlash jarayonini shakillantiradi. O`quvchining bilimga ishtiyoq va qiziqishini oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, o`zlashtirish ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko`nikma va malakalrini shakillantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'. Yo'ldashov. S.A. Usmanov "Pedagogik texnologiya asoslari" T.O'qtuvchi 2004.
2. T.G'afforova "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogic texnologiyalar" T.:Tafakkur 2011.

ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA AXBOROTLASHUV MUAMMOLARI

Sharipova Marhabo Odilovna
Andijon viloyati Baliqchi tuman 39-maktab psixologi

Axborot (lotincha "information" -tushuntirmoq, bayon qilmaslik) zamonaviy fan va siyosatning asosiy tushunchalaridan biri; bajarilgan kishilar tomonidan boshqariladigan og`zaki, keyinroq yozma yoki boshqa shakllar uzatilgan ma`lumot; XX asrda amalga oshirilayotgan insonlararo, inson-avtomat, avtomat-avtomat o'tganidagi ma`lumot hamda hayvonlar va o'quvchilarning signal almashinuvi, o'zaro munosabatlarga anglatadigan xarakterli jarayon hisoblanadi.

Shaxs alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'z yo'nalishi, tadqiqot ob'yekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi. U o'ta murakkab, ziddiyatli, qarama qarshi, o'zini o'zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aqlidrok, tafakkur ob'yekti sifatida, hatto, falsafiy va mantiqiy, yashash huquqi va hayot mantig'i jihatidan tadqiqot manbaiga aylanishi mumkin. Shaxsning shakllanish omillari ko'p va xilma xildir. Masalan, genetik (nasliy), biologiktabiiy, madaniy, ijtimoiy hayot tajribasi, o'z turdoshlari bilan munosabatlar va boshqalar shahrining genetik jihati uning nasliy asosi, ajdodlaridan yetib kelgan fizionomiya, fe'l-atvor bilan, biofiziologik jihati esa yashash uchun quvvat olish, qatlanish, jinsiy aloqaga kirishish va nasl qoldirish singari individual ehtiyoj bilan belgilanadi.

Shaxs fenomeni inson olamining butun murakkabliklarini o'zida mujassam etadi. Uni har tomonlama o'rganish maqsadida turli davrlarda tadqiqot olib borilgan. Ayniqsa, sharqda u yuksak axloqiy ma'naviy me'yorlar orqali tushunilgan va oliy xilqat, bebaho qadriyat deb hisoblangan. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go'zal va farovon bo'lishiga ehtiyoj sezadi.

Shaxs tushunchasi inson tushunchasining yuksak ko'rinishi, oliy maqomidir. Ijtimoiy-ma'naviy axborot-ijtimoiy va iqtisodiy hayot borasida jamiyat a'zolari, ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar tashkilotlari o'zaro almashinuv predmeti hisoblangan va ular o'z faoliyatida foydalandilar.

1. Ijtimoiy-madaniy ma'noda axborot madaniyati insonning aniq ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, iqtisodiy va estetik qadriyatlarini takomillashtirmagan axborot maydonida hayotiy faoliyatni namoyish etishda yordam beradi.

2. Axborotlashuv jarayoni jamiyatdagi iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. G'arb sotsiologlari fikriga ko'ra, axborotlashgan jamiyat texnika sharoit -ishlab chiqarish, iqtisodiyot, ta'lim va maishiy hayotga axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi ijtimoiy hayotda - axborot turmush, hayotni rivojlantirishning asosiy omiliga aylanishi; iqtisodiy sohada -keng miqyosda fikr almashishga zamin yaratuvchi xilma-xil axborotlarni erkin tarzda amalga oshirish; madaniyat davom etmoqda-axborot almashinuvi davrlarini boshqarishlariga javob beradigan normalar va qadriyatlarning shakllanishi bilan xarakterlanadi. Ayniy axborot axborotlashgan jamiyat:

- uyda ishlashning kengayishiga, transport harakatining kamayishiga va natijada tabiatga tushadigan "yuk" ning keskin qisqarishiga olib keladi;

- ish kunining qisqarishi odamlarning uyida ko'proq bo'lishiga va oilaviy muhitning sharoitida bo'lishiga zamin yaratadi;

- keyingi yuz yilliklarda odamlar shaharda yashash va ishlash uchun eng qulay makon, degan xulosaga keldilar. Axborotlashuv jarayoni esa, qishloqdan turib ham butun olam bilan muloqot qilish, eng obro'li tashkilotlarda ishlash, shahar aholisi bahramand bo'lib qolayotgan madaniyat yutuqlarini ishlatish imkoniyatlarini yaratish. Bu esa, o'z

navbatida muomala osuda va tinch bo'lgan, tabiatga yaqin qishloqlarga qaytish yoki u erda doimiy turish uchun zamin yaratadi;

- masofaviy ta`lim bilim olish eng qulay shaklga aylanishi barobarida, aholining keng kataloglari uchun hatto eng oliy o'quv yurtining eshiklarini ochish zamin yaratadi. Sodda qilib aytganda, ma`lumotlilik ko`p darajada insonning xohish-irodasiga bog`liq bo`lib qoladi. Ayni paytda , axborot lashuv jarayoni bir qator muammolarni ham amalga oshirishga qaratilgan .

Nolinchi, axborot tarmoqlarining uzilishsiz bajarilishi uchun muhim sifat belgilarini qo'llash va bu jarayon doimiy takomillashuvni boshdan kechirmoqda. Demak, davomidagi kabidek "kutish" yo`liga ishlash to`siq qo`yilmasin doimo ularni "aylanib" o`tish imkoniyati mavjud bo`ladi.

Yana bir muammo mualliflik hamda intellektual mulk huquqining buzilishi bilan bog`liq. Shunday ekan, axborot tarmog'ida ko'pchilik ko'ra bo'lmaydigan hududlar mavjud bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda kompaniyalar o'zlarining axborotlarini himoya qilish va ruxsat etilmagan kirishlarning amalga oshirilishini ta'minlash uchun katta mablag'lar sarflanadigan xam shundan. Shu bilan birga ma'lum axborotlarni yashirishdan tortib, uni noqonuniy ravishda e'lon qilishgacha bo'lgan ko'rinishlarda ko'rinadigan bo'lishi mumkin bo'lgan suiste'molliklar ham kelib chiqishi mumkin.

Axborot turli xil ijtimoiy masalalar, professional va milliy guruhlar vakillariga har xil ta`sir qilinishi mumkin bo'lgan barobarida uni iste`mol qilish amaliyoti turli guruhlarda bir-biridan keskin farq qilishi mumkin. Bu eng avvalo, axborot manbalari ishlab chiqarilishidagi farqda ko'rinadigan bo'lib qoldi. Masalan, alohida odamlarda axborot manbai minimal (televidenie, radio), ayrimlarda esa keng (internet, yangi telekommunikatsiyalar tizimi) bo'lishi mumkin.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, bugungi kunda jamiyatda aynan axborotni olish , unga qarashda aniq keskin bo'lish, tabaqalashuv sodir bo'lishi mumkin.

Yoshlar o'zlarining harakatchanligi va yangilikka intiluvchiligi hamda barcha vaqt resurslariga egaligi bo'yicha darajadagi kommunikativ faollik ko'rsatkichlarini namoyish etdilar. Boshqa guruhlarda esa, davolash passivlik kuzatiladi. Ularga xos bunday vaziyatlar tahlikali oqibatlarini ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu birinchi guruh uchun

tobora faollashayotgan agressiv iqtisodiy ta'sirga berilib ketish xavfining mavjudligi, ikkinchi guruhning esa, pozitiv mazmunga ega axborotlar ta'siridan ishlashda qolishi bilan belgilanadi.

3. Iqtisodiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va boshqa sohalardagi axborotlar ta'mirlash ijtimoiy hayot mazmunan boyishi, takomillashuvining muhim omili kabidir. Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti, integratsiya va globallashuv sharoitida esa axborot makonida tub sifat holati kechmoqda. endilikda, axborot uzatish bilan shug'ullanadigan xilma-xil (radio, televidenie, matbuot, telefon, faks, pochta, Internet va b.) shakllari, balki, lekin tezkorligi bilan jamiyat taraqqiyotining oldingi davrlaridir. Bunday sharoitda, axborot iste'moli jarayonida ham yangi tendentsiyalar kuzatilmoqda. "Kimki axborotga ega bo'lishi mumkin, u dunyoga egalik qiladi" degan fikrning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ijtimoiy makon - bu , ayni paytda axborot makoni hamdir. Globallashuv sharoitida axborot hajmini kattalashtirish, zamonaviy zamonaviy vositalar orqali tarqatish bo'yicha axborot sohasining ijtimoiy makonning boshqa shakllaridan tubdan farq qilishini ta'minlamoqda. Xususan, zamonaviy axborot boshqaruvi (xususan, Internet tizimi) orqali tarqatilayotgan xabar va ma'lumotlarga turli xil zamonaviy taqiqlar, davlat chegaralari to'siq bo'la olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziyev E. G'. Ontagenez psixologiyasi.-T.:Noshir.2010.
2. Maxsudova Z. Psixik taraqqiyot diognostikasi. T.:TDPU,2004.
3. Radugina A. A. Pedagogika I psixologiya.M., 2007.
4. Shermuhammedov S, Ochildiyev A Madaniyat va sivilizatsiya. Farg'ona:2000 B.37
5. Internet manbalari.

RUHIY ZO‘RIQISH VA UNI OLDINI OLISHNING O‘ZIGA XOSLIGI

Rasulova Fayoza Murodullayevna
Qashqadaryo viloyati Kitob tumani 1-IDUM psixologi

Insonning har qanday faoliyati aqliy, ijodiy va jismoniy ishlari zo‘riqishni talab qiladi. Shunday yo‘l bilan insonlar hayotiy vaziyatlarda oldilarida turgan vazifalarga uzoq vaqt ishni diqqatlarini jamlab, ularni ishonch bilan to‘liq yecha oladilar. Inson ishni muvaffaqiyatli tugatgandan so‘ng yengillashish va bo‘shashish hissini boshdan kechiradi. Bu holat bo‘shashish deb ataladi. Nerv va gormonal yo‘llar orqali zo‘riqib, funksiyaning organik (stress) muvaffaqiyatga erishishda muhim omil hisoblanadi. U inson uchun zararli hisoblanmaydi, agar sarflangan energiya tezda bo‘shashish orqali qayta tiklansa, tanafuslar va bo‘sh vaqtdan unumli foydalanish yo‘li bilan bo‘shashishga erishish mumkin. Bo‘shashishga boshqa faoliyat turiga ko‘chish orqali ham erishish mumkin.

Lekin zo‘riqish inson ijodiy faoliyatini tormozlashi, ish qobiliyatini pasaytirishi, sog‘liqqa zararli ta‘sir ko‘rstishi mumkin. Agar bo‘shashish yetarlicha bo‘lmasa, yuqoridagi xolatlarni kuzatish mumkin. Ular shaxsiy hayot va ishdagi nizoli vaziyatlar, shaxslararo munosabatning buzilishi, kelajakka ishonmaslik, xavf- xatardan qo‘rqish, ishni doimo qisqa muddatda topshirish tufayli o‘z vaqtida ulgura olmaslikdan qo‘rqish va boshqalarni kiritish mumkin.

Shu bilan birga jamoadagi nosog‘lom psixologik iqlim, shaxs xarakterining bo‘shligi, qo‘rqish, muvaf-faqiyatsizliklar, o‘z imkoniyatlarini yuqori baholish, boshqa kishilar bilan munosabat aloqalarning yetishmas-ligi, ijtimoiy ajralib qolish ham uzoq zo‘riqish xolatiga olib kelishi mumkin. Barcha stress xolatlarida salbiy hissiyotlar rol o‘ynaydi. Ular inson faoliyatiga va uning organizmiga buzuvchi ta‘sir ko‘rsatadi.

Nevroz organizm va muhit orasidagi dinamikaning barqaror bo‘lishi oqibatida paydo bo‘ladigan kasallik bo‘lib, ma‘lumotlarni qayta ishlash, hissiyot, boshqarish bilan bog‘liq miyadagi jarayonlarning o‘zgarishiga olib keladi. Bu o‘zgarishlar motor va sensor funksiyalarni jalb qiladi, aqliy va jismoniy ish qobiliyatining pasayishiga olib keladi.

Organizm va muhit orasidagi dinamika yoki muhitning noanomol sharoitlari yoki organizmning anormal holatidan buzilishi mumkin. Masalan, muhitdan keluvchi bir

kuzatuvchiningo‘zi bir odamga undovchi ta’sir ko‘rsatsa, boshqa birida og‘riq reaksiyasini vujudga keltirishi mumkin. Boshqacha so‘zlar bilan aytganda, jismoniy va ruhiy mashq qilgan, kelajakka ishonch bilan qarovchi inson sog‘lig‘iga ziyon keltirmasdan ishlashi mumkin.

Tashqi muhit sharoitlariga bog‘liq nerv psixik kasalliklarining vujudga kelishi va taraqqiyotida stresslarning ta’siriga katta ahamiyat beriladi, ayniqsa, bu yurak-qon tomir kasalliklariga tegishlidir. Shu bilan birga stressga ijobiy ta’sir, ya’ni ish qobiliyatini oshirish xislati xos. Shuning uchun ham stressni "hayot tuzi" deb atashadi. Tuzdan foydalanishda me’yor rol o‘ynaganidek, stressning ham me’yori mehnat unumdorligini oshirishi mumkin yoki me’yordan ortishi sog‘liq uchun zararli bo‘lishi mumkin. Inson aqlli mavjudot sifatida, agarda u bilimlar, tartib, irodaviy hislatlar va faollikka ega bo‘lsa stressning to‘g‘ri dozasi o‘zi uchun aniqlashi mumkin.

Stress - bu inson atrof-muhit o‘zgarishlariga moslashishida yuzaga keluvchi ruhiy va jismoniy holat. Bu organizmning zarbaga, tashqaridan qilingan bosimga javoban keskinroq qarshilik ko‘rsatish. Biz ularni uncha yoqimlibo‘lmagan odatiy hol sifatida qabul qilamiz bu atrof muhitning uzoq vaqt ta’siri bo‘lib, individ uchun hissiy organizmning boshqariluvchi tizimida va markaziy nerv sistemasida unga mos reaksiyalarni vujudga keltiradi.

Amaliy nuqtai nazardan stress nima? Buni tushunish uchun stressning asosiy alomatlarini ko‘rib chiqamiz:

Doimiy bezovtalik, tushkun holatda yurish, ba’zida bu holatlar hech qanday sabablarsiz yuzaga keladi.

Yomon, notinch uyqu.

Depressiya, jismoniy zaiflik, bosh og‘rig‘i, charchoq, biron narsa qilish yoqmasligi.

Diqqatni kamayishi, bu o‘qish yoki ishlashni qiyinlashtiradi. Xotiradagi muammolar va fikrlash jarayonining sekinlashishi.

Dam olish, ish va muammolarni bir chetga chetga surib qo‘ya olmaslik.

Boshqalarga, hatto eng yaxshi do‘stlarga, oila va yaqin kishilarga qiziqishning yo‘qligi.

Doimiy paydo bo'ladigan yig'lash, ko'z yosh to'kish, xafagarchilik, umidsizlik, o'z-o'ziga achinish hissi.

Ishtahaning pasayishi — ba'zida esa aksincha: oziq-ovqatni ortiqcha yeb yuborish.

Ko'pincha asabiy odatlar rivojlanadi: kishi labini tishlaydi, tirmoqlarini tishlaydi va hokazo. Kishida befarqlik, odamlarga ishonchsizlik paydo bo'ladi.

Agar siz stress holatda bo'lsangiz, bu bir narsa demakdir: sizning organizmingiz qandaydir tashqi ta'sirga javob reaksiyasini qaytardi.

Stressning sababi aslida insonni ta'sirlaydigan, bezovta qiladigan har qanday narsa bo'lishi mumkin. Misol uchun, tashqi sabablarga biron nima tufayli payo bo'lgan bezovtalikni kiritisa bo'ladi (ish joyini o'zgartirish, qarindoshning o'limi).

Stressning ichki sabablari hayotiy qadriyatlar va e'tiqodlarni o'z ichiga oladi. Bunga shaxsiy baholashi ham kiradi

Stress va depressiya ayol va erkaklarda taxminan teng darajada uchrashi mumkin. Biroq, har bir organizm o'z xususiyatlariga ega. Agar siz o'zingizda stress haqida so'zlashi mumkin bo'lgan alomatlarni sezsangiz, birinchi navbatda holat sababchilarini aniqlash kerak. Stressning oqibatlaridan ko'ra sabablarini bartaraf etish ancha osonroq. «Barcha kasalliklar asabdan» degani yolg'on emas.

Stressning o'z harakatlantiruvchi qurilmasi o'z davriyligi mavjud va bu quyidagilarda ko'rinadi.

1- bosqich. Xavotirlanish ta'siri. Organizm quvvatni ishga soluvchi garmonlar ajratgan holda unga qarshilik ko'rsatadi. Xavotirlanish ta'siri qandaydir shiddatli yallig'lanish jarayoni yordamida namoyon bo'lishi mumkin. Keyinchalik hammasi o'z o'rniga tushadi- odam stressgacha bo'lgan holatga qaytadi. Agar zo'riqishni yenga olmagan bo'lsangiz ikkinchi bosqichni yuzaga keltiradi.

2- bosqich unga moslashish bosqichi boshlanadi. Organizm stress bilan kelishishga harakat qiladi, nima qilib bo'lsa ham, undan xalos bo'lishga intiladi. Buyrak usti bezlarining faolligi oshadi, ular yallig'lanishga qarshi xususiyatlarga ega bo'lgan kortikosteroidlarni qongaishlab chiqaradi. Lekin zo'riqishgamoslashish jarayoni o'z nihoyasiga yetayotgan kuchalarni arang tutib turgan quvvatni so'rib oladi. Jang ham,

tinchlik ham bo'lmagan bu holatabadiy davom etishi mumkin emas. Uning yakuni uchinchi bosqichni yuzaga keltiradi.

3- stressning uchinchi bosqichi: inson organizmini tamoman holdan toyishini yuzaga keltiradi.

Asabiy vaziyatni, yaxshisi birinchi bosqichda, juda bo'lmaganda ikkinchi bosqichda bartaraf etish lozim. Buning ikki yo'li mavjud.

1. Muammoda diqqatni jamlash metodi - asbiy vaziyatning o'zini nazorat qilish va o'zgartirishdan iborat. Umuman olganda muammoda diqqatni jamlash usuli, qoidaga ko'ra, boshqarish mumkin bo'lgan asabiylashish omiliga duch kelganingizda, y'ani birorchorani qo'llamoqchi bo'lgan vaziyatda juda foydali hisoblanadi. Muammoni tahlil qilib chiqing: ba'zida o'z muammolarimizni oshirib yuboramiz Haqiqatan hammuammo bilan ish ko'ramizmi yoki bu zo'riqish holati ikki lahzada hal etiladigan arzimas narsadan yuzaga kelganmi, aniqlab olish zarur.

2. Diqqatni hissiyotlarda jamlash usuli - odamlar vaziyatga nisbatan o'zlarining ehtirosli ta'sirlarini nazorat qilishga urinishlaridan iborat. Hissiyotlarda jamlangan harakatlar nazorat ostidan chiqib ketgan zo'riqishni engish uchun mos keladi. Bu ikki usul bir vaqtning o'zida qo'llanilishi mumkin.

Biz insondagi ruhiy zo'riqishni oldidini olish uchun quyidagi tavsiyalarni beramiz:

1. Tez fursatda tanani bo'shashtirish.
2. Miyaga dam berish.
3. Zo'riqishga olib keladigan vaziyatlardan nari bo'ling.
4. Sun'iy zo'riqishni yuzaga keltiruvchi salbiy xotiralardan voz keching.
5. Ovqatlanishda foydali maxsulotlarga urg'u bering.

FARZANDLAR TARBIYASIDA OTA-ONA VA MAKTAB SOG'LOM MULOQOT TURMUSH TARZINI PSIXOLOGIK JIHLTLARI

*Hamroboeva Sevara Nematjonovna
Andijon viloyati Shaxrixon tuman 61- maktab psixologi*

O'zbekistonda oila manfaatlarini ta'minlash, oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash, onalik va bolalik huquqini qonuniy jihatidan yanada muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Oilada sog'lom turmush tarzini yaratish, uning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Bularning barchasi o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida oilaning o'rnini va ta'sirini yanada kuchaytirish imkonini beradi. Jamiyat taraqqiyoti barkamol insonni tarbiyalashda nafaqat zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish, balki ma'naviy-ma'rifiyyetuk ahloqiylikni har bir kishida tarbiyalashga ko'p jihatdan bog'liqdir. Oilada milliy udum, rasm-rusm va an'analarni saqlash o'rganish va nasldan- naslga o'tkazish kabi vazifalarni o'zida aks ettiradi. Insonning dunyoqarashi, xulq-atvori, odob-ahloqi, yurish turishi oilada shakllanadi. O'zbek oilalarida kattalarga hurmat, ilmga intilish, iymone'tiqod, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi chin insoniy fazilatlar farzandlarga singdirilib boriladi. Yurt, ota-ona, qarindosh-urug' va yaqinlarga mehr-muhabbat, sodiqlik va fidoyilik o'zo'zidan paydo bo'lmaydi. Buning zaminida yoshlarga oilada, ta'lim muassasalarida, mahallalarda beriladigan ta'lim va tarbiya yotadi. Oiladagi singdirilgan tarbiya, vatanga muhabbat, mehr-oqibat, o'zoro hurmat kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oila kishilar hayotining ajralmas qismidir. U oila a'zolarining ozoro yordami, xo'jalik yuritishning birligi va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Ma'lumki, farzand kelajakdagi hayot faoliyatlarini o'z orzul;arida, oilaning ta'sirida loyihalashtiriladi. So'nggi yillarda yoshlarning orzulari jamiyatimizning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda qatnashishga bo'lgan intilishlarida namoyon bo'lmoqda. O'zlarining kelajak hayotlarini jamiyatda tutgan o'rinlari bilan bog'lanmoqdalar. Ota-onalar tomonidan yoshlarga tarbiyaviy ta'sir qo'llanilganda ularning o'z-o'zini boshqara olish, o'zini tuta bilish, o'z-o'ziga baho berishga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mana shundagina yoshlar

oilada hamshixat bo'lish, jamoaviy mehnatga burch hissi, o'zorongdamlashishga intilish, birdamlik, kerak bo'lgan paytda bo'ysunish odatlari tarkib topadi. Farzand uchun yoshi katta insonlarning xatti-harakatlari, xususan ota-onalarning shaxsiy namunalari muhim ahamiyatga ega. Aytish joizki, uning qalbidan hech bir narsa ota-onaning ibratidek kuchli va mustahkam o'rin egallamaydi. Ota-onalar farzandini nafaqat so'zlari bilan balki, xatti-harakatlari bilan ham tarbiyalaydilar. Ota-onalar tomonidan yo'l qo'yilgan ayrim tasodifiy xatolar, kamchiliklar ularning xatti-harakatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Oilada ota-ona farzandini ma'naviy jihatdan tarbiyalab borishda qat'iy intizom, odobfarosat bilan ish tutishlikka o'rgatib borishi kerak. Ota-onalar farzandlarining xulq-atvori, ahloqi uchun jamiyat oldida javobgardirlar. Bola tarbiyasida o'zbeklarning o'ziga xos tajribasi, davr sinovidan o'tgan an'analari bor. Bunga o'zidan kattalarni va kichiklarni, keksa bob ova buvilarni, ota-onani hurmat qilish, salom berish, yoshi ulug'lar bilan odob-farosatda suhbat qurish kabilar misol bo'la oladi. Xalqimizning tarbiya borasidagi yetuk milliy ma'naviyati hamma vaqt umuminsoniy qadriyatlarning tarkibiy qismi bo'lib qoladi. Oilada turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi. Oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining qarindosh urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon esonligi to'g'risidag'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oily darajada ma'naviy 130 qadriyat, inson qalbini gavharidir. Bu fikrlar albatta, o'zbek oilasining o'ziga xos xususiyatining asosini tashkil etadi. Yurtboshimizning jamiyat taraqqiyotida uning asosi bo'lgan oila o'zbek oilalarining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy holatida muhim ro'l o'ynamoqda, chunki oilalarninghar tomonlama yuksalishi jamiyatning yuksalishi demakdir. Xuddi shu ma'noda kelajagimiz bo'lmish yosh avlod va uning taraqqiyotida davlat ahamiyatligiga molik masaladir. Shuning uchun oilalarda ota-ona va farzandlar munosabatining o'ziga xos psixologik jihatlariga e'tibor berish zarurki, be'vosita bu jarayon farzandlar tarbiyasini takomillashtirishda, dunyoqarashini kengaytirishda oila haqida tushunchalarini boyitishda muhim omil sifatida ahamiyatlidir. Bolalar bilan ota-onaning, umuman kattalarning muloqoti va munosabati, ayniqsa, bolalar

o'smirlik yoshiga yetganda o'ta murakkablashadi, muloqotning nozik qirralari ko'payadi. "Bola bilan muloqot qilish san'atidan-da murakkab san'at yo'qdir" deb yozganda mutlaq haq edi mashhur polshalik pediater va pedagog Yanush Korchak. Xulosa sifatida shuni alohida takidlab o'tmoqchimanki, ota-onaning farzandni ma'naviy jihatdan tarbiyalashi borasida o'zbeklarning o'ziga xos, uzoq tarixga ega ajoyib an'analari bor. Ularning axloq va odobi o'zbekona tarbiyasining mahsulidir. Xalqimizning tarbiya borasidagi yetuk milliy ma'naviyati hamma vaqt umuminsoniy qadriyatlarning tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Bolaning ma'naviy tarbiyasida eng muhimi- oilaning mustahkam, ma'naviy asosga qurilganligi, bu jarayonda, avvalo ota-onaning o'zlari tarbiyalangan bo'lishlari, o'zoro ahillik, inoqlik qaror topgan bo'lishi, bolalarni kelajak hayotga tayyorlash mas'uliyatli burch ekanligini ongli tarzda tushinishlari lozim. Oilada yosh avlodni ota-onaning namunasi, oila an'analari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari ruhida tarbiyalash, o'zoro mehr-oqibatni, hurmat hissini shakllantirishda oila, ta'lim muassasasi va mahalla hamkorligi tizimini samarali tashkil etish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. O'smir bilan muloqotda ota-onadan haqiqiy ijodkorlik, egiluvchan munosabat, tog'dek bardosh talab qilinadi. Mana shu hislatlar tugab borayotganda, chidashga boshqa majol qolmayotganday bo'lib tuyila boshlaganda, ota-ona o'smir bolalar o'z kundaliklari va insholarida ko'pincha "baxt-bu seni kimdir tushunish" deb yozishlarini esga tushirish muhimdir. Farzand bilan aloqani, erkin va samimiy muloqotni yo'qotish, farzandning o'zini yo'qotish bilan barobarligini sedan chiqarmaslik kerak. Bu esa, shak-shubhasiz, bu haqda o'y surilganda bir zumda ancha yemirilib qolgan bardosh tog'I yonida yana o'nta shunday tog'lar qad rostlaganini his qilinadi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy dasturi;
2. "2017 – 2021 – yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi";
3. Umumiy psixologiya - E.G'oziyev;
4. Rivojlanish psixologiyasi - V.Karimova;
5. Internet ma'lumotlari :

МУЛОҚОТНИНГ ШАКЛАРИ ВА БОСҚИЧЛАРИ

*Мўминова Жамила Раимджановна
Шайхонтоҳур тумани 34 А мактаб психологи*

Мулоқот жараёни ўзига хос равишда мураккаб бўлиб, бунда уч хил босқич мавжуд.

Дастлабки босқич – одамнинг ўз-ўзи билан мулоқотидир. Т.Шибутани «Ижтимоий психология» дарслигида: «Агар одам озгина бўлса ҳам ўзини англаса, демак, у ўз-ўзига кўрсатмалар бера олади» - деб тўғри ёзган эди. Одамнинг ўз-ўзи билан мулоқоти аслида унинг бошқалар билан мулоқотининг характерини ва ҳажмини белгилайди. Агар одам ўз-ўзи билан мулоқот қилишни одат қилиб олиб, доимо жамиятдан ўзини четга тортиб, тортиниб юрса, демак у бошқалар билан суҳбатлашишда, тил топишишда жиддий қийинчиликларни бошдан кечиради, дейиш мумкин. Демак бошқалар билан мулоқот – мулоқотнинг иккинчи босқичидир.

А.Н.Леонтьев ўзининг «психика тараққиётидан очерклар» китобида мулоқотнинг учинчи шакли – авлодар ўртасидаги мулоқотнинг аҳамияти тўғрисида шундай ёзади: «Агар барча катта авлод ўлиб кетганида, инсоният тури йўқ бўлиб кетмасди, лекин жамиятнинг тараққити аняа орқага сурилибгина эмас, балки йўқолиб кетиши ҳам мумкин эди». Ҳақиқатдан ҳам, авлодлараро мулоқотнинг борлиги туфайли ҳар бир жамиятнинг ўз маданияти, маданий бойликлари, қадриятлари мавжуд бўладики, бунинг аҳамиятини тушунган инсониятнинг энг илғор вакиллари уни доимо кейинги авлодлар учун сақлаб келадилар ҳамда таълим, тарбия ва кундалик мулоқот жараёнида уни авлоддан авлодга узатадилар.

Мулоқотнинг ҳаётимиздаги шакл ва кўринишларига келсак унинг ҳар бир шахснинг ҳаётий вазиятларга мос келадиган, ўша вазиятлардан келиб чиқадиган кўринишлари ва турлари ҳақида гапириш мумкин. Лекин умумий ҳолда ҳар қандай мулоқот ё расмий ёки норасмий тусда бўлади. Агар расмий мулоқот одамларнинг жамиятда бажарадиган расмий вазифалари ва хулқ-атвор нормаларидан келиб чиқса, масалан, раҳбарнинг ўз қўл остида ишлаётган ходимлар билан мулоқоти,

профессорнинг талаба билан мулоқот ива ҳоказо, норасмий мулоқот – бу одамнинг шахсий муносабатларига таянади ва унинг мазмуни ўша суҳбатдошларнинг фикр-ўйлари, ният-мақсадлари ҳамда эмоционал муносабатлари билан белгиланади. Масалан, дўстлар суҳбати, поездда узоқ сафарга сиққан йўловчилар суҳбати, танаффус вақти талабаларнинг спорт, мода, шахсий муносабатлар борасидаги мунозаралари. Одамларнинг асл табиатларига мос бўлгани учун ҳам норасмий мулоқот доимо одамларнинг ҳаётида кўпроқ вақтини олади ва бунда улар чарчамайдилар. Лекин шуни таъкидлаш керакки, одамда анна шундай мулоқотга ҳам қобилиятлар керак, яъни унинг қанчалик сергаплиги, очик кўнгиллиги, суҳбатлашиш йўллари билиши, тил топишиш қобилияти, ўзгаларни тушуниш ва бошқа шахсий сифатлари кундалик мулоқотнинг самарасига бевосита таъсир кўрсатади. Шунинг учун ҳамма одам ҳам раҳбар бўлолмайди, айниқса педагогик ишга ҳамма ҳам қўл уравермайди, чунки бунинг учун ундан расмий, ҳам норасмий мулоқот техникасидан хабардорлик талаб қилинади.

Мулоқот мазмуни ва йўналишига кўра унинг:

* ижтимоий йўналтирилган (кенг жамоатчиликка қаратилган ва жамият манфаатларидан келиб чиқадиган мулоқот);

* гуруҳдаги предметга йўналтирилган (ўзаро ҳамкорликдаги фаолиятни амалга ошириш мобайнидаги мулоқот – меҳнат, таълим жараёнидаги ёки конкрет топшириқни бажариш жараёнида гуруҳ аъзоларининг мулоқоти);

* шахсий мулоқот (бир шахснинг бошқа шахс билан ўз муаммоларини очиш мақсадида ўрнатган муносабатлари);

* педагогик мулоқот (педагогик жараёнда иштирок этувчилар ўртасида амалга ошириладиган мураккаб ўзаро таъсир жараёни) турлари фарқланади.

Мулоқотнинг тури ва шакллари турличадир. Масалан, бу фаолият бевосита «юзма-юз» бўлиши ёки у ёки бу техник воситалар (телефон, телеграф ва шунга ўхшаш) орқали амалга ошириладиган; бирор профессионал фаолият жараёнидаги амалий ёки дўстона бўлиши; субъект – субъект типли (диологик, шериклик) ёки субъект – объектли (монологик) бўлиши мумкин

Нутқ фаолияти - одам томонидан ижтимоий - тарихий тажрибани

ўзлаштириш ва авлодларга бериш ёки коммуникация ўрнатиш ўз ҳаракатларини режалаштириш мақсадида тилдан фойдаланиш жараёнидир. Нутқ фаолияти алоқа жараёнининг ўзидир. Нутқ фаолиятининг қуйидаги турлари фарқланади: фаол ва пассив нутқ. Сўзловчининг нутқи фаол нутқ. Тингловчининг нутқи пассив нутқ ҳисобланади. Нутқ ички, ташқи нутққа бўлинади. Ташқи нутқ - ёзма ва оғзаки нутққа, оғзаки нутқ эса монолог ва диалогик нутққа бўлинади. Монолог - бир кишининг ўзига ёки бошқаларга қаратилган нутқдир. Бу ўқитувчининг баёни, ўқувчининг тўлароқ жавоби, маъруза ва бошқалардир. Монологик нутқ маълум қийинчиликларга эга. Монологда гапираётган киши фикрларнинг аниқлигига, грамматик қоидаларнинг сақланишига, логика ва айтилаётган фикрларнинг изчиллигига эътибор бериш керак.

Диалогик нутққа нисбатан монологик нутқ кечроқ шаклланади. Мактабда ўқувчиларда монологик нутқни ривожлантиришга алоҳида эътибор беришлари керак. Икки ёки ундан ортиқ кишилар ўртасидаги нутқ диалог дейилади. Диалогик нутқда баён қилинаётган фикр кўп жиҳатдан ундан олдинги фикрга боғлиқ бўлади. Диалогик нутқда суҳбатдошларга маълум бўлган айрим сўзлар тушириб қолдирилади. Шунинг учун ёзиб олинган диалог бошқаларга унчалик тушунарли бўлмаслиги мумкин. Диалогик нутқда ҳар хил турдаги шаблонлар, яъни одатланиб қолган сўз бирикмаси кўп учрайди (қойил, марҳамат қилиб айтингчи).

Нутқнинг *ички нутқ* деб аталган тури нутқ фаолиятининг алоҳида тури ҳисобланади. Ички нутқ амалий ва назарий фаолиятни режалаштириш фазаси сифатида намоён бўлади. Биз сўзни чала - ярим айтишимиз биланоқ тушунаверамиз. Ички нутқ айрим оғзаки нутқ актларидан юксакроқ, хусусан ихтиёрийлик даражаси анча юксакроқ бўлган оғзаки нутқдан юксакроқ содир бўлиши мумкин.

Ёзма нутқ монологик нутқнинг турларидан бири бўлиб, ёзма нутқ монологик нутққа нисбатан батафсилроқдир. Ёзма нутқ туфайли кишилар тўплаган тажрибани авлоддан авлодга энг яхши тарзда етказиш имконияти бор. Ёзма нутқ пиктографиядан минглаб сўзлар бир неча ўнлаб ҳарфлар ёрдамида ифода этилаётган ҳозирги замон ёзувига қадар ривожланди. Кўпинча бир нарсани ёзиб

қўйиш - бу уни англаб олиш ва эслаб қолиш демакдир.

Ҳар бир мулоқот турининг ўз қонун-қоидалари, таъсир усуллари ва йўлқўриқлари борки, уларни билиш ҳар бир кишининг, айниқса одамлар билан доимо мулоқотда бўладиганларнинг бурчидир.

Мулоқот жараёнининг мураккаб психологик табиатини билиш, турли шароитларда самарали муносабатлар ўрнатиш малакасини ошириш учун унинг таркибига кирувчи ҳар бир элемент ёки бўлақлар билан алоҳида танишиб чиқамиз.

КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ПСИХИК РИВОЖЛАНИШИ

*Усманова Зулфия Саидаскаровна
Шайхонтоҳур тумани 136 мактаб бошланғич синф ўқитувчиси*

Кичик мактаб даври 6-7 ёшдан бошланиб то 9-10 ёшгача давом этади. Бу даврда бола у мактаб ўқувчиларига қўйиладиган ҳар хил талаблар билан танишади, фан асосларини урганиш учун биологик ва психологик жихатдан тайёрланади. Унинг психикаси билим олишга етадиган даражада ривожланади. Шу ёшдаги бола идрокининг ткирлиги, равшнлиги, софлиги, аниклиги, узининг кизикувчанлиги, ишонувчанлиги, хаёлининггёркинлиги, хотирасининг кучлилиги, тафаккурнинг якколлиги билан бошқа ёшдаги болалардан ажралиб туради. Мактаб таълимига тайёрланётган болада диққат нисбатан узок муддатли ва шартли барқарор булади. Кичик мактаб ёшидаги болаларнинг асосий фаолияти уқиш хисобланади. Боланинг мактабга бориши унинг психологик ривожланиши ва шахсининг шаклланишидаги шрни ниҳоятда катта Бола укув фаолиятида уқитувчи раҳбарлиги остида инсон онгининг турли асосий шакллари мазмунини эгаллайди ва инсоний анъаналар асосида ҳаракат қилишни урганади. Укув фаолиятида бола уз иродасини укув мақсадларига эришиш учун машқ қилдиради. Укув фаолияти

боладан нутк, диккат, хотира, тасаввур ва тафаккурини керакли даражада ривожланишини талаб этган холда, бола шахси ривожланиши учун янги шароитларни яратади. Биринчи бор мактабга келган бола уз атрофидагилар билан психологик жихатдан янги муносабат тизимига утади. У узининг хаёти тубдан узгарганини. унга янги мажбуриятлар нафакат хар куни мактабга бориш, балки укув фаолияти талабларига буйсуниш хам юклатилганлигини хис эта бошлайди. Оила аъзоларининг бола укув фаолияти, ютуклари билан кизикаётганлиги, шунингдек. уни назорат килаётганлиги, унга килинаётган янги шаклларидаги муомала муносабат унинг ижтимоий мавкеи узгарганлигини тула хис этишига, узига нисбатан муносабатининг узгаришига асос булади. Катталар болаларни амалий жихатдан уз вақтларини тугри таксимлаш борасида яхши уқиш, уйнаш, сайр килиш ва бошка нарсалар билан шугулланишга ургатадилар. Демак, оилада бола у билан хисоблашишадиган, маслахатлашишадиган янги бир уринни эгаллайди. Укувчининг мактабдаги мувафақияти унинг кейинги психик ривож ва шахсининг шаклланишида тулик ижобий асос булади. Бола инсоний муносабатлар тизимида хам алохида урин эгаллаётганини, ота-онаси, яқинлари, атрофидагилар унга еш боладек эмас. балки уз вазифалари, мажбуриятлари бор булган, уз фаолият натижасига кура хурматга сазовор булиши мумкин булган алохида шахс деб муносабатда буладилар. Бунинг натижасида боланинг уз-узидан оиласи, синфи ва бошка жамоалардаги уз урнини англай бошлаганини куриш мумкин. Бу даврда боланинг "Мен шуни хохлайман" мотивидан "Мен шуни бажаришим керак" мотиви устунлик кила бошлайди.

КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ УКУВЧИЛАРДА ШАХСИЙ ХИСЛАТЛАРНИНГ ТАРКИБ ТОПИШИ

*Мирзаева Адипбахон Джалолиддиновна
Шайхонтохур тумани 141-мактаб психологи*

Ўқув фаолияти кичик мактаб ёшидаги ўқувчи учун нафақат билиш жараёнларининг юқори даражада ривожланиши балки шахсий хусусиятларини ривожлантириш учун ҳам имконият яратади.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки етакчи бўлган ўқув фаолиятидан ташқари бошқа фаолиятлар-ўйин мулоқот ва меҳнат фаолияти ҳам ўқувчи шахси ривожига бевосита таъсир кўрсатади.

Шунингдек, бу фаолиятлар асосида муваффақиятга эришиш мотивлари билан боғлиқ булган шахсий хусусиятлар таркиб топа бошлайди. Уқув фаолияти кичик мактаб ёшидаги болаларда уқишда маълум ютуқларга эришиш эҳтиёжини қондиришга, шунингдек тенгдошлари орасида ўз ўрнига эга булишига имконият ҳам яратади. Айнан ана шу урин ёки мавқега эришиш учун ҳам бола яхши уқиш учун ҳаракат қилиши мумкин. Бу ёшданги болалар доимий равишда узлари эришган муваффақиятини бошқа тенгдошлари муваффақияти билан солиштирадилар. Улар учун доимо биринчи булиш нихоятда муҳим. Кичик мактаб даврида болалардаги мусобақага киришиш мотиви табиий психологик эҳтиёж ҳисбланиб бу мотив уларга қучли эмоционал зуриқишни беради. Бу хусусиятлар аслида боғча давридан бошлаб юзага кела бошлайди ва кичик мактаб даврида, шунингдек усмирлик даврида ҳам яққол қузга ташланади. Кичик мактаб ёшидаги болалар катталарнинг у ҳақидага фикр ва баҳоларига қараб узларига узлари баҳо берадилар. Уқувчининг узига узи берадиган баҳоси асосан тугридан тугри уқитувчининг берадиган баҳосига ва турли фаолиятларидаги муваффақиятларига боғлиқ. Кичик мактаб ёшидаги уқувчиларда уз узига берадиган баҳолари турлича –юқори, адекват, паст булиши мумкин. Бу ёшдаги болаларда мавжуд булган ишонувчанлик, очиклик, ташқи таъсирларга берилувчанлик, иттиқорлик каби хусусиятлари уларни шахс сифатида тарбиялаш учун яхши имконият яратади. Кичик мактаб ёши даврини

боланинг турли фаолиятларда муваффақиятга эришишини белгилаб берувчи асосий шахсий хусусиятларни юзага келиш ва мустахкамлаш даври деб ҳисоблаш мумкин. Бу даврда муваффақиятга эришиш мотивлари таркиб топиш билан бир каторда меҳнатсеварлик ва мустақиллик каби сифатлар ривожланади. Кичик мактаб ёшидаги уқувчиларда меҳнатсеварлик асосан уқиш ва меҳнат фаолиятида ривожланади ва мустахкамланади. Меҳнатсеварлик болада уз килаётган меҳнати унга завқ берган тақдирдагина юзага келади. Болада мустақиллик хусусиятининг шаклланиши асосан катталарга боғлиқ.

ШАХСИЙ ВА ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ТАЙЁРГАРЛИК

Камалова Муҳайё Шамсиддиновна

Шайхонтоҳур тумани 136- мактаб бошланғич синф ўқитувчиси

Боланинг мактабда муваффақиятли уқиши нафакат унинг аклий ва жисмоний тайёргарлиги, балки шахсий ва ижтимоий-психологик тайёргарлигига ҳам боғлиқ. Мактабга уқиш учун келаятган бола янги ижтимоий мавқеини - турли мажбуриятлари ва ҳуқуқлари булган ва унга турли талаблар қуйиладиган - уқувчи мавқеини олиш учун тайёр булмоғи лозим. Катта боғча ёшидаги болалар асосан мактабда уқиш учун эҳтиёж сезадилар лекин бу хоҳиш ва эҳтиёж мотиви турлича булиши мумкин. "Менга чиройли форма ва дафтар калам ва ручкалар сотиб олиб беришади", "Мактабга уртокларим куп булади ва мен улар билан мазза қилиб уйнайман", "Мактабда уқлатишмайди", "Мактаб ташки атрибутлари шубҳасиз катта мактабдаги болаларни жуда қизиқтиради, лекин бу мактабда муваффақиятли уқиш учун асосий мотив була олмайди", "Мен отамга ухшаган булишим учун уқишим керак", "Ёзишни жуда яхши қураман", "Уқишни урганаман", "Мактабда қийин мисолларни ечишни урганаман". Ушбу хоҳиш ва ҳаракат боланинг мактабда муваффақиятли уқиши учун табиий равишда асос була олади. Боланинг энди узини катта булганини, боғча боласи эмас, балки маълум бир мажбуриятлари бор булган

укувчи булишини англаши, жиддий фаолият билан шугулланаётганлигини билиши нихоятда муҳим. Боланинг мактабга боришини истамаслиги ҳам салбий ҳолат ҳисобланади. Мактабда шахсий ва ижтимоий-психологик тайёргарлик болаларда тенгдошлари, уқитувчилари билан муносабатга кириша олиш хусусиятини шакллантиришни ҳам уз ичига олади. Хар бир бола болалар жамоасига кушила олиши, улар билан ҳамкорликда ҳаракат қила олиши баъзи вазиятларда уларга ён босиб, бошқа вазиятларда ён босмасликка эриша олиши зарур. ушбу хусусиятлар боланинг мактабдаги янги шароитларга тез мослаша олишини таъминлаб беради. 6-7 ёшли болалар уқишдаги асосий кийинчилик шундан иборатки, купинча бу ёшдаги болалар уқитувчини узок вақт давомида эшита олмайдилар. Уқув ҳаракатларига узок вақт диққатларини қарата олмайдилар. Бунга сабаб фақат шу ёшдаги болаларда ихтиёрий диққатнинг ривожланмаганлигида эмас, балки боланинг катталар билан мулоқотга кириша олиши хусусиятига ҳам тула боғлиқ. Чунки шу хусусияти ривожланган болалар эркин мулоқотга кириша оладилар, кизиктирган нарсалар ҳақида сурай оладилар. Натижада уларнинг уқишга булган кизикишлари ортади ва уқитувчи гапираётган нарсаларни диққат билан узок вақт эшита оладилар. Демак, боланинг мактабга тез мослашиши ва муваффақиятли уқишида шахсий ва ижтимоий-психологик тайёргарлигининг ҳам аҳамияти жуда катта.

PSIXOLOGIYADA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNI ASOSLANISHI

Abduvohidova Dilfuza Mashrabovna
Andijon viloyati Baliqchi tumani 39-maktab psixologi

Kommunikativ salohiyat – bu muloqotning u yoki xarakterini ta’minlovchi ijtimoiy – psixologik xususiyatlar tizimi. Shaxsning kommunikativ salohiyatini tashkil etuvchi, mustahkamlangan va barqarorlikka ega bo’lgan ijtimoiy – psixologik xususiyatlar shaxsning kommunikativ xususiyatlari orqali o’tadi. Shaxsning kommunikativ

salohiyatini o‘zi dinamik, rivojlanib boruvchi va xususiyatlarni umumlashtiruvchi tizim hisoblanadi.

Rus psixologiyasida “shaxsning kommunikativ salohiyati” tushunchasi bilan parallel tarzda ko‘pincha “shaxsning kommunikativ imkoniyatlari” atamasi uchraydi. Shu sababli muloqot ishtirokchilarining va birgalikdagi faoliyat ishtirokchilarining shaxsiy xususiyatlarini tushunish va hisobga olish qobilyatida aks etuvchi shaxsning kommunikativ xususiyatlariga mantiqiy tarzda guruhning ijtimoiy - psixologik xarakteristikasini bilish va tushunish qobilyati hamda har bir guruhdagi o‘rni va rolini tushunish qobilyatini ham qo‘shimcha qilish zarur.

Shaxsning kommunikativ salohiyati tushunchasi bilan bir qatorda ko‘plab tadqiqotchilar o‘z ishlarida “shaxsning kommunikativ yadrosi” ta’rifidan ham foydalanishadi.

A.A.Bodalev [4.30.] tasavvuri bo‘yicha, “Shaxsning kommunikativ yadrosi” tushunchasi shaxs uchun xarakterli bo‘lgan uning turli xil inson va jamoalar bilan bevosita yoki qandaydir texnik vosita yordamidagi aloqasida namoyon bo‘luvchi xulq - atvor, munosabat, aks etish birligidir.

Boshqa insonlar va jamoalar bilan muloqotga kirishar ekan, inson muayyan yo‘nalganlikni ko‘rsatadi. Birga olingan (ko‘ringan) sifatlar jamlanmasi shaxsning kommunikativ yadrosini tashkil etadi.

Shunday qilib, shaxsning kommunikativ salohiyati tarkibiy qismi sifatida “kommunikativ qobilyat” tushunchasi, “kommunikativ imkoniyat”, “kommunikativ xususiyat”, “kommunikativ salohiyat”, “shaxsning kommunikativ yadrosi” tushunchalari shaxsning muloqot muvaffaqiyati uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarini o‘rganishda tizimli yondashuvni aks ettiradi.

“Shaxsning kommunikativ xususiyatlari” atamasi psixologiyada kamdan – kam hollarda qo‘llaniladi va asosan kasbiy faoliyat bilan aloqadorlikda foydalaniladi.

G.M.Andreeva [4.28.] muloqotning quyidagi psixologik tuzilishini taklif etadi:

1. *Muloqotning kommunikativ tomoni* (ya’ni muloqotga kirishuvchilar o‘rtasidagi ma’lumotlar almashinuvi jarayoni).

2. *Muloqotning interaktiv* tomoni (ya'ni muloqotga kirishuvchi tomonlarning xulq-atvorlariga ta'sir jarayoni).

3. *Muloqotning perseptiv* tomoni (ya'ni muloqotga kirishuvchi tomonlarning bir-birlarini idrok etishlari va tushunishlari bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixologik jarayon).

Bu tuzilmaning har bir tomonini batafsil ko'rib chiqamiz. Ko'pgina olimlar muloqotning inson hayotidagi ahamiyatiga to'xtalib o'tar ekanlar, uning qator vazifalari, funksiyalarini ajratadilar. Masalan, taniqli rus olimi B.F.Lomov [4.49.] uning funksiyalariga quyidagilarni kiritadi:

- a) ma'lumotlar almashinuvi funksiyasi;
- b) xulq-atvorni boshqaruv funksiyasi;
- v) hissiyotlar almashinuvi.

Bu funksiyalar aslida G.M.Andreeva ajratgan muloqot qismlariga ham mos keladi, ya'ni har bir muloqot jarayonida B.F.Lomov qayd etgan vazifalarni topish mumkin. B.F.Lomovni fikrlariga asoslanib aytish mumkinki, muloqotning kommunikativ tomoni - ma'lumotlar almashinuv jarayonidir.

Muloqotning kommunikativ tomoni deyilganda, uning shaxslararo axborotlar, bilimlar, g'oyalar, fikrlar almashinuvi jarayoni sifatidagi vazifalari nazarda tutiladi. Bu jarayonning asosiy vositasi bo'lib til xizmat qiladi. Til shaxslar o'rtasida aloqa vositasi bo'lib, uning yordamida kishilar bilgan ma'lumotlari va hokazolarni bir-birlariga yetkazadilar. Ma'lumki, aloqa vositasi sifatida nutqning asosan 2 turi farqlanadi: yozma nutq hamda og'zaki nutq. Og'zaki nutqning o'zi *dialogik* va *monologik* turlarga bo'linadi.

Shuningdek, muloqotning verbal, noverbal, paralingvistik ta'sir vositalari ham mavjud va ular psixologik ta'sirlarni amalga oshirishda muhim didaktik asos bo'la oladi

Psixologik ta'sir – bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir.

Kommunikatsiya muammolarini gumanitar, tabiiy va texnik fanlar vakillari tadqiq qilishadi. Faqat insonlararo emas, balki hayvonlararo, kompyuterlararo, «inson-mashina» va aloqa tizimlarida axborot almashinuvini o'rganuvchi fanlarning vakillari – kibernetiklar, biologlar, etologlar, semiotiklar axborot almashinuvini “kommunikatsiya”

deb ataydilar. Shuningdek, XX asrning 60-yillarida amerikalik sotsiologlar (Lazarsfeld, Lippman, Lassuell, Merton, Maklyuen va boshqalar) o'z tadqiqotlarida «ommaviy kommunikatsiya» atamasini ham qo'llay boshladilar. Shu tariqa, kommunikatsiya nazariyasi mustaqil fan sifatida shakllanib borib, o'zining predmeti, kategoriyalar apparati, o'z qonuni va tarixiga ega bo'ldi. U falsafa, sotsiologiya, psixologiya, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik iqtisodiyot va boshqa fanlar bo'yicha tadqiqotlarning natijalarini o'zida mujassam qilgan ilmiy bilimning kompleks sohasi hisoblanadi. Kommunikatsiya nazariyasi axborot almashinuvining universal mexanizmlari va qonuniyatlarini o'rganadi. Shuningdek, uning ommaviy kommunikatsiya nazariyasi, shaxslararo kommunikatsiya nazariyasi kabi tarmoqlari ham mavjud. Kommunikatsiyani amalga oshirish imkoniyati muayyan shartlar bajarilgandagina paydo bo'ladi. Ular quyidagilar:

- kommunikativ jarayon uchun kamida ikki tomonning ishtiroki zarur;
- kommunikatsiya doimo teskari aloqa tamoyiliga tayanadi;
- kommunikatsiya ma'lum belgilar tizimisiz amalga oshirilmaydi.

Har qanday nazariyada bo'lganidek, kommunikatsiya nazariyasi ham «axborot», «kommunikatsiya», «axborot almashinuvi», «kommunikativ makon» kabi o'ziga xos tushunchalari (kategoriyalari) ga ega. M.Veber, G.Gadamer, G.Shetler [4.31.] ilgari surgan kommunikatsiya modelida kommunikatsiyaning asosiy natijasi bu insonning boshqa inson tomonidan tushunilishi, o'zaro tushunish deb ataladi. Axborot jamiyati nazariyasi vakillari (D.Bell, A.Toffler, G.Maklyuen) kommunikatsiyaga futurologik yondashadilar. Ushbu nazariyada kommunikatsiya vositalari yagona rag'batlantirish va ijtimoiy rivojlanishning manbai tarzida talqin qilinadi. Axborot bu holda madaniyat va barcha madaniy qadriyatlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Kommunikatsiya – bu o'ziga xos axborot almashinuvi bo'lib, uning natijasida jo'natuvchidan qabul qiluvchiga intellektual va emotsional axborotni uzatish jarayoni kechadi. Ta'lim jarayonida ta'lim beruvchilar ta'lim oluvchilarni individual xususiyatlarini bilish, muloqot, o'zaro ta'sir va munosabatlar jarayonida bir-birining zaif va kuchli tomonlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davletshin M.G, Do'stmuhammedova va bosh... Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T-2004. 85-b.
2. Davletshin M.G., To'uchieva S.M. Umumiy psixologiya. T, 2002
3. Ergashev P.S. Muloqot psixologiyasi. T-2003. 16 b
4. Otajonov M.Y. Menjment psixologiyasi. T-2003. 516.

BOLADA SALBIY O'ZGARISHLARNI KELTIRIB CHIQRUVCHI TASHQI TA'SIRLARNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Abdullayeva Zarnigor G'aybullayevna
Navoiy viloyati Qiziltepa tuman 33-maktab psixologi

Inson tug'ilganidan to umrining oxirigacha rivojlanishda bo'ladi. Inson rivojlanishi murakkab jarayon. Bu rivojlanish tashqi ta'sirlar va ichki kuchlar ta'sirida kechadi. Tashqi ta'sirlar bu insooni o'rab turgan atrof-muhit bo'lsa, ichki ta'sir esa biologik, irsiy omillar hisoblanadi. Bolalarda ham xuddi shunday kechadi.

Bola shaxsining shakllanishida, ijtimoiylashuvida ijtimoiy muhit muhim ahamiyatga ega. Bola sekinlik bilan ijtimoiy muhitni o'zlashtiradi. Aksariyat bolalar rivojlanishi dastlab oilada boshlanadi, keying rivojlanshi esa maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, oliygoh, atrofidagi do'stlari davrasida kechadi. Bola doimo o'zi uchun qulay bo'lgan, atrofdegilari uni tushunadigan, yaxshi aloqa o'rnata oladigan muhitni tanlaydi.

Bola shaxsining rivojlanishidagi dastlabgi "hududi" bu - oila. Bolaning shaxsining rivojlanishida oila muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin shunday bo'lsa-da, oilada bola shaxsida salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi bir necha omillarni kuzatishimiz mumkin. Misol tariqasida shularni aytishimiz mumkin-ki, ota-ona ajrimi, moddiy yetishmovchilik, otasi bilan yoki bo'lmasa onasi o'rtasidagi tushunmovchilik, oilada e'tiborning yetishmasligi, ota-onaning farzandlariga baravar muomulada bo'lmasligi kabilar.

Ota-ona ajrimini ta'sir ko'satishini aytadigan bo'lsak, buning natijasida bolaning oilada ota yoki onasining mehriga to'ymasligi, tengdoshlari yonida kamsitilishi o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga olib keladi. Bolaning dunyosi ikki qismdan iborat: biri otasiga, boshqasiga onasiga tegishli. Bu ikki qism ajrab ketsa, usha ikki dunyosi parchalansa, bola ham haqiqiy iztirobni boshdan kechiradi. Katta yoshlilar buni yodda saqlashi zarur. Usha holatda bolaning boshi og'riy boshlaydi, qo'rqinchli tushlar ko'radi. Ayrim vaziyatlarda o'zi uchun qaltis harakatlarni qilib, natijada biror joyiga zarar ham yetkazishi mumkin.

Bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan muhim "hudud"lardan yana biri bu - maktab hisoblanadi. Bu bosqichning boshlang'ich sinfdan boshlab yuqori sinfgacha mujim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinfda ko'proq bolaning nutqini rivojlantirishga e'tibor qaratishga kerak. Agar e'tibor qaratilmasa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin ya'ni muloqotga kirishga qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Shuningdek maktab davrida bola shaxsining rivojlanishi uchun muhim hisoblangan tafakkur, intellekti, diqqat, kognitiv faoliyatini, xotirasini ayniqsa shaxslararo munosabatini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Shaxslararo munosabat jarayoni ya'ni bolaning atrofdagi kishilar bilan muloqoti, aloqasini rivojlantirish tufayli bolaning bilimlar, g'oyalar, fikrlar, axborot almashinuvini, turli ma'lumotlar uzatish va qabul qilish, munosabat o'rnatgan odami bilan bir-birini tushunishi ta'minlab berilgan bo'ladi.

Bundan tashqari, bola bitta partada kim bilan o'tirishi, kim eng yaqin o'rtog'i, ularning nima haqida gaplashishi, shuningdek, bola tanaffus va katta tanaffus paytlarida kimlar bilan yaqin munosabatda bo'lishini aniqlash lozim. Bu ishlarni albatta o'qituvchi va psixolog hamda ota-onalar hamkorlikda olib boradilar. Biroq, bu tekshirishlar bolaning izzat-nafsiga tegmasligi kerak, iloji boricha bola bu haqida bilmasligi kerak.

Bolalarda shu salbiy illatlarni yo'qotish, ularni zamon talablari asosida tarbiyalash birinchi navbatda o'qituvchi, psixolog ko'pincha ota-onasi zimmasiga tushadi. Shunday ekan tarbiyachi-o'qituvchi, psixolog ota-onalar bilan kelishgan holda bolalarda paydo bo'layotgan nuqsonlar ildizini o'rgangandan keyin tarbiya ishiga kirishadilar. Tarbiya ishlari har bir sinfda har metod bilan olib borilishi zarur. Bu yerda maktab

o'quvchilarining yosh xususiyatlarini ham inobatga olgan ma'qul. Shundagi-na biz kutagn natijaga erisha olamiz.

Dunyoni ishlarini qarang-ki, stress deganimiz yosh tanlamas ekan. Bola shaxsining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan yana biri bu-stressdir. Bolaning yoshi, o'tish davri, jinsidan qat'i nazar stressga tushish hollarini kuzatishimiz mumkin. Bolaning ichki dunyosi ruhiyati uchun yangi nimadir bilan buzib yuborilganda bolada stress holati yuzaga kelishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi davrni aytadigan bo'lsak bola bog'chaga qatnay boshlagani uchun yaqin odamlarini ko'rmaslik, hojatxonaga mustaqil boorish, atrofdagi yangi odamlar bolada stressni yuzaga keltirib chiqaradi. Shuningdek, bu shifokor yoki sartaroshga borish, dori ichish bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Bolaning bu voqealarga munosabati birinchi navbatda yaqinlarining ko'proq ota-onasining qanday qabul qilishiga bog'liq.

Odatda ko'pchilik ota-onalar boladagi stressni payqashmaydi. Bolada kechayotgan stressni bolaning normal o'sish va rivojlanish jarayonida kuzatiladigan holatlardan farqlab olishi qiyin boladi. Agar farzandi stressni boshidan kechirayotgandek tuyulsa, zudlik bilan buning sabablarinianiqlashi lozim. Bolalar o'zini nima bezovta qilayotganini har doim ham so'z bilan ifodalay olmaydi, shuning uxhun ham bu borada ota-ona ruhshunos, psixolog yordami bilan bolada kechayotgan o'zgarishlarni, salbiy sabablar, stressni bartaraf qilish usullari bilib olishi zarur hisoblanadi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, ota-onalar bola stress vaziyatiga imkon qadar kechroq to'qnash kelishiga harakat qilishi lozim.

Salbiy omillardan yana biriga to'xtaladigan bo'lsak bu – qo'rquv. Bolalardagi an'anaviy qo'rquvlar haqida ham unutmaslik kerak. Ular ham psixolog, ruhshunoslar fikricha bola shaxsining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi sabablardan biri hisoblanadi. Qo'rquv haqida gap borganda dastlab, bolani yolg'iz qolishdan instinktiv qo'rqishi haqida bormoqda. Doim o'z oilasi bilan birga bo'lishga intilish har bir oilaning ongida tabiataan mavjud. Masalan, farzandingiz gapingizga kirmasa “ yalmog'izga berib yuborish” ko'chaga chiqarib qo'yish shart emas. Kattalar uchun beozor tuyulgan bunday gaplar yosh bolalar uchun o'ta jiddiy hisoblanadi.

Yana bir narsani alohida ta'kidlashimiz kerak-ki, ayrim ota-onalar farzandlarini kiyintirishda jiddiy xatoga yo'l qo'yadilar, ushbu goh boyligini ko'z-ko'z qilish uchun, goh avvalo yolg'iz bolam deb, qimmatbaho kiyim-kechak, qizlarga rang-barang taqinchoqlar olib beradilar. Bu bolalarda takabburlik, xudbinlik, kibrli yashash kabi illatlar keltirib chiqaradi.

Tarbiya tarixiy-ijtimoiy tajribaga tayangan holda bolani umuman shaxsni ma'lum maqsad asosida ijtimoiy hayotga tayyorlovchi faoliyat jarayoni hisoblanadi. Jamiyat ma'naviyati va shaxs kamolotida muhim o'rin tutuvchi ma'naviy va axloqiy poklik, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari fazilatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi. Yuqorida aytib o'tganlarimizning asosida oila, maktabgacha ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar tizimlarida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya mazmuni yotadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni zamon talablariga mos, barkamol inson bo'lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiya ya'ni, aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy hamda jinsiy tarbiyani tashkil etish bola shaxsining rivojlanishiga albatta ijobiy ta'sir ko'rsata oladi va biz kutgan natijani beradi.

Hayot qarama-qarshiliklardan iborat. Ko'pincha qandaydir yangiliklar yaratilishi, muhim ishlarning oshirilishi turli qarama-qarshi fikrlar yuzaga kelishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalar haqida shunday qarama qarshi fikrlar ko'plab uchraydi. Kompyuter, mobil telefon, planshet va smartfonlar foydalanuvchilarga yordam berish maqsadida hayotimizga kirib kelgan bo'lsa, endi hayotimizning bir qismiga aylandi desam adashmayman.

Hozirgi kunga kelib, nafaqat kattalar balki jajji bolajonlar ham ulardan foydalana boshladilar. Ma'lumki, go'dak dunyoga kelgan kundan boshlab onasi bilan emotsional bog'liq. Ko'pincha go'daklik chog'idanoq atrof-olamni faqat onasi orqali taniy boshlaydi. Bugungi kundagi yosh onalarimiz esa farzandlarining dunyoga kelgan dastlabki kunlaridanoq go'daklari ko'z oldida zamonaviy qurilmalardan foydalanadilar. Hatto smartfon kabi mobil telefon bilan birga "nafas oladilar". Bunday holat tabiiy-ki bola ulg'aygandan so'ng ham davom etadi. Ayrim ota-onalar o'z ishlarini bajarib olish uyun bolalarning qo'lga mobil telefon berib qo'yadilar.

Bunday holatlarning tez-tez takrorlanishi bir necha omillarga sabab bo'lishi mumkin. Bular: bola boshqalar bilan munosabat jarayonida qiyinchiliklarga duvh keladi.doimo qiziqarli multifilm yoki o'yinlar bilan shug'ullanish imkoniyatini taqdim etadigan qurilmalarga bog'lanib bog'lanib qolish odati shakllana boshlaydi. Haqiqiy hayotdagi rivojlantiruvchi o'yin va kitob o'qib erish kabi mashg'ulotlardan bahra olmaganlillari sababli qiziqish mavjud bo'lmaydi, kelgusi o'qish, dars tayyorlashlarida qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shu tariqa onalarimiz farzandlarining tarbiyaviy jarayonlarida xatoga yo'l qo'yadilar.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. M.Vohidov. Bolalar psixologiyasi 1982 9-b
2. R.To'raxonova. Tarbiyasi og'ir bolalar psixologiyasi va ularni tarbiyalash. 5-6-b
- 3.Z.Nishonova, Z.Qurbonova, S.Abdiyev. Psixodiagnostika va eksperimental. 2011. 92-93-b

ХУЛҚИДА ОҒУВЧАНЛИГИ БЎЛГАН ЎҚУВЧИЛАР, УЛАРНИНГ СИНФ РАЎБАРЛАРИ, ОТА-ОНАЛАРИ БИЛАН ИШЛАШ БЎЙИЧА ТАВСИЯЛАР

*Мирзавалиева Мафтунахон Зиёджон қизи
Андижон вилояти Пахтаобод тумани 8- мактаб психологи*

Ўқувчилардаги психологик хусусиятлар, ривожланишида ўзига хос томонлар, улар ўртасида салбий одатларни олдини олиш ва бошқа масалалар доирасида умумтаълим мактаблари амалиётчи психологлари томонидан қатор тадбирлар, яъни психотренинг ва психокоррекцион ишлар олиб борилади. Мактабларда болаларга нисбатан баъзан “тарбияси қийин бола” жумласи ишлатилади. Асосан тарбияси қийин болалар деганда кўп ҳолатларда вояга етмаганлар билан ишлаш кузатилади.

Тарбияси қийин болалар келиб назоратчилари ик ва ўғрилиққа мойил ўқувчилар назарда тутилади. Кузатишлардан маълум бўлишича, тарбияси қийин болалар тарбия жараёнида педагогик таъсирларга қаррўйхатида ҳисобга олинган, гиёҳвандлик ва спиртли ичимлик ичишга, безорилшилиқ кўрсатади, уларнинг ҳулқида ўзини биз ҳоҳлагандай тутмаслик ҳолатлари чиқишининг асосий сабабларидан бири уларда ўқишга нисбатан салбий муносабатнинг пайдо бўлишидир. Одатда бундай муносабатнинг пайдо бўлишига бошқа сабаблар ҳам таъсир кўрсатиши мумкин. Жумладан ўқув фаолияти усули, малакалари тўла таркиб топмаганлиги сабабли нисбий билим олиш билан қаноат ҳосил қилиш, ўзлаштириш қобилиятининг суст ривожланганлиги, муайян вазиятларда ҳукм ва ҳулоса чиқаришда қийинчиликка дуч келиш, ўқитувчилар томонидан ўқувчига объектив баҳо берилмаслиги, ўқитувчи томонидан боланинг индивидуал-психологик ва интеллектуал имкониятига етарлича эътибор берилмаслиги, ўқитиш савиясининг пастлиги, дарсларнинг қизиқарсиз ўтилиши, ўқувчининг синф жамоаси билан яхши алоқада бўлмаслиги ва бошқалар. Ўқувчи билан жамоа фикрининг мос келмаслиги унинг жамоа ичида ўз ўрнини борган сари йўқотиб боришига сабаб бўлади. Жамоа аъзолари бундай ўқувчининг қарашларини вақти-вақти билан ҳисобга олишлари яхши натижа бериши мумкин. Ўқувчининг фикр ва қизиқишларини жамоанинг қўллаб қувватламаслиги ёки бепарволиги уни қонунбузарликка ундайди ва гиёҳвандлик каби салбий ҳолатларнинг келиб чиқиши учун имконият яратади. Натижада бола учун келажак режаларининг поймол бўлиш хавфи туғилиб, ўқишдан ва жамоадан юз ўгирган ўсмир ўз келажagini, орзу-умидларини мактаб ва тенгдошлари фаолиятига боғлашдан кўра, янги “дўстлари” билан алоқа қилишни афзал кўради ва бошқа кишилардан нажот излайди. Бунинг натижасида ўсмир носоғлом ҳулқли болалар тўдасига тушиб қолади ва улар ҳулқ – атворига хос бўлган характерга эга бўлади.

Бундан ташқари, оилавий шароитнинг салбий таъсири ҳам тарбияси оғир ўсмирларнинг келиб чиқишига сабаб бўлади. Айрим оилаларда бола учун зарурий имкониятлар мавжуд эмаслиги сабабли бола ноҳуш ҳолат билан ёлғиз кураш олиб бориш кечинмалари билан яшайди. Ўсмир дунёсида оилавий шароитга нисбатан

пайдо бўлган норозилик ҳисси кундан кун авж олиб, ички қўзғолонга айланиб боради. Бундан ташқари, ота-она ўртасидаги муносабатларнинг носоғломлиги, баъзи ота-оналарнинг спиртли ичимликларга ружу қўйишлари ҳам боланинг рухий дунёсига таъсир кўрсатади. Кўпинча, ўқувчилардаги тарбияси қийинлик оиладаги ва таълим тизимидаги педагогик қаровсизлик натижасида юзага келади. Педагогик қаровсизлик қуйидаги даражаларда тавсифланади:

1.Паст. Ҳатти-ҳаракат, хулқ-атвордаги беқарорлик. Ўз “мен”ига ортиқча баҳо бериш. Асосан ёшига хос бўлган характер белгиларининг устунлик қилиши.

2.Ўрта. Катталар ва тенгқурлари билан алоқанинг бузилиши. Ўқиш ва меҳнатга қизиқмаслик, низолар эгоистик йўналишга асосланиши. Педагогик таъсир чоралари тўғри қабул қилинган ҳолда унга амал қилмаслик.

3.Юқори. Салбий характер хусусиятлари яққол намоён бўлади. Ҳуқуқбузарлик ошқора қилинади. Катталар билан ўзаро муносабатда тажовузкор бўлади. Ўзлари тўғри деб қабул қилган “ахлоқ нормалари”ни оқлашга уринадилар. Улар ҳуқуқбузарлик чегараларини тушуниб етмайдилар.

4.Криминал. Вояга етмаган ҳуқуқбузарлар бўлиб, уларнинг хулқ-атворини бошқариб бўлмайди. Бундайлар ҳар қандай тарбия воситаларига қаршилиқ кўрсатадилар. Ҳатти-ҳаракатларида тажовузкорлик кўпроқ учрайди. Улар ўзларининг ҳуқуқбузарлик мотивларини ўзлари белгилаган “ахлоқий меъёрлар” билан ўлчайдилар, натижада жинойтга қўл урадилар.

Амалиётчи психолог аввало болаларнинг оилавий аҳволини ўрганиш, мактаб билан ота-она ўртасида узвий алоқани ўрнатиш, фан ўқитувчилари билан алоқани мустаҳкамлаш, ўқувчининг дарсга қатнашини кузатиш, дарсдан ташқари фаолиятини назорат қилиш, турли савол-жавоблар ўтказиш орқали тарбияси оғир болалар билан ишлаш дастури ва режаларини белгилаб олиши лозим. Бундан ташқари психолог мактаб шифокори, ташхис маркази шифокори билан ҳамкорликда боланинг тиббий варақаси билан ҳам танишиб чиқиши керак бўлади. Агар бола соғлом ривожланган бўлса-ю, мактаб ва оила тарбиясига бўйсунмаса, бундай вазиятларда психолог ёрдамга келиши ва аввало бола билан суҳбатлашиб, нима учун унинг хулқида бундай ўзгаришнинг юзага келганлиги, кўча таъсирига

берилиши, салбий норасмий гуруҳларга аъзо бўлиб қолиши, дарсни сабабсиз қолдириши, паст ўзлашириши, жамоат ишларида қатнашмаслик сабабларини аниқлайди.

Тарбияси қийин бўлган болалар билан ишлашда интервью методидан фойдаланиш.

1. Синф раҳбари билан суҳбат.

- Тарбияси қийин бўлишнинг сабаблари?
- Уйдаги ва мактабдаги интизоми.
- Ўзлаштириши
- Тарбиянинг асосий қийин томонлари ва кўрилган чоралар.
- Оилавий шароити

2. Тарбияси қийин ўқувчи билан суҳбат.

- Мактабни тугаллагач қайси касбни эгалламоқчисан?
- Қайси фанлар сенга кўпроқ ёқади?
- Қандай китоблар ўқишга қизиқасан?
- Дўстларинг кимлар ва улар ҳақида қандай фикрдасан?
- Ўзингнинг ҳулқинг ва ўқишингдан қониқасанми?
- Жамоат ишларида қатнашасанми?
- Сен ёқтирган машғулот (уйда в мактабда)?
- Ҳаётда энг зарур ва қизиқарли нарса нима деб ҳисоблайсан?
- Ота-онангга муносабатинг қандай ва нима учун?
- Катталарга муносабатинг?

3. Фан ўқитувчилари билан суҳбат.

- Сизнинг дарсингизда ўқувчининг ҳулқи ва ўзлаштириши қандай?
- Ўқувчи тартибсизлигининг энг ёмон томони ва сизнинг маслаҳатингиз?
- Унинг ўқиш ва ишдаги қобилияти, имконияти қандай?

4. Дўстлари билан суҳбат.

- Қачондан бери дўстсизлар?
- Сизлар ёқтирган машғулот ва ишлар?
- Дўстингнинг нимаси сенга ёқади?

- Дўстингнинг қайси томони ёқмайди ва нима учун?
- Унга қандай ёрдам қиласан?
- Сизларнинг келажак режаларингиз?

5. Ота-оналари билан суҳбат.

- Фарзандингизнинг ўқиши ва хулқидан қониқасизми?
- Унинг ўқиши ва хулқидаги қайси томонлар сизни безовта қилади?
- Сиз унга қандай ёрдам берасиз?
- Унинг кун тартиби қандай?
- Уйда нималар билан шуғулланади?
- Уй ишларида сизга ёрдамлашадими?
- Келажакда қандай касб танлашини маслаҳат берасиз?

6. Синф сардори билан суҳбат.

- Синфдошинг ҳақида қандай фикрдасан?
- Унинг хулқида қандай нуқсонлар бор?
- Синфдошларга муносабати қандай?
- Жамоат ишларида қатнашадими?
- Синфдошлари томонидан унинг намунали ўқувчи бўлишига қандай ёрдам

кўрсатилди?

7. Хулоса

- Тарбияси қийин ўқувчига тавсифнома
- Уни тарбиялаш юзасидан оила, мактаб ва синфдошларининг имкониятлари

ва баҳоси.

- Тарбияси қийин ўқувчилар билан яқка ва гуруҳли тартибда ишлаш учун режа

ва дастур.

BOLADA SALBIY O'ZGARISHLARNI KELTIRIB CHIQRUVCHI TA'SIRLARNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Mirzavaliyeva Maftunaxon Ziyodjon qizi
Andijon viloyati Paxtaobod tumani 8- maktab psixologi

Hozirgi davrda mamlakatimizda, shu jumladan xalq maorifi tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar o'qituvchilar, barcha pedagoglar oldiga o'quvchining bilimlarni yuksak darajada o'zlashtirishi; o'quvchilar mustaqil tafakkurini, ular aktivligini rivojlantirish; ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash; ularning tafakkur, muloqot, o'qish, mehnat qilishga bo'lgan qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi murakkab va mas'uliyatli vazifalarni qo'yimoqda. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun faqat pedagogika fanining nazariy asoslarini, har bir o'qituvchi predmetni o'qitish metodikasini, maktab o'quvchilarining fiziologiyasi asoslari, maktab o'quvchilari gigiyenasi asoslarinigina bilish emas, balki ma'lum darajada psixologik bilimlarga ham ega bo'lish lozim. Har bir pedagog ma'lum darajada psixolog ham bo'lishi talab etiladi, chunki ular har biri faqat o'ziga xos bo'lgan, turli yoshdagi, turli individual xususiyatlarga ega bolgan o'quvchilar bilan ish olib boradi. Har bir bola faqat o'ziga xos bilish faoliyati, iroda, xarakter, xulq-atvor xususiyatlariga ega. Maktabdagi ta'lim tarbiya berish jarayonida ham shu xususiyatlarni bilish va shunga asoslanib ularga individual munosabatda bo'lish lozim. Oila kichkintoy hayotidagi birinchi barqaror jamoa. Aynan bola rivojlanishining ilk davrlaridan boshlab atrofini o'rab turgan olam, oila muhiting ta'siri natijasida uning xarakteri, odobi, atrofidagilariga kelajakda qilishi mumkin bo'lgan muomalasi asta sekin shakllanib boradi. Bolani oppoq qog'ozga, uning xotirasini esa to'xtash nimaligini bilmasdan tinmay yozadigan ruchkaga qiyoslasak bo'ladi.

Bugungi kunda hayotda ko'plab muammolarga duch kelamiz. Bulardan eng avvalosi bu- inson xarakteridir Inson xarakteri qaerdan va qanday shakllanadi? Albatta bu oiladan boshlanadi. Oila – bu juda nozik muassasa. Bu farzand

dunyoga kelganidan, ota-onaning bir-biriga boʻlgan munosabatidan boshlanadi. Ota-onaning bosayotgan har bir qadami bolaning ongiga oʻrnashib qoladi.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan milliy mentalitetimizga xos va mos boʻlmagan gʻarbona hayot tarzini targʻib etuvchi turli sayoz va jangari film, multfilm, shou dastur ham bolaning jismonan sogʻlom boʻlib voyaga yetishida sportning ahamiyati katta. Sport inson hayoti davomidagi faoliyat turlaridan biridir. Yoshu qari borki umr davomida sport bilan shunchaki xavaskorlik yoki professional shugʻllanadilar. Xavaskorlik bilan sportda shugʻullanuvchilar hayoti davomida turli sabablar bilan shugullanishlari kuzatiladi. Masalan sogʻligini tiklash yoki qiziqish bilan, yani biron bir sportchiga yoki sport turiga qiziqishi ustun boʻlsa, yana biron bir insonning taklifi va maslahatiga koʻra sport bilan shugʻullanadilar. Xavaskorlik bilan shugʻullanuvchi sportchilar turli sabablar tufayli ham hammasi sport bilan umrining oxirigacha shugʻullanishi yoki koʻp vaqt davomida shugullanmasligi yoki butunlay sportni tark etishlari ham mumkin. Sport bilan shugʻullanishning dastlabki bosqichi asosan bolalarda kuzatiladi. Ularda sportning turli yoʻnalishiga qiziqishi mavjud boʻlib, muayyan bir sport turini qatʻiy tanlashi qiyinda videoroliklarni tomosha qilish, zoʻravonlik aks etgan kompʻyuter oʻyinlarini oʻynash, ayrim yoshlarning taʻlim-tarbiyasi, turmush tarzi va madaniyatiga salbiy taʻsir qilayotgani hech birimizga sir emas. Bu kabi jamiyatimizga xos boʻlmagan illatlarning oldini olishda farzandlarimizning tashqi taʻsirlar, ayniqsa internet va xorijiy telekanallar orqali namoyish etilayotgan gʻarazgoʻylikni targʻib etuvchi vositalardan himoya qilish har birimizning burchimizdir.

Maʼlumki, rivojlanish qonuniyatiga koʻra, har qanday taraqqiyot koʻrgazmali obrazlilikdan abstract mantiqiylikka qarab boradi. Agar bola hali oʻqishga aqliy, maʼnaviy-ruhiy jihatdan tayyor boʻlmay turib, unga harf va raqamlarni yozish, oʻqish oʻrgatilsa psixik rivojlanishning teskari tomonga ketishiga sabab boʻladi. Psixolog olimlarning fikricha, psixik va evolyutsiya taraqqiyot qonunlari ham fizik qonunlardek buzilmas, hamda universaldir. Bundan kelib chiqadiki pedagoglar,

ota-onalar, bolalarni erta maktabga berishning foyda yoki zarari to'g'risida o'ylaganlarida inson miyasi rivojlanishining neyrofiziologik qonuniyatlarini ham alohida e'tiborga olishlari lozim.

Tarbiyasi qiyin bola yoshligidan diqqat-e'tiborga, izzat-hurmat, mehr muhabbatga g'oyat tashna bo'ladi. Bunday bolalar bilan ishlaganda mehribon va g'amxo'r bo'lishni unutmaslik kerak. Chunki bunday bolalar salbiy beqarorlikka yo'liqqanligi uchun ularning xulq-atvori izdan chiqqan bo'ladi. O'qituvchilar ham bunday hollarda sinfdagi xuddi ana shunaqa bolalar bilan shug'ullanishga vaqt topishmaydi, ularga "tarbiyasi qiyin" bolalar deb qaraydilar. Zero, o'smir hayotining shunday mas'uliyatli va qaltis davrida unga to'g'ri yo'l ko'rsatish, unda endigina kurtak otayotgan illatning oldini olish, bolaning kelgusi taqdirida muhim rol o'ynaydi.

O'smir kamolotining eng og'ir davri uning xarakterining shakllanish jarayoni maktabda ta'lim olish yillariga to'g'ri keladi. Xarakterining shakllanishi esa o'spirinning atrofdagilar bilan bevosita aloqasiga bog'liqdir. Qaysi hayotiy va kasbiy yo'lni tanlashi, ustozining uni qanday tarbiyalashi va yo'naltirishi kuniga besh-olti soat maktabda bo'ladigan bolaning kelajagini ko'p jihatdan belgilaydi. Uni kamolotning to'g'ri yo'lidan olib boradigan, olamni tanitadigan, oqil, olijanob, abadiy ezguliklarga o'tgatadigan muassasa bu –maktabdir. Ba'zi bir maktablarning "zaif" tomoni shundaki, o'qituvchilarning hammasi ham muallimlik va tarbiyachilik vazifasini birga uyg'unlashtirib olib bora olmasliklaridadir. Odatda ular o'quvchilariga o'z darsini o'zlashtirishi yoki o'zlashtira olmasligiga qarab baho beradilar. Shuni doimo esda tutish lozimki, yomon o'qiydigan bolalar yomon odam emas, ya'ni bilimga qo'yilgan baho shaxsga berilgan baho bo'la olmaydi.

Shaxs tarbiyaning ob'ekti va sub'ekti hisoblanadi. Shaxsning kamol topishida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi bir xil bo'lmaydi. Shaxsning rivojlanish holatini to'g'ri baholash va bilish uchun uni turli munosabatlar doirasiga qo'yib tuzatish lozim. Pedagogika shaxsning kamoliga etishishning murakkab va ziddiyatli jarayon deb biladi. Shaxs qaysi o'quvchilarda

o‘z-o‘zini tarbiyalashda ya‘ni o‘z ustida ongli batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo‘lgandagina, tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa buladi. Bolajonlar nihoyatda mas‘um. Ularning bu mal‘umlik laridan foydalanmang! Jismonan sizga hech narsa qila olmaydilar, lekin ruhan sizni tark etadilar! Ko‘ngillarining tub tubida siz tirnagan jarohatlar izi qoladi. Islohi mushkul holatlarga tushirasiz. Urish, haqorat qilish-kishining ojizligidan dalolat. Gaplashish, tushuntirish, o‘rgatish uchun inson himmatli va zakiy bo‘lishi kerak. Inson shaxsining tarkib topishi va psixik rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillarning muammosi o‘z mohiyati jihatidan g‘oyaviy xarakterga ega. Ma‘lumki, odam shaxs sifatida muntazam, qandaydir faoliyatda tarkib topib boradi, rivojlanadi, uning faolligi namoyon bo‘ladi. Agarda hayvonlar tevarak atrofdagi tashqi muhitga passiv moslashib, hayot faoliyatlarida, ya‘ni tashqi muhitdagi tayyor narsalardan foydalansalar, odam esa tevarak atrofdagi tashqi muhitga faol ta‘sir ko‘rsatib, uni o‘z irodasiga bo‘y sindiradi, hamda o‘zgartirib, o‘z ehtiyojlarini qondirishga xizmat qildiradi. Salbiy omillardan yana biriga to‘xtaladigan bo‘lsak bu – qo‘rquv. Bolalardagi an‘anaviy qo‘rquvlar haqida ham unutmazlik kerak. Ular ham psixolog, ruhshunoslar fikricha bola shaxsining rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi sabablardan biri hisoblanadi. Qo‘rquv haqida gap borganda dastlab, bolani yolg‘iz qolishdan instinktiv qo‘rqishi haqida bormoqda. Doim o‘z oilasi bilan birga bo‘lishga intilish har bir oilaning ongida tabiatan mavjud. Masalan, farzandingiz gapingizga kirmasa “yalmog‘izga berib yuborish” ko‘chaga chiqarib qo‘yish shart emas. Kattalar uchun beozor tuyulgan bunday gaplar yosh bolalar uchun o‘ta jiddiy hisoblanadi. Bolalaringiz bilan samimiy bo‘ling. Ular xato qilganda “Men sening yoshingdaligimda bunday qilmaganman” deb ularni aldamang. Bolalar biz ham adashganimizni, xatolar qilganimizni, har qanday odam biror ishni bir necha bor uringanidan so‘ng uddasidan chiqishini bilishlari lozim. Mening yuqoridagi gapim esa boladagi o‘ziga bo‘lgan ishonchni sindirib qo‘yadi. Uyga kirganingizda farzandingiz kutib olmasa va shodligidan sizni quchoqlamasa, axloqingizni va ularga muomalangizni bir sarhisob qiling. Chunki tarbiya va g‘amxo‘rlik qilishda xatoga yo‘l

qo'ygansiz! Bolaning jismonan sog'lom bo'lib voyaga yetishida sportning ahamiyati kata.

Sport inson hayoti davomidagi faoliyat turlaridan biridir. Yoshu qari borki umri davomida sport bilan shunchaki xavaskorlik yoki professional shug'llanadilar. Xavaskorlik bilan sportda shug'ullanuvchilar hayoti davomida turli sabablar bilan shugullanishlari kuzatiladi. Masalan sog'ligini tiklash yoki qiziqish bilan, yani biron bir sportchiga yoki sport turiga qiziqishi ustun bo'lsa, yana biron bir insonning taklifi va maslahatiga ko'ra sport bilan shug'ullanadilar. Xavaskorlik bilan shug'ullanuvchi sportchilar turli sabablar tufayli ham hammasi sport bilan umrining oxirigacha shug'ullanishi yoki ko'p vaqt davomida shugullanmasligi yoki butunlay sportni tark etishlari ham mumkin. Sport bilan shug'ullanishning dastlabki bosqichi asosan bolalarda kuzatiladi. Ularda sportning turli yo'nalishiga qiziqishi mavjud bo'lib, muayyan bir sport turini qat'iy tanlashi qiyin.

Jamiyat o'rtasidagi xilma-xillik munosabatlarida bola ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda o'zini boshqalar bilan taqqaslaydi va o'zida boshqalarga o'xshash yoki farq qiladigan hislarlar topadi. Bolada o'zi haqida, uning o'zligi haqida ma'lum bir fikr paydo bo'ladi. Bola asosan oilada va maktabda bashqalar bilan munosabatda bo'ladi. Oilaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan yana bir vazifasi tarbiyalashdir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Shaxs tarbiyaning ob'ekti va sub'ekti hisoblanadi. Shaxsning kamol topishida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi bir xil bo'lmaydi. Har bir pedagog ma'lum darajada psixolog ham bo'lishi talab etiladi, chunki ular har biri faqat o'ziga xos bo'lgan, turli yoshdagi, turli individual xususiyatlarga ega bolgan o'quvchilar bilan ish olib boradi. Har bir bola faqat o'ziga xos bilish faoliyati, iroda, xarakter, xulq-atvor xususiyatlariga ega. Maktabdagi ta'limtarbiya berish jarayonida ham shu xususiyatlarni bilish va shunga asoslanib ularga individual munosabatda bo'lish lozim. Shaxsning rivojlanish holatini to'g'ri baholash va bilish uchun uni turli munosabatlar doirasiga qo'yib tuzatish lozim. Pedagogika shaxsning kamoliga etishishning murakkab va ziddiyatli jarayon deb biladi. Shaxs qaysi o'quvchilarda o'z-o'zini tarbiyalashda ya'ni o'z ustida ongli

batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina, tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasha buladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. E.G'oziyev "Yosh va pedagog psixologiyasi"
2. M.Vohidov. Bolalar psixologiyasi 1982
3. Internet ma'lumotlari

BOLA SHAXSINI SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGIK O'YINLARNING AHAMIYATI

Yormatova Mohira Abdusattor qizi
Farg'ona viloyati Beshariq tumani 6-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologik o'yinlarning bola shaxsini shakllanishiga ta'siri haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: xarakter, shaxs, o'yin, bola.

Inson harakteri va shaxsi bolalikning ilk yillardidanoq shakllanib boradi. Bolalarning kelajakdan umidvor bo'lgan jamiyat bu jarayonga faol aralashishi va bulajak fuqarolar shaxsini kamolga yetkazish borasida maktablarda tarbiyaga psixologik nuqtai nazaridan yondashishi lozim. Ayniqsa, sinfdagi o'quvchilar orasida o'zaro munosabatlar ularning o'qishga, bir-biriga bo'lgan munosabatlariga hamda o'quvchilar harakterining shakllanishiga, shuningdek sinfdagi ruhiy muhitga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababali o'quvchi oldida, eng avvalo, quyidagi vazifalar kundalang turadi:

- sinf o'quvchilarining o'zaro munosabatini yaxshilash;
- o'quvchilar jamoasini jipslashtirish;
- o'quvchilarning o'z qobilyatlariga ishonchini mustaxkamlash;
- o'quvchilar harakteridagi to'nglik, tajavuzkorlikka barham bera olish.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun psixologik o'yinlar va mashqlarni jamladan maxsus psixologik treninglar bilan o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish zarur. Bunday mashqlar tajribali o'qituvchi yoki bevosita psixolog tomonidan amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Psixologik trening o'tkazilgan ushbu sinfda psixologik muhit yaxshilanadi sinfda «yakkalanib» qolgan, ya'ni bolalarga qo'shilmaydigan ko'pgina o'quvchilar bo'lgan maxsus mashg'ulotlar o'tkazilgach, bunday bolalar boshqalar bilan yaxshi muomila qiladigan bo'lib qolishdi, ulardagi to'ng'lik va urishqoqlik odatlari yo'qola borgan, bu esa o'z-o'zidan sinfdagi psixologik muhitning yaxshilanishiga olib kelgan. Bir so'z bilan aytganda o'qituvchilar ta'lim bilan birga tarbiyani ham qo'shib olib borishlari, bu ishda psixologik imkoniyatdan foydalanishlari kelajagimiz uchun bilimli, odobli, komil insonlar tarbiyalashda muhim omildir. Quyida yaxshi natija bergan psixologik o'yin va mashg'ulotlarni o'z ichiga olgan mashg'ulotlarni tavsiya etamiz.

Psixologik trening o'ttkazishning umumiy qoidalari.

1. Qatnashchilar soni 10-15 tadan ortmasligi shart.
2. Psixologning o'zi ham barcha topshiriqlarni o'quvchilar bilan birgalikda bajarishi shart.
3. Qatnashchilarning xar biri, albatta xamma mashg'ulotlarda qatnashishi lozim.
4. Treningni trener maharot bilan boshqarish kerak. Shaxsiyatiga tegadigan, uyaltiradigan vaziyatlardan qochishi, xar bir o'quvchining fikrini maqullab, ragbatlantirib turishi kerak.
5. Trener – qo'yilgan muammolarni bolalarning o'zlari xal qilishlari uchun qulay sharoit yarata bilish kerak.

1-mashg'ulot Dustlik nima?

Bugun sizlar bilan do'stlik xaqida gaplashamiz. Mashg'ulotda beriladigan savollarga aniq javob berishingizni surayman. O'ylaymanki, hammangiz yaxshi bolalarsiz, lekin bazan orangizda hech kim bilan dkstlashmaydigan o'quvchilar ham uchrab turadi. Shuning uchun bugun sizlar bilan do'stlik xaqida suxbatlashamiz va xaqiqiy do'stlik qanday bo'lishi kerak degan?-savolga javob topishga harakat qilamiz.

Har birimiz qanday yaxshi va qanday yomon ishlar qilganimiz haqida gapirib beramiz. So'ngra har bir o'quvchining javobi muhokama qilinadi va yakun yasaladi. Mashg'ulot oxirida do'stlik haqidagi tushunchalarni umumlashtiriladi.

2-mashgulot. Men kimman?

10 minut davomida o'quvchilar «Men kimman?» degan savolga javob tariqasida uz fazilatlarini daftarga yozadilar, masalan ular men-o'quvchiman, men-saxiyman, men-dunyoning bir bo'lagiman, men-ota-onamni yaxshi koraman va hokozo. Har bir o'quvchi navbatma-navbat bilan yozganlarini o'qib beradi, boshqalar uni diqqat bilan eshitishlari va gapirayotgan bolaning so'zini bo'lmasliklari zarur. Keyin o'yin ishtirokchilari o'quvchilarning yozganlarini muxokama kiladilar.

Mashgulot oxirida trener shunday so'zlar bilan yakun yasaydi. Xozir aytadigan gaplarimni men bilan baravar kaytarasizlar. «Men aqli, xushmuomila, kuchli bulishni xoxlayman!» , «Men yaxshi o'qiyman!», «Men xammaga yaxshi munosabatda bo'laman!» «Men o'z do'stlarimni, o'qituvchilarimni, ota-onamni xurmat qilaman», «Ota – onamga, kattalarga yordam beraman, kichiklarga g'amxo'rlik qilaman».

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gorbushina O.P. Psixologicheskiy trening. Piter, 2007.
2. Praktikum po sotsialno-psixologicheskomu treningu. Sankt-Peterburg, 1994.

МЕТОДИКА ПОВЫШЕНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ И БОЕВОЙ ПОДГОТОВКИ В УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ МВД РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

*Студенты Узбекского Государственного Университета Физической Культуры и
Спорта: Шойсуломова Шахло Шорахимовна,
Махсудов Бобохон Шокирхон ўгли,
Шодмонова Маржона Суннатилло қизи*

Аннотация. Социально-экономическим реформам и политическим преобразованиям в стране в значительной мере препятствует рост преступности. Опасным изменением в характеристиках преступлений отмечается усиление их

профессионализма, организованности и вооруженности. Нередко правонарушители оказывают открытое сопротивление сотрудникам милиции, угрожая их жизни.

Ключевые слова: орган внутренних дел, двигательные способности, профессионально-прикладная подготовка, физическая подготовка, общая физическая подготовка, специальная физическая подготовка.

Под процессом обучения понимают деятельность обучающего и обучаемых, направленную на усвоение определенных знаний, приобретение умений и навыков, а также на формирование высоких морально-волевых и психологических качеств. Системный подход в обучении можно представить в виде трех принципов. Во-первых, знание требований будущей профессии, а если шире, то и своего будущего образа жизни. Во-вторых, определение пригодности к выбранной профессии. В-третьих, внедрение в специализированную систему подготовки нормативов, позволяющих определить динамику уровня своей профессионально-прикладной готовности. Исследования профессиональной деятельности работников Органов Внутренних Дел (ОВД) показали необходимость повышенных требований не только к определенным двигательным способностям человека (выносливость, сила, ловкость), но и к двигательным навыкам быстро и точно выполнять сложнокоординационные двигательные действия, применять табельное оружие в обстановке значительного физического и психологического напряжения. Основы построения тренировочной и обучающей деятельности, применительно к задачам профессионально-прикладной физической подготовки (ППФП), предусматривают определение наиболее значимых двигательных способностей, умений и навыков на основе анализа профессиональной деятельности. Следовательно, постановка задач ППФП предполагает конкретную целевую ориентацию на профессиональную деятельность, особенности выполняемых операций, требований к двигательным способностям, уровню их проявления. При обосновании средств физической подготовки военнослужащих учитывались особенности службы в различных родах войск, а также условия несения службы. На основе полученных данных разрабатывались содержание, организация и методы контроля ППФП

специалистов, военнослужащих срочной службы и курсантов различных военных учебных заведений В названных работах изучается структура ППФП, предлагается методика ее совершенствования. Авторы единодушно отмечают, что традиционная методика практически не способствует подготовке работников органов внутренних дел (ОВД) к действию в экстремальных условиях. А ведь при возникновении и развитии экстремальных ситуаций всех масштабов и видов (природные, техногенные, социальные и т.д.) личный состав подразделений ОВД продолжает решать оперативно-служебные задачи. Часто в повседневной деятельности сотрудников возникают экстремальные ситуации особого периода: задержание вооруженного преступника, борьба с террористами, оперативные действия при стихийных бедствиях, массовых беспорядках. Преследование и последующая в единоборстве схватка требуют большого физического и психического напряжения, отметили 35% из всего числа опрошенных. Таким образом, практика показывает, что для управления эмоционально-волевыми качествами в экстремальных условиях работникам подразделений ОВД необходима специальная тренировка. В ходе занятий наряду с общими дидактико-педагогическими принципами обучения (доступность, наглядность, прочность, последовательность, сознательность, активность) используются и специфические закономерности спортивной тренировки (разносторонность, систематичность, непрерывность, повышение физической нагрузки, цикличность, индивидуализация, направленность к высшим достижениям, единство общей и специальной подготовки, единство постепенности и тенденции к максимальным нагрузкам, волнообразность). Для совершенствования системы физической и боевой подготовки учёные предлагается рассматривать обучение приемам рукопашного боя в комплексе с другими единоборствами. Существующие типовые программы учебных заведений МВД Республики Узбекистан предусматривают обучение предлагают интенсифицировать занятия с помощью игровых заданий и моделирования реальных ситуаций, использовать системный подход в обучении рукопашным единоборствам. В тематическом планировании разнообразным техническим действиям, а это, в свою очередь, не позволяет прививать стойкие навыки приёмов

рукопашного боя с целью самозащиты и задержания. Разработаны предложения по пересмотру существующей программы рукопашного боя (боевым приемам борьбы) для учебных заведений: сократить технические действия, оставив приемы, имеющие универсальный характер. Рассматривая особенности управления системой подготовки курсантов учебных заведений МВД Республики Узбекистан, заметно отсутствие взаимосвязи между общей физической подготовкой (ОФП), специальной физической подготовкой (СФП), навыками единоборства и навыками стрельбы в рамках учебно-воспитательного процесса в целом. В реальной практике системы обучения при, казалось бы, стройном и обоснованном содержании обучения, налицо разобщенное функционирование составляющих компонентов, поскольку последние не объединены единой целевой направленностью. Все это делает весьма актуальным разработку научно обоснованных рекомендаций по нормативам, позволяющим определять комплексное проявление двигательных способностей и профессионально-прикладных умений и навыков, а также совершенствование учебного процесса, направленного на проявление данных качеств и умений в обстановке, максимально приближенной к реальной. Подводя итог анализа особенностей учебного процесса по физической и боевой подготовке курсантов образовательных учреждений МВД Республики Узбекистан, следует отметить, во-первых, недостаточную научную проработку вопросов структуры и содержания данного процесса, а также целевых и нормативных требований к проверке его результатов. Во-вторых, определённую разобщенность составляющих частей, формирующих профессионально важные качества и умения будущих работников ОВД. При этом в качестве объединяющего признака следует рассматривать научно-обоснованные нормативы по комплексному проявлению профессионально необходимых качеств и умений, как некоего перманентного состояния, обеспечивающего успешность действия сотрудников ОВД.

СПИСОК ЛИТЕРАТУР

- 1). Волков В.М. Теоритические основы и прикладные аспекты управления состоянием тренированности в спорте. - ЧГПУ.: 2000.-252 с.

2). Игуменов В.М. Основы формирования образовательного стандарта дополнительного профессионального образования. Теория и практика физической культуры. - Москва, 2001.-№12.

3). Раевский Р.Т., Ямалетдинов Г.А. Профессионально-прикладная физическая подготовка следователей органов внутренних дел // Теория и практика физической культуры. – Москва, 1994. - №3-4.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MASHG'ULOTLARNI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH MAZMUNI

Xolmuratova Xurshida Kalandarovna

Navoiy viloyati Navoiy shahar 23-DMTT rus tili o'qituvchisi

Milliy ta'lim ravnaqini ta'lim-tarbiya amaliyotiga samarali va tejamli, yangi shakl, vositalarni qo'llash, izlanish orqali yuqori natijalarga erishishni ko'zlovchi pedagogik texnologiyalar ta'minlaydi. Maktabgacha ta'limda yangi pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish tarbiyani ta'limga bog'lash, har ikkisini tuzilishi va mazmun jihatdan yaxlitlashtirishga, tarbiyalanuvchi faoliyatini uyushtirishga, mustaqil fikrlashga yo'llash uchun qulay sharoit yaratadi.

Demak, pedagogik innovatsion texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalar, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi yoki tarbiyachi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, tarbiyalanuvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Shuning uchun ta'lim jarayonida bolaning tutgan o'rni, ya'ni bolaga kattalar tomonidan ko'rsatilgan munosabat pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatidir. Mashg'ulotlar orqali samarali natijalarga erishish ilg'or innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali yuzaga keladi. Demak, pedagogik texnologiya ta'limga tizimli yondashuv asosida tatbiq etiladi.

Tarbiyachining bu jarayon tashkilotchisi, raxbari, ijodkor sifatidagi faoliyati asosini uning bilimi va mahoratini, texnik vositalardan foydalanib, bolaning qiziqish va intiluvchanligiga ta'sir ko'rsatish, bolani eng ko'p darajada faollashtirishga xizmat qiluvchi usullarni qullab, kafolatlangan samaralarga erishish qobiliyati tashkil etadi.

Innovatsion texnologiyalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida – o'yin, mashg'ulot, sayr davomida qo'llash yaxshi samara beradi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilganda pedagoglar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Pedagog bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida pedagog asosiy figuraga aylanadi.

Bugungi kunda ta'lim muassalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonda pedagogik texnologiyalardan foydalanishiga alohida e'tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchi: pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchi: pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan: pedagogik texnologiya pedagogni ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan: pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etilishi pedagogning bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa tinglovchilardan ko'p mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab qiladi.

Har qanday pedagogik texnologiyalarning o'quv- tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy jihatdan kelib chiqqan holda tinglovchini kim o'qitayotganligi va pedagog kimni o'qitayotganiga bog'liq. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar bolalarning muhim hayotiy yutuq va muammolarga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini oshirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammoarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslarga aylanadi.

Shuning uchun ham ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanilishiga oid bilimlar, tajriba talaba yoki o'quvchilarning bilimli va etuk malakaga egaligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 150 b.
2. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.

3. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.

ЎҚУВЧИЛАРНИНГ КАСБ ТАНЛАШ МОТИВЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ

Казақова Муҳайё Аллабергановна

Хоразм вилояти Ҳазорасп тумани 30-мактаб психологи

Ўзбекистон Республикасининг Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини рўёбга чиқариш ҳар томонлама камол топган, жамиятда турмушга мослашган, таълим ва касб-хунар дастурларини онгли равишда танлаш ҳамда кейинчалик пухта ўзлаштиришга қодир, давлат ва оила олдида ўз жавобгарлигини ҳис этадиган фуқароларни тарбиялашни назарда тутди.

Инсоннинг касбий шаклланиши ва мутахассис сифатида камолга етишини унинг ҳаёт йўлидан айри ҳолда тасаввур этиб бўлмайди. Психологик адабиётларда таъкидлаб ўтилганидек, кишининг касбий шаклланиши бутун ҳаёти давомида кечадиган жараён бўлиб унинг ёшига ҳамда шахсининг тараққиётига мос ҳолда боради. Касбий фаолият соҳасидаги муваффақият ва мутахассиснинг маҳорат даражасига эришиш суръати унинг касб танлаш мотивлари билан ўзаро алоқадордир.

Касб танлаш ўспиринлар учун муҳим муаммолардан биридир. Танлов доираси қанчалик кенг бўлса, у шунчалик психологик жиҳатдан мураккаблашиб боради. Шахснинг субъектив мойилликлари ва у ёки бу фаолиятга қобилиятлилиги бир бутунликни ташкил этади. Қизиқиш ва мойиллик фаолият жараёнида шаклланади ва ўзгариб боради. Бироқ ўспиринларда яққол ифодаланган, барқарор ва фаол мойиллик ҳар доим ҳам кузатилмайди. Касб танлаш арафасида турган

Ўспиринларнинг мазкур соҳага қанчалик мос, мойилэканлиги фақатгина фаолият кузатуви, назарий, тажриба жараёнидагина аниқланади.

Касб танлаш мотивларнинг шаклланишига таъсир этувчи ижтимоий-психологик омиллар жуда кўп бўлиб, улар бир-бири билан ўзаро муносибликка эга. Ўспириннинг касб танлашига таъсир этиш кучига кўра асосий ўринни дўстлари ва ўртоқлари билан бир-бирини тушуниш муносабатлари ташкил этади. Иккинчи ўринни тез таъсир этувчи оммавий ахборот воситалари- китоблар, газета, журнал, кинофильм, телекўрсатувлар, айниқса, интернет эгаллайди. Учинчи ўринда педагогик жамоа, синф раҳбари, фан ўқитувчилари, таълим муассасаси директори ва ўринбосарлари, маҳалладошлари туради. Тўртинчи ўринга оиладаги бевосита маънавий-маърифий муҳитни қўйиш мумкин. Бешинчи ўринни ўқув фанларини ўзлаштириш жараёни эгаллайди. Яъни, ўспирин қанчалик юқори даражада ўзлаштиради ўқув фанлари унинг касб танлашига ижобий таъсир кўрсатиб ўз самарасини беради. Кейинги навбатда дарсдан ташқари тарбиявий ишлар, ижтимоий-фойдали ва ишлаб чиқариш меҳнатини кўрсатиш мумкин.

Ўспиринларда бирор ўқув фанига иштиёқ натижасида уларда ҳар хил касбларга қизиқиш пайдо бўлгач, танланган касбни ўзлаштириш билан боғлиқ фанга қизиқиш тобора ортиб бораверади. Натижада фан тўғарак машғулотларига ва факультатив курсларга қатнашишиштиёқи вужудга келади.

Ўспирин бу имкониятдан унумли фойдаланиши мақсадга мувофиқ, деб таъкидламоқчимиз. Касб танлаш ўспиринда касблар олами ва уларнинг инсонга ҳамда унинг хусусиятларига қўйиладиган талаблар ҳақида тасаввурлар бўлишини тақозо этади. Баъзан уларнинг ҳар иккиси ҳам ўспиринларда етишмаслиги мумкин.

Ўспиринларда касблар ҳақида яққол тасаввур бўлмаслиги сабабли, улар кўпроқ хатога йўл қўядилар. Танланган ёки танланиши зарур бўлган касб қандай шахсий фазилатларни талаб қилишини тушуниб етмайдилар. Ўз қобилиятларини оқилона баҳолай олмасликлари туфайли у ёки бу касбни эгаллаш учун қанчалик тез ва аниқ ҳаракат қила олишларини, бу ишга мослаша олишлари мумкинлигини билмайдилар. Бироқ ҳозир мазкур кўнгилсиз ҳолатларнинг олдини олиш ва бартараф этиш имкониятлари мавжуд. Булар: касбларни ўрганиш усулларини

ишлаб чиқиш, уларни тавсифлаш ва аниқ қилиб ифодалаш; ўқитувчининг касблар бўйича батафсил тарғибот ишлари олиб бориши, касблар юзасидан маслаҳатлар бериш, ўспирин ва унинг ота-онаси билан бирга касбга йўналтириш тadbирларини кўриб чиқиши; ўспиринларни касбнинг асосий турлари билан таништириш; психодиагностик ва касб танлаш усулларининг амалиётга татбиқ қилишга мослаштирилган турларини ишлаб чиқиш; жойларда замон талабига мос касб танлаш хоналарини ташкил этиш; касб танлаш тарғиботи юзасидан ўспиринларни оммавий ахборот воситаларига жалб қилиш ва психологик жиҳатдан тайёрлашдан иборат таълим концепциясининг асосий йўналишларидан биридир.

Ўспиринларнинг қизиқиши, майли, интилиши, қобиляти, истеъдодлари асосида танлаган касбларига тўғри йўналтириш улар учун катта ҳаётий масаладир. Касб танлаш жараёнида ўспиринларга ўқитувчилар, ота-оналар, жамоатчилик, ўз касбининг усталари, мураббийлар алоҳида эътибор беришлари, тўғри йўл-йўриқ кўрсатишлари керак. Зеро, бу амалий фаолият фуқаролик жамияти ривожланишига хизмат қилади.

Психология фанида касбий шаклланиш жараёнини даврлаштиришнинг бир неча вариантлари ишлаб чиқилган. Бу борада рус олими Т.В.Кудрявцев шахсининг касбга муносабати ва фаолиятни бажариш даражаси мезонига кўра касбий шаклланишнинг қуйидаги босқичларини ажратиб кўрсатган:

- 1) касбий мойилликнинг пайдо бўлиши ва шаклланиши;
- 2) касбий таълим ва касбий фаолиятга тайёргарлик кўриш;
- 3) касбий фаолиятга киришиш, жамоада ўз ўрнини топишга фаол интилиш;

Мазкур таснифда келтирилган ҳар бир босқичда касб танлашга ундаган мотивларнинг кучи ва сифати муҳим аҳамиятга эгалиги кўрсатиб ўтилган. Рус олими Е.А.Климов эса инсонни меҳнат субъекти сифатида талқин этиб касбий йўналган даврлаштиришни қуйидагича асослаб берган:

- 1) ўйиндан олдинги босқич (4 ёшгача бўлган давр) – кишининг кейинги ривожланиши ва меҳнатга киришуви учун асос бўлган идрок қилиш вазифаларини ўзлаштириш;

2) ўйин босқичи (5-8 ёш) – инсон фаолиятининг “асосий мазмуни”ни ўзлаштириш;

3) ўқув фаолиятини ўзлаштириш босқичи (8-12 ёш) – фаолиятни режалаштириш, ўзини-ўзи назорат ва таҳлил қилиш;

4) оптация босқичи (12-17ёш) –касб-ҳунар таълими муассасаларида касб танлаш даври;

5) адепт босқичи (17-20 ёш) –танланган ихтисослик бўйича касбий тайёргарлик;

6) адаптант босқичи (20-23 ёш) –касбнинг ичига кириш ва унга кўникиш;

7) интернал босқич(23-26 ёш) –касбий тажриба тўплаш;

8) касбий маҳорат босқичи–меҳнат фаолиятини малакали бажариш;

Касбий шаклланиш жараёнининг дастлабки ва айна дамда ўта муҳим босқичи бўлажак касбни танлаш, яъни аниқ бир касбий қарорга келишигача бўлган даврни ўз ичига олади. Ёшларнинг касб танлашга тайёргарлик даражаси фақатгина ёш хусусиятига боғлиқ эмас, у маълум ёшга келиб ўз-ўзидан шаклланиб қолмайди.

Шахснинг касбий шаклланишида ижтимоий вазиятлар, маънавий муҳит ва етакчи фаолият муҳим омил ҳисобланади. Касбий таълим оила ва таълим муассасаларида амалга ошириладиган касб танлангунга қадар давом этган таълим-тарбия негизда, яъни касб танлашга психологик тайёрлаш ҳамда меҳнат фаолиятига руҳан тайёргарликка кўмаклашадиган амалий восита, омил сифатида давом эттирилгач, у албатта ижобий натижа беради, деб таъкидламоқчимиз.

Адабиётлар:

1.Кудрявцев Т.В. Психология профессионального обучения и воспитания.- М.,1997.

2.Климов Е. А. Психология профессионального обучения и воспитания. - М., Просвещение, 1990.

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI TENGDOSHLARI BILAN BO‘LADIGAN MULOQOTINI O‘RGANISH

Halimova Orzigul Ne'matovna

Navoiy viloyat Navoiy shahar 1-DMTT ingliz tili fani o'qituvchisi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish borasida qarorlar qabul qildi. Unda ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishni ta’minlash bo‘yicha farmoyish qabul qilindi.

XXI asr texnika va texnologiyalar asri. Bu zamonda yangiliksiz, izlanishsiz, yaratuvchanliksiz inson mustaqil individ sifatida hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lolmaydi.

XXI asr texnika va texnologiyalar asri hisoblanadi. Bugungi kunda har bir oilada texnik qurilmalar – masalan, mobil telefonlari, televizor, kompyuter, planshet va boshqalar kundalik iste’molda keng qo‘llanadi. Shunisi diqqatga sazovorki, kichik yoshdagi bolalar kattalarga nisbatan bu qurilmalardan tez va oson foydalanishadi. Ammo, maqsadga yo‘naltirilganlik darajasi juda oddiy. Shu ma’noda, maktabgacha ta’lim muassasalarini to‘liq texnologiyalar bilan ta’minlanish bosqichiga o‘tilmoqda. Bu esa ta’limda ko‘rgazmali qurollardan, zamonaviy texnologiyalar asosida foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Ayniqsa, maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar uchun o‘yin dasturlarining bilimga qaratilgan turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Muloqot deganda insonlarning umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda, kelishilgan holda olib borgan o‘zaro munosabati tushuniladi.

Muloqot bolaning ilk yoshidan boshlab psixik taraqqiyotining asosiy faktorlaridan biridir. Maktabgacha yoshda bolaning kattalar bilan muloqoti 4 xil ko‘rinishda bir-birini to‘ldiradi, ular:

- vaziyatli-shaxsiy, vaziyatli-ishchanlik, vaziyatdan tashqari bilish va vaziyatdan tashqari shaxsiy muloqot.

Tengdoshlari bilan 3 xil munosabat shakllari:hissiy-amaliy, vaziyatli ishchanlik va vaziyatdan tashqari ishchanlik ko‘rinishlari mavjud. Muloqot qilish motivlari va mazmuni o‘zgaradi, muloqotga kirishish malakasi hamda ko‘nikmasi shakllanib maktabga psixologik tayyorlikning komponentlaridan biri bo‘lmish muloqotga kirishish sifatida shakllanadi. Bola sekin-asta kattalar bilan o‘z munosabatlarini aniqlay boshlaydi (kattalar bolalarga qanday munosabatdalar va boladan nimani kutadilar). Tengdoshlariga nisbatan qiziqish kattalarga qiziqishga nisbatan kech ro‘yobga chiqadi. Tangdoshlari bilan muloqot turli jamoalarda to‘planadi. Boshqa bolalar bilan munosabat shakllanishiga faoliyatlarning qanday olib borilishi va bolaning bu topshiriqlarni bajarish malakalari ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotidagi guruhlar - bu bolalarning birinchi ijtimoiy birlashmasi hisoblanadi, bu jamoada bolalar turli faoliyatlarda o‘z muloqotlarini boshqaradilar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘zaro do‘stona munosabatni shakllantirishda turli nizolarga duch kelish mumkin. Ulg‘aygan sari maktabgacha yoshdagi bolalarning tengdoshlariga bo‘lgan munosabati o‘zgarib boradi, bolalar o‘rtoqlarini ishchanlik xususiyatlariga qarab emas (qiziq o‘yinlarni tashkil etish malakasi, tengdoshlari bilan kelishib ishlashi, kattalarga, kichkintoylarga yordami), balki shaxsiy sifatlariga qarab ham, ayniqsa, ahloqiy sifatlariga qarab ham baholay boshlaydilar. Bu bolalarning ahloqiy me’yorlar haqidagi tasavvurlarining shakllanishiga va ahloqiy sifatlar mazmunini tushunishlariga bog‘liq.

Bolaning tengdoshlari bilan muloqotga kirishishlarini kuzatilganda atta yosh guruhida bolalar orasida tanlanish munosabatlari o‘rnatilganini kuzatish mumkin. Bolalar tengdoshlari o‘rtasida har xil o‘rinni egallay boshlaydilar, ba’zi bir bolalarni bolalar boshqalardan ko‘proq tanlaydilar, ba’zi birlarini kamroq tanlaydilar. Bolalar tomonidan

tanlanish boshqaruvchilik tushunchasi bilan bog'liq. Boshqaruvchilik ijtimoiy psixologiyada asosiy ahamiyatga ega. Boshqaruvchilik ba'zi bir bolalarga boshqarish imkoniyatini yaratib, boshqalarga boshchilik qilish, ularni maqsad sari olib borish imkoniyatini yaratadi. Boshqaruv jarayoni, birorta guruh faoliyatini tashkillashtirishda aniq maqsad qo'yish va unga erishishda o'z ifodasini topadi. Bunday tasavvurni maktabgacha yoshdagi bolalar guruhi uchun ifodalash qiyin, asosan maktabgacha ta'lim tashkilotda qo'llash mumkin emas, chunki bu yoshda hech qanday maqsad va vazifalar belgilanmaydi, bunda ijtimoiy ta'sir to'g'risida gapirish mumkin emas. Ayrim bolalarni tanlash bu tashqi tomondan tanlanish hisoblanadi. Bu tanlanish faqat shu bolalarga intilish xolos. Bolalarning taniqli bo'lishi tengdoshlari orasida katta ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolaning guruhdagi tengdoshlariga munosabati qanday taraqqiy etishiga qarab bolaning kelgusidagi shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyoti qay darajada rivojlanishini belgilash mumkin.

Bolaning muloqat qilish qobiliyati nutqiy rivojlanishini ham o'z ichiga oladi. Nutq bolaning kognitiv rivojlanishida muhim vosita bo'lib, ijtimoiy rivojlanish va dunyoni bilish uchun zarur vositadir. Mazmunga boy va rag'batlantiruvchi ta'lim muhitida bolalar og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradilar, bu ularga o'zlariga ishonishga, boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatishga, dunyo haqidagi tushunchalarini shakllantirishga, mashg'ulotlarda ishtirok etishga va loyiha ishlarini jamoa bo'lib bajarishga yordam beradi.

Bolalar kattalar va boshqa bolalar tomonidan tushunilishlari uchun o'zlarini ifoda etishlari mumkin. Ular aytilganlarni tushunishlari uchun tinglaydilar va kuzatadilar; savollar va ko'rsatmalarni eshitadilar va shunga mos javob berishadi. Ular nutqni rivojlantirish mashg'ulotlarga ijobiy qarashadi. Ular nutqning turli shakl va funksiyalarini biladilar, ulardan foydalanadilar va kerak bo'lganda ularni turli xil muloqot holatlarida moslashtiradilar. Ushbu kompetentsiya, shuningdek, axborot olish uchun turli xil aloqa vositalari va kanallardan mustaqil foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi; o'z ta'limi va rivojlanishida foydalanish uchun kerakli ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish va tanlash, ularni tartibga solish, o'zgartirish, saqlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

Bolaning muloqat qilish qobiliyatini rivojlantirish orqali bolaga o'z fikrini bayon etish, bahslashish, munozaraga kirishish, tasavvurlarini erkin nutq vositasida ifodalashga o'rgatilib boriladi.

Bolaning muloqat qilishga kirishishi bolaning jamoada o'zini tutish, tengdoshlari bilan samimiy munosabatda bo'lish, atrofdagilar bilan barqaror aloqalar o'rnatish, do'stlar orttirish, ularga yordam berish, o'z fikrini ifodalash, agar tushunmasa savol bilan murojaat qilish, kelishib o'ynash, ovutish, o'yinchoqlari va qalamlari bilan o'rtoqlashish, kichkintoylarga yaxshi munosabatda bo'lish ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-son qarori.

2. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V., Mikailova U.T., Suleymanova Yu.T., Daukayeva A.G., Vlasova Ye.N., Galimova E.F. "O'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida rejalashtirish". – T.:2020.

3. Vigotskiy.L.S. Pedagogicheskaya psixologiya.-M. 1998.

ЭТНИЧЕСКАЯ РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ В МАЛАЙЗИИ

Гўзал Шарипова

базовый докторант Международной Исламской академии Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассматривается этническая и религиозная толерантность в Малайзии. Анализируется влияние религиозной толерантности на этнические диаспоры, проживающие в Малайзии.

Ключевые слова: диаспора, этнические группы, этнос, толерантность.

Крушение биполярного миропорядка имело радикальные последствия, как для самой системы международных отношений, так и исследующей ее науки. Дело в том, что вступление в новый период, как и всякое другое начало очередного этапа мировой истории, снова оказалось ознаменованным неопределенностью сложившейся ситуации и основных векторов ее дальнейшего развития. Как следствие – наблюдается противоречивость складывающихся оценок по поводу наших грядущих перспектив. Так, несмотря на еще повторяющиеся заявления о наступлении периода гегемонии одной сверхдержавы, все активнее распространяется и альтернативная точка зрения о движении современного мира в сторону многополярности[4].

Сегодня тема этнической толерантности является очень актуальной. В программе XXII первого симпозиума Международного философского конгресса[4], прошедшего в Сеуле в 2008г рассматривался вопрос, «Конфликт и толерантность» (Conflict and Tolerance Symposia) свидетельствует, что мировое сообщество осознало глобальный характер данной проблемы для современности. Проблема вопроса состоит в том, чтобы примерить эту концепцию к решению конкретных проблем современной науки и общества. Для рассмотрения данного вопроса необходимо обратиться к интересному опыту Юго-Восточной Азии. Регион Юго-Восточной Азии включает в себя примерно 1,2 млн. кв. км, с населением - более 300 млн. человек[8]. Здесь проживает множество народов и народностей, говорящих на разных языках и наречиях, исповедующих разные религии, имеющих богатые многовековые культурные традиции. Особенно выделяется на этом фоне Малайзия как полиэтническое общество. В данном вопросе государственная система Малайзии очень интересна, так как она трансформируется с изменением общественного сознания. Что в свою очередь доказывает приверженности властей Малайзии к мирному сосуществованию в полиэтническом поликонфессиональном обществе, что не маловажно в современном мире.

Сегодня Малайзия - поликонфессиональное общество, ее население состоит из более 180 этнических групп[5]. Такое мирное сосуществование было

достигнуто относительно мирно, если не считать события 1969 года. В мае 1969 года в течение трех дней происходило крупное этническое насилие между малайцами и китайцами[3] что привело к гибели более двух тысяч человек[1]. Правительство считало, что конфликт был результатом экономического дисбаланса между политически влиятельными малайцами и экономически процветающими китайцами. Как следствие этого, правительство сформулировало Новую экономическую политику (НЭП) (1970-1990), целью которой было улучшение социально-экономического положения малайцев в то время. Дисбаланс четко прослеживается в корпоративном секторе, где малайцы занимают лишь 2,4% доли в корпоративном секторе по сравнению с китайцами, доля которых составляет 22,8% [6]. Несмотря на социально-экономическое положение, малазийское общество не смогло избежать проблемы межэтнических конфликтов. С развитием глобализации и важности науки и техники, правительство последовательно активизирует усилия по привитию этнической толерантности в системе образования[2]. Поскольку религия и этническая принадлежность тесно взаимосвязаны в малазийском обществе, одной из наиболее актуальных задач образования для повышения этнической терпимости является преподавание религии. Религия уже давно рассматривается как "помощник" для продвижения этнической толерантности, хотя она не упоминается в религиозных принципах. Различные этнические группы используют религию в качестве своего этнического символа и стремятся включить ее в свою жизнь при любой возможности[7]. Особенно этому способствует национальная идеологическая политика Малайзии, введенная в 1970 г. «Рукунегара» («основы государства») [9]. Рукунегара содействует стремлению укрепить единство многонационального и многоконфессионального государства. Поддерживает баланс социально справедливого общества, закрепляет в сознании общества понятия уважения, к культурным традициям способствуя, таким образом, развитию страны.

Национальная идеологическая программа «Рукунегара» состоит из введения, «убеждения», «принципах» – каждая из вышеприведенных частей посвящена морально этическим, духовным, религиозным, государственным делам

способствующие углублению веры, любви к Родине, толерантности, и уважению Конституции и т.д. Важно привить осознание того, что религия сама по себе, без усилий общества, не может обеспечить поддержание этнической толерантности. Еще одним важным моментом является роль внутренней мотивации. Внутренняя мотивация лучше, чем внешняя мотивация, в плане продвижения расовой терпимости.

Сегодня государственная политика Малайзии способствует развитию и укреплению гражданского общества. Позитивно влияет на духовно нравственную обстановку в обществе, обогащает существующие нормы и правила отвечающие интересам полиэтнического общества. Поощряет деятельность культурных и творческих объединений.

Процесс культурного и межэтнического диалога может способствовать открытию мировых границ или создать угрозу безопасности, по этой причине тема культурного и межэтнического диалога не теряет своей актуальности.

Межкультурная коммуникация очень важна, она позволяет предотвратить конфликты, в случае их возникновения поможет сгладить все различия между представителями других культур. Уровень межэтнической коммуникации показатель готовности правительства и всего государства не к борьбе против экстремизма, ксенофобии, терроризма или к любой иной агрессии, а способствует ее предотвращению.

Понимание и принятие принципа права на свободу, культурное развитие, принципа равноправия народов, защита от угрозы или применения силы против культурной целостности защита меньшинств не допускается в Малайзии в свою очередь, демонстрируя мировой общественности политику толерантности в Малайзии.

Существование религиозного диалога направленного на толерантное отношению к чуждым верованиям предотвращает угрозу конфликта и обострения межэтнических отношений в обществе. Направляет общество в мирное русло, располагает общество к международному сотрудничеству. Помогает преодолеть трудности в общении с представителями других народностей и культур.

Литература

1. Ahmed S. Queer phenomenology //Queer Phenomenology. – Duke University Press, 2006.
2. Aminuzzaman S., Baldersheim H., Jamil I. Talking back! Empowerment and mobile phones in rural Bangladesh: a study of the village phone scheme of Grameen Bank //Contemporary South Asia. – 2003. – Т. 12. – №. 3. – С. 327-348.
3. Holt W. S., Regan C. D. J., Trempe C. Acute posterior multifocal placoid pigment epitheliopathy //American Journal of Ophthalmology. – 1976. – Т. 81. – №. 4. – С. 403-412.
4. <http://web.kpi.kharkov.ua/philosophy/language/ru/vsemirnui-filosofskijkongres/> дата обращения _27.02.2021г; http://ojkum.ru/lib/b_kuznetsov_zolotukhin.pdf.
5. Joshua Project // [Электронный ресурс]. URL: <http://www.joshuaprojectnet/countries.php> //Дата обращения – 26. 03. 2021 г.
6. Rahim M. A., Minors P. Effects of emotional intelligence on concern for quality and problem solving //Managerial Auditing Journal. – 2003.
7. Rubin G. M. et al. Comparative genomics of the eukaryotes //Science. – 2000. – Т. 287. – №. 5461. – С. 2204-2215.
8. Нгуен Тхи Тхы. Библиографическая деятельность в странах Юго-Восточной Азии: История, современное состояние и тенденции развития. Автореферат по ВАК РФ 05.25.03. М., 1998 г.
9. Юлдашева Г. Гражданское общество в Малайзии //Fuqarolik jamiyati. Гражданское общество. – 2008. – Т. 5. – №. 2. – С. 63-66.

“PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA” FANINI O`QITILISHIGA INTERFAOL METODLAR ASOSIDA INNOVATSION YONDASHUV

Olga Vasilyevna Shotunova
Rossiya federatsiyasi, KFU Yelabuga universitet dotsenti,
Feruza Aminovna Turakulova
Qo`qon davlat pedagogika instituti katta o`qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oliy ta'limda pedagogik texnologiya kursini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llanilishi ta'lim samaradorligini oshirish vositasi ekanligi, shuningdek «Galereya» metodining qo'llanilishi va afzalliklari bayon etilgan*

Kalit so`zlar: *pedagogik texnologiya, ta'lim innovatsiyasi, yangicha yondashuv, «Galereya» metodi, kichik guruhlar*

Аннотация: *В данной статье рассмотрено использование инновационных образовательных технологий при преподавании курса педагогических технологий в высшей школе как средства повышения эффективности образования, а также применение и преимущества метода «Галерея».*

Ключевые слова: *педагогическая технология, образовательная инновация, новый подход, метод «Галерея», малые группы*

Annotation: *This article discusses the use of innovative educational technologies in teaching a course of pedagogical technologies in higher education as a means of increasing the effectiveness of education, as well as the application and advantages of the "Gallery" method.*

Key words: *pedagogical technology, educational innovation, new approach, Gallery method, small groups*

“Pedagogik texnologiya” fanini o`qitilishining o`ziga xos xususiyatlaridan biri bu talabani maxsus va ixtisosga oid uslubiy tayyorlashi. Ya`ni, pedagogik texnologiya o`qituvchi - tarbiyachi kasbiy va shaxsiy fazilati to`g`risidagi fan sifatida ma`lum metodologik asosga ham ega. Darhaqiqat, o`qituvchi kasbiy mahoratini shakllantirishning ilmiy – nazariy, metodologik va amaliy yo`nalishlari Yu.P. Azarov, T.I. Gonobolin, A.K. Kuzmina, O.A. Abdulina, N.V. Kuxarev, V.A. Selastyonin, V.A.

Suxomlinskiy, N.D. Nikandrov, A.V. Petrovskiy, Umar az Zamaxshariy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, M.Ochilov, K.Zaripov, V.A. Krutetskiy, J.G. Yo'ldoshev, E. G'oziev, U. Mahkamov, B. Xo'jaev va boshqalarning ilmiy asarlarida yoritilgan. Ularning ta'kidlashlaricha, o'qituvchi o'z fanining bilimdoni bo'lishi bilan birga, insonparvar, adolatli bo'lishi, milliy tarbiya targ'ibotchisi hamda komil inson sifatida o'zida shaxsiy – kasbiy sifatlarni tarkib topdirgan kasb egasi bo'lishi lozim. Zero, oliy ta'limda pedagogik texnologiya kursini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida ishlash davrning asosiy talabi bo'lib qolmoqda.

Ta'lim innovatsiyalari ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar sanaladi

«Galereya» metodi. «Galereya» metodi kichik guruhlarda birdaniga bir nechta masalani muxokama qilish imkonini beradi. Bunda guruhning har bir a'zosi barcha taklif etilgan masalalar muhokamasida ishtirok etishi va oz ulushini qoshishi mumkin

Metodning qo'llanilishi:

1-qadam. Masalani qoyish. O'qituvchi har bir guruhga ma'lum muammo yoki masalani beradi.

2-qadam. Har bir guruh oz masalasi ustida ishlaydi. Masalalar ustida ishlash kichik guruhlarda amalga oshiriladi (odatda 5-10 minut).

3-qadam. Kichik guruhlar qo'shni guruhlar masalasi yechimini oxirigacha yetkazishga otish. Har bir kichik guruh oz goyalarini yozgan katta varaqni olmasdan doira boylab siljiydi. Variant sifatida guruh siljishi orniga doira boylab ishlangan goyalar yozilgan katta varaqni uzatish mumkin, muammo aks etgan rasmlardan ham foydalanish mumkin.(chizib)

4-qadam. Qoshni masalasi yechimini oxirigacha yetkazish. Har bir kichik guruh katta varaqqa yozilgan qoshni guruh goyalarini organadi; savol belgisi bilan rozi bolmaganlarni belgilaydi; qoshni masalasi yechimi boyicha oz goyalarini yozadi. 5 daqiqadan keyin guruhlar doira boylab keyingi kichik guruhga otib, yana joylari bilan almashadi

5-qadam. Oz masalasiga qaytish. Masaladan masalaga doira boyicha otishlar har bir kichik guruh ozining dastlabki masalasiga qaytish bilan tugallanadi. Guruhlar katta varaqlarida yig`ilgan goyalarni organadilar.

6-qadam. Prezentatsiya va ish natijalari muhokamasi Har bir guruh navbat bilan ozlarining qogoz varaqlarida yig`ilgan natajalar - goyalarni tushuntirish va sharhlar bilan taqdim etadi. Boshqa guruhlar ular prezentatsiya qilayotgan guruh varagiga yozgan goyalarni tushuntiradilar va sharhlaydilar. Masalan, mavzu bo`yicha tayanch so`zlar, tushunchalar, muammolar va hokazo.

Metodning afzalliklari: turli muammolar bo`yicha o`z fikrlarini yo`zma berishga o`rganadilar

Xulosa qilib, ta`lim beruvchilar tajribasidan kelib chiqib aytganda, interfaol metodlarni mashg`ulotlar jarayonida o`rinli, maqsadga muvofiq qo`llanilishi ta`lim samaralarini kafolatlaydi. Zero, yangicha yondashuv Sh.M. Mirziyoevning iboralari bilan aytganda ...ilm-fan, zamonaviy va uzluksiz ta`lim tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi...

Yangi O`zbekiston pedagogi o`z ijodkorlik qobiliyatlari bilan o`z faoliyatlarini yorqinlashtirib borishi va darslarini innovatsion rux bilan sug`orilgan shiddatkor, uning tutgan o`rni tashabbuskorona xarakterga egaligi, uning so`zlari yosh avlodning ongi va qalbining eng chuqur joylarigacha ta`sir etib turishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkt Mirziyoyev. Yangi O`zbekiston strategiyasi Тошкент – 2021
2. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O`quv jarayonida innovatsion ta`lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014, 60 b
3. Turakulova Feruza Aminovna va b. Technology for improving the methodological preparation of future primary school teachers for continuous qualification practice journal of research development and sustainability. Volume 2, Issue 2 February, 2021, 64-66.

MEDIA MADANIYAT VA MEDIA TA`LINING MAZMUNI

Olga Vasilyevna Shotunova

Rossiya federatsiyasi, KFU Yelabuga universitet dotsenti,

Arofat Maxkamovna Isakova

Qo`qon dablat pedagogika instituti o`qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Rossiya ta`lim tizimida media madaniyat, media ta`lim, media savodxonlik pedagogikaning "ommaviy muloqot shakllari"ni o'rganishni qo'llab - quvvatlovchi yo'nalish sifatida belgilanayotgani yoriilgan*

Kalit so`zlar: *media madaniyat, media ta`lim, media savodxonlik, pedagogika, "ommaviy muloqot shakllari"*

Аннотация: *В данной статье рассмотрено определение медиакультуры, медиаобразования, педагогики медиаграмотности в системе российского образования как опоры изучения «форм массовой коммуникации».*

Ключевые слова: *медиакультура, медиаобразование, медиаграмотность, педагогика, «формы массовой коммуникации»*

Annotation:

This article discusses the definition of media culture, media education, media literacy pedagogy in the system of Russian education as a pillar of the study of "forms of mass communication".

Key words: *media culture, media education, media literacy, pedagogy, "forms of mass communication"*

Rossiyadagi zamonaviy ijtimoiy - madaniy vaziyat ta'lim sohasida xususiy tashabbuslar, madaniy - ma'rifiy aloqalar imkoniyatlarini kengaytirish, texnik yangiliklarni joriy etish, internetda qo'shimcha ma'lumot olish, bir xil audiovizual materialni turli tillarda ko'rish, boshqacha aytganda, nafaqat kitob o'qish jarayonining

barcha afzalliklaridan, balki virtual olamda ham (shaxsiy kompyuter bo'lsa) foydalanish ularning ijodiy g'oyalarini amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlar video suratga olish orqali ochiladi, bu filmni suratga olishdan farqli o'laroq, film ishlab chiqarishning murakkab tizimini, bosma nusxalarini, ovozli sinxronizatsiyani va boshqalarni talab qilmaydi. televizor ekranida yoki monitorda. U bilan muloqot qilish bilan bir qatorda kompyuterlar, professionallar mulkidan video yaratish asta - sekin tobora keng tarqalgan hodisaga aylanib bormoqda. Sun'iy yo'ldosh televidenie ham ommaviy axborot vositalarining kengayishida muhim rol o'ynaydi, buning yordamida siz avvalgidek besh yoki oltita kanalni emas, balki sayyoramizning turli mamlakatlaridan bir necha o'nlab (agar yuzlab bo'lmasa ham) qabul qilishingiz mumkin.

Media madaniyatining ahamiyati va roli haqiqatan ham eksponent sifatida oshib bormoqda. Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalari (ommaviy kommunikatsiya) - bu inson atrofidagi dunyoni (ijtimoiy, axloqiy, psixologik, badiiy, intellektual jihatdan) o'zlashtirishning murakkab vositasi. Zamonaviy media madaniyatining salohiyati o'quv jarayoni inson shaxsiyatining keng ko'lamlari rivojlanishi bilan belgilanadi: hissiyotlar, aql, mustaqil ijodiy va tanqidiy fikrlash, dunyoqarash, estetik ong idrok, badiiy tahlil qilish ko'nikmalari jarayonida olingan bilimlarni faollashtirish. Bu holat, ehtimol, Rossiyadagi zamonaviy o'quv jarayonining ziddiyatlari bilan bog'liq:

- axborot oqimining kuchayishi birinchi navbatda) audiovizual: kino, televidenie, video, Internet va uning to'liq rivojlanishi uchun ko'plab ta'lim muassasalarining texnik jihozlari etarli emasligi;

- o'quvchilarning ongi va dunyoqarashini shakllantirishda va uning o'rta va oliy o'quv yurtlari o'quv dasturlarida, an'anaviy ta'limning mavjud tuzilmasida tutashgan o'rnida media madaniyatining muhim o'rni;

- media - ta'limni samarali amalga oshirish uchun zarur shart - sharoitlar (pedagogik usullar, dasturlarning yangi yo'nalishlarini izlash bilan bog'liq byurokratik taqiqlarni bekor qilish, universitetlarda, gimnaziyalarda, kollejlarda va boshqalarda tanlovli fanlarni keng joriy etish; o'qituvchilar va talabalar ommaviy axborot vositalari orqali madaniy qadriyatlar bilan muloqot qilishlari mumkin. Shunday qilib, zamonaviy ijtimoiy-madaniy

vaziyatda media madaniyatining odamlar, ayniqsa, yoshlar hayotidagi o'rni va ahamiyati har qachongidan ham katta.

So'nggi yillarda ommaviy axborot vositalarining maktab va o'quvchilar auditoriyasiga ta'siri muammosi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Ularning mualliflari, odatda, pop - musiqa va sport bilan bir qatorda, media madaniyati asarlari bilan muloqot qilishiga ham rozibolalar va yoshlar birinchi o'rinlardan birini egallaydi. Shu bilan birga, adabiyot, teatr, musiqa, tasviriy san'at xususiyatlarini organik ravishda o'zlashtirgan media madaniyati (masalan, teledasturlar va Internetning ekranli matnlari kengroqdir. Yoshlar auditoriyasida universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari alohida o'rin tutadi. Ta'lim muassasalarida o'qitishning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining individualligi, ongi, mustaqil fikrlashi, o'quv jarayonida ommaviy axborot vositalaridan foydalanish ko'nikmalarining qanchalik rivojlanganligiga bog'liq. Rossiya pedagogik entsiklopediyasi media ta'limini (inglizcha media ta'limi lotincha Media - vositasi) pedagogikaning "ommaviy muloqot shakllarini (matbuot, televidenie, radio, kino, video.) o'rganishni qo'llab - quvvatlovchi yo'nalish sifatida belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аладьина Г.В. МЕДИАПЕДАГОГИКА, КАК НАУКА // Международный студенческий научный вестник. – 2015. – № 5-4.

2. Алпатикова, С. В. Медиапедагогика — необходимая составляющая социализации детей в информационном обществе / С. В. Алпатикова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 24 (210). — С. 296-297

3. Гутевич, В. А. Технология медиаобразования в обучении младших школьников / В. А. Гутевич. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 3.1 (137.1). — С. 53-54

МАКТАБЛАРДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТ ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛИ СИФАТИДА

*Тиллаева Гулшоода Зоировна
Хоразм вилояти Ҳазорасп тумани 20-мактаб психологи*

Ривожланган жаҳон давлатлари Америка, Франция, Англия, Япониянинг шу қадар ривожланиб кетишининг асосий сабабларидан бири сифатида бу мамлакатларда ишлаб чиқаришда, таълим тизимида, тиббиётда психологик хизматнинг яхши йўлга қўйилганлигидир. Бу мамлакатларда психологик хизматнинг пайдо бўлиши тарихига назар ташласак, Америкада психологик хизмат 1800 йилларда “Гайденс” хизмати сифатида пайдо бўлган. Францияда эса психологик хизмат 1905 йилда пайдо бўлган. Россияда эса 1982 йилда мактабларга психолог штати жорий этилган.

Ўзбекистонда ҳам шу йиллари мактабларда психолог штати жорий этилди. Мактабларда ишлайдиган психологларнинг етишмаслиги туфайли 1989 йилда Низомий номидаги ТДПИда амалиётчи психологлар тайёрлаш факультети очилган. Ҳозирда республиканинг қарийб барча мактабларида психологлар фаолият юритишмоқда. Республикамиз президенти Ш.М.Мирзиёев мактаб психологлари меҳнатини қадрлаб, уларнинг иш ҳақини бошланғич синф ўқувчилари иш ҳақининг 90 % га тенглаштирди. Мактабларда фаолият юритадиган психологлар штат бирлиги ҳам қайта кўрилиб, 200 нафар ўқувчига 1 штат бирлиги психолог ажратилгани таҳсинга лойиқ.

Бугунги анжуман секцияларидан бири таълим сифатини оширишда психологик хизматнинг ўрнига бағишланган экан, бу борада психологларга бир неча тавсияларни келтиришни жоиз деб билдик:

1. Психологлар дарс жадвалини тузишда ўқув ишлари бўйича директор ўринбосарига тавсиялар бериши мақсадга мувофиқ. Айрим мактабларда мутахассис ўқитувчиларнинг етишмаслиги туфайли 6 ёки 8 соатлаб бир ўқитувчига дарс қўйиб берилишини назорат қилиш зарур. 2 соатдан кейин албатта 1 соат дам

олиб (психологик хизмат хонасида), куч тўплаб жадвал бўйича 4 чи 5 чи соатларга дарсга кириши мақсадга мувофиқ.

2. Психологик хизмат хонасининг маъмурият билан биргаликда релаксация имкониятларини кенгайтириш.

3. Ҳозирги вақтда таълим тизими олдида турган асосий вазифа ҳар томонлама етук баркамол, мустақил фикрловчи ижодкор авлодни тарбиялашдан иборат экан, умумтаълим мактаблари ўқув режасини қайта кўриб чиқиб, барча синфларда “Психология” дарсларини киритиш мақсадга мувофиқ.

Бу дарсларнинг заруратини қуйидаги ҳолатлар билан асослаш мумкин:

а) Мактаб психолог-ларига жуда кўп талаблар қўйилади: диагностика, ривожлантирувчи, коррекцион машғулотларни ўтказиш бўйича, лекин “Бу машғулотларни психолог қачон ўтказди?” деган савол ҳамон очик қолмоқда.

б) Интеллектуал ғоялар асрида иқтидорли ёшларни тарбиялаш учун уларда бошланғич синфлигидаёқ билиш жараёнларини ривожлантириш зарур (буни қуйидагича образли ифодалаш мумкин: қураётган уйимиз мустаҳкам бўлиши учун унинг фундаменти мустаҳкам бўлиши керак. Фарзандларимиз билимларига бошланғич асос, фундамент бошланғич синфларда “қуйилгани учун” ана шу дарсларда психолог томонидан интеллектуал жараёнлари ривожлантирилиши мақсадга мувофиқ.

Бу дарсларда:

1 - синфда диққат ва идрокни ривожлантириш,

2 - синфда хотирани ривожлантириш,

3 - синфда тафаккурни ривожлантириш,

4 - синфда нутқ ва хаёлни ривожлантириш машқларини қамраб олиши мумкин.

в) 5 - синфларда коммуникатив тренинглар,

6 - синфда креатив тренинглар,

7-синфда эмоцияларни бошқариш тренинглари,

8-синфда ўз-ўзига бўлган ишончни ошириш тренинглари,

9-синфда ўз-ўзини англаш ва ҳаётий мақсадларни ривожлантириш тренинглари,

10-синфда касбий ўзликни англаш тренинглари,

11-синфда эса оилавий ҳаётга тайёрлаш бўйича тренинглари ўтказиши зарур.

3. Жамоада қулай психологик муҳитни яратишга ҳаракат қилиш. Қулай психологик иқлим мезонлари қуйидагилар:

1) юқори талабчанлик ва ишончинг мавжудлиги;

2) объектив танқиднинг мавжудлиги

3) жамоага тегишли бўлган ҳар қандай масалани муҳокама қилишда ҳар бир аъзонинг фаол иштирок этиши;

4) жамоа олдида турган мақсад ва вазифалар ҳақидагуруҳнинг ҳар бир аъзосининг юксак даражада хабардорлиги;

5) раҳбарлигидан фойдаланиб гуруҳ аъзоларига таъсир ўтказишнинг мавжуд эмаслиги;

б) шу жамоа аъзоси эканлигидан қониқишнинг мавжудлиги;

7) зарур вазиятларда муҳтож жамоа аъзоларига психологик ёки бошқача ёрдам беришга интилишнинг мавжудлиги.

Психологик хизмат методлари турлитуман бўлиши мумкин:

а) халқ таълими ва Ўрта махсус касб-ҳунар таълими ходимлари, ўқувчилар, талабалар билан маърузалар туркуми, аҳолининг психологик маданиятини ўстириш мақсадида тренинг машғулоти ўтказиш;

б) илмий оммабопа адабиётларни яратиш ва уларни тарқатиш;

в) оммавий ахборот воситаларида чиқишлар;

г) психодиагностик тадқиқотлар ўтказиш, методикалар ишлаб чиқиш (тест савол варақаси, тажриба, кузатиш, суҳбат ва бошқалар);

д) психологик маслаҳат бериш;

е) психологик консилиумлар ўтказиш;

ж) таълим ва тарбия берувчи дастурлардан фойдаланиб психодрама, психокоррекцион тренингларни амалга ошириш. Шундай қилиб, психологик хизмат умумтаълим мактабларида таълим самарадорлигини ошириш омилидир.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анисимов О.С. Методологическая культура педагогической деятельности и мышления, М.: Экономика, 1991. - 415 с.

2. Ануфриева Н.М. Повышение уровня коммуникативной компетентности менеджеров как задача их профессиональной подготовки // Теоретико-методологические проблемы совершенствования психологической подготовки менеджеров. Приложение № 3 (8) к научному журналу «Персонал», №1 (55). - Киев: «МАУП», 2000. - С. 54 - 57.

3. Закиров А.А. Особенности сотрудничества преподавателя и обучающихся в учебной деятельности: Дис. канд. психол. наук. – Ташкент: «НУУз», 2002.-129 с.

4. Кузнецова Е.В. Трудности педагогического общения, обусловленные невербальным поведением учителя, методы их коррекции // Психологические трудности общения: диагностика и коррекция. Тез. докл. всесоюзн. конф. - Ростов-на-Дону, 1990. - С.75 - 81

O'QUVCHI YOSHLARNI IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK QO'LLAB- QUVVATLASH, BUYUK MAQSADLARI SARI OLG'A QADAM BOSISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Masharipova Salomat Hakimovna
Xorazm viloyati Hazorasp tuman 33-maktab psixologi

Bugungi davrda insoniyat shu qadar ulkan o'zgarishlarni sodir etayabdiki, bunda iqtisodiyot, siyosat, sanoat umuman olganda jamiyatning barcha jabhalari turli darajada renessansga yuz tutmoqda. Shu bilan bir qatorda esa insonlarning yuksak aqli ila ishlab

chiqilayotga ixtirolarning ayrim ma'naviy ta'sirlari yoshlarning sezgisi orqali bevosita ongiga ta'sir etmay qolmayabdi. Nafaqat ta'sir etish balki harakatga keltirish darajasiga ham yetdi. Sodda bir misol bilan tushuntirib o'tsam, odamzot tomonidan ixtiro qilingan uyali aloqa vositasi va internet axborot texnologiyaning yangi bosqichga ko'tarilishi deydiga bo'lsak, yoshlarning internetga "sho'ng'ib ketishi"(tik tok, telegramm, instogram, facebook) ma'naviyatiga ta'sir o'tkazmasdan qolmayabdi. Demakki, har qanday jismnini qarama – qarshi tomoni bo'lganidek, har qaysi ijobiylikning ham salbiy tomoni mavjud bo'ladi degan fikrga kelish mumkin. Shu o'rinda O'zbekiston Resublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli deb o'ylayman. "G'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin."

Shunday ekan biz ta'lim berayotgan farzandlarimiz oqni qoradan ajrata olishlari, har qanday o'zgarishga labbay deb javob qaytarishlari, o'z aqliy salohiyati bilan butun O'zbekiston balki dunyoni lol qoldirishlari uchun biz ularni ma'naviyatini tarbiyalashimiz lozim.

Yoshlarni ijtimoiy –psixologik qo'llab –quvvatlash va kelajakda kim bo'lish bizning zimmamizdagi mas'uliyatimizdir. Agarda ota-ona, fan o'qituvchisi, sinf rahbari bilan birgalikda o'quvchimizning qiziqishi, bilim salohiyatini hisobga olib unga to'g'ri yo'l ko'rsata olar ekanmiz u albatta kelajakga olg'a shaxdam qadamlar bilan qadam bosadi. Shuningdek kasbga yo'naltirish bolaning yoshligidan olib borish lozim. Shaxsda kasbiy o'zlikni anglash shakllanishini kasbiy mahoratning vujudga kelishidagi asosiy mezonlardan biri sifatida ham bir necha bosqichlarni ajratish mumkin.

1. Kasblar olami haqida aniq-ko'rgazmali tasavvurlarni paydo bo'lishi davr. Bu davr 2,5-3 yoshdan boshlanib 10-12 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Taraqqiyot davomida bolaning ongida kasblar olami haqidagi turli tuman tasavvurlar shakllanib boradi. Boshlang'ich ta'limda esa yetakchi o'quv –biluv faoliyatida o'quvchilarning kasblar haqidagi tasavvurlari yanada kengayib boradi.

2.O'zini kasbiy bilish davri. Ko'plab kasblar haqidagi tasavvurlarni o'zlashtirib olgach, o'quvchi ularni u yoki bu shaklda qo'llay olishi kerak. Kasblar haqida yetarli

bilim, ko'nikma va tayyorgarlikga ega bo'lmaganlari sababli ba'zi o'quvchilar o'zlarini biror kasbiy sohada namoyon eta olmaydilar.

3.O'zini kasbiy aniqlash davri. Ushbu bosqichda kasbiy o'zlikni anglash yakunlanadi. Bu davr maktabni tugatgandan keyin ham davom etishi mumkin. O'quvchida kasbni o'rganishning aniq yo'nalishi, barqaror qiziqishlar, kasbning talablarga mos bo'lgan shaxs xususiyatlarining shakllanishi kuzatiladi. Xuddi shu xususiyatlarni inobatga olgan holda Respublika tashxis markazi tomonidan o'quvchi yoshlarni kasb -hunarga yo'naltirish borasida qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Kasbim-Kelajagim" platformasi orqali maktablarimizning yuqori sinf o'quvchilari o'zlarining qiziqishlariga ko'ra kasb yo'nalishlarini aniqlash hamda shu kasb yuzasidan ma'lumotlar olish imkoniyatiga ega bo'lib kelmoqdalar. Shu bilan bir qatorda yana bir e'tibordan chetta qoldirib bo'lmaydigan masala bor, ya'ni bitiruvchi o'quvchilarning mustaqil kasb tanlashi-jamiyat yoshlarning hayotini o'zi belgilash imkoniyatlarini kengaytiradi.Uning oldida o'zlarining kuchi va qobiliyatlarini faoliyatning turli sohalarida jamiyat manfaati yo'lida foydalanish imkoniyatlari mavjud. Demak, jamiyatda faoliyat turlari juda ko'p shulardan o'zining iqtidoriga munosib kasb tanlay olish har bir o'quvchining o'ziga bo'g'liq.

Shu o'rinda dunyo bo'yicha ta'lim sifati yetakchi o'rinlarni egallab kelgan Finlandiya ta'lim tizimining negizi "Har qanday o'quvchi yuqori natijaga erishishi mumkin, har qanday maktab u qayerda joylashganidan qat'iy nazar sifatli ta'lim berishi kerak". Finlandiyaning ta'lim sifatida yuqori darajani egallab kelshining asosiy omili, avvalo, o'quvchi va talabalarni hayot davomida kerak bo'ladigan amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ta'lim standartlari va o'quv dasturuning joriy etilganligi,talablar hamma uchun barobar ekanligi hamma pedagoglar tayyorlashning a'lo darajasidagi tizimi mavjudligida. Bundan tashqari Finlandiya ta'lim tizimida asosiy e'tibor faqat iqtidorli o'quvchilarga emas balki o'zlashtirishi sust o'quvchilarga qaratilishi ham ta'limni berishni yuqori darajaga ko'tarishini isbotlagan. Xorij tajribalariga tayangan holda O'zbekistonda O'quvchi yoshlarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash,buyuk maqsadlari sari olg'a qadam bosish ko'nikmalarini shakllantirish uchun quyidagilarni keltirib o'tmoqchiman.

Avvalo o'quvchilarimizda ijtimoiy va psixologik holatni barqarorligini va barcha o'quvchilarda teng bo'lishini maktab amaliyotchi psixologi o'z zimmasiga olishi zarur.

Dastlab, ijtimoiy tenglik haqida fikr yuritamiz. Bular: maktablarda joriy etilgan maktab formasi amalda mavjud tenglik. Istisno tarzlar ham mavjud, pedagog xodimlar hamda maktab ma'muriyati xodimlarining maktab formasi ma'lum qolibga solinmaganligi, o'quvchilarning aqliy va jismoniy salomatligini ta'minlash maqsadida maktab oshxonalarining yo'qligi (ayrim chet xududlarda) va mavjud oshxonalarda barcha o'quvchilarga bir xil yeguliklar tarqatilmashligi ham o'quvchilarda ijtimoiy omilining buzulishiga olib keladi va o'z-o'zidan uning psixologiyasiga ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarni psixologik qo'llab-quvvatlashga keladigan bo'lsak, maktab amaliyotchi psixologlarni yillik ish rejasiga olinayotgan metodika hamda so'rovnomalarni yanada otimallashtirish, ko'proq amaliy ishlarni o'tkazish uchun dars soati ajratilishi kerak deb o'ylayman. Biz yashab turgan bugungi axborot texnologiya rivojlangan davrda ko'proq yangilikni targ'ib qilish va xorij tajribalarini mentalitimizga mos ravishda o'quvchilarimizga yetkazib berish maqsadida psixolog xodimlarni AT(Axborot texnologiyalari) ga hamda ingliz va rus tillariga o'qitilishi lozim deb o'ylayman. Bundan maqsad o'quvchilarda o'rtasida sodir bo'layotgan har qanday psixologik o'zgarishni aniqlay bilish va o'z o'rnida reabilitatsiya qila olish imkoniyatini yanada oshirishdir..

Mening fikrimcha yuqoridagilarni amalga oshirgan holda, psixolog xodimlarini eng asosiy vazifalaridan biri bo'lmish o'quvchilarni kelajakdagi yo'lini tanlay olishi va o'ziga buyuk kelajakni yaratishga yordam berishdek mas'uliyatli vazifani amalga oshirish ham turadi. Amaliyotchi psixolog o'quvchilarni buyuk maqsadlari sari olg'a qadam bosishi uchun nimalar qilishi zarur? Avvalo, o'quvchilarni o'zligini anglash va maqsadlarini to'g'ri tanlashni o'rgatish lozim. Buning uchun eng avvalo o'quvchilarimizda vatanarvarlik tuyg'usini, vatanni sevishni va unga xizmat qilishni uqtirmog'imiz shart. Jmumladan, har kuni davlatimiz madhiyasi jarangi ostida kunn iboshlash va har doim tarbiyaviy darsda muqaddas dinimizdan hadislar yod olishni maktablarimizda reja asosida yo'lga qo'yishimiz lozim. Kelajak kasbini tanlash uchun

esa Har bir o'quvchining ota-onasi bilan individual tarzda psixolog huzuriga chaqiriqlar tashkil qilish va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlik asosida ushbu ota-onani ish vaqtdan ruxsat berishini ta'minlash lozim. Shundagina biz ota-ona hamda o'quvchi va maktab orasidagi o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'ya olamiz. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Sharq donishmandlaridan biri aytganidek, "Eng katta boylik-bu aql-zakovot va ilm, eng katta meros-bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlik. "Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak "deya takidlaganlari har bir kishining ayniqsa ta'lim-tarbiya berib kelayotgan o'qituvchilarning mas'uliyatini yana bir karra oshirdi. Biz yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilar ekanmiz eng avvalo bugungi yosh avlodni imkoniyat, iqtidor va is'tedodini ochib berishi uchun imkon yaratmog'imiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asari. Toshkent-2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020-yil 28-yanvar.

O'SMIRLARNING KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

*Masharipova Salomat Hakimovna
Xorazm viloyati Hazorasp tuman 33-maktab psixologi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'smirlar tomonidan kasb tanlash muammolari, kasb tanlash yo'llari va usullari muhokama qilingan. Shuningdek, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning nazariy psixologik asoslari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Kasb-hunar, o'smir, nazariya, ehtiyoj, motiv, layoqat, qiziqish, qobiliyat.

Kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etsa-da, lekin uning ortida jismoniy individual (yakkahol) shaxs turadi. Holbuki shunday ekan, har bir kasb tanlovchi shaxsiyatiga individual munosabatni amalga oshirish zarur. Buning uchun kasb tanlovchining yosh va jins xususiyatlariga binoan kasb maorifini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda birinchi navbatda shaxsning kasbiy *ehtiyoji, motivi, layoqati, qiziqishi va qobiliyatini* hisobga olish darkor. Aks holda umumiy xususiyatli yo'llanma, ko'rsatma ijobiy natijaga olib kelmaydi, chunki individuallik o'ziga xos talablarni taqozo etadi. Hatto oddiy kasb maorifi ham turlicha yondashuvni talab qiladi, binobarin, uni qondirmasdan turib, tub maqsadga erishib bo'lmaydi.

Yoshlarning kasb egalari bo'lishlarida kasbiy motivlarning ahamiyati o'rinlidir. Kasbiy motiv va motivasiya muammosi xorij psixologlari tomonidan keng doirada tadqiq qilingan bo'lib, jumladan, kasbiy motivlar borasida YE.A.Klimov, V.A.Kruteskiy, A.N.Vasilkova, E.Disi, V.Vrum, M.V.Dmitriy va boshqalarnikiritishimiz mumkin. Shaxsning ish faoliyati bilan bog'liq motivasiyalarni 3 guruhga ajratish mumkin; birinchisi - mehnat faoliyati motivlari, ikkinchisi kasb tanlash motivlari va uchinchi-ish joyini tanlash motivlari. Aniq faoliyat esa barchasini jamlangan holda izohlanadi, ya'ni, bunda mehnat faoliyati motivlari, kasb tanlash motivlarining shakllanishi, shuningdek, qolgan ikkita motiv orqali esa ish joyini tanlash motivlari ham yuzaga keladi.

Mehnat faoliyati motivlari xilma-xil bo'lib, ular o'ziga xos omillar bilan belgilanadi. Birinchi guruh omillariga jamoaviy xarakterning uyg'onishi bilan bog'liqlari kiritilib, bunda jamoaga foyda tegishini anglash, boshqa insonlarga yordam berish istagi, mehnat faoliyatida ijtimoiy ustanovkaning zarurligi va boshqalarga nisbatan tobelikni hohlamaslik kabi motivlar hisoblanadi. Ikkinchi guruh omillari o'zi va oilasi uchun moddiy mablag'ning orttirilishi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi uchun pul ishlab topish motivlaridir. Uchinchi guruhga o'zini o'zi faollashtirish, rivojlantirish, o'zini namoyon qilish ehtiyojlarining qondirilishi va boshqalar kiradi. Ma'lumki, insonlar tabiatdan biror-bir faoliyat bilan shug'ullanmasdan turolmaydilar. Inson nafaqat

iste'molchi balki yaratuvchi bo'lib, yaratish jarayonida u ijoddan ilhom oladi. Bu guruhga mansub motiv jamiyat tomonidan ehtiyojlarning qondirilishi va boshqalarning hurmatini qozonish bilan bog'liq. Maktab o'quvchilarining mehnat tarbiyasi ham shu motiv bilan bog'liq ravishda shakllantiriladi. Mehnat faoliyatining umumiy motivlari yuqorida aytib o'tilganidek, aniq kasblar doirasida amalga oshadi.

Kasb tanlash anchagina qiyin va motivasion jarayondir. Axir shaxsning to'g'ri kasb tanlashi ko'pincha insonning hayotdan qoniqishga ham sabab bo'ladi. Insonning qaysi faoliyatini tanlashi ko'proq tashqi omillar haqidagi qarorning qabul qilinishi jarayoni haqida to'xtalishi muhimdir. Bu asosan tashqi holat baholariga, o'zining imkoniyat va qobiliyatlariga, kasb tanlashdagi qiziqish va moyilliklariga bog'liqdir. Tashqi holatini baholash, ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillar, o'zida ishlab topiladigan pul miqdori, imtiyoz, taklif etilayotgan korxonalar, muassasaning yashash joyiga yaqin bo'lishi, transport aloqalarining qulayligi, ish joyi estetikasi va ishlab chiqarishning zararli tomonlari, jamoadagi psixologik iqlim, maqtov va tartibga chaqirish kabilarni qamrab oladi.

O'z imkoniyatlarini baholash sog'lomligi, ishga yaroqliligi, kasbi bo'yicha muhim sifatlarga egaligi, bilim darajasi, stresslarsiz ishga moyilligi, yuqori shovqinli ishda talab etilgan temp va xotirjam ritm bilan ishlay olish imkoniyati kabilarni o'z ichiga oladi. Qiziqishlarga mos ravishda tanlangan ish joyini baholash, ayni vaqtda ishlayotgan muassasasi, korxonadagi imkoniyat to'siqlari, ishni boshqarish, kasbiy o'sish, tashabbusning paydo bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Ongli ravishda kasb tanlash uchun o'quvchilarning bir qator kasblarni yetarlicha bilishi, bilganda ham ularning kishini o'ziga jalb qiladigan tomonlarini emas, balki qiyinchiliklarini ham yaxshi bilishi, o'zining shaxsiy sifatlariga ko'ra tanlangan kasbini muvaffaqiyatli egallay olishi va keyingi ish jarayonida o'z malakasini takomillashtirishi talab qilinadi.

Hozirgi vaqtga qadar kasbga yo'naltirish ishlari yetarlicha yuqori saviyada olib borilmadi, ko'pincha rasmiy tusda bo'ldi. Natijada maktabni tamomlaganlarning kasb tanlashi tasodifiy bo'ladi. Yoshlarning ko'pchiligi u yoki bu kasbni nimadan iborat ekanligini aniq tasavvuf kilmaydi. Hunar-texnika bilim yurtlarining besh mingga yaqin o'quvchilari bilan savol-javob kilinganda shu narsa aniqlandiki, ularning faqat 5% i

kasbini maktabning tavsiyasiga binoan, 30% i o'rtloqlarining maslahatiga ko'ra, 15% i ro'znoma, radio, televideniye orqali berilgan e'lonlarga, ko'shnilar, tanish-bilishlarning maslahatlariga muvofiq 15% i ota-onalarning maslahati, 12% i hunar-texnika bilim yurtlari xodimlarining tavsiyalari bo'yicha tanlanganlar. Albatta, bu ma'lumotlar xar davrda va xar xil mintakalarda obyektiv xolda turlicha, ammo shu narsa ravshanki, o'quvchilarning aksariyat ko'pchilik kasblarni tasodifiy ravishda tanlaydilar. «Siz nima uchun shu kasbni tanladingiz?, - degan savolga 41,1% o'quvchi:» Bu haqda o'ylab ko'rganim yo'q», - deb javob bergan.

Kasbni anglamay turib, tasodifiy anglash shunda namoyon bo'ladiki, o'kishning dastlabki paytlarida o'quvchi qandaydir qiziqish bilan karaydi. Keyinchalik esa bu qiziqish sunib boradi. Hunar-texnika bilim yurtida birinchi yil o'kiyotgan o'quvchilardan so'raganda ularning 14,9% i, ikkinchi yil o'qiyotganlardan so'ralganda esa 10,7% i tanlagan kasbidan mamnunligini aytgan. Hozirgi vaqtda yoshlarni kasbga yo'naltirish masalalari bilan davlat, jamoat va yoshlar tashkilotlari.sanoat korxonolari shug'ullanadilar. Biroq bu ishda maktab asosiy o'rin egallaydi.

Hozirgi kunda bozor munosabatlarini va uzluksiz ta'limga o'tish munosabati bilan maktab yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga, jamiyat uchun foydali va zarur bo'lgan muayyan mehnat faoliyatiga tayyorlashda yana ham katta rol o'ynaydi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ularning xar biriga aloxida-aloxida yondashishni talab etadi bunda shaxsning temperamenti, irodasi, dikkati, belgilangan maksadga erishishda kat'iylik, tashabbuskorlik, uyushkoklik, intizomlik, topgairilgan ishni bajarishga ma'suliyat bilan munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini e'tiborga olish zarur. Bundan tashqari, kasbga yo'naltirish davomida kasbni tanlash sabablarini; kasbning ijtimoiy ahamiyati, qiziqish va xavas, kasbga tayyorgarlik, oila an'analari, ota-onalar, pedagoglar, o'rtloqlarining maslahatini hisobga olish lozim. O'quvchilarni uzok vaqt o'rganish natijasida sinf rahbarlari ularning xar biriga tavsifnoma tuzadilar. Bunday tavsifnoma kasb tanlash va o'quvchiga u yoki bu kasbni tanlagani taklif qilish uchun asos bo'ladi. Kasbga layokatlikni tanlash maxsus komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Unga o'qituvchilar, psixologlar, ishlab chiqarishdagi muxandis yoki boshka mutaxassislar, sotsiologlar, vrachlar kiradi. Ular xar bir o'quvchiga qanday kasb tanlash kerakligini aytadilar va

buning sababini asoslab beradilar. Masalan, xolerik temperamentli bola yaxshi andoza yasovchi usta slesar bo'la olmaydi, chunki unga mikronning o'ndan bir ulitigacha aniqlikka erisha borib, uzok vaqt o'lov asboblarni ishlash qiyinlik qiladi, yoki melanxolik tez javob berishni talab qiladigan mashinalarni boshkarishni muvaffaqiyatli egallab ololmaydi. Sezgi a'zolarida biron-bir nuqsoni bo'lgan bolalarga bu kasblarni tavsiya qilib bo'lmaydi. Masalan, ba'zi rang-tuslarni farq kila olmaydigan (daltonik) bolani xar qanday transport turini boshkarishga ko'yib bo'lmaydi. Ko'rishida shunday kamchiligi bo'lganlar metallurg bo'lib ishlashi mumkin emas. Vestibo'lyar apparati buzilgan o'quvchilar uchuvchi, dengizchi, yuqori inshootlar montajchisi bo'la olmaydilar.

Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarining bugungi qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

Buning uchun har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan ongli yashaydigan komil insonlar etib voya yetkazish – ta'lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim – tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi.

Yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash - g'oyat muhim vazifadir. Shu boisdan yoshlarning kasb tanlash muammosi o'rta umumta'lim maktabi ishida katta o'rin tutadi.

«Kim bo'lsam ekan?» degan savol har bir yigit va qiz uchun eng asosiy muammolardan biridir. Odamning shundan keyingi butun hayoti ana shu muammoni hal qilishga bog'liq. Kasbni to'g'ri tanlash mehnatda va ijtimoiy faoliyatda eng yuksak ko'rsatkichlarga erishishga yordam beradi, mehnat jarayonida va uning natijalaridan qoniqish esa ijodkorlikni eng ko'p namoyon etish, eng yaxshi hissiy kayfiyatda bo'lish, tanho bir kishining ham, umuman jamiyatning ham barcha hayotiy rejalarini bir muncha to'la amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'oziev E.G'. O'quvchilarning umumlashtirish usullariga o'rgatish va ularning

aqliy taraqqiyoti. T., 1983 y.

2. Практикум по психодиагностике, Дифференциальная психометрика. (Под ред. В.В.Столина, А.Г.Шмелева. М: Изд-во М., Ун-та, 1984 г. 154

3. Практическая психология образования: Учебник для студентов высших и средних учебных заведений. Под ред. И.В.Дубровиной. - 2- е издание. - М.: ТЦ «Сфера», 1998.

ЎҚУВЧИЛАРДА ЭМОЦИОНАЛ ЗЎРИҚИШНИ ЮЗАГА КЕЛИШИ ВА УНИ БАРТАРАФ ЭТИШ УСУЛЛАРИ

Нарзиев Рашид Абдирайимович

Сурхондарё вилояти Музработ тумани 30 мактаб психологи

Кейинги пайтларда стресс, тушкунликка тушиш, эмоционал зўриқиш каби сўзлар тез-тез қўлланиладиган бўлиб қолди. Бу ҳолат баъзида оилавий ажримлар, баъзан ўз жонига қасд қилишга уринишдек хунук оқибатларни келтириб чиқараётгани одамни ташвишга солади. Бу ҳолат ўқувчи шахсида ҳам салбий ҳолатлар билан намоён бўлиши мумкин. Биз кўпинча бу ҳолатни умумий тарзда “Стресс” деб номлаймиз.

“Стресс” инглизча сўз бўлиб танглик, зўриқиш, босим деган маъноларни англатади. Оддий тилда тушкунликка тушиш, рухий зўриқиш дейилади. Бу баъзида оз фурсат, баъзида узоқ вақт кечиши мумкин. Иккала ҳолатда ҳам инсонга зарар етказилади. Яъни, ақлий фаолиятнинг сусайиши, юрак уриши тезлашиши, қон томирлари кенгайиши, ички касалликлар – ошқозонда яллиғланишлар келиб чиқишига сабаб бўлади. Стресснинг салбий томонларидан яна бири мияни тормозлаб, маъносиз фикрлайдиган даражага тушириб қўйиши мумкин. Агар одам тез-тез тушкунликни бошидан кечирса, атрофдагилар билан гаплаша олмайдиган ҳолатга тушади. Стресс натижасида инсон ўзига паст баҳо бера бошлайди.

Оқибатда ўзини ёлғиздек, яқинларига кераксиздек ҳис қилади. Секин-аста руҳий тетиклик йўқола бошлайди.

Руҳий зўриқишнинг илк белгилари ўқувчиларда қандай намоён бўлади?

- Доимий безовталиқ, тушкун ҳолатда юриш, баъзида бу ҳолатлар ҳеч қандай сабабларсиз юзага келади;

- Ёмон, нотинч уйқу;

- Дикқатни камайиши, бу ўқиш ёки ишлашни қийинлаштиради. Хотирадаги муаммолар ва фикрлаш жараёнининг секинлашиши;

- Бошқаларга, ҳатто энг яхши дўстларга, оила ва яқин кишиларга қизиқишнинг йўқлиги;

- Иштаҳанинг пасайиши — баъзида эса аксинча: озиқ-овқатни ортиқча еб юбориш;

- Кўпинча асабий одатлар ривожланади: киши лабини тишлайди; тирноқларини тишлайди ва ҳоказо. Кишида бепарқлик, одамларга ишончсизлик пайдо бўлади

Ўқувчи шахсида руҳий зўриқиш – уннинг эмоционал ҳолати билан боғлиқ. **Баъзи ёшларда физиологик ёки психологик стресс ҳолати кузатилмаса-да, ҳаётдан зерикиш, ўзидан қониқмаслик, яшашга бўлган истак камайиб кетади.** Бу ҳолат инсон ёшлиқда ёки ҳаёти давомида яқин одамидан қўнгли тўлмаёй яшаши натижасида йиғилиб қолган танглик оқибатида пайдо бўлади. Ижтимоий ҳаётда ўз ўрнини тополмаслик, атрофдагилар томонидан тан олинмаслик натижасида йиғилиб қолган асоратлар ҳам сабаб бўлиши мумкин. Бу омиллар бир кун келиб таъсирини кўрсатади. Ўзини камситилгандек ҳис қилиш, ҳаётнинг қизиғи йўқдек туюлиши натижасида ёлғизланиб қолади ва жонига қасд қилиш ҳақида ўйлай бошлайди. Жонига қасд қилиш иродасизликдан келиб чиқади. Ҳаммасига нуқта қўйсам, қутуламан, деб ўйлайди. Бундай аянчли ҳолга келишдан аввал атрофдагилар бу вазиятда ўзларини ижобий таъсирларини ўтказиши лозим.

Олимларнинг фикрича ўқувчиларда эмоционла зўриқиш ўсмирлик даврида кўп учраб экан. Бунинг асосий сабабини улардаги жисмоний ва руҳий ўзгаришлар жадаллигини айни мана шу ёш даврларига хослиги билан изоҳлаб ўтишган.

Америкалик психолог А.Гезелл ўсмир ёшининг даврланишига алоҳида эътибор қаратиб, ўзига хос хусусиятларни шарҳлаб ўтган эди, улар қуйидагича:

10-ёш ўсмирлар мувозанатли ҳаётни тез идрок этувчи, ишонувчан, ота-оналарига итоатли, ташқи қиёфа ҳақида эътиборсиз бўлганлиги боис бу “олтин ёш” ҳисобланади.

11-ёш организмда қайта қуриш юз беради, болалар ғайри шуурли, негативликни намоён қилади, кайфияти тез ўзгаради, ота-оналарига нисбатан норозилик билдирувчи.

12-ёш тез жазавага тушувчан, дунёга нисбатан ижобий муносабат шаклланади, ўсмирда оиласига нисбатан автономлик ва тенгдошларига таъсири ортади. Уларда ақллилик, ҳазил-мутойибага мойиллик, чидамлилик, ташаббускорлик, ташқи қиёфа ва қарама-қарши жинсдагиларга эътибори орта бошлайди.

13-ёш ўзининг ички дунёсига эътиборлилик, интровертликка хос бўладики, улар ўзини ўзи танқид қилишга ва танқидларга нисбатан таъсирланувчан, ота-оналарга танқидий муносабат билдирувчи, дўст танловчи, тўлқинланиш ва ҳаяжонланиш ортади.

14-ёш ўсмирлардаги интроверсия-экстрроверсияга алмашинади, шижоатли, хушмуомала, ўзига ишонч уйғонади, бошқаларга эътибори ортади ва улар ўртасидаги фарқни ажрата бошлайди.

15-ёш бу ёшдагилар учун мустақиллик ортади, бу эса уларнинг оила ва мактаб билан боғлиқ зўриқишларга дучор этади. Уларни гуруҳли ҳаракат қилишга ва гуруҳдагиларга мослашишга интилиш ортади.

16-ёш ўспиринлар ҳисобланиб, уларда мувозанатлашув, ҳаётдан қувониш, ички мустақиллик, эмоционал барқарорлик, муомалага мойиллик, келажакка интилувчанлик ортади.

Психология, педагогикага оид адабиётларда ўсмирларнинг 11-12 дан 15-16 ёшдаги бўлган даври жинсий етилиши, фаол жисмоний ўсиш, шахс сифатида шаклланиш даври деб сифатланади. Айни шу даврда инсонларнинг феъли, ижтимоий ўзаро муносабатлари шаклланиб, одамларга атроф воқеаликка бўлган

муносабатлари ҳам яққол кўзга ташлана бошлайди. Айтиш жоизки, айнан шу ёшдан бошлаб, ўз-ўзини англаш, болалик ҳис – туйғуларини катталар дунёқарашига ўзгариши, шахсни ички «мени» ва уни англаш даври бошланади. Бу даврда айниқса, ундаги ўзгаришларга жиддий эътибор қаратиш талаб этилади.

Айни шу даврда ўқувчи ёшлардаги рухий зўриқишларни бартараф этишда психолог мутахассислар томонидан қуйидагилар тавсия этилади:

- Очик ҳавода кўпроқ сайр қилиш;
- Ўзи севган машғулоти учун вақт ажратиб маълум вақт шуғулланиш;
- Уйқу нормал ва соғлом бўлиши учун организмга мелатонин деб аталадиган

гормон керак. У гормон Б гуруҳи витаминлари қабулидан кейин ортади, бу витамин эса гуруч, буғдой, арпа, писта уруғи, қуритилган ўрикда кўп бўлади. Айнан шу маҳсулотларни истемол қилиш;

- Спорт билан мунтазам шуғулланиш.

Юқорида тавсия этиб ўтилганлар ўқувчи шахсида юзага келган эмоционла зўриқишларни олдини олиш ва бартараф этишда муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Жуманазаров Й. Ёш даврлар психологияси. Наманган 2013 й.
2. Абдурасулов Р. “Психологнинг кундалик китоби”. Жиззах – 2005.
3. Рахматуллаев М. “Мактабда психологик хизматни ташкил этиш” Т.– 2001.

ЎЙИНЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРДА ЖАВОБГАРЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

*Нарзиев Рашид Абдирайимович
Сурхондарё вилояти Музработ тумани 30 мактаб психологи*

Биз учун ҳеч қачон кун тартибидан тушмайдиган ўта муҳим масала-бу ўниб ўсиб келаётган ёш авлодимиз, фарзандларимиз тарбияси билан боғлиқ. Биз бир ҳақиқатни ҳеч қачон унутмаслигимиз лозим: ота-она, жамият эътиборидан четда

қолган бола, оилага қувонч ва фойда ўрнига фақат ташвиш келтиради. Шу боис бола тарбияси, ёшлар билан ишлаш биз учун энг муҳим ва долзарб вазифа бўлиб қолиши шарт.

Ҳар қачон ўз долзарблигини йўқотмайдиган масала бугунги ёшларимиз ва уларнинг ички рухияти билан боғлиқ. Инсонни ҳар бир ҳаракати рухияти орқали амалга оширилади.

Бугунги кунда таълим соҳасида дарсни ҳар хил технологиялар ёрдамида ўтиш замон талаби ҳисобланади, бундай усуллар билан эса, ёшларни ва талабаларни ўзларидаги психологик ҳиссиёт ёки хусусиятларини очиб беришга имкон яратилади. Педагог ва психолог жамоаси эса, талабалар билан ишлашда улардаги намоеён бўлган хусусиятларни илғаб олиб улардаги шахс сифатларини шакллантиришга ҳаракат қилади.

Психологик ўйинли методикалар буйича кўплаб психологлар илмий изланишлар олиб борган, улардан Л.И.Бажович тадқиқотларида ўйин орқали инсон ўйинда рольларни ижро этади ва қоидаларга буйсунади. Рольни ижро этаётиб эса, ҳаётдаги бир инсонларга тақлид қилади. Бу ҳолат улардаги ички интилишлари демакдир.

Муаллифнинг эътироф этишича, инсон қоидаларга ўйинда мажбурий эмас балки ўз хохишига кўра бўйсунади. Ўйин орқали инсон қувонч ва қониқишни ҳис этишади.

Л.И.Бажовичнинг фикрича бошланғич синф болаларида мактаб қоидаларини унчалик бажармайдиган ўқувчига ўйинда буни қилишга мажбур қилиш керак, шунда у ўзини намуна қилиб кўрсатишга ҳаракат қилиши ҳақида айтган, биз эса бу усулни талабаларда ўйиндаги қатъий қоидалар деб уларга аслида ҳаётда қўйилган нормаларни тушунтирамиз ва шу рольни бажаришни айтамыз ва талаба ўз-ўзидан ўзи учун одатий ҳисобланган бу ишни қилишга ситқидилдан киришади. Бу ерда талаба —ўйинда роль ижро этияпман ўз рольимни яхши бажаришим керак! деган фикр билан ёндашади. Оқибатда ўзи бу қоидаларни бажариш унчалик қийин эмас эканлигини ҳис қилиб хулоса чиқаради. Демак бу усул уларда шахсий сифатларни ривожлантириш учун имконият яратади.

И.В. Селеванов барча иродавий сифатлар шунингдек, жавобгарликни шакллантириш усуллари методларини 4 та асосий гуруҳга ажратади. Биринчи гуруҳга бевосита одамни англашига йўналтирилган иш методларини киритиш мумкин бўлиб, англашнинг мақсади унда тўғри хатти харакатлар учун зарур ишонч ва тушунчаларни яратишни кўзда тутаяди. Бу тушинтириш, ўқиш, суҳбат барча жамоавий муҳокама шакллари бўлиб, унда танқид ва ўз-ўзини танқид қилиш ёрқин номон бўлаяди. Бу методлар билан биргаликда қўллаш учун ишонтириш методини ҳам айтиш мумкин.

Иккинчи гуруҳга инсонга амалда жавобгарлик хулқ-атворини мустаҳкамлаш ва ривожлантиришга ёрдам берувчи методлар киритилади. Бу машқлар методидир.

Учинчи гуруҳга жавобгарликни шакллантириш устида ишлашга инсон иродавий кучини оширувчи кўп сонли методлар ва усуллар киради. Бу рағбатлантириш, талаб қилиш ва мажбурлаш методикаларидир.

Тўртинчи гуруҳга В.И.Селеванов ўз устида тарбиявий ишлаш метод ва усуллари киритаяди. Бу эса ўз-ўзини тарбиялаш методларидир. Демак, шу нарсани ёдда тутиш керакки, юқорида айтиб ўтилган методлар ва усуллар тўлиқ экспериментал характерга эга. Жавобгарликни агар уларни ижтимоий мазмун билан тўлдирилсагина шакллантириш мумкин.

К.Муздибаевнинг таъкидлашича, жавобгарликни шакллантиришда унга берилган топшириқни эмоционал хис қилиши унинг муҳимлилигини англаши, ўз фаолиятини нафақат ўзига балки бошқа одамларга ҳам зарурлигини англаши керак.

Масъулият концепцияси –ўз харакатлари учун жавобгарлик мажбурияти ҳисобланиб, у шахс статусининг муҳим компонентлари сирасига киради. Чунки шахс статуси унинг иродавий сифатлари, жавобгарлик ва албатта масъулият билан боғлиқ.

Ресник талқинича, —ўқувчи-талабалар ўз билимларини муайян масалаларни ечишда татбиқ эта олсаларгина уларда билим ва ижодий фикрлаш ривожланади.

Ўқувчи талабаларнинг ўқув фаолиятида интерактив усуллар, ўйинли технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигига эришишда муҳим омил

эканлигини исботлаб келмоқда, айниқса ўқувчи талабаларни эркин фикрлаши, ўзи шахсий қарорлар қабул қилиши ўзларига бўлган шончни ҳам орттиради.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, инсонларда иродавий сифатларни шаклланишида жавобгарликнинг ўрни катта. Шундай экан биз таълим жараёнида ҳа бир семинар дарсларни ташкил этишда катталар учун мўлжалланган рольли ўйинлар ва улардаги муаммоли вазиятларни бериш улардаги масъулиятни шакллантиришда туртки бўлади.

Жавобгарлик ҳиссининг шакллантиришда муҳим ҳисобланган уйинли психологик методикалар уларнинг ўқув материалларини ўзлаштиришда ҳам катта аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мухина В.С. Возрастная психология. Москва., Академия-1997.С432
2. Миллер С. Психология развития. - СПб.:Питер, 2002. – 464с
3. Иванова Т.Ф. Изучение и формирование ответственности у младших школьников. Дисс. 2006, С 126

BOLADA SALBIY O'ZGARISHLARNI KELTIRIB CHIQARUVCHI TASHQI TA'SIRLARNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

So`fiyev Husan Akmalovich
Surxondaryo viloyati Muzrabot tumani 12 maktab psixologi

Inson tug'ilganidan to umrining oxirigacha rivojlanishda bo'ladi. Inson rivojlanishi murakkab jarayon. Bu rivojlanish tashqi ta'sirlar va ichki kuchlar ta'sirida kechadi. Tashqi ta'sirlar bu insooni o'rab turgan atrof-muhit bo'lsa, ichki ta'sir esa biologic, irsiy omillar hisoblanadi. Bolalarda ham xuddi shunday kechadi.

Bola shaxsining shakllanishida, ijtimoiylashuvida ijtimoiy muhit muhim ahamiyatga ega. Bola sekinlik bilan ijtimoiy muhitni o'zlashtiradi. Aksariyat bolalar rivojlanishi dastlab oilada boshlanadi, keying rivojlanshi esa maktabgacha ta'lim

muassasalari, maktab, oliygoh, atrofidagi do'stlari davrasida kechadi. Bola doimo o'zi uchun qulay bo'lgan, atrofdagilari uni tushunadigan, yaxshi aloqa o'rnatadigan muhitni tanlaydi.

Bola shaxsining rivojlanishidagi dastlabgi "hududi" bu - oila. Bolaning shaxsining rivojlanishida oila muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin shunday bo'lsa-da, oilada bola shaxsida salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi bir necha omillarni kuzatishimiz mumkin. Misol tariqasida shularni aytishimiz mumkin-ki, ota-ona ajrimi, moddiy yetishmovchilik, otasi bilan yoki bo'lmasa onasi o'rtasidagi tushunmovchilik, oilada e'tiborning yetishmasligi, ota-onaning farzandlariga baravar muomulada bo'lmasligi kabilar.

Ota-ona ajrimini ta'sir ko'satishini aytadigan bo'lsak, buning natijasida bolaning oilada ota yoki onasining mehriga to'yimasligi, tengdoshlari yonida kamsitilishi o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga olib keladi. Bolaning dunyosi ikki qismdan iborat: biri otasiga, boshqasiga onasiga tegishli. Bu ikki qism ajrab ketsa, usha ikki dunyosi parchalansa, bola ham haqiqiy iztirobni boshdan kechiradi. Katta yoshlilar buni yodda saqlashi zarur. Usha holatda bolaning boshi og'riy boshlaydi, qo'rqinchli tushlar ko'radi. Ayrim vaziyatlarda o'zi uchun qaltis harakatlarni qilib, natijada biror joyiga zarar ham yetkazishi mumkin.

Bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan muhim "hudud"lardan yana biri bu - maktab hisoblanadi. Bu bosqichning boshlang'ich sinfdan boshlab yuqori sinfgacha mujim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinfda ko'proq bolaning nutqini rivojlantirishga e'tibor qaratishga kerak. Agar e'tibor qaratilmasa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin ya'ni muloqotga kirishga qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Shuningdek maktab davrida bola shaxsining rivojlanishi uchun muhim hisoblangan tafakkur, intellekti, diqqat, kognitiv faoliyatini, xotirasini ayniqsa shaxslararo munosabatini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Shaxslararo munosabat jarayoni ya'ni bolaning atrofdagi kishilar bilan muloqoti, aloqasini rivojlantirish tufayli bolaning bilimlar, g'oyalar, fikrlar, axborot almashinuvini, turli ma'lumotlar uzatish va qabul qilish, munosabat o'rnatgan odami bilan bir-birini tushunishi ta'minlab berilgan bo'ladi.

Bundan tashqari, bola bitta partada kim bilan o'tirishi, kim eng yaqin o'rtog'i, ularning nima haqida gaplashishi, shuningdek, bola tanaffus va katta tanaffus paytlarida kimlar bilan yaqin munosabatda bo'lishini aniqlash lozim. Bu ishlarni albatta o'qituvchi va psixolog hamda ota-onalar hamkorlikda olib boradilar. Biroq, bu tekshirishlar bolaning izzat-nafsiga tegmasligi kerak, iloji boricha bola bu haqida bilmasligi kerak.

Bolalarda shu salbiy illatlarni yo'qotish, ularni zamon talablari asosida tarbiyalash birinchi navbatda o'qituvchi, psixolog ko'pincha ota-onasi zimmasiga tushadi. Shunday ekan tarbiyachi-o'qituvchi, psixolog ota-onalar bilan kelishgan holda bolalarda paydo bo'layotgan nuqsonlar ildizini o'rgangandan keyin tarbiya ishiga kirishadilar. Tarbiya ishlari har bir sinfda har metod bilan olib borilishi zarur. Bu yerda maktab o'quvchilarining yosh xususiyatlarini ham inobatga olgan ma'qul. Shundagi-na biz kutagn natijaga erisha olamiz.

Dunyoni ishlarini qarang-ki, stress deganimiz yosh tanlamas ekan. Bola shaxsining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan yana biri bu-stressdir. Bolaning yoshi, o'tish davri, jinsidan qat'i nazar stressga tushish hollarini kuzatishimiz mumkin. Bolaning ichki dunyosi ruhiyati uchun yangi nimadir bilan buzib yuborilganda bolada stress holati yuzaga kelishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi davrni aytadigan bo'lsak bola bog'chaga qatnay boshlagani uchun yaqin odamlarini ko'rmaslik, hojatxonaga mustaqil boorish, atrofdagi yangi odamlar bolada stressni yuzaga keltirib chiqaradi. Shuningdek, bu shifokor yoki sartaroshga borish, dori ichish bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Bolaning bu voqealarga munosabati birinchi navbatda yaqinlarining ko'proq ota-onasining qanday qabul qilishiga bog'liq.

Odatda ko'pchilik ota-onalar boladagi stressni payqashmaydi. Bolada kechayotgan stressni bolaning normal o'sish va rivojlanish jarayonida kuzatiladigan holatlardan farqlab olishi qiyin boladi. Agar farzandi stressni boshidan kechirayotgandek tuyulsa, zudlik bilan buning sabablarinianiqlashi lozim. Bolalar o'zini nima bezovta qilayotganini har doim ham so'z bilan ifodalay olmaydi, shuning uxhun ham bu borada ota-ona ruhshunos, psixolog yordami bilan bolada kechayotgan o'zgarishlarni, salbiy sabablar, stressni bartaraf qilish usullari bilib olishi zarur hisoblanadi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, ota-onalar bola stress vaziyatiga imkon qadar kechroq to'qnash kelishiga harakat qilishi lozim.

Salbiy omillardan yana biriga to'xtaladigan bo'lsak bu – qo'rquv. Bolalardagi an'anaviy qo'rquvlar haqida ham unutmaslik kerak. Ular ham psixolog, ruhshunoslar fikricha bola shaxsining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi sabablardan biri hisoblanadi. Qo'rquv haqida gap borganda dastlab, bolani yolg'iz qolishdan instinktiv qo'rqishi haqida bormoqda. Doim o'z oilasi bilan birga bo'lishga intilish har bir oilaning ongida tabiataan mavjud. Masalan, farzandingiz gapingizga kirmasa “ yalmog'izga berib yuborish” ko'chaga chiqarib qo'yish shart emas. Kattalar uchun beozor tuyulgan bunday gaplar yosh bolalar uchun o'ta jiddiy hisoblanadi.

Yana bir narsani alohida ta'kidlashimiz kerak-ki, ayrim ota-onalar farzandlarini kiyintirishda jiddiy xatoga yo'l qo'yadilar, ushbu goh boyligini ko'z-ko'z qilish uchun, goh avvalo yolg'iz bolam deb, qimmatbaho kiyim-kechak, qizlarga rang-barang taqinchoqlar olib beradilar. Bu bolalarda takabburlik, xudbinlik, kibrli yashash kabi illatlar keltirib chiqaradi.

Tarbiya tarixiy-ijtimoiy tajribaga tayangan holda bolani umuman shaxsni ma'lum maqsad asosida ijtimoiy hayotga tayyorlovchi faoliyat jarayoni hisoblanadi. Jamiyat ma'naviyati va shaxs kamolotida muhim o'rin tutuvchi ma'naviy va axloqiy poklik, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari fazilatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi. Yuqorida aytib o'tganlarimizning asosida oila, maktabgacha ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar tizimlarida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya mazmuni yotadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni zamon talablariga mos, barkamol inson bo'lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiya ya'ni, aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy hamda jinsiy tarbiyani tashkil etish bola shaxsining rivojlanishiga albatta ijobiy ta'sir ko'rsata oladi va biz kutgan natijani beradi.

Hayot qarama-qarshiliklardan iborat. Ko'pincha qandaydir yangiliklar yaratilishi, muhim ishlarning oshirilishi turli qarama-qarshi fikrlar yuzaga kelishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalar haqida shunday qarama qarshi fikrlar ko'plab uchraydi. Kompyuter, mobil telefon, planshet va smartfonlar foydalanuvchilarga yordam berish

maqsadida hayotimizga kirib kelgan bo'lsa, endi hayotimizning bir qismiga aylandi desam adashmayman.

Hozirgi kunga kelib, nafaqat kattalar balki jajji bolajonlar ham ulardan foydalana boshladilar. Ma'lumki, go'dak dunyoga kelgan kunidan boshlab onasi bilan emotsional bog'liq. Ko'pincha go'daklik chog'idanoq atrof-olamni faqat onasi orqali taniy boshlaydi. Bugungi kundagi yosh onalarimiz esa farzandlarining dunyoga kelgan dastlabki kunlaridanoq go'daklari ko'z oldida zamonaviy qurilmalardan foydalanadilar. Hatto smartfon kabi mobil telefon bilan birga "nafas oladilar". Bunday holat tabiiy-ki bola ulg'aygandan so'ng ham davom etadi. Ayrim ota-onalar o'z ishlarini bajarib olish uhun bolalarning qo'liga mobil telefon berib qo'yadilar.

Bunday holatlarning tez-tez takrorlanishi bir necha omillarga sabab bo'lishi mumkin. Bular: bola boshqalar bilan munosabat jarayonida qiyinchiliklarga duvh keladi.doimo qiziqarli multifilm yoki o'yinlar bilan shug'ullanish imkoniyatini taqdim etadigan qurilmalarga bog'lanib bog'lanib qolish odati shakllana boshlaydi. Haqiqiy hayotdagi rivojlantiruvchi o'yin va kitob o'qib erish kabi mashg'ulotlardan bahra olmaganlillari sababli qiziqish mavjud bo'lmaydi, kelgusi o'qish, dars tayyorlashlarida qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shu tariqa onalarimiz farzandlarining tarbiyaviy jarayonlarida xatoga yo'l qo'yadilar.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. M.Vohidov. Bolalar psixologiyasi 1982 9-b
2. R.To'raxonova. Tarbiyasi og'ir bolalar psixologiyasi va ularni tarbiyalash. 5-6-b
- 3.Z.Nishonova, Z.Qurbonova, S.Abdiyev. Psixodiagnostika va eksperimental. 2011. 92-93-b

BUGUNGI KUNDA YOSHLARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI SABAB VA YECHIMLAR

Soʻfiyev Husan Akmalovich
Surxondaryo viloyati Muzrabot tumani 12 maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi kundagi barcha yoshlarning muammolarini batafsil oʻrganish, ularni oldini olish va yordam berish, jamiyat hayotida faolligini oshirish, qobiliyat va liderlik mahoratini oshirishga intilish, bu muammolarini yechimini topishga harakat qilish, ular hayotida psixologik muhitni yaratish va jamiyatda faoliyat olib borishga yordam berish kabilarni oʻz ichiga oladi.

Kalit soʻzlar: muammo, qobiliyat, imkoniyatlar, liderlik, xulq-atvor, xatti-harakat, shaxs, psixologik xususiyatlar.

Hayotiy muammolar, ayniqsa yoshlarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hayotga kirib kelishi, jamiyat hayotiga kirib kelishi pedagog yoki psixologlarni emas, faylasuf va sotsiologlarni ham befarq qoldirmadi. Buning asosida albatta sotsiologik muhit va xulq atvor tarbiya yotadi. Yoshlar aynan shu davrdagi faoliyati uni keyingi faoliyatini belgilab beradi. Bu davrda yoshlarning har biri oʻziga xos qobiliyat va malakasi yashirin bõladi. Buni yuzaga chiqarish uchun esa albatta ozgina xatti- harakat bõlsa kifoya. Zigmund Freyd aytganidek, novatorlik, dinamika va energetik omillar harakat uygʻunligi ya'ni yangilikka intilish, insonni tadrijiy kamoloti, yetuklik evolyutsiyasi xatti- harakatlar faollashuvi insonni uygʻonish jarayonida ekanligini anglatadi. Bundan nimani anglab yetish mumkin, yoshlarning yetuklik davrida bõladigan oʻzgarishlar hammasi pozitiv natijaga olib boradi. Lekin afsuski,hozirgi jamiyatda yoshlar bunday oʻylamaydi. Bunga sabab gʻarb madaniyati kirib kelishi desak mubolağa bõlmaydi. Eng avvalo, yoshlarda fanatiklik holati juda avj olgan. Ular oʻzlariga bitta avliyo darajasidagi insonni topib olib shunga oʻxshashga harakat qilishadi. Bu esa nimadan darak yoshlarni ongi ma'lumotlarini oʻylab oʻtirmasdan qabul qilishida, u yaxshi yoki yomonmi ahamiyati yoʻq va ular yoshlar psixikasiga ta'sir qilishni uddalashyapti. Hattoki, fikrimni tastiği sifatida Birinchi pezidentimiz Islom Karimov oʻz asarlarida: "Ta'lim tarbiya ongning mahsuli. Lekin ayni

vaqtda ong va uning darajasini belgilaydigan omildir. Binobaran ta'lim tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi". Demak, bundan kelib chiqyaptiki yoshlarning muammolarini hal qilish uchun ularning onglarini emas birinchi navbatda ta'lim tarbiyasini to'g'rilash kerak.

Ijtimoiy jamiyatda yashar ekanmiz yoshlarning ijtimoiy - psixologik muammolar kelib chiqishiga yana bir sabab bu ota onalar befarqligi va bolasiga vaqt ajratmaganligi. Shunday ota-onalar borki aynan farzandi yetuklik davridan o'tayotgan paytida unga e'tiborsiz bo'ladi. Nimaga qiziqishini ham so'ramaydi. Mana nimadan kelib chiqadi yoshlarda psixologik muammolari .

- o'zining so'zini to'g'ri deb hisoblash

- yolgiz qolishga moyilli

- e'tibor istashdan kelib chiqadi va ko'pchilik yoshlar internet vertual olamdan o'ziga najot topadi.

Bundan tashqari ko'plab sanash mumkin ular psixikasiga ta'sir etadigan o'yinlar, videolar turli tarmoqlar, ularni hammadan jamiyatdan oiladan uzoqlashtiradi. Natijada yoshlar jamiyatga qo'shilgisi kelmaydi. Jamiyatda shaxslarning yoshlarning xulqi o'zini tutish sabablarini o'rganish tarbiyaviy ahami yatga ega bo'lib masalaning ikki jihati farqlanadi.

A) ichki sababar -xatti harakat egasining subyektiv psixologik xususiyatlari (motivlar ehtiyoj maqsad mo'ljal istaklar)

B) tashqi sabablar-faolyatning tashqi shart sharoitlari va holatlari, ya'ni tashqi stimullar hisoblanadi. Ya'ni yoshlarda qachon psixologik ijtimoiy muammolar paydo bo'ladi qachonki bu ikkita sabablar yo'qolsa yoki umuman bo'lmasa. Yoshlar bunday muammolarga kirib qolmaslik uchun ularda doimo stimull bo'lishi kerak. Hayotning har qanday zarbasiga tayyor turishi kerak. Qachonki insonda maqsad bo'lmasa, uni hayotini mazmuni qolmaydi.

Ayniqsa yetuklik davrida shaxsiy dispozitsiyalar kuchli bo'ladi. Yoshlar o'zlari nima deganini yoki nima uchun bunaqa qilganini yoki qilayotganini anglab yetmaydi. Uni ichki sabablar anglanmagan dispozitsiyalar boshqaradi. Ba'zi paytlarda esa anglangan dispozitsiyalar boshqaradi. Misol uchun ongli ravishda nimanidir o'qishga yoki ishlashga

harakat qilsa, demak u nima qilayotganini anglaydi. Bundan tashqari hozirgi kundagi yoshlar muammoasi muloqot psixologiyasi hisoblanadi. Ya'ni yoshlar kòp muloqot olib bormaganliklari sabablari pand yeyishadi. Kimdir hayotda boshqaruvchanlik liderlik qobiliyati bòladi. Òzining nutqlari bilan butun bir jamoani ham jalb etadi. Biz bu muammoni hal qilish uchun kòproq mashq qilish gapirishni rivojlantirish kerak. Ba'zi yoshlardan shunday ajoyib fikrlar bòladiki, lekin shuni bayon eta olishmaydi. Bu ham bir kamchilik. Bunga bir sabab oilaviy muhit ham hisoblanadi. Oilada farzandni fikri ham albatta inobatga olinishi eshilib kòrilishi kerak. Ota- ona bolani bir marta qaytargandan sòng, uni hech kim gapirtira olmaydi. Yoshlar yetuklik davrida òzligini anglash ham muhimdir. Har bir shaxs yoki individ bir biridan meni bilan farq qiladi. Hattoki Maslou quyidagi fikrni bildiradi. "Òzligini faollashtirish òzini va faqat òzini ròyobga chiqarish uchun intilishdirki, bu ijodiy faollik va xususiy menni tòlaqonli namoyon qilish uchun kabi fazilatlarga ega bòlgan òzini faollashtiruvchi shaxslarning òtandividualligidan dalolat beradi" deya fikr bildirgan. Buning ma'nosi shuki har bir individ mana shu xususiyatlarga ega bòlsa tòlaqonli yetuk shaxs bòla oladi desak bòladi. Mana shunday yoshlar bizning jamiyatga qanot bòladi. Xulosa òrnida shuni ta'kidlash joizki ,yoshlarning ijtimoiy psixologik muammolarini keltitib chiqaruvchi ularning òzlari. Yoshlar òz qobilyat istak maqsad bilan xarakat qilsa hech narsa tòsiq bòlmaydi. Ğoziyev va Azizovalar fikricha "yoshlar faolligini oshirish va ularni ijtimoiy munosabatlar tizimida faolligini rivojlantirishga psixologik xizmatning maqsadi-shaxsnning har tomonlama mukammal psixologik taraqqiyotni ta'minlovchi oqilona zarur shart sharoitlar oqilona muhit yaratishdan iborat. Ya'ni har bir yosh òziga sog'lom psixologik muhitni oilasida kòchada jamiyatda yarata olsa bu muammolarga oqilona yechim bòladi.

Foydalanilgan adabiyotlarro'yxati:

1. I. Karimov " Barkamol avlod - Òzbekiston poydevori" Toshkent -1996.
2. Yoshlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Abduraxmonova Robiya.
3. V.M.Karimova. "Ijtimoiy psixologiya"....Toshkent-2007.
4. Shoumarov.Sh."Muhabbat va oilaviy hayot"- T:.Ibn Sino nashriyoti .-1990.

МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ YOSHIDAGI BOLALARDA ТАФАККУРНИ RIVOJLANTIRISH

Xafizova Gulsanam Normamatovna
Navoiy shahar 21-MTT Ingliz tili o`qituvchisi

Tafakkur ijtimoiy hayot sharoitida shakllanadigan jarayon bo'lib, u dastavval keng predmetli faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Keyinchalik u «aqliy» xatti-harakat xarakterini oluvchi shaklga aylanadi. Tafakkur inson bilish faoliyatining oliy shakli sifatida atrof olamni umumlashtirgan holda vositali aks ettirish imkonini beradi, predmetlar bilan hodisalar o'rtasida aloqa va munosabatlarni tashkil qiladi.

Tafakkur - yangilikni qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir. Bu yangilik sub'ektiv bo'lishi, ya'ni uni kimlardir qachonlardir topgan bo'lishi mumkin, lekin sub'ekt tafakkur jarayoni yordamida o'zi uchun uni yangidan kashf etadi, aks holda biz ko'proq xotira, o'tgan tajribalarimizni qayta tiklagan bo'lamiz. Bolalarni o'qitishda tafakkurning shu muhim xususiyatini asos qilib olish mumkin.

Maktabgacha tarbiya Yoshi - psixik rivojlanishning intensiv bosqichi hisoblanadi. Aynan mana shu yoshdan bolada juda kata o'zgarishlar ro'y beradi, ya'ni psixofiziologik funksiyalarning takomillashuvidan boshlab, to murakkab yangi shaxsiy obrazlarning paydo bo'lishigacha bo'lib o'tadigan jarayonlar sodir bo'ladi. Yangi obrazlarni, xayoliy hodisalarni analiz qilish maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga xosdir, ammo natijalar hamisha ijobiy bo'lmasa ham, bolalar faoliyatini tahlil qilganimizda, biz shu narsaga amin bo'ldikki, bolalar predmetlarni tasavvur qilibgina qolmay, ularning o'zaro bog'liqligini ham xayolan tasavvur qilar ekan.

Tasavvurning rivojlanishi, tafakkurning shakllanayotgan jarayoni bilan tavsiflanadi, bu shakllanish bolaning xayoliy tasavvurlarining ixtiyoriy ko'rsatkichlari bilan bog'liqdir.

Bunday imkoniyat 5-6 yoshli bolalarda yanada yuqoriroq bo'ladi, chunki bola yangi aqliy harakat usullarini juda tez o'zlashtirib oladi. Maktabgacha tarbiya yoshining so'ngida ko'rgazmali-obrazli tafakkurning eng yuqori formasi ko'rgazmali-sxematik

tafakkurning rivojlanishi ko'zga tashlanadi. Ko'rgazmali-sxematik tafakkur tashqi muhitni o'zlashtirib olish uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi, ya'ni har xil predmetlarni va hodisalarni umumlashtirishning modeli uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, tafakkurning ko'rgazmali-sxematik formasi, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning asosiy negizi hamdir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda asosan obrazli, so'z-mantiqli va ko'rgazmali-harakatli tafakkur turi rivojlangan bo'ladi. So'z-mantiqli tafakkur turi esa maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda endi rivojlanish davrida bo'ladi. Mana shuning uchun ham maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning intellektini diagnostika qilish uchun, birinchi navbatda obrazli, so'z-mantiqli va ko'rgazmali-harakatli tafakkur turlariga e'tibor qaratish kerak. Mana shu bog'lanishlar va munosabatlar tufayli bolalardagi obrazli – so'z-mantiqli va ko'rgazmali-harakatli tafakkurni diagnostikalash uchun, biz har ikkala tafakkur turining muhim jihatlarini inobatga olgan holda, ushbu tafakkur turlariga quyidagi metodikalarni tavsiya qilamiz.

1. Obrazli, so'z-mantiqli tafakkur turini baholash uchun metodikalar:

- a. «Mantiqsiz tasvirlar» metodikasi
- b. «Yil fasllari» metodikasi
- c. «Bu yerda nima ortiqcha?» metodikasi
- d. «Rasmlarga qanday predmet yetishmaydi» metodikasi
- e. «Guruhlarga bo'lib ko'r-chi» metodikasi

2. Ko'rgazmali-harakatli tafakkur turini baholash uchun metodikalar:

- a. «Konturlarni birlashtirish» metodikasi
- b. «Labirintdan chiqish, yo'lini top» metodikasi
- c. «Figuralarni qirqib chiq» metodikasi
- d. «Tasvirlarni ko'chirish» metodikasi

Bog'cha yoshidagi bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Tafakkur bolaning bog'cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish, hayron qolish va natijada turli savollarning tug'ilishi tufayli paydo bo'ladi. Ayrim otaonalar va tarbiyachilar agar bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar, “ko'p mahmadona bo'lma”,

“sen bunday gaplarni qayerdan o‘rganding”, deb koyib beradilar. Natijada bola o‘ksinib, o‘z bilganicha tushunishga harakat qiladi va noto‘g‘ri tafakkur ularda rivojlanib boshlaydi. Bunday bolalarga turli mashg‘ulotlar va sayohatlarda kattalarning o‘zlari ham savol berishlari va shu bilan ularni faollashtirishlari lozim. Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. Shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur deb ataymiz. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar xotirasini rivojlantirish metodikalari.

Inson dunyoga kelar ekan, asta-sekinlik bilan butun olamni tanib, ilg‘ab boshlaydi. Uning tashqi ta‘sirlarga javob reaksiyasi ham tobora kuchayib boradi. Bu jarayonlarning barchasi birdaniga sodir bo‘lib qolmasdan, balki, turli xil omillar aralashuvi natijasida yuzaga keladi. Ya‘ni, insonning bilish jarayonlari, hissiy-irodaviy sohasi, tashqi o‘zgarishlar jamlanib insonni olamga, olamni esa, insonga tanitib boshlaydi. Ana shunday jarayonlar sodir bo‘lar ekan, bunda albatta xotiraning o‘rni bo‘lakdir. Chunki, agar tashqi olamning bosh miya katta yarim sharlari qobig‘ida hosil bo‘ladigan obrazlari, timsollari va ularning izlari yo‘qolib ketaversa, tajribaning saqlanishi, bilimlarning boyishi, murakkablashishi, muayyan tartibga kelishi, qaytadan jonlanishi mutlaqo mumkin bo‘lmas edi.

Biz bilamizki, individning o‘z tajribasini esda saqlashi, esda olib qolishi va keyinchalik uni yana qaytadan esiga tushirishi xotira deb ataladi. Xotira insonni kelajagini, tarixini, butun yashash jarayonini anglatib, eslatib turuvchi jarayondir.

Xotira individ dunyoga kelganidan rivojlana boshlaydi. Uni rivojlantirishda turli xil metodikalar, mashqlar va o‘yinlardan foydalaniladi. Bugun biz, kichik maktab yoshidagi bolalar xotirasini rivojlantirishda foydalaniladigan metodikalar va ularning ahamiyati haqida so‘z yuritamiz.

Xotiraning rivojlanishi bola bilan ishlashda ta‘limning qaysi metodlari ustunligiga, uni o‘rab turgan muhit idrok obrazlari bilan qanchalik boyligiga bog‘liq. Xotirani rivojlantirishda juda ko‘p metodikalardan foydalaniladi. Yosh davrlari va ontogenez psixologiyasi sohasida qiyoslash metodi turli yoshdagi odamlarning bilish jarayonlari, shaxsiy xususiyatlari, bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatlari, aqliy qobiliyatlarining o‘ziga

xosligi va farqlarini o'rganishda qo'llaniladi. Intellektual testlar xotiraning mahsuldorligi yoki noyob xislatliligini aniqlashda qo'llaniladi. Bevosita esda olib qolish xususiyatlarini piktogramma, ya'ni rasmlı assotsiatsiyalar metodi orqali ham o'rganish mumkin. Sinaluvchi aniq so'zni rasmdagi tasvir orqali eslab qolishi kerak. Sinaluvchi so'z va tasvir o'rtasidagi aloqani o'ylab topishi kerak, bu esa keyinchalik so'zni qayta esga tushirishga yordam beradi.

R.Meyli testi 1961-yilda ishlab chiqilgan bo'lib, 7-14 yoshli bolalar va kattalarning ko'rish va eshitish xotirasini o'rganishda qo'llaniladi. Bu metodika orqali sinaluvchining esda olib qolish qobiliyati o'rganiladi. Bu tadqiqotlar bir kunda o'tkazilmaydi. Yana bir metodikalardan biri obrazlarni eslab qolishga yo'naltirilgan va "Obrazlar bo'yicha xotira metodikasi" deb ataladi. Metodikadagi obrazlarni (12 ta rasm) sinaluvchiga 20 sekund mobaynida o'rganish tavsiya etiladi. Obrazlarni eslab qolish lozim va 1 minut ichida blankada aks ettirish lozim.

Ko'rib esda olib qolingani qayta tiklash metodikasi - ko'rish xotirasi xususiyatlarini D.Veksler (1945) taklif etilgan metodika yordamida o'rganish mumkin. Bu metodika xotira shkalasini o'rganish subtestlaridan biridir. Bundan tashqari xotirani rivojlantiruvchi mashqlardan: "So'zlarni aytib ber", "Sonlar ketma-ketligini top", "Predmetlarning o'rnini top" kabilar ham kichik maktab yoshidagi bolalar xotirasini rivojlantirishda foydalaniladi.

Umuman aytganda bolalarning xotirasini rivojlantiruvchi metodika va mashqlar turlitumandir. Ularni rivojlantirishda metodikalardan foydalanish albatta yaxshi natija beradi. Shuningdek, xotirani rivojlantiruvchi mashqlar uni rivojlantiribgina qolmasdan, balki, kichik maktab yoshidagi bolalar xotirasini mustahkamlashda ham foydalaniladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, eng avvalo, yoshlarning ongini, tafakkurini o'zgartirsak, tafakkur darajasini yanada o'stirishga erishsak, bolalarda ijtimoiy muhitdan ajralib qolish, nutqiy kamchiliklar, idrok etish, xotiraning sustligi, tafakkurning cheklanishi kabi salbiy jarayonlarni oz bo'lsada bartaraf qilishga erishgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergash G'oziyev "Umumiy psixologiya" Toshkent 2010. { 458-463-b }

2. Sh. A. Dustmuhamedova, Z.T.Nishanova, S.X. Jalilova “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya” Toshkent 2014. { 110-112 b }

3. Z. T. Nishanova, Z.Q.Urbanova S.Abdiyev “Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya” Toshkent-2011. {49-66 b }

BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY SHAKLLANISHIGA BILINGVALLIKNING TA'SIRI

*Xojiyeva Mushtariybegim Abdusamad qizi
Toshkent shahar Olmazor tumani DMTT ingliz tili o'qituvchisi*

Tarixiy adabiyotlarni ko'rib chiqish ikki tilli va zukkolik o'rtasidagi munosabatlarni 1920-yillarning boshlarida aql psixometrik testlarining tobora ommalashib borishi bilan ilmiy tadqiq etish boshlandi. Intellektual testlarning og'zaki xususiyati tufayli o'qituvchilar va psixologlar bir xil edilar. Bilingualizmning aql-idrokni sinash ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlashdan manfaatdor bolalar “Ikki tilli bolalar ba'zilaridan lingvistik kamchiliklar aziyat chekishi asosiy muammo edi, bu ularning aql-idrokini adolatsiz baholashga olib keladi”.¹² Dunyo aholisining yarmidan ko'pi bilingval yoki multilingual: "Evropaliklarning 56% ikki tilli, Buyuk Britaniyada aholining 38%, Kanadada 35% va Qo'shma Shtatlarda 17% ikki tilli" (ko'p madaniyatli Amerika: multimedia ensiklopediyasi). Shunday ekan bilingvallikning o'zi nima va uning ta'rifi qanday?! Ikki tilli ta'rifning turli xil talqinlari mavjud. Asosiy savol shuki „Kimnidir ikki tilli deb hisoblash uchun ikkita til mavjud bo'lishi kerak”,¹³ ammo har bir jihatni qamrab oladigan to'liq ta'rif mavjud emas. Xo'sh, biz bilingualizmni nimani ko'rib chiqamiz? Bir nechta tadqiqotchilar bu savolga javob berishga harakat qilishdi. Grosjanning nazariyasi (1998) shundan iboratki, bilingualizm aslida ikki tilning muntazam qo'llanilishidir.¹⁴

¹² Bartha, Cs. (1999): *A kétnyelvűség alapkérdései*. Budapest: Nemzeti Tankönyvkiadó.

¹³ Bartha, Cs. (1999): *A kétnyelvűség alapkérdései*. Budapest: Nemzeti Tankönyvkiadó.

¹⁴ Grosjean, F. (1998). Transfer and language mode. *Bilingualism: Language and Cognition*. 1.3.175-176.

Skutnabb-Kangas (1984) so'zlariga ko'ra, biz kimnidir ona tili darajasida ikki tilda muloqot qila oladigan bo'lsa, biz uni ikki tilli deb atashimiz mumkin.¹⁵

Xougen (1953) bilingualizm ma'ruzachi ikki tilda mazmunli gaplar tuzish qobiliyatiga ega bo'lgandan boshlanadi deb aytadi.¹⁶ Ta'riflarning xilma-xilligiga ushbu hodisaga yaqinlashadigan ilmiy nuqtai nazarimiz ta'sir qiladi. Ko'rinib turibdiki, nazariyalar o'rtasida ba'zi farqlar mavjud; ammo, bitta bitim bor “bilingval” lotinchada “Bi” – ikki, “language” – til ya'ni ikki tilli ma'nosini anglatadi. Bilinguallik esa ikki tillilikdir.¹⁷

Dastlabki to'rt o'n yillikda ikki tilli tilning ta'sirini tekshirish intellektual rivojlanish va funktsiya muhim uslubiy kamchiliklarga duch keldi. Uslubiy muammolar ikki tilli tilning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan aholi. Ushbu tadqiqotchilar duch kelgan eng muhim muammolardan biri bu edi ularning ikki tilli namunalarining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari. Ko'pincha, ushbu tadqiqotchilar o'zlarining ikki tilli namunalarini nomutanosib ravishda kelgan muhojirlar populyatsiyasidan olgan past ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarda klasterlangan. Manuel (1935) yuqori o'qish haqida xabar berdi bir tilli bolalar bilan taqqoslaganda bir tilli 2-8 sinf o'quvchilarining, ammo ancha past ijtimoiy-iqtisodiy muhit. Garchi ijobiy bo'lsa ham ijtimoiy-iqtisodiy holat va ba'zi aniqlashtiruvchi sinovlari ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik allaqachon aniqlangan (Fukuda, 1925), ularning aksariyati yosh tadqiqotchilar talab qilinadigan tadqiqotlarida ijtimoiy-iqtisodiy holatni nazorat qilmaganlar ushbu muhim omil bo'yicha bir tilli va ikki tilli tillarni solishtirishgan. Afsuski, “Ko'pincha ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan past darajadagi ikki tilli tillar badavlat muhitdan kelgan bir tilli bilan taqqoslanar edi”.¹⁸

Ijtimoiy-iqtisodiy maqom va tilshunoslik tajribasi bilan bir qatorda ushbu dastlabki tadqiqotlarda bir necha tilda ko'rib chiqilgan ikki tilli namunalarning maqsadga muvofiqligi holatlar har doim ham maqbul emas edi. Dastlabki tadqiqotlar davomida

¹⁵ Skutnabb-Kangas, T. (1984). Bilingualism or Not: The Education of Minorities. Clevedon: Multilingual Matters.

¹⁶ Haugen, E. (1953). The Norwegian language in America: A study in bilingual behavior. Philadelphia: Pennsylvania Press.

¹⁷ Barac, R. & Bialystok, E. (2011). Cognitive development of bilingual children. Language Teaching. 44. 36–54.

¹⁸ Cummins, J. (1979). Linguistic interdependence and the educational development of bilingual children. Review of Educational Research 49, 222-51.

tadqiqotchilar keng ko'lamli tekshiruv o'tkazdilar ikki tilli populyatsiyalarning xilma-xilligi va ba'zi hollarda, ehtimol bu ikki tilli bo'lishi mumkin namunalar L2 minimal bo'lgan ozchilik tilining bir tilli ma'ruzachilaridan iborat edi ikki tilda gaplashadigan shaxslardan ko'ra, ta'sir qilish (Hakuta & Diaz, 1985). Ushbu tadqiqotlarning katta qismi faqat bittasida tajribaga ega bo'lgan shaxslarni o'z ichiga olgan, odatda ingliz tilida bo'lmagan birinchi til (L1) va ularning ingliz tilini bilish darajasi past bo'lgan guruhlar taqqoslandan.

Boshqa tadqiqotchilar o'zlarining ikki tilli namunalarini ota-onalar asosida aniqladilar ona tillari (Fritz va Rankin, 1934), familiyasi yoki hatto yashash joyi (yilda.) Hakuta va Diaz, 1985). Masalan, Fritz va Rankin (1934) ning namunalarini turkumlashtirgan 7-9 sinf o'quvchilari tillar asosida bir tilli yoki ikki tilli o'quvchilarning ota-onalari tomonidan gapiriladi. Ajablanarlisi shundaki, o'quvchilarning lingvistik ko'rsatkichlari yo'q shaxslarni ikkalasini tayinlashda har qanday tilda qobiliyatlar hisobga olingan lingvistik guruh. Xulosa qilishdan oldin, ammo natijalarni dastlabki tadqiqotlar intellektual faoliyat bo'yicha ikki tilli bilish uslubiy jihatdan umuman ishonchsizdir etishmovchilik, shuni ta'kidlash kerakki, bir nechta dastlabki tadqiqotlar ularga nisbatan qat'iyroq edi ilgari ko'rib chiqilganlarga qaraganda bir tilli va ikki tilli namunalarni tanlash.

Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy shakllanishiga bilingvallikning ta'siri xususida to'xtalar ekanmiz, kasbiy ta'lim jarayonida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorgarligini muhim tarkibiy qismi bo'lgan kasbiy kompetensiyalar, hozirgi zamon mutaxassislarini tayyorlash tizimida kompetensiyalar va kompetentlikning o'rni va ahamiyati qarab o'tilgan. Umumkasbiy fanlarni o'qitish jarayonida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida shakllantiriladigan kasbiy kompetensiyalar majmuasi asoslanganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasi – bu umumiy va umumkasbiy bilimlar, ko'nikmalar, amaliy tajriba elementlari, kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega faoliyatning boshqa turlari masalalarini echishga qobiliyati va tayyorgarligini ta'minlovchi sifatlari majmuidir.

Hozirgi zamon sharoitida mamlakatning ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar bilan bog'liq masalalarini hal etish, shubhasiz, texnika yo'nalishidagi ta'lim

muassasalarida kasbiy kompetensiyalarni puxta egallagan kompetentli kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash bilan ham uzviy bog'liq. SHuning uchun hozirgi davrda mehnat bozori va buyurtmachilarning talablari asosida kasbiy kompetensiyalarni puxta egallagan kompetentli oliyma'lumotga ega kasb ta'limi o'qituvchilari zahirasini yaratish ancha dolzarb hisoblanadi. Bo'lajak mutaxassislarining kompetentligi uchun zarur hisoblangan kompetensiyalar majmuasini aniqlamasdan kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Bartha, Cs. (1999): *A kétnyelvűség alapkérdései*. Budapest: Nemzeti Tankönyvkiadó.
2. Bartha, Cs. (1999): *A kétnyelvűség alapkérdései*. Budapest: Nemzeti Tankönyvkiadó.
3. Grosjean, F. (1998). Transfer and language mode. *Bilingualism: Language and Cognition*. 1.3.175-176.
4. Skutnabb-Kangas, T. (1984). *Bilingualism or Not: The Education of Minorities*. Clevedon: Multilingual Matters.
5. Haugen, E. (1953). *The Norwegian language in America: A study in bilingual behavior*. Philadelphia: Pennsylvania Press.
6. Barac, R. & Bialystok, E. (2011). Cognitive development of bilingual children. *Language Teaching*. 44. 36–54.
7. Cummins, J. (1979). Linguistic interdependence and the educational development of bilingual children. *Review of Educational Research* 49, 222-51.

O`QUVCHILARDA SOG`LOM TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY MUHITNING ROLI

Bo`riboyeva Nafisa Nurmatjonovna
Farg`ona viloyati Beshariq tumani 49-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`quvchilarda so`g`lom tafakkurni rivojlantirish yo`llari va ijtimoiy muhitning ta`siri haqida ma`lumot berilgan.

Kalit so`zlar: erkinlik, tafakkur, o`smirlik, “o`tish davri”, “inqiroz davri”, psixika, tafakkur, emotsionak, avtonomiya, tafakkur, axloq.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin hozirgi davrning eng muhim vazifalaridan biri ushbu jarayonlarga mos keladigan, yangicha va sog`lom fikrlovchi avlodni tarbiyalashdan iborat bo`lib qolmoqda.

Mavzuimiz ob`yekti bo`lgan o`smirlik davri insonni bolalikdan - yoshlikka o`tuvchi va o`z navbatida boshqa davrlardan o`zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davrdir. Bu davr taxminan bolalarning 5-8-sinflarda o`qish paytlariga to`g`ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo`lgan davr oralig`ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1-2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin.

O`smirlik davri ayrim maxsus psixologik adabiyotlarda «o`tish davri», «og`ir davr», «inqiroz davri» kabi nomlar bilan ham ataladi. Bu davrning «og`irligi», «keskinligi», «murakkabligi» shundaki, o`smirlik davrining og`ir, murakkab davr ekanligi ko`plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog`liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o`zgaradi. Bu davrda o`smir hayotida, uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o`zgarishlar sodir bo`ladi. Bu jarayonda o`smir qo`llab-quvvatlash, daldalarga muhtojlik his etib turadi. O`smirlik davriga kelib, ta`lim jarayonida ham o`quvchilarning aqliy faoliyati taraqqiyotida muhim siljishlar yuz beradi. Ularning jismoniy rivojlanishi, jinsiy balog`atga yetishi psixikasida keskin o`zgarishni vujudga keltiradi. O`quv fanlarning ko`payishi, axborotlar tarmog`ining kengayishi fikr yuritishni jadallashtiradi. Bu

jarayonda o`smir tafakkurining sog`lom bo`lib o`shida emotsional holat yetakchi o`rinni egallaydi.

O`smirlik avtonomiyalaridan biri-emotsional avtonomiyadir. Ma'lumki bola dunyoga kelgan ondan boshlab u onasi va atrofida gilarining emotsional, hissiy qo`llab-quvvatlashiga, mehr-muhabbatini namoyon qilishiga, erkalashiga ehtiyoj his qiladi. Bolalar o`z tengdoshlari bilan bo`ladigan o`zaro munosabatlarida nizo-tortishuvlarga duch kelganida va ayniqsa tengdoshlaridan «jabrlanganda», «yengila boshlaganidan», ota-onasidan va atrofida gi yaqinlaridan emotsional dalda, hissiy qo`llab-quvvatlash kutadi va bu borada ularga murojaat qiladi. Agar o`z vaqtida shu hissiy daldani ola olsa, o`zini erkin, tetik, g`olib his qiladi va ular bilan quvonib yuradi.

Yoshlarni avvalo oila tarbiyalaydi. Oilada muhit o`zaro hurmat, oliyjanoblik, halollik asosiga qurilgan bo`lsa, oila boshliqlari o`z vazifalariga sidqidildan qarasalar jamiyatning bunday yacheykasidan yaxshi fuqarolar yetishib chiqadi. Ana shunday sog`lom muhit sog`lom tafakkurga ega bo`lgan shaxslarni shakllantirib beradi. Shuning uchun ham oilani davlatning asosiy tayanchi deydilar.

O`smir yoshdagi o`quvchilarning sog`lom tafakkurga ega bo`lib yetishishida ma'naviy muhitning roli katta. Ma'naviy muhit — jamiyatning hissiy, aqliy va jismoniy kamolot borasida erishgan o`rtacha saviyasi asosida vujudga kelgan talablari va ularning amalga oshishi tartibi. Muhit, odatda, barqarorlikka, bir tekislik va bir xillikka intiladi, uning talablari va ta`siri hammaga birdek — o`rtacha bo`ladi. Uning talablariga javob berish uchun kimlardir o`zini tarbiyalaydi, takomillashadi, o`sadi va hokazo.

O`smir yoshdagi o`quvchilarni nazoratsiz qoldirmaslik, ular taqdiriga befarq bo`lmaslik, ularni ijtimoiy qiyinchiliklarda qo`llab quvvatlash, foydali maslahatlar berib, to`g`ri yo`l ko`rsatish, milliy ma'naviyatimiz va milliy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash hamda ular ongida shukronalik hissini uyg`otish, dahldorlik, omonotdorlik, mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik, halollik, vafodorlik, fazilatlarini rivojlantirish kerak, buning uchun avvalo ota-ona, ustoz-murabbiy, yaqinlar, qavm-qarindoshlar shaxsiy ibrat, shaxsiy namuna, o`zlari ibrat bo`la olishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda bugungi kungda yaratilayotgan keng imkoniyatlardan to`liq foydalanib, yoshlarga bo`lgan e`tiborimizni yanada kuchaytirishimiz lozim. Yoshlar

tarbiyasi bugungi kunda har birimizning asosiy ishimiz bo`lib, unga burch va ma`suliyat nuqtai nazaridan yondoshish sog`lom tafakkurga ega bo`lgan va jismoniy sog`lom avlodni shakllantirish garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G`.B.Shoumarov tahriri ostida “Oila psixologiyasi” T.:2011
2. E.G`oziyev.”Ontogenez psixologiyasi” Nazariy-eksperimental tahlil O`qituvchi” Toshkent “2011

KASB TANLASHDA IKKILANAYOTGAN O`QUVCHILAR BILAN ISHLASH

Ermatova Nilufar Baxtiyorovna
Farg`ona viloyati Beshariq tumani 7-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasb tanlashda ikkilanayotgan o`quvchilar bilan ishlash haqida ma`lumot berilgan.

Kalit so`zlar: mehnat bozori, qobiliyat, layoqat, kasb, kasblar zanjiri, individual, guruhiy, mutaxassis, anketa

Bugungi kunda mamlakatimizda o`quvchi-yoshlarni to`g`ri kasb tanlashlari va hunar egallashlariga katta e`tibor qaratilmoqda. Maktabda kasb tanlashda ikkilanishlar mavjud bo`lgan o`quvchilar bilan individual va guruhiy korreksion ishlar olib borilib ularga qobiliyati, layoqati va qiziqishi asosida kerakli tavsiya va maslahatlar berib boriladi.

Avvalo mehnat bozoridagi holatni tahlil qilib olish zarur. Yildan-yil yangi kasblar paydo bo`layotganligiga e`tiboringizni qaratish lozim.

Aziz o`quvchi, hozirgi kunda, Siz maktabni tugatayotgan paytda kasb tanlashingiz, Sizing taqdiringizni butunlay hal qiladi deb qo`rqmang. Keyinroqdagi tanlovdagi o`zgarishlar, yangi mutaxassislikni o`zlashtirish, Sizni fanlararo faoliyat bo`yicha qimmatli mutaxassis qiladi. Albatta, kasbning nufuzliligi u yoki bu holda Siz

tomoningizdan inobatga olinadi, lekin buni o'zingizning qiziqishlaringiz va qobiliyatlaringiz, sog'lig'ingizning holatini hisobga olgandan so'ng amalga oshiring. Shunday kasblar borki, ular Sizga mos kelmaydi, chunki ular sizning sog'lig'ingizni yomonlashtirishi mumkin. Bunday kasblar ko'p emas va ular asosan u yoki bu jismoniy tizimlarning uzoq muddatli zo'riqishini talab etadi. O'zingiz tanlamoqchi bo'lgan kasbning mohiyat va mazmunini o'rganib chiqing. Shu kasb bilan kunma-kun uzoq yillar davomida shug'ullanishingiz lozimligini ko'z oldingizga keltiring. Kasb tanlashda va hayot tarziga aniqlovchi ta'sir ko'rsatishda, ya'ni lavozimga erishishda har bir inson o'zining kelajakdagi kasbiy mehnatini fuqarolik majburiyati sifatida anglashi, o'z mamlakatining va o'z oilasining manfaatlari yo'lidagi hissasi, davlatning va otionalarning bizning o'sib ulg'ayishimizga va o'qishimizga sarflagan xarajatlarini qaytarish sifatida anglashimiz lozim.

Kasb tanlashda ikkilanishlar mavjud bo'lgan o'quvchilar ishtirokida quyidagi mashg'ulotlarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

“Siz o'zingizning bo'lajak kasbingizni bilasizmi?”

Mashg'ulot maqsadi: Shaxsiy kasbning shakllanishini o'rganish

Mashg'ulotning borishi: Qatnashchilarga qog'oz va qalam tarqatiladi, Ishtirokchilar agar tanlagan kasblari bo'lsa, qog'ozning yuqori qismiga yozishlari taklif etiladi, hali biror bir kasbni tanlamagan bo'lsa, o'ziga yoqqan biror kasbni yozish taklif etiladi., shundan keyin qatnashchilardan quyidagi anketa bo'yicha savollarga “ha” yoki “yo'q” deb javob berishlari talab qilinadi. Javoblarni qog'ozning pastki qismiga yozish taklif etiladi.

Tanlagan kasbingiz mazmun-mohiyatini bilasizmi?

Tanlagan kasbingiz bo'yicha qaysi o'rta maxsus ta'lim muassasasida ta'lim olish kerakligi haqida bilasizmi?

Kasbni egallash uchun iqtidor, qobiliyatingiz yetarli mi?

Tanlagan kasbingiz uchun bilimingiz yetarli mi?

Tanlagan kasbingiz uchun, o'quv fanlarini chuqur o'zlashtirish kerak?

Tanlagan kasbingiz bo'yicha mehnatga qarab haq to'lash va malakangiz oshirish lozimligi haqida bilasizmi?

Agarda anketaning 40-60 % javoblari yaxshi natijaga ega bo`lsa, o`z oldiga qo`yilgan maqsadga erishilgan hisoblanadi. Agarda qoniqarsiz javob bo`lsa, individual maslahatlar olishingizni maslahat beramiz.

Psixoprofilaktik o`yin “Kasblar zanjiri”

Mashg`ulotning borishi: Hozir biz sizlar bilan “Kasblar zanjiri”ni hosil qilamiz. Men birinchi kasbni aytaman, siz esa, o`xshashlik tomoni bor bo`lgan navbatdagi kasbni aytib o`yinni davom ettirasiz.

Masalan: elektrik kasbiga o`xshashlik tomoni bo`lgan oshpaz kasbi, eng asosiysi, ishtirokchilar kasblar o`rtasidagi o`xshashliklarni aytishi va boshqalar uni tushunishi kerak. Misol uchun, elektrik bilan oshpaz kasbining o`xshashlik tomonlari, ikkalasi ham yuqori haroratli pechlarda, o`t bilan ishlaydi.

Olib boruvchi navbat bilan quyidagi yo`nalishda aniqlovchi savollarni o`rtaga tashlaydi: “Sizlar aytayotgan kasblarning, oldingi aytilgan kasblar bilan o`xshashlik tomonlari bormi?” Bunda shu narsa ko`zda tutiladiki aytilgan kasbning to`g`riligiga, guruh qatnashchilari tomonidan ishonch hosil qilinishi kerak. O`yinni muhokama qilish vaqtida, qatnashuvchilar diqqatini turli xil kasblar o`rtasida umumiy o`xshashliklar uchrashi mumkinliiga jalb qilish kerak. Agar o`quvchilar kasblar o`rtasidagi o`zaro o`xshashlikni tahlil qilishni o`rganishsa, bu o`yinning natijalari bo`layotganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.T.Ergasheva “Kasblar alifbosi” Toshkent 2008
2. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev “Ta`lim-tarbiyada innovatsion texnologiyalar” T. Nihol 2016

O'QUVCHILARNING MAKTABGA MOSLASHISH DAVRI MUAMMOLARIDA MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGINING PSIXODIAGNOSTIK-PSIXOPROFILAKTIK ISHLARNI OLIB BORISHI

Yuldasheva Mastura Taxirovna
Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani 18-maktab psixologi

Annotatsiya. Birinchi marta maktabga qadam qo'yadigan birinchi sinf o'quvchilarining maktabga borganda maktab talablariga sharoitlariga moslashish uchun ma'lum vaqt kerak bo'ladi. Amalda moslashish vaqti hamma bolalarda ham bir xilda samarali o'tmasligi mumkin. Ushbu maqolada mana shunday kichik bolalarning katta muammolari va ularga yechimlar, tavsiyalar to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Moslashuv, kichik maktab yoshi, o'quv jarayoni, dars, diqqatsizlik, o'qituvchi, vazifalar, yechim

Bugungi kunda o'quvchining maktabda moslashishdagi qiyinchiliklar faqat ota-onalar arzlaridagina emas, balki o'qituvchilarning o'quvchilarga berayotgan xarakteristikalarida ham qayd etilmoqda. Masalan, ota onalar bolaning maktabga borishi, uy vazifasini bajarishni xohlamayotganini, uning tutqich bermasligi, juda asabiy bo'lib qolganini aytishsa, o'qituvchilar bu bolalarning darsda diqqatsizligida tartibsizligida, tengdoshlari bilan tez-tez aytishib qolishlariga e'tibor berishmokka. Bunday bolalarda asabiy ruhiy buzilish, psixik rivojlanishda orqada qolish vujudga keladi. Bolalar maktabda o'qishga qanchalik tayyor bo'lmasalar, maktabda moslashish davri shunchalik qiyin va uzoq o'tadi.

Psixologlar bolani maktabda o'qishga tayyor, deganlarida uning jismoniy, psixologik va shaxsiy tayyorgarligini nazarda tutadilar. Ta'limning dastlabki oylarida maktab psixologining birinchi sinf o'quvchilari bilan olib boradigan asosiy ishlari quyidagilardan iborat: a) maktabga moslashishga qiynalayotgan bolalarni aniqlash; b) bu bolalarga psixologik yordam ko'rsatish. Bu vazifani bajarish uchun bolani maktabga moslashishdagi qiyinchilik ko'rsakichlarini aniqlash lozim. Ko'rsatkichlar quyidagicha bo'lishi mumkin: 1) O'quv materialini o'zlashtirishda; 2) O'qituvchi talablarini

bajarishda qiynalish, o`quv vazifalarini bajarishda ixtiyoriylik xususiyatlari harakat aktivligining o`zgarishi, bolaning emotsional xususiyatlari, o`qishga, maktab hayotiga qiziqishlari, o`qituvchi va tengdoshlari bilan muloqotga erishishlaridagi qiyinchiliklaridir. Bolani har tomonlama psixologik tayyorlab, keyin u bilan olib boriladigan tuzatish ishlarini ko`rsatishi mumkin. Maktablarda "Moslashish" sinflarining ochilishi bu muammoni hal qilishga oz bo`lsada imkon beradi. Psixolog tuzatish 11 metodlarini rejalashtirayotganda bolani maktabga moslashishiga ijobiy ta`sir etadigan faktorlarni, ya`ni o`quvchining o`zini to`g`ri baholashi, oilada to`g`ri tarbiyalanishi oiladagi kelishmovchiliklarning bartaraf etilishi, tengdoshlar orasida bolani hurmat qozonishini hisobga olish lozim. Maktab psixologining o`zlashtira olmovchi boshlang`ich sinf o`quvchilari bilan olib boradigan ishlari. uning faoliyatidagi amaliy yo`nalishi tashkil etadi. Psixolog bunday o`quvchilar bilan olib boradigan ishining asosiy yo`nalishlari haqida gapirishdan oldin o`zlashtira olmaslik sabablarini ko`rib chiqamiz. Maktabgacha yosh davridan maktab yoshi davriga o`tish ancha qiyin kechadigan davrdir. etti yoshdagi qiyinchilik bu shunday keskin burilish yoshini unda maktab yoshining barcha davrlari o`z ifodasini topadi. Odatda maktabda borish bilan bog`liq bo`lgan qiyinchiliklar va muammolar quyidagilardan iborat. Yangi o`quv tartibi bilan bog`liq bo`lgan qiyinchiliklar: 1. Bunday qiyinchilik ko`proq maktabgacha tarbiya muassasalariga bormagan bolalar uchun xosdir. 2. Bolaning sinf jamoasiga moslashuvdagi qiyinchilik. Bu holat bolalar jamoalariga etarli darajada ishtirok etmaganlarida ko`proq uchraydi. 3. O`qituvchi bilan o`quvchi munosabatlarida yuzaga keladigan qiyinchiliklar. 4. Bolaning oilaviy sharoiti o`zgarishi bilan bog`liq bo`lgan qiyinchiliklar. Bu qiyinchiliklar bola rivojlanishning yangi ijtimoiy sharoitlarida asta - sekin o`z ifodasini topadi. Psixologlar maktabdan psixogen buzilish bolalar sinfda o`qishdagi qiyinchiliklarning asosiy xususiyatlaridan biri deb ko`rsatadilar. O`qituvchi bolalarda uchraydigan har qanday qiyinchilikni uning o`zlashtirishi bilan bog`laydi. Bunda bolani baholash odatdagidek o`ziga xos shaklda bo`ladi, a`lochi, demak, yaxshi o`quvchi, past baho olsa – yomon o`quvchi. Masalan, maktabda yomon o`zlashtirgan o`quvchining ota-onasi chaqirtiriladi, g`azablangan o`qituvchi ularga o`z farzandlariga yomon qarayotganliklarini, yomon tarbiya berayotganliklarini ular bilan kam

shug`ullanayotganliklarini aytib noliydi. Yana ham achinarlisi o`qituvchi sinf oldida yuqori ovoz bilan bolani so`kadi va 12 kamsitadi. Ko`pchilik xatoni eng tajribali o`qituvchilar ham o`zlashtirmasligi sababini o`quvchining dangasaligi, noshudligi, tarbiyasizligi bilan baholashga urinadilar. O`qituvchi o`zlashtirmaslikning haqiqiy sabablari to`g`risida kamdan kam o`ylaydi va tabiiyki, uni bartaraf qilishning o`ziga xos chora tadbirlarini izlaydi. Shuning uchun quyida maktab psixologining boshlang`ich sinf o`quvchilari bilan amalga oshirish mumkin bo`lgan psixologik tuzatish ishlarininng ayrim jihatlarini ko`rib chiqamiz. Misol tariqasida E.L.Yakovlevaning tomonidan taklif etilgan tuzatish dasturini havola qilamiz. Yozilgan so`zlarni tahlil qilish, ulardagi harflarni ko`rish uchun bolalarga diqqat qilish o`yinlari taklif qilinadi. Bu o`yin asosida sinash, tuzatish testi yotadi. Buning uchun katta shrift harflarida bosilgan eski ertak kitoblari olinadi. Bolalarga 5 minut davomida uchragan a harfini chizish taklif etiladi. Bunda bola 4 va undan ortiq a xarfini qoldirsa yutkazadilar, agar kam qoldirsa yutadilar, degan shart qo`yiladi. Yutganlar rag`batlantiriladi. O`yinni har kuni o`ynagan ma`qul, yutuqlar natijasi esa, bir haftada bir marta e`lon qilinadi va g`olib takdirlanadi. Topshiriqni birbiriga qo`shni bolalarning o`zlari tekshiradilar. Chunki bu yoshdagi bolalar o`z ishlaridan ko`ra o`zgaralar ishiga juda qiziqadilar. Shunga ko`ra ular sezmay qoldirgan xatolarga ko`ra ularning bir necha minut davomida diqqat e`tiborlarini to`plagan holatlari juda ahamiyatlidir. Natijalar tahlili shuni ko`rsatadiki, 4 haftadan so`ng o`qituvchining "Diqqat-e`tiborli bo`l" degan shiori bolalarda diqqatning to`planishiga xizmat qiladi. O`yin bilan bir vaqtda bolada ona tili darsligidan o`qish ko`rsatmasi beriladi. Bu usul bilan so`z qanday yoziladi va qanday o`qilishi haqida qiyosiy tushunchaga ega bo`ladi. Ma`lumki, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi, diqqatni rivojlanishiga doir mashg`ulotlar o`quvchilarni diqqat-e`tiborli bo`lishga, bilimlarni mustahkamlashga va barcha topshiriqlarni bajarishga o`rgatadi. U mashg`ulotlar quyidagilar: "Aylanalar", "Kvadratlar" , "Uchburchaklar" o`yini, "Muammoni izlashda ziyraklik" va hokazolar. Masalan, "Aylanalar" mashg`uloti. Mashg`ulot maqsadi: o`quvchilarda ijodiy tafakkurning tezligi, o`zgaruvchanligi va o`ziga xosligini shakllantirishdir. 13 O`quvchilarga qo`yiladigan talab, ya`ni beriladigan topshiriq quyidagicha: qo`lingizdagi qog`ozning yuqori qismiga ismi – sharifingiz,

sinfingizni yozing. Sizing vazifangiz qog'ozga aylanalar chizib, ularning ichiga iloji boricha ko'proq rasmlar tasvirlashdan iborat.

Bunda chizgan rasmingizning tagiga nomini yozib qo'ying. O'quvchilar topshiriq bilan tanishtirilgandan so'ng, mashg'ulotni olib boruvchi doskada bir ikkita aylanani chizib, ularni ichiga rasm chizadi va tagida nomini yozib ko'rsatadilar. Ma'naviy-axloqiy, intellektual va jismoniy tarbiya masalalarining talab darajasiga ko'tarilmaganligi, otalar, o'qituvchilarning zarur malakaga ega emasligi, shuningdek, xalq pedagogikasi boy merosidagi bilimlardan to'la xabardor bo'lmaganligidadir. Shu jumladan, turli yoshdagi, ayniqsa, rivojlanishida nuqsonli bolalarni tarbiyalash, o'qitish bolalarni tarbiyalash va o'qitish sifatini ta'minlash uchun, maxsus nutqni rivojlantiruvchi bola bog'cha-maktabini tashkil etish joiz bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nishanova Z.T. Psixologik xizmat-T.: 2005.
2. Nishanova Z., Qurbonova Z., Abdiev S., To'laganova Sh. Psixodiagnostika. – T.: 2008. – 314 b.
3. Psychology.net.ru

PERSPECTIVES USING DIFFERENT TYPE OF LEARNING STYLES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

*Boboxonova Madinaxon Sirojiddin qizi
State Preschool Education Organization №502*

Abstract. Each learner prefers different learning styles and techniques. Learning styles are group of common ways that people learn. By recognizing and understanding own learning styles, learners can use techniques better suited to them. This ameliorates the quality and speed of learning.

Key words : learning styles, visual, aural, verbal, solitary, kinesthetic, tactile, e-learning.

Nowadays the foreign languages are taught as a compulsory subject in all institutions in Uzbekistan. Teaching and learning foreign languages have some specific peculiarities and are required a special teaching program and methodology. Studying of scientific-methodological sources, analyzing of current curriculums and text-books show that the foreign language plays a great role for students in being a high qualified specialist. Today when the number of students learning foreign languages have grown dramatically worldwide, it is becoming increasingly clear the role of the learning styles.

Ellis (1985) described a learning style as the more or less consistent way in which a person perceives, conceptualizes, organizes and recalls information. Sue Davidoff and Owen van den Berg (1990) suggest four steps : plan, teach(act), observe and reflect.

A learning style is the way in which an individual learner tries to learn and study. It includes how he or she approach learning, experience learning and use all of this information or knowledge. Filling in questionnaires and quizzes to determine preferred learning styles can be fun and interesting but will not be effective unless they become part of an ongoing program of learning how to learn for students. How you present something is often as important as what you say.

Students' learning styles will be influenced by their genetic make-up, their previous learning experiences, culture and society they live in.

Researches showed that each person prefers different learning styles and techniques. By recognizing and understanding own learning styles, students can use techniques better suited to them. This improves the quality and speed of learning.

Recent researches show that approximately a third of the learners has a preferred learning style which is visual, a third that is auditory and a third that is kinaesthetic.

There are types of learning styles:

Visual (spatial) – using many visuals while learning. For example, wall displays posters, pictures, images, and flash cards, graphic organizers .

Aural (auditory- musical)- using audio tapes and videos, sound, storytelling and songs. This style of learning allows learners to work in pairs and in a small groups regularly.

Verbal (linguistic)- using words, both in speech and writing.

Physical (kinesthetic) – using body movements, gestures as a memory aid.

Logical (mathematical) – using logic, reasoning and systems.

Social (interpersonal) - to learn in groups or with other people

Solitary (intrapersonal) – to work alone and use self-study

There are four basic types of learning styles. The four most common are visual, tactile, auditory, and kinesthetic. To learn we depend on our senses to process the information around us. Most people tend to use one of their senses more than the others. Some people remember things better if they read or someone tells them. However some of them like to repeat new vocabulary or grammar rules, study them while they are walking or make flashcards. Different people like to learn in different ways. These different ways called learning styles. A learning style is the way a person learns best, understands best and remembers best. Research shows that each learning style uses different parts of the brain. By involving more of the brain during learning, students remember more of what they learn.

In connection with the advancement of information technologies, the view upon the learning styles has changed considerably. When using modern technologies during foreign language classes, authentic language situations are introduced. These emphasize the process of learning and, at the same time, they provide the teacher and the learner with necessary feedback.

Innovation of teaching process enables students and teachers to embrace new ways of learning styles through e-education. From interactive teaching materials to videoconferencing and tablet computers in the classroom, it is changing how students learn and work together. E- learning is what happened when participants learn together in an environment that is enriched by technology. E-learning usually involves interaction between learners and materials, between learners and an instructor, and among the learners themselves. In depth exchanging of information facilitated by e-mail,” chat” and

“discussion” software are commonly used to create the e-learning environment. In e-learning, learners are often responsible themselves for the nature, direction, and timing of the learning so that they are able to integrate personal, work team, and organizational needs into a comprehensive learning program.

Learning styles and preferences vary for every student and in different situations. By understanding this, and developing the skills that help to learn in a variety of ways, students make most of their learning potential. And because they are better able to learn and gather information, they can make right decisions . And by understanding that other people can have different learning styles and preferences, students can communicate their knowledge effectively in a way that many people able to understand. This is very important for students who learn foreign languages.

References

1. What is a learning style. Ellis. 1985.
2. Learning styles and teaching. Submitted by admin . 2010.
3. E- Education : what is it. G. T. Grimes, C. Whitmyer. 1997-2009
4. Lewis, Bedson - Gordon, Lewis., Günther, Bedson., Games For Children, Resource Books For Teachers series editor Alan Maley,1999 (pp.49 - 51)

ЭФФЕКТИВНОЕ ОБЩЕНИЕ С ПОДРОСТКАМИ, С УЧЁТОМ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ПОДРОСТКОВОГО ВОЗРАСТА

*Джаббарова Наргиза Дамировна
Психолог школы № 168 г. Ташкент*

Аннотация: в данной статье раскрывается необходимость информированности родителей и педагогов о правилах эффективного общения с подростками с учётом психологических особенностей подросткового возраста.

Ключевые слова: подростковый возраст, правила, эффективное общение.

Молодежь всегда была и остается в центре внимания государственной политики Узбекистана. Сегодня в нашей стране наблюдаются широкомасштабные реформы во всех сферах, полный ход работ по устранению нарастающих проблем в обществе, проблем условий для согласованного развития и воспитания молодежи.

Слова Президента РУз Ш.Мирзиёева: «Мы поставили перед собой великую цель - формирование фундамента Нового Ренессанса в нашей стране, и с этой целью должны создать среду и условия для воспитания новых Хорезми, Беруни, Ибн Сино, Улугбеков, Навои и Бабуров. В этом историческом процессе важнейшими факторами, неотъемлемой частью нашей национальной идеи являются развитие образования и воспитания, науки и инноваций, утверждение здорового образа жизни» - открывают для молодёжи ещё большие возможности.

Общение с подростками – проблема, с которой сталкиваются практически все, кто непосредственно с ними связан: родители, учителя и т. д. Гормональная «трансформация» ребенка меняет не только его физиологию, но и психику. В результате хороший добрый мальчик или девочка могут резко измениться в обратную сторону. Поэтому очень важно знать, как правильно общаться и вести себя с подростком, чтобы не закрепить эти изменения навсегда. Поскольку меняется не только тело ребенка, но и психика, в том числе и в отношении восприятия окружающего мира, эти изменения настолько масштабны, что подростку очень трудно справиться с ними в одиночку.

Поэтому близкие люди, родители, учителя играют важную роль в жизни подростка в это время. Их правильное поведение и знание эффективного общения с подростком с учетом психологических особенностей возраста зачастую могут значительно сократить «переходный» период и помочь подростку пройти его без осложнений.

Выготский Л.С. предлагает рассматривать подростковый возраст с точки зрения интересов, определяющих структуру направленности реакций. Например, поведенческие особенности подростков (падение успеваемости в школе, ухудшение отношений с родителями и др.) можно объяснить коренной перестройкой всей системы интересов в этом возрасте.

Эльконин Д.Б., подростковым возрастом называет период 11-17 лет, исходя из критериев смены ведущих форм деятельности. Но он делит его на два этапа: средний школьный возраст (11-15 лет), когда ведущей деятельностью становится общение, и старший школьный возраст (15-17 лет), когда ведущей становится учебно-профессиональная деятельность.

Границы подросткового возраста не устанавливаются чётко, у каждого подростка они индивидуальны. Наравне с понятием «подростковый возраст» используется понятие «переходный возраст». В этот период подросток проходит великий путь в своём развитии: Через внутренние конфликты с самим собой и с другими, через внешние срывы и восхождения он может обрести чувство личности. В данном возрастном периоде у ребёнка закладываются основы сознательного поведения, вырисовывается общая направленность в формировании нравственных представлений и социальных установок.

Подросток легко улавливает неправильные или нестандартные формы и обороты речи у своих учителей, родителей, находит нарушение несомненных правил речи в книгах, газетах, в выступлениях дикторов радио и телевидения. Подросток в силу взрослых особенностей способен варьировать свою речь в зависимости от стиля общения и личности собеседника. Для подростков важен авторитет культурного носителя языка. Персональное постижение языка, его значений и смыслов индивидуализирует самосознание подростка. Именно в индивидуализации самосознания через язык состоит высший смысл развития.

Содержанием психического развития подростка становится развитие его самосознания. Одной из важнейших черт, характеризующих личность подростка, является появление устойчивости самооценки и образа «я». Важным содержанием самосознания подростка является образ его физического «я» – представление о своём телесном облике, сравнение и оценка себя с точки зрения эталонов «мужественности» и «женственности». Особенности физического развития могут быть причиной снижения у подростков самооценки и самоуважения, приводить к страху плохой оценки окружающими. Пытаясь утвердиться в новой социальной

позиции, подросток старается выйти за рамки ученических дел в другую сферу, имеющую социальную значимость.

Подростки чаще начинают опираться на мнение своих сверстников. Если у младших школьников повышенная тревожность возникает при контактах с незнакомыми взрослыми, то у подростков напряжённость и тревога выше в отношениях с родителями и сверстниками. Стремление жить по своим идеалам, выработка этих образцов поведения может приводить к столкновениям взглядов на жизнь подростков и их родителей, создавать конфликтные ситуации. В связи с бурным биологическим развитием и стремлением к самостоятельности у подростков возникают трудности и во взаимоотношениях со сверстниками. Упрямство, негативизм, обидчивость и агрессивность подростков являются чаще всего эмоциональными реакциями на неуверенность в себе.

Ситуация развития подростка (биологические, психические, личностно-характерологические особенности подростка) предполагает кризисы, конфликты, трудности адаптации к социальной среде. Подросток, не сумевший благополучно преодолеть новый этап становления своего психо-социального развития, отклонившийся в своём развитии и поведении от общепринятой нормы, получает статус «трудного». В первую очередь это относится к подросткам с асоциальным поведением. Факторами риска здесь являются: физическая ослабленность, особенности развития характера, отсутствие коммуникативных навыков, эмоциональная незрелость, неблагоприятное внешне-социальное окружение. Подростковый период – время активного формирования личности, преломления социального опыта через собственную активную деятельность индивида по преобразованию своей личности, становление своего «я». Центральным новообразованием личности подростка, в этот период, является формирование чувств взрослости, развитие самосознания.

Из опыта работы школьным психологом и общению с учащимися и их родителями нами были сделаны некоторые наблюдения:

По стилю взаимоотношений с детьми родителей можно разделить на три условные группы:

- 1) Мягкие, добрые родители. которые не могут сказать «нет», не могут обидеть ребенка;
- 2) Жесткие родители, которые путем давления на ребенка оказывают воздействие и манипулируют им.
- 3) «Золотая середина».

Каждый родитель знает свою ситуацию и как он общается со своим ребенком в зависимости от своего стиля, заложенного личным опытом и т.д.

В первом случае - это когда мы не можем сказать «нет». Ребенок говорит: «Я все сделаю сейчас, сначала немного поиграю и т.д.» но не делает даже половину из того что было обещано. Мы не можем ничего сказать и делаем все сами, нам легче все сделать самим. Соответственно ребенок приучается к такому варианту, ничего не выполняет из домашних дел и школьных заданий, чувство ответственности у него ослабевает.

Во втором случае - ребенок говорит: «Я делать уроки не буду». На что родитель отвечает: «Не надо мне здесь устраивать самодеятельность, значит тебе не будет того-то и того-то и т.д.». Идут ограничения жестким тоном, идет прямое давление на личность. Ребенок может отказаться делать что-то и начнет скрывать обиду, станет раздражительным, начнет срываться на братьях или сестрах, может замкнуться в себе.

Поведение и реакция зависит от того какой характер, темперамент, личностные особенности у ребенка.

В третьем случае - нужно сделать так, чтобы без конфликта добиться результатов, что бы ребенок и делал уроки, и домашнюю работу и чтобы ему это все было в удовольствие.

Одним из важных условий **«золотой середины»** - это психологическая атмосфера дома! В современных реалиях родители чаще всего работают, заняты домашними заботами, стараниями по улучшению семейных условий.

Желательно было бы семье найти время, собраться всем членам, собрать Семейный Совет, и исходя из ценностей семьи, будучи в состоянии спокойствия, любви, зная правила своей семьи, учитывая индивидуальные особенности ребенка

выработать стратегию семьи: разделить домашние дела для каждого члена семьи, при условии равноправия, в зависимости от возрастных категорий, по тому что нравится делать дома. Обычно порядок в доме регулирует авторитетный и уважаемый всеми член семьи, чаще всего это папа. Всем надо собираться за красивым ужином и авторитетный член семьи сообщит правила семьи: делаем уроки вовремя, иначе мы не можем сесть за игру, и так далее. Самое главное правило - это соблюдение правил семьи! Составляется семейный тайм-менеджмент. Так же обговариваются ограничения ребенка, если не выполняется что-либо. Но необходимо помнить, что навык формируется не сразу, для этого нужно время. Если ребенок пытается игнорировать правила, родитель спокойно должен сообщить, о том что сейчас изменить порядок не получится, потому что у нас есть правила, правила менять мы не будем сейчас, мы договорились их соблюдать. Так же важно что бы правила были гибкие.

Домашние дела чередуются развлечениями и вознаграждениями, а в детстве и юношеском возрасте это игра. Взрослые тоже очень любят играть, игра с детьми поможет расслабиться и позволит всем членам объединиться, договориться и сдружиться сильнее. Время подаренное родителем своим детям даст возможность ребенку не хотеть отказываться от того что просит родитель. Здесь очень важно совместно решить количество времени выделенное для семейной игры и после того как будет выполнены уроки или домашние дела.

Родителю всегда важно помнить о том, что его ребенок «лучший», эта вера и надежда, что «все у тебя получится» делает ребенка внутренне сильным, подсознательно у него закладывается уверенность в себе, развивается сила воли, самодисциплина и самостоятельность.

Родители и дети, учителя и ученики – все мы каждый день взаимодействуем между собой. Будет ли это комфортное общение или постоянные конфликты – зависит только от обеих сторон. Надо помнить о том, что подросток рано или поздно вырастет и станет взрослым. Позже – вступит в брак и создаст свою собственную семью. И тогда он сможет с благодарностью вспоминать о том, как бережно родители и педагоги относились к процессу его взросления, и так же будет

воспитывать уже своих детей. Утверждение независимости, формирование личности, выработка планов на будущее – все это формируется именно в этом возрасте. Одним из важных условий сохранения качественных отношений является информированность взрослых о правилах общения с ребёнком с учётом психологических особенностей подросткового возраста.

Список использованной литературы:

1. Выготский Л. С. Психология подростка // Собр. Соч. В 6-ти т. Т. Детская психология / под ред д. Б. Эльконина. М.: Педагогика 1984. 132с.
2. Петровский А. В., Ярошевский М. Г. «Психология», Москва, 2000г.
3. Эльконин Д.Б. К проблеме периодизации психического развития в детском возрасте// Вопросы психологии, 1971, № 4. 6с.
4. Немов Р.С. Психология // В 3 кн. - Издание 4-е, М: Гуманитарный, 2003. Кн. 1: Общие основы психологии. - 688с.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BILISH JARAYONLARI FAOLLIGI VA RIVOJLANISHTIRISH YO'LLARI

Azizova Malika Abduvaliyevna
Toshkent shahar Chilonzor tumani 265-DMTT ingliz tili o'qituvchisi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni hali birbiridan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam beradigan o'yinchoqlar, rangli kiyimlar, rangli xalqalar, qutichalar va shu singari o'yinchoqlar berish maqsadga muvofikdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar turli narsalarni idrok qilishda ularning ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga (rangi va shakliga) asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qila olmaydilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalarning yordami bilan suratlarini analitik ravishda idrok qilish qobiliyatiga ega

bo'ladilar. Bolalar suratlarini idrok qilayotganlarida kattalar turli xil savollar bilan ularni tahlil qilishga o'rgatishlari lozim. Bunda, asosan, bolalar diqqatini:

1. Suratning mazmunini (syujetini) to'g'ri idrok qilishga;
2. Suratning umumiy ko'rinishida har bir tasvirlangan narsalarning o'rnini to'g'ri idrok qilishga;
3. Tasvirlangan narsalar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri idrok qilishga qaratish kerak.

Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo'ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati benihoya kattadir. Maktabgacha yoshdagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o'sib borishi uchun o'yin juda katta ahamiyatga ega. O'yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarini ilgari suradilar. Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning o'z oldiga qo'ygan yangi talablari asosida takomillasha boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasi ko'rgazmali, obrazli bo'lishi bilan xarakterlidir. Bolada ko'proq ixtiyorsiz esda qoldirish va ixtiyorsiz esga tushirish ustunlik qiladi. Bola so'zlarni hech qanday ma'nosiz takrorlayveradi. Ammo keyinchalik, kattalarning ta'sirida, ixtiyoriy esda qoldirish ham asta-sekin rivojlana boradi. Bola ravshan va emotsional rang-barang materialni oson esda qoldiradi. Uch yashar bola taassurotlarini bir necha oy davomida esda saqlab tura olishga qodirdir. Xotiraning o'sishiga o'yinlar, turli mashg'ulotlar, she'r yodlash, ertak va hikoyalar aytish hamda sayr paytida kuzatish ishlarini olib borish yordam beradi. Ushbu Yoshdagi bolalar yangi so'zlarni ham, hatto chet tillardagi so'zlarni ham osongina eslab qoladilar. Lekin, bolalar materialni oson esda qoldirsalar ham, ular ko'pining ma'nosiga yaxshi tushunmaydilar va ulardan nutqda foydalanishga qiynaladilar. Kattalarning vazifasi bolalarning mumkin qadar ko'proq so'zlarni va tasavvurlarni eslab qolishigagina emas, balki ular uchun tushunarli, foydali bo'lgan turli bilimlarni egallashiga erishishdan iborat. Bolalar bu xildagi bilimlardan o'z o'yinlarida, rasmlarida, ustozlari yoki kattalar bilan suhbatda foydalanadilar, bu bilimlar ularning aqliy va axloqiy o'sishlari uchun xizmat qiladi. Maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ustunligicha qolaveradi. Masalan, bola juda berilib ertak eshitayotgan bo'lsa ham, xonaga birov kirib

qolsa, uning diqqati ixtiyorsiz shu ertakdan chalg'iydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlari uchun ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurotlar qoldiradigan va ularni qiziqtiradigan narsalarni beixtiyor eslarida olib qoladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Tafakkur bolaning bog'cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi rivojlangan bo'lishi, uchinchidan esa, bog'cha yoshidagi bolalarning erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug'ilishi, ular tafakkurining faollashayotganligidan darak beradi. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik so'na boshlaydi. Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish, hayron qolish va natijada turli savollarning tug'ilishi tufayli paydo bo'ladi. Ko'pgina ota-onalar va ayrim tarbiyachilar agarda bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar, «ko'p mahmadona bo'lma», «sen bunday gaplarni qaerdan o'rganding», deb koyib beradilar. Natijada bola o'ksinib, o'z bilganicha tushunishga harakat qiladi. Ayrim tortinchoq bolalar esa hech bir savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg'ulotlar va sayohatlarda kattalarning o'zlari ham savol berishlari va shu bilan ularni faollashtirishlari lozim. Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. Shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deb ataymiz. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar tabiatga qilingan sayohatlarda turli narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydilar, analiz hamda sintez qilib ko'rishga intiladilar. Agar 2 yashar bolaning so'z boyligi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo'lsa, 3 yashar bolaning so'z boyligi 1000 tadan 1200 tagacha, 7 yashar bolaning so'z zahirasi 4000 taga etadi. Demak, bog'cha Yoshi davrida bolaning nutqi ham miqdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining o'sishi oilaning madaniy saviyasiga ham ko'p jihatdan bog'liq. Kattalar bolalar nutqini o'stirish bilan shug'ullanar ekanlar, Maktabgacha yoshdagi bolalarning ba'zi hollarda o'z nutq sifatlarini to'la idrok eta olmasliklarini unutmashliklari kerak. Bundan tashqari, bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir-biridan farq qilish qobiliyati ham hali

to‘la takomillashmagan buladi. Tili chuchuklikni tuzatishning eng muhim shartlaridan biri, bola bilan to‘la va to‘g‘ri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir. Qolaversa, bu yoshdagi bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot motivlari - bu bolani tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog‘liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan motivlardir. Bu motivlarga asta-sekinlik bilan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash bilan bog‘liq bo‘lgan o‘qish motivlari qo‘shiladi. Bu motivlar ilk bolalik davridan boshlanib, yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi o‘rnida paydo bo‘ladi. O‘zini namoyon qilish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu motiv, asosan, bolalarning syujetli-rolli o‘yinlarida asosiy rolni egallashga, boshqalar ustidan rahbarlik qilishga intilishda, musobaqaga kirishishga, nima bo‘lganida ham yutishga harakat qilishlarida ko‘rinadi.

Maktabgacha Yosh davri bolalari uchun kattalar beradigan baho juda muhim. Bolalar birinchi navbatda ma‘naviy axloq me‘yor va qoidalarini, o‘z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish me‘yorini egallaydilar. Bunday me‘yorlarni egallash bu Yoshdagi bolalar uchun qiyin hisoblanib, ularni yaxshi o‘zlashtirishi uchun syujetli-rolli o‘yinlar yordam berishi mumkin. Bog‘cha Yoshining oxirlariga kelib, ko‘pchilik bolalarda aniq bir axloqiy qarashlar tarkib topadi, Shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy sifatlar jumladan: kishilarga nisbatan diqqat-e‘tiborli, mehribon bo‘lish xususiyati ham shakllanadi. Katta Yoshdagi bolalar ko‘p hollarda o‘z xatti-harakatlari sabablarini tushuntirib bera oladilar.

3-3,5 Yoshlar oralig‘ida bolalar o‘zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o‘z munosabatlarini bildiradilar va bu munosabat, asosan, ularning o‘zlariga beradigan yuqori baholari asosida shakllanadi. 4 Yoshli bolalar esa o‘z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin, 4-5 Yoshli bolalar hali shaxsiy xususiyatlarini idrok etishga va baholashga qodir emaslar, Shuningdek o‘zlari haqida ma‘lum bir xulosani bera olmaydilar. O‘z-o‘zini anglash layoqati katta bog‘cha Yoshidan rivojlanib, avval u qanday bo‘lganini va kelajakda qanday bo‘lishini fikrlab ko‘rishga harakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan «Men kichkina paytimda qanday bo‘lgan edim?», «Men katta bo‘lganimda kanday bo‘laman?» singari savollarida ko‘rinadi. Kelajak haqida

fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqlli va boshqa qimmatli insoniy fazilatlarga ega bo'lishiga harakat qiladilar.

Kichik va o'rta bog'cha Yoshida bola xarakterining shakllanishi davom etadi. U asosan, bolalarning kattalar xarakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi. SHu yillardan boshlab, bolada ahamiyatli hisoblangan - iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi ahamiyatli shaxsiy xususiyatlar rivojlana boshlaydi. Katta bog'cha Yoshida bola atrofidagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o'rgana boshlaydi. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan muloqotga kirisha olishida, ish bo'yicha va shaxsiy munosabatlarini samarali o'rnata olishida foyda keltiradi. Bolaning atrofidagi kishilar bilan bo'lgan munosabatlari, asosida turli xil motivlar yotadi. Bularning hammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intellekti, balki axloqiy motivatsion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalar bilish jarayonlarining faolligini yaxshilashda ota- ona va tarbiyachilarning o'rni, ma'suliyatni his qilish, ularga vaqt ajratish nihoyatda muhim bo'ladi. Bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir. Shuningdek, bu yoshdagi bolalardagi xayoli ham asosan, ularning turli-tuman o'yin faoliyatlarida o'sadi. Biroq, shu narsa diqqatga sazovorki, agar bog'cha yoshidagi bolalarda xayol qilish qobiliyati bo'lmaganda edi, ularning xayoli ham xilma-xil bo'lmas edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G`oziyev E.G`. Psixologiya(Yosh davrlari psixologiyasi). T., O`qituvchi,1994.
2. Davletshin M.G., Do`stmuxamedova Sh.A., To`ychiyeva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004 y.

O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY TIZIMI

G`ulomova Malohat Ochildiyevna

Toshkent shahar Chilonzor tumani 37-DMTT ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya. Maktabgacha ta`lim uzluksiz ta`limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta`minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta`lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta`lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta`limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta`limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta`lim , Ota-ona, oila , bola, tarbiya, faoliyat, muammo, yechim.

Maktabgacha ta`lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish maktabgacha ta`lim muassasasi hamda shtatdagi tibbiyot xodimlari, shuningdek maktabgacha ta`lim muassasasiga birlashtirilgan sog'liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta`lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi va qoidalari, maktabgacha ta`lim muassasasiga bolalarni olib kelish va olib ketish qoidalari, maktabgacha ta`lim muassasasi binolarida xavfsizlikni tashkil etishga oid talablar, maktabgacha ta`lim muassasasida yong'in xavfsizligini tashkil etishga oid talablar, hudud xavfsizligiga bo'lgan talablar “Maktabgacha ta`lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom” bilan tartibga solinadi.

Maktabgacha ta`lim muassasalari – O'zbekiston Respublikasidagi ta`lim muassasalarining turi bo'lib, turli yo'nalishdagi maktabgacha bo'lgan davrdagi umumta`lim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha ta`lim muassasalari 2 yoshdan 7

yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etish tartibi, faoliyatini tashkil etish va butlash, hamda maktabgacha ta'lim muassasasining mol-mulki va pul mablag'lari, javobgarligi, boshqaruvi va ta'lim jarayoni qatnashchilari to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni "O'zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida Nizom" dan olishimiz mumkin.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalarining zamonaviy tizimi

Maktabgacha ta'lim muassasalari, faoliyat yo'nalishiga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi:

- Bolalar yaslisi, bolalar yasli bog'chasi, bolalar bog'chasi, uydagi bolalar bog'chasi (mustaqil muassasa yoki filial sifatida).

Maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'lim muassasasi (bolalar bog'chasi-maktab).

- Tarbiyalanuvchilarni bir yoki bir nechta yo'nalishda (til, badiiy estetik, sport va boshqalar) tarbiyalovchi maktabgacha ta'lim muassasalari.

- Tarbiya jismoniy va ruhiy rivojlanishdagi og'ishlarni kvalifikatsion yaxshilovchi tiklovchi turdagi bolalar bog'chasi.

- Tibbiyot gigiena, profilaktika va sog'lomlashtirish, tadbir va proseduralarini amalga oshiruvchi zaiflashgan bolalarni nazorat qilish va sog'lomlashtirish bog'chasi.

- Birlashtirilgan turdagi bolalar bog'chasi (birlashtirilgan turdagi bolalar bog'chasiga rivojlantiruvchi, tiklovchi va sog'lomlashtiruvchi guruhlar umumlashtirilgan ko'rinishda kiradi).

- Bolalarni maktabda o'qishga maqsadli va tizimli tayyorlash;

Bolalarning shaxsiy qobiliyatlari va iste'dodlarini rivojlantirish;

- Bolalarni milliy, umuminsoniy va madaniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolani intellektual rivojlantirish;

- Bolalarda yuqori ma'naviy va odob axloq asoslarini shakllantirish;

- Bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini mustahkamlash. Maktabgacha ta'lim maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy va xayriya tashkilotlari, mahalla, xalqaro fondlar faol ishtirok etadilar.

- O'zbekistonda maktabgacha ta'lim davlat tilida hamda qoraqalpoq, rus, tojik, qirg'iz, qozoq va turkman tillarida olib boriladi.

- Maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'lim muassasasi (bolalar bog'chasi-maktab).

- Tarbiyalanuvchilarni bir yoki bir nechta yo'nalishda (til, badiiy estetik, sport va boshqalar) tarbiyalovchi maktabgacha ta'lim muassasalari.

- Tarbiya jismoniy va ruhiy rivojlanishdagi og'ishlarni kvalifikatsion yaxshilovchi tiklovchi turdagi bolalar bog'chasi.

- Tibbiyot gigiena, profilaktika va sog'lomlashtirish, tadbir va proseduralarini amalga oshiruvchi zaiflashgan bolalarni nazorat qilish va sog'lomlashtirish bog'chasi.

- Birlashtirilgan turdagi bolalar bog'chasi (birlashtirilgan turdagi bolalar bog'chasiga rivojlantiruvchi, tiklovchi va sog'lomlashtiruvchi guruhlar umumlashtirilgan ko'rinishda kiradi).

Sayyoramizdagi tinchlik uydan, oiladan boshlanadi. Insoniyatni komil inson qilib, ularni baxtli etgan, yuksaklikka yetaklagan bu - yaxshi tarbiyadir. Tarbiyaning bosh maqsadi – yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda, xalqning boy milliy-ma'naviy, tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda unutilmas qadriyatlariga asoslanib tashkiliy ijtimoiy – psixologik shakldagi vositalarni ishlab chiqish va uni amalda joriy etish borasida soha mutahassislaridan yanada mas'uliyat talab etadi. Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi, uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va boshqalar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o'zaro hamkorlikning ta'sir doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta'minlash katta ahamiyatga ega. Tarbiya kishilik jamiyati paydo bo'lishi bilan boshlandi va rivojlanib bordi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom" 2017-yil

2. Inomova O. «Farzand-nihol, ota-ona bog'bon» Toshkent, «O'qituvchi» 1994 y

3. Inomova O. «Oila tarbiyasida milliy xususiyatlarni hisobga olish» «Xalq ta'limi» jurnali. Toshkent, 2004 y, 5-son, 56-58 b.

4. [http: www.lib.psichology.msu.ru](http://www.lib.psichology.msu.ru)

5. ziyonet.uz

INGLIZ TILINING DUNYO HAMJAMIYATIDA TUTGAN O`RNI

Ximmatova Nasiba Panji qizi
Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani 20-sonli
Shirintoy MTT ingliz tili o'qituvchisi

Hozirgi kunda ingliz tili o'ziga xos mavqega ega va lingua franca - butun insoniyatning millatlararo muloqot tiliga aylanib bormoqda. Ammo yarim asr oldin ingliz tili xalqaro tillardan biri edi.

Bugungi kunda ingliz tili nafaqat Evropada, balki butun dunyoda millatlararo muloqot tili mavqeini mustahkamladi. Afrikaning bir qator mamlakatlaridagi fransuzlar, sobiq Sovet Ittifoqi mamlakatlaridagi ruslar kabi boshqa tillar o'z mavqeini saqlab turadigan mintaqalar hanuzgacha mavjud. Shu bilan birga, xalqaro aloqalarda ingliz tilidan kengroq foydalanish tendentsiyasi mavjud. Hozirgi kunda ingliz tili O'rta asrlarda Evropada Lotin tili o'ynagan rolni o'ynaydi.

Zamonaviy dunyoda ingliz tilining rolini o'rganar ekanmiz, zamonaviy ingliz tilining bir nechta variantlari mavjudligini ta'kidlash joiz, ammo ularning orasida ikkitasi alohida mavqega ega, bular: Britaniya va Amerika variantlaridir.

Amerika va Britaniya versiyalari har xil til emas, bular zamonavit ingliz tilning ikki variant hisoblanadi, nutq jarayonida ularning rivojlanishining umumiy qonuniyatlari o'rtasidagi farqlarni aniqlash muhimdir. Britaniya versiyasining ahamiyati va zamonaviyligi, an'anaviy ravishda dunyoning aksariyat mamlakatlarining ta'lim tizimida o'quv predmeti sifatida ishlatilishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, hududiy jihatdan ingliz tilining rivojlanishi va qo'llanilishi bir xil bo'lolmaydi. Fonetik va leksik xususiyatlarning butun qatori Angliya, Kanada, Avstraliya va boshqalarning rezidentlari nutqi bilan ajralib turadi, ammo bu xususiyatlar deyarli og'zaki nutqda bir-birini

tushunishga xalaqit bermaydi va yozma nutqda umuman aralashmaydi. Adabiy ingliz deb ataladigan tushuncha ham shunday. Ingliz tili asosida shakllangan soʻzlarning eng muhimi: pidgin-inglizcha (pidgin english) - 18-asr boshlarida paydo boʻlgan, Xitoy, Yaponiya va Kaliforniyada keng qoʻllanilgan; bichlamar (beach-la mar) - Tinch okeanining orollarida ishlatiladi; Cru English (kru-inglizcha) - Liberiya va Gvineyada ishlatiladi.

Filipp Derkin, Oksford inglizcha lugʻatini yaratuvchisi, ingliz tilini shakllantirgan beshta hodisani tanlab oldi.

Anglo-Sakson aholi punkti.

Aniq bir til qachon paydo boʻlganini aniqlash har doim ham qiyin, lekin ingliz tilida biz hech boʻlmaganda bu alohida hodisa sifatida paydo boʻlgani xususida mulohalar yuritishimiz va bu haqda gapirishning mantiqiy ekanligini aytishimiz mumkin. Bu davr haqida aniq bir narsa deyish juda qiyin, ammo biz aniq bilamizki, nemis bosqinchilari Buyuk Britaniyaga beshinchi va oltinchi asrlarda Evropaning shimoliy-gʻarbiy sohilida Buyuk Britaniyada joylashdilar va joylashdilar. Ular nemis tillarida gaplashdilar (keyingi golland, friz, nemis va skandinaviya tillariga), ammo biz ularning nutqi qoʻshnilarining nutqidan qanchalik farq qilganini hech qachon bilmaymiz. Shunisi eʼtiborga loyiqki, koʻchmanchilar bir xil tilda gaplashishlari mumkin. Ushbu davrning lingvistik holati toʻgʻrisida juda kam maʼlumotga ega boʻlishning sababi, oldingi davrlarning german tillariga bagʻishlangan yozma arxivlar yoki hujjatlar yoʻqligi. Turli lahjalar paydo boʻlishi, unchalik ahamiyatli boʻlmasa-da, VII-IX asrlarga oid hujjatlarni koʻrish mumkin. Ularning barchasi IX asrda Buyuk Alfred ingliz deb nomlagan tilga tegishli edi.

Keltlar Angliya-Saksonlar paydo boʻlganda allaqachon Britaniyada oʻrnashib olishgan. Ularning tili zamonaviy ingliz lugʻatida katta iz qoldirdi. Baʼzi olimlar Keltlar uning grammatik rivojlanishiga, ayniqsa mamlakatning ayrim qismlariga taʼsir koʻrsatgan deb taxmin qilishadi. Qadimgi ingliz tilidan olingan soʻzlar soni juda oz. Masalan, brok (boʻrsiq) - boʻrsiq.

Skandinaviyadagi aholi punktlari.

Keyingi bosqinchilar skandinaviyaliklar edi. IX asrning oʻrtalaridan boshlab, norveg bosqinchilari Britaniyada, asosan shimoliy va sharqiy mintaqalarda joylashdilar

va XI asrda Daniya qiroli Canute ingliz taxtiga o'tirdi. Skandinaviyaliklarning nutqi ingliz tiliga katta ta'sir ko'rsatdi, buni ularning tillaridan olingan so'zlardan ko'rish mumkin. Ularning orasidagi o'xshashliklar qadimgi ingliz va bosqinchilarning tili o'rtasida umumiylik bo'lgan degan ma'noni anglatadi. Ba'zi so'zlar, masalan, berish, ingliz va skandinaviya tillarining grammatik tuzilishlarining o'ziga xos "kesishishi" ni ko'rsatadi. Va ularning orasidagi o'xshashliklar juda katta bo'lsa-da, aksariyat hollarda so'zning kelib chiqishini aniq aniqlash mumkin emas. Biroq, bu ta'sir keyingi yirik tarixiy va madaniy inqilob - Norman istilosi oxirigacha yozma tilda aks etmaydi.

Maxsus kuzatishlarimiz va o'tkazilgan tajribamiz asosida quyidagi xulosalarga keldik: o'yin-topshiriqlardan foydalanish chet til o'qitishning amaliy, tarbiyaviy, umumta'limiy va rivojlantiruvchi maqsadlarini amalga oshirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi; o'quvchilarning xorijiy tilda fikr bayon etish(gapirish)ga nisbatan psixologik salbiy kechinmalarini bartaraf etishga imkon beradi, o'quvchilarga mustaqil fikrlashni o'rgatadi, nutq malakalarini egallashni o'zlashtiradi, maqsadga erishish, g'alaba qozonishga undaydi, tilni kommunikativ metodika asosida o'rganishga imkon beradi, barcha o'quvchilarni darsga jalb qilishga, qiziqishlarini yanada orttirishga, dars samaradorligini ko'tarishga salmoqli hissa qo'shadi.

Bilim, ko'nikma va malaka chet til o'rganishda o'ziga xos munosabat kasb etadi va bu o'quv predmetining xususiyatini aks ettiradi. Nutqda fikrni ifodalash yoki ifodalangan fikrni tushunib olish uchun til materialini qo'llay bilish talab etiladi. Bunga erishish uchun til vositalari bilan nutq mazmuni orasida mustahkam va moslashuvchan aloqa, S.Setlin ta'biri bilan, assotsiatsiya o'rnatilishi kerak bo'ladi.

Nutqiy malaka tarkibida til ko'nikma shakllantiriladi. Grammatik ko'nikmani hosil qilish uch bosqichli metodik davr hisoblanadi: 1) taqsimot bosqichi yangi grammatik birlikni tushuntirish (nutq namunasida taqdim etish), tushuntirish va dastlabki grammatik amallarni bajarishdan iborat. 2) grammatikamashqlarini bajarish. Bu bosqich asosan ko'nikma hosil qilishga qaratiladi. 3) grammatik hodisani nutq faoliyati turlarida qo'llanilish bosqichi. Aytilganlardan a'yon bo'ladiki, grammatika bilimlarni singdirish uchun emas, balki ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bolalarda ingliz tili grammatik ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-metodik tavsifini tadqiq qilishdan ko'zlanadigan yagona maqsad ingliz tili grammatikasini o'rgatish modelini kiritishdir. Nazariy model o'quvchilarning inglizcha grammatik ko'nikmalarini takomillashtirish O'zbekistonda uzluksiz ta'lim yosh avlodni yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy hayotga mustaqil moslashish ko'nikmalari hamda istiqbol rejalarini belgilash va hal etish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda hozirgi davr talabida bo'lish ahamiyatlidir. Shuning uchun ham jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy taraqqiyotini o'stirishda chet tillarini yaxshi biladigan yosh avlodni tarbiyalashda chet tili, xususan ingliz tilining o'rni juda katta. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida ingliz tilini o'qitishning maqsadlari jamiyat, davlat manfaatlari hamda talablaridan kelib chiqishi, unga muvofiq kelishi kerak.

Chet til o'qitishning rivojlantiruvchi maqsadi quyidagilarni ko'zda tutadi:

- a) nutqiy qobiliyatning tarkibiy qismlari tinglash, idrok etish, payqab olish, til hodisalarini farqlash, fikrni mantiqli ifoda etish va boshqalar;
- b) nutq faoliyati bilan bog'liq bo'lgan psixik jarayonlar: tafakkur, xotira, diqqat, tasavvur, tahlil va sintez.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hasanboy Rasulov "O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma kitoblari"
2. M.Irisqulov "Tilshunoslikka kirish"
3. Lex.uz

МУНДАРИЖА

Usmonova Iroda Maxamatjonovna	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlar tizimini o'zlashtirish bosqichi	4
G'oziyeva Mahmuda Maxamadjonovna	Boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi bilish jarayonlarining xususiyatlari va rivojlanishi	7
Madiyorova Santalat Sodiqovna	O'smirlardagi inqiroz xolatlari sabab va oqibatlar	11
Азизова Манзура Махмудовна	Стрессдан қутулиш усуллари	14
Haydarova Sayyora Ikromaliyevna	O'spirinlik davrida stress holati va uni bartaraf etishning psixologik jihatlari	18
Oydiyoy Tursunova Nabijonovna	Kichik maktab yoshi inqirozi va uni oldini olish hamda bartaraf etishda psixologik treninglarning ahamiyati	22
Valixanova Ra'noxon Masumovna	Giperaktiv bolalar bilan ishlashning psixologik omillari	26
Сайилова Хотира Янгибоевна	Шахс шаклланишида касбий масъулиятлилиқ ҳиссининг аҳамияти	28
Xurramova Oyjahon Tufliyevna	Mehnat tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlari	32
Qarshiyeva Dilbar G'afurovna	O'quvchilar aqliy tarbiyasini shakllantirishda sharq allomalari qarashlaridan foydalanish	36
Amonova Mamuraxon	Inklyuziv ta'lim jarayonida oila, jamoatchilikning o'rni	39
Meliboyeva Muattarxon	O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish usullari	44
Abdurazzoqova Nodiraxon	O'smirlar davrining psixologik ahamiyati	47
Mirzaliyeva Gulbahor	Konfliktli vaziyatda agressiya va zo'ravonlik	52
Atamurodova Muxabbat	O'smirlardagi kayfiyatning keskin o'zgarishlari – deviant xulq-atvor ko'rsatkichi sifatida	55
Киргизова Рохиля Исакжановна	Ўсмирларда тарбия бузилиши келиб чиқишининг ижтимоий-психологик сабаблари	60
Kirgizova Roxilya Isakjanovna	Bola ruhiyatini shakllanishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	63
Mirzaqulova Xursandoy, Yalgashova Shohista	O'smirlarda stress holatlari va ularni psixokorreksiyasida amaliyotchi psixologning vazifalari	66
Мирзақулова Хурсандой Шавкат қизи	Оилада қизларни мустақил оилавий ҳаётга тайёрлаш муаммолари	69
Irgashova Charos Abduqaxorovna	Shaxsni ijtimoiy psixologik himoya qilish muammolari	73
Irgashova Charos Abduqaxorovna	O'smirlarning kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirishning nazariy psixologik asoslari	77
Hamdamova Mohigul Yigitali qizi	O'smirlar hayotida internet tarmog'idan foydalanish madaniyatining psixologik asoslari	82
Sabirova Gulzira Baxadirovna	Maktab o'quvchilarining kasb tanlashlarida oilaning ahamiyati: ijtimoiy-psixologik muammo sifatida	86
Bekmirzayeva Nilufar Nozimjanovna	Bugungi ta'lim-tarbiya jarayoni va uni yaxshilashning pedagogik – psixologik omillari: muammo va yechimlar	90
Parpiyeva Dildora Foziljonovna	Bitiruvchi o'quvchi-yoshlarining kasbiy tayyorgarligini oshirishning pedagogik-psixologik omillari	93
Alimboyeva Ominaxon Alimjonovna	O'quvchilarda deviant xulqni shakllantiruvchi omillar va ularni bartaraf etishning psixologik asoslari	96
Qurbonova Navbahor Abduraxmonovna	O'smirlar davrining o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va ulardagi qo'rquv holatlarining kelib chiqish sabablarini bartaraf qilish	99

Samandarova Latofat Rahmonovna	Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixik taraqqiyotini o'rganish va ular bilan ishlashda amaliyotchi psixologning o'rni	10
Yusupova Latofat Ravshanovna	Muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishida shaxsning shakllangan sifatleri	106
Хусенова Нодира Тураевна	Вояга етмаганлар ўртасида суицид ҳолатларнинг олдини олиш	108
Yuldasheva Sayyoraxon	Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi	112
Rahmatov Javohir, Gaziyeva Saida	Chet tillarini o'qitish metodlar	115
Jumanazarova Shoira Jongirovna	Tanglik (suitsid) vaziyatidagi bolalarga psixologik yordam	119
Xodjamqulova Raxima	To'garak mashg'ulotlarida ayollar milliy kiyimlarini tikish asoslari	122
Суробова Шаходатжон Соибовна	Бола тарбияси ва унга бўлган психологик ёндашув	127
Abdullayeva Mufazzal Xamidovna	Axborotlashuv jarayonida bolalar xotirasini kuchaytirish va diqqatni rivojlantirish yo'llari	130
Dauletmuratova Marita Yaxiyayevna	Oilaviy munosabatlarning bola shaxsida ijtimoiy-psixologik munosabatlarning shakllanishiga ta'siri	134
Ahmadjonova Xolida Umarjon qizi	Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan psixologik mashg'ulotlar o'tish	138
Қаюмова Наргиза Турдалиевна	Ёшларнинг дунёқараши ва хулқ-атвориға таъсир этувчи ижтимоий психологик омиллари	142
Дадабаева Зулайҳо Юсуповна	Ўсмирлик давриға хос аддиктив хулқ-атвор профилактикаси	147
Ro'ziyeva Dilafruz Rahmat qizi	O'spirinlik davrida stress holati va uni bartaraf etishning psixologik jihatlari	151
Ахмедова Муяссар Хадиматовна, Рахмонов Жаҳонгир Нуржав ўғли	Педагог нутқи психологияси	154
Nozimaxon Saipova Go'furjon qizi	Maktab amaliyotchi psixologi va pedagog jamoaning o'smir yoshdagi o'quvchilar bilan ishlashi bo'yicha tavsiyalar	158
Akaboyeva Gulzor Norqulovna	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida rostgo'ylik xususiyatlarini rivojlantirishda ertaklardan foydalanish	161
Бобур Авлакулов	Ҳозирги ва келажакдаги талабалар ва уларнинг таълим тизимиға таъсири, шахснинг ўз-ўзига баҳоси, мақсад ва моҳият	165
Hamdamova Xurshida To'rabekovna	Notinch hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlariga psixologik xizmat ko'rsatish	170
Mashrapova Xilola Ulmasboevna	O'quvchilar aqliy faoliyatining psixologik xususiyatlari	175
Raximova Nilufar Abduqayumovna	Suiqasd ortidagi psixologik muammolar va uni oldini olish	178
Raximova Nilufar Abduqayumovna	Psixodiagnostik metodikalar va ularning psixometrik mezonlari	182
Ismoilov Akramjon	Badriddin Ayniyning hayoti va ilmiy merosi	185
Mirzakarimova Gulzira Abdujabborovna	Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda mehnat faoliyatining ahamiyati	190
Axmedova Nodira Yusupovna	O'quvchilarni kasb tanlashlariga psixologik ko'maklashish	192

Ахмедова Нодира Юсуповна	Болалар ва ўсмирларда тарбия бузилишининг келиб чиқишида ижтимоий муҳит ва оилавий тарбиянинг ўрни	196
Mamathanova Gulzoda Tursunovna	О'қувчиларини касб-ҳунарга yo'naltirish.	199
Raxmanova Umida Ne'matjanovna	Psixologik xizmatda psixologik muammolari mavjud bo'lgan o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlar	202
Abdullayeva Husnida Turg'inaliyevna	Oilaviy konfliktlarning farzandlarga psixologik ta'siri	206
O'tanboyeva Feruza Abdusamatovna	Ota-onalarning tarbiyaga oid tushunchalarini psixologik rivojlantirishi	210
Urunova Marxabo Kenjaevna	Xulq – atvor va odatlarni shakllanishining psixologik tavsifi	213
Sobirova Zubayda Qo'ziboyevna	Maktab amaliyotchi psixologi va pedagog jamoaningning o'smir yoshdagi o'quvchilar bilan ishlashi bo'yicha tavsiyalar	217
Nurqulova Hulkar Nurullayevna	O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning pedagogik-psixologik muammollari	220
Nurqulova Hulkar Nurullayevna	Kichik maktab yoshi inqirozi va uni oldini olish hamda bartaraf etishda psixologik treninglarning ahamiyati	224
Muhammadjonova Dilnozaxon Obidjon qizi	Maktabgacha yoshdagi bolaning nutqining rivojlantirish normalari	228
Muqimova Dilshodaxon Ismoilovna	Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning axloqiy sifatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar	232
Ergashova Nasiba Ikromjonovna	O'smirlilik davrida o'quvchilarning o'qish faoliyati va bilish jarayonlarining xususiyatlari	236
Ismoilova Dilrabo Zokirovna	O'smirlilik yoshidagi o'quvchilarning xulq-atvor xususiyatlari	239
Asgarova Surayyo	Bola shaxsning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	243
Nortajiyeva Ra'no Nurmatovna	Orzu va maqsad	246
Amanova Oyniso Nursaidovna	Bugungi ta'lim va tarbiya jarayoniga psixologik muhitning ta'siri	248
Ithomxo`jayev Iqbolxo`ja	O'quvchilarni kasbiy mahoratini shakllantirish	252
Рахманова Назира Ботировна	Ўсмирларда оила тўғрисидаги тасаввурлар шаклланишининг психологик хусусиятлари	255
Тожахмедова Камола Мухидиновна	Бошланғич таълим ёшидаги болаларни мактабга мослашувининг айрим психологик жиҳатлари	259
Кенжебаева Доларис Бердимуратовна	Носоғлом оилаларда вояга етмаганлар ўртасида ижтимоий маънавий муҳитни соғломлаштириш	262
Рахмонова Барно Зарифбаевна	Болалар ва ўсмирларда хулқ оғишининг келиб чиқишида оилавий тарбия усулларининг ўрни	266
Soliyeva Yoqutxon Abdullajonovna	O'smirlarning kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirishning nazariy psixologik asoslari	270
Yakubova Dilnoza Karimovna	O'quvchilar bilan o'tkaziladigan individual psixologik suhbat usullari	275
Tojiyeva Gulzoda Raximboyevna	Ўсмирларда кузатиладиган стресс ҳолатларининг ижтимоий- психологик механизмлари	278
Turdaliyeva Hamida Odiljonovna	Xulq og'ishganlik psixologiyasi	281
Saidova Sadoqat Nemonjonovna	O'quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik asoslari	283

Fozilova Shaxnoza Sodiqjon qizi	Мактаб психологи томонидан педагоглар , ota-onalar, o'quvchilarni психологик konsultatsiya qilish.	286
Xudoyberganova Ozoda Quranboyevna	Suiqasd ortidagi психологик muammolar va uni oldini olishda oilaning o'rni	288
Xo'jayeva Xolida Sofoboyevna	Tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashda психолог faoliyatining ahamiyati	292
Расулова Лола Хасановна	Ёшларда оила тўғрисидаги тушунчалар шаклланишининг психологик хусусиятлари	295
Halilova Nozima Sobirjon qizi	Boshqaruv faoliyatidagi nizolar va ularni bartaraf etish yo'llari	299
Бозорова Феруза Абдумажитовна	Замонавий раҳбар имиджи	302
Irisova Gulzoda Abduvahobovna	Rahbarlik uslublari	307
Atahonova Muxayyo	Yoshlarning ma'naviy tasavvurlari shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	310
Saidova Mashhura G'ulom qizi, Kuchkarova Dilfuza Dilmurod qizi	International evaluation in foreign language teaching specifications of programs and standards	314
Muxammadjonov Aliyorbek	Kichik maktab yoshida qobiliyatlarni rivojlantirish	318
Xushvaqtova Aziza Abdulla qizi	Linguistic highlights of the words related to fashion in english and uzbek dialects	320
Mirzakarimova Gulzoda	Ilk yoshdagi bolalarda jismoniy tarbiyaning ahamiyati	324
Абдураимова Наргиза	Фарзанд тарбияси	326
Qurbanova Mohira Saporbayevna	Alisher navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari	327
Mirzaqulova Dilnoza Abdisattorovna	O'quvchilarni kasb tanlashlariga психологик ko'maklashish	332
Исмаилова Шахзода Шермухамедовна	Мактаб психологлари томонидан педагогик жамоага кўрсатиладиган психологик хизматнинг айрим назарий ва амалий асослари	336
Shokirova E'zozaxon Ibrohimovna	Мактабда giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan ishlar va ularni tashkillashtirish: muammo va yechimlar	340
Илхомова Дилфуза Рахматовна	Касб танлаш мотивларининг ижтимоий-психологик Механизмлари	343
Tadjiyeva Xilola Erkinovna	Bola shaxsida salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi tashqi ta'sirlarning психологик-pedagogik asoslari	347
Тўхтаназарова Ноила Мирзаназарова	Ота-оналарнинг ўз болаларига эътиборини кучайтиришнинг психологик аҳамияти	351
Tojiboyeva Odinaxon Xasanovna	O'spirinlik davrida o'zini-o'zi boshqarishga irodaviy sifatlar ta'sirining психологик xususiyatlari	354
Sattarova Xurshidaxon Abduraximovna	Kichik maktab yoshidagi o'quvchining shaxs sifatida rivojlanish xususiyatlarining психологиya fanida o'rganilishi	358
Jo'rayeva Oysara Normurodovna	Bolalarning maktabga психологик tayyorgarligini aniqlashda amaliyotchi психологning roli	361
Nortajiyeva Ra'no Nurmatovna	Oiladagi shaxslararo munosabatlarda bolaning ruhan va jismonan barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga ta'siri	365
Karaqulova Nilufar Abdimajitovna, Norbekova Yulduz Valiboy qizi	Мактаб o'qituvchisining o'z ilmiy, o'quv-uslubiy salohiyatini oshirishning психологик muammolari	368
Ergasheva Surayyo Faxriddin qizi	Talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning психологик jihatlari	372
Jo'rayeva Kamolaxon Mamirjonovna	Farzandlar o'rtasidagi munosabatlar farzandlararo qizg'anish muammosini qanday hal etish mumkin?	375

Raximova Yoqutxon Maxmudovna	Kasbiy stressni yuzaga kelishidagi ijtimoiy-psixologik vaziyatlar	379
Saparova Sayyora	Erta turmush qurushni salbiy oqibatlar	383
Jo'rayeva Sanamxon	Tanglik vaziyatiga tushgan o'smirlarni musiqa terapiya usulida tuzatish	387
Abduraximova Yulduzxon	Bola tarbiyasida ota –onaning ro'li	390
Xojikulova Manzurahon	Yozuvlar orqali insonni xarakterini bilish	392
Бахтиёр Абдусайитов	Талабаларда креатив қобилиятни шакллантиришнинг психологик омиллари	396
Bobaxanova Maxporaxon Djakbarxonovna	Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar xotirasi xususiyatlari	400
Xakimova Dilorom Sodiqjonovna	Boshlang'ich sinflarda zamonaviy texnikalardan foydalanishning ahamiyati va bola psixologiyasiga ta'siri	404
Sharipova Marhabo Odilovna	Zamonaviy psixologiyada axborotlashuv muammolari	408
Rasulova Fayoza Murodullayevna	Ruhiy zo'riqish va uni oldini olishning o'ziga xoslig	412
Hamroboyeva Sevara Nematjonovna	Farzandlar tarbiyasida ota-ona va maktab sog'lom muloqot turmush tarzini psixologik jihatlar	416
Мўминова Жамила	Мулоқотнинг шакллари ва босқичлари	419
Усманова Зулфия Саидаскаровна	Кичик мактаб ёшидаги болаларнинг психик ривожланиши	422
Мирзаева Адибахон Джалолиддиновна	Кичик мактаб ёшидаги уқувчиларда шахсий хислатларнинг таркиб топиши	424
Камалова Муҳайё Шамсиддиновна	Шахсий ва ижтимоий-психологик тайёргарлик	424
Abduvohidova Dilfuza Mashrabovna	Psixologiyada kommunikativ qobiliyatlarni asoslanishi	426
Abdullayeva Zarnigor G'aybullayevna	Bolada salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi tashqi ta'sirlarning psixologik asoslari	429
Мирзавалиева Мафтунахон Зиёдjon қизи	Хулқида оғувчанлиги бўлган ўқувчилар, уларнинг синф раҳбарлари, ота-оналари билан ишлаш бўйича тавсиялар	435
Mirzavaliyeva Maftunaxon Ziyodjon qizi	Bolada salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi ta'sirlarning psixologik asoslari	439
Yormatova Mohira Abdusattor qizi	Bola shaxsini shakllanishida psixologik o'yinlarning ahamiyati	444
Шойсуломова Шахло, Махсудов Бобохон, Шодмонова Маржона	Методика повышения физической и боевой подготовки в учебных заведениях МВД Республики Узбекистан	446
Xolmuratova Xurshida Kalandarovna	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish mazmuni	450
Казақова Муҳайё Аллабергановна	Ўқувчиларнинг касб танлаш мотивларининг ижтимоий-психологик механизмлари	453
Halimova Orzigul Ne'matovna	Maktabgacha yoshdagi bolalarni tengdoshlari bilan bo'ladigan muloqotini o'rganish	457
Гўзал Шарипова	Этническая религиозная толерантность в Малайзии	460
Olga Vasilyevna Shotunova, Feruza Aminovna Turakulova	"Pedagogik texnologiya" fanini o'qitilishiga interfaol metodlar asosida innovatsion yondashuv	465
Olga Vasilyevna Shotunova, Arofat Maxkamovna Isakova	Media madaniyat va media ta'lining mazmuni	468

Тиллаева Гулшода Зоировна	Мактабларда психологик хизмат таълим самарадорлиги омили сифатида	471
Masharipova Salomat Hakimovna	О'quvchi yoshlarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash, buyuk maqsadlari sari olg'a qadam bosish ko'nikmalarini shakllantirish	474
Masharipova Salomat Hakimovna	О'smirlarning kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirishning psixologik asoslari	478
Нарзиев Рашид Абдирайимович	Ўқувчиларда эмоционал зўриқишни юзага келиши ва уни бартараф этиш усуллари	483
Нарзиев Рашид Абдирайимович	Ўйинли технологиялар орқали ўқувчиларда жавобгарликни шакллантиришнинг психологик хусусиятлари	486
So'fiyev Husan Akmalovich	Bolada salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi tashqi ta'sirlarning psixologik asoslari	489
So'fiyev Husan Akmalovich	Bugungi kunda yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari sabab va yechimlar	494
Xafizova Gulsanam Normamatovna	Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tafakkurni rivojlantirish	497
Xojiyeva Mushtariybegim Abdusamad qizi	Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy shakllanishiga bilingvallikning ta'siri	501
Bo'riboeva Nafisa Nurmatjonovna	O'quvchilarda sog'lom tafakkurni rivojlantirishda ijtimoiy muhitning roli	505
Ermatova Nilufar Baxtiyorovna	Kasb tanlashda ikkilanayotgan o'quvchilar bilan ishlash	507
Yuldasheva Mastura Taxirovna	O'quvchilarning maktabga moslashish davri muammolarida maktab amaliyotchi psixologining psixodiagnostik-psixoprofilaktik ishlarni olib borishi	510
Boboxonova Madinaxon Sirojiddin qizi	Perspectives using different type of learning styles in teaching foreign languages	513
Джаббарова Наргиза Дамировна	Эффективное общение с подростками, с учётом психологических особенностей подросткового возраста	516
Azizova Malika Abduvaliyevna	Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlari faolligi va rivojlanishtirish yo'llari	522
G'ulomova Malohat Ochildiyevna	O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalarining zamonaviy tizimi	527
Ximmatova Nasiba Panji qizi	Ingliz tilining dunyo hamjamiyatida tutgan o'rni	530
МУНДАРИЖА		534

